Toshkent davlat
sharqshunoslik universiteti

Toshkent davlat sharqshunoslik
universitetining 105 yilligiga bag‘ishlangan

YOSH SHARQSHUNOSLAR anjumani

Materiallar to‘plami

Toshkent – 2023

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT
SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

YOSH SHARQSHUNOSLAR ANJUMANI

2023-YIL 21-DEKABR

Toshkent – 2023

Ushbu to‘plam Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tashkil etilganligining 105-yillik yubileyiga bag‘ishlanadi.

To‘plamda bakalavriat va magistratura bosqichlarida tahsil olayotgan iqtidorli talabalarning maqolalari o‘rin olgan.

Mas’ul muharrir:
PhD. To‘rayev Laziz

Muharrirlar:
PhD, dotsent. Nuriddinov Nodir
PhD, dotsent v.b. Abbasova Dilfuza
PhD. Uktamova Xilolaxon
PhD. Shamsiyeva Barno
PhD, dotsent Odilov Bobur
PhD. Ikramova Iroda
PhD. Bo‘ronov Suhrob
PhD. Mustapova Hilola

Nashrga tayyorlovchilar:
Y. Kushanova

Maqolalarning mazmuniga ilmiy rahbar
va mualliflar mas’uldir.

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2023

SO‘ZBOSHI

Har qanday mamlakatni tayanchi, uning kelajagi va qudrati bu yoshlar va ularning intellektual salohiyati bilan bog‘liqdir. Ayni paytda yurtimizda aholining 65 % ini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi, bu katta ulushni tashkil etadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda davlat siyosati darajasida yoshlarga katta e’tibor qaratilmoqda hamda keng imkoniyatlar, turli imtiyozlar va yengilliklar berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakatimiz mustaqillik bayramidgi bir nutqlarida “Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish — Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda”,- deb, bugungi avlodni nazarda tutganlari ham bejizga emas. Yoshlarga davlat siyosati darajasida berilayotgan imkoniyatlar yoshlarning o‘z qobiliyatlari, iste’dodlari va iqtidorlarini namoyon qilishlariga zamin yaratadi. Buni Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti misolida ham ko‘rish mumkin. Universitetda tayyorlanayotgan yosh kadrlarga bo‘lgan e’tibor kuchli. Ayniqsa, talaba yoshlarning ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida ko‘plab salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, talabalar uchun tashkil etilayotgan talabalar anjumanlari, konferensiyalari, tanlovlar, olimpiadalar, davra suhbatlari tashkil etilayotgani, yoshlarga o‘z ilmiy salohiyatlarini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Birgina 2023-yilda talabalar uchun universitetda kafedralar va fakultetlar miqyosida talabalar anjumanlari, “Kamolot sari” talabalar konferensiyasi, “Sharqshunoslar anjumani” magistrant va tadqiqotchilarning anjumani, Shoislom Shomuhamedov nomidagi “Yosh Sharqshunoslar”ning an’anaviy VII forumi o‘tkazilib, 500 ga yaqin talaba va magistrantlarni maqolalari tegishli to‘plamlarda nashr qilingan. Sanab o‘tilgan to‘plamlarda bir-biridan qiziqarli, yangi ma’lumotlar, tahliliy tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar jamlangan bo‘lib, ular yosh sharqshunoslarning ilmiy sohadagi dastlabki mehnatlari aks etgan tadqiqot va izlanishlar deb bemalol aytishimiz mumkin.

“YOSH SHARQSHUNOSLAR ANJUMANI” deb nomlangan mazkur to‘plamda ham bakalavriat va magistratura bosqichlarida tahsil olayotgan sharqshunos talabalarning ilmiy izlanishlari aks ettirilgan. To‘plamda sharq tillari, sharq mamlakatlari adabiyoti, sharq va Markaziy Osiyo mamlakatlari tarixi, iqtisodi, siyosati kabi sharqshunoslikning dolzarb masalalariga oid 60 ga yaqin maqolalar o‘rin egallagan.

Iqtidorli talabalarning ushbu to‘plami Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tashkil etilganligining 105-yillik tarixiy yubileyiga maxsus tuhfa sifatida taqdim qilinmoqda.

Laziz To‘rayev,
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i

I. TILSHUNOSLIK MASALALARI

ARAB VA RUS TILLARIDA JINS KATEGORIYASINING CHOG‘ISHTIRMA TAHLILI

Xurshidaxon ABDUSALOMOVA
TDSHU, Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti,
Arab filologiyasi yo‘nalishi arab-ingliz, 2-kurs talabasi

Annotatsiya: ushbu maqola tilshunoslikda gender kategoriyasining tarixini qisman tahlil qilib, arab va rus tillarida so‘zlarning jinsga qanday ajratilishi, ularning belgilari va grammatik xususiyatlari ustida misollar orqali so‘z yuritadi, o‘xshash va farqli tomonlarini qiyoslaydi, hamda mantiqiy xulosaga keladi.

Kalit so‘zlar: jins kategoriyasi, muannas, muzakkar, rod, suffiks.

Аннотация: в этой статье рассматривается частичный анализ истории гендерных категорий в лингвистике, способы разделения слов на рода в арабском и русском языках, их знаки и грамматические качества с примерами, сравнение их похожих и отличительных черт.

Ключевые слова: родовая категория, женский род, мужской род, суффикс.

Abstract: This article partially analyzes the history of the gender category in linguistics, discusses the gender classification of words in Arabic and Russian languages, their signs and grammatical features through examples, and compares their similarities and differences.

Key words:gender category, muannas, muzakkar, rod, suffix.

Gender masalalariga qiziqish o‘tgan asrning 60-yillarida feministik oqimlar ta’sirida G‘arb tilshunosligida paydo bo‘lgan va tahlil, asosan, ingliz tili materiali bo‘yicha olib borilgan. Rus tilshunosligida jinsning lingvistik ifodalanish xususiyatlarini o‘rganish nisbatan yaqinda boshlangan. Mahalliy gender tilshunosligining paydo bo‘lishi XX asrning 90-yillari o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. Hozirgi vaqtda erkak va ayol nutqini o‘rganishning eng istiqbolli yo‘nalishi jamiyatning madaniy an’analarini hisobga olgan holda turli xil kommunikativ vaziyatlarda erkaklar va ayollarning nutq xatti-harakatlari strategiyasi va taktikasini tahlil qilish hisoblanadi. Gender parametrining zamonaviy tadqiqotlari turli janrlardagi og‘zaki va yozma nutq asarlari materiallari bo‘yicha amalga oshiriladi: grammatik, texnik, siyosiy, she’riy, reklama matnlari va boshqalar. Gender tadqiqotlariga bag‘ishlangan ba’zi asarlarni tahlil qilish rus tilida ham, ingliz tilida ham jinsiy kategoriyaning namoyon bo‘lishi haqida xulosaga keladi. Gender – dunyo tillarida otlar, olmoshlar, sifatlar va ma’lum fe’l shakllarini uchta sinfga ajratish uchun ishlatiladigan grammatik kategoriyadir: erkak, ayol va neytral. Jins, asosan, otlarga tegishli, chunki u har bir otning ajralmas grammatik xususiyati

hisoblanadi. Har bir ot dastlab uchta sinfdan biriga tegishli va bu sinflarning har biri so‘zlarning oxiri va o‘zgartiruvchi shakllari (sifatlar, olmoshlar va boshqalar) bilan bog‘liq o‘ziga xos grammatik xususiyatlarga ega. Ot o‘zining barcha shakllarida grammatik jinsini saqlab qoladi va uni hech qachon o‘zgartirmaydi[1]. Dunyo tillarining ba’zilariga bu kategoriya tegishli bo‘lib, arab tilida so‘zlar ikki xil jinsga, rus tilida esa uch xil guruhga ajratiladi.

Arab tilida so‘zlar, ikki jins kategoriyasiga ega va ism so‘z turkumi erkak (muzakkar) va ayol (muannas) jinslariga bo‘linadi. Birinchisi erkak mavjudotlar va jonsiz narsalarga nisbatan rasmiy belgilanmagan otlar uchun ishlatiladi; ikkinchisi ayol mavjudotlar uchun va jonsiz narsalarga ishora qiluvchi rasmiy belgilangan otlar uchun ishlatiladi. So‘zning muannas ya’ni ayol jinsida ekanligini bildiradigan yozilishdagi tashqi (morfologik) belgilaridan biri bu so‘zning tamarbuta (ة) bilan tugagan bo‘lishidir[2]:

غُرْفَةٌ – xona,

مَكْتَبَةٌ – kutubxona.

Ikkinchisi esa alif va hamza (اء) bilan tugashi, lekin bunday so‘zlar kam uchraydi:

دَوَاءٌ–kasallik,

دَاءٌ – davo.

Uchinchidan, so‘zning alif maqsura (ى) bilan tugashi. Agar bunday so‘zlar tarkibidagi ى harfi o‘zak tarkibiga kirmasa, muannas so‘z hisoblanadi, ammo bu kabi so‘zlar ham juda kam uchraydi, masalan:

بُشْرَى – xushxabar,

مُسْتَشْفَي – kasalxona.[3]

Boshqa harf yoki tovush bilan tugagan so‘zlar muzakkar jins hisoblanadi. Yuqoridagi ayollikni ifodalovchi grammatik belgilarga ega bo‘lmagan muannas jinsdagi so‘zlar ular anglatgan mazmuniga qarab aniqlanadi. Misol uchun, ma’no jihatidan ayol kishiga dalolat qiluvchi so‘zlar (أُمٌّ *– ona,* أُخْتٌ *opa-singil*), ularning ismini bildiruvchi so‘zlar (زَيْنَبُ — *Zaynab,* سُعَادٌ *Suod*), tananing juft a’zolarini bildiruvchi so‘zlar (عَيْنٌ *– ko‘z,* يَدٌ *– qo‘l*), davlatlar, shaharlarning nomlari (مِصْرَ Misr, بَغْدَادُ – Bag‘dod), yaratilishiga ko‘ra yagona bo‘lgan narsalar (شَمْسٌ – quyosh, أَرْضٌ – yer)ning nomlaridir.

Ba’zi so‘zlar esa ikkita jinsga ham tegishlidir. Masalan,

فَرَسٌ – ot,

مِلْحٌ – tuz.

Ranglar misolida ko‘rishimiz mumkinki, ayrim so‘zlarning jinsi qolipga solinib qarama-qarshisiga o‘zgartirilib qo‘llanadi.

Muzakkar (erkak)	Muannas (ayol)	So‘zning ma’nosi

[1]https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/20141

[2] https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/20141

[3]Arab tili grammatikasi 1-qism, Ne’matullo Ibrohimov, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Toshkent.1997-yil 29-bet.

ابيض	بيضاء	*Oq*
اسود	سوداء	*Qora*
ازرق	زرقاء	*ko‘k*
اصفر	صفراء	*Sariq*
اخضر	خضراء	*Yashil*

Arab tilida odamlarning kasb-hunari, mansabi, mavqeyini, qarindoshlik munosabatlarini bildiruvchi bir qator muzakkar otlar borki, ularning oxiriga ة-tamarbuta harfini qo‘yish bilan shu so‘zlarning muannas variant hosil qilinadi. Masalan, [1]

طِفْلٌ — go‘dak bola, طِفْلَةٌ — go‘dak qiz.

تِلْمِيذٌ– o‘quvchi bola, تِلْمِيذَةٌ – o‘quvchi qiz.

Rus tilida barcha so‘zlar rodga ajratiladi va ular esa uch turli bo‘ladi:

1. Мужскойрод (а,я,ь,й) harflari orqali ya’ni so‘zlarning oxiriga qarab rodlarni ajratish mumkin.

А harfi bilan yakunlangan so‘zlar mazmunan erkak jinsni bildirganida ma’lum shaxslar uchungina ishlatiladi, masalan:

Папа – ota,

дядя — amaki.

Ь Harfi faqatgina kasb hunar nomlarigagina ishlaydi,masalan:

Предприниматель – tadbirkor,

Воспитатель – tarbiyachi.

Й harfi kamdan kam keladigan so‘zlarda ifodalaydi:

Музей – muzey,

Трамвай – tramvay.

2. Женский род(а, я, ь). Ko’rib turganimizdek, bu harflar yuqoridagi мужской рода ham mavjud, bular abarchasi istisno, ya’ni yodlab olibgina tushunib ishlatiladi. Мужской роддаги qoidalardan tashqari holdagi so’zlarda kelsa женский род hisoblanadi.

3. Середний род (о,е,) Masalan: *яблоко, дверь,* kabi

Jonli otlar мужской yoki женский родда bo’lishi mumkin, ya’ni jinsiga qarab yoki женский, yoki мужской родга mansub bo’ladi. Jonsiz otlarning jinsini aniqlash murakkabroq: birinchidan, ular мужской, женский yoki средний родда bo’ladi, ikkinchidan, ularni aniqlash uchun har bir jinsning yakuniy qo’shimchasini, ya’ni окончаниesini bilish zarur. Мужской роддаги so’zlar yakuniy qo’shimchasiz, ya’ni нулевое окончаниеli Ø yoki –й, –ь; женский роддаги so’zlar –а, –я, – ь; средний
роддаги so’zlar –о, –е, –мя yakuniy qo’shimchasiga ega. –ь bilan tugaydigan мужской va женский роддаги otlarni yodlab olish lozim.[2]

---

[1]Arab tili grammatikasi 1-qism, Ne’matullo Ibrohimov, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Toshkent. 1997-yil 31-bet.

[2]Интенсивный русский язык. Ю.В.Тураходжаева. Ташкент-2020. 18-bet.

мужской род	женский род	средний род
Ø, –й, –ь	–а/ –я, –ь	–о / –е
Хлеб(non)	*Библиотека(kutubxona)*	*Окно(oyna)*
Поезд(poyezd)	*Аудитория(auditoriya)*	*Молоко(sut)*
Нож(pichoq)	*Армия(armiya)*	*Солнце(quyosh)*
Музей(muzey)	*Лампа(chiroq)*	*Море(dengiz)*
Двигатель (dvigatel)	*Тетрадь(daftar)*	*Время(vaqt)*
Портфель(sumka)	*Ночь(tun)*	*Имя(ism)*

Izoh: –тель, –арь bilan tugagan otlar мужской родga, –ость, – есть, –знь, –вь bilan tugaganlar женский родga mansub.Род kategoriyasiga faqat otlar ega, qolgan so’z turkumlar otning родiga qarab moslashadi. Rus tilidagi sifatlar –ий, -ый, -ая, -яя, -ое, -ее; ravishlar –о, е, fe’llar -ать, -ять, — ить, -ться kabi maxsus tugalmalarga ega, binobarin, so’z o’zaklari ana shu qo’shimchalarsiz qo’llanmaydi[1].

Arab va rus tillarida jins kategoriyasi alohida grammatik xususiyatga ega. Otlar qaysidir jinsga doimiy ega bo’lsa, ana shu otga bog’langan ko’rsatish olmoshlari, sifatlar va hattoki fe’l so’z turkumi ham jinsda moslashgan holda qo’llanadi. O’zbek tilida *bu aqlli erkak* va *bu aqlli ayol* so’z birikmalarida ayol va erkak so’zlariga aqlli va bu aniqlovchilari bir xil holda qo’llangan. Bu ikki birikmalarda hech qanday qo’shimchalarsiz, hatto bitta sifat bog’langan. O’zbek tilida esa bu kategoriya mavjud bo’lmasa ham, ayrim arab tilidan kirib kelgan so’zlarda uchrashi mumkin (shoir-shoira, adib-adiba). Xuddi shu birikmalarni arab tilidagi tarjimasiga e’tibor qaratamiz:*هَذَا الرَّجُلُ الْعَاقِلُ* va *هَذِهِ الإِمْرَأَةُ الْعَاقِلَةُ* . Ko’rinib turibdiki, erkak va ayol so’zlari ikki xil jinsga mansub bo’lganligi sababli ularning aniqlovchilari hisoblangan ko’rsatish olmoshi va sifati ham jinsida moslashgan holda qo’llangan. Rus tilida esa *он умный мужчина* va *она умная женщина* birikmalarida esa ikki jinsga moslashishi uchun sifat so’z turkumi xoslangan qo’shimcha bilan yakunlangan va jinsiga mos bo’lgan olmosh bilan qo’llangan.

Shuni ta’kidlash joizki, arab tilida ism so’z turkumiga kiruvchi barcha so’zlar, ya’ni ot, sifat, son, olmosh, sifatdoshlarning barchasi jins kategoriyasiga ega. Fe’l so’z turkumiga oid so’zlar ham jinsda va sonda moslashgan holda shaxs va sonda qo’llanadi. Rus tilida ham biror so’z qaysidir jinsda bo’lsa, unga bog’langan sifat ham, ko’rsatish olmoshi ham, ravish ham qo’shimchalar orqali o’sha jinsga moslashgan holda qo’llanadi. Bu tilda ham fe’l so’z turkumining barcha zamonlarida arab tili kabi jinsiga to’liq moslashgan holda qo’llanadi.

[1]Интенсивный русский язык. Ю.В.Тураходжаева. Ташкент-2020. 20-bet.

Xulosa o’rnida shuni aytishim mumkinki, arab tili somiy tillar oilasiga, rus tili esa hind-yevropa tillar oilasiga mansub bo’lsa-da, ikki til jins kategoriyasi doirasida umumiy xususiyatlarga ega. Ulardan birinchisi ikki tilda ham ot so’z turkumidan tashqari sifat, ko’rsatish olmoshlari ham jinsga ajratiladi. Ikkinchisi bu tillarda jins ham tabiiy, ham grammatik asosga ko’ra turlarga ajratiladi. Ya’ni so’zlarning ma’no-mazmuniga va so’z oxiridagi yakuniy qo’shimcha yoki harfga qarab farqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. N.Ibrohimov.Arab tili grammatikasi 1-qism. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” .:T-1997
2. Ю.В.Тураходжаева.Интенсивный русский язык.:-2020.
3. https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/ 20141

LAKUNA VA UNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Aziza AXMEDOVA
TDSHU, Sinxron tarjima (yapon tili) yo‘nalishi,
magistratura 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada lingvokulturologiyaning asosiy birliklaridan biri lakunarlik hodisasi, uning fanga kirib kelishi, ushbu birlik doirasida turli tilshunoslar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar va ularning qarashlari keltirib o‘tilgan. Shuningdek, lakunar birliklarni bartaraf etish yo‘llari hamda tarjima etish usullari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: lingvomadaniyatshunoslik, zamonaviy tilshunoslik, lakuna, lakunarlik, kognitiv, bo‘shliq, muqobilsiz leksika, atama, termin, psixolingvistika.

Аннотация: В данной статье одной из основных единиц лингвокультуры является феномен лакунаризма, его вхождение в науку, упоминаются исследования, проводимые различными лингвистами в рамках этого подразделения, и их взгляды. Также описаны способы устранения лакунарных единиц и способы перевода.

Ключевые слова: языкознание, современное языкознание, лакуна, лакунаризм, когнитивный, пробел, безальтернативная лексика, термин, термин, психолингвистика.

Abstract: In this article, one of the main units of linguistic culture is the phenomenon of lacunarism, its entry into the science, the researches conducted by various linguists within this unit and their views are mentioned. Also, ways to eliminate lacunar units and translation methods are described.

Key words: language cognition, modern language cognition, lacuna, lacunarism, cognitive, gap, non-alternative vocabulary, term, term, psycholinguistics.

Jahon tilshunosligida o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab lakunarlik hodisasiga e’tiborning kuchayishi tilshunoslikda yangi sohalar, xususan, lakunologiyaning jadal rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda. So‘nggi yillarda lakuna va lakunarlik hodisasi lingvomadaniyatshunoslik, psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, madaniyatlararo muloqot va amaliy tarjimachilik sohalarining predmetiga aylandi.

Dunyo tilshunosligida ikki tilni qiyoslash orqali til egalarining mentaliteti, milliy-madaniy o‘ziga xosliklarni o‘rganish lingvomadaniy tadqiqotlarning markaziy muammolaridan biri hisoblanadi. Lakunalarni bartaraf etish masalalarini ilmiy o‘rganish esa mazkur tillarning lingvistik imkoniyatlarini belgilab beradi. Shu ma’noda lakunarlik hodisasi lingvomadaniy aspektlarda kognitiv xaritalarda bo‘shliqlarning yuzaga kelishi, ularning muloqot jarayonida to‘ldirilishi va muqobilsiz leksika tarjimasi usullarini ochib berish masalalari doirasida tadqiq qilinmoqda. Bugungi kunda jahon tilshunosligida lakunarlik muammosini olamning lisoniy manzarasi masalalari bilan bog‘lagan holda tadqiq etish dolzarb kasb etmoqda[1]. Yuqoridagilardan shuni bilishimiz mumkinki, lakuna va lakunologiya sohalari murakkab hisoblanadi va bu termin bizning tilshunoslik sohamizda endi o‘rganilishi jadal rivojlanib bo‘lib kelmoqda. Ko‘pchilik tilshunos va tarjimashunos olimlarning fikrlarini o‘qir ekansiz, lakunar birliklar realiya va muqobilsiz leksikadan ancha farq qilishini anglab yetasiz. Biroq, lakuna murakkab va tarjima qilib bo‘lmaydigan atama hisoblanadi va shu sababli ham tarjimada tarjimonni birmuncha murakkab vaziyatlarga duch keltiradi.

Respublikamizda so‘nggi yillarda dunyo mamlakatlari bilan integratsiyalashuvi jarayonida kishilar o‘rtasidagi o‘zaro muloqotning milliy-madaniy xususiyatlari, umumlisoniy belgilari, madaniyatlararo muloqotda qo‘llanadigan verbal va noverbal vositalarning o‘ziga xos jihatlarini tadqiq etish xorijiy tillarni o‘rganishning muhim ajralmas qismiga aylanmoqda. “Ayni paytda dunyoda ilm-fan va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib, mamlakatimizning xalqaro hamkorlik aloqalari tobora kengaymoqda. Natijada hayotimizga chetdan ko‘plab yangi tushuncha, so‘z va iboralar kirib kelmoqda. Globallashuv sharoitida milliy tilimizning sog‘ligini saqlash, uning lug‘at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning o‘zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo‘llanishini ta’minlash dolzarb vazifa bo‘lib turibdi[2]. Yapon va o‘zbek tilshunosligida namoyon bo‘layotgan lakunarlik hodisasi madaniyatlararo muloqot, tarjimachilik va chet tillarini o‘rganishda ham bir qator murakkabliklarni yuzaga keltirayotgan har ikki tilda lakunarlikni aniqlash asosida tadqiq etishdek dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda.

---

[1] Ismatullayeva N. Xitoy va o’zbek tillarida lakunalar [Matn]: monografiya/ Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 5.

[2] O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning o’zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o’ttiz yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimidagi nutqi//Xalq so’zi, 2019 yil, 22 oktabr.

Hozirgi kunda tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlaridan biri tarjimashunoslik, likgvakulturologiya, lingvomamlakatshunoslik va yana bir qancha sohalarida tilning farqlarini o‘rganish ancha kuchaygan. Turli tillardagi so‘zlarni, matnlarni solishtirsak, ko‘pincha bir tilning leksik birligi, boshqa tildagi ekvivalentini topa olmasligini uchratishimiz mumkin. XX asrning 70-yillarida “lakuna” atamasining qo‘llanilishi keng ommalasha boshladi. Lakuna atamasi tilshunoslikda lakuna, zid ma’noli so‘zlar, oraliqlar, lakunalar yoki til xaritasidagi oq dog‘lar, tarjima qilib bo‘lmaydigan tarjimasiz leksemalar va yana fanda ko‘plab nomlar bilan nomlanadi. Lisoniy singari lakunalar ham tillarning o‘zaro qiyosida yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan ingliz tilidagi *yurist, advokat* ma’nosini ifodalaydigan *lawyer* so‘zidan boshqa advokatlik kasbining turli tumanligini ifodalaydigan *attorney - vakil, counsellor — maslahatchi, advocate — oliy darajadagi advokat ma’nolarida ham qo‘llanilib,* o‘zbek tiliga shunchaki *advokat, himoyachi* deb tarjima qilinganda, so‘zdagi konnotatsiya torayishi mumkin. Bundan xulosa shuki, o‘zbek va rus tillarida qo‘llaniladigan ifodalarga faqatgina advokat so‘zini misol qilish mumkin[1]. Tilshunoslikda lakuna tushunchasining nutqimizda keng qo‘llanilishi va o‘rganilishi, yondosh hodisalardan farqlanishi, o‘zi alohida lingvistik kategoriya sifatida tan olinishiga sabab bo‘ldi. Buning natijasida lakuna tushunchasining mohiyati aniq va oson tushuniladigan darajada muayyanlashdi.

Yuqoridagi tilshunoslarning fikriga ko‘ra, xulosa qiladigan bo‘lsak, tilshunoslikda lakunani unga yondosh hodisalardan farqlash butunlay yakun topgan. Lakunalarning bugungi kundagi vazifasi faqat ikki tilni vazifalarini aniqlab farqlashdan iborat emas, til tizimini va uning leksikasini boyitishga katta xizmat qilmoqda. Tilshunoslar o‘z ona tilini boshqa til bilan qiyoslab, tilshunoslikdagi bo‘shliqlarni aniqlab, uni to‘ldirishga va muammoni bartaraf etishga urinishmoqda. Bu faqat tilni rivojlantiribgina qolmasdan ongni, tafakkurni va tasavvurni ham rivojlantirmoqda. Ushbu usul orqali har ikki til madaniyatining o‘xshashligi va farqli jihatlarini o‘rganish, globallashuv jarayonida chuqurlashayotgan madaniyatning yangilanishi va olib boriladigan muloqotlarni to‘siqsiz ravishda amalga oshirishga imkon yaratadi. Shu bilan birgalikda, chet tillarini muammosiz o‘rganishimizning samaradorligini yanada takomillashuviga sabab bo‘ladi.

Lakuna lotincha so‘z bo‘lib lakuna-chuqurlashish, tushkunlik, muvaffaqiyatsizlik; fransuzcha lacuna-bo‘shliq ma’nolarini anglatadi. Bu termini ilk bor Kanadalik olim J.Vine va J.Darbelnilar tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Ushbu ilmiy tadqiqotchilar “Fransuz va ingliz tillarini qiyoslash uslubi” nomli kitobida, shu ikki tilni solishtirish orqali lakunaga ta’rif berib o‘tishgan: “Bir tildagi so‘zning boshqa tilda muqobili topilmagan o‘rinlarda lakuna hodisasi voqealanadi”. Shuningdek, olimlarning lakunarlik hodisasini turli hil nomlaganlar. Ingliz tilshunosligida lakuna so‘zi *“lexical gap”, “lexical hole”, “lexical vacancy”* terminlari bilan ifodalanadi. Ular orasida *“lexical gap”* so‘zi

[1] Usmanova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik. Toshkent: Bookmany print, 2022. – B. 148.

“bo‘shliq”, “bo‘sh joy” degan ma’nolarni anglatadi[1]. Tasodifiy lakunalar madaniyatlararo muloqotda jig‘iga tegadigan elementlar – turlicha etnik jamoalar olamning milliy manzarasidagi ichki obraz, tarjima qilinmaydigan leksika, adekvatsiz leksika va turli izohlar bilan ham keltirilgan ta’riflarni ham uchratish mumkin. J.P.Vine, V.L.Muravyov, J.Darbelne va boshqalar “Tushirib qoldirilgan tushuncha” (probel, lakuna), K.Xeyl “Tilning semantik xaritasidagi “Oq dog‘lar”, tushirib qoldirilgan tushunchalar” (антислова, пробелы, лакуны, или белые пятна на семантической карте языка), Yu.S.Stepanov “Tarjimaga tortilmaydigan so‘zlar” (примеры непереводного характера), V.G.Chernov “Ekvivalentsiz leksika, nol leksema, leksik nol” (лексический нуль, нулевая лексема), I.A.Sternin “Ekvivalentsiz, yoki fon ma’noli leksika, L.S.Barxudarov, E.M.Vereshagin “Bir til matnidagi til taraqqiyotining keyingi bosqichlarida tushuniladigan qorong‘i ma’noli so‘zlar – tasodifiy qoldirib ketishlar” va shu kabi ta’riflar keltirilgan[2].

Jahon tarjimashunosligida lakunalarni bartaraf etish muammosi to‘g‘risida ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. O‘z tadqiqotlari bilan lakunashunoslikka katta hissa qo‘shgan tarjimashunoslar sifatida P.Nyumark, M.Shatlvorz, M.Kovi, S.Basnet, S.Vlaxov, S.Florin, L.Barxudarov, L.Bayramova, I.Markovina kabilarni ko‘rsatish mumkin.

O‘zbek tarjimashunosligida I.G‘afurov, O.Mo‘minov, N.Qambarov, Q.Musayev, E.Ochilov, Sh.Usmanova, X.Hamidov, Sh.Sirojiddinov, G.Odilova va boshqa olimlar tomonidan ekvivalentsiz leksika, milliy xos so‘zlar va lakunalarning tarjimasi bo‘yicha turli takliflar berilgan.

L.Bayramova lakunar birliklarni tarjima qilishda quyidagi usullardan foydalanish mumkinligini qayd etadi: 1) kalkalash (kontekstdagi ekvivalentlarning shakllanishiga olib keladi), 2) tasviriy tarjima usuli, 3) o‘zlashtirish[3].

O‘zbek tarjimashunosligidagi aksariyat tadqiqotlarda bevosita lakuna emas, balki milliy xos so‘zlar tarjimasining usullari qayd etilgan. Jumladan, E.Ochilov 1) transliteratsiya, 2) analogiya, 3) yangi so‘z va so‘z birikmasi yaratish[4]; Q.Musayev esa 1) transliteratsiya va transkripsiya hamda 2) tarjima usullari haqida to‘xtalib o‘tgan[5].

Yapon tilidan o‘zbek tiliga tarjima jarayonida duch kelinadigan “lakuna” muammosi, o‘z navbatida o‘zbek tilidan yapon tiliga tarjima qilish jarayonlarida ham o‘z aksini topadi. Bu muammolar ayniqsa, hozirgi davrda dolzarb ko‘rinishga kelayotgan va ommalashayotgan turli ertaklar, bolalar multiplikatsion

---

[1] Ismatullayeva N. Xitoy va o‘zbek tillarida lakunalar [Matn]: monografiya/ Toshkent: Nodirabegim, 2021.-B. 8.

[2] Sanaqulov Z., Jo‘raboyev B. “Chet tili o‘qitish metodikasi zamonaviy metodlar” Academic research in educational sciences. Volume 2/ Issue4/ 2021.

[3] Плеухава Е.А. Лексическая лакунорность и её отражение в переводе (на материале русского и испанского языков). Дисс. ...канд. филол. наук: — М.:РГБ, 2005.- С. 18.

[4] Ochilov E. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (o’quv qo’llanma). – Toshkent: ToshDSHI, 2012.- B. 76-77.

[5] Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. Darslik. – Toshkent:Fan, 2005.-B. 94.

filmlari, kinofilmlar va boshqa tarjima turlarida o‘z aksini topadi. Demak, yuqorida lakuna atamasi haqida keng fikr yoritib berildi, endi yapon tilidan o‘zbek tiliga leksik lakuna tarjimasi haqida fikr yuritamiz.

Shaxslararo muloqot, munosabatlarni ifodalovchi lakunalarni o‘rgatishda foydalanish tavsiya qilinayotgan mazkur metod haqidagi tadqiqotlarimizda “ぎり” atamasini tahlilga tortamiz. Bu atama ham boshqa tillarga faqatgina izoh yordamida tushuntiriladigan, lekin boshqa millat vakillari tomonidan qo‘llanila olmaydigan atamalardan biri hisoblanadi. Mazkur tushunchani unga beriladigan quyidagi

3 ta ta’rif bilan izohlash mumkin.

1. Qarz yoki qarzdor.

2. Shaxslar amal qilishi majburiy bo‘lgan jamiyatdagi tartib – qoidalar majmui.

3. Shaxslar hatto o‘z xohishlariga qarshi turib bo‘lsa ham, amal qilishlari majburiy bo‘lgan, yozilgan yoki yozilmagan yurish–turish intizomi va o‘zini tutish qoidalari.

Yuqorida keltirilgan izohlardan “ぎり” atamasining ta’rifinigina tushunish mumkin. Lekin aslida, bu tushunchaning tub mohiyatini tushunish yoki tushuntirish juda murakkabdir. Yaponlar “ぎり” atamasini qadim zamonlardan beri qo‘llashadi. Dastlab, yaqinlaringiz tomonidan sizga qilingan yaxshilikka qaytarilgan javobni ifodalashda ishlatilgan.

Yuqoridagi misoldan xulosa qilish mumkinki, yapon tilidagi lakunar birliklarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda birmuncha qiyinchilikka duch kelinadi. O‘quvchiga tushunish oson bo‘lish maqsadida, lakunar birlikni transliteratsiya, analogik, transkripsiya usullarida tarjima qilinsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ismatullayeva N. Xitoy va o‘zbek tillarida lakunalar: monografiya/ Toshkent: Nodirabegim, 2021.-144 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi nutqi//Xalq so‘zi, 2019 yil, 22 oktyabr.
3. Usmanova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik: darslik/ Toshkent: Bookmany print, 2022.-286 b.
4. Sanaqulov Z., Jo‘raboyev B. “Chet tili o‘qitish metodikasi zamonaviy metodlar” Academic research in educational sciences. Volume 2/ Issue4/2021.
5. Плеухава Е.А. Лексическая лакунорность и её отражение в переводе (на материале русского и испанского языков). Дисс. ...канд. филол. наук: — М.:РГБ, 2005.-18 с.
6. Ochilov E. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (o’quv qo’llanma). – Toshkent: ToshDSHI, 2012.- 124 b.
7. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. Darslik. – Toshkent:Fan, 2005.-352b.

O'ZBEKISTON-KOREYA HAMDO'STLIGIDA KOREYS TILINING AHAMIYATI

Gulhayot JONGIROVA
TDSHU, Koreyashunoslik fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston va Koreya Respublikalarining aloqaviy munosabatlari va yurtimizda koreys tilining o‘qitilishi va yaratilgan imkoniyatlar haqida ma'lumot berilgan. O‘zbekistonda koreys tilining o‘rganilishi bugungi kunda ko‘plab ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi.

Kalit so‘zlar: koreys tili, hamjihatlik, munosabat, madaniyat, tilshunoslik, istiqbol, interaktiv usul.

Аннотация: В данной статье представлена информация об отношениях между Узбекистаном и Республикой Корея. Было отмечено преподавание корейского языка в нашей стране и созданные возможности. Изучение корейского языка в Узбекистане привело ко многим положительным изменениям

Ключевые слова: корейский язык, солидарность, отношение, культура, лингвистика, перспектива, интерактивный метод.

Abstract: This article provides information about the relations between Uzbekistan and the Republic of Korea. It was noted about the teaching of the Korean language in our country and the opportunities created. Learning the Korean language in Uzbekistan has led to many positive changes

Key words: Korean language, solidarity, attitude, culture, linguistics, perspective, interactive method

2021-yilning 28-yanvar sanasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamda Janubiy Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Che Inlar video anjuman shaklida uchrashuv o‘tkazildi. Anjumanda O‘zbekiston va Koreya o‘rtasidagi ko‘p asrlik do‘stlik va strategik sheriklik aloqalarini rivojlantirish va mustahkamlash haqidagi dolzarb masalalar o‘rin oldi[1]. 1992-yili O‘zbekiston va Koreya o‘rtasidagi madaniy aloqalar o‘zining qizg‘in pallasiga kirdi. Mazkur yili O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov Farmonlariga ko‘ra, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (sobiq instituti)da Koreys filologiyasi kafedrasiga asos solindi hamda ilk bora koreys tili o‘qitila boshlandi. Dastlabki yillarda koreys tilini o‘qitishda Kim Mun Uk janoblari jonbozlik ko‘rsatdilar. Kafedrada xorijdan kelgan professor-o‘qituvchilar, xususan, Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) tashkiloti volontyor o‘qituvchilari faoliyat yuritishdi hamda O‘zbekistonda koreys tili o‘qitilishi keng yo‘lga qo‘yildi. 1997-yildan boshlab kafedra koreys tili va adabiyoti, Koreya iqtisodi bo‘yicha o‘z mutaxassislariga ega O‘zbekiston aloqalarni mustahkamlashga kirishdi. 1999-yili ilk bor barcha qulayliklarga ega lingofon xonasi

[1] https://www.review.uz 23.08.2021

tashkil etildi. 2013-yili Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) tashkiloti tomonidan barcha o‘quv xonalari yangi ta’mirdan chiqarilib, zamonaviy texnika bilan jihozlandi. 2013-yili Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) tashkiloti homiyligida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (sobiq instituti)da elektron kutubxona tashkil etildi[1]. Shu bilan birga, 2018-yili tashkil etilgan Koreyashunoslik fakulteti qoshida ham kutubxonaga asos solindi. Bugungi kunda kutubxona fondida 10000dan ortiq koreys tili, koreys tilini o‘qitish metodikasi, koreys tili bo‘yicha test sinovlari, koreys adabiyoti, tarixi, madaniyati, iqtisodiga oid o‘quv qo‘llanma va darsliklardan tashqari badiiy adabiyotlar ham mavjud. Kutubxona fondi har yili Koreya Respublikasining qator tashkilotlari, oliy ta’lim muassasalari tomonidan doimiy tarzda yetkazib berilayotgan O‘quv adabiyotlari bilan boyitib borilmoqda[2].

Ma’lumki, keyingi yillar davomida mamlakatimizda yoshlar masalasiga davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda, yoshlarga bildirilayotgan ishonch ham yildan yilga mustahkamlanib bormoqda. Darhaqiqat, xorijiy davlatlarda tahsil olayotgan va mehnat qilayotgan yoshlar bilan olib borilayotgan ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish borasida hayotga tatbiq etilayotgan chora-tadbirlar diqqatga sazovordir. Shuningdek, O‘zbekiston bilan Janubiy Koreya o‘rtasidagi madaniy-gumanitar sohadagi aloqalarning bugungi holatiga yuqori baho berilib, istiqbolda ushbu sohani yanada rivojlantirishda hamkorlikda amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan yo‘nalishlardan koreys tilshunosligidir.

Koreya Respublikasi tomoniga so‘nggi paytlarda O‘zbekistonda xorijiy tillarni o‘rganishga hukumat darajasida e’tibor qaratilayotgani, aholi orasida chet tilini o‘rganishni ommalashtirish va ularni mukammal o‘zlashtirish uchun zarur sharoitlar yaratilayotgani haqida ma’lumot berildi. Bugungi kunda O‘zbekistonda aholi orasida koreys tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning ortib borayotganini hisobga olib, Qirol Sejong instituti fondi rahbari bilan istiqbolda yurtimizda koreys tili kurslarini tashkil etish masalalari muhokama qilindi[3]. Kang Hyon Xvaning aytishicha, Qirol Sejong instituti fondi chet elliklar uchun koreys tili va madaniyatini targ‘ib qiluvchi Koreya Respublikasidagi asosiy muassasalardan biri hisoblanib, xorijiy universitetlar va nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikda faoliyat olib boradi[4].

KSIF asosan koreys tiliga hamda madaniyatiga talab yuqori bo‘lgan mintaqalarda Qirol Sejong markazlarini ochadi va ularning muvaffaqiyatli faoliyat

---

[1] S.V.Xan “Koreya tarixi” Toshkent – 2013

[2]B.B. Shukrjonova “Koreya Respublikasi ta’lim tizimida islohotlar” Ziyonet. Kutubxona.

[3]Bianca Angelien Aban Claveria. The Songs of Flying Dragons and Frogs from the Bottom of a Deep Well: The Yangban Society, the Sirhak Literati, and the Emergence of Korean National Identity During the Chosŏn Dynasty. (Conference materials). 2013.00

[4]Don Baker. The Religious Revolution in Modern Korean History: From ethics to theology and from ritual hegemony to religious freedom. The Review of Korean Studies Volume 9 Number 3 (September 2006).

yuritishi uchun uzluksiz ko‘mak beradi. Bundan tashqari, yangi ochilgan markazlarni kerakli moliyaviy mablag‘ bilan ta’minlaydi, malakali o‘qituvchilar tanlab olinib, har bir markazga yuboradi. Bundan tashqari, koreys tili va madaniyati bo‘yicha turli darsliklar ishlab chiqildi[1]. Hozirda dunyoning 82 davlatida 234 Qirol Sejong markazi mavjud. O‘zbekistonda ham ikkita Qirol Sejong markazi faoliyat ko‘rsatmoqda[2]. Jumladan, KSIF tomonidan Toshkent, Farg‘ona, Samarqand, Namangan va Denov shaharlarida koreys tilini o‘rgatuvchi markazlar ochildi. Ushbu markazlar faoliyati Fond tomonidan to‘liq moliyalashtirilib, barcha kerakli adabiyot va texnik jihozlar bilan ta’minlandi. Til kurslarida ishlash uchun Janubiy koreyalik malakali mutaxassislar O‘zbekistonga yuborildi[3].

So‘nggi o‘n yilliklarda zamonaviy jamiyat o‘z tarixida eng qiziqarli va voqealarga boy davrlaridan birini boshdan kechirdi, bu shubhasiz tilda o‘z aksini topdi, chunki jamiyat gapiradigan til u bilan rivojlanadi va o‘zgaradi. Zamonaviy koreys tilini rivojlantirishning yetakchi yo‘nalishlaridan biri bu asosan ko‘p miqdordagi yangi so‘zlarning kirib kelishidir, asosan xorijiy so‘zlardan foydalanish va o‘zlashtirishdir[4].

Mamlakatimizda Koreya Respublikasi ta’lim tizimini modernizatsiya qilish tajribasini qo‘llash ijobiy natijalarga olib kelishi muqarrardir. Koreya Respublikasi Osiyo-Tinch okean mintaqasining o‘ziga xos mamlakatlaridan biri sifatida bir qator tadqiqotchilarning diqqatini jalb etib kelmoqda[5]. Buning mohiyati shundaki, bu davlat postindustrial sivilizatsiyaning yutuqlarini o‘zlashtirgan holda, o‘zining an’anaviy madaniyatini saqlab qolishga intilmoqdalar va siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni o‘z madaniyati, an’anaviy qadriyatlari va Sharq dunyo qarashlari bilan uyg‘unlikda amalga oshirishga harakat qilmoqdalar. YUNISEF ekspertlari tomonidan mazkur mamlakatning ta’lim tizimi sanoati rivojlangan mamlakatlar qatorida eng samarali deb baholangan[6]. Koreya Respublikasi hukumati ta’lim tizimida sinovdan o‘tgan va juda ham samarali hisoblangan siyosatni olib bormoqda. Koreyada maktablarni kompyuterlashtirish va internet tarmog‘iga erkin ulanishini ta’minlashga katta e’tibor qaratilyapti. O‘zbekistonda ham shunga o‘xshash vaziyat qaror topmoqda. Ta’lim muassasalarini axborot texnologiyalari bilan jadal ta’minlashga davlat tomonidan katta moliyaviy mablag‘lar ajratilmoqda. Maktablarni kerakli jihozlar, darsliklar va sport anjomlari bilan ta’minlashga katta e’tibor bilan qaralmoqda. Dars berishning yangi inte-

---

[1]Haeyoung Na. The Interpretation of Yin-Yang and Korean Women’s Status. Asian Women 2009 Vol.25 No.1.

[2]Hyaewol Choi. Gender and Mission Encounters in Korea: New Women, Old Ways. University of California Press, Ltd. London, England. 2009.

[3]J. Spencer Trimmingham. The Sufi in Islam (New York: Oxford University Press, 1973).

[4]Kim Jin Wung. A History of Korea. 2015.

[5]Kim Jin Wung. A History of Korea. 2015.

[6]Kristen Bell. Cheondogyo and the Donghak Revolution: The (un)Making of a Religion. Korea Journal. 2004.

raktiv usullaridan foydalanilmoqda, yangi zamon talablariga mos binolar qurilmoqda, ba'zilari ta'mirlanmoqda. Biroq shunga qaramay, ba'zi bir muammolarni hal etishda, maktab tizimini qayta qurishning strategik rejalarini ishlab chiqishda, moliyalashtirish masalalarida xorij tajribasini joriy etish zamon talabidir.

Xulosa qilib aytganda, koreys tilining yurtimizda tatbiq etilishi ko'plab ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Shuningdek, mamlakatlarimiz BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida bir-birini qo'llab-quvvatlab kelmoqda. O'zbekiston Koreya Respublikasining global xavfsizlikni ta'minlash borasida katta ahamiyatga ega bo'lgan, Koreya yarim orolidagi o'zaro hamjihatlikni mustahkamlashga yo'naltirilgan tinchliksevar siyosatini ma'qullaydi. Parlamentlararo aloqalar, hukumatlar, vazirlik va idoralarning delegatsiyalar almashuvlari faollashdi, tashqi siyosat idoralari o'rtasida siyosiy maslahatlashuvlar mexanizmi samarali tus oldi. O'zbekiston - Koreya hamdo'stligi yurt ravnaqi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. https://www.review.uz 23.08.2021
2. S.V.Xan "Koreya tarixi" Toshkent – 2013
3. B.B. Shukrjonova "Koreya Respublikasi ta'lim tizimida islohotlar" Ziyonet. Kutubxona
4. Bianca Angelien Aban Claveria. The Songs of Flying Dragons and Frogs from the Bottom of a Deep Well: The Yangban Society, the Sirhak Literati, and the Emergence of Korean National Identity During the Chosŏn Dynasty. (Conference materials). 2013.
5. Don Baker. The Religious Revolution in Modern Korean History: From ethics to theology and from ritual hegemony to religious freedom. The Review of Korean Studies Volume 9 Number 3 (September 2006).
6. Haeyoung Na. The Interpretation of Yin-Yang and Korean Women's Status. Asian Women 2009 Vol.25 No.1.
7. Hyaewol Choi. Gender and Mission Encounters in Korea: New Women, Old Ways. University of California Press, Ltd. London, England. 2009.
8. J. Spencer Trimmingham. The Sufi in Islam (New York: Oxford University Press, 1973).
9. Key P. Yang, Gregory Henderson. An outline history of Korean Confucianism: Part II: The schools of Yi Confucianism. The Journal of Asian Studies 18(2), 259-276. http://doi.org/10.2307/2941686. 1959. Published online by Cambridge University Press: 23 March 2011.
10. Kim Jin Wung. A History of Korea. 2015.
11. Kristen Bell. Cheondogyo and the Donghak Revolution: The (un)Making of a Religion. Korea Journal. 2004.

SAMAD BEHRANGIYNING "ماهی سیاه کوچولو" HIKOYASIDA OT TURKUMIGA MANSUB ARABCHA O‘ZLASHMALAR TAHLILI

Muhammadali NIG‘MATILLAYEV
TDSHU, Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti,
2-kurs fors-ingliz guruhi talabasi

Annotatsiya: Maqolada Samad Behrangiyning "ماهی سیاه کوچولو" hikoyasidagi ot turkumiga mansub arabcha o‘zlashmalar o‘rganildi. Maqola davomida fors tiliga arab tilidan o‘zlashgan ot turkumiga mansub so‘zlar aniqlanib, morfologik tahlili amalga oshirildi.

Kalit so‘zlar: ot so‘z turkumi, sodda ot, qo‘shma ot, atoqli otlar, turdosh otlar, o‘zlashma arabizmlar.

Аннотация: В статье исследуются арабские заимствованные слова, относящиеся к именной группе, в рассказе Самада Беҳранги «ماهی سیاه کوچولو». В ходе статьи были выявлены и морфологически проанализированы слова, относящиеся к семейству существительных, заимствованных из арабского в персидский язык.

Ключевые слова: имя существительное, простое существительное, сложное существительное, существительное собственное, существительное нарицательное, заимствованные арабизмы.

Abstract: In the article, the Arabic borrowed words belonging to the noun group in the story of Samad Behrangi "ماهی سیاه کوچولو" were researched. In the course of the article, words belonging to the family of nouns borrowed from Arabic into Persian were identified and morphologically analyzed.

Key words: noun, simple noun, compound noun, proper noun, common noun, borrowed Arabic words.

“Miloddan avvalgi IV asrda qadimgi yunon faylasufi, Aristotel (Arastu) so‘z turkumlarini 7 ga, miloddan avvalgi V asrda hind tilshunoslaridan Panini va Yaska 4 (ot, fe’l, ko‘makchi va yuklama. Bunda fe’l harakatni ifodalovchi, ot esa substansiya-ifodalovchi, yuklama va ko‘makchi so‘z o‘rtasidagi munosabatni, shuningdek, insonning o‘z fikriga munosabatini ifodalovchi hodisa sifatida berilgan) ga bo‘lganlar. Hindlar to‘rtta so‘z turkumini farqlaganlar: Olmosh va ravishlar esa ot va fe’l turkumlariga qo‘shib yuborilgan, alohida ajratilmagan. Yunonlardan farqli holda hindlar so‘z turkumlarini gap bo‘laklaridan farqlaganlar, ya’ni ular bilan qorishtirmaganlar. Shunga ko‘ra hindlar, yuqorida aytilganidek, otlarni predmet, fe’llarni harakat ifodalovchi so‘z sifatida “baholaganlar”[1].

“Keyinroq, miloddan avvalgi II-I asrlarda aleksandriyalik filologlar Frakiyalik Dionisiy, Apolloniy Diskol, rimlik Varronlar aralash morfologik, semantik

[1]Mamatova M. So‘zlarning turkumlarga ajratilishi // “Science and innovation” xalqaro ilmiy jurnali. – T., 2022. – B. 1536.

va sintaktik asoslarda 8 (ot-ism, fe’l, ravish, sifatdosh, artikl, olmosh, ko‘makchi, bog‘lovchi) ga bo‘lganlar. Bunda ismlar o‘z navbatida ot, sifat va son guruhlarini qamrab olgan. So‘z turkumlarining bu tizimi ma’lum darajada arab grammatik an’analariga ham ta’sir ko‘rsatgan. Jumladan: arablar ham fe’ldan boshqa mustaqil so‘zlarni “ism” termini bilan ataydilar”[1].

Tadqiqotning maqsadi: 1. Samad Behrangiyning "ماهی سیاه کوچولو" asari tahlil qilinib, undan arabcha otlarni ajratib olish va ularning ishlatilish darajasini aniqlash. 2. Fors tilida ot turkumiga oid arabcha o‘zlashmalarni leksik-semantik va morfologik sathda o‘rganish. 3. Manbadan aniqlangan otlarni bir necha ma’no guruhlariga ajratish va tasniflash. 4. Hikoyada ham ot, ham ravish vazifasida kelgan arabcha o‘zlashmalarni tahlil qilish.

Samad Behrangiy qalamiga mansub "ماهی سیاه کوچولو" asarining morfologik tahlili natijasida 233 ta ot so‘z turkumiga oid arabcha o‘zlashmalar aniqlandi. Qolgan arabcha o‘zlashmalar esa boshqa so‘z turkumlarini hosil qilishda qatnashgan. Hikoya ichida, umuman, takrorlarsiz 83 ta arabcha o‘zlashma ot vazifasida kelgan.

Asarda o‘zlashmalarning ishlatilish ko‘lami turlicha: ba’zi o‘zlashma otlar faqat bir o‘rinda qo‘llangan, ayrimlari esa bir necha marta ishlatilgan:

Asarda faqat bir marta ishlatilgan o‘zlashma otlar:

№	Arabcha ot	Transkripsiya	Tarjima	Sahifa
1.	ذخیره	*Zaxire*	zaxira	7
2.	منظور	*Manzur*	maqsad	5
3.	قیافه	*Γiyāfe*	qiyofa, tashqi ko‘rinish	5
4.	تشکر	*Tašakkor*	tashakkur, rahmat	5
5.	حساب	*Hesāb*	hisob, sanoq	6
6.	مجال	*Majāl*	majol, imkon	8
7.	حیوان	*Heyvān*	hayvon, jonzot	8
8.	بعضی	*ba’zi*	ba’zi, ayrim	8
9.	رطوبت	*rotubat*	namlik	9
10.	داخل	*dāxel*	ichkari	9
11.	حقه باز	*hoγγebāz*	ayyor, hiylagar	9
12.	احتیاط	*ehtiyāt*	ehtiyotkorlik	9
13.	اشتیاق	*ešteyāγ*	ishtiyoq	9
14.	معده	*me’de*	oshqozon	9
15.	راحت	*rāhat*	qulaylik	7
16.	تقصیر	*taγsir*	ayb, kamchilik	7
17.	تعریف	*ta’rif*	ta’rif	7
18.	دعاگو	*doāgu*	duogo‘y	7
19.	وجود	*vojud*	borlik, mavjudlik	7
20.	نقشه	*nayše*	xarita	7
21.	عطر	*Atr*	atr, ifor	6

[1]Ko‘rsatilgan maqola. – B. 1536.

22.	علف	*alaf*	o‘t, maysa	6
23.	وسط	*vasat*	o‘rta	6
24.	ظرف	*zarf*	idish-tovoq	6
25.	لباس	*Lebās*	kiyim	6
26.	كف	*kaf*	kaft	4
27.	عمق	*Omy*	chuqurlik	5
28.	معركه	*ma’rake*	kurash maydoni	3
29.	هوس	*havas*	havas	3
30.	دوره	*doure*	davr	3
31.	موجودى	*moujudi*	borliq, mavjudot	4
32.	سقف	*Sayf*	tom, shift	2
33.	حسرت	*hasrat*	hasrat, alam	2
34.	اول	*avval*	boshlanish	2
35.	موقع	*mouye*	vaqt, mavqe, o‘rin	2
36.	طور	*Tour*	tarz, yo‘sin	2
37.	اصل	*Asl*	asl, kelib chiqishi	4
38.	نسب	*nasab*	nasab	4
39.	خيال	*Xeyāl*	xayol, o‘y-fikr	9
40.	زمانه	*zamāne*	zamon, davr	3
41.	رفاقت	*ra(e)fāyat*	do‘stlik	3
42.	عجله	*Ajale*	shoshilish	6
43.	التماس	*Eltemās*	iltimos, o‘tinch	7

Asarda ikki marta ishlatilgan o‘zlashma otlar:

№	Arabcha ot	Transkripsiya	Tarjima	Sahifa
1.	سطح	*sath*	sath, yuza	8
2.	قهقهه	*yahyahe*	qahqaha, kulgi	6,7
3.	شرط	*Šart*	shart	7
4.	آدم	*ādam*	inson	7
5.	خارج	*xārej*	tashqari	4
6.	سؤال	*soāl*	savol	6
7.	قصه	*yesse*	qissa, hikoya	2,10
8.	مال	*Māl*	mol, narsa	3,4
9.	عالم	*ālem*	olim, bilimdon	3
10.	فيلسوف	*feylasuf*	faylasuf	3
11.	ظهر	*zohr*	tush, peshin	6,8
12.	هوا	*havā*	havo	6,9
13.	ضربه(ت)	*zarbe*	zarba, turtki	5,8
14.	سرعت	*sor’at*	tezlik	8,9
15.	مدت	*moddat*	muddat	8

Asarda uch marta ishlatilgan o‘zlashma otlar:

№	Arabcha ot	Transkripsiya	Tarjima	Sahifa
1.	بدن	*Badan*	Tana	9
2.	منقار	*Menγār*	Tumshuq	7,9
3.	فكر	*Fekr*	o‘y, fikr	7,9
4.	سلام	*salām*	Salom	4,6,7
5.	اسم	*esm*	ot, nom	4
6.	رفيق	*rafiγ*	o‘rtoq	3,8
7.	كلمه	*kaleme*	so‘z	2,4,6
8.	خبر	*xabar*	xabar, yangilik	2,3,9,10
9.	نور	*nur*	Nur	7

Asarda to‘rt marta ishlatilgan o‘zlashma otlar:

№	Arabcha ot	Transkripsiya	Tarjima	Sahifa
1.	طرف	*taraf*	taraf, tomon	2,8
2.	حضرت	*hazrat*	hazrat	7,8
3.	حلزون	*hal(a)zun*	shilliq qurt	3
4.	بركه	*berke*	hovuz	4
5.	فرار	*ferār*	qochish	7,8
6.	حال	*hāl*	hol, ahvol	4,8,10

Asarda besh marta ishlatilgan o‘zlashma otlar:

№	Arabcha ot	Transkripsiya	Tarjima	Sahifa
1.	عقل	*aγl*	Aql	3,5,8
2.	برق	*barγ*	chaqin, yashin	4,8,9
3.	صبح	*sobh*	Tong	4,7,10
4.	وقت	*vaγt*	Vaqt	2,4,10

Asarda yetti marta ishlatilgan o‘zlashma otlar:

№	Arabcha ot	Transkripsiya	Tarjima	Sahifa
1.	صدا	*sedā*	sado, chaqiriq	3,4,5,6,7,9

Asarda to‘qqiz marta ishlatilgan o‘zlashma otlar:

№	Arabcha ot	Transkripsiya	Tarjima	Sahifa
1.	خنجر	*xanjar*	xanjar, qilich	5,8,9

Asarda o‘n marta ishlatilgan o‘zlashma otlar:

№	Arabcha ot	Transkripsiya	Tarjima	Sahifa
1.	آخر	*āxer*	oxir, yakun	2,5,6

Asarda 18 marta ishlatilgan o‘zlashma otlar:

№	Arabcha ot	Transkripsiya	Tarjima	Sahifa
1.	دنيا	*donyā*	dunyo, olam	2,3,4,5

Asarda 20 marta ishlatilgan o‘zlashma otlar:

№	Arabcha ot	Transkripsiya	Tarjima	Sahifa
1.	حرف	*harf*	so‘z, gap	2,3,4,6,9

Asarda 25 marta ishlatilgan o‘zlashma otlar:

№	Arabcha ot	Transkripsiya	Tarjima	Sahifa
1.	سقا	*sayā*	saqoqush	5,6,7,8

Asardagi arabcha o‘zlashma otlarning barchasi turdosh otlar ekani aniqlandi va quyidagi leksik-semantik guruhlarga ajratildi:

1) Shaxslarga oid turdosh otlar:

حقه‌باز *hoγγebāz* “ayyor”, دعاگو *doāgu* “duogo‘y”, آدم *ādam* “odam”, عالم *ālem* “olim”, حضرت *hazrat* “hazrat”, فیلسوف *feylasuf* “faylasuf”, رفیق *rafiγ* “o‘rtoq”.

(۳) او **رفیق** من بود *U **rafiγ**-e man bud* “U mening **do‘st**im edi”.

2) Narsa-buyumga oid turdosh otlar:

نقشه *naγše* “xarita”, عطر *atr* “hid”, ظرف *zarf* “idish”, لباس *lebās* “kiyim”, سقف *sayf* “tom”, ذخیره *zaxire* “zaxira”, مال *māl* “mol”, خنجر *xanjar* “xanjar”.

(۶) علف های کوهی در هوا موج میزد **عطر** *(۶) **Atr**-e alaf-hā-ye kuhi dar havā mouj mizad* “Tog‘ o‘tlarining **hidi** havoda mavjlanardi”.

3) Hayvon-qush va o‘simliklarga oid turdosh otlar:

حیوان *heyvān* “hayvon”, علف *’alaf* “o‘t”, موجودی *moujudi* “mavjudot”, حلزون *hal(a)zun* “shilliq qurt”, سقا *sayā* “saqoqush”.

(۳) رفاقت ماهی و **حلزون**، دیگر نشنیده بودیم *(۳) Ra(e)fāγat-e māhi va **hal(a)zun** digar našenide budim* “Baliq va **shilliqqurt** do‘stligini oldin eshitmagan edik”.

4) Tana a’zolariga oid turdosh otlar

قیافه *γiyāfe* “qiyofa” معده *me’de* “me’da” وجود *vojud* “tana”, “jism”, کف *kaf* “kaft”, بدن *badan* “tana” منقار *menγār* “tumshuq”.

(۹) ماهی ریزه در **معده** ی ماهی خوار حاضر ایستاده بود *(۹) Māhi-ye rize dar-e **me’de**-ye māhi-ye xār hāzer istāde bud* “Kichik baliq chag‘alayning **qorni**da tayyor turgan edi”.

5) Joy-makonga oid turdosh otlar:

داخل *dāxel* “ichkari”, وسط *vasat* “o‘rta”, عمق *omγ* “chuqurlik”, معرکه *ma’rake* “kurash maydoni”, موقع *mouγe* “mavqe”, “o‘rin”, سطح *sath* “sath”, خارج *xārej* “tashqari”, هوا *havā* “havo”, طرف *taraf* “taraf”, برکه *berke* “hovuz”, دنیا *donyā* “dunyo”, اول *avval* “boshlanish”, آخر *āxer* “yakun”.

(۴) مگر غیر از **برکه**، دنیای دیگری هم داریم؟ *(۴) Magar γeyr az berke donyā-ye digari ham dārim?* “Nahot, bizda **ko‘lmak**dan tashqari boshqa bir dunyo ham bo‘lsa?”

6) Vaqt-zamonga oid turdosh otlar:

دوره *doure* “davr”, زمانه *zamāne* “zamon”, ظهر*zohr* “tush”, سرعت *sor’at* “tezlik, مدت *moddat* “muddat”, صبح *sobh* “tong”, وقت *vaγt* “vaqt”.

(۶) بعد از **ظهر** به جایی رسید که دره پهن میشد وآب از وسط بیشه ای می‌گذشت *Ba'd az **zohr** be jāi rasid ke dare pahn mišod va āb az vasat-e biše-i migozašt* "**Tush**dan keyin vodiy kengayib, suv chakalakzordan o'tadigan joyga yetib keldi".

7) Mavhum tushunchalarga oid turdosh otlar:

منظور *manzur* "maqsad", تشکر *tašakkor* "tashakkur", احتیاط *ehtiyāt* "ehtiyot", اشتیاق *eštiyāγ* "ishtiyoq", راحت *rāhat* "rohat", هوس *havas* "havas", حسرت *hasrat* "hasrat", خیال *xiyāl* "xayol", فکر *fekr* "o'y", سلام *salām* "salom", عقل *aγl* "aql", مجال *majāl* "majol".

(۲) **حسرت** به دلش مانده بود که یک دفعه هم که شده ***Hasrat** be delaš mānde bud ke yek daf'e ham ke šode* "Bir marotaba bo'lsa ham, **hasrat** dilida qolgan edi".

To'plangan o'zlashma otlarning aksariyati tarkib jihatdan sodda otlar bo'lib, yasama otlar sanoqli uchradi (2 ta):

1) دعاگو *doāgu* "duogo'y" = دعا *doā* "duo" $_{\text{arabcha}}$ + گو *gu* – گفتن *goftan* "aytmoq" fe'lining HZN $_{\text{forscha}}$

2) حقه باز *hoγγebāz* "ayyor", "hiylagar" = حقه *hoγγe* "ayyorlik" $_{\text{arabcha}}$ + باز *bāz* – باختن *bāxtan* "o'ynamoq" fe'lining HZN $_{\text{forscha}}$

Aslida, فیلسوف *feylasuf*[1] so'zi ham qo'shma ot bo'lgan va arab tilining o'zigayoq sodda ot shaklida o'zlashgan.

Arab tilida آدم *ādam*[2] so'zi atoqli ot sanalib, fors tiliga o'tgach, turdosh otga aylanishi ma'lum bo'ldi:

ماه گفت: کار سختی است، ولی **آدم**ها هر کار دلشان بخواهد *Māh goft: Kār-e saxti ast, vali **ādam**-hā har kār delešān bexāhad* "Oy aytdi: Qiyin ishdir, lekin **odam**larning ko'ngli har qanday ishni tusayveradi".

Tahlil davomida ayrim arabcha sifatdoshlarda otlashish holati kuzatildi:

1) forscha ot yasovchi "*yoy-e masdari*" bilan otlashgan so'z:

تو دیگر چه **موجودی** هستی؟ *To digar če **moujudi** hasti?* "Sen yana qanday **mavjudot** bo'lding?"

2) arab tilidagi فاعل yoki مفعول vaznidan yasalgan sifatdoshlarning fors tilida ot vazifasini o'tab kelishi:

منظور = مفعول

خرچنگ گفت: **منظور**ت قورباغه است؟ *Xarčang goft: **manzur**at γurbāγe ast?* "Qisqichbaqa aytdi: Qurbaqani **nazar**da tutyapsanmi?"

داخل = فاعل

ماهی فکر کرد که کاش ماهی خوار همین حالا قورتش بدهد تا دست کم آب ورطوبت **داخل** شکم او، چند دقیقه ای جلو مرگش را بگیرد *Māhi fekr kard ke kāš māhixār hamin hālā γurtaš bedahad tā dast-e kam āb-o rotubat-e **dāxel**-e šekam-e u čand daγiγe-i jeluv-e margaš-rā begirad* "Baliq qani edi shu vaqtda chag'alay uni yutib yuborsa-yu,

---

[1] Harper, Douglas R. Online Etymology dictionary (Onlayn etimologik lug'at). 13.09.2017

[2] معجم الوسيط "Mu'jam al-vasit" // (مكتبة الشروق الدولية) Sharq xalqaro kutubxonasi. Misr, Qohira. 2011

loaqal, qorni **ichi**dagi suv va namlik bir necha daqiqaga uning o‘limini oldini olsa, deb o‘yladi”.

Hikoyadagi arabcha otlarning morfologik tahlili ularni ko‘p o‘rinlarda ravish vazifasida kelishini ham ko‘rsatdi. Quyida to‘qqizta arabcha o‘zlash-maning ham ot, ham ravish vazifasida kelishi tahlilga tortiladi:

صبح *sobh* “tong” – ot so‘z turkumi:

از **صبح** تا شام دنیا را میگردیم، اما غیر از خودمان و پدر و مادرمان هیچکس را نمیبینیم، مگر کرمهای ریزه که آنها هم به حساب نمی آیند (۴) *Az **sobh** tā šām donyā-rā migardim, ammā γeyr az xodemān-o pedar-o mādaremān hičkas-rā namibinim, magar kerm-hā-ye rize ke ānhā ham be hesāb nami-āyand* “**Tong**dan shomgacha dunyo kezamiz, ammo o‘zimizdan va ota-onamizdan boshqa hech kimni ko‘rmaymiz, faqat mayda qurtlarni hisobga olmaganda, xolos”.

صبح *sobh* “tongda” – ravish so‘z turkumi:

یک روز **صبح** زود، آفتاب نزده، ماهی کوچولو مادرش را بیدار کرد و گفت (۲) *Yek ruz **sobh**-e zud āftāb nazade, māhi-ye kučulu mādaraš-rā bidār kard va goft* “Bir kuni erta **tongda** quyosh hali chiqmasdan, kichkina baliq onasini uyg‘otdi va aytdi”.

وقت *vaγt* “vaqt” – ot so‘z turkumi:

حالا وقت خواب است (۱۰) *Hālā vaγt-e xāb ast* “Hozir uyqu vaqtidir”.

وقت *vaγt* “vaqt” – ravish so‘z turkumi:

بیشتر **وقت**ها هم از مادرش عقب می افتاد (۲) *Bištar **vaqt**-hā ham az mādaraš aγab mi-oftād* “Aksar **vaqt**larda ham onasidan orqada qolib ketar edi”.

آخر *āxe(a)r* “oxir”, “yakun” – ot so‘z turkumi:

ماهی سیاه کوچولو گفت: می روم **آخر** جویباررا پیدا کنم (۶) *Māhi-ye siyāh-e kučulu goft: miravam **āxer**-e juybār-rā peydā konam* “Kichkina qora baliqcha dedi: anhorning **oxiri**ni topishga boraman”.

آخر *āxe(a)r* “va nihoyat”, “yakunda” – ravish so‘z turkumi:

هم تصمیم گرفتم خودم بروم ببینم آخر جویبار را پیدا کنم **آخرش** (۲) ***Āxareš** ham tasmim gereftam xodam beravam bebinam āxar-e juybār-rā peydā konam* “**Va nihoyat**, o‘zim borib ko‘rib anhorning oxirini topishga qaror qildim”.

اول *avval* “boshi” – ot so‘z turkumi:

جویبار که **اول** وآخر ندارد (۲) *Juybār ke **avval**-o āxer nadārad* “**Boshi**-yu oxiri bo‘lmagan anhor”.

اول *avval* “boshida” – ravish so‘z turkumi:

دست وپایش را گم کرد **اولش** (۴) ***Avvaleš** dast-o pāyaš-rā gom kard* “**Boshida** qo‘l va oyoqlarini yashirdi”.

موقع *mouγe* “vaqt” – ot so‘z turkumi:

حالا **موقع** گردش است (۲) *Hālā **mouγe**-e gardeš ast* “Hozir sayohat **vaqt**i”.

موقع *mouγe* “vaqtida”, “chog‘ida” – ravish so‘z turkumi:

مثلا این را فهمیده ام که بیشتر ماهی ها، **موقع** پیری شکایت میکنند که زندگی‌شان را بیخودی تلف کرده اند (۲) *Masalan, in-rā fahmide-am ke bištar māhi-hā, **mouγe**-e piri šekāyat mikonand ke zendegi-yešān-rā bixodi talaf kardeand* “Masalan, shuni

tushunganmanki, ko‘pchilik baliqlar qarilik **chog‘ida** hayotlarini behuda isrof etganlaridan shikoyat qiladilar”.

خارج *xārej* “tashqari” – ot so‘z turkumi:

(۴) ما که هرگز **خارج** از آب را ندیده ایم *Mā ke hargez **xārej** az āb-rā nadide-im* “Biz hech qachon suvdan **tashqari**ni ko‘rmaganmiz”.

خارج *xārej* “tashqarida” – ravish so‘z turkumi:

(۴) دست کم باید فکر کنید که این آب از کجا به اینجا میریزد و **خارج** از آب چه چیزهایی هست

*Dast-e kam bāyad fekr konid ke in āb az kojā be injā mirizad va **xārej** az āb če čizhā-yi hast* “Loaqal suv buyerga qayerdan quyilishi, suvdan **tashqarida** nimalar borligini o‘ylab ko‘rishingiz kerak”.

طرف *taraf* “taraf”, “tomon” – ot so‘z turkumi:

(۲) از این **طرف** به آن **طرف** میرفت *Az in **taraf** be ān **taraf** miraft* “Bu **taraf**dan u **taraf**ga yurar edi”.

طرف *taraf* “tarafga”, “tomonga” – ravish so‘z turkumi:

(۴) قورباغه عصبانی شد و جست زد **طرف** ماهی سیاه کوچولو *Yurbāγe asabāni šod-o jast zad **taraf-e** māhi-ye siyāh-e kučulu* “Qurbaqa asabiylashib kichkina qora baliq **tarafga** sakradi”.

مدتی *moddati* “muddat”, “bir muddat” – ot so‘z turkumi:

(۸) بعد از **مدتی**، دوباره رفت زیر آب که ته دریا را ببیند *Ba’d az **moddati** dobāre raft zir-e āb ke tah-e daryā-rā bebinad* “**Bir muddat**dan keyin ikkinchi marta dengiz tubini ko‘rish uchun suv ostiga sho‘ng‘idi”.

مدتی *moddati* “biroz”, “biroz muddat” – ravish so‘z turkumi:

(۶) ماهی کوچولو **مدتی** به هیاهوی آنها گوش داد و **مدتی** هم آب تنی بچه هارا تماشا کرد و راه افتاد *Māhi-ye kučulu **moddati** be hayāhu-ye ānhā guš dād va **moddati** ham ābtani-ye baččehā-rā tamāšā kard va rāh oftād* “Kichkina baliq **biroz** ularning shovqin-suroniga quloq tutdi va yana **biroz** bolalarning cho‘milishini tomosha qildi-yu yo‘lga tushdi”.

وسط *vasat* “o‘rta”, “o‘rtasi” – ot so‘z turkumi:

(۶) بعد از ظهر به جایی رسید که دره پهن می‌شد وآب از **وسط** بیشه‌ای می‌گذشت *Ba’d az zohr be jā-i rasid ke dare pahn mišod, va āb az **vasat**-e biše-i migozašt* “Tushdan keyin vodiy kengayib, suv chakalakzor **o‘rtasi**dan o‘tadigan joyga yetib keldi”.

وسط *vasat* “o‘rtasida” – ravish so‘z turkumi:

(۸) راه به یک گله ماهی برخورد — هزارها هزار ماهی! **وسط** *Vasat-e rāh be yek gale māhi barxord – hezār-hā hezār māhi* “Yo‘lning **o‘rtasida** bir gala baliqqa duch keldi – ming-minglab baliqlar!

Xulosa: Samad Behrangiyning "ماهی سیاه کوچولو" asaridan umumiy hisobda 233 ta (takrorlarsiz 83 ta) ot turkumiga mansub arabcha o‘zlashmalar aniqlandi. Manbadan to‘plangan arabcha o‘zlashmalarning barchasi turdosh otlar bo‘lib, ular quyidagi 7 leksik-semantik guruhga ajratildi: a) shaxs otlari (7 ta); b) narsa-buyum otlari (8 ta); c) hayvon-qush va o‘simlik otlari (5 ta); d) tana a’zolari otlari

(6 ta); e) joy-makon otlari (14 ta); f) vaqt-zamon otlari (7 ta); j) mavhum otlar (11ta).

Tahlilga tortilgan o‘zlashma otlarning aksariyati tarkib jihatdan sodda otlar bo‘lib (231 ta), yasama otlar sanoqli uchradi (2 ta). Yasama otlarni hosil qilishda forscha fe’llarning hozirgi-kelasi zamon negizining sermahsul ekani aniqlandi.

Arabcha otlarning morfologik tahlili ba’zi o‘rinlarda (9 ta) ularning ravish vazifasida kelishini ham ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mamatova M. So‘zlarning turkumlarga ajratilishi // “Science and innovation” xalqaro ilmiy jurnali. – T., 2022. – B. 1536.
2. Ali Akbar Dehkhoda. Loghat nāme Dehkhoda, Iran, Tehran. 1931.
3. Mohammad Mo‘in. Farhang-e fārsi-e Mo‘in. Iran, Tehran. 1972.
4. Jibrān Mas’ud. “Mu’jam ar-raaid” “معجم الرائد”. Livan (Lubnon) Bayrut, Daar al-ilm. 1992, (ilk nashr 1964).
5. Harper, Douglas R. Online Etymology dictionary (Onlayn etimologik lug‘at). 13.09.2017
6. معجم "Mu’jam al-vasit" // (مكتبة الشروق الدولية) Sharq xalqaro kutubxonasi الوسيط. Misr, Qohira. 2011

اِسْمُ ‹‹ كَانَ ›› و أَخَوَاتُهَا

ARAB TILIDA “BO‘LMOQ” VA SHU MA’NODAGI FE’LLARNING GRAMMATIK TAHLILI

Shahobiddin YO‘LDOSHEV
TDSHU, Filologiya va tillarni o‘qitish:
arab tili yo‘nalishi (arab-ingliz) guruhi
2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola arab tilida اِسْمُ ‹‹كَانَ›› و أَخَوَاتُهَا (“bo‘lmoq” va shu ma’nodagi fe’llar)ning grammatik tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, maqolada bunday fe’llarning va ular bilan birga keluvchi egalarning grammatik xususiyatlari ilmiy nazariyalar bilan asoslangan va mantiqiy xulosa ham mavjud.

Kalit so‘zlar: اِسْمُ ‹‹كَانَ››, tuslanish, mustaqil fe’l,yordamchi fe’l, لَيْسَ

Аннотация: Данная статья посвящена грамматическому анализу أَخَوَاتُهَا و اِسْمُ ‹‹كَانَ›› («быть» и родственных глаголов) в арабском языке, а также в статье рассматривается употребление таких глаголов и сопровождающих их притяжательных падежей. и есть еще логический вывод.

Ключевые слова: اِسْمُ ‹‹كَانَ››, флексия, независимый глагол, вспомогательный глагол, لَيْسَ

Abstract: This article is devoted to the grammatical analysis of و أَخَوَاتُهَا ‹‹كَانَ›› اِسْمُ (“to be” and related verbs) in Arabic, and the article discusses the use of such verbs and their accompanying possessives. grammatical features are based on scientific theories and there is also a logical conclusion.

Key words: ‹‹كَانَ›› اِسْمُ, inflection, independent verb, auxiliary verb, لَيْسَ

Arab tili — Somiy tillar guruhining janubiy tarmog‘iga mansub til. Yaqin va O‘rta Sharq hamda Afrika shimolidagi yigirmadan ortiq mamlakatning rasmiy davlat tili hisoblanadi. Arab tilida 467 mln. dan ortiq aholi gaplashadi.. Qadimiy arab tili miloddan avvalgi 5 — 4-asrlarga taalluqli obidalar orqali ma’lumdir. U mumtoz arab tilining paydo bo‘lishiga zamin bo‘lgan. Mumtoz arab tilining leksik va grammatik shakllanishi johiliya davri (5 — 7-asrlar) shoirlarining og‘zaki ijodlarida namoyon bo‘la boshlagan. Qur’oni Karimning nozil bo‘lishi natijasida mumtoz arab tili badiiyati yanada go‘zallashdi va grammatik me’yorlari mukammallashdi. 8 — 9 — asrlarda mumtoz arab tili grammatikasi ishlab chiqildi, islom yoyilgan o‘lkalarda rasmiy va ilmiy til bo‘lib qoldi. Ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy va boshqalar ilmiy asarlarini ana shu tilda yozganlar. Arab tili leksik jihatdan bir oz o‘zgargan holda, hozirga qadar arablarning adabiy tili bo‘lib kelmoqda. Buning asosiy sababi arab dunyosini birlashtirib turuvchi Qur’oni Karim, Hadisi Sharif va boshqa mo‘tabar manbalardir[1].

So‘z turkumlari – tildagi so‘z turkumlari bo‘lib, ularda umumiy kategorik ma’no mavjudligiga, grammatik kategoriyalarning yagona tizimiga, o‘ziga xos o‘zgarishlarga, so‘z yasalish shakllari va turlariga, umumiy sintaktik vazifalariga ko‘ra ajratiladi. Har bir til o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda turli sonli so‘z turkumlariga ega. Arab tilida so‘z turkumlari uch guruhga, ingliz tilida ularning soni sakkizga, o‘zbek tilida esa olti guruhga bo‘linadi[2]. Arab tilida so‘z turkumlari uch katta guruhga bo‘linib, bular fe’l,ism va harf so‘z turkumlaridir. Fe’l so‘z turkumiga, fe’l va uning vazifadosh shakllari (sifatdosh, harakat nomi) kabi kiradi. Harfga, yuklama, bog‘lovchi va predloglar, ism turkumiga esa barcha otlar kiradi. Arab tilida o‘zbek tilidan farqli o‘laroq uch turdagi kelishik mavjud bo‘lib, bular arab tilida e’rob (harakat)lar deb ataladi va o‘zbek tilidagi bosh, qaratqich hamda tushum kelishiklariga to‘g‘ri keladi. Biroq arab tilida shunday fe’llar mavjudki, ular gap tarkibida kesim, yoki kesimning tarkibiy qismi sifatida kelib, ega va asosiy kesimga ta’sir qiladi. Bu turdagi ta’sir kelishikda namoyon bo‘lib, biz tuzmoqchi bo‘lgan jumlalarning xatodan xoli bo‘lishi uchun bu bu kabi fe’llarni bilishimiz va ularni to‘g‘ri qo‘llay olishimiz zarur. Maqola shu kabi ilmiy nazariyalarga asoslangan holda yozildi, zero bu kabi grammatik qonun- qoidalarni eslab qolish hamda hayotga tatbiq etish oson bo‘lsin.

Ma’lumki, arab tilida fe’l zamonlari juda oz bo‘lib, faqatgina o‘tgan va hozirgi – kelasi zamoni mavjud (ish – harakatni vaqtini aniq ifodalab bera olmaydi. Ish – harakatning zamonini konkret bildirish uchun ayrim yuklamalar

[1] https://uz.wikipedia.org/wiki/Arab_tili

[2] Grammatical categories in Arabic and English. Shahobiddin Yoldashev Gulnoza Hamidova Khurshida Abdusalomova.page 6.

(قَدْ، سَوْفَ، سَ) kabi ishlatilganida ham zamon to‘la konkretlashmaydi. Hozirgi arab tilida zamonni yanada konkretlashtirish uchun qo‘shma fe’llardan, xususan,**كَانَ** fe’li ishtirok etadigan qo‘shma fe’llardan keng foydalaniladi:

كَانَ fe’lining ma’nosi “bo‘lmoq” bo‘lib, u o‘tgan zamonda quyidagicha tuslanadi:

Shaxs	Jins	Birlik	Ikkilik	Ko‘plik
3	Mz	كَانَ	كَانَا	كَانُو
	mn	كَانَتْ	كَانَتَا	كُنَّ
2	Mz	كُنْتَ	كُنتُمَا	كُنْتُمْ
	mn	كُنْتِ	كُنتُمَا	كُنْتُنَّ
1		كُنْتُ		كُنَّا

Bu va shu kabi fe’llar arab tilida ikki vazifani bajaradi:

1) Mustaqil fe’l:

كُنَّا فِي المَكْتَبِ أمْسِ – kecha biz kutubxonada bo‘lgan edik.

2) Sifat yoki ot bilan birga kelib,o‘tgan yoki kelasi zamonda turgan qo‘shma fe’lning yordamchi fe’li ma’nosida:

كُنَّا مَسْرُورِينَ بِنَجَاحِنَا – biz muvaffaqiyatimizdan mamnun bo‘lgan edik.

كَانَ صَدِيقِي مرِيضًا – do‘stim betob bo‘lib qolgan edi.

Ko‘rib turganimizdek, bunda bu fe’l bilan kelgan sifat yoki ot noaniq holatda ega bilan jinsda va sonda moslashgan holda tushum kelishigida keladi.

كُلُّ تَرْكِيبٍ مِثْلُ: كَانَ الطَّالِبُ عَاقِلًا،و يَكُونُ الطَّالِب عَاقِلًا و مِثْلُ كَانَ ، صَارَ ، أَصْبَحَ ، أضْحَى ، ظَلَّ ، أَمْسَى ، باتَ ، مَا زَالَ ، مَا بَرِحَ، مَا انْفَكَّ ، مَا فَتِئَ ، ما دَامَ ، لَيْسَ[1]

(اسْمًا ل ‹‹كَانَ›› (خَبَرًا ل ‹‹كَانَ››)

Fe’llar ma’nolari bilan yuqorida tanishib chiqishimiz mumkin,bunday gaplarda ega fe’lga nisbatan اسْمًا ل ‹‹كَانَ›› deb ataladi va rof holatida,ya’ni bosh kelishikda keladi. Eganing o‘rni esa gapda yordamchi fe’ldan oldin ham, keyin ham kelishi mumkin,masalan:

ما زَالَ الجَوُّ بَارِدًا – havo sovuq bo‘layotgan edi.

الجَوُّ ما زَالَ بَارِدًا – havo sovuq bo‘layotgan edi.

Kuzatganimizdek, ma’noda hech qanday o‘zgarish yo‘q, ammo arab grammatikasi hamda og‘zaki so‘zlashuvida ham birinchi holat ko‘proq ishlatiladi.

Asosiy kesimning tahliliga kelsak, u gapda yordamchi fe’lga خَبَرًا ل ‹‹كَانَ›› nisbatda keladi va noaniq holatda nasb,ya’ni tushum kelishigida keladi.

---

[1] صَارَ – bo‘lmoq, aylanmoq
أضْحَى – bo‘la boshlamoq
ظَلَّ – qolmoq, davom etmoq
أَمْسَى – bo‘lmoq, bo‘la boshlamoq
مَا زَالَ – davom etmoq
مَا فَتِئَ – bo‘lishda davom etmoq

Masalan,

صَارَ الطَّالِبُ عاقِلًا – talaba aqlli bo‘lgan edi.

Bu fe’llar orasida لَيْسَ alohida ma’no ifodalaydi.O‘zbek tiliga bu fe’l ikki xil ma’noda, ‘emas’ va ‘yo‘q’ kabi tarjima qilinadi.

O‘tgan zamonda quyidagicha tuslanadi:

Shaxs	**Jins**	**Birlik**	**Ikkilik**	**Ko‘plik**
3	**Mz** **Mn**	لَيْسَ لَيْسَتْ	لَيْسَا لَيْسَتَا	لَيْسُوا لَسْنَ
2	**Mz** **Mn**	لَسْتَ لَسْتِ	لَسْتُمَا لَسْتُمَا	لَسْتُم لَسْتُنَّ
1		لَسْتُ		لَسْنَا

Xulosa qilib yozadigan bo’lsak, Arab tili som tillari oilasiga mansub bo’lib, uning grammatikasi boshqa som tillari oilasi grammatikasi bilan juda ko’p o’x-shashliklarga ega. Klassik va zamonaviy arab tillari asosan bir xil grammatikaga ega bo’lib, arabcha so’zlashuv uslubi esa ko’p jihatdan farq qiladi[1]. O‘zbek tili esa oltoy tillari oilasining turkiy tillar turkumiga kiruvchi til. Demak, ikki til kelishik kategoriyalari o‘rtasida o‘xshashliklar umumiy bo‘lib, bu tillar etimologik jihatdan bo‘liq emas. Arab va ingliz tillari turli til oilalariga tegishli. Arab tili semit oilasiga mansub. Bu sintetik til. Ingliz tili hind-yevropa tillari oilasiga kiradi. U sintetik til bo‘lish bilan birgalikda, analitik til ham bo‘la oladi. Arab tilidagi so‘z tartibi ingliz tilidan ko‘ra moslashuvchanroq bo‘lib, u elementlarning qayerda ketma-ket bo‘lishidan qat’i nazar, ularning grammatik funksiyalarini ko‘rsatadi[2]. Yuqoridagi fikrlar aynan bizning ilmiy izlanishlarimizdan kelib chiqqan natijani tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Grammatical categories in Arabic and English. Shahobiddin Yoldashev Gulnoza Hamidova Khurshida Abdusalomova.page 6.
2. Баранов Х. Арабско-русский словарь. -М.,1985.
3. Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi.- T.,1997
4. د. حجازم فهمي لزمود . علم اللغة العربية . القاهرة ، 1989
5. Mogno_edu — Arab tili haqida 10 ta ma’lumot.
6. https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/23311983.2021.1899568

[1] Mogno_edu — Arab tili haqida 10 ta ma’lumot.

[2] https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/23311983.2021.1899568.

KIRISH SO‘Z VA MODAL SO‘ZLAR

Nilufar NORSAFAROVA
Shahrisabz davlat pedagogika instituti,
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi o‘zbek adabiy tilida mavjud modal so‘zlar hamda kirish so‘zlar, ularning o‘xshash va farqli jihatlari haqida fikr yuritiladi. Badiiy asarlardan foydalangan holatda ularga misollar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: so‘z turkumlari, modal so‘z, kirish so‘z, fikr- mulohaza, munosabat, morfologiya, sintaksis, so‘z birikmasi, gap, tahlili, punktuatsiya, aloqa.

Аннотация: В данной статье рассматриваются модальные слова, существующие в современном узбекском литературном языке, а также вводные слова, их сходства и различия. Примеры приведены в случае использования художественных произведений.

Ключевые слова: категории слов, модальное слово, вводное слово, обратная связь, отношение, морфология, синтаксис, словарный запас, предложение, анализ, пунктуация, коммуникация.

Abstract: This article reflects on the existing modal words and introductory words in the current Uzbek literary language, their similarities and differences. Examples of them are given in the case when using works of art.

Key words: word categories, modal word, introduction, feedback, attitude, morphology, syntax, vocabulary, sentence, analysis, punctuation, communication.

So‘zlovchining fikriga ishonch, gumon, taxmin singari ma’nolarni qo‘shadigan so‘zlarga **kirish so‘zlar** deyiladi.

Kirish so‘zlar yozuvda gapning boshqa bo‘laklaridan doimo vergul(,) bilan ajratiladi.

Tahlilda kirish so‘zlar to‘g‘ri chiziq ostiga to‘lqinli chiziq chizish bilan ifodalanadi.[1]

Kirish so‘zlar gapning turli o‘rinlarida qo‘llanila oladi. Yozuvda gap boshida kelsa, kirish so‘zlardan so‘ng, o‘rtasida kelsa, kirish so‘zning har ikki tomonidan, gap oxirida kelsa, kirish so‘zdan oldin vergul qo‘yiladi.[2]

Ifodalanayotgan fikrga so‘zlovchining munosabatini (ishonch, gumon, achinish kabi) bildirgan so‘zlarga **modal so‘zlar** deyiladi. Modal so‘zlar gap tarkibida boshqa so‘zlardan vergul bilan ajratiladi. Modal so‘zlarning ma’no turlari. Modal so‘zlar ishonch, gumon, quvonch, afsuslanish, fikrning tartibi, xulosasi kabi ma’nolarni anglatadi.

---

[1]5-sinf ona tili darslik. To‘ldirilgan to‘rtinchi nashri. Toshkent “Ma’naviyat” 2015. 62-bet
[2]5-sinf ona tili darslik. To‘ldirilgan to‘rtinchi nashri. Toshkent “Ma’naviyat” 2015.63-bet

Modal so‘zlarning ma’nolari	Modal so‘zlar	Misollar
Ishonch	Albatta, Shaksiz	
Gumon	Ehtimol, Chamasi, Shekilli	
Tasdiq	Darhaqiqat, Haqiqatdan	
Fikrni xulosalash	Xullas, Demak, Umuman	
Fikrning tartibi	Avvalo, avvalambor	
Fikrning dalillanishi	Masalan, jumladan	
Achinish	Attang, afsus	
Quvonch	Xayriyat	

Sof va vazifadosh modal so‘zlar. Modal so‘zlar ham sof modal so‘zlar va vazifadosh modal so‘zlarga bo‘linadi. Faqat modal ma’no uchun xoslangan so‘zlar **sof modal so‘zlar** sanaladi: haqiqatan, darhaqiqat, afsuski, attang, albatta, shekilli, avvalambor, xullas, koshki, masalan kabi.

Modal ma’noda ham qo‘llangan aftidan, chamasi, umuman, ehtimol, taxminan, shubhasiz singari so‘zlar **vazifadosh modal** so‘zlar hisoblanadi. [1]

Modallar asosan quyidagi turkumlarning birligidan ma’no taraqqiyoti asosida o‘sib chiqqan :

1. Ot leksemashakldan o‘sib chiqqan: modallarning ko‘pchilik qismini shular tashkil qiladi. Bunda modal:

1) tub leksemashaklga teng deb qaraladi: ehtimol kabi;

2) asli arabcha leksemaning tushum kelishigi shakliga teng bo‘lib, o‘zbek tili nuqtayi nazaridan tub deb qaraladi: (haqiqat+an) kabi;

3) asli predlog va leksemadan iborat bo‘lib, o‘zbek tili nuqtayi nazaridan tub deb qaraladi: darhaqiqat (tojikcha dar predlogi va arab tilidan o‘zlashgan haqiqat leksemasidan iborat bo‘lib, tojik tilida analitik grammatik shaklli leksemashakl sifatida dar haqiqat shaklida ajratib yoziladi), darvoqe (Bu modal ham xuddi shunday tuzilgan: dar predlogi+arabcha ‘voqe’ — ‘haqiqatda’) kabi. Arxaik filhaqiqat modali esa arabcha fi predlogi, al aniqlik artikli va haqiqat (un) leksemasidan tuzilgan: fi al haqiqat → filhaqiqat;

4) asli “ot leksema+atributiv shakl yasovchi” tarkibiga ega leksemashakldan o‘sib chiqqan va ma’noli qismlarga ajratilmaydigan bo‘lgan: shubha+siz =shubhasiz, shakl+li=shekilli kabi (Keyingi misolda kelgan kll tovushlarini talaffuz qilish qiyin bo‘lgani uchun kl tovushlari oralig‘iga i tovushi kiritilgan) kabi;

5) asli leksema va shakl hosil qiladigan morfemadan tuzilgan bo‘lib, modal turkum birligi sifatida o‘sib chiqqan, shakl hosil qiladigan morfemalar o‘z grammatik mohiyatini yo‘qotgan, ajratilmaydigan bo‘lgan. Bunday modallar asli:

[1] 7- sinf ona tili darslik. To‘ldirilgan va qayta ishlangan 4-nashri. Toshkent “Ma’naviyat” 2017. 129-133-betlar.

a) “leksema+birlik sonlovchisi+III shaxs nisbatlovchisi+bosh kelishik ko‘rsatkichi” tarkibiga ega bo‘lgan: chama+I+si+Ø II=chamasi,

mazmun+ØI+i+ØII=mazmuni kabi.

b) “leksema+birlik sonlovchisi+o‘rin yoki chiqish kelishigi affiksi” tarkibiga ega bo‘lgan: haqiqat+ØI+da=haqiqatda, rost+ØI+dan=rostdan kabi (Keyingi modal ko‘pincha rostdan ham shaklida yukl bilan ishlatiladi);

d) “leksema+ birlik sonlovchisi+III shaxs nisbatlovchisi+o‘rin yoki chiqish kelishigi affiksi tarkibiga ega bo‘lgan”: asl+ØI+i+da=aslida, aft+ØI+i+dan=aftidan kabi.

2. Otdan boshqa turkum leksemalaridan o‘sib chiqqan:

1)Sifat leksemashakldan o‘sib chiqqan: tabiiy kabi;

2) Ravish leksemashakldan o‘sib chiqqan : albatta kabi;

3) Tojikcha xoh-noxoh fe’l shaklidan o‘sib chiqqan : bunda xoh –’ista’, no –’-ma’, xoh-noxoh fe’l shaklidan –’ista — istama’ o‘zbek tilida har ikki qism oxiridagi h tovushi y tovushiga, ikkinchi qismdagi birinchi o tovushi a tovushiga almashgan: xoh-noxoh → xoynaxoy; ma’noda ham jiddiy o‘zgarish yuz bergan : ’ista-istama’ → ’ tusmol’;

4) Bog‘lovchidan o‘sib chiqqan: balki.

3. Birikmashakl hokim a’zoning ellipslanishi (tushirilishi) natijasida yuzaga kelgan: o‘z — o‘zidan kabi.

4. Birikma shaklning modalga aylanishi bilan yuzaga kelgan: har qalay, har holda kabi.

Biror turkum birligi asosida modal birlik o‘sib bo‘lsa, bunday hollarda odatda omonimiya voqe bo‘ladi[1]

Kirish so‘zlar kiritma tarkibidagi bitta qism hisoblanib, kiritmalar uch turga bo‘linadi:

1. Kirish so‘z
2. Kirish birikma
3. Kirish gap.

Kirish so‘zlar hech qachon gap bo‘lagi bo‘la olmaydi va boshqa bo‘laklar bilan hech qanday aloqaga kirishmaydi.

Kirishlar juda katta uslubiy, ekspressiv-emotsional imkoniyatlarga ega. Kirishlar asosan subyektiv baho ifodalaganligi bois rasmiy uslubda deyarli qo‘llanmaydi. Bunday so‘zlar nutqning ifodaliligi, ta’sirchanligini oshiradi.

Modal so‘z va kirish so‘zlarning asosiy farqlaridan biri modal so‘z morfologiyada, kirish so‘z esa sintaksisda o‘rganiladi. Misol uchun, mashq yoki topshiriqlarda quyida keltirilgan gapdagi so‘z turkumlarini aniqlang deyilsa, modal so‘z hisoblanadi. Masalan, avvalo, inson iymonli bo‘lmog‘i lozim, gapini

[1] Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, darslik. Toshkent. “Universitet” –2006. 135-138-betlar

olaylik. Ushbu gapni morfologik jihatdan tahlil qilamiz, ya'ni so'z turkumlariga ajratib chiqamiz:

Kirish so'z, ot, sifat, fe'l emas, balki **MODAL SO'Z, OT, SIFAT, FE'L.**

Avvalo, inson iymonli bo'lmog'i lozim gapini sintaktik tahlil, ya'ni gap bo'laklarini aniqlab tahlil qiling deyilsa, KIRISH SO'Z (modal so'z emas), OT, SIFAT, FE'L tarzida tahlil qilinadi. Bularni farqlab olish esa, asosan, abituriyentlarga testlarni yechishda asqatadi.

Modal so'zlar barcha badiiy asarlarda uchraydi, undan juda keng foydalaniladi. Quyida esa modal so'zlarning har bir ma'no turiga har xil badiiy asarlardan olingan modallar birma-bir tavsif etilib yozilgan:

1. Ishonch: Bu mening orzularim, albatta.[1]

2. Gumon: Ehtimol, u ham menga o'xshab hech qachon ajralmaslik uchun uzoq va tinimsiz yurishni istayotgandir[2].

3. Tasdiq: Haqiqatan, kechga tomon Murod Alining ahvoli og'irlashdi, kechasi singlisini chaqirib: "Darmonim borida aytadigan gapimni aytib qo'yay", debdi. [3]

4. Fikrni xulosalash: U hech qachon ko'rpa ostida ham uxlamagan, demakki, yupqa oq poyandoz nima ekanini ham bilmagan.[4]

5. Fikrning tartibi: Bu, avvalo, dadasining xohishi bo'lsa, undan keyin, boyagi qilgan dag'alligi uchun uzr so'ragan edi.[5]

6. Fikrni dalillash: –Masalan, men ovqat yemayman, –dedi sovuqqonlik bilan.

—Qarang — a, men sizning to'yib kelishingizni bilmabman.[6]

Bu modal so'zdan ko'pincha dialoglarda keng foydalaniladi.

7. Achinish : Eh, attang, u yerda ham ishlashini aytsam bo'lar ekan.[7]

8. Quvonch: Xayriyat, Ota hanuz safardan ketmabdi. Hozircha Farg'onada ekan.[8]

9.Afsuski, siz imtihonda yaxshi o'qimadingiz.

---

[1] Chingiz Aytmatov. Sarvqomat dilbarim (qissa). "Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati", Toshkent—2019.(8-bet)

[2] Chingiz Aytmatov. Sarvqomat dilbarim (qissa). "Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati", Toshkent—2019.[8-bet]

[3] Abdulla Qahhor. Muhabbat(qissa). Toshkent G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti — 1998. 303-bet

[4] Rasul Hamzatov. Mening Dog'istonim. Birinchi kitob. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent — 2008. 16-bet

[5] Abdulla Qahhor. Muhabbat(qissa). Toshkent G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti — 1998. 303-bet

[6] O'tkir Hoshimov. Turmushning to'rt tirgagi (qissa va hikoyalar). Meriyus. Toshkent — 2018

[7] Shuhrat. Oltin zanglamas. "Sharq" nashriyot- matbaa konserni bosh tahririyati. Toshkent — 1995. 14-bet

[8] Odil Yoqubov. Osiy banda. 37-bet

Xulosa o‘rnida aytish joizki, maqolada hozirgi o‘zbek adabiy tilida mavjud modal so‘zlar hamda kirish so‘zlar, ularning o‘xshash va farqli jihatlari haqida fikrlar qiyoslandi. Badiiy asarlardan foydalangan holatda ularga misollar keltirildi.

Kirish so‘zlar gapning turli o‘rinlarida qo‘llanila olishi, yozuvda gap boshida kelsa, kirish so‘zlardan so‘ng, o‘rtasida kelsa, kirish so‘zning har ikki tomonidan, gap oxirida kelsa, kirish so‘zdan oldin vergul qo‘yilishi ifodalandi. Ifodalanayotgan fikrga so‘zlovchining munosabatini (ishonch, gumon, achinish kabi) bildirgan so‘zlarga modal so‘zlar deyiladi. Modal so‘zlar gap tarkibida boshqa so‘zlardan vergul bilan ajratiladi. Modal so‘zlarning ma’no turlari. Modal so‘zlar ishonch, gumon, quvonch, afsuslanish, fikrning tartibi, xulosasi kabi ma’nolarni anglatadi. Kirishlar juda katta uslubiy, ekspressiv-emotsional imkoniyatlarga ega. Kirishlar asosan subyektiv baho ifodalaganligi bois rasmiy uslubda deyarli qo‘llanmaydi. Bunday so‘zlar nutqning ifodaliligi, ta’sirchanligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulla Qahhor. Muhabbat (qissa). Toshkent G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti –1998.

2. Rasul Hamzatov. Mening Dog‘istonim. Birinchi kitob. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent –2008.

3. O‘tkir Hoshimov. Turmushning to‘rt tirgagi. Qissa va hikoyalar. Meriyus, Toshkent–2018.

4. Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (darslik). Toshkent. “Universitet” — 2006.

5. Shuhrat. Oltin zanglamas. “Sharq” nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati. Toshkent — 1995.

6. Chingiz Aytmatov. Sarvqomat dilbarim (qissa). “Sharq” nashriyot — matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, Toshkent –2009.

7. 5-sinf ona tili darslik. To‘ldirilgan to‘rtinchi nashri. Toshkent “Ma’naviyat” 2015.

8. 7- sinf ona tili darslik. To‘ldirilgan va qayta ishlangan 4-nashri. Toshkent “Ma’naviyat” 2017.

9. 8-sinf ona tili darslik. To‘rtinchi nashri. Cho‘lpon nomidagi nashriyot — matbaa ijodiy uyi, Toshkent –2019.

10. https://www.ziyouz.com/ kutubxona

SINXRON VA KETMA-KET TARJIMADA KLISHE TUSHUNCHASI

Shirin MIRSADIKOVA
TDSHU, Sinxron tarjima (yapon tili) yo‘nalishi,
magistratura 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada klishe haqida umumiy tushuncha, unga bog‘liq bo‘lgan ko‘nikmalar hamda til birliklarining o‘ziga xosligi, shu mavzuga doir bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy lingvistika, klishe, tadqiqot, termin.

Аннотация: В данной статье дается общее представление о клише, связанных с ним терминах, уникальных аспектах языка и проведенных научных исследованиях на эту тему.

Ключевые слова: современное лингвистика, клише, исследование, термин.

Abstract: This article describes the phenomenon of cliche, one of the main units of lingvoculturology, its introduction into science, research conducted by various linguists in this section, and their views.

Key words: modern linguistics, kliche, research, term.

Zamonaviy lingvistika hamda sinxron tarjimada klishe termini haqida ilmiy izlanishlar yil sari ko‘paymoqda. Klishe haqida ilmiy izlanishlar, uning tilshunoslikdagi ahamiyati haqida tahlil qilingan bo‘lsada, har bir tadqiqotchi o‘z ilmiy izlanishida unga o‘zgacha ta’rif keltirib o‘tgan.

Klishe so‘zi (fransuzcha cliché – suhbatdagi qolip so‘zlar). Mashhur rus tilshunos olim Yartsevaning “Katta ensiklopedik lug‘ati” da ta’kidlab o‘tilgan.[1]

X.X. Xamidov klisheni quyidagicha ta’riflaydi: “klishe- (bosma-qolip nutq formulasi). Har doim bir xil ma’noga ega va bir xil ma’lumotni saqlaydigan tez-tez takrorlanmaydigan nutq formulasi. Stereotip so‘zlar va jumlalar. Tarjimaning eng keng tarqalgan turi. Nutqiy stereotip tayyor nutq oboroti. Klishe shtamp (qolip) dan farqli o‘laroq o‘z semantikasi, ko‘p holatlarda ifodaviyligini saqlab qoluvchi konstruktiv birlikni tashkil etadi[2].

Tadqiqotlarda ifodalangan klisheni o‘rganish borasidagi bunday ilmiy yondashuvni o‘rinli deb tan olish lozim.

Buyuk Britaniyalik tilshunos tadqiqotchilari Keith Brown hamda Jim Miller “Kembridj lingvistik lug‘ati” da klishe – dastlab metafora (turg‘un ibora) ni bildirdi ammo ko‘p ishlatilish natijasida siyqasi chiqqan turg‘un iboraga aylandi, deya ta’riflab keyin misollarni keltirishadi: eng muhimi shuki…, (The bottom line is…,) tez-tez uchrashishga kelishib olamiz… (We will arrange to

---

[1] Yarseva L. Katta ensiklopedik lug‘at: Tilshunoslik. – M.: Nauka, 1998. – B. 229.
[2] Xamidov X.X., Hasanova Sh.A. Ruscha sinxron tarjimada terminlarning o‘zbekcha izohli lug‘ati. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. – B. 184.

touch base).[1] O‘zbek tilida “siyqasi chiqqan so‘z” salbiy unsuri mavjudligi sababli, ushbu tarjimaga qo‘shilmaymiz.

Shuningdek, Longman o‘zining “tilni o‘rganish va uni lingvistikada qo‘llanilishi lug‘ati”[2] da klisheni ot so‘z turkumi va negiz mohiyatini yo‘qotgan hamda o‘z xususiyatini haddan ziyod ishlatilishi tufayli yo‘qotgan so‘z va tushuncha deb keltirgan. Ammo, ba’zi klishelar bundan mustasno. Masalan, yapon tilidagi 「初めまして」 [hajimemashite] kirish so‘zini misol tariqasida oladigan bo‘lsak, bu klishe so‘zidan ko‘p hollarda biznes uchrashuvlarda, yig’ilish, majlislarda, kechalar, janglar va boshqa tadbirlar boshlanishidan avval foydalaniladi. Suhbatchi boshqa suhbatchini ilk bora ko‘rib turganda, o‘zini tanishtirishdan avval ushbu klisheni ishlatadi. O‘zbek tilida esa, bu so‘z aynan shu o‘rinda ishlatiladigan hollar kuzatilsa-da, rasmiy uchrashuv hamda davlat yig’ilishlarida doim ham qo‘llanilmaydi.

Shuningdek, ikkinchi darajali matn — bu asosiy g‘oyalarning qisqacha, mantiqiy tuzilishi ular o‘rtasidagi ichki mantiqiy aloqalarni o‘rnatish uchun ishlatiladigan nutq klishelaridan foydalangan holda original matnning semantik chegaralaridir. Nutq klishelari turli funksiyalarni bajarishi mumkin — tavsif, qo‘shimcha qilish, aniqlashtirish, mavzuni yanada takomillashtirish, o‘zaro solishtirish, taqqoslash yoki umumlashtirish. Eng keng tarqalgan xatolardan biri bu klishelarni o‘quvchilar tomonidan ularni umumlashtirish orqali mexanik ravishda yodlashidir va har bir yangi shakllangan fikr bilan o‘ylamasdan ulardan nutqda foydalanish hisoblanadi.[3] Klishelar turli xildagi so‘z va iboralar bo‘lganligi sababli, doim ham mavzuni aniqlashtirish, umumlashtirish kabi vazifalarni bajaravermaydi. Shu sababli ham, bu tushunchaga neytrallik bilan yondashganimiz ma’qulroq.

Tilning asosiy vazifasi hisoblangan aloqa vositasi sifatida, undan foydalanish butun inson hayoti doirasini qamrab oladi: inson hayoti davomida, ta’lim sohasi, madaniyat, iqtisodiyot, siyosat, huquq va boshqalar hayot sohalari shular jumlasidandir. Ko‘pchilik umrlari mobaynida tildan foydalanadilar, va bu tilning uslubiy yaratilishiga aylanadi. Tilning har bir uslubi o‘ziga xos xususiyatga ega. Bu ham klishe tili uslubini kashf etilishiga yaqqol dalildir.[4] Ya’ni, tildan foydalanish davomida, turli sohalarga oid klishelar biz bilgan va bilmagan tarzda yaraladi. Shu sabab, turli vazifalarni o‘tovchi so‘z birikmalari bo‘lgan klishelar yaraladi. Biz klishelar haqida gapirar ekanmiz, ular har bir tilda o‘ziga xos ahamiyat kasb etishini hamda har bir ilmiy tadqiqotchi tomonidan unga nisbatan o‘zgacha ta’rif keltirilishini ta’kidlashimiz darkor.

---

[1] Keith Brown, Jim Miller. Kembridj lingvistik lug‘ati. Buyuk Britaniya, 2013. – P. 80.
[2] Longman. Tilni o‘rganish va uni lingvistikada qo‘llanilishi lug‘ati 4-nashr. 2010. – 82 b.
[3] Bogdanova, Evgeniya. — Teaching to Use Speech Clichés When Summarizing Professional Texts. Russia, — March 25, 2022).
[4] Nila Afningsih. International Journal of Research and Review. Vol. 7., Issue: 9. Moscow. September 2020. -P 145.

“Klishe” so‘zi qachon birinchi marta metafora sifatida ishlatilgan? Le Nouveau Petit Robertga ko‘ra, “tayyor g‘oya yoki juda tez-tez ishlatiladigan ifoda” ning majoziy va biroz negativ ma’noda 1869- yilda Fransiyada paydo bo‘lgan. Ingliz tiliga kelsak, OED birinchi sana sifatida 1892 -yilni ko‘rsatadi. Klishedan foydalanish “qoliplangan ibora, oddiy ibora, shuningdek, stereotip-lashgan xarakter, uslub va hokazo” ma’nosini bildiradi. Ingliz tilidagi klishedan foydalanish umumiy foydalanishga aylanishidan oldin biroz vaqt o‘tganga o‘xshaydi: “The King‘s English” ning aka-uka Fauler tomonidan nashr etilgan ikkinchi nashri (1908)., bu haqda to‘xtalib o‘tmaydi, holbuki A Dictionary of Modern English Usage (Fowler1926) da klishe texnik atamalar orasida uchraydi, ya’ni “stereotip bloke” degan ma’noni anglatadi, bu fransuzcha ism bo‘lib, iboralarni nomlash uchun ishlatiladi.[1]

Yuqorida keltirilgan manbaga qaraganda, klishelarni kelib chiqish tarixini ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni, u Fransiyaga va o‘z-o‘zidan fransuz tiliga borib taqa-ladi. Ammo, ingliz tili manbalarida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Bugunga kunga qadar, tilshunoslar tomonidan klishening ko‘plab qirralari o‘rganib, ilmiy ishlar yaratilib kelinmoqda. Xulosa qilib shuni ta’kidlash muhimki, klishelar “stereotip so‘z va so‘z birikmalari” ya’ni “qoliplashgan so‘z va so‘z birikmalari” demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yarseva. Katta ensiklopedik lug‘at: Tilshunoslik. 2-nashr. Ilmiy nashriyot, Moskva, 1998. – 229 b.
2. X.X. Xamidov, Sh. A. Hasanova. Ruscha sinxron tarjimada terminlarning o‘zbekcha izohli lug‘ ati/lug‘ at/- Toshkent: Nodirabegim, 2020. - 184 b.
3. Keith Brown, Jim Miller. Kembridj lingvistik lug‘ati. Buyuk Britaniya, 2013.- 80 b.
4. Longman. Tilni o‘rganish va uni lingvistikada qo‘llanilishi lug‘ati 4-nashr. 2010. – 82 b.
5. Bogdanova, Evgeniya. — Teaching to Use Speech Clichés When Summarizing Professional Texts. Russia, — March 25, 2022. -P. 2.
6. Nila Afningsih. International Journal of Research and Review. Vol.7; Issue: 9. Moscow. September 2020. -P. 145.
7. David Chapman. Cognitive Clichés. Massachusetts. -April 1986. -P. 9.
8. Adolphe Haberer. A Defence of the Cliché. France. -May 2008. -P.141.

[1] Adolphe Haberer. A Defence of the Cliché. France. May 2008. -P.141.

DARIY TILIDA TOPONIMLARNING LEKSIK-STRUKTUR TAHLILI

Karimaxon SULTONOVA
TDSHU, Filologiya va tillarni o‘qitish(dariy) yo‘nalishi
4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Afg‘onistonda uchraydigan daryolar nomlarining struktur-semantik tahliliga bag‘ishlangan. Maqolada joy nomlarining qanday ma’noni anglatishi, uni to‘g‘ri izohlash u joyning tabiiy-tarixiy xususiyatlari, aholisi va xo‘jaligi haqida qiziqarli materiallar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Toponim, tilshunoslik, geografik atamalar, lingvistika fani, affikslar, turlar, onomastika, prefikslar.

Аннотация: Данная статья посвящена структурно-семантическому анализу названий рек, встречающихся на территории Афганистана. В статье собраны интересные материалы о значении топонимов, их правильной интерпретации, естественно-исторических особенностях, населении и экономике этого места.

Ключевые слова: Топонимия, языкознание, географические термины, языкознание, аффиксы, виды, ономастика, приставки.

Abstract: This article is devoted to the structural-semantic analysis of the names of rivers found in Afghanistan. The article contains interesting materials about the meaning of place names, their correct interpretation, natural-historical features, population and economy of that place.

Key words: Toponym, linguistics, geographical terms, linguistics, affixes, species, onomastics, prefixes.

Geografik obyektlar nomlari yig‘indisi uslubiy adabiyotda geografik nomenklatura deb ataladi. Ta’lim jarayonida nomlarni o‘zlashtirishda toponimikaning turli yo‘nalishlari foydali hisoblanadi, jumladan, geografik nomlarning mazmuni, ma’nosini aniqlash, to‘g‘ri yozilishi va talaffuz qilinishini bilish va boshqalar.[1] Toponimika fani biz o‘ylaganchalik oson, tor mavzudagi fan emas. Bu fanni o‘rganib borar ekanmiz yanada qiziqishimiz oshib boradi. Har bir shaxs o‘zi yashab turgan joy atrofidagi turli xil maskanlar haqida bilishni xohlaydi va tarixini o‘rgangan sari har bir joyning nomiga ham e’tibor beradi va yanada qiziqishi oshadi. Biz bu maqolada ana shunday qiziqarli ma’lumotlardan biri bo‘lmish toponimika haqida ochib beramiz. Asosan Afg‘oniston davlatidagi daryolar nomi haqidagi ma’lumotlarga to‘xtalamiz. Avvalambor, toponimika haqida biroz tushuncha beramiz.

“Joy nomlari, ya’ni toponimika bir necha turga bo‘linadi. Bular: gidronimiya (yunoncha gidro — suv), ya’ni daryolar, ko‘llar, dengizlar, soylar, kanallar, qo‘ltiqlar, bo‘g‘ozlar, sharsharalar nomlari; oronimiya (yunoncha oros — tog‘, ya’ni yer yuzasining relef shakllari) — tog‘lar, cho‘qqilar, qirlar, vodiylar, tekisliklar nomlari; oykonimiya (yunoncha oykos — uy), polinimiya (yunoncha polis —

[1] Qorayev S. Toponimika. – T., 2006. b.106.

shahar) yoki urbanonomiya (lotincha urbos — shahar), ya’ni qishloq hamda shaharlarning nomlari, mikrotoponimiya (yunoncha mikros — kichik), ya’ni kichik obyektlar: buloqlar, quduqlar, dalalar, o‘tloqlar daraxtzorlar, jarlar, yo‘llar, ko‘priklar va hatto atoqli otga ega bo‘lgan ayrim daraxtlar nomlari. Bundan tashqari, turli xalq, urug‘ — aymoq nomlari bilan atalgan toponimlar etnotoponimlar (yunoncha etnos — xalq) deyiladi. Kishi ismlari bilan yuritiladigan toponimlarni esa antropotoponimlar (yunoncha antropos — odam) deb atash mumkin”[1]

“Toponimikada antropotoponimlar deb kishilarning ismlari, laqablari, taxalluslari va familiyalaridan yasalgan joy nomlariga aytiladi. Bunday geografik nomlar ko‘proq aholi manzilgohlariga, shahar, qishloq, ko‘cha, mahallalarga berilganligi uchun ularni antropooykonimlar deb atash qabul qilingan. Mazkur geografik nomlarni ikkita toifaga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq. Birinchi guruhga bu joyni birinchi bo‘lib ochgan, egalik qilgan, obod qilgan kishilarning ismlari, laqablari, taxalluslari va familiyalaridan olingan geografik nomlar kiradi, masalan, Akbarobod, Xo‘jaobod, Xaydarobod, Sherobod, Chekobod, Chek Jo‘rabek, Chek Sharif va boshqalar. Ikkinchi guruhga xotira maqsadida qo‘yilgan nomlar kiritiladi. Inson faoliyatini turli jabhalarida katta xizmat qilgan ulug‘, mashhur insonlar nomlarini abadiylashtirish maqsadida ularning ismlari, familiyalari joy nomlariga qo‘yiladi. Birgina Aleksandr Makedonskiyning nomi Aleksandriya, Iskandariya ko‘rinishida 30 dan ortiq shaharlarga qo‘yilgani ma’lum”. [2] Afg‘oniston davlatining bir – biridan ajoyib daryolardan biri Arg‘andab daryosi (رود ارغنداب) haqida to‘xtalamiz.

ایرانیان باستان که پیرامون سه هزار سال پیش برای سکونت به این منطقه رسیدند این رود را به نام رود افسانه‌ای در داستان‌های ایران باستان یعنی رود هَرَهُوَتی نامیدند. این نام به مرور به صورت ارغند درآمد و سپس ارغنداب نامیده شد.[3]

Taxminan uch ming yil oldin bu hududga kelib qo‘nim topgan qadimgi eroniylar bu daryoni qadimgi Eron hikoyalaridagi afsonaviy daryo bo‘lgan Harahuvati daryosi sharafiga qo‘ygan. Bu nom asta-sekin Arg‘and bo‘lib, keyin Arg‘andab deb atala boshlagan. Yana ba’zi bir taxminlarga ko‘ra bu daryoning nomi ikki so‘zdan iborat deb hisoblashgan. Ya’ni “ارغند” (g‘azablangan) va “آب” so‘zlarining birikmasidan g‘azablangan daryo degan ma’no kelib chiqadi. Bu daryo Qandahor shahridan o‘tib, dengizning qolgan suvi Tarnak va Arg‘iston daryolari bilan qo‘shilib, Gershak shahridan 30 kilometr janubda va qadimgi Bast qal’asi yaqinidagi Xirnanda quyiladi.[4]

کلمه Kubhā که نام باستانی رودخانه است هم واژه‌ای سانسکریت و هم اوستایی است که بعداً این کلمه به کابل تغییر یافت.[5]

---

[1] Qorayev S. Toponimika. – T., 2006. b.5.
[2] Qorayev S. Toponimika. – T., 2006. b.57.
[3] Mary B, Frantz G. A History of Zoroastrianism, Zoroastrianism under Macedonian and Roman Rule – 1991. p.125
[4] Inglizcha Vikipediya ensiklopediyasi., 2008
[5] The History and Culture of the Indian People: The Vedic age. – I., 1962P.247

ابوریحان بیرونی آن را «رودخانه غُروَند» نیز خوانده‌است.[1] رودخانه کابل بعداً نام خود را به منطقه و شهرک کابل داد.[2]

Daryoning qadimgi nomi bo‘lgan Kubho so‘zi ham sanskrit, ham avesto tilidan olingan bo‘lib, keyinchalik Kobul so‘ziga o‘zgargan.

Abu Rihan Boruniy bu daryoni “G‘orvand daryosi” deb ham atagan. Kobul daryosining nomi keyinchalik mintaqa va Kobul shahriga nomi berilgan.

Ruk ismli olimning aytishicha Iskandar Kabir Kobul daryosini Kufin deb atagan. Sanskrit va avesto tillarida Kobul daryosi Ko deb ataladi, bu dengiz degan ma’noni anglatadi. Afg‘oniston va Pokistonning ko‘plab nomlari Rigvedada yozilgan ; Sanskritda esa keyinroq o‘zgargan. Tarix davomida bu daryo muqaddas diniy va iqtisodiy jihatga ega bo‘lgan

Afg‘oniston va Pokistonda oqib o‘tadigan Jub daryosiga to‘xtalsak. Bu daryoning uzunligi 410 kilometr bo‘lib, shimoliy – sharqiy yo‘nalishda oqadi.

در زبان پشتو، ژیب به معنای «آب چیدن» است.[3] از نظر زبانی این نام ایرانی-آریایی است و از نظر ریشه‌شناسی با رودخانه‌های رود کوچک و بزرگ زاب در حوزه دجله مقایسه می‌شود.

Pashtu tilida Jib so‘zidan olingan bo‘lib ’’suv olish’’ degan ma’noni anglatadi. Til jihatidan bu nom eroniy-oriy bo‘lib, etimologik jihatdan Dajla havzasidagi katta va kichik Zab daryolari bilan qiyoslanadi.

Afg‘oniston va Eron davlatlaridan oqib o‘tadigan Hirmand daryosi haqida ma’lumot beramiz.

نام این رود به ریخت‌های هیرمند، هلمند، هیدمند،[4] هندمند، هیلمن و هیرمن نیز در نسک‌های گوناگون تاریخی و گیتاشناسی آمده‌است. نام این رود در اوستا به گونهٔ هئتومنت Haetumant آمده‌است. بخش نخست این نام معنای بنداب یا ورغ یا سد را می‌دهد و منت نیز همان مند در فارسی کنونی است که معنای دارندگی را می‌رساند. پس نام این رود به معنای برخوردار از بند می‌باشد. همچنین در اوستا این نام معنای عام سرزمینی که زود سیراب می‌شود را نیز دارد. رومیان و یونانی‌ها این رود را Etymandros یا Erymanthus می‌خواندند.

یاقوت اسم این رودخانه را «هندمند» ضبط کرد. حمدالله مستوفی نام رودخانه را «آب زره» نیز نامیده است[5]

Bu daryoning nomi turli tarixiy va geografik manbalarda Hirmand, Helmand, Hidmand, Hindmand, Hilman va Xirman tarzida uchraydi. Bu daryoning nomi Avestoda Haetumant. Bu nomning birinchi qismi to‘g‘on yoki yo-g‘ochdan yasalgan to‘g‘on ma’nosini beradi va منت hozirgi fors tilidagi مندbilan bir xil bo‘lib, egalik ma’nosini bildiradi. Demak, bu daryoning nomi to‘g‘on bo‘lishi yoki to‘g‘onga ega degan ma’noni beradi. Shuningdek, avesto tilida bu nom tez sug‘oriladigan yerning umumiy ma’nosini bildiradi. Rimliklar va yunonlar bu daryoni Etimandros yoki Erimantus deb atashgan.

Yoqut bu daryoning nomini “هندمند” deb yozib qoldirgan. Eronlik geograf, tarixchi va shoir Hamdulloh Mostofiy daryoning nomini “آب زره” deb atagan.

---

[1] Bosvort. Islom ensiklopediyasi., – K., 1999

[2] Bosvort. Islom ensiklopediyasi., – K., 1999

[3] ویکی پدیا

[4] حدود العالم

[5] لسترینج، گای (۱۳۹۳). جغرافیای تاریخی سرزمین‌های خلافت شرقی. تهران: علمی و فرهنگی. ص. ۳۶۳.

Afg‘oniston va Turkmaniston davlatlaridan oqib o‘tadigan Murg‘ob daryosi haqidagi ma’lumotlarni keltiramiz.

Istaxoriy Murg‘ob joylashgan nomini olgan daryo deb hisoblaydi.Ibn Havqalning Murg‘ob daryosi Marva daryosi nomidan olingan degan fikridan ko‘ra Istaxaruy nazariyasi to‘g‘riroq. Bu daryo G‘or viloyatining shimolidagi Murg‘ov vodiysini sug‘orishda qo‘llanadigan joy.

Har bir yurtning eng aziz, ardoqli qadriyatlaridan biri bu uning nomidir. Yurt vakillari qayerda bo‘lmasinlar bu nomni faxr bilan tilga oladilar, she’r yozib, qo‘shiq qilib kuylaydilar, eslab yuradilar. O‘zga yurtlarda o‘z hamyurtlarini uchratgan kishilar uchun u insonlarning ismlari emas, balki ularning O‘zbekistonlik, Andijonlik yoki Marhamatlik ekanligi ahamiyatliroq bo‘lib, ularni qadrdon do‘stlarga aylantiradi. Shuning uchun ham kishilar o‘zlari yashaydigan ko‘cha, mahalla, qishloq yoki shaharlarning nomlanishida ularning faqatgina adreslik funksiyasini (ya’ni bir geografik obyektni ikkinchisidan ajratish, farqlash va aniq o‘rnini topish) bajarishini emas, balki yurt timsoli bo‘lib, ma’naviy qadriyatga aylanib qolishiga ham e’tibor qaratganlar. Nomlarning ma’nosida mazkur joy va u joyda yashovchi aholining eng xarakterli, o‘ziga xos xususiyatlari aks etishiga harakat qilganlar[1]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Qorayev S. Toponimika. – T., 2006. 320.b

2.Ahmadaliyev Y. Toponimika va geografik terminshunoslik. – F., 2018. 136.b

3. Yaratsher E. Encyclopedia Iranica .– A., 1983

4. Quronbekov A va Nuriddinov N. Fors tili leksikologiyasi. – T., 2019. 144.b

5. E. Huntington. The Anglo-Russian Agreement as to Tibet, Afghanistan, and Persia, Bulletin of the American Geographical Society, Vol. 39, No.11(1907)

6. Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – М., 1975.

7. Seyid Muhammad Baqir Mesbahzoda. Afg’oniston qabilalarining tarixiga qisqacha nazar. – K., 1392. 118.b

8. Рубинчик Ю. Персидско русский словарь. – М., 1985.

9. Mirzakhmedova, H. V., Omonov, K. S., & Khalmurzaeva, N. T. (2021). Methods of Improving Language Skills Using Media Software. Journal of Central Asian Social Studies, 2(03), 47-55.

10. Abbasi, S., & Mirzakhmedova, K. (2021). The cultural commonalities of iran and uzbekistan (From the perspective of the Persian language and literature history). Journal of Central Asian Social Studies, 2(01), 1-8.

[1] Qorayev S. Toponimika. – T., 2006. b.112.

ARAB VA INGLIZ TILLARIDA SO‘Z TURKUMLARINING CHOG‘ISHTIRMA TAHLILI

Gulnoza Hamidova
TDSHU arab filologiyasi kafedrasi
2-kurs arab-ingliz guruhi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada arab va ingliz tillarida so‘zlarning turkumlarga ajratilishi va ikki tilni chog‘ishtirgan holda tahlil qilish va o‘qitishda interfaol usullardan foydalanish haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Grammatik kategoriyalar (kelishik, ko‘plik, zamon, shaxs-son, mayl), ismlar, turlanish, ko‘makchilar.

Аннотация: Вэтой статье обсуждается классификация слов на арабском и английском языках, а также использование интерактивных методов при анализе и преподавании двух языков.

Ключевые слова: Грамматические категории (согласие, множественное число, время, лицо-число, наклонение), существительные, виды, вспомогательные средства.

Abstract: This article discusses the classification of words in Arabic and English and the use of interactive methods in the analysis and teaching of the two languages.

Key words: Grammatical categories (agreement, plural, tense, person-number, mood), nouns, types, auxiliaries

So‘zlarni turkumlarga ajratish masalasi eng qadimgi davrlardan buyon olimlar diqqatini tortib keladi. Tilshunoslikni fan sifatida shakllantirgan qadimgi hindlar so‘zlarni otlar, fe’llar, yordamchilarga ajratgan edilar. Hindlarning tilshunoslik g‘oyalari bilan oziqlangan arablar so‘zlarni uchga: ismlar, fe’llar, yordamchilarga bo‘ladilar. Hind tilshunoslari fikrlari asosida yunon olimlari, xususan, Arastu ham so‘zlarni ana shunday uchga ajratadi. Keyinchalik faqat yunonlar ismlar ichidan sifatlarni, sonlarni va olmoshlarni chiqaradilar. G‘arb tilshunosligida yunonlarning keyingi tasnifi keng tarqaldi. Rus tilshunoslari ham ana shu an’anaga amal qilib, mustaqil so‘zlarni ot, sifat, son, olmosh, ravish va fe’lga ajratadilar. Aslida, dastlabki to‘rtta so‘z turkumining barchasi nomlar sanaladi: narsaning nomi (ot), belgining nomi (sifat), miqdorning nomi (son), nomlar o‘rnida almashinib keluvchi so‘zlar (olmosh). Rus tilshunoslari shuning uchun ularni bir umumiy nom ostida ism bildiruvchi so‘zlar nomi bilan birlashtiradilar. Bizning ajdodlarimiz qadimdan ot, sifat, son va olmoshlarni birlashtirgan holda ismlar nomi bilan o‘rganib kelganlar. Bu so‘z turkumlarining deyarli hammasi egalik, kelishik va ko‘plik shakllari bilan o‘zgaradi. Shuning uchun bu shakllar faqat otlargagina emas, balki sifat, son, olmoshlarga, shuningdek, harakat nomi, sifatdosh va taqlid so‘zlarga ham daxldordir. Egalik va kelishik shakllari ana shu so‘zlarni boshqa so‘zlarga tobelantirib bog‘lab keladi. Bu esa egalik,

kelishik qo‘shimchalari bilan o‘zgarish xususiyatiga ega bo‘lgan so‘zlarni ismlar atamasi ostida birlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. [1]

So‘z turkumlari- tildagi so‘zlarning ularda umumiy kategorial ma’noning, grammatik kategoriyalar yagona tizimining, o‘ziga xos o‘zgarish, shakl va so‘z yasalish tiplarining, sintaktik vazifalar umumiyligining mavjudligiga qarab ajratiladigan guruhlar. Har bir tilda o‘zining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, so‘z turkumlari soni bir-biridan farq qiladi. Arab tilida so‘z turkumlari uch guruhga bo‘linsa, ingliz tilida ularning soni sakkiztaga yetadi, o‘zbek tilida esa so‘zlar oltita turkumga ajratiladi. Aynan arab va ingliz tilshunosligida so‘zlar va ularning turkumlarga ajratishi quyidagicha bo‘ladi:

Muayyan bir ma’noni anglatgan tovushlar yig‘indisiga so‘z deyilishi barchaga ma’lum. Arab tilida so‘zlar bir harfdan yettita harfgacha tashkil topadi. Masalan:ل من كتب خزانة محمود عندلب محمود عندليب استقبال

Arab tili leksikasidagi barcha so‘zlar uchta katta guruhga bo‘linadi:

Ism (الاسم), fe’l (الفعل), yordamchi so‘zlar(الحرف). Shunday bo‘lsa-da, ba’zi arab tilshunoslari ismlarning to‘rtinchi turi borligini ta’kidlashadi va bu turga “Ismi fe’l”, ya’ni ismlar va fe’l so‘z turkumi oralig‘ida bo‘lgan ba’zi so‘zlarni kiritishadi. Masalan arab tilidagi صف (jim bo‘l) so‘zi buruq maylidagi اسكت fe’li (jim bo‘l) so‘zi bilan teng ma’noda kela oladi. Ham ism, ham fe’l ma’nosida kelgan bu so‘zlarni aksar tilshunoslar hisobga olmaydilar.

1. الاسم- ismlar- Zotga dalolat qiluvchi, zamonga bog‘lanmagan grammatik kategoriya. Bu turkumga o‘zbek tilidagi ot, sifat, olmosh, son, ravish, fe’lning harakat nomi (masdarlar), sifatdosh kabi funksional formalari, ayrim ko‘makchilar, modal so‘zlar kiradi. Bu turga kiruvchi so‘zlar o‘ziga xos 4 ta kategoriyani qabul qiladi:

1. Holat kategoriyasi.
2. Jins kategoriyasi.
3. Kelishik kategoriyasi.
4. Son kategoriyasi.[2]

Bu hodisa turlanish deyiladi.

Ismlar 3 guruhga bo‘linadi:

1. مضمرٌ -Mudmar- bu guruhga kishilik olmoshlari kiradi.
2. مظهر — Muzhar- atoqli otlar, turdosh otlarning ba’zilari kiradi.
3. مبهم- Mubham- ko‘rsatish olmoshlari, nisbiy olmoshlar kiradi. [3]

2. الفعل- Ish harakatiga dalolat qiluvchi, zamonga bog‘langan grammatik kategoriya. Ish-harakatni ifodalab, “nima qilmoq?”, “nima bo‘lmoq?” so‘roqlariga

[1] Hojiyev, azim. O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari, -T.: Fan, 2010.

[2]N.Ibragimov, M.Yusupov. Arab tili grammatikasi I jild, T.: 1997

[3]Arab tili (o‘quv qo‘llanma) / M. Hasanov,-Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2018, 360 bet

javob beruvchi so‘zlar kiradi. Bu turkumga fe’lning barcha zamonlari, mayllari, nisbatlari, bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllari kiradi. Fe’llar 3 qismga bo‘linadi:

- – الماضO‘tgan zamon
- — المضارعHozirgi zamon
- — الأمرBuyruq mayli

Ingliz tilida esa Verbs- Fe’l- harakat va holatni ifodalovchi so‘z turkumi. Masalan, jump (sakramoq), is (bo‘lmoq), write (yozmoq). Ingliz tilida fe’llar ikki xil bo‘ladi: asosiy fe’llar va yordamchi fe’llar va o‘zi bog‘langan shaxs yoki narsaning soni bilan moslashadi. Arab tilida esa ish-harakat bajaruvchisi oldin kelganda son va jinsda, fe’l oldin kelgan bo‘lsa faqat jinsda moslashadi.

3. — الحرفHarf – O‘zidan boshqa bilan bog‘lanib kelgandagina ma’no anglatuvchi grammatik kategoriya. Bu turkumga aniqlik artikli, predloglar, turli xil yuklamalar, umuman yordamchi so‘zlar kiradi. Harflar ham 3 qismga bo‘linadi:

1. Ismga xoslangan: في، من
2. Fe’lga xoslangan: لن، كي،لم
3. Ham fe’l, ham ism bilan birika oladigan: هل، بل

Harflar o‘zidan keyingi so‘zning harakatini o‘zgartirishiga ko‘ra 4 guruhga bo‘linadi:

A) — الحرفkasra harakatini(qaratqich kelishigi) talab qiluvchilar: من، في، إلا

B)النصب fatha harakatini(tushum kelishigi) talab qiluvchilar: أن، لن، إذا، كي

C) الجزمJazm sukun harakatini talab qiluvchilar :,لم، لما، لأمٌ امر، لأم نهي (lam, lamma, lamun amr, lamun nahiya)

D) Nido harflari: يا

Ismlarni harflar va fe’llardan ajratish uchun belgilar:

1. Kasra harakatini oladi, qaratqich kelishigida keladi.

a. Tanvin oladi.

b. Al artiklini(aniqlik) oladi.

c. Jar harflari o‘zidan keyin kasra(qaratqich kelishigi) dagi so‘zni talab qiladigan yordamchi so‘zlardan keyin kela oladi.

d. Qasam harflaridan keyin kela oladi.

Fe’llarning belgilari:

a) قد yuklamasi bilan kela olishligi;

b) س va سَوْفَ yuklamalari bilan qo‘llana olishi;

c) fe’l tuslanishligida III shaxs, muannas jinsdagi, birlik soniga ega bo‘lgan fe’llarning oxirida ت harfining sukunlangan holda kelishi;

d) لاَ yuklamasi bilan kela olishi;

e) لَمْ yuklamasi bilan qo‘llana olishi.

Yuqorida aytganimizdek ingliz tilida 8 ta so‘z turkumi mavjud va ular:

1. Noun- Ot- shaxs va narsa, shuningdek, joy nomlarini bildirgan so‘z turkumi. Masalan, man(erkak), house(uy), happiness(xursandchilik). Otlar, aso-san, ingliz tilida artikllar (a, an, the) bilan foydalaniladi.Otlar birlik va ko‘plik

soniga ega va aniq va mavhum otlarga bo‘linadi. Ularga egalik ma’nosini yuklash uchun ’s qo‘shimchasi qo‘shiladi. Otlar gapda turli gap bo‘lagi bo‘lib kela oladi: ega, vositali va vositasiz to‘ldiruvchi, otkesim, hol, undalma va boshqalar.

2. Pronoun- Olmosh- gapda otning o‘rnida almashinib qo‘llana oladigan so‘zlar. Masalan, she(u), we(biz), they(ular). Olmoshlar ham o‘z ichki ma’nolariga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi: personal pronouns insonlarga va maxsus ajratib ko‘rsatilgan narsalarni ifodalaydi; possessive pronouns egalik ma’nosini bildiradi; reflexsive pronouns boshqa shaxs va narsaga urg‘u berishda foydalaniladi; relative pronouns ajratilgan bo‘lakni izohlash uchun qo‘llanadi; demonstrative pronouns ko‘rsatish olmoshlari sifatida ishlatiladi.[1]

3. Verbs- Fe’l- harakat va holatni ifodalovchi so‘z turkumi. Masalan, jump (sakramoq), is (bo‘lmoq), write (yozmoq). Ingliz tilida fe’llar ikki xil bo‘ladi: asosiy fe’llar va yordamchi fe’llar va o‘zi bog‘langan shaxs yoki narsaning soni bilan moslashadi.

4. Adjective- Sifatlar- ot va olmoshga bog‘lanib, uning belgisini bildirgan so‘zlar. Masalan, pretty (yoqimtoy), old (eski), blue (havorang). Ular, asosan, qanday? qaysi turdagi? qancha? kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi. Ingliz tilidagi aniqlik (the) va noaniqlik (a, an) artikllari ham shu so‘z turkumi doirasidadir.

5. Adverb- Ravish-fe’l, sifat va boshqa ravishlarning belgisini bildiruvchi so‘z turkumi. Masalan, extremely (nihoyatda), carefully (ehtiyotkorlik bilan), well (yaxshi). Ravishlar fe’l, sifat va ravishlarning belgisini bildirsa ham, hech qachon otga bog‘lanmaydi. Ular qayerda? qachon? qanday qilib? nega? kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi. Ravishlar, asosan, -ly qo‘shimchasi bilan yakunlanadi.

6. Preposition- Predlog- ot yoki olmoshlardan oldin yoki keyin qo‘llanib, gapdagi boshqa so‘zga biriktiradigan so‘zlar. Masalan, by (-gacha), with (bilan), about (haqida).

7. Conjuction- Bog‘lovchi- so‘zlarni va gaplarni bir-biriga bog‘lovchi so‘zlar. Masalan, and (va), but (lekin), while(davomida). Bular o‘zaro teng bo‘lgan gaplarni va ergashgan gapni bosh gapga bog‘lashda ishtirok etishadi.

8. Interjection- Undov so‘zlar- gapda his-hayajonni ifodalash uchun qo‘llanadigan so‘zlar. Masalan, oh, wow, oops. Gapda boshqa so‘z turkumlaridan vergul orqali ajratiladi.[2]

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, arab tili ham, ingliz tili ham o‘ziga xos grammatik qoida va kategoriyalarga ega. Har ikkala tilda ham fe’llar mavjudligi va yordamchi so‘zlarning vazifasida o‘xshashliklar kuzatilsa ham ularning gapdagi vazifasi, shaxs-sonda tuslanishi va ingliz tilidagi barcha mustaqil so‘z turkumlari arab tilida ismlar nomi ostida birlashishi bilan farqlanadi.

---

[1] Murodov.H.O. All in one grammar book in English, T:2019

[2]https://www.learningarabicwithangela.com/amp/parts-of-speech-in-arabic-grammar-nominal-and-verbal-sentences

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. N.Ibragimov, M.Yusupov. Arab tili grammatikasi I jild, T.: 1997.
2.https://www.learningarabicwithangela.com/amp/parts-of-speech-in-arabic-grammar-nominal-and-verbal-sentences
3. Murodov.H.O. All in one grammar book in English, T:2019
4. Arab tili (o‘quv qo‘llanma) / M. Hasanov,-Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2018, 360 bet
5. Hojiyev Azim. O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari, -T.: Fan,2010

YAPON VA O‘ZBEK TILLARINING UMUMIY XUSUSIYATLARIGA DOIR TILSHUNOSLIK MASALALARI

Xurshida SHARAPOVA
TDSHU, Yaponshunoslik fakulteti
2-kurs yapon-ingliz guruhi talabasi

Annotatsiya: Zamonaviy texnologiyalar va ilm-fan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda til va unga oid masalalar yuzasidan turli tadqiqot va izlanishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu ilmiy maqolada yapon va o‘zbek tillari tipologik jihatdan o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: tipologiya, oltoy tillar oilasi, semantika, lisoniy birlik, kanji, terminologiya.

Аннотация: Сегодня с развитием современных технологий и знаний, проводятся различные работы в области языка и связанных с ним знаний. В данной научной статье типологически исследованы японский и узбекский языки.

Ключевые слова: типология, алтайская языковая семья, семантика, языковая единица, кандзи, терминология.

Abstract: At present, when modern technologies and science are developing, various studies and researches are being carried out on language and its related issues. In this scientific article, Japanese and Uzbek languages were studied typologically.

Key words: typology, Altaic language family, semantics, linguistic unit, kanji, terminology.

Tillarning tipologik nazariyasini o‘rganish murakkab jarayondir. Buning uchun tilshunosdan kuchli mahorat va bir necha tillarni nazariy jihatdan yaxshi o‘zlashtirish talab etiladi. Lingvistik tipologiyaning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda ikki tizimga mansub bo‘lgan tillar barcha sathlarda o‘zaro chog‘ishtiriladi. Tillarning o‘ziga xos xususiyatlari va tillarni yaqinlashtiruvchi belgilari

aniqlanadi. Lingvistik tipologiya tillar o‘rtasidagi genetik munosabatlardan qat’iy nazar, ularning struktur va funksional xususiyatlarini o‘rganuvchi tilshunoslik sohasidir. Ilmiy jihatdan lingvistik tipologiya tillardagi yaqinlashtiruvchi va uzoqlashtiruvchi til faktlarini guruhlarga, andozalarga, tiplarga ajratish yo‘li bilan tadqiq etish metodi hisoblanadi. Ko‘rinadiki, tipologiya bir tomondan, tillarni tasnif qilishning umumiy nazariyalari, qonun-qoidalari va usullarini o‘z ichiga olsa, ikkinchi tomondan, u til sistemasi birliklarini umumiy belgisi, xususiyati asosida tasnif qilish bilan shug‘ullanadi[1].

Zamonaviy sharq tillarini ona tili bilan tipologik jihatdan tadqiq etish tilshunoslikda nisbatan yangi sohalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham bu sohada o‘rganilishi kerak bo‘lgan muammolar talaygina. Tillar nazariy maqsadlarda ham chog‘ishtirma o‘rganilishi mumkin. Bunda tillarning fonetik, morfologik, leksik va sintaktik sathlari sistema tarzda o‘rganilib, ularning o‘xshash va farqlari jihatlari va ularning sabablari aniqlanadi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda turli sharq tillari keng o‘rgatilmoqda. Bu esa davlatlararo munosabatlarni yo‘lga qo‘yishda ustun vazifasini bajaradi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ayniqsa, yapon va o‘zbek tilining grammatik qurilishi, morfologik tuzilishi bir-biriga juda ham o‘xshash bo‘lganligi uchun o‘rganuvchilarga unchalik qiyinchilik tug‘dirmaydi. Chunki, bu tillarning har ikkalasi ham oltoy tillari oilasiga mansub. Shu bilan birga bu tilni o‘zlashtirishda ham ma’lum qiyinchiliklar uchrab turadi. Yapon tilini o‘rganuvchilardan so‘rovnoma o‘tkazish natijasida shu narsa ayon bo‘ldiki, ularning barchasi “kanji” (xitoy tilidan kirib kelgan iyerogliflar bo‘lib, bitta kanjining bir nechta o‘qilishi va tarjimasi mavjud) yod olishda qiyinchilikka uchrashadi. Chunki, kanji o‘zbek tiliga yot bo‘lib, uni o‘zlashtirish uchun katta kuch hamda ko‘p vaqt talab etiladi. Qanchalik ko‘p kanji yodlansa, shunchalik ko‘proq til ichiga kirib boriladi. Statistik ma’lumotlarga qaraganda, yapon tilida o‘n mingdan ortiq kanji bo‘lib, yapon tilida gazeta o‘qiy olish uchun o‘rtacha ikki mingta kanjini yoddan bilish kerak bo‘ladi. Hattoki, yaponlarning o‘zlari ham ba’zan gazeta o‘qishga qiynalishardi. Chunki, ona tili bo‘lsa ham, ikki mingdan ortiq kanjini yod olish unchalik ham oson emas. Ularni puxta o‘rganish uchun kanjilarga ko‘zlarni o‘rgatish,ya’ni ko‘proq mashq qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yapon tilida gapga so‘zlar tartibi aynan o‘zbek tili bilan mos tushadi. Masalan, men kutubxonaga bordim gapida men – ega, kutubxonaga – to‘ldiruvchi, bordim – kesim.

私は図書館へ行きました [watashi wa (ega) toshokan e (to‘ldiruvchi) ikimashita (kesim)].

Ko‘rish mumkinki, bu jihat o‘rganuvchilarga qiyinchilik tug‘dirmaydi. Yana bir qulaylik shuki, yapon tilining grammatik vositalari o‘zbek tilida ham uchraydi. Ko‘pincha, bu kelishik qo‘shimchalariga to‘g‘ri keladi. Misol uchun,

[1] Rahmatjonova K.Tilshunoslikdagi dolzarb masalalar. 2022

daftarni olib keling gapida -ni qo‘shimchasi yapon tilida ham shunday qo‘llaniladi:ノートを持って来てください[(no-to wo motte kite kudasai)].

Qolaversa, o‘zbek tilida bo‘lgani kabi, yapon tilida ham sinonim (ma’nosi bir xil) qo‘shimchalar uchraydi. Ularni tarjima jarayonlarida to‘g‘ri qo‘llay olish tarjimonning mahoratiga bog‘liq. Sinonim qo‘shimchalar tilning ma’no qatlamini uchun muhim ahamiyat kasb etgani uchun ularni qo‘llashda diqqatni bir yerga to‘plash, ehtiyotkorlikni saqlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yapon tilidagi sinonim qo‘shimchalarga quyidagilarni misol qilish mumkin:

1) ~を(wo)qo‘shimchasi o‘zbek tilida -dan hamda -ni tarjimalarini beradi. この道をまっすぐ行って、あの橋を渡ってください。(Kono michi o massugu itte,ano hashi o watatte kudasai) Bu ko‘chadan to‘g‘ri borib, anovi ko‘prikni kesib o‘ting).

2) ~で(de)-o‘zbek tilida quyidagi tarjimalarga ega.

a)病気で学校をやすみました[Byoukide gakkou o yasumimashita] Kasal bo‘lgani sababli, maktabdan dam oldi.

b) 3つで１０００円です。[Mitsude 1000endesu] 3tasi 1000 yen.

d) これは木でつくったにんぎょうです。[Korewa kide tsukutta ningyoudesu] Bu yog‘ochdan tayyorlangan qo‘g‘irchoqdir.

Yuqorida birgina ~で(de)grammatik vositasining -ligidan(sabab),-tasi (miqdor) va -dan(vosita) kabi ma’nolari sanab o‘tilgan.

3) a) も(mo). 私は海も山もすきです[Watashiwa umimo yamamo sukidesu] Men dengizni ham,tog‘ni ham yoqtiraman.

b)も(mo).かばんを 3 つも買いました[Kaban o mitsu mo kaimashita] 3talab sumka sotib oldim.

も(mo)qo‘shimchasining a)...ham,ham... b)-lab ma’nolari kelib chiqdi.

4) a)と(to).a)このかんじは（やま）とよみます。[Kono kanjiwa “yama”to yomimasu] Bu iyeroglif yama deb o‘qiladi.

b)日本人はしんせつだおもいます。[Nihonjinwa shinsetsuda to omoimasu] Yaponiyaliklar samimiy deb o‘ylayman.

a va b gaplardagi と(to) ning ma’nosi o‘xshasa ham bir-biridan anchagina farq qiladi. Buni shu tildan foydalanuvchilar yaqqol sezishadi. Uning u yoki bu ma’noda kelayotgani nutqiy vaziyatdan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

5) か(ka). a) 何か食べましたか[Nanika tabemashitaka] Nimadir yedingizmi?).

b)明日か明後日、もう一度来てください。[Ashita ka asatte, mou ichido kite kudasai]. Ertaga yoki indinga yana bir marta keling.

a gapda か(ka)-dir bo‘lib,gumon olmoshi vazifasida kelayotgan bo‘lsa,b gapda yoki ma’nosida kelmoqda.

Bu ikki tilning yana bir o‘xshash jihati tovushlar bilan aloqador. O‘zbek tilida n harfidan keyin b harfi kelsa, n tovushi m sifatida talaffuz qilinadi. Bu fonetik hodisa bo‘lib,faqatgina talaffuz jarayonida aks etadi. Masalan, shanba, manba kabi so‘zlarda bu hol o‘z aksini topadi.Bu hodisa yapon tilida ham mavjud.

Misol uchun, 自動販売機 [jidouhanbaiki], がんばり [ganbari], かんぱい [kanpai] va hokazolar.

Davlatlararo munosabatlarning asosiy timsoli tildir. Nafaqat sharq tillari, balki, butun dunyo tillarni ham o‘rganish yoki o‘rgatish mamlakat va uning rivoji uchun qo‘shilgan muhim hissadir. Tillarni tipologik jihatdan tahlil qilish, o‘rganish esa bir tilning u yoki bu xususiyatini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Qolaversa, amaliy jihatdan bunday tadqiqotlar samarali natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish, T., 2009
2. Rahmatjonova K.Tilshunoslikdagi dolzarb masalalar. 2022
3. 日本語そまとめ(Nihongo so-matome), 2010.
4. 日本語能力試験（トライ）(Nihongo nouryouki shiken), 2010

KOREYS TILI TARIXI

Farangiz MUXAMMEDOVA
TDSHU, Koreyashunoslik fakulteti
1-kurs koreys-ingliz guruhi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada koreys tili tarixiga oid faktik ma’lumotlar keltirilgan. Unga ko‘ra koreys tili dastavval xitoycha iyeroglaflarga asoslangan, so‘ng Koreya aholisini savodxonligini oshirish hamda milliy o‘zlikni til orqali anglash maqsadida maxsus koreys alifbosi yaratilgan. Turli siyosiy hamda ijtimoiy sabablarga ko‘ra koreys alifbosi zamonaviy davrgacha ma’lum o‘zgarishlarga uchrab kelgan.

Kalit so‘zlar: iyeroglif, hanja, fonema, Sejong, Choson, buddist, diftong, Oltoy, genetik.

Аннотация: Данная статья посвящена истории корейского языка б особые внимание уделяется истории создания специального корейского алфавита который пришел на смену китайской иероглифами автор рассматривает те изменения которые претерпела корейская письменность в процессе своего развития.

Ключевые слова: иероглифы, ханджа, фонема, Седжон, Чосон, буддист, дифтонг, Алтай, генетический.

Abstract: The provided article presents factual information on the history of the Korean language. According to the article, the Korean language was originally based on Chinese hieroglyphs, then a special Korean alphabet was created with the aim of improving the literacy of the Korean population and understanding

the national identity through the language. For various political and social reasons, the Korean alphabet has undergone certain changes until today.

Key words: hieroglyphs, hanja, phoneme, Sejong, Joseon, buddhist, diphthong, Altai, genetic.

Manbalarga ko‘ra, koreys tili uch asosiy bosqichni bosib o‘tgan. Bular: qadimgi, o‘rta va zamonaviy koreys tillari[1].

Zamonaviy koreys tili o‘rta asr koreys tilidan kelib chiqqan bo‘lib, u o‘z navbatida qadimgi koreys tilidan shakllangan. Koreys tilining kelib chiqishi doim muhokama qilinadi, chunki uning genetik jihatdan qaysi guruhga mansubligi baxs- munozaralidir. Koreys tilining yapon tiliga aloqador ekanligi yoki koreys tilining maxsus guruhi bo‘lib, hozirda uning mavjud emasligi Uilyam Jorj Aston va Semuel Martin kabi tilshunoslar tomonidan tadqiq etilgan. Roy Endryu Miller va boshqa bir guruh tilshunos olimlar koreys va yapon tillarida ba’zi o‘xshash-liklar tufayli Oltoy tillar oilasiga, ya’ni Tungus-manjur, mo‘g‘ul va turkiy oilalarni o‘z ichiga olgan makro oilaga kiritishni taklif qildilar[2]. Biroq bu taklif tillarning Oltoy tillar guruhi tadqiqotchilari tomonidan keskin rad etildi. Koreys tili o‘zi alohida olingan til degan fikrlar ham mavjud.

Qadimgi koreys tili VII asrdan X asrgacha mavjud bo‘lgan. Tilning bu bosqichida Hangul koreys alifbosi hali yaratilmagan edi, ammo buning o‘rniga koreys tili xitoycha iyerogliflar bilan yozilgan bo‘lib, ular koreys tilida “hanja” deb ataladi. Bu “xitoycha belgilar” degan ma’noni anglatadi[3]. Xitoycha belgilar xitoycha yozish uchun mo‘ljallangan, lekin ularni boshqa tillarni yozishga darhol moslashtirish mumkin emas, chunki ular xitoy tilidagi ma’lum ma’nolar bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu qadimgi koreys olimlari uchun muammo va qiyin-chilikka aylangan. Qadimgi koreyscha matnlarning aksariyati haqiqatan ham xitoy tilida yozilgan, biroq koreys olimlari ham o‘zlari yaratayotgan ilmiy ishlarni o‘z tillarida yozishni xohlaganlar.

Ushbu muammoni hal qilish uchun qadimgi koreys ulamolari xitoycha belgilarni ikki xil usulda ishlatishni boshladilar. Birinchisi asl xitoycha ma’nosi bilan, ikkinchisi esa shunchaki xitoycha so‘zning tovushini anglatish uchun. Bu qadimgi koreys tilini bugungi kunda olimlar uchun o‘qishni qiyinlashtiradi, chunki bu belgi xitoy yoki koreyscha ekanligi aniq emas. Qadimgi koreys tilini yozgan ulamolar xitoy tilini o‘rganish uchun ko‘p yillar davomida o‘qishgan, ya’ni savodxonlik asosan buddist, ruhoniylar, yuqori tabaqa va hukumat amaldorlari bilan cheklangan.

Keyingi bosqich o‘z ichiga 900-yildan 1600-yilgacha bo‘lgan davrni oladi. Bu davrda koreys tili qadimgi koreys tili kabi yozilgan bo‘lib, xitoy iyerogliflari

---

[1] Lee, Ki-Moon; Ramsey, S. Robert (2011), A History of the Korean Language, Cambridge University Press, pp. 4-7.

[2] https://en.m.wikipedia.org/wiki/Roy_Andrew_Miller

[3] https://en.wikipedia.org/wiki/Hanja

yordamida butun so‘zlarni ifodalash uchun ishlatilgan. Biroq XV-asr o‘rtalariga kelib bu vaziyat keskin o‘zgaradi. 1443-yil Choson sulolasi vakili Sejong qirol 1443-yilda koreys alifbosi yaratishga buyruq beradi. Bu ishni qirol Sejong oddiy xalq orasida savodxonlikning yetishmasligidan bezovta bo‘lganligi sababli amalga oshirgan. Chunki bu davrda faqatgina zodagon oila vakillari xitoy tilini o‘rgana olardi va savodli edi. Hali koreys alifbosi yaratilmagani sababli xitoy tilini o‘qitish uchun xitoydan mutaxassislar chaqirilardi. Bunga esa hammaning ham qurbi yetmasdi. Qirol Sejong barchaga oson bo‘lgan oddiyroq yozuv tizimini yaratishga undagan. Koreys olimlari o‘zlarining fonologik tadqiqotlari davomida tillarni va qo‘shni mamlakatlarning Yaponiya, Mo‘g‘uliston va Xitoy yozuvlarini o‘rganishadi. Shuningdek, ular buddist matnlarini va fonetik yozuvlarini o‘rganishgan. Natijada uch yildan so‘ng 1446-yil 9-oktyabrda koreys xalqiga bir qator alifbolar taqdim etiladi va ular ichidan “Hyunmin Chonim” tanlab olindi. Endi 9-oktyabr har yili Koreya Respublikasida Hangul bayrami nishonlanadi[1]. 28 ta harfni o‘z ichiga olgan ushbu alifbo tizimi bir nechta qoidalarga ega:

1. Bitta harf-bitta fonema. Ikki, uch, to‘rtta harflar iyeroglif shaklida guruhlangan bo‘g‘inlar hosil qiladi;
2. Har bir bo‘g‘in undosh va undan keyingi unli bilan boshlanadi;
3. Bo‘g‘inlar bir yoki ikkita undosh bilan tugashi mumkin;
4. Ikki unlini biriktirib, diftonglarni ham qurish mumkin[2].

Hangul ixtiro qilingandan so‘ng, koreys tili ovoz tizimi va talaffuzi ega bo‘ldi. O‘rta davr koreys matnlari hozirgi koreys tilning grammatikasi va tovushlari haqida juda ko‘p ma’lumot beradi. Hozirgi Hanguldan o‘rta davrdagi hangulni farqi shundaki, alifbo birinchi marta ixtiro qilinganida hangulda qo‘shimcha harflar mavjud bo‘lgan. Hozirgi vaqtda zamonaviy Hanguldan farq qiladigan yana bir nechta harflar mavjud edi, ammo ular kamdan-kam uchraydi yoki faqat o‘zlashgan so‘zlarini yozish uchun ishlatiladi.

O‘rta koreys tili davri 1600-yillar atrofida tugaydi. Bu davrda Koreya jamiyatining barqarorligi Yaponiyaning 1592-1598 yillarda Koreyaga bosqini bilan buzildi va bu yarim orolga behisob vayronagarchiliklarni olib keldi. Bir necha o‘n yillar o‘tgach, Koreya jamiyati nihoyat tiklanib, odamlar yana bir bor adabiyot yozishni boshlaganlarida, ko‘plab yozma imlolar odamlarning hozirgi nutqidagi o‘zgarishlarni aks ettirishga moslashtirildi. Demak, o‘rta davr koreys tili vujudga kelishi bilan koreys milliy madaniyati qayta tiklandi deyish mumkin. Bu madaniyatni zodagonlardan tortib, oddiy aholigacha o‘rganish mumkin bo‘ldi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, zamonaviy koreys tili XVII asrning boshlarida boshlangan va hozirgi kungacha davom etib kelmoqda. Bugungi kunda koreys

---

[1] https://fessl.ru/prazdnik-korejskoj-pismennosti-khangyl

[2] Lee, Ki-Moon; Ramsey, S. Robert (2011), A History of the Korean Language, Cambridge University Press, pp. 77-99

tilini yaxshi biladiganlar 1700-yillardan boshlab yozilgan Hangul matnlarini o‘qishda ko‘p muammolarga duch kelmaydilar. Biroq ba’zan uslub va lug‘at ba’zan esa arxaik so‘zlarga duch kelishlari mumkin.

1894-yilga kelib, Hangul birinchi marta rasmiy hujjatlarda paydo bo‘ldi. Hangul 24 asosiy harfdan tashkil topgan. Bular 14 ta undosh va 10 ta ulidan iboratdir. Unli harflarning shakli inson, yer, osmon va ularning o‘zaro bog‘liqligi tasviriga ega. Koreys alifbosining ushbu asosiy harflari bir-biriga qo‘shilib, 16 ta qo‘shimcha harfni, ham unli, ham undoshlarni hosil qiladi va shu tariqa Hangul jami qirq harfdan iborat.

1896-yildan esa koreys xalqi so‘zlar orasida joy qoldirib yozishni boshlashgan. Ilgari koreys xalqi bo‘g‘inlarni alohida bloklarda yozishgan, lekin so‘zlarni ajrata olishmagan. Bu xitoy tili an’anasi edi. Hangul yozma ravishda ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi va Koreyani Yapon istilosidan so‘ng rivojlangan. Amerika Qo‘shma Shtatalaring mashxur ilmiy jurnallaridan biri “Discovery” 1994-yil koreys alifbosini dunyodagi eng original va samarali yozuv deb atadi[1]. Tilshunoslik olamida tan olingan Oksford universitetining hisob-kitoblariga ko‘ra, yer yuzida mavjud bo‘lgan barcha yozuvlardan koreys alifbosi eng ilmiyligi va o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. 1997-yilda koreys yozuvi YUNESKOning Jahon madaniy merosi ro‘yxatidan joy oldi[2].

Koreys xalqi endi xitoycha belgilarni yozma ravishda ishlatmasalar ham, tilda hali ham xitoy tilidan olingan so‘zlar talaygina. Bugungi kunda koreys lug‘atining 50% dan 70% gacha bo‘lgan qismi xitoy tilidan olingan so‘zlardan tuzilgan va koreys tilidagi kundalik so‘zlarning juda katta qismi xitoy tilidan olingan. Ushbu so‘zlar 1000 yil oldin o‘zlashtirilgan. Shunday bo‘lishiga qaramay, koreys va xitoy tillari fonetik jihatdan bir-biridan keskin farq qiladi.

Shuningdek, fan va texnika taraqqiy etayotgan hozirgi davrda zamonaviy koreys tilida ham ingliz tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlar soni ortib bormoqda, ularning aksariyati zamonaviy obyektlar uchun, misol tariqasida, “컴퓨터”- kompyuter va “텔레비전” – televizor. Ba’zi koreyscha so‘zlar koreyscha va inglizcha so‘zning birlashuvidan hosil bo‘ladi. Qolaversa, koreys leksikasida avval yapon tiliga kirib kelgan va keyinchalik koreys tiliga ham o‘zlashgan so‘zlar mavjud.

Shunday qilib, koreys tili tarixiy jihatdan uch asosiy bosqichni bosib o‘tgan bo‘lsa-da, unda dastlabki koreyscha an’analar ko‘zga tashlanadi. Jumladan, leksikasida xitoycha iyerogliflar bilan ifodalangan so‘zlar talaygina, biroq ularning talaffuzi bir-biridan farq qiladi. Bu esa koreys tilini o‘rganuvchilar dastavval koreys tili tarixi haqida yaxshi bilishlarini talab qiladi.

---

[1] https://www.discovermagazine.com/mind/writing-right
[2] https://www.unesco.org/en/memory-world/hunminjeongum-manuscript

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Lee, Ki-Moon; Ramsey, S. Robert (2011), A History of the Korean Language, Cambridge University Press, *ISBN 978-1-139-49448-9*
2. Sohn, Ho-min (2012), “Middle Korean”, in Tranter, Nicolas (ed.), The Languages of Japan and Korea, Routledge, pp. 73–122, *ISBN 978-0-415-46287-7*.
3. https://fessl.ru/
4. https://www.discovermagazine.com
5. https://www.unesco.org
6. https://en.wikipedia.org

KOREYS TILINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sevinch ULASHOVA
TDSHU, Koreyashunoslik fakulteti
1-kurs koreys-ingliz guruhi talabasi

Annotatsiya: Maqolada koreys tili morfologik tuzilishi, o‘ziga xos xususiyatlari bilan birga til o‘rganuvchilarda yuzaga keladigan ayrim qiyinchiliklar va aksincha oson jihatlari haqida bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: morfologiya, ot, sifat, fe’l, sharq va g‘arb tillari.

Аннотация: в статье описывается морфологическая структура корейского языка, а также его специфические особенности, некоторые трудности, возникающие у изучающих, и, напротив, легкие аспекты.

Ключевые слова: морфология, существительное, прилагательное, глагол, восточные и западные языки.

Abstract: The article describes the morphological structure of the Korean language,along with with its unique features,some of the difficulties that arise for language learners,and on the contrary,easy aspects.

Key words: morphology, noun, adjective, verb, eastern and western languages.

Ma’lumki, biron tilni o‘rganish tanlangan tilning grammatik qonun qoidalaridan boshlab o‘rganiladi va ushbu jarayon til bilish qobiliyati uchun asosiy vazifani bajaradi.

Morfologiya bu – (yunoncha morphe-“shakl”, logos “ta’limot”) so‘z va uning grammatik xususiyatlari haqidagi ta’limotdir[1].

Koreys tili ayrim manbalarda oltoy tillari, ayrim manbalarda tungus-manjur tillari oilasiga kirishi haqida ma’lumot keltirilgan[2]. Tadqiqot natijasida shu

[1]https://library.samdu.uz/download/2415
[2] Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish, T. 2009

ma’lum bo‘ldiki, koreys tilida gapda so‘zlarning tartibi jihatidan o‘zbek tiliga juda yaqindir.

Koreys tili gap tuzish strukturasi “Ega + ikkinchi darajali bo‘laklar + kesim” tartibida bo‘ladi.

Masalan:

남자가 고양이를 보았다. *Kishi mushukni ko‘rdi.*

Koreys tilida ikkinchi darajali bo‘laklarning soni nechta bo‘lishiga qaramay, ega gapning boshida, kesim esa gap oxirida yoziladi.

Koreys tilida so‘z tushirib qoldirish hodisasi mavjud. Koreys og‘zaki suhbatida so‘z tushirib qoldirish hodisasi tinglovchiga suhbatning ma’nosini tushunishiga qiyinchilik tug‘diradi. Tadqiqotlarga ko‘ra, koreys tilida egani tushirib qoldirish 69,22%, ikkinchi darajali bo‘laklarni tushirib qoldirish 13,78%ni tashkil qiladi[1].

Masalan:

고양이를 보았다. *Mushukni ko‘rdi.*[2]

Bu gapda aynan mushukni kim ko‘rgani, qachon va qayerda ko‘rgani haqida ma’lumot yo‘qligi, gapdagi mavhumlikni ko‘rsatib turadi. Buning sababi koreys xalqining hayot tarziga borib taqaladi. Ya’ni ular har bir ishni qilishda tezlikka e’tibor qilishi va hatto, suhbat jarayonida ham vaqtni tejashga harakat qilishi tufayli, koreyslar bir-birini qisqartmalar va so‘z tushishi hodisalariga qaramasdan tushunadilar.

Sifatlarning xilma-xilligi: koreys tilida bitta ma’noni anglatuvchi sifat sinonimlari ham juda ko‘p.

Masalan: “chiroyli” so‘zining sinonimi koreys tilida bir qancha turlari bor: 아름답다 [arimdapta], 예쁘다[yeppida], 훌륭하다 [hullyonghada]. Bundan tashqari, ranglarni ifodalashda ham bir qancha usullarda foydalanadi. Masalan: “sariq”-노랗다 [no‘rahda], 노르스름하다 [no‘risirimhada], 누렇다 [nurohda], 누리끼리하다 [nurikirihada], 노릇노릇하다 [no‘ritno‘rithada], 누리팅팅하다 [nuritingtinghada] yoki 샛노랗다 [setno‘rahda] so‘zlari bilan ifodalanadi. Bunda 노릇노릇하다 [no‘ritno‘rithada] — taomning rangini ifodalashda, 샛노랗다 [setno‘rahda] - esa kiyim va gullarning sariq rangini ifodalashda ishlatiladi. Ushbu so‘zlar faqatgina ishlatish holatlariga ko‘ra farq qilish xususiyati bilan ko‘proq ingliz tiliga yaqinroq hisoblanadi.

Hurmat shakli: hurmat bildiruvchi qo‘shimchalar va so‘zlar koreys tili va madaniyatining asosini o‘zlashtirish uchun butun umrni oladi. Nutqning ikkita asosiy toifasi mavjud, ya’ni 존댓말 (jondaemal) 반말 (banmal), ya’ni yuqori va

---

[1] Song, J.-J. (2005). The Korean Language: Structure, Use and Context. London, England: Routledge.

[2] https://linguasia.com/korean-language

quyi toifalardir. Bu toifalarga ko‘ra, hozirgi kunda 4 xil gaplashish darajalari mavjud. Bular:

- 하십시오 (hashipshio) – xushmuomalalik bilan yuqori toifadagilar (ommaviy- axborot vositalarida,o‘zidan katta kishilarga) murojaat qilganda ushbu rasmiy uslubdan foydalaniladi;
- 해요 (haeyo) – bu rasmiy uslubning kundalik hayotimizda foydalanadigan turi;
- 해라 (haera) – ushbu uslub asosan, yoshlar o‘rtasida tafovut bo‘lmaganda, do‘stlar bilan suhbatlashganda ishlatiladi;
- 해 (hae) – yaqin do‘stlar orasida ishlatiladigan samimiy uslub.

Koreyada ushbu so‘zlashuv uslublari asosan kattalarga hurmatni va kichiklar bilan yaqin munosabatlarni ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Shu tomonlama ham, koreys tili o‘zbek tili bilan o‘xshashdir.

Gap va so‘zlarning tuzilishi: koreys tilida yozilgan gaplar ba’zan shunchalik katta bo‘lishi mumkin, ammo o‘sha gapda ot va kelishik qo‘shimchalari ishtirok etmasligi mumkin.

Masalan: “이 계획에 의하면, 비영리 사단법인인 우리글진흥원을 통해 구에서 발행하는 ’중랑구소식’을 비롯한 생활정보문, 홍보물 등을 감수토록 하였으며, 직원들의 글쓰기 능력을 키워줄 ’공공문장 바로 쓰기’ 특강을 개설할 예정이다”.

“Ushbu rejaga ko‘ra, Woori Writing Promotion Agency, notijorat korporatsiya tuman tomonidan nashr etilgan “Jungnang-gu News”, kundalik hayot ma’lumotlari, reklama materiallari va boshqalarni nazorat qilish uchun mas’ul bo‘ladi va yozuvchi ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun xodimlarga “Ommaviy jumlalarni to‘g‘ri yozish” mavzusida maxsus ma’ruza ochishni rejalashtirganmiz”.

Bu yerda koreys tilida qo‘shma gap berilgan va unda bironta ham kelishik qo‘shimchasi kuzatilmaydi. Vaholanki, tarjimadan ko‘rish mumkinki, mazkur gapda bir qancha kelishiklarni ishlatish mumkin. Bu ham koreys tilining o‘ziga xos xususiyatini namoyon qiladi.

Bundan tashqari koreys tilida so‘zlarni to‘g‘ri yozishga va joylashtirishga harakat qilish lozim. Ularni oddiygina noto‘g‘ri joylashtirib qo‘yish tufayli ham gap mazmunini butunlay o‘zgartirib yuborishimiz mumkin. Misol uchun: “안심하다” [anshimhada] – “yengillik” degan ma’noni anglatsa, “안 심하다” [an shimhada] – “yomon emas” degan ma’noni keltirib chiqaradi. Bo‘g‘inni noto‘g‘ri joylashtirganda, “안”-inkor ma’nosini beradi.

Ot, sifat va fe’llar: koreys tilida sifatlar fe’ldagi “bo‘lmoq” qo‘shimchasini olib tashlagan holda, yasalishi mumkinligi bilan o‘zbek tiliga o‘xshaydi. Masalan: 바쁘다 (band) sifat so‘zini, “바빠요” (bandman) shaklida ifodalab fe’l yasash mumkin. Shuningdek, o‘zbek tilida fe’llarni “-ish” qo‘shimchasi orqali otlashtirish mumkin (o‘qish, eshitish, chizish). Bu qoida koreys grammatikasida ham mavjud. “읽다” (o‘qimoq) so‘ziga “-기“ qo‘shimchasini qo‘shish orqali “읽기“ (o‘qish) otlashtirish mumkin.

Bundan tashqari, fe'llarni sifatlashtirish uchun ham o'zbek tili grammatikasi "-gan" qo'shimchasi ishlatilsa (o'qigan kitobim,yoqtirgan rangim), koreys tilida "은/는" qo'shimchalarini fe'lga qo'shish bilan sifat hosil qilish mumkin (읽은 책, 좋아하는 색).

Ko'makchi, bog'lovchi va yuklama: ot, olmosh, harakat nomi va sifatdoshdan keyin kelib, ularni boshqa so'zga (ko'pincha, fe'lga) grammatik jihatdan tobelanishini ta'minlaydigan so'zlar ko'makchilar deyiladi. Ular asosan, o'zbek tilida hech qanday ma'noga ega bo'lmasa-da, alohida so'z sifatida yoziladi. Ammo koreys tilida ko'makchilar ham qo'shimcha sifatida, ham alohida so'z sifatida yozilishi mumkin. Bundan tashqari, bitta ko'makchining bir qancha turlari holatlarga qarab ajratilishi mumkin. Masalan: "uchun", "tufayli" ko'makchisi koreys tilida alohida so'z sifatida "그래서" yoki qo'shimcha sifatida "-아/어서 " yoki "-니까" tarzida ifodalanishi mumkin. Bunda, "-아/어서" qo'shimchasi faqat asosiy sababni ko'rsatadi, o'tgan zamon va buyruq-istak mayli ishtirok etgan so'zli gaplarda ishlatilmaydi: 시간이 없어서 빨리 가세요. (Vaqtim kamligi uchun, tezroq keling.)

Bu gap grammatik jihatdan xato, ya'ni gapda 가세요 buyruq gapni bildiruvchi so'z bo'lganligi uchun, -아/어서 qo'shimchasi o'rniga -니까 ishlatilishi kerak: 시간이 없으니까 빨리 가세요. 그래서 esa asosan, ikkita sodda gaplarni bir-biriga bog'lashda ishlatiladi.

Bog'lovchilar gapdagi uyushiq bo'laklarni va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bog'laydigan yordamchi so'zlardir. Bog'lovchilar ham koreys tilida xuddi shunday ham alohida so'z, ham qo'shimcha sifatida qo'llanilishi mumkin. Masalan, va bog'lovchisi 그리고 yoki -고, -랑 qo'shimchasi orqali ifodalanishi mumkin: 치마랑 구두를 샀어요. Bunda ham xuddi shunday, 그리고 asosan, ikkita sodda gapni bog'lashda ishlatilsa, qo'shimchalar holatiga qarab, otlarni bir-biriga bog'laydi.

Yuklama deb, gap bo'laklariga yoki gapga qo'shma ma'no yuklovchi yordamchi so'zlarga aytiladi. Koreys tilida yuklamalar o'zbek tilidagidek qo'shimchalardan iborat bo'ladi. Masalan: -ku yuklamasi koreys tilida -거든요? shaklida ifodalanadi. 물속에 안 들어갔어요. 너무 무서웠거든요 (Suvga tushmadim. Juda qo'rqinchli-ku)

Koreys tilida sanoq sonlarning 2 xil turi mavjud: sino-koreys va koreys tub sonlariga bo'linadi. Sino-koreys sonlari kelib chiqishi Xitoy tiliga bog'lanadi. Bu sanoq tizimi telefon raqami, marshrut raqam, bo'y, vazn, manzil raqami, yillar, oylar, daqiqalar va soniyalarni ifodalashda ishlatiladi.

0 – 영 [yeong]
1 – 일 [il]
2 – 이 [i]
3 – 삼 [sam]
4 – 사 [sa]
5 – 오 [o]

6 – 육 [yuk]
7 – 칠 [chil]
8 – 팔 [pal]
9 – 구 [gu]
10 – 십 [sip]

Koreys-tub sonlari buyumlarni, odamlarni sanashda ishlatiladi. Uni talaffuz qilinishi tub koreys alifbosidan kelib chiqqan.

1 – 하나 [hana]
2 – 둘 [dul)
3 – 셋 [set]
4 – 넷 [net)
5 – 다섯 [daseot]
6 – 여섯 [yeoseot]
7 – 일곱 [ilgob)
8 – 여덟 [yeodeol)
9 – 아홉 [ahop)
10 – 열 [yeol)

O‘zbek tilida sanoq tizimida sondan keyin sanalayotgan narsaga qarab, -ta,-tup,-dona kabi sanoq qo‘shimchalari qo‘llanilishi qoidalari, koreys tilida ham mavjud. Ya’ni odamlarni sanashda kishi sanoq so‘zida koreys tilida 명/분 qo‘shimchalari bilan ifodalanadi. (한명, 두명..) 마리- qushlar va hayvonlarni sanashda, 권- kitob betlarini, qog‘ozlarni sanashda, 병- shishalarni sanashda ishlatiladi.

Koreys tartib sonlari ham o‘zbek tilidagidek sanoq sonlariga -inchi qo‘shimchalarini qo‘shish yo‘lidek yasaladi. Faqat, -inchi qo‘shimchasini o‘rniga, 번째 so‘zi qo‘shiladi: 첫번째 (birinchi), 두번째 (ikkinchi),세번째 (uchinchi), 네번째(to‘rtinchi), 다섯번째(beshinchi) va x.k.

Fe’l zamonlari: o‘zbek tili morfologiyasida fe’llar 3ta zamonga: hozirgi, o‘tgan va kelasi zamonlarga bo‘linadi. Xuddi shunday koreys tilida ham zamonlar mavjud va ular faqat qo‘shimchalar orqali farqlanadi. **O‘tgan zamon:** -았/었/했 qo‘shimchalaridan foydalaniladi. 밥을 먹었어요 (ovqat yedim) Hozirgi zamonni ifodalashda -고 있어요 qo‘shimchasi ishlatiladi. 밥을 먹고 있어요. (Ovqat yeyapman). Kelasi zamon uchun esa -ㄹ/을 거예요 qo‘shimchasi kerak bo‘ladi. 빕을 먹을 거예요. (Ovqatlanaman) Bundan tashqari, kelasi zamonda faqat xohishni bildirib, “-moqchiman” qo‘shimchasini ifodalamoqchi bo‘lsak “-고 싶어요” qo‘shimchasini qo‘llaymiz. Ushbu qo‘shimcha faqatgina xohlab, aniq qarorga kelinmaganda ishlatiladi. 밥을 먹고 싶어요 (Ovqatlanmoqchiman).

Demak, tillarni biror o‘ziga xos xususiyatini yoritishda tipologik tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. Koreys tilini o‘rganish jarayonida o‘zbek tili bilan chog‘ishtirib o‘rganish ancha samara beradi. Biroq shunday tafovutlar ham borki, bu talabada chalkashlik tug‘diradi. Koreys tili o‘zbek tiliga yozilishi, alifbosiga ko‘ra yaqin til hisoblanmasa-da, grammatikada bir- biriga ancha yaqin

va o‘xshash tillar ekanligini yuqoridagi misollardan ko‘rish mumkin. Albatta bunday tadqiqotlar ikki tilning o‘zaro munosabatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish, T. 2009
2. Song, J.-J. (2005). The Korean Language: Structure, Use and Context. London, England: Routledge
3. Yeon, Jaehoon; Brown, Lucien (2011). Korean: A Comprehensive Grammar. London, England: Routledge
4. Brown, L. (2015). “Expressive, Social and Gendered Meanings of Korean Honorifics”. Korean Linguistics. 17 (2): 242–266. doi:10.1075/kl.17.2.04bro
5. Sohn, Ho-Min (2001) [1999]. The Korean Language. Cambridge, England: Cambridge University Press. ISBN 978-0521369435

ARAB TILIDA FE’LLAR MA’NOSINING OLD KO‘MAKCHILAR TA’SIRIDA O‘ZGARISHI (HARAKAT FE’LLARI MISOLIDA)

Dilbar XIKMATULLAYEVA
TDSHU, Lingvistika (arab tili) yo‘nalishi
I kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilida mavjud bo‘lgan ba’zi harakat fe’llarining asl ma’nosi , qaysi old ko‘makchilar bilan birikma hosil qila olishi va shuning ta’sirida fe’lning polisemantik ma’nolarni hosil qilishi misollar bilan yoritib o‘tilgan. Arab tilida ba’zi fe’llarning ma’nosini o‘zgartirishda old ko‘makchilar katta rol o‘ynaydi. Ba’zi fe’llar o‘ziga qo‘shilgan old ko‘makchilar ta’sirida bir nechta ma’noga ega bo‘lishi mumkin. Bunga har bir old ko‘makchilarning ham bir vaqtning o‘zida ko‘p ma’nolarga egaligi muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tadqiqotda analitik tahlil usulidan foydalanilib, ma’nosi o‘zgargan harakat fe’llarini topish, ulardan keyin kelgan predloglarni o‘zgartirish orqali ma’nolarini o‘zgarishini misollar orqali tahlil qilib o‘rganadi.

Kalit so‘zlar: harakat fe’llari, old ko‘makchilar, arab tilshunosligi, so‘zning asl ma’nosi.

Аннотация: В этой статье на примерах поясняется исходное значение некоторых глаголов действия в арабском языке, с какими вспомогательными веществами они могут образовывать сложные соединения, а следовательно, и многозначные значения глагола. В арабском языке предлоги играют важную роль в изменении значения некоторых глаголов. Некоторые глаголы могут иметь более одного значения под влиянием добавленных к

глаголу предлогов. Важную роль играет то, что каждый предлог имеет одновременно несколько значений. Метод аналитического анализа используется в данном исследовании для нахождения глаголов действия, значение которых изменилось, для анализа изменения значения путем изменения предлогов, стоящих после них, анализа на примерах.

Ключевые слова: глаголы действия, предлоги, арабская лингвистика, первоначальное значение слова.

Abstract: In this article, the original meaning of some action verbs in the Arabic language, with which auxiliaries they can form a compound, and therefore the verb's polysemantic meanings are explained with examples. In Arabic, prepositions play an important role in changing the meaning of some verbs. Some verbs can have more than one meaning under the influence of prepositions added to the verb. An important role is played by the fact that each preposition has multiple meanings at the same time. Analytical analysis method is used in this study to find action verbs whose meaning has changed, to analyze the change of meaning by changing the prepositions that come after them, analyzing through examples.

Key words: action verbs, prepositions, Arabic linguistics, the original meaning of the word.

Til shaxs va jamiyat o‘rtasidagi aloqa vositasi bo‘lib, u orqali odamlar o‘z fikrlari va his-tuyg‘ularini boshqalarga bildira oladilar . Ibn Jinniy ham tilni “Har bir xalq o‘z maqsadlarini u bilan ifodalaydigan vositadir ” deb ta’riflaydi[1]. Jamiyatda umumiy yagona til mavjud emas, balki u dunyodagi insoniyat kabi xilma-xildir va insoniyat rivojlangani sari rivojlanib kelmoqda. Shunday tillardan biri arab tilidir. Arab tili dunyodagi birinchi sivilizatsiya tillaridan biri bo‘lgani uchun jahon tillari qatoriga kiradi. Bu tildan arablar o‘z jamoalari o‘rtasida muloqot qilish uchun foydalanganlar. Arab tili eng sharafli tillardan biri bo‘lib, ilm o‘z asoslarini undan oladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Arab tilining morfologik tuzilishi boshqa tillardan farqli bo‘lib, u ism, fe’l va harfdan iborat so‘z turkumlariga bo‘linadi. Arab tilida bog‘lash vazifasini bajaradigan, gap qurilishida muhim rol o‘ynaydigan so‘z turkumi harfdir. Shuningdek u fikrni ifoda etishda bog‘lovchi, shart, istisno, istidrok kabi ba’zi uslublar va bog‘lovchi vositalari orqali gapning qismlarini bog‘laydi yoki qo‘shimcha ma’no yuklaydi. Harflarning barcha turlari umumlashib biz o‘rganayotgan tilning uchdan bir qismini tashkil qiladi. Old ko‘makchilar va fe’llarning yangi ma’no hosil qilishda o‘zaro aloqasi bor. Ayrim fe’llarning ma’nosini o‘zgartirishda old ko‘makchilar katta rol o‘ynashiga shubha yo‘q. Ba’zi fe’llar har xil ma’no anglatishida turli old ko‘makchilar bilan birga ishlatishning o‘zi ham kifoya qiladi. Old ko‘makchilar ko‘p ma’noga ega bo‘lganligi sababli, ular o‘zgaruvchan ta’sirga ega. Old ko‘makchilarning ta’sirida harakat fe’llari

[1]https://www.academia.edu/RegisterToDownload/RelatedWorks

ma’nolarini o‘zgarishini tahlil qilib o‘rganib chiqish uchun avval fe’l va old ko‘makchilar haqida to‘liq ma’lumot hosil qilish kerak.

Arab tilshunosligida fe’l deganda harakatni ifodalaydigan so‘zlar tushuniladi. Bunday so‘zlar qat’iylikni, yangilanish va sodir bo‘lishni ifodalaydi. Arab tilshunoslari fe’lga shunday ta’rif beradilar: “Fe’l muayyan bir xatti-harakatni ifodalab, ushbu xatti-harakat egaga yoki biror bir voqea-hodisaga tegishli bo‘ladi[1]. Harf so‘z turkumiga esa yolg‘iz o‘zi hech qanday ma’no anglatolmaydigan so‘zlar kiradi. Old ko‘makchilar harf so‘z turkumi ichiga kirib ularning gapdagi asosiy vazifasi so‘zlarni bir biriga bog‘lashdir. Arab tilida old ko‘makchilar 20ta bo‘lib, ushbu tadqiqotda fe’llar bilan kelib ularni ma’nosiga ta’sir o‘tkaza oladigan asl old ko‘makchilari haqida bahs yuritiladi va ular: إلى، على، عن، في لِ، بِ من

Arab tilidagi fe’llarning old ko‘makchilar bilan kelishini o‘zida mujassam qilgan معجم الافعال متعدية بحرف lug‘atida fe’llar va old ko‘makchilar o‘rtasidagi munosabat yoritilgan. Masalan, خرج fe’li qayerdandir chiqmoq ma’nosini anglatib من old ko‘makchisi bilan qo‘llaniladi. Bu ma’no fe’lning asosiy ma’nosi hisoblanadi. Shu bilan birga mazkur fe’l ب old ko‘makchisi bilan kelganda kimnidir olib chiqmoq, عن bilan birikma hosil qilganda nimadandir og‘moq; nimaningdir tashqarisida bo‘lmoq; nimanidir rad qilmoq ma’nolarini anglatadi. Bundan tashqari على old ko‘makchisi bilan birikma hosil qilgan خرج fe’li qo‘zg‘olon qilmoq; bosh ko‘tarmoq ma’nolariga ega bo‘ladi. Masalan:

وَإِنَّ مِنْهَا لَمَا يَشَّقَّقُ فَيَخْرُجُ مِنْهُ الْمَاءُ

Ba’zilari yorilib, undan suv chiqadi[2]. (Baqara surasi 74-oyat)

الشباب خرجوا عن طريق الحق

Yosh yigitlar haq yo‘lidan og‘dilar.

دخل fe’lining asl ma’nosi kirmoq bo‘lib , في old ko‘makchisi bilan qayergadir suqilib kirmoq; qo‘shilgan bo‘lmoq ma’nolariga ega bo‘ladi. على bilan birikma hosil qilganda esa kimnikigadir kirmoq, ب bilan qo‘llanilganda boshlab kirmoq ma’nosini anglatadi. Masalan:

كُلَّمَا دَخَلَ عَلَيْهَا زَكَرِيَّا الْمِحْرَابَ وَجَدَ عِندَهَا رِزْقاً

Zakariyyo har qachon uning oldiga, mehrobga kirganida, uning huzurida rizq ko‘rdi[3]. (Oli Imron surasi 37-oyat)

رجع fe’li qaytmoq; qaytib kelmoq ma’nolarini anglatadi. Mazkur fe’l ham old ko‘makchilar bilan birikma hosil qilib asl ma’nosidan boshqa bir qancha ma’nolarni anglatishi mumkin. رجع الى birikmasining o‘zi tiklamoq, yangilamoq; murojaat qilmoq; dalil qilib ko‘rsatmoq; mansub bo‘lmoq kabi bir qancha ma’nolarni anglatishi mumkin. ب old ko‘makchisi ushbu fe’l bilan kelganida

[1] Shomusarov Sh. Arab tilida harakat fe’llari .- Toshkent // Sharqshunoslik, 2022, № 3, 15-21 betlar.

[2] Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 1-juz -Toshkent. “Hilol nashr”, 2018, 63-bet.

[3] Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf . Tafsiri Hilol. 1-juz. -Toshkent.”Hilol nashr”, 2018, 321-bet.

orqasiga qaytarmoq deb tarjima qilinadi.عن bilan birikma hosil qilganda رجعfe’li tashlab yubormoq degan ma’noga ega bo‘ladi. في old ko‘makchisi bilan kimgadir yaxshi ta’sir etmoq; kimgadir davo bo‘lmoq ma’nolarini anglatadi.

يُوسُفُ أَيُّهَا الصِّدِّيقُ أَفْتِنَا فِي سَبْعِ بَقَرَاتٍ سِمَانٍ يَأْكُلُهُنَّ سَبْعٌ عِجَافٌ وَسَبْعِ سُنْبُلَاتٍ خُضْرٍ وَأُخَرَ يَابِسَاتٍ لَعَلِّي أَرْجِعُ إِلَى النَّاسِ لَعَلَّهُمْ يَعْلَمُونَ

“Yusuf, ey rostgo‘y zot, bizga yettita semiz sigirni yettita oriq sigir yeyayotganining va yettita yashil boshoqning va shuncha qurug‘ining ta’birini ayt. Shoyadki odamlarga qaytib borsam (murojaat qilsam), ular ham bilsalar” dedi[1]. (Yusuf surasi 46-oyat)

كتبyozmoq fe’li الى old ko‘makchisi bilan qo‘llaniladi. عن bilan birikma hosil qilganda nimanidir tavsiflamoq ma’nosida,لِ bilan kimgadir vasiyat qoldirmoq, على bilan esa buyurmoq, farz qilmoq kabi yangi ma’nolarni hosil qiladi.

كتب سلطان إلى سلطان في ولاية أخرى رسالة مهمة. :

Hokim boshqa bir viloyat hokimiga muhim xat yozdi.

يَـٰٓأَيُّهَا ٱلَّذِينَ ءَامَنُواْ كُتِبَ عَلَيْكُمُ ٱلصِّيَامُ كَمَا كُتِبَ عَلَى ٱلَّذِينَ مِن قَبْلِكُمْ لَعَلَّكُمْ تَتَّقُونَ.

Ey iymon keltirganlar! Sizlardan avvalgilarga farz qilinganidek, sizlarga ham ro‘za farz qilindi. Shoyadki, taqvodor bo‘lsangiz[2]. (Baqara surasi 183-oyat)

Shu kabi yana bir nechta old ko‘makchi ta’siridagi harakat fe’llari quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan:

Ma’nosi	Old ko‘makchilar	Harakat fe’llari
majbur qilmoq himoya qilmoq	إلى عن	دفع turtmoq,itarmoq
g‘alabani nishonlamoq o‘ch olmoq	على من	انتصر g‘alaba qozonmoq
Bormoq tasdiqlamoq olib ketmoq	إلى عن بِ	ذهَب ketmoq, jo‘namoq
olib bormoq javob bermoq rad qilmoq	إلى على عن	ردّ qaytarmoq
Tugatmoq olib kelmoq	على بِ	أتى yetib kelmoq

[1] Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 3-juz -Toshkent. “Hilol nashr”, 2018, 169-bet.

[2] Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 1-juz -Toshkent. “Hilol nashr”, 2018, 157-bet.

Ketmoq hijrat qilmoq	من على	رحل yo‘lga otlanmoq
Ayblamoq qabul qilmoq boshlamoq	على عن في	أخذ olmoq
ishora qilmoq maslahat bermoq	إلى على	أشار ishora qilmoq
Asoslamoq o‘rnatmoq uyushtirmoq	على بِ ل	أقام tuzatmoq
yaqinlashmoq kirishmoq	على بِ	أقبل olg‘a qadam bosmoq
ko‘paytirmoq bilan urmoq misol keltirmoq uzib tashlamoq urmoq	في بِ لِ إلى على	ضرب urmoq
kutilmaganda kelmoq chiqib ketmoq xabar bermoq	على من بِ	طلع chiqmoq
jo‘namoq qo‘zg‘olon qilmoq ko‘tarmoq	إلى على بِ	قام turmoq
Kelmoq borishga jur’at qilmoq qaytib kelmoq	إلى على من	قدِم kelmoq
o‘tirmoq bosh tortmoq tushirmoq	على عن بِ	نزل tushmoq

Arab tilida fe’llar old ko‘makchilar bilan kelganda doim ham birikma hosil qilib, boshqa ma’noga ega bo‘la olmaydi. Bunda fe’l va old ko‘makchi birgalikda qo‘llangan bo‘lsa-da, har ikkisi o‘zining asl ma’nosini ifodalab kelishi ham mumkin. Tarjimada bu kontekstdan aniqlanadi.Masalan:

فَخَرَجَ عَلَىٰ قَوْمِهِ مِنَ الْمِحْرَابِ فَأَوْحَىٰ إِلَيْهِمْ أَنْ سَبِّحُوا بُكْرَةً وَعَشِيًّا

Bas u o’z qavmi huzuriga mehrobdan chiqdi va ularga erta-yu kech tasbeh aytinglar, deb ishora qildi[1]. (Maryam surasi 11-oyat)

[1]Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 3-juz -Toshkent. “Hilol nashr”, 2018, 523-bet.

Bu yerda fe’l old ko‘makchi bilan birga kelsa-da, u bilan birikma hosil qilmay ikkovi ham o‘zining asl ma’nosini ifodalab kelmoqda.

Bundan tashqari barcha fe’llar ham old ko‘makchilar bilan birikma hosil qilmaydi, faqatgina o‘zining asl ma’nosida ishlatiladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, arab tilida fe’l va old ko‘makchilarning o‘ziga xos munosabati va o‘zaro ta’siri mavjud. Buni o‘rganish nafaqat til o‘rganuvchilarga , balki arab tili mutaxassislariga, manbashunoslarga, lug‘atshunoslarga ish faoliyatlarida zarur bo‘ladi. Ushbu tadqiqot davomida ilgari taqdim etilgan va tushuntirilgan narsalarga asoslanib, quyidagi muhim natijalarga erishildi:

- ba’zi fe’llarning ma’nosini o‘zgartirishda old ko‘makchilar muhim rol o‘ynaydi;
- ba’zi fe’llar old ko‘makchilarni kiritish orqali bir nechta ma’noga ega bo‘lishi mumkin;
- bunda barcha old ko‘makchilar ko‘p ma’noga ega bo‘lgani uchun bu fe’llarning ma’nolarini o‘zgartirishga ta’sir qiladi;
- old ko‘makchilar bilan birikma hosil qilgan fe’llar yo o‘zining asl ma’nosidan chetlashmagan holda qo‘shimcha yangi ma’no olishi yoki tag ma’nosiga butkul aloqador bo‘lmagan yangi ma’no kasb etishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ан-На’им. Арабча – ўзбекча луғат. –Тошкент. “Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти”, 2003.

2. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol.-Toshkent. “Hilol nashr”, 2018.

3. أحمدي.م.معجم الأفعال المتعدية بحرف."بيروت"دار العلم-1979.

4. Shomusarov Sh. Arab tilida harakat fe’llari .- Toshkent // Sharqshunoslik, 2022, №3. 15-21-betlar.

QADIMGI ERONIY VA SANSKRIT TILLARIDAGI MUSHTARAK SO‘ZLARNING FONOLOGIK VA LEKSIK-SEMANTIK JIHATLARI

Shohjahon SA’DULLAYEV
TDSHU, Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti,
2-kurs magistr (lingvistika urdu)

Annotatsiya: Ushbu maqola qadimgi eroniy va sanskrit tillaridagi mushtarak so‘zlarning fonologik, leksik-semantik tahlili, shuningdek, ushbu so‘zlar orqali bu ikki tilning bir-biriga naqadar yaqin va farqli xususiyatlari masalalariga

bag‘ishlangan. Bu ikki tildagi o‘zaro yaqin munosabatlar asosan lug‘at boyligi jihatidan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: qadimgi fors tili, sanskrit tili, mushtarak so‘zlar, tovush o‘zgarishi, tildagi begona tovush, ma’no kengayishi.

Аннотация: Данная статья посвящена фонологическому, лексико-семантическому анализу общеупотребительных слов древнеиранского и санскритского языков, а также вопросам того, насколько эти два языка близки и различны друг другу по этим словам. Тесная связь между этими двумя языками в основном анализируется с точки зрения лексики.

Ключевые слова: древнеиранский, древнеперсидский, санскрит, общеупотребительные слова, звукоизменение, посторонний звук в языке, расширение значения.

Abstract: This article is devoted to the phonological, lexical-semantic analysis of common words in the ancient Iranian and Sanskrit languages, as well as to the issues of how close and different these two languages are to each other through these words. The close relationship between these two languages is mainly analyzed in terms of vocabulary.

Key words: Ancient Iranian, Old Persian, Sanskrit, common words, sound change, extraneous sound in the language, expansion of meaning.

Fors tili ingliz, fransuz, ispan, nemis va rus tillari bilan bir qatorda hindiy, urdu, marathi, bengal, panjobi kabi hind-oriy tillari bilan ham bir oilaga – Hind-Yevropa tillari oilasiga mansub. Shuning uchun ham ushbu tillarning grammatikasi va lug‘at boyligida o‘zaro yaqinlik, mushtaraklik va ba’zi o‘rinlarda umumiy jihatlar bo‘lishi tabiiydir.

Qadimgi Eron va Hindiston xalqlari tillaridagi mushtarak so‘zlarni yig‘ish, ularni taqqoslash qadimgi davrlardanoq boshlangan. Geradot, Gesixiy, Esxil, Ktesiy, Strabon, Polibiy, Ptolomey, Plutarx, Menandr, Aristofan, Ksenofont kabi olimlar asarlarida 40 dan ziyod avestocha va sanskritcha mushtarak so‘zlar keltirilgan[1].

Tilshunos olimlar tomonidan qadimgi Hindiston va Eron hududida yashagan xalqlarning tili o‘sha davrga oid yozma manbalarga tayangan holda qayta tiklangan va hozirgi zamonaviy tilshunoslik an’analariga mos ravishda izohlangan. Xususan, qadimgi hindlarning tillari W.D.Whitney[2], J.S.Speyer[3], A.A.Macdonell[4] va T.Y.Yelizarenkova[5] kabi olimlar tomonidan chuqur o‘rganilib, tahlil qilingan.

[1] Andrijanić I., Matović P. Filip Vesdin and the comparison of Sanskrit with Iranian and Germanic languages //Language & History. – 2019. – T. 62. – №. 3. – C. 195-226.
[2] Whitney W. D. Sanskrit grammar. – Courier Corporation, 2013.
[3] Speyer J. S. Sanskrit syntax. – EJ Brill, 1886.
[4] Macdonell A. A. Vedic grammar. – Karl J. Trübner, 1910. – T. 1. – №. 4.
[5] Елизаренкова Т. Я. Ведийский язык. – Рипол Классик, 1987.

Qadimgi eroniy xalqlarning tillari esa I.A.Gerschevitsch[1], R.G.Kent[2], O. P.Skjærvø[3] va S. G‘ulamilar[4] tomonidan o‘rganilgan va zamonaviy tilshunoslik an’analari asosida tahlil qilingan. Ammo qadimgi hind va eron xalqlari tillarining o‘zaro aloqalari hamda umumiy va farq qiluvchi jihatlari to‘liq o‘rganilmagan, balki asosan avesto va sanskrit tillarining qiyosi bilan cheklanilgan[5].

Eroniy tillarning hind-oriy tillari bilan o‘zaro aloqalarini uch davrga bo‘lish mumkin:

I. Qadimgi
II. O‘rta
III. Yangi

Qadimgi davr – bu qadimgi eroniy tillarning sanskrit tili bilan[6] o‘zaro aloqalarini qamrab oladi va u milodiy III asrgacha davom etgan. Tadqiqot aynan ushbu davr oralig‘idagi qiyosiy-tarixiy lisoniy jarayonlar doirasida amalga oshirildi. Qadimgi hind tili – sanskritning qadimgi eroniy tillar – Avesto, qadimgi fors, sug‘d, Baqtriya va Xorazm tillari bilan o‘zaro aloqalari, yaqin va umumiy xususiyatlari tilning qaysi sathida namoyon bo‘ladi?

Tadqiqot fonologik va leksik-semantik tahlil doirasida bo‘lgani uchun asosan lug‘atlar vositasida olib borildi. Xususan, B.G‘aribning “Sogdian Dictionary: Sogdian-Persian-English”[7], R.L.Turnerning “A comparative dictionary of the Indo-Aryan languages”[8], V.S.Rastorgueva va boshqalarning “Etymological dictionary of the Iranian languages”[9], A.A.Macdonellning “A practical Sanskrit dictionary with transliteration, accentuation, and etymological analysis throught”[10], J.Cheungning “Etymological dictionary of the Iranian verb”[11] va R.Franconing “Comparative etymological Dictionary of classical Indo-

---

[1] Gerschevitsch I. A grammar of Manichean Sogdian. – University of London, School of Oriental and African Studies (United Kingdom), 1943.
[2] Kent R. G. Old Persian: Grammar. Texts. Lexicon. – American Oriental Society, 1953.
[3] Skjærvø P. O. Old Iranian //The iranian languages. – 2009. – T. 43. – C. 195.
[4] Gholami S. Selected features of Bactrian grammar. – Wiesbaden : Harrassowitz, 2014.
[5] Jackson A. V. W. An Avesta grammar in comparison with Sanskrit and the Avestan alphabet and its transcription. – Ams PressInc, 1892.
[6] Hind-oriy tillaridan faqat aynan sanskrit tilining olinish sababi shundaki, o‘sha davrdagi boshqa hind-oriy tillariga tegishli bo‘lgan yozma manbalar bizgacha yetib kelmagan va faqat sanskrit tiliga tegishli yozma manbalargina saqlanib qolgan. O‘sha davrdagi sanskrit tilining ko‘lami va qo‘llanilish doirasi kengligini hisobga holda birgina sanskrit tilini qiyoslash orqali ham o‘lka tillariga umumiy xulosa berish mumkin (m.)
[7] Gharib B. Sogdian Dictionary: Sogdian--Persian--English //(No Title). – 1995.
[8] Turner R. L., Turner D. R. A comparative dictionary of the Indo-Aryan languages. – Psychology Press, 1966.
[9] Rastorgueva V. S., Edelman D. I. Etymological dictionary of the Iranian languages. – Vostochnaya literatura Publishers, 2000.
[10] Macdonell A. A. A practical Sanskrit dictionary with transliteration, accentuation, and etymological analysis throughout. – Motilal Banarsidass Publ., 2004.
[11] Cheung J. Etymological dictionary of the Iranian verb //Etymological Dictionary of the Iranian Verb. – Brill, 2006.

European languages: Indo-European-Sanskrit-Greek-Latin”[1] kabi lug‘atlardan foydalanildi. Lug‘atlar etimologik xarakterga ega bo‘lganligi uchun ularda so‘z-larning kelib chiqishi va tillar kesimidagi mushtarakligi ko‘rsatilgan. Tadqiqot davomida bu so‘zlarni yig‘ib chiqdik. Bunda kartochkalar bilan ishlash usuli qo‘llanildi. Kartochkada mushtarak so‘zlarning shakl va tovush yaqinligi, turkumi, manbasi ko‘rsatilgan. Mushtarak so‘zlarni tasniflashni so‘z turkumlari kesimida olib bordik.

Kelib chiqishiga ko‘ra fors va boshqa eroniy tillar hind-oriy tillari bilan qardosh tillar hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida qadimgi eroniy va sanskrit tillariga xos leksik va fonologik jihatdan umumiy va mushtarak 400 ga yaqin so‘z aniqlandi. Ushbu mushtarak so‘zlarning oz qismi talaffuzda va ma’noda o‘z shaklini saqlab qolgan, biroq aksariyati fonologik va ma’no o‘zgarishlarga uch-ragan. Fonologik o‘zgarishlar ma’lum bir qoliplarga birlashadi. Ma’noviy o‘zgarishlar esa asosan ma’no kengayishi kesimida namoyon bo‘ladi.

Ma’lumki, qadimgi eroniy tillar va sanskrit tili o‘rtasida umumiy o‘xshash-liklar mavjud. Masalan, grammatik jihatdan har ikkala tilda ham ot so‘z turkumiga oid so‘zlarda uchta jins bo‘lgan: erkaklik jinsi, ayollik jinsi va neytral jins; har ikkala tilda ham otlarning uch xil son shakli bo‘lgan: birlik, ikkilik va ko‘plik; olmoshlarning aksariyati jinsda o‘zgarsa ham, kishilik olmoshlari jinsda o‘zgarmagan va ular jinsni ifoda etmagan; sifatlar otlarga bog‘langanda ularning jinsiga qarab o‘zgargan va hokazo.

Qadimgi fors bitiklari, “Avesto” yodgorligi va Vedalar mushtarak so‘zlarning eng qadimgi manbalaridir. Masalan:

hshathra (avesta tilida) – ***kshatra*** (vedik sanskritda) – hokimiyat, podsholik[2].

Qadimgi fors davlati hukmdori, ahamoniy podshoh Doro I ning Behustun qoyalariga o‘yib yozdirgan bitiklarida ushbu jumlalarni uchratish mumkin:

“Darayavaush xshayathiya: mana *pitar* Vishtaspa[3]” – “Shoh Doro (ayturki), mening otam Vishtaspdir”

“Sham *paruvar* nam Vishtaspahya[4]” – “Vishtasp oilasi a’zosiman”

Yuqoridagi birinchi jumladagi *pitar*, ya’ni *ota* so‘zi sanskrit tilida ham mavjud bo‘lib (*pitar*), hatto hozirga qadar hindiy, marathi va boshqa hind-oriy tillarida saqlanib qolgan. Ikkinchi jumladagi *paruvar*, ya’ni *oila* so‘zi sanskrit tilida *parivar* shaklida bo‘lib, fonologik jihatdan oradagi farq unchalik katta emas.

Qadimgi fors va sanskrit tillarida deyarli bir ma’noda qo‘llangan, faqat ayrim tovushlardagina farq qiladigan o‘xshash so‘zlar ko‘p. Bu so‘zlar orasidagi fonologik farqlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

---

[1] Franco R. Comparative etymological Dictionary of classical Indo-European languages: Indo-European-Sanskrit-Greek-Latin. – Rendich Franco, 2013.

[2] Jackson A. V. W. An Avesta grammar in comparison with Sanskrit and the Avestan alphabet and its transcription. – Ams PressInc, 1892.

[3] Behustun bitiklari, I ustun, IV satr (Eron)

[4] Persepoldagi saroy devoriy bitigi, birinchi matn, IV satr (Eron, Istahr sh.)

Qadimgi eroniy tillarida **b** – sanskrit tilida **v.**

Qadimgi fors tilida aniq bir vaqt, qulay payt ma’nolarida qo‘llanilgan “baar” so‘zi sanskrit tilida ham “vaar” ko‘rinishida xuddi shu ma’nolarni ifodalagan va hozirgi ba’zi hind-oriy tillarida hafta kunlariga qo‘shilgan holda saqlanib qolgan. Malsalan: “shani: vaar”, “som vaar” va hokazo.

Qadimgi fors tilidagi “chaqirish”, “chaqiruv” ma’nosidagi “baang” so‘zi xuddi shu ma’noni anglatgan holda “vaang” shaklida sanskrit tilida iste’molda bo‘lgan (hozirda hindiy tilida “vaang” so‘zi “yoqimli ovoz” ma’nosini ifodalaydi).

Bundan tashqari “bodom” (qadimgi forscha “*baadaam*” – sanskritcha “*vataama*”), “shamol” (qadimgi forscha “*baad*” – sanskritcha “*vaata*”) kabi so‘zlarda ham shunday holat ko‘zga tashlanadi.

Qadimgi eroniy tillarida **sh** (til oldi) – sanskritda **sh** (tanglay)

Sanskrit tilida yumshoqroq talaffuz qilinadigan yuqori til (श) va qattiqroq talaffuz qilinadigan o‘rta til (tanglay) (ष) “sh” tovushi mavjud bo‘lgan. Qiziq tomoni shundaki, sanskrit tilidagi qadimgi eroniy tiliga oid umumiy va shaklan o‘xshash so‘zlar ko‘pincha aynan o‘sha tanglay ”sh” (ष) bilan yozilgan. Masalan, ”barmoq” ma’nosini anglatuvchi qadimgi forscha *angusht* (angusht) so‘zi sanskrit tilida अङ्गुष्ठ (angushTha) ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari aynan shunday ko‘rinish “tuya”, “musht” ma’nolarini ifodalovchi qadimgi forscha “ashtar”, “musht” kabi so‘zlar sanskrit tilida उष्ट्र (ushtra), मुष्टि (mushti) shaklida namoyon bo‘ladi.

Qadimgi eroniy tillarida **j** – sanskrit tilida **y**

Xuddi turkiy tillardagi singari qadimgi hind-eroniy tilida “j” tovushi ba’zi o‘rinlarda “y” ko‘rinishida ham ifodalangan va aynan shu jarayon sanskrit tilida ham kuzatilgan. Masalan: “Teerath Yatra” – “Teerath Jatra”. Shu nuqtai nazardan qadimgi eroniy tillaridagi “javaan” (*yosh* (sifat s.t)) singari so‘zlar sanskrit tilida “यौवन”(*yaovan*) ko‘rinishida namoyon bo‘lishini payqash mumkin. Bu, ehtimol, ushbu tillardagi shevalar yoki lahjalar tizimi biulan bog’liq bo‘lishi mumkin.

Qadimgi eroniy tillarida **x** – sanskrit tilida **s, sh, k**

Hindiston xalqlari tillarida qadimdan qattiq bo‘g‘iz tovushi “x” mavjud bo‘lmagan. Shuning uchun ham shimoldan kelgan oriy elatlari tillari orqali saqlanib qolgan va keyinchalik shimoliy eroniy tillardan sanskrit tiliga o‘zlashgan “x” tovushi ishtirok etgan so‘zlar turli ko‘rinishlarni namoyon etgan, ya’ni “x” tovushi o‘lkadagi mavjud tillarga xos bo‘lgan boshqa tovushlar bilan ifodalangan. Masalan, qadimgi forscha so‘zlar bilan solishtirilgan sanskritcha so‘zlar orqali shu ayon bo‘ladiki, fors tiliga xos ”x” tovushi sanskrit tilida ba’zi o‘rinda “s” (masalan, qadimgi avestocha “*xaor*” (quyosh) – sanskritcha (hindiyda ham) “suur”; qadimgi forscha “*xoab*” (uyqu, tush) – sanskritcha “*suapana*”), “sh” (masalan, qadimgi forscha “*xuub*” (yaxshi) – sanskritcha (hindiycha) “*shubh*”; qadimgi forscha “*xuun*” (qon) – sanskritcha (hindiycha) “*shuna*”; qadimgi forscha

“*xushk*” (quruq) – sanskritcha (hindiycha) “*shushk*” v.h) hamda “k” (masalan, qadimgi so‘g‘dcha “*saxt*” (qattiq) – sanskritcha (hindiycha) “*shakti*”) tovushlari bilan ifodalangan.

Qadimgi eroniy tillarida **h** – sanskrit tilida **s.**

Avesto tilidagi “hapta” (yetti), “haoma” (muqaddas ichimlik), “ahura” (xudo) kabi so‘zlar sanskrit tilida “sapta”, “soma”, “asura” shaklida uchraydi.

Qadimgi eroniy tillarida **z** – sanskrit tilida **j, h**.

“Tug‘ilish” (qadimgi forscha “*zaad*”, avestocha “zato” – sanskritcha “*jaatas*”), “istak” (avestocha “zaoshem” – sanskritcha “joosham”), “dengiz” (avestocha “zrayo” –sanskritcha “jrayas”) kabi so‘zlarda **z** va **j** tovushlari bir-biriga zidlansa, “qo‘l” (avestocha “zasta” –sanskritcha “hasta”), “qish” yoki “qor” (avestocha “zima” – sanskritcha “hima[1]”) kabi so‘zlarda esa sirg‘aluvchi **z** tovushining bo‘g‘iz undoshi **h** tovushiga zidlanishini ko‘ramiz.

Qadimgi eroniy tillari va sanskrit tilidagi mushtarak so‘zlarni tahlil qilar ekanmiz, tashqi va ichki ta’sirlar natijasida ushbu so‘zlardan aksariyatida so‘zning ma’nosi asl mohiyatdan uzoqlashmagan holda o‘zgarganini ko‘rish mumkin. Masalan, qadimgi eroniy tillaridagi “aap” (yoki aapa) ya’ni “suv” so‘zi sanskrit tilida asosan boshqa so‘zlar bilan birikkan holda “oqadigan suv havzasi, daryo” ma’nolarini bildirgan: Panjaab – “besh daryo”. Bundan tashqari sug‘dcha “pustak” (hujjat) so‘zining sanskrit tilida “kitob, bitik” ma’nosida kelishi so‘z ma’nosining kengayganini ifodalasa; avestocha “hima” (qish) so‘zining sanskrit tilida qor ma’nosiga aylanishi, Janubiy Osiyo o‘lkasining tabiiy issiq iqlimi va bu hududda qish bo‘lmasligi, ammo baland tog‘larda qor bo‘lishi hisobiga shu shaklga kelgan.

Sanskrit va qadimgi eroniy tillar kelib chiqishi mushtarak bo‘lgani uchun ko‘plab umumiy va yaqin xususiyatlarga ega. Ushbu yaqinlik asosan bu tillarning leksik qatlamida namoyon bo‘ladi.

Kelib chiqishi umumiy bo‘lgan tillarning asrlar davomida turli sharoit va hududlarda rivojlanganiga qaramay, bu qadar mushtarak jihatlarga ega ekanligi va ushbu mushtaraklikning hozirgi hind-oriy va eroniy tillarda ham saqlanib qolgani e’tiborlidir. Mushtarak so‘zlarning fonologik farqi ham unchalik katta emas, masalan, til undoshining lab undoshiga, aksincha lab undoshining til undoshiga zidlanishi deyarli ko‘zga tashlanmaydi. Ma’no jihatidan yaqinlik shuni ko‘rsatadiki, mushtarak so‘zlarning semasi ko‘p o‘rinda bir xil, ba’zi o‘rinlarda esa boshqasiga qaraganda ma’no kengaygan. Ma’no kengayishiga jug’rofiy tabiiy sharoit va iqlim katta ta’sir ko‘rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1] “Himalay” so’zi sanskritcha bo‘lib “hamisha qish yoki qor (hima) bo‘ladigan joy (-lay) degan ma’noni bildiradi.

1. Andrijanić I., Matović P. Filip Vesdin and the comparison of Sanskrit with Iranian and Germanic languages //Language & History. – 2019. – T. 62. – №. 3. – C. 195-226.
2. Andrijanić, I. 2017. “A List of Sanskrit and Latin Cognates in Vesdin’s Treatise De Latini Sermonis Origine.” Journal of Indo-European Studies 45 (3): 195–234.
3. Behustun bitiklari, I ustun, (Eron).
4. Cheung J. Etymological dictionary of the Iranian verb //Etymological Dictionary of the Iranian Verb. – Brill, 2006.
5. Franco R. Comparative etymological Dictionary of classical Indo-European languages: Indo-European-Sanskrit-Greek-Latin. – Rendich Franco, 2013.
6. Gerschevitsch I. A grammar of Manichean Sogdian. – University of London, School of Oriental and African Studies (United Kingdom), 1943.
7. Gharib B. Sogdian Dictionary: Sogdian--Persian--English //(No Title). – 1995.
8. Gholami S. Selected features of Bactrian grammar. – Wiesbaden : Harrassowitz, 2014.
9. Jackson A. V. W. An Avesta grammar in comparison with Sanskrit and the Avestan alphabet and its transcription. – Ams PressInc, 1892.
10. Kent R. G. Old Persian: Grammar. Texts. Lexicon. – American Oriental Society, 1953.
11. Macdonell A.A. A practical Sanskrit dictionary with transliteration, accentuation, and etymological analysis throughout. – Motilal Banarsidass Publ., 2004.
12. Martínez, J., & M. de Vaan. 2013. Introduction to Avestan. Leiden/Boston: Brill.
13. Modi, J.J. 1922. The Religious Ceremonies and Customs of the Parsees. Bombay: British India Press.
14. Persepoldagi saroy devoriy bitigi, birinchi matn, (Eron, Istahr sh.)
15. Rastorgueva V. S., Edelman D. I. Etymological dictionary of the Iranian languages. – Vostochnaya literatura Publishers, 2000.
16. Skjærvø P. O. Old Iranian //The iranian languages. – 2009. – T. 43..
17. Speyer J. S. Sanskrit syntax. – EJ Brill, 1886.
18. Sultonov, Farhod “Qadimgi dunyo tarixi”, T., “Sharq”, 2011
19. Turner R. L., Turner D. R. A comparative dictionary of the Indo-Aryan languages. – Psychology Press, 1966.
20. Whitney W. D. Sanskrit grammar. – Courier Corporation, 2013.
21. Елизаренкова Т. Я. Ведийский язык. – Рипол Классик, 1987.

HOZIRGI ZAMON XITOY TILIDA *JISYANGYUY* (*吉祥语*)LARNING SHAKLAN TUZILISHI

Nurali ESHPO'LATOV
TDSHU, Xitoy filologiyasi kafedrasi
1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi zamon xitoy tilida jisyangyular 吉祥语 lar haqida qisqacha ma'lumot beriladi va ularning shaklan tuzilishi haqida so'z boradi. 吉祥语 modellari tadqiq qilinib ularni fonetik hamda morfologik jihatdan atroflicha tahlil. qilinadi. Tahlil jarayonida har bir modelga misollar keltiriladi va ularning ma'nolari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: jisyangyular 吉祥语, 吉祥 hayvonlar, 吉祥 ranglar, 吉祥 sonlar, ramzlar, ibora, turg'un birikma

Аннотация: в этой статье представлена краткая информация о 吉祥语 (китайском благоприятном языке) и их формальной структуре в современном китайском языкею Модели 吉祥语 подробно изучаются и анализируются с фонетической и морфологической точки зренияю в ходе анализа приводятся примеры кождой модели и объясняются их значения.

Ключевые слова: китайский благоприятный язык, животные, цвета, цифры, символы, число, фраза, фиксированное соединение.

Abstract: This article provides brief information about 吉祥语 (Chineese auspicious language) and their formal structure in modern Chinese. 吉祥语 models are studied and analyzed in detail from the phonetic and morphological point of view. will be done. During the analysis, examples of each model are given and their meanings are explained.

Key words: Chineese auspicious language, animals, colors, numbers, symbols, number,phrase, fixed compound.

吉祥-*jisyang* (keyingi o'rinlarda — *jisyang*) madaniyati xitoy xalqi an'anaviy madaniyatining muhim qismidir. Omadli, baxtli, xavfsiz, uzoq va farovon umr kechirish xitoyliklarning asosiy maqsadidir va bu *jisyang* orqali xitoy xalqi an'anaviy madaniyatida va kundalik turmushida o'zini namoyon etadi. Tom ma'noda olganda 吉- omad va 祥 tinchlik va odatiylikni bildiradi. 古人云 "Gurenyun"da aytilishicha "吉 ishning yaxshi borishi, 祥 esa sayohatning quvonchli o'tishi" dir, umuman olganda xitoy xalqi niyat va maqsadlarini *jisyang* madaniyati bilan ifoda etadi, yaxshi narsa, hodisa va maqsadlar *jisyang* madaniyatining abadiy mavzusiga aylantirgan. Qadimda "Bahor va Kuz davlatlari"[1] davridayoq 万寿无疆

[1] Taxminan mil. avv. 770 -481 yillar

，万寿南山 “*Wànshòuwújiāng, wànshòu nánshān*- “uzoq va chegarasiz umr”, “Nan tog‘idek uzoq umr” kabi *jisyang* lar yozib qoldirilgan. Bularning barchasi qadimgi davr xitoy xalqining *jisyang* madaniyatini ko‘rsatadi. “Urishuvchi podsholiklar”[1] davrida *jisyang* madaniyati mazmuni tobora boyib bordi va ko‘plab ramziy ma’noli *jisyang* hayvonlar paydo bo‘ldi. Masalan, Xitoyning ko‘plab janubiy hududlarida kiyik, yo‘lbars va turna tovarlari do‘stlar orasida sovg‘a sifatida ishlatilgan, bular yomonlikdan saqlovchi va omad keltiruvchi ma’nolarni bildirgan. *Jisyang* madaniyati Xitoy xalqining hayotga bo‘lgan qaynoq muhabbatini va baxtli hayotga intilishini aks ettirishini ko‘rish mumkin. *Jisyang* madaniyatining tashqi ifoda shakliga ko‘ra ko‘plab turlari mavjud, masalan *jisyang* hayvonlar, *jisyang* ranglar, *jisyang* sonlar va boshqalar. Xitoy xalqi tilaklar tilashda va bayramona muhitni yaratishda uning turli shakllaridan foydalanib kelishadi.

Jisyang so‘zlar haqida izlanish olib borgan olimlar soni ko‘pchilikni tashkil etmasa-da, ularning barchasi xitoylik olimlardir. 李明佳(Li Mingjia)《吉样语和民族文化》asarida — “ avvallari *jisyang* so‘zlar to‘rtta iyeroglifli bo‘lgan, lekin hozirda bitta gap yoki qisqa matn shakliga aylandi, misol uchun: odamlar yangi yil tabriklari, telefon orqali tabrik yo‘llaganda: 纯洁无瑕像雪花，美丽夺目像烟花，满脸喜气像年花，甜美温柔像豆花，勤劳善良像翠花……你既像这花又像那花，所以我应该称你为如花！祝如花似玉新年好” *Chúnjié wúxiá xiàng xuěhuā, měilì duómù xiàng yānhuā, mǎn liǎn xǐqì xiàng nián huā, tiánměi wēnróu xiàng dòuhuā, qínláo shànliáng xiàng cuì huā……nǐ jì xiàng zhè huā yòu xiàng nà huā, suǒyǐ wǒ yīnggāi chēng nǐ wèi rúhuā! Zhù rúhuā sì yù xīnnián hǎo”* — qor parchasidek go‘zal va benuqson, mushakbozlikdek go‘zal ko‘zni qamashtiradigan, yuzi yangi yil gulidek quvonchga to‘lasiz, loviya guli kabi shirin va yumshoq, zumrad guldek mehnatkash va mehribonsiz… siz unisiga ham bunisiga ham o‘xshaysiz shuning uchun sizni hammasiga o‘xshaysiz deyishim kerak! Yoqut kabi yangi yilingiz qutlug‘ bo‘lsin.”[2] Lekin *jisyang* so‘zlar tarkibi haqida batafsil ma’lumot berilmaganligi uchun 赵日新(Chjao Risin) 《试论吉样语》asarida *jisyang* so‘zlarning mazmuni va tarkibini aytib o‘tadi, “*jisyang* so‘zlar asosan Xitoy an’anaviy yangi yil bayrami va festivallarda, to‘y va dafn marosimlari kabi katta tadbirlar va alohida e’tibor talab qiladigan holatlarda ishlatiladi, uning mazmunida ko‘pincha odamlar kundalik hayotidagi izlanishlari va qadriyatlari aks etadi, ularning aksariyati baxt, yaxshi taqdir, uzoq umr, quvonch va ko‘p farzand va nabiralar tilash bilan bog‘liq”.[3] 薛维哲(Xue Weizhe) ning《吉祥语的性质与功能》[4]asarida

---

[1] Mil. avv. 475–221 yillar

[2]李明佳：《吉样语和民族文化》，沈阳：辽宁教育行政学院学报，2008 年第 9 月，第 109 页。

[3] 赵日新：《试论吉样语》，内蒙古：语文学刊，1997 年第 6 期，第 31 页。

[4] 薛维哲，吉样语的性质与功能[J]。齐齐哈尔大学学报，2001

jisyang so‘zlar tabiati va funksiyasi kabi muhim masalalar ko‘rib chiqilgan. 宋业瑾 (Song Yejin)va 王韶松 (Vang Shaosong) ning《吉样语》kitobida *jisyang* so‘zlarning ishlatilishi, *jisyang* so‘zlardan foydalanishda *jisyang* so‘zlarni ma’nosini va talaffuzini aniq tushunish kerakligini ta’kidlanadi, *jisyang* so‘zlarning stilistik rang-barangligiga, muloqot sharoitiga, aloqa obyekti omillariga, vaqt omillariga, va boshqa cheklov omillariga e’tibor beradi. Tilshunoslik nuqtai nazaridan tashqari *jisyang* madaniyati Xitoyning zamonaviy va milliy bezaklarda ham tez-tez ko‘zga tashlanadi hamda bu sohada ham ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bunga misol qilib Han Chi “A study on application of Chinese auspicious pattern in modern”[1] maqolasida *jisyang* ramzlarining zamonaviy bezaklarda ishlatilishi va ularning ma’nolari haqida misollar keltirgan. Peng Yuanching esa “A brief introduction to Chinese mascot”[2] maqolasida 2018-yilgi Pekin olimpida o‘yinlarida hamda 2020-yil Shanhay EXPO da ishlatilgan ramzlarni tahlil qilinadi

Mazkur maqolada hozirgi zamon xitoy tilidagi *jisyangyuy* larni struktur jihatdan tahlil qilgan holda o‘ziga xosligini ochib berish maqsad qilingan. Ushbu maqsadga erish uchun hozirgi zamon xitoy tilida *jisyangyuy* to‘plash hamda ularni o‘rganib chiqqan holda morfologik va fonetik jihatdan tavsiflash va guruhlarga ajratish nazarda tutilgan.

Hozirgi zamon xitoy tilidagi *jisyangyuy* larni o‘ziga xos jihatlarini o‘rgangan holda, ular tavsifiy va struktur metod orqali tahlil qilinadi.

Jisyang lar shaklan tuzilishiga ko‘ra uch asosiy guruhga bo‘linadi: so‘z shaklidagi, ibora shaklidagi hamda gap shaklidagi. Quyida ularni birma bir misollar orqali ko‘rib chiqamiz.

So‘z shaklidagi jisyanglar

So‘z shaklidagi *jisyang* lar tuzilishiga ko‘ra barqaror bo‘lib, *jisyang* larni fonetik va morfologik jihatidan tavsiflaymiz.

Fonetik nuqtai nazardan so‘z shaklidagi *jisyang* lar ikkiga bo‘linadi

Bir bo‘g‘inli so‘zlar:

福(*fú*) baxt 寿(*shòu*) uzoq umr 喜(*xǐ*) quvonch

财(*cái*) martaba 富(*fù*) boylik 安(*ān*) tinchlik

六(*liù*) 6 吉(*jí*) omad

Juft yoki ko‘p bo‘g‘inli so‘zlar:

幸福(*xìngfú*)baxt 吉祥(*jíxiáng*) omad 健康(*jiànkāng*) sog‘lik 愉快(*yúkuài*) shodon 快乐(*kuàilè*) xursand 平安(*píng‘ān*) tinchlik Bir bo‘g‘inli *jisyang* so‘zlarning ko‘pchiligi qadimiy xitoy tilidan o‘tib kelgan, juft bo‘g‘inli so‘zlar esa hozirgi zamon og‘zaki xitoy tilidan olingan, va ular tez-tez keng ko‘lamda ishlatiladi.

---

[1] Han C. A study on application of Chinese auspicious pattern in modern design //Asian Social Science. – 2014. – T. 10. – №. 12. – C. 53.

[2] Yuanqin P. A brief introduction to Chinese mascot //Canadian Social Science. – 2012. – T. 8. – №. 6. – C. 54-59

jisyang lar so‘z turkumiga ko‘ra 4 ga bo‘linadi.

1) Ot so‘z turkumi: 福(*Fú*) baxt, 福气(*fúqi*)baraka, 鸿运(*hóngyùn*)baxt

2) Fe’l so‘z turkumi: 发(*Fā*) boyish, 乐(*lè*)quvnash, xursandchilik qilish

3) Sifat so‘z turkumi: 富(*Fù*) boy, 愉快(*yúkuài*) baxtli, quvnoq, 富裕(*fùyù*) boy, 幸福(*xìngfú*) baxt, 喜(*xǐ*) xursand, 健康(*jiànkāng*) sog‘ lom

4) Son so‘z turkumi: 六(6), 八(8)， 九(9), 十(10)

Xitoy tilida so‘z sifatidagi 吉祥语 lar ko‘p emas, ammo muloqot davomida tez-tez ishlatiladi.

Ibora shaklidagi jisyang lar

1) Ba’zi iboralar ham *jisyang*lar hisoblanadi va ular *jisyang*larning asosiy qismini tashkil etadi. Xitoy tilida iboralar asosan 4 iyeroglifdan tashkil topib tuzilishi qat’iydir, ularni tartibini o‘zgartirish yoki almashtirish mumkin emas, ularni tarkibini kamaytirish yoki oshirish uning ma’nosiga ta’sir qiladi. Ularning ba’zilari qadimiy xitoy tilidan qolgani sababli, qadimiy xitoy tili grammatikasining xususiyatlarini o‘zida saqlab qolgan, masalan 光宗耀祖(*Guāngzōngyàozǔ*) iborasi ajdodlarni ulug‘lash degan ma’noni bildiradi, 衣锦还乡(*Yījǐnhuánxiāng*) iborasidagi 衣 bu fe’l bo‘lib kiymoq so‘zidir, bu iboralar ritm va shaklan va go‘zallikning uyg‘unligi bilan odamlar maqsadining psixologiyasida aks etadi. Odatda ular quyidagi asosiy turlarga bo‘linadi:

A) Predikatevli iboralar, ega va kesimdan tashkil topadi. Ega oldin kesim keyin keladi, so‘z tartibi va so‘z turkumlaridan foydalanib bu boradagi muno-sabatlarni bayon qiladi, ma’nosiz so‘zlardan foydalanilmaydi.

Masalan:

万事亨通(*Wànshì, hēngtōng*) Barcha ishlarning muvaffaqiyatli bitgani

四海为家(*sìhǎi wéi jiā*) Qayerga bormasin xotirjam yashash mumkin

万象更新(*wànxiàng gēngxīn*) Tabiat olamidagi narsalar yoki manzaralar o‘zgarib, yangi qiyofa kasb etdi.

B) Fe’l va to‘ldiruvchili iboralar, fe’l va to‘ldiruvchidan tashkil topadi, birinchi fe’l keyin to‘ldiruvchi keladi, fe’l va to‘ldiruvchi o‘rtasidagi hokim va tobe bo‘lak shaklida bo‘ladi va mustaqil ma’noli so‘zlardan foydalaniladi.

Masalan: 百花齐放 (*bǎihuāqífàng*) Barcha turdagi gullar bir vaqtning o‘zida gullaydi, tasviriy san’atda turli shakl va uslublar bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lib, erkin rivojlanadi.

广开财源 (*guǎng kāi cáiyuán*) Boylik manbalarni kengaytirish, oshirishga ishora qiladi.

连中三元 (*liánzhòngsānyuán*) Qadimda imperator imtihonlarida ketma-ket 3 marta yaxshi natijaga erishgan odamga nisbatan qo‘llanilgan, hozirda ketma-ket yaxshi natijaga erishgan odamlarga qo‘llaniladi.

C) Aniqlovchi va aniqlanmishli ibora, aniqlovchi birinchi aniqlanmish ikkinchi keladi.

Masalan: 百年好合 (*Băinián hăo hé*) Er va xotin o‘rtasidagi munosabatlar abadiy davom etsin. Odatda to‘y uchun tabrik xabari sifatida ishlatiladi.

百年佳偶 (*băinián jiā’ŏu*) Bir umrga mehribon juftlik. Odatda to‘y uchun tabrik xabari sifatida ishlatiladi.

金榜題名 (*jīnbăng tímíng*) Imtihondan o‘tish va ro‘yxatning yuqori qismida bo‘lishni nazarda tutadi.

D) Qo‘shma ibora, ikki yoki undan ko‘p grammatik leksemalardan tashkil topadi, qisimlar taqqoslash, darajalash va tanlov kabi birikish munosabatida bo‘ladi, odatda bir xil xususiyatli bir xil funksiyali so‘zlar bog‘lanadi.

Masalan:

花好月圆(*huāhăoyuèyuán*) Baxt uchun metafora. Ko‘pincha yangi turmush qurganlarni tabriklash uchun ishlatiladi.

德高望重 (*dégāowàngzhòng*) Yuqori axloqiy xarakter, ajoyib obro‘.

龙腾风翔(*lóngténg fēng xiáng*) Xattotlik qobiliyati kuchli, moslashuvchan va cho‘ziluvchanligini ta’riflang.

2) Ibora bo‘lmagan *jisyang*lar, birikma shaklida bora bo‘lmagan 4 ta iyeroglifdan tashkil topgan *jisyang*lar, turg‘un birikmalar va ikkinchi qismidagi birikmalar –歇后语 ham shular jumlasidandir, ularning aksariyat qismi uzoq tarixdan saqlanib kelayotgan boy ma’noli turg‘un birikmalardir.

A) To‘rt iyeroglifli ibora bo‘lmagan birikma:

年年有余 (*nián nián yŏuyú*) Bu boy hayotni ifodalaydi va har yili ortiqcha boylik va oziq-ovqat bo‘lishini bildiradi!

天上双星 (*tiānshàng shuāngxīng*) Osmonda ikki yulduz bir-biriga yaqin keladi, issiq yoz tugab salqin kuz kelishini bildiradi

旅途愉快 (*lŭtú yúkuài*) Osoyishta baxtli va quvonchli sayohat ma’nosini anglatadi

B) Og‘zaki nutqdagi turg‘un birikmalar, ko‘pincha 3 iyeroglifli fe’l yoki to‘ldiruvchili birikmalar bo‘ladi, ammo ular xitoy tilida unchalik ko‘p emas:

To‘ldiruvchili: 交好运 (*jiāo hăo yùn*) Qandaydir omadga duch keling, asosan omadga ishora qiladi; omad tilaymiz.

走鸿运 (*zŏu hóng yùn*) omadi kelmoq，omadli bo‘lmoq

早立子 (*zăo lì zi*) tezroq farzand ko‘rishni tilashda ishlatiladi

Predikatev: 开门红 (*kāiménhóng*) bu ishda va hamda martabada yuqori darajaga erishish uchun metafora

满堂红 (*măntánghóng*) Har tomonlama yaxshi natijalarga erishish.

C) Taxminiy so‘roq va uning javobi shaklidagi ikki qisimdan tashkil topgan asosan og‘zaki nutqda ishlatiladigan gapning ikkinchi qismida keladigan birikma, birinchi qismida jumboq, ikkinchi qismida esa javobi keluvchi ma’noli birikma. Ikkala qism o‘rtasida uzilish bor va ko‘pincha ikkinchi qism aytilmaydi, bu esa odamlarni uning ma’nosini o‘ylab ko‘rishga undaydi shuning uchun ham bu birikmalar ikkinchi qismli birikmalar deyiladi:

砖头砌墙一一后来居上
Zhuāntóu qì qiáng yīyī hòuláijūshàng
G‘ishtlar birma-bir taxlanib devor bo‘ladi
余太君挂帅一一马到成功
Yútàijūn guàshuài yīyī mǎdàochénggōng
General Yang buyruq oldi- otiga minib g‘alabaga otlandi.
空军练本领一一壮志凌云
Kōngjūn liàn běnlǐng yīyī zhuàngzhì língyún
Havo kuchlarini shug‘ullantirish—yuqori malakali qurolga ega bo‘lish

Gap shaklidagi jisyang lar.

Jumlalar shaklida uchraydigan *Jisyang*lar — bular odatda ko‘p ishlatiladigan tilaklardir. Ular turli tantana va bayramlarda tilak bildirish uchun ishlatildi, quyida biz ularni sodda gap va murakkab gap nuqtai nazaridan tahlil qilamiz.

Sodda gap nuqtai nazaridan bu *Jisyang*lar birikmalardan yoki yakka so‘z-lardan tashkil topadi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri, aniq shakldan foydalanadi. Xayrli, quvonchli va yoqimli xabar beruvchi gaplarni odamlar tez va oson qabul qilishadi.

Masalan:

Do‘stingiz yangi kompaniya yoki biznes boshlaganda 开业大吉(*Kāiyè dàjí)* jumlasi, yangi uyga do‘stingiz ko‘chib o‘tganda 恭喜乔迁(*Gōngxǐ qiáo qiān)* jumlasi, tug‘ilgan kunlarda oddiy 生日快乐(*Shēngrì kuàilè*) jumlasi, yangi yilda odamlar o‘zaro 恭喜发财 (*Gōngxǐ fācái*) jumlasini ishlatib tilak tilaydilar, bundan tashqari 祝安居乐业 (*Zhù ānjūlèyè*) jumlasi osoyishta hayot va baxtli ishlashga tilakni, 祝事事如意 (*Zhù shì shì rúyì*) jumlasi esa hamma narsa kutilganidek va ko‘ngildagidek amalga oshishiga tilakni bildiradi.

Murakkab gap nuqtai nazaridan, bu 吉祥语 lar ikki va undan ortiq ma’noli gaplardan tashkil topadi, tuzilishi jihatidan o‘zaro bir bo‘lmagan gaplar qo‘shil-masidir. Ular ham odamlarning osuda, baxtli va quvonchli hayotga bo‘lgan intilish mazmunidagi tilaklaridir

Masalan:

1) “阳光照耀的地方有我默默的祝福，月光酒向地球的时候有我默默的祈神，流星划过的利那我许个愿：祝福正在看短信的你年年岁岁快乐无边，时时刻刻快乐永远” -*Yángguāng zhàoyào dì dìfāng yǒu wǒ mòmò de zhùfú, yuèguāng jiǔ xiàng dìqiú de shíhòu yǒu wǒ mòmò de qí shén, liúxīng huàguò de lì nà wǒ xǔ gè yuàn: Zhùfú zhèngzài kàn duǎnxìn de nǐ nián nián suì suì kuàilè wúbiān, shí shíkè kè kuàilè yǒngyuǎn-* hayotning har bir kuni xursandchilik va afsusga, quvonch va qayg‘uga to‘la, lekin do‘stlar o‘rtasidagi oddiygina tilaklar ular o‘rtasidagi hasrat alangasini so‘ndirib, xafagarchiliklar tumanini chetga surib tashlashi mumkin.

2) “月很圆，花很香，祝你身体更健康！水在流，鱼在游，忘掉所有忧和愁！手中花，杯中酒，祝你好运天天欢乐多，伤心少，祝你明天更美好” -*“Yuè hěn yuán, huā hěn xiāng, zhù nǐ shēntǐ gèng jiànkāng! Shuǐ zài liú, yú zài yóu,*

wàngdiào suǒyǒu yōu hé chóu! Shǒuzhōng huā, bēi zhōng jiǔ, zhù nǐ hǎo yùn tiāntiān huānlè duō, shāngxīn shǎo, zhù nǐ míngtiān gèng měihǎo”- bunday *jisyang*lar nafaqat tafovutni yo‘qotadi, balki samimiylikni ham oshiradi, shuning uchun *jisyang*lar hayotda nafaqat xushxabar keltiradi balki baxtsizlikni ham hal qiladi.

3) “阳光为友，心不会晦暗;快乐为友，常带微笑;进取为友，行动不会落后;審智为友，遇事不迷茫;和你为友，快乐无比”- *“Yángguāng wéi yǒu, xīn bù huì huì’àn; kuàilè wéi yǒu, cháng dài wéixiào; jìnqǔ wéi yǒu, xíngdòng bù huì luòhòu; shěn zhì wéi yǒu, yù shì bù mímáng; hé nǐ wéi yǒu, kuàilè wúbǐ”*- bunday 吉祥语 lar his-tuyg‘u bilan birgalikda yuboriladi, do‘stlikni chuqurlashtirmasada do‘stlarga ishonch va marhamatni oshiradi, va yana do‘stlikning qadri va qimmatini ifodalaydi.

Yuqorida olib borilgan izlanish va tahlil natijalariga ko‘ra quyidagi xulosalarga kelindi.

- *Jisyang*larni odamlarning osoyishtalikka, farovonlikka bo‘lgan umidlari, baxtga bo‘lgan intilishlari va hayotga bo‘lgan muhabbatlarini ifodalashga xizmat qiladi;
- *Jisyang*lar odamlarning ijtimoiy psixologiyasini juda aniq aks ettirish mumkin va ijtimoiy hayotda juda muhim rol o‘ynaydi. Shaxslararo munosabatlarni mustahkamlashda ijobiy samaraga ega.
- *Jisyang*lar tuzilishiga ko‘ra shaklan uch guruhga bo‘linadi: so‘z shaklidagi, ibora shaklidagi hamda gap shaklidagi.
- So‘z shaklidagi *Jisyang*lar fonetik nuqtai nazardan bir bo‘g‘inli va ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarga ajraladi. Bir bo‘g‘inli *Jisyang*lar qadimgi xitoy tilidan merosdir, ko‘p bo‘g‘inlilari esa hozirgi zamon xitoy tilida vujudga kelgan. Morfologik nuqtai nazaridan 4 guruhga ajratiladi: ot, fe’l, sifat va son.
- Ibora shaklidagi *Jisyang*lar asosan ibora, turg‘un birikma hamda ikkinchi qismidagi birikmalar –歇后语 xyehouyuyuylardan tashkil topadi. Ibora shaklidagi *Jisyang*lar tuzilishiga ko‘ra predikatevli iboralar, fe’l va to‘ldiruvchili iboralar hamda aniqlovchi va aniqlanmishli iboralarga ajraladi.
- Gap shaklidagi *Jisyang*lar tuzilishiga ko‘ra sodda va murakkab gaplarga bo‘linadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Каримов А.А. Хитой тилидаги ҳисоб сўзлар. – Тошкент: Fan va texnologiyalar markazi bosmaxonasi, 2003. – 120 б.

2. Han C. A study on application of Chinese auspicious pattern in modern design //Asian Social Science. – 2014. – T. 10. – №. 12. – C. 53.

3. Yuanqin P. A brief introduction to Chinese mascot //Canadian Social Science. – 2012. – T. 8. – №. 6. – C. 54-59

4. 李明佳：《吉样语和民族文化》，沈阳：辽宁教育行政学院学报，2008 年第 9 月，

5. 赵日新：《试论吉样语》，内蒙古：语文学刊，1997 年第 6 期
6. 薛维哲，吉样语的性质与功能[J]。齐齐哈尔大学学报，2001
7. 现代汉语词典：2002 年增补本 (大字本)/中国社会 科学院语言研究所词典编辑室编。— 北京：商务印书馆、2002
8. 现代汉语词典：商务印书馆创立 115 年纪念版/中国社会科学院语言研究所词典编辑室编。—6 版。—北京：商务印书馆、2012
9. https://baike.baidu.com/

II. SHARQ MAMLAKATLARI ADABIYOTI

O‘ZBEK VA TURK XALQ ERTAKLARINING QIYOSIY TAHLILI (“Yetim qiz” hamda Zumrad va Qimmat ertaklari misolida)

Feruza SULTANOVA
TDSHU, Turkshunoslik fakulteti
2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada turk va o‘zbek ertaklarining qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Maqolada tahlil uchun turk xalq ertagi “Yetim qiz” va o‘zbek xalq ertagi “Zumrad va Qimmat” tanlab olindi.

Kalit so‘zlar: ertak, obraz, turk va o‘zbek ertaklari, o‘gay ona, jabr-zulm, yaxshilik, yomonlik.

Аннотация: В данной статье проведен сравнительный анализ турецких и узбекских сказок. Для анализа в статье были выбраны турецкая народная сказка «Девочка-сирота» и узбекская народная сказка «Зумрад ва Киммат».

Ключевые слова: сказка, образ, турецкие и узбекские сказки, мачеха, травля, добро, зло.

Abstract: In this article, a comparative analysis of Turkish and Uzbek fairy tales iscarried out. The Turkish folk tale “The Orphan Girl” and the Uzbek folk tale “Zumrad va Qimmat” were selected for analysis in the article.

Key words: fairy tale, image, Turkish and Uzbek fairy tales, stepmother, oppression, goodness, evil.

Xalq madaniyatining bir ko‘rinishi bo‘lmish xalq og‘zaki ijodi, fanda folklorshunoslik deb nomlanadi. Folklor barcha san’atlarning boshlanishi hisoblanadi. Bu san’at o‘z ichiga musiqa san’ati, raqs san’ati, hunarmandchilik va xalq og‘zaki ijodining doston, ertak, maqol, matal, qo‘shiq, afsona, rivoyat, hikoya kabi bir qancha janrlarni qamrab oladi. Mana shu janrlardan biri bo‘lgan ertak folklorshunoslikda alohida keng talqinda yoritilib kelinadi. Ushbu maqolani yozishda ertak janriga oid Rabia Ekşi “Türk Masallarında Kötülük Olgusu”[1] (Turk ertaklarida yomonlik tushunchasi),Derya Özcan va Şadiye Erdik ’’Türk Halk Masallarında İmtihan Motifi”[2] (Turk xalq ertaklarida imtihonmotiv), Naki Tezel “Türk Masalları”[3] (Turk ertaklari), Peren Ercan va Remzi Kincal “Değerler

[1] Ekşi Rabia. Türk Masallarında Kötülük Olgusu. İstanbul, 2021.
[2] Özcan ,D.ve Erdik,Ş. Türk Halk Masallarında İmtihan Motifi. Korkut Ata Turkiyat Araştırmaları Dergisi ,6,285-297,2021
[3] Tezel Naki. Türk Masalları.2 Cilt. Ankara: TC. Kültür Bakanlığı yayınları.1997.

Eğitimi Bağlamında Türk ve Japon Masalları”[1] (Qadriyatlarni o‘rgatuvchi turk va yapon ertaklari), Shahlo Xalilova “Ertaklar tasnifi, badiiyati va o‘ziga xos xususiyatlari” [2] , Shahnoza Abduqayumova “O‘zbek va turk ertaklarida “Yaxshilik” konseptining ifodalanishi” [3] kabi ilmiy ishlar hamda maqolalar o‘rganilib chiqildi.

Shahnoza Abduqayumovaning “O‘zbek va turk ertaklarida “Yaxshilik” konseptining ifodalanishi” maqolasida turk va o‘zbek ertaklari va ulardagi umumbashariy “yaxshilik” tushunchasi haqida batafsil bayon qilinadi. Biz ham turk va o‘zbek ertaklarining qiyosiy tahlilni amalga oshirib, sehrli ertaklarga xos voqeliklar, detallarni qiyosiy o‘rganishga harakat qildik.

Ertak hayot haqiqati bilan bog‘liq bo‘lib, xayoliy va hayotiy uydirmalar asosida quriladi. Bu janr bolalar ongi uchun juda katta tarbiyaviy ahamiyatni kasb etadi. Chunki har bir ertakda ilgari surilayotgan g‘oyalar va o‘xshatishlar, qochirimlar ertak qahramonlari ya’ni, asosan, hayvonlar ba’zan insonlar orqali ochib beriladi. Hayot haqiqatiga yaqin, didaktik xarakterga ega, sarguzasht va hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan ertaklar obrazlar talqini, g‘oyaviy mazmuni, ifoda tili va uslubiga ko‘ra albatta, shartli tarzda uch turga bo‘linadi: hayvonlar haqidagi ertaklar, maishiy ertaklar va sehrli ertaklar. Ana shu turlardan biri bo‘lgan sehrli ertaklarda voqealar sehr-jodu, fantastik uydirmalar asosiga qurilgan bo‘lib, asar qahramonlari har narsa qo‘lidan keladigan mo‘jizakor kimsalar sifatida gavdalanadi. Sehrli ertaklarning asosiy qahramonlari yovuz kuchlar – dev, ajdar, yalmog‘iz kampir, pari, yaxshilik, ezgulik kuchlari — pahlavon yigit, go‘zal malika, dono qiz kabi. Sehrli ertaklarda an’anaviy uchliklar kuzatiladi: uch ayol, uch ot, uch kecha kunduz kabi. Bundan tashqari sehrli ertaklarda taroq, oyna, pat, tutam soch, xumcha, to‘qmoq kabi ajoyib sehrli kuchga ega buyumlar ham an’anaviy tarzda takrorlanadi [4] . Umay Günayning “Elaziğ Masalları” [5] to‘plamidagi turk xalq ertagi “Yetim qiz” hamda A.Hakimjonovaning “O‘zbek xalq ijodi”[6] to‘plamidagi o‘zbek xalq ertagi bo‘lgan “Zumrad va Qimmat” sehrli ertaklar sirasiga kiradi. Bu ikki ertakda ham sehr bilan bog‘liq bo‘lgan sigir, sigirning suyaklari, ajdarho, kampir, sandiq kabikuchlar tasvirlanadi.

“Yetim qiz” ertagida bir qizaloq va uning ota-onasi bo‘ladi. Kunlardan bir kuni qizning onasi o‘lib qoladi. Uning o‘rniga “analık” ya’ni o‘gay ona keladi. Qizning o‘gay onasi har kuni uni dalaga sigirni boqib kelishga jo‘natadi va qo‘liga

---

[1] Peren E.Kıncal R. Değerler Eğitimi Bağlamında Türk ve Japon Masalları. Ahi Evran Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi,9(2), 282-401,2023

[2] Xalilova Sh.J. Ertaklar tasnifi, badiiyati va o‘ziga xos xususiyatlari. 3(4) 87-92, 2022.

[3] Abduqayumova Sh.A. O‘zbek va turk ertaklarida “Yaxshilik” konseptining ifodalanishi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1(11), 371-378, 2021.

[4] Sodiqova Sh.B.Ertak janrigaga xos an’anaviylik. O‘zbek va Sharq Xalqlari Adabiyotida Epik An’ana: Milliy Talqin Masalalari. Xalqaro Ilmiy Anjuman. Toshkent. 2014. 165-167b.

[5] Günay Umay. Elazığ Masalları. Erzurum: Atatürk Üniversitesi Yayınları,1975.

[6] Hakimjonova.A. O‘zbek xalq ijodi. Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti, 1990. 319 b.

faqatgina bir bo‘lak arpa non beradi. U yig‘lay yig‘lay ketar ekan, yonidagi sigir kelib, “U nonni olib kel men yeyman. Sen kel mening qulog‘imga kir, u yerda go‘zal noz-ne’matlar bor, ularni ye” deb aytadi. Shundan keyin qiz har kuni arpa nonni sigirga berib, o‘zi sigirning qulog‘iga kirib noz-ne’matlarni yeya bosh-labdi.Qiz kundan kunga semirib, go‘zallashib boribdi va buni ko‘rgan o‘gay onasi o‘zini qizini ham dalaga jo‘natibdi. Ungaham bir bo‘lak arpa non beribdi. Ammo qizi uni yeya olmay yig‘lab, uyga kelib onasiga boshqa borolmasligini aytadi. Ertasi kuni o‘gay ona o‘gay qiziga bu safar paxta bilan urchuq berib uni yigirib kelishini buyuribdi. Qiz yana yig‘lab o‘tirsa, sigir kelib unga yordam beribdi. U ipni yutib, qulog‘idan chiqarib yigiribberibdi. Qiz maqtovga sazovor bo‘libdi. Buni ko‘rgan o‘gay onasi qizini endi ip yigirishga jo‘natibdi. Qiz buni ham eplolmabdi. Bu hodisadan keyin o‘gay ona sigirdan shubhalana boshlabdi va sigirni so‘yishga qaror qilibdi. Erini ham bunga ko‘ndiribdi. Buni eshitgan qiz sigirni oldiga borib yig‘lab bu xabarni aytibdi. Sigir: “Agar meni so‘ysalar go‘shtim ularga harom bo‘ladi, ular yeya olmaydilar achchiq bo‘lib tuyuladi. Sen ye. Suyaklarimni esa oq matoga o‘rab oxurimni tagiga ko‘m” debdi. Qiz sigirni aytganini qilibdi. Oradan bir, ikki oy o‘tibdi. Bir podshohning uylanishi to‘g‘ri-sida xabar tarqalibdi.To‘y uchun bularning uyiga ham taklifnoma kelibdi. O‘gay ona o‘zining qizini yasantirib, o‘gay qiziga esa ketishdan oldin bir ko‘zani ichini ko‘zyoshi bilan to‘ldirishini aytibdi. Bundan tashqari yasmiq bilan bug‘doyni aralashtirib, “Biz ikki kunda qaytamiz ,ungacha sen ko‘zani ko‘zyoshing bilan to‘ldirib, yasmiq bilan bug‘doyni e’tibor bilan bitta bitta ajrat” deya buyruq berib ketibdi. Qiz yig‘lashniboshlabdi. Qancha yig‘lasin ko‘zani to‘ldirishi kerak. Shu payt bir tarafdan o‘tib ketayotgan tuzchi yig‘i ovozini eshitib, qizchaga yordam beribdi. U tuz bilan suvni aralashtirsa ko‘zyosh bo‘lishini aytibdi. Shunday qilib qiz ko‘zyosh bilan ko‘zani to‘ldiribdi. Keyin qiz bug‘doy va yasmiqni ajratishni boshlabdi. Shu orada eshikdan elak sotadigan musofirlar non so‘rab kelib qolibdi. Ular ham yasmiq va bug‘doyni elab berib yordam beribdi. Shunda qizning hayoliga sigirni suyaklari kelib qolibdi. U oxurning oldiga borib suyaklarga qarasa, u yerda oltindan kiyimlar, otlar, nima qidirsa bor ekan. Qiz ham darhol kiyinib otga minib to‘yga boribdi. Uni hamma podshohning qizi deb o‘ylab qarshi olibdi. Qizu yerda o‘gay onasi va opasini ko‘ribdi. Biroz o‘tirgach ulardan oldin qaytishga qaror qilibdi. Yo‘lda kelar ekan shoshilganidan tuflisi sharsharaga tushib ketibdi.Qiz uyga kelib kiyimlarini berkitib qo‘yibdi. O‘gay onasi va opasi uyga kelganidan so‘ng qizga bo‘lgan barcha voqealarni, podshohning qizi kelganini, u juda chiroyli ekanligini aytib beribdi. O‘gay onasi u qizni og‘ay qizi ekanligini bilmabdi. Biroz vaqtdan keyin podshohning o‘g‘li sharsharani oldida oti bilan yurganida qizning tuflisini topib olibdi. U o‘ziga o‘zi bu tufli kimning oyog‘igato‘g‘ri kelsa, uylanishga va’da berib, har tarafdan tufliga mos oyoq egasini qidira boshlabdi. Va nihoyat tufli qizning yog‘iga to‘g‘ri kelibdi. Qizni otiga mindirib olib ketib, chiroyli to‘y qilishibdi. Qiz baxtli bo‘libdi.

O‘zbek xalq ertagi bo‘lgan “Zumrad va Qimmat” ham “Yetim qiz” ertagi kabi bir xil boshlanadi. Bir ota va uning Zumrad ismli qizi bo‘ladi.Otaning bir ayoli bo‘lib u Zumradga o‘gay ona va uning qizi Qimmat o‘gay opa hisoblanadi. Og‘ay ona Zumradni yoqtirmaydi. “Yetim qiz” ertagida qizlarning ismi keltirilmaydi. O‘gay ona ma’nosida “analık” so‘zi qo‘llaniladi. Turk tilida “analık” hamda “üvey anne” so‘zlari o‘gay ona ma’nosini anglatadi. Zumrad juda aqlli, chiroyli va muloyim qiz bo‘ladi. Qimmat uning aksi – tantiq, qo‘pol, dangasa, kunni bo‘yi ovqat yeydigan, urishqoq qiz bo‘ladi. Har tong qushlar ham, gullar ham Zumradni qo‘shiq kuylab, olqishlab kutib oladi. Qimmatni esa umuman yoqtirishmaydi. Bularni ko‘rgan o‘gay ona Zumraddan qutulmoqchi bo‘lib, otasiga qizini yo‘qotishini yoki u bilan birga yashamasligini aytib, o‘rmonga olib borib tashlab kelishi kerakligini talab qiladi. “Yetim qiz” ertagidaesa voqealar rivoji biroz boshqacha tus olgan. Unda o‘gay onasi qizidan faqat xizmatchi sifatida foydalanadi. Uydagi barcha yumushlarni bajartiradi. Ammo “Zumrad va Qimmat” ertagida Zumrad qanchalik mehnat qilmasin o‘gay onasi undan qutilishni istaydi. Bu voqelik bilan o‘gay ona juda bag‘ritosh ekanligi ifodalanadi. Axiri Zumradning otasi uni o‘rmonga olib ketishga majbur bo‘ladi. Uni o‘rmonga olib borib, “Qizim, sen shu yerda o‘tirib tur, men o‘tin kesib kelaman”-, deydi. Zumrad “taq” “taq” ovozni eshitib “Otam o‘tin kesyapti-”deb o‘ylab kutib o‘tiraveradi. U otasini uzoq kutibdi, lekin darak bo‘lmabdi. Taqillagan ovoz ham chiqmay qolibdi. U otasini qidira boshlabdi. Yura yura adashib qolibdi. Zumrad qo‘rqqanidan yig‘lab yuboribdi. Borgan sari o‘rmon ichi qo‘rqinchli tusga kira boshlabdi. To‘satdan uning oldiga bir sehrli kampir kelib qolibdi. U kampirga salom beribdi. Kampir Zumraddan nega yig‘layotganini so‘rabdi. Zumrad keyin boshidan o‘tgan barcha voqealarni aytib beribdi. Aynan xuddi shu voqea “Yetim qiz” ertagida kampir o‘rniga sigir obrazi bilan ifodalanadi. Sigir qizga yordam beradi. Bu ikkala ertakdagi kampir va sigir obrazi sehrli hisoblanadi. Kampir qizni uyga taklif qilibdi. U Zumradni ovqatlantirib, ovutib, erkalabdi. Zumrad u yerda bo‘sh o‘tira olmay kampirning barcha ishlarini qilibdi. Oradan vaqt o‘tibdi. Bir kuni Zumrad o‘tin olib tushaman deb tomga chiqsa, u yerdan uyini ko‘rib qolibdi. Yuragi uvishib, yig‘lab yuboribdi. “Nega yig‘layapsan, jon qizim?”,-debdi kampir. U uyini ko‘rib qolganini otasini juda sog‘inganini aytibdi. Kampir uni yupatib, tomda qizil va oq sandiq borligini, oq sandiqni qoldirib, qizil sandiqni olib tushishini aytibdi. Unga sandiqni kalitini berib, uyga borib uni ochishini tayinlabdi. Zumradni ot aravaga mindirib jo‘natib yuboribdi. Zumrad uyga boribdi. Hammaning oldida sandiqni ochibdi. Sandiqni ichidan qimmatbaho kiyimlar, shoyi va taqinchoqlar chiqibdi. Buni ko‘rgan onasi chiday olmay Qimmatni ham o‘rmonga olib borishini buyuribdi. Birinchi ertakda qiz sigirning suyaklari orqali mana shunday hadyalarga ega bo‘lgan bo‘lsa, bu ertakda Zumrad Kampir orqali erishdi. Va yana “Yetim qiz”ertagida qizining go‘zal bo‘lishi, maqtovga sazovor bo‘lish uchun arpa non berib yoki bo‘lmasa urchuq, paxta berib dalaga jo‘natgan

bo‘lsa, “Zumrad va Qimmat” ertagida ham Zumradning o‘gay onasi Qimmatni ham hadyalar olishini xohlab o‘rmonga jo‘natadi. Kech bo‘lganda u ham qo‘rqib yig‘lay boshlaydi. Shunda kampir kelib unga yordam berishini aytadi. Lekin u Zumradga o‘xshab minnatdorchilik bildirmaydi. Uy yumushlariga ham yordam bermaydi. Kunlar haftalar o‘taveribdi. U kechgacha yalqovlanib o‘tiraveribdi. Bir kuni kampir unga tomdan o‘tin olib tushishini aytibdi. Uni tomga chiqishga zo‘rg‘a ko‘ndiribdi. Qimmat tomga chiqib, o‘tin olib chiqish o‘rniga, o‘tirib olib yig‘lay boshlabdi. Kampir undan nega yig‘layotganini so‘rabdi. “Uyimni ko‘rib qoldim, ketgim kelyapti”,- deb javob beribdi u. “ Ha mayli, boraqol. Tomdagi oq sandiqni ham o‘zing bilan olib tush”-, debdi. Qimmat xursand bo‘lib sandiqni olib tushibdi.Lekin kampir unga ot arava bermabdi. Faqatgina sandiqni kalitini berib, uni yo‘lda ochmasligini tayinlabdi. Qimmat zo‘rg‘a uyiga yetib kelibdi. Qimmat va onasi uni ichkari xonaga olib kirib, eshiklarni mahkam yopishibdi-da, sandiqni ochishibdi-yu, voydodlab baqirishga tushibdi. Sandiqdan ikkita kattakon ajdar chiqib kampir bilan qizini yutib, derazadan chiqib ketishibdi. Zumrad va uning otasi shod-xurram yashashibdi.

Bu ikkala ertaklardagi jabrlangan qizlarning onalariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ko‘rib turganimizdek, o‘gay ona obrazi sifatida namoyon bo‘lgan. “O‘gay ona” iborasini ilk marta eshitgan inson ko‘z o‘ngiga yetim farzandlariga mehr berish o‘rniga o‘gaylik-yomonlik qiladigan ayol timsoli gavdalanadi. De-yarli barcha asarlarda, hayotiy misollardan kelib chiqqan holda “o‘gay ona” obrazi johil, zolim, qahri qattiq, bag‘ritosh, qattiqqo‘l kabi ko‘rinishlarda tasvirlanadi. Har ikki ertakda ham o‘gay ona obrazi johil, qattiqqo‘l, zolim sifatida namoyon bo‘lib, faqat o‘zining farzandlarini o‘ylab, murod-maqsadlariga, o‘z manfaatlariga yetishish uchun o‘gay qizlaridan foydalanib, hasad ko‘zi bilan boqib azob bergan. Ammo shunday o‘gay onalar ham borki, o‘zi dunyoga keltirmagan farzandini chin mehr bilan tarbiya qilib, kamolga yetkazadi. Bu fikrlarning tasdig‘ini Ahmad Lutfiy Qozonchining “O‘gay ona” asari misolida ko‘rish mumkin. Unda asarning bosh qahramoni 19 yoshli Fotima ismli qizning insof-u diyonati, iymon-u e’tiqodi, mehr-umuhabbati, farzandlariga bergan diniy va dunyoviy ilmi hamda yetim bolalarining baxti, taqdiri haqida fikr yuritiladi.”[1] “Yetim qiz” ertagidagi “Zumrad va Qimmat” ertagiga o‘xshamaydigan ba’zi voqealarni, masalan, qizning ip yigirishi, ko‘zani ko‘z yoshi bilan to‘ldirishi, yasmiq bilan bug‘doyni bittalab ajratishi, qizni to‘yga borishi yoki podshohning o‘g‘li oyog‘iga tuflini kiydirib qizga uylanishi kabilarni boshqa jahon ertaklarida masalan, “Ayoz bobo”, “O‘gay ona”, “Zolushka” ertagida ham uchratishimiz mumkin. Ammo bu voqeliklarni aynan qaysi xalq kimdan ko‘chirganini yoki bo‘lmasa qaysi xalqning ertak janriga tegishli ekanligini aytishga ojizlik qilamiz.

[1] To‘rabekova M.H. Ahmad Lutfiy Qozonchining “O‘gay ona” asarida ona obrazi takomili. Central Asian Academic Journal of Scientific Research 2(1), 90-93, 2022.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, xalq og‘zaki ijodining ertak janri uzoq tarixga ega bo‘lib, har bir xalqning urf-odatlari, an’analari, madaniyat, ishonch va e’tiqodlarini o‘zida mujassam etadi. Hamda har bir bolaning dunyoqarashi kengayishiga, hayotdagi yaxshi va yomon tushunchalarni o‘rganib, asta-sekin tarbiyalanib, ezgulik va yovuzlik tuyg‘ularini anglab yetishiga yordam beradi.

Turk va o‘zbek folklorida, xususan ertaknavislikda o‘xshash va farqli jihatlari ko‘zga tashlandi. O‘ylaymizki, bu o‘xshashliklarning sababi asrlar davomidagi turkiy xalqlarning turmush tarzi, madaniyatidagi uyg‘unlikdir. Mavzusi borasida, ertak syujetidagi voqelik, obrazlarni gavdalantiruvchi xarakter qirralarini ifodalanishida o‘xshashliklarni ko‘rishimiz mumkin. Farqli jihatlar esa, sehrli kuchlarni ifodalovchi unsurlarda namoyon bo‘ldi.

Turk xalq ertagi “Yetim qiz” hamda o‘zbek xalq ertagi “Zumrad va Qimmat” da ko‘tarilgan mavzu va ifoda unsurlari bu xalqlar madaniyatining sermazmun va boy ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduqayumova Sh.A. O‘zbek va turk ertaklarida “Yaxshilik” konseptining ifodalanishi. Oriental renaissance : Innovative, educational, natural and social sciences 1(11), 371-378, 2021.Ekşi Rabia. Türk Masallarında Kötülük Olgusu. İstanbul, 2021.
2. Günay Umay. Elazığ Masalları. Erzurum: Atatürk Üniversitesi Yayınları,1975.
3. Hakimjonova.A. O‘zbek xalq ijodi. Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti, 1990.
4. Peren E.Kıncal R. Değerler Eğitimi Bağlamında Türk ve Japon Masalları. Ahi Evran Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi,9(2), 282-401,2023.
5. Tezel Naki. Türk Masalları.2 Cilt. Ankara: TC. Kültür Bakanlığı yayınları.1997.
6. To‘rabekova M.H. Ahmad Lutfiy Qozonchining ’’O‘gay ona’’ asarida onaobrazi takomili. Central Asian Academic Journal of Scientific Research 2(1), 90-93, 2022.
7. Sodiqova Sh.B.Ertak janrigaga xos an’anaviylik. O‘zbek va Sharq Xalqlari Adabiyotida Epik An’ana:Milliy Talqin Masalalari. Xalqaro Ilmiy Anjuman. Toshkent. 2014. 165-167b.
8. Xalilova Sh.J. Ertaklar tasnifi, badiiyati va o‘ziga xos xususiyatlari. 3(4) 87-92, 2022.
9. Özcan D.ve Erdik Ş. Türk Halk Masallarında İmtihan Motifi. Korkut Ata Turkiyat Araştırmaları Dergisi ,6, 285-297,2021.

NAVOIYDA NAZARIY IJOD

Nafisa KARIMOVA
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: maqolada Alisher Navoiyning adabiyotshunoslikka doir qarashlari tahlil etilgan. “Majolis-un-nafois” asarida o‘zga ijodkorlarga bergan ta’rif va tavsiflari, bildirgan munosabatlari, Navoiyning kuzatishlari natijasida shakllangan fikri dalillari maqolaning tahliliy qismini tashkil etadi. Navoiydagi adabiy –estetik qarashlar bilan yaqindan tanish uchun uni adabiyotshunos kashf etishimiz maqolaning asosiy mazmunini tashkil etadi. Maqolada xorijiy olimlar fikridan o‘rinli foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: ijodkor, badiiyat, iste’dod, adabiy tanqid, shoir, ijodiy matn

Аннотация: в статье анализируются взгляды Алишера Навои на литературоведение. Определения и характеристики, данные другим художникам в произведении «Мажолис-ун-нафуа», отношения, высказанные Навои, доказательства его мнения, сложившиеся в результате его наблюдений, составляют аналитическую часть статьи. Для ознакомления с литературно-эстетическими взглядами Навои наше литературное открытие составляет основное содержание статьи. В статье уместно использовано мнение зарубежных ученых.

Ключевые слова: творец, артистизм, талант, литературоведение, поэт, творческий текст.

Abstract: the article analyzes the views of Alisher Navoi on literary studies. The definitions and descriptions given to other artists in the work “Majolis-un-nafois”, the relations expressed by Navoi, the evidence of his opinion formed as a result of his observations constitute the analytical part of the article. In order to be familiar with the literary-aesthetic views of Navoi, our literary discovery is the main content of the article. The opinion of foreign scientists is appropriately used in the article.

Key words: creator, artistry, talent, literary criticism, poet, creative text.

Sharq mumtoz adabiyotida adabiyotshunoslik masalalarining barcha dolzarb masalalari ildizini topish mumkin. Ijod psixologiyasiga doir ijodkorlararo munosabatlarning tarixiy ildizlarini ham uchratamiz. Masalan, ijod, iste’dod, mavzu va mazmun, she’riy shakllar kabi masalalarning tarixi har qanday adabiyotshunos uchun ham qiziqish, ham o’rganish ehtiyojidir. Ijodkor estetika kishisidir. Ijodkor shaxsiyati uning asarlariga bevosita daxl etib turadi. Ijodkorning shaxsiy estetik qirrasi iste’dod masalasida bo’y ko’rsatadi. Hazrat Alisher Navoiyning davrida ham bu masalaga g‘oyatda katta e’tibor berilgan. Navoiy va iste’dod masalasini ikki xil yo‘sinda ko‘rishimiz mumkin. Birinchidan,

Navoiyning umuman ijodkorlarga bergan bahosida va zamondoshlarining Navoiy iste'dodiga bildirgan munosabatida ko'rinadi.

Sharq mumtoz adabiyotshunosligida hazrat Alisher Navoiyning adabiy tanqidchi sifatida qayta va qayta kashf etamiz. Zeroki, Navoiy tanqid sabablarini hayiqmay, ijodkorga xos odob ila bayon etgan[1]. Navoiy ijodkorlarning asarlarini ularning shoirlik mahorati, ijodga yondashish usullari, badiiy ta'bidan kelib chiqib baholaydi. Asosan, "Majolisun-nafois", "Nasoyimul-muhabbat", "Xamsa" kabi asarlar orqali bu jarayonga guvoh bo'lishimiz mumkin. Ayniqsa, "Majolis-un-nafois" asarida shoirlarning xarakter xususiyatlarini, taxalluslari va kasb - korini ham aytib o'tadi: "Nurbek Saidbek- xorazmlig'dur. Ta'bining ne miqdor quvvati va latofati bor ekanini she'ridan bilsa bo'lur , o'qug'on bilg'ay"[2], Mavlono Riyoziy degan shoirni esa "…samarqandlig'dur. Mutakabbir va mu'jib kishi erdi. G'azalni bag'oyat xub aytur erdi… yetti qalam bilan xatni xub bitar erdi va ham mullo ham hofizki, Qur'oni majidni yetti qiroat bilan bilur va o'qur erdi va ham kotib va ham shoir va ham maoliy erdi"[3], deb ta'riflagan. Ayrim o'rinlarda, Navoiyni tanqidchi sifatida ko'ramiz. U Mavlono Qobiliy degan shoirni ta'riflab, she'rining kamchiligini ko'rsatib o'tadi. "Mavlono Qobiliy-turshizlikdur. Ul sipohiylik suratida erdi va elni hajv qilur erdi.Bu matla' aningdurkim:

Ajab navbad ba lutf arzonki,binavozi g'aribonro,

Navozish zonki, rasmu odati xubest xubonro.

Buvujudkim, hech mazasi yo'qtur va qofiyasi ham g'alatdur"[4]

Navoiy zamondoshlarining ijodiga munosabat bildirganda, shoirlikdan g'oyat zukko kuzatuvchi pozitsiyasiga o'tadi. Hozirgi zamonaviy adabiyotda ham shoirlar baholanadi, biroq mutaassirlik bobida biz faqat ijodiy ta'sirlanish masalasini kun tartibiga qo'yish bilan cheklanamiz. Navoiy esa hozirda unutilib ketgan yana boshqa bir mutaassirlik, ya'ni shoirning o'z she'ridan o'zining ham ta'sirlanishini aynan "Majolis-un-nafois"da, Xoja Abu Said ismli shoirni misolida keltiradi: " Xoja Abu Said –Mehnadindur. Hazrati Sultoni tariyqat Shayx Abu Said Abulxayr (quddisa sirruhu) avlodidandur. Xoja Muayyad Devonaning o'g'lidur. Nomurod kishidur. Ammo o'z she'rin o'qurda yig'lamsirnib o'qur, dag'i o'zi mutaassir bo'lib, har dam ulug' tinar, to bas qilmag'uncha el tanimas". She'r o'qilganda, shoirning tinglovchilarida kuchli emotsional holat natijasida ko'zi yosh olishi tabiiy va ko'p uchraydigan hodisadir. Biroq shoirning o'zi ham

---

[1] Karimova N. Kichik tadqiqotlar. "Muharrir" nashriyoti, Toshkent 2018 yil, 16 bet

[2] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Мажолис ун-нафоис.13-том, ЎзФА "Фан" нашриёти,1997

[3] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Мажолис ун-нафоис.13-том, ЎзФА "Фан" нашриёти,1997

[4] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Мажолис ун-нафоис.13-том, ЎзФА "Фан" нашриёти,1997

yig‘lashi hozir ham, qadimda ham kam kuzatiladigan ruhiy kechinmalardan biridir. Statistik tekshirib ko‘rilsa, asarda Xoja Abu Saiddan boshqa hech bir shoir keltirilmagan. Navoiy bir kishining iste’dodi haqida gapirib, uning asaridan parcha keltirib o‘tgan. Afsuski, Navoiy baholagan adiblarning ko‘pchiligining asarlari bizgacha yetib kelmagan.

Biroq Navoiyning iste’dodiga baho berilgan bir qator mualliflarning asarlari bilan tanishish imkoni mavjud. Navoiyning ustozi, do‘sti va hamkori bo‘lgan Abdurahmon Jomiy “Fotihat ush-shabob” asarida quyidagicha yozgan: “*…Nizomil –millat vaddin Alisher degan oliy ismni olmoqdan mubolag‘asiz badavlatdir…adadi uchtaga yetgan g‘azal va qasidalardan iborat devonlarni bir po‘st ichida uch mag‘iz yetishgani kabi bir jildga jamlagan, o‘z sharofatli himmati bilan bu faqirdan ha biriga bir xos nom qo‘yilsa, deb iltimos qildi”*[1]. Bu yerda Jomiy “Fotihat ush-shabob”, “Vostatul-iqd” va “Xotimatul-hayot” degan uch asarini Navoiy bilan maslahatlashib nomlagani haqida yozgan.

Xondamir nomi bilan shuhrat topgan G‘iyosuddin ibn Xumomuddin Muhammad ibn xo‘ja Jaloluddin Muhammad ibn xoja Burhonuddin “Makorim-ul-axloq” asarining muqaddimasida Alisher Navoiyning “endigina yetilib, yigitlik davri boshlangan paytlarda, bir kuni Lutfiy xizmatiga” borganini va Lutfiyning talabi bilan “Orazing yopqoch ko‘zimdin sochilur har lahza yosh, Bo‘ylakim paydo bo‘lur yulduz nihon bo‘lgach quyosh”degan matla’ni o‘qib bergani va Lutfiyning katta rag‘batiga muassar bo‘lgani[2] haqida yozgan. Shuningdek, Xondamirning “Xulosat ul-axbor” asari orqali Navoiy homiyligidagi ahli shoirlar, saroyda hammaslak bo‘lgan kishilar, Navoiy yaratgan adabiy muhit kishilari haqida ma’lumotga ega bo‘lishimiz. Asarda berilishicha, diniy ilmlardan juda yaxshi boxabar bo‘lgan Atoulloh ismli kishi tomonidan Navoiyning xislatlari haqida yozilgan “Ravzat-ul-ahbob” nomli asar ham mavjud. Sharqshunoslik ilmi bilan shug‘ullangan bir xorijlik olim qo‘lyozma matnlar xususidagi ilmiy ishida: “Sharqdagi ijodning shaklini ijodkor belgilaydi va shoir pozitsiyasini esa jamiyat”, deb yozgan ekan[3]. Navoiy davri adabiyotining xorijda o‘rganilishi o‘zbek tadqiqotchisiga qanchalik faxrli bo‘lishi bilan birga mumtoz ijodkorlarning pozitsiyasi har doim o‘z jamiyati, o‘z davri uchun ahamiyatli ekani ilmiy tasdiq bo‘lib qoladi.

Iste’dodni baholash, ulug‘lash va kezi kelganda tanqid qilish azaldan to bugungi kunimizga qadar o‘z tarixiga ega bo‘lgan hodisadir. Bu hodisani ijodkor

---

[1] Навоий замондошлар хотирасида.Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985

[2] Навоий замондошлар хотирасида.Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985

[3] Grey, Kim. The use of formal theory in evaluation: a review of evaluation practice drawn from outcome evaluations of programs assisting Indigenous Australians. Degree: 2018, University of Melbourne URL: http://hdl.handle.net/11343/22

laboratoriyasining uzvi, deb qarash maqsadga muvofiq. Alisher Navoiy va iste'dod masalasini ijod psixologiyasi tarkibiga kiritish va shu aspektda o'rganish har qanday filologning adabiy-estetik tafakkuri yangilashi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Мажолис ун-нафоис.13-том, ЎзФА "Фан" нашриёти,1997.
2. Навоий замондошлар хотирасида.Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985.
3. Karimova N. Kichik tadqiqotlar. "Muharrir" nashriyoti, Toshkent 2018 yil.
4. Google *schoolar manabi: Grey, Kim.* The use of formal theory in evaluation: a review of evaluation practice drawn from outcome evaluations of programs assisting Indigenous Australians.*Degree:* 2018, University of Melbourne URL: http://hdl.handle.net/11343/22

SHARQ ADABIYOTIDA TIBBIYOT IFODASI

Sohiba KARIMOVA
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 3-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: maqolada sharq adabiyotidagi tibbiy unsurlar, adabiyot va tibbiyot sohalarining o'zaro mushtarak jihatlari va askiya san'ati tahlili berilgan. Sharq va g'arb qiyosiy tahlillaridan o'rinli foydalanilgan. Adabiyotning so'z san'ati sifatida yangi xususiyati, ya'ni tibbiy xususiyati o'rganilgan.

Kalit so'zlar: badiiy adabiyot, janr, folklor, jarohat, tibbiy unsur, Xitoy adabiyoti, tovushlar, askiya.

Аннотация: в статье проводится анализ медицинских элементов в восточной литературе, взаимосвязей литературы и медицины, аскианского искусства. Соответствующим образом используются восточные и западные сравнительные анализы. Изучена новая особенность литературы как искусства речи – медицинская особенность.

Ключевые слова: художественная литература, жанр, фольклор, травма, медицинский элемент, китайская литература, звуки, аския.

Abstract: the article provides an analysis of medical elements in oriental literature, mutual aspects of literature and medicine, and Askian art. Eastern and Western comparative analyzes are used appropriately. A new feature of literature as an art of speech, i.e. medical feature, was studied.

Key words: fiction, genre, folklore, injury, medical element, Chinese literature, sounds, askiya

Badiiy adabiyot azal-azaldan insonga estetik zavq beruvchi, ko‘ngliga yo‘l topa oluvchi san’at sifatida mavjud. Adabiyot nafaqat ma’nan yuksaklikka yetaklaydi, balki qalban ulg‘ayishga ham yo‘l ochadi. Shu sababli xalqimiz qadimdan adabiyotni juda qadrlaydi.

Adabiyot nafaqat nafis bir san’at shu bilan birga, kattagina bir fan hamdir. Majozan biz adabiyotni tibbiyotga ham o‘xshatishimiz mumkin. Shifokorlar inson tanasini davolash uchun turli-tuman dori-yu shifobaxsh giyohlardan foydalanishadi. So‘z ustalari esa inson qalbini turli illatlardan forig‘ qilish uchun ibratli kalomni qo‘llashadi, hikmatlarga mualliflik qilishadi. Bu o‘rinda so‘zdagi ta’sir ham katta ahamiyatga ega. “Ta’sirchanlik aqliy ishning boshqa sohalarida ham katta kuchga ega bo‘lishi mumkin. (Masalan, notiqlik san’atida ta’sirchanlik katta rol o‘ynaydi.) Ammo inson ijodiy faoliyatining mahsulotlaridan hech biri san’at va adabiyot asaridek ta’sirchanlik quvvatiga ega emas”[1].

Dono xalqimizning ma’naviy xazinasida so‘z bilan vujud o‘rtasidagi uyg‘unlik va ziddiyat xususida hikmatli so‘zlar, maqol va matallar ko‘plab topiladi. “Dorining achchig‘i yaxshi, So‘zning – shirini”, “Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi”, “Tig‘ jarohati bitar, Til jarohati bitmas”, “So‘zda qanquv (kesatiq) yomon, Dardda – sanchuv (sanchiq)”[2] kabi maqollar mohiyati mislsiz hikmat mujassam. Tig‘ jarohati – bu insonning qaysidir a’zosiga tekkan tig‘, ehtimol uni davolash uchun yoki tasodifan olingan jarohatdir. Uning vaqt o‘tishi bilan bitib ketishiga shubha yo‘q. Ammo birovga aytilgan bema’ni so‘z har qanday odamning qalbini jarohatlaydi. Uning ma’naviy og‘riqlari oradan uzoq yillar o‘tsa ham ketmasligi mumkin. Yana shunga e’tibor qaratish lozimki, xalq maqollari tarkibida bevosita tibbiyot ilmiga doir hikmatlar ham ko‘p. Xalqimiz: “Boshiga tushgan – tabib”, deydi, ya’ni tan jarohatini his qilgan odam, uning qanchalar og‘riqli ekanini biladi va til jarohatining undan ham battar ekanini qiynalmay tasavvur eta oladi. Aynan shu sabab maqollarda inson tanasi bilan bevosita bog‘liq holatlar aks ettirilgan.

Hozirgi globallashuv zamonida insoniyat sun’iy moslama, ozuqa va yashash sharoitlaridan bezdi va tabiat qo‘yniga qaytishga chog‘landi. Ayni holatni tibbiyot sohasida ham ko‘rish mumkin. Kasal odam tabiat noz-ne’matlari bilan o‘z tanasini sog‘lomlashtirishga e’tibor qaratmoqda. Har ikkisining obyekti tabiatdan najot izlaydi. Tabiatga qaytish istagini bildiradi. Kundalik ish faoliyatida mashinalarda o‘tirib ishlaydigan soha xodimlari ko‘proq harakat qilish, piyoda yurish bilan o‘z vujudi sihatiga e’tibor bermoqda. Biri ko‘plikni, biri kamlikni talab etadi. Tibbiyot jismning tan salomatligini saqlab qolish uchun serharakat bo‘lishga chaqiradi. Adabiyot esa fikrning loyqalanishini oldini olish maqsadida, kamgaplikka da’vat etadi.

Ayni damda inson sog‘ligi uchun so‘zning qudrati ham tabiblar e’tiboridan chetda qolayotgani yo‘q. Nima demoqchimiz? To‘g‘risi, hozirgi davr tibbiyotida kulgi terapiya, deb nomlangan soha ham keng ommalashdi. Odamni kuldirib

---

[1] Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi, – Toshkent: O‘qituvchi, 2005, 74-b.
[2] O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2014, 33-45-b.

davolash dorilardan ko‘ra, ko‘proq natija berishi soha mutaxassislari tomonidan aniqlandi. Jahon tibbiyoti XXI asrga kelib anglagan haqiqatni sharq xalqlari, xususan, o‘zbek xalqi azal-azaldan qo‘llab keladi. Bu xalqimiz orasida keng tarqalgan, xalq og‘zaki ijodining askiya san’ati, askiya janridir. Askiya xalq og‘zaki ijodining ajralmas qismi bo‘lib, uning mohiyatida so‘z o‘yini orqali so‘z ustalarining o‘z zakiyligini namoyon qilishi turadi. Ayni damda so‘z ustalarining favqulodda topqirligiga guvoh bo‘lgan tomoshabinda ichak uzdi kulgi boshlanadi. Kulgi va inson tanasi, yig‘i va inson tanasi orasida tabiiyki ma’naviy-ruhiy robita mavjuddir. Uzoq vaqt mahzun yurgan kishining kayfiyati buzilishi, allaqanday ruhiy kasalliklar yoki tanasida qandaydir kasalliklarni orttirib olishi – bu ham insoniyat boshidan va tajribasidan o‘tgan hodisalar sirasiga kiradi. Jumladan, saraton kasalligi ruhiy zo‘riqish natijadir. Xorijda saratonning birinchi bosqichini kulgu, xursandchilik bilan yenggan kishilar haqida hujjatli filmlar suratga olingan. Askiyani eshitib miriqib kulgan insonning umri uzayadi, badani yayraydi, butun tanasidagi g‘uborlar tarqalib ketadi. Xafa qilgan odamni kechirish hissi uyg‘onadi. Buni shifokorlar ham tasdiqlaydi, albatta. Yana bir misol, nutqida nuqsoni bor bo‘lgan bolalar stomatolog uchun bemor hisoblansa, defektolog-pedagog uchun esa o‘quvchidir. Stomotolog bemorining til qismi ostidan tilish orqali davolashga harakat qiladi. Defektolog esa bolaga tovushlar bilan, unli, unsiz harflarni yakka va juft talaffuz qildirish orqali o‘quvchisining nuqsonini to‘g‘irlashga kirishadi. Shu kabi holatlarda, tibbiyot va adabiyot hamkorligini, buning natijasi o‘laroq chiroyli talaffuz, ravon nutqqa erishish mumkin.

Xorijiy tadqiqotlarning qiyosiy tahlillari bilan tanishsak, jumladan xitoylik olim Zhou, Chenchenning “Xitoy va g‘arb folklorining qiyosiy o‘rganilishi” *nomli tadqiqot ishini olib borgan. Tadqiqotda folklorning nafaqat adabiyot, san’at, insoniyat, balki tibbiyotga ham aloqador mavzu ekani marsiya janri orqali dalillangan. Ya’ni Zhou Chenchenning yozishicha, marsiya qo‘shiqlari yaqinidan ayrilgan insonning g‘am-qayg‘u va alamlarining nolasi bo‘lish bilan birga azador insonning marsiya kuylashi lozim bo‘lgan. Chunki marsiya qo‘shiqlari tushkunlikdan chiqish vositasi deb qaralgan. Yaqinidan ayrilgan odamga tabiblar tinchlantiruvchi dori iste’mol qilishdan tashqari, marsiya kuylashni ham buyurgan ekan*[1]*. Sharq va g‘arb adabiyoti hamda folklori biz bilgan va bilmagan ma’lumotlarga boy. Marsiya kuylagan insonning g‘am –anduhlarini tashqariga chiqaruvchi vosita so‘z va ohang uyg‘unligi hisoblanar ekan, so‘zdan nafaqat fikrni ifodalash, balki ichki stresslardan qutulish sifatida foydalanishgan ekan.*

Inson ruhiyatiga kirib borish va uni yuksaklarga ko‘tarish har kimning qo‘lidan ham kelavermaydi. O‘zining o‘tkir qalamiga ega ijod ahligina bunday mashaqqatli vazifani uddalashi mumkin. Zamonaviy adabiyotda mavzular qamrovi kengaydi, xususan, nasriy asarlar kundalik turmushga yaqinlashdi, insonning psixologik ichki olamini tasvirlashga kuch berdi. Badiiy adabiyotda hayotda yuz berayotgan barcha voqea-hodisalarning badiiy talqini uchraydi.

[1] Zhou, Chenchen. A Comparative Study of Folklore from Chinese Culture and Western Cultures.Degree: 2013, University of Wisconsin – Superior.

Yozuvchilar uchun hayot ilhom manbai, undagi oddiygina bir voqea orqali butun bir jamiyat taqdiri ko‘rsatiladi. Badiiy asarlar tarkibida gohida biz o‘zimizga juda tanish bo‘lgan voqealarni ham uchratishimiz mumkin. Masalan, voqealar kasalxonada bo‘ladigan asarni o‘qigan odam o‘zining bemor bo‘lganini eslaydi yoki qahramonning dardi unga ham begona bo‘lmaydi. Men ham kasal bo‘lganimda shu obrazga o‘xshab o‘ylaganmidim, deb o‘ziga qiyoslashi ham mumkin. Yozuvchi aynan kitobxon retsepsiyasini hisobga olib biror usuldan foydalanganda, o‘quvchining qalbiga, uning hayotiga yaqinroq bora oladi va o‘zi ayt-moqchi bo‘lgan gapni unga hech qiynalmasdan yetkazadi. Zero, dunyoda kasal bo‘lib ko‘rmagan va shifokorlar murojaat qilmagan va ular tavsiya qilgan dori-darmonlar tufayli sog‘ayib ketmagan odam bo‘lmasa kerak. Qaysidir ma’noda badiiy asarlar tarkibida kelgan tibbiyotga doir obrazlar, unsurlar, dori-darmonlar nomlari yoki voqealar kechadigan makon hamda zamon tilga olinganda o‘quvchi o‘sha jarayon bilan o‘z hayotini, o‘zi boshidan o‘tkazgan vaziyatlarni eslaydi. Qalami o‘tkir ijodkor bunday vaziyatlarda tasvirni haqqoniylik martabasiga ko‘taradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
2. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi, – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
3. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2014.
4. Zhou, Chenchen. *A Comparative Study of Folklore from Chinese Culture and Western Cultures.*Degree: 2013, University of Wisconsin – Superior
5. URL: http://digital.library.wisc.edu/1793/59 (Web of science bazasidan olindi)
6. kh-davron.uz
7. www.ziyo.uz

TURGUT O‘ZAKMANNING “DEVOR ORTIDA” ASARIDA ERK VA OZODLIK TUSHUNCHASI

Zuhraxon KOMILOVA
TDSHU, Adabiyotshunoslik yo‘nalishi,
2-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy turk dramaturgiyasining taniqli dramaturgi Turgut O‘zakmanning “Devor ortida” (“Duvarların Ötesi”) nomli asari haqida fikr yuritilgan va tahlil qilingan. Dramalarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, davri va qahramonlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: drama, dramaturg, sahna, teatr, pyesa, g‘oya, badiiylik.

Аннотация: В данной статье рассмотрены и проанализированы пьесы известного драматурга современной турецкой драматургии Тургута

Узакмана «За стенами» («Duvarların Ötesi»). Анализируются идейно-художественные особенности, эпоха и герои его драм.

Ключевые слова: драма, драматург, сцена, театр, пьеса, идея, жанр.

Abstract: This article reflects and analyzes the plays of Turgut Uzakman, a well-known playwright of modern Turkish drama, entitled “Beyond the Walls” (“Duvarların Ötesi”). The ideological-artistic characteristics, period and Heroes of his dramas are analyzed.

Key words: drama, playwright, scene, theater, play, idea, genre.

Zamonaviy turk dramaturgiyasi o‘tgan asrning 50-yillarida taraqqiy etdi, natijada bu yo‘nalishda ijod qilgan dramaturglar soni ham ortib bordi va yangi bosqichga ko‘tarildi. 50-yillarda ijod olamiga kirib kelgan va shu kungacha o‘zining yigirmaga yaqin dramatik asarlari bilan turk dramaturgiyasiga katta hissa qo‘shgan dramaturg, o‘ziga xos uslub sohibi Turgut O‘zakman dramaturglar orasida yetakchi o‘rinni egallaydi.

Uning 1950-1963 yillarda yozilgan asarlarini ijoddagi “ilk davr” dramalari deyish mumkin. Dramaturg o‘zining dastlabki asarlarida umuminsoniy qadriyatlar va o‘zgaruvchan ijtimoiy qadriyatlar o‘rtasida sog‘lom muvozanat o‘rnatib bo‘lmaydigan ijtimoiy doirada individual yoki ijtimoiy pozitsiyalarga asoslangan shaxs tomonidan boshdan kechirilgan ichki yoki tashqi ziddiyatlarga e’tibor qaratadi.[1] Ma’lumki, jamiyat-shaxs munosabatlarini o‘rnatishga harakat qilayotgan shaxslarning mag‘lubiyatiga nosog‘lom ijtimoiy muhit va shaxsning o‘zi qisman javobgardir. O‘zakman ijodining birinchi davrida Usmonli davridan zamonaviy turk jamiyatiga o‘tishda yuzaga kelgan shaxs va jamiyat, shaxs va shaxs o‘rtasidagi munosabatlarda sog‘lom murosaga erishishga nimalar to‘sqinlik qilganini ifodalaydi.

50-yillar avlodi dramaturglari ijodini ko‘zdan kechirar ekanmiz, O‘zakmanning “Pushti uyning taqdiri” (“Pembe Evin Kaderi”), “Urf-odat” (“Töre”), “Devor ortida” (“Duvarların Ötesi”), “Oila o‘chog‘i” (“Ocak”) kabi dramatik asarlarida o‘xshatish, solishtirishga ko‘proq diqqat qaratadi. Adabiyotshunos O‘.Nutkuga ko‘ra, bu xususiyatga ega yozuvchilar aksariyat asarlarida ijtimoiy sharoitga psixologik tazyiqlar, ichki notinchlik, nizolar va ichki tushkunlikni bog‘laydilar. Doimiy ravishda o‘zgarib turadigan qiymat mulohazalari bilan bir qatorda, turli urf-odatlar bosimi, iqtisodiy tengsizlik va ishonchsizlik ham insonga ichki notinchlik olib keladi...[2] Bu ijodkorlar insonning ichki dunyosidan jamiyatga o‘tishga harakat qiladilar va yangi mohiyatni kiritishga, muzlagan odatlarni parchalashga va yangilashga moyil bo‘ladilar.

---

[1] Çağlar M. Turgut Özakman’ın Oyun Yazarlığı. Doktora Tezi, Ankara-2010. -S.407.

[2] Nutku Ö. Dünya Tiyatrosu Tarihi II. Ankara Üniversıtesi, DTCF Yayınları, Ankara-1973. -S22

1958-yil “Devor ortida” (“Duvarların Ötesi”) nomli pyesasi rejissyor Ziyo Demirel boshchiligida sahnalashtiriladi va ilk kundan boshlab, u katta muvaffaqiyatlarga erishadi. Bu yutuq matbuotda ham o’z aksini topadi. T.O‘zakman “Davlat teatri” jurnalida yozgan maqolasida “teatrni teatrdan tashqarida o‘rganib bo‘lmaydi” deb ta’kidlaydi. Bu asardagi personajlarning insoniyligi sahnadan tortib tomosha joyigacha bo‘lgan “insoniylik tafti” mavjudligi bilan boshqa asarlaridan ajralib turadi.[1] Taniqli turk tanqidchisi Metin And bu pyesani “Turk teatri uchun yuz yillik davr” deb ataydi.[2] “Yuz yillik davr” deyishidan maqsad Ibrohim Shinosiyning “Shoirning uylanishi” (“Şairin Evlenmesi”) nomli asari yozilganidan keyingi vaqt oralig‘ini nazarda tutgan. Bu asari sababli Turgut O‘zakman “Kinoteatr” uyushmasi tomonidan “Yilning eng yaxshi turk dramaturgi” deb taqdirlanadi.

“Devor ortida” (“Duvarların Ötesi”) asarida shaxs-jamiyat munosabatlari aybdorlik hodisasi kontekstida ko‘rib chiqiladigan triller hisoblanadi. Voqealar quyidagicha: Qamoqdan qochgan, biri umrbod, qolgan uch nafari o’limga mahkum bo’lgan to’rt nafar mahkum o’zlari garovda ushlab turgan qiz bilan bo’sh zaytun omborida boshpana topishadi. Tez orada ular xavfsizlik kuchlari va qiziquvchan odamlar tomonidan o’ralgan bo’lsalar ham, garovga olgan qizni o’ldirish bilan tahdid qilish orqali tashqaridagilarni zararsizlantirishga va o’zlarining xavfsizligini ta’minlashga muvaffaq bo’lishadi. Qizga nisbatan avvaliga noxush va qo’pol munosabatdan so’ng, garovga olingan qiz va mahbuslar o’rtasida insoniy yaqinlashuv sodir bo’ladi. Bu yaqinlashish paytida qiz jinoyatchilarni jazolash zarurligi haqida shikoyat qiladi; Mahkumlar yolg‘iz o‘zlari aybdor emasligi haqida gapiradi. Mahbuslar qizga onasiga xat yuborishga ruxsat berganlarida, yaqinlashuv yanada rivojlanadi. Ularning har birining hayotiy voqeasi jinoyat sodir etishdan oldingi salbiy turmush sharoitlarini ta’kidlash orqali ifodalanadi. Garovga olingan qiz o‘qituvchi bo‘lganligi bois, o‘z burchini “kichik odamlarga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatish” deb hisoblaydi va mahkumlarga ham to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatishga urinadi.

Asar to‘rt mahbusning qamoqxonadan tashqaridagi dunyo bilan munosabati va bu munosabatlarning ularga ta’sirini ko‘rsatib, jamiyat jinoyatchi deb hisoblagan bu odamlarni yaqindan tanishtirishga yordam berishni maqsad qilgan. Asarda tashqi dunyo bilan birinchi aloqa garovga olingan qiz bilan bo‘ladi. Ularni tushunadigan, ularga yomon munosabatda bo‘lmaydigan, kurashida turgan odamning borligi mahkumlarni yumshatadi, ularni gina va nafratdan uzoqlashtiradi. Garovga olingan qizga yaxshi munosabatda bo‘lish zarurligini sezgan mahbuslar qizning onasiga yozgan xatini o‘qimaydilar – bu uning shaxsiy

---

[1] Ayşegül Y. Turgut Özakman’ın Oyun Yazarlığının İkinci Dönemi. Bilgi Yayınevi, Ankara-1997. -S.124.

[2] Ayşegül Y. Turgut Özakman’ın Oyun Yazarlığının İkinci Dönemi. Bilgi Yayınevi, Ankara-1997. -S.121.

hayotiga hurmati natijasidir. Bunda, shak-shubhasiz, qizning shaxsiy fazilatlari, kasbidan olgan bilimlari ham muhim rol o‘ynaydi. Voqealar rivoji bilan ma’lum bo‘ladigan narsa shuki, mahbus insonlar va ular qotil bo‘lsalar ham, yirtqich hayvonlar emas.

Ayshegul Yuksel shaxs-jamiyat munosabatlarini aybdorlik hodisasi kontekstida o‘rganib chiqib, triller deb ta’riflagan “Devor ortida” spektaklining finalini ko‘rib chiqsak, jinoyatchilarni bemor sifatida ko‘rish va ularni davolashga harakat qilish o‘rniga ularni jazolaydigan, shuningdek, jinoyatga qo‘shgan hissasi bilan duch kelmaslikdan qochadigan jamiyat tanqid qilinadi.[1] Bu masala muallifning pyesasini birinchi sahnalashtirayotganida yozgan maqolasida quyidagicha ifodalangan: Biz jinoyatchi deb ataydigan inson aslida baxtsiz bemor. Bu aniq haqiqatni qabul qilishimiz uchun, ehtimol, asrlar o‘tib ketar. Darhaqiqat, kechagi kungacha aqldan ozganlarga bemor sifatida emas, jinoyatchi sifatida munosabatda bo‘lib, zindonlarda o‘limga hukm qilishmoqda... Ertaga jinoyatchilar bemor sifatida davolanadi va kasalxonalarga yuboriladi... Kelajak avlodlar bizga xuddi biz o‘rta asrlarga qaraganimizdek qarashadi.[2]

Darhaqiqat, muallif ikkinchi parda va ikkinchi sahnada bu borada o‘z fikrlarini bildiradi, vaziyat boshi berk ko‘chaga kirib, mahbuslar najot umidini yo‘qotgan bir paytda u buni asar qahramonlari orqali shunday ifoda etadi:

Doktor: Boshqa iloj yo‘q, bolalar.

3-mahbus: U (Qiz) uchun yo‘q bo‘lsa, biz uchun ham yo‘qmi?

Doktor: Nima, o‘g‘lim?

3-mahbus: Uning omon qolishi juda muhim lekin bizniki muhim emasmi?

Doktor: Men nima qila olaman?

2-mahbus: Qizni shu yerda qoldiring.

Doktor: Agar iloji bo‘lsa ...

3-mahbus: Bo‘lmasa tashqaridagilar bilan gaplashing.

Doktor: Nega?

3-mahbus: Biz uchun nimadir qilishsin.

1-mahbus: Meni yana bir bor mahkamaga olib borishsin. Aytadiganlarim bor. O‘shanda men buni ayta olmagandim.

3-mahbus: Mening ham aytadigan gapim bor.

1-mahbus: Odam o‘z-o‘zidan jinoyatga qo‘l urmaydi.

3-mahbus: Meniki qasos edi. Agar biz ularni yo‘q qilmaganimizda, ular bizni yo‘q qilishardi.

2-mahbus: Men yong‘in bo‘lgan joylarda, ertalabki kafelarda o‘sganman. Agar u yerda katta bo‘lganingda, bizga qarshi emas, oramizda bo‘larding.

---

[1] Ayşegül Y. Turgut Özakman’ın Oyun Yazarlığının İkinci Dönemi. Bilgi Yayınevi, Ankara-1997. -S.122.

[2] Özakman T. Devlet Tiyatrosu Aylık Sanat Dergisi No: 3, 27 Aralık. 1958. -S.85

1-mahbus: Bu qizni o‘pkasi kasal bo‘lgani uchun o‘ldiryapsizmi?
3-mahbus: Biz ham kasalmiz.
1-mahbus: Miyamiz mikroblarga to‘la, nima qilaylik?
3-mahbus: Nima qila olardik?
2-mahbus: Nega mikroblarni emas, bizni yo‘q qilyapsiz?”[1]

Dramaturg yashagan mamlakatda 2002-yilda o‘lim jazosi bekor qilinganini inobatga olsak, muallifning bu yondashuvi qanchalik uzoqni ko‘zlaganiga guvoh bo‘lamiz. Asar eng ko‘p sahnalashtirilgan pyesalar qatoridan joy olishining sababini ijodkor yondashuvining tomoshabin vijdoniga ta’siri bilan izohlash kerak, deb hisoblayman. Asarda inson ozodligi, erki va hayot farovonligi ulug‘lanadi, inson hayotida bu ne’matlarni qadrlashi kerakligiga e’tibor qaratiladi. T.O‘zakman dramalarining g‘oyasi ham shunda, hayotning og‘ ir mashaqqatlari oldida har bir inson atrofidagi oliy ne’matlarni qadrlashi va ulug‘lashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Çağlar M. Turgut Özakman’ın Oyun Yazarlığı. Doktora Tezi. Adana, 2010.
2. Taşer S. “Cumhuriyet” gazetesi. 7. Şubat. 1955.
3. Yüksel A. Turgut Özakman’ın Oyun Yazarlığının İkinci Dönemi. Bilgi Yayınevi, Ankara, 1997.
4. Özakman T. Devlet Tiyatrosu Aylık Sanat Dergisi. No:3, 27 Aralık, 1958.
5. Özakman T. Duvarların Ötesi. 2.Basın, Bilgi Yayınevi, Ankara 2014.

HALIKARNAS BALIQCHISI HIKOYALARIDA MIFOLOGIK OBRAZLAR TALQINI

Muhayyo BAXTIYOROVA
TDSHU, Adabiyotshunoslik yo‘nalishi,
2-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy turk yozuvchilaridan biri bo‘lgan va mifologik ilmiy tadqiqotlar olib borgan yozuvchi Halikarnas Baliqchisining asarlarida uchraydigan mifologik qahramonlar haqida ma’lumot berilgan. Shu bilan bir qatorda Halikarnas Baliqchisining mifologik sohaga oid ayrim ilmiy fikrlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: mif, Gomer, Zevs, Appolon, Poseydon, Eros, Hades, Ares, Kronos.

[1] Özakman T. Duvarların Ötesi. 2. Basın. Bilgi Yayınevi, Ankara 2014. -S.166.

Аннотация: В статье представлены сведения о мифологических персонажах, встречающихся в произведениях Галикарнаса Баликчи, одного из современных турецких писателей, проводившего мифологические исследования. Наряду с этим изложены некоторые научные взгляды Галикарнас относительно мифологической области.

Ключевые слова: миф, Гомер, Зевс, Аполлон, Посейдон, Эрос, Аид, Арес, Кронос.

Abstract: The article provides information about the mythological characters found in the works of Halicarnassus Baliqchisi, who is one of the modern Turkish writers and has conducted mythological researches. Along with this, some scientific opinions of the Fisherman of Halicarnassus regarding the mythological field are described.

Key words: myth, Homer, Zeus, Apollo, Poseidon, Eros, Hades, Ares, Kronos.

Eng asosiy an'anaviy unsurlar orasidan joy olgan miflar, inson aqlining, atrof-muhitining va o'zligini anglash jarayonini ifodalab beradigan, ming yillardan beri saqlanib kelayotgan bilimlardan biridir.[1] Mif (yunoncha. Mitos — afsona, rivoyat, asotir) — qadimgi odamning borliq olam haqidagi ibtidoiy tasavvurlari majmui bo'lib, koinotning yaratilishi, inson, o'simliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo'lishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma'budlar va ilohlar to'g'risidagi e'tiqodiy qarashlarni o'z ichiga oladi[2]. Mif qadimgi odamning voqelikka bo'lgan ongsiz hissiy munosabati ifodasi bo'lib tabiat va jamiyat hayotining turli qirralari mohiyatini tushuntiruvchi eng qadimgi tasavvurlar silsilasidir. Mifologik tasavvurlar muayyan voqelik mohiyatini xayoliy uydirma vositasida izohlasa-da, mif yaratilgan va ommalashgan joyida o'z ijodkori va insoniyat tomonidan haqiqatda bo'lib o'tgan voqealar bayoni sifatida qabul qilingan. Qadimgi odamning olam haqidagi tasavvurlarini o'zida ifodalagan va avloddan avlodga yetkazishga mo'ljallangan miflarning ommalashish usullari ham turlicha bo'lib, asosan, jonli og'zaki ijro orqali, ya'ni so'z vositasida hikoya qilib berilgan. Shuningdek, "afsona muqaddas voqeani ifodalab beradi; u eng qadimgi davrda ya'ni etnik davrdagi "boshlanish"da sodir bo'lgan voqea haqida so'z yuritadi.Masalan, orol, o'simlik turi, insonning xulq-atvori, tuzilishi qanday yaratilganligini bayon qilib beradi. Shunday qilib, mif har doim "yaratilish"ni hikoya qiladigan manbadir."[3]

Turkiy adabiyotda arabcha "usture" so'zlari va uning ko'plik shaklidagi "esatir", ba'zan forscha "afsona", "fesane" so'zlari mif va mifologiyaning

---

[1] Halikarnas Balıkçısı'nın eserlerinde mitlerin izleri ve karşılaştırmalı mitolojiye katkısı. (http://www.millifolklor.com).

[2] O'zbek mifologiyasi. Arab folklori. T.,2001

[3] Eliade M. Mitlerin Özellikleri. Çev. Sema Rifat. Bilgi Yayınevi İstanbul, 2001. -S 201.

ekvivalenti sifatida ishlatiladi. Biroq afsona so‘zi turkiy tildagi mifga to‘liq mos kelmaydi. Afsona o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra mifdan farq qiladi. Sami Akalin o‘z lug‘atida mifning sinonimi sifatida “usture” so‘zini ham ishlatib, “qadimgi odamlarning Xudo va ilohiy qahramonlar haqidagi e’tiqodi” deb ta’riflaydi.

Halikarnas Baliqchisi (Jevat Shakir Kabaag‘achli) mifologiya nuqtai nazaridan ilmiy obro‘ga ega yozuvchi hisoblanadi. U Turkiyada qiyosiy mifologiya sohasida yagona yozuvchi va eng kuchli mutaxassis edi. Halikarnas Baliqchisi asarlarida Onado‘lining sivilizatsiya tarixida tutgan o‘rni juda muhim ekanligini ta’kidlaydi. U barcha asarlarida bu masalaga alohida urg‘u bergan. Buni quyidagilar bilan izohlaydi: Onado‘li ilmiy tafakkurning vatani hisoblanadi. Ilmiy tafakkurning ilk namoyandasi ertaklar, miflar va afsonalardir. Ilm-fanning asosi Onado‘lida kelib chiqqan, deya ta’kidlagan yozuvchi. Unga ko‘ra, ilm-fan Gretsiyaga ko‘chganidan keyin tanazzulga yuz tutgan. Halikarnas Baliqchisi Onado‘lining sivilizatsiyalar beshigi va madaniyatlar mozaikasi ekanligini ilmiy tadqiqotlarida yaqqol namoyon etgan. Mifologiyaning ilmiy, tarixiy va badiiy voqelik sifatida taqdim etayotgan ma’lumotlar markazida bo‘lishi miflarning jamiyatning barcha qadriyatlarining ko‘zgusi ekanligidan kelib chiqadi.

Halikarnas Baliqchisini Turkiyada Onado‘li sivilizatsiyalari va qiyosiy mifologiya tadqiqotlariga olib borgan narsa, u asos solgan “Moviy Onado‘lilik” intellektual harakati edi. Gumanizmning Onado‘lidan kelib chiqishini targ‘ib qiluvchi, Onado‘li sivilizatsiyalarini manba sifatida ko‘rgan va Onado‘li o‘lkalari bilan Ellin dunyosi o‘rtasida tarixiy va madaniy aloqa borligini targ‘ib qiluvchi “Moviy Onado‘lilik” g‘oyasi Jevat Shakir Kabaag‘achli tomonidan ishlab chiqilgan. Bu g‘oyaga ko‘ra, dunyodagi ko‘plab afsonalar, ayniqsa, yunon miflari Onado‘lidan kelib chiqqan deyiladi.[1]

Muallifning yunon mifologiyasi va Onado‘li sivilizatsiyalarining o‘zaro ta’siri haqida yana bir kuzatuvi Onado‘lining butun yunon mifologiyasi shakllanishiga ta’siridir. Bu yerda Halikarnas Baliqchisi nafaqat ayrim afsonalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir misollari, balki Gomer orqali Onado‘lining yunon mifologiyasi shakllanishiga ta’siri haqida ham gapiradi. Yunon xudolarining paydo bo‘lishiga nazar tashlasak, bu xudolarni Gomer yaratganligini ko‘ramiz. Yunon mifologiyasining birinchi va eng muhim manbasi bu Gomer yunon xudolari haqidagi aytgan afsonalari bo‘lgan. Aynan shuning uchun Gomer Onado‘li yunon mifologiyasiga va shu bilan birga butun Ellin madaniyatiga muhim hissa qo‘shgan. Adibning “Onado‘li ovozi” asarida Gomer haqidagi maqola quyidagicha: “Mifologiya qaysi jamiyat qaysi xudolarga sig‘inishini aytadi. Topinadigan xudolardan jamiyat qaysi avlodga mansubligi aniqlanadi. Greklar o‘n ikki

[1] Önal H.İ. Halikarnas Balıkçısı, Cevat Şakir Kabaağaçlı. Hayatı-Kişiliği-Eserleri. Kültür Bakanlığı Yayınları, Ankara, 1997. -S 202

olimpiyachiga sig‘inishgan. Bulardan eng birinchisi Zevs hisoblangan.” [1] Xususan, Halikarnas Baliqchisining asarlarida quyidagi mifologik qahramonlarni uchratishimiz mumkin:

Zevs - yunon afsonalarida oliy xudo; xudolar va odamlar hukmdori. Kronos va Reyaning o‘g‘li. Xudolarning uchinchi avlodiga mansub. Tartarda o‘z otasi va boshqa titanlarni yengib, Olimp tog‘ida hukmron bo‘lgandan keyin, asta-sekin olamni qaytadan tuzadi, xudolarni yaratadi, qonunlar chiqaradi, tartib o‘rnatadi, fan, san’at, axloq me’yorlarini joriy etadi. Xudolarning irodasini va yaxshi niyatlarini ro‘yobga chiqaruvchi ko‘plab qahramonlar (Gerakl, Persey)ning otasi. Ayni vaqtda dahshatli jazolovchi kuch ham hisoblanadi.

Appalon - yunon mifologiyasi va dinida olimp xudosi, Zevs va Letoning o‘g‘li, shifo baxsh etuvchi, sohibkaromat va san’at homiysi. Apollonga sig‘inish Kichik Osiyoda boshlanib, mil. avv. 2-ming yillikda Yunonistonga, u yerdan Rimga tarqalgan. Dastlab cho‘ponlar homiysi, olmazorlar xudosi deb tanilgan.

Poseydon - yunon mifologiyasida olimpiyalik xudolardan biri, Kronos va Reyaning o‘g‘li. Dunyoga hukmronlik qilishni akalari Zevs va Aid bilan bo‘lishib olgan. Unga dengiz nasib qilgan. Qo‘lida uch tishli ayri bilan tasvirlangan, u ana shu ayri yordamida dengiz dovullarini hosil qilgan.

Eros – Yunon afsonalariga ko‘ra sevgi xudosi hisoblanadi. Ba’zan haqiqatning ramzi sifatida tasvir etilgan. Eros odatda Afrodit bilan birga eslab o‘tiladi. Va Dionysus kabi ba’zan unga Eleutherios (ya’ni xaloskor) sifatida ham qaraladi.

Hades - Olimpiya xudolari davri paydo bo‘lgandan so‘ng, Hades yer osti dunyosining hukmdoriga aylandi — bu faqat o‘liklar kirishi mumkin bo‘lgan joy.

Ares - Zevs va Geradan tug‘ilgan Ares urush xudosi sifatida ham tanilgan. Ammo u urushning zo‘ravonlik va dahshatli tomonlarini yoqlab chiqdi. Adolatdan ko‘ra zo‘ravonlikni ko‘proq aks ettirdi. U har doim jangda o‘z kuchini ko‘rsatish uchun har qanday vayronagarchilikka tayyor edi. Uning beparvoligi ikkala ota-onasini ham undan nafratlanishiga va uning o‘rniga singlisi Afinaga muruvvat qilishiga va uni yaxshi ko‘rishiga olib keldi. Urushda eng kichik jarohat olganlarga ham shafqatsiz munosabatda bo‘ldi.

Kronos - (qadimgi yunoncha: *Χρόνος* „vaqt“). Suqrot davrigacha bo‘lgan falsafa va keyingi davr adabiyotida vaqt timsoli sifatida aks ettiriladi. Orfik teogoniyada mavjud, Eter, Xaos va Erebus kelib chiqishiga sabab bo‘lgan. Orfiklar orasida keksaymaydigan Kronos, shuningdek, Gerakl va Ajdarho-Ilon deb ham ataladi.

Shuningdek, Halikarnas Baliqchisi “Onado‘li afsonalari” asarida yunon xudolari haqidagi tasavvurlarini shunday ifodalaydi: “*Har bir xalqning xudolari o‘sha xalqning ijtimoiy holatini, tuzimini iifodalaydi. Ko‘pgina xalqlarning xudolari koinotni yaratganliklarini da’vo qilishadi. Yunonlarning Olimpiya*

[1] Anadolu’nun sesi. Bilgi Yayınevi. Ankara, 2008. -S 201.

xudolari umuman bunday vaziyatda emasdilar. Zevs va uning qo'shini Kronos qo'shinini mag'lub qiladi. Zevs koinotda yakka hukmdorga aylanadi. Uning aka-ukasi hisoblangan Hades va Poseydon Zevsning o'ng va chap qo'l vazirlariga aylanishadi. Apollon esa Delfni zabt etadi. Atena ham Atinada yakka hukmdorga aylanadi."

("Her ulusun tanrıları o ulusun sosyal durumunu temsıl eder. Bir çok milletlerin Tanrıları evreni yarattıklarını iddia ederler. Greklerin Olimpyalı tanrıları hiç o durumda değillerdi. Zeus ve komitesi onlardan önceki Tanrıları-yani Kronos ve komitesini-bozguna uğratıb alt ederler. Zeus başbuğ olur. Tam bir derebeyidir. Kardeşleri Hades ile Poseidon da başağalarıdır. Apollon Delfi'yi fetheder. Atena da Atina da sahip kıran olur.")[1]

Halikarnas Baliqchisi ijodini Turkiyada mifologiya fanida eng baland cho'q-qiga olib chiqqan narsa bu uning qiyosiy mifologiya sohasidagi asarlaridir. Yo-zuvchini bu mavzuda yozgan asarlari mashhur qildi. Uning hikoyalarida folklor motivlari syujeti ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Zamonaviylashtirilgan folklor syujeti "Suv parisi oroli" hikoyasida ham kuzatiladi. Xalq hikoyalari, mif va afsonalar ta'sirida yozilgan bu hikoyada suv parisi obrazi oy nuri vositasida tasvirlanadi. Hikoya qahramoni nurni, ya'ni suv parisini quvlab tutishga urinadi. Tutib bag'riga bosmoqchi bo'lganda esa "pari" erib, ko'zdan g'oyib bo'ladi. Bu xalq afsonalarida uchraydigan pari qizlar bilan bog'liq fantastik motivlarni yodga soladi. Bundan ko'rinadiki, xalq tili, xalqona motiv va syujetlar, folklor obrazlari har doim yozma adabiyot uchun ilhom manbai bo'lib kelgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Halikarnas Baliqchisi turk hikoya-chiligiga faqat dengiz va dengizchilar mavzusinigina emas, balki ushbu mavzuga oid xalqona elementlar va qarashlarni yangidan jonlantirishi bilan ham muhim hissa qo'sha oldi. Bunda yozuvchi xalqona uslub imkoniyatlaridan unumli foydalandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Halikarnas Balıkçısı'nın eserlerinde mitlerin izleri ve karşılaştırmalı mitolojiye katkısı. (http://www.millifolklor.com)

2. Önal H.İ. Halikarnas Balıkçısı, Cevat Şakir Kabaağaçlı. Hayatı-Kişiliği-Eserleri. Kültür Bakanlığı Yayınları, Ankara, 1997.

3. Eliade M. Mitlerin Özellikleri. Çev. Sema Rifat. İstanbul, 2001.

Internet saytlari:

1. http://www.millifolklor.com

2. http://uz.wikipedia.org/yunon_xudolari

[1] Halikarnas Balıkçısı. Bütün eserleri-18. (Çiçeklerin düğünü). Bilgi Yayınevi. Ankara, 1991.- S 21/22

MATNAZAR ABDULHAKIM SHE'RIYATIDA SEVGI OBRAZI

Mohichehra RUSTAMOVA
Urganch davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ijodkor shaxsining hayot, inson va uning qalbi, sof, samimiy hamda beqiyos tuyg'ular haqidagi teran mushohadalari, uslubdagi ravonlik, yangicha, o'ziga xos badiiy tafakkur, shakl va mazmun uyg'unligi, yuksak badiiylik mezonlari haqida so'z yuritar ekanmiz, biz qalamga olayotgan inja tuyg'ular Matnazar Abdulhakim she'riyatida o'zining yuksak ifodasini topganligiga, shoir ijodida muhabbat lirikasi alohida ahamiyatga ega ekanligiga guvoh bo'lamiz.

Kalit so'zlar: inson va uning qalbi, uslubdagi ravonlik, o'ziga xos badiiy tafakkur, shakl va mazmun uyg'unligi

Аннотация. Когда мы говорим о жизни творческого человека, о человеке и его сердце, о глубоких наблюдениях за чистыми, искренними и неповторимыми чувствами, о владении стилем, о новом, оригинальном художественном мышлении, о гармонии формы и содержания, о высоких художественных критериях, мы свидетельствуем, что нежные чувства, которые мы получаем от пера, находят свое высокое выражение в поэзии Матназара Абдулхакима, и что особое значение в творчестве поэта имеет любовная лирика.

Ключевые слова: человек и его сердце, владение стилем, уникальное художественное мышление, гармония формы и содержания.

Abstract. When we talk about the life of a creative person, a person and his heart, deep observations of pure, sincere and unique feelings, fluency in style, new, original artistic thinking, harmony of form and content, high artistic criteria, we witness that the tender feelings we receive in the pen find their high expression in the poetry of Matnazar Abdulhakim, and that the love lyric has a special significance in the poet's work.

Key words: man and his heart, fluency in style, unique artistic thinking, harmony of form and content

Mustaqillik davri o'zbek she'riyati, jozibadorligi, yangicha va unutilmas ohanglari va tasviriy xususiyatlari bilan o'zgacha ahamiyat kasb etadi. Uslubiy va shakliy izlanishlar, badiiy tafakkurning yangilanishi, inson qalbi va ruhiy kechinmalari, inja tuyg'ularining yorqin tasviri ushbu she'riyat asosini tashkil qiladi. Bunda, ayniqsa, badiiy tafakkurning ahamiyati beqiyos. Adabiyotshunos N. Rahimjonov ta'kidlaganidek, "Serqirra va serqatlam hodisa – badiiy tafakkur tushunchasi san'atkorning fikrlash tarzida zuhur topgan falsafiy-axloqiy, ijtimoiy, siyosiy qarashlarining muayyan hosilasidir"[1]. Istiqlol davri o'zbek she'riyati to'g'risida so'z yuritar ekanmiz, biz, bevosita ushbu davrda yaratilgan eng sara

[1] Rahimjonov N. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati. – Toshkent: "Fan", 2007. – B. 4.

asarlarga murojaat qilamiz hamda o‘sha adabiy jarayonni bu davr she’riyatining yetakchi vakillaridan shoir Matnazar Abdulhakim va Iqbol Mirzo she’riyati misolida ko‘rib chiqamiz.

Buyuk shoir Matnazar Abdulhakim ijodi falsafiy teranlikka, betakror tashbehlarga va hikmatga yo‘g‘rilgan. Shoir ijodida, ayniqsa, inson qalbining bebaho boyligi bo‘lgan muhabbat tuyg‘usi o‘ziga xos tarzda tarannum etiladi. Shoir qalamiga mansub “Sirtqi saboq”, “Bir sen o‘zing mening birinchi, hamda boshqa muhabbatlarim”, “Majnuntollar”, “Diydor” kabi she’rlar ana shunday namunalar sirasiga kiradi. Ijodkor o‘zining “Afsona” she’rida muhabbatni quyidagicha ta’riflaydi:

Ming tomirga berar qutlug‘ azob tob,
Muhabbatdan boshqa shafqatlar – zulm.
Muhabbat bor ekan, zulumot – oftob,
Muhabbat yo‘q ekan, hayotlar – o‘lim[1]

Yuqoridagi bandda “Muhabbatdan boshqa shafqatlar – zulm” jumlasining ishlatilishi shoir estetik didining naqadar yuksakligidan dalolat beradi. Bunday betakror jumlalar, aniqroq aytganda, hikmatlar kitobxon qalbini larzaga keltiradi.

She’rda qat’iyat bilan hukm tarzida aytilgan bu fikr asl haqiqat. Zero, oshiq uchun muhabbatdan boshqa barcha shafqatlar zulmdek ko‘rinishi ayon. Ijodkor muhabbatni zulmatni yoritgan oftobga qiyoslaydi. Chindan bu tuyg‘u zulmat qalblarni yoritib, insonni ezgulikka chorlaydi. Dunyoni asraguvchi buyuk kuch ham insonlarning bir-biriga bo‘lgan mehr-muhabbatidir. Ijodkor ana shu oddiygina fikrni shoirona go‘zal tashbehlar bilan uyg‘un holda she’rga soladi. Aslida, adabiyotning bosh maqsadi ham inson ruhiy dunyosi va ichki olamining teran haqiqatlarini gavdalantirishdan iboratdir. She’rning keyingi bandida shoir fikrini quyidagicha davom ettiradi:

Muhabbat bo‘lmasa, kulgular – ko‘z yosh,
Hayot inkor bo‘lar, bo‘lar umr rad.

Yuqoridagi satrlarda ijodkor, muhabbatsiz hayotning ma’nosizligini va umr kechirmoq behuda ekanligini bayon qiladi va bu tuyg‘uni inson hayotining mazmuniga tenglashtiradi. Misralarda ko‘z yoshlar va kulgilarni zidlash orqali ta’sirchanlikni yanada kuchaytiradi. Ushbu she’rda shoir tomonidan aytilgan har bir fikr yangiligi, hali qalamga olinmaganligi bilan kishini hayratga soladi.

Jumladan, o‘z yorini tanib, unga tomon oshiqib, qafasidan otilib chiqmoqqa shay tayyor bo‘lgan oshi yuragining holati: “Talpinishlar tugar. Qattiq siltanib, Hamma tomirlarini uzadi yurak” tarzida ta’sirli ifoda etiladi. Bu yangicha ifoda tarzi, nafaqat mazmun jihatidan, balki badiiyat jihatdan ham g‘oyat latifdir. She’rning so‘nggi bandida shoir o‘z fikrini shunday yakunlaydi:

Muhabbatdan boshqa hamma eshik berk,
Muhabbatdan boshqa hamma osmon tor.

---

[1] Matnazar Abdulhakim. Qorachig‘dagi dunyo. – Toshkent: “Yozuvchi”, 1997. – B. 29

Ijodkor yuqoridagi misralarda oshiq uchun muhabbatdan boshqa yo‘l mavjud emasligi o‘zgacha yo‘sinda bayon etadi.

Matnazar Abdulhakim she’riyati – falsafiy she’riyat. Shoir ijodida, nafaqat uslubiy yetuklik, balki chuqur mulohazakorlik, badiiy tafakkur va serjilo ijodiy salohiyat ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shoir she’riyatining yana bir xususiyati – barcha mavzulardagi she’rlarda inson ma’naviy olami va ijtimoiy-estetik muammolar tasvirida fikr va kechinmalar silsilasining rangin badiiy bo‘yoqdorligidagi betakrorlikdir. Aslida shoir an’anaviy mavzularga ham ko‘p murojaat qilgan, ammo bu jarayonda ularga yangicha, o‘ziga xos tarzda yondashgan. Hayotning boshqalarga pinhon nuqtalarini ko‘ngil ko‘zi ila ko‘ra olgan va buni o‘z ijodida yorqin tasvirlagan. Shoirning muhabbat mavzusidagi she’rlarida ham o‘ziga xos fikrlar badiiy ifoda etiladi.

Hijron kunchi, ayriliq – kinchi,
Kulfatlarim sen, sen – baxtlarim…
Bir sen o‘zing mening birinchi
Hamda boshqa muhabbatlarim[1]

Bu o‘tli satrlarni o‘qir ekanmiz, uni inson hayotining gultoji bo‘lgan ana shu go‘zal tuyg‘u mohiyatini anglatuvchi ijod namunasi desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. She’rda inson qalbi faqat bir marta va faqat bir insonni sevishga qodir. Shoir esa ana shu yagona muhabbati bo‘lgan insonni e’zozlaydi. Boshqa muhabbatlarim deganda esa uning oddiy hayotiy ezguliklarini tushunish mumkin. Shoir hayotga shukronasini o‘zining mehrini barchaga ulashish orqali namoyon qiladi. Hijron, ayriliq bu shoir uchun kulfat va baxtsizlik, armon va umiddir. Lekin birinchi muhabbatning iztiroblari yagona, u qalb torlarini titratadi. Hali his qilinmagan titroqlar, iztiroblar azobida ham mahzunlik, ha m baxtning totimlari aks etadi:

Ko‘zlaringdan oqqan ko‘z yoshning,
Suv ekanin o‘ylaganimda.
Jon-jahonga hayot baxsh etgan
Shu ekanin o‘ylaganimda.
Boshqa barcha g‘am-tashvishlardan,
Holi bo‘lib qolgim keladi.
Baliq bo‘lib qolgim keladi,
Sholi bo‘lib qolgim keladi[2]

Bu go‘zal she’r ijodkorning naqadar keng dunyoqarash sohibi ekanini ko‘rsatadi. To‘g‘ri, yor ko‘z yoshlarida baliq bo‘lib suzish holati aks etgan she’rlar bo‘lishi mumkin, ammo sholiga aylanib qolish istagi bayon etilgan she’r, aynan, Matnazar Abdulhakim ijodida uchraydi. Suv tafsili orqali shoir dunyo

[1] Matnazar Abdulhakim. Javzo tashrifi. – Toshkent: “Sharq”, 2008. – B. 249.
[2] Matnazar Abdulhakim. Javzo tashrifi. – Toshkent: “Sharq”, 2008. – B. 249

asosini tashkil qilgan to‘rt unsurning hayotiy falsafa asosida mohiyatini ochib bera olgan. Ko‘z yosh va uning suv bilan bog‘lanishi, insonning tub mohiyati bilan mushtarak holda aks ettirilgan.

Shoir she’riyatining yana bir xususiyati barcha mavzulardagi she’rlarida inson ma’naviy olami va ijtimoiy-estetik muammolar tasvirida fikr va kechinmalar silsilasining rangin badiiy bo‘yoqdorligidagi betakrorlikdir. Aslida shoir uchun hamma mavzu an’anaviy, unga yondashuv esa yangicha va o‘ziga xos. Bu xoslik odam va olamni she’riyat ko‘zi bilan ko‘rish, hayotning boshqalarga pinhon nuqtalarini topish va salmoqdor poetik ma’no bilan jilolantirishda namoyon bo‘ladi.

She’riyat umumo‘zbek adabiyotining ajralmas qismlaridan biri bo‘lib, boy an’ana va tarixga ega. Hozirgi yangicha milliy badiiy tafakkur uning poeziyadagi tadriji XX asr boshlaridan, Cho‘lpon va Fitrat she’rlaridan boshlanadi va bir necha avlod ijodiy tajribalaridan sayqallashadi. Xususan, XX asr 90-yillari istiqlol adabiyoti deb atalgan estetik hodisa vujudga keldi. Bu adabiyot va uning salmoqli tarmog‘i she’riyat yangilanayotgan milliy badiiy ongning, ijtimoiy-estetik tafakkurning mahsuli sifatida yuzaga keldi. Unda voqelik va insonni xolis va erkin ko‘rish, poetik idrok etish va haqqoniy tasvirlash imkoniyati ustuvor bo‘la boshladi, olam va odam munosabatini tabiiy ifodalash, shaxs ruhiyatidagi evrilishlarni turli rakurslarda tahlil etish imkoniyati kengaydi, inson qalbi, hissiy olami, ko‘ngil manzaralari butun murakkabligi bilan ta’sirchan tadqiq qilina boshlandi. Lirik qahramon tasvirida hayotiylik, haqqoniylik kuchayib, uning turfa taqdiri, o‘y-mulohazalari, ma’naviy olamidagi betakrorlik oldingi o‘ringa chiqa boshladi. Bularning barchasi bir qolipdagi tasvir shakllaridan voz kechish, yangi uslubiy izlanishlar, tasvir va ifodada rang-baranglikka intilishni taqozo etdi.

Mustaqillik davri she’riyati yangi ohanglar va ma’no teranligi bilan boyidi. Uning ifoda tarzi tub milliy, badiiy yutuqlardan rag‘batlanish bilan birga jahon estetik tafakkurining ilg‘or an’analaring ijodiy o‘zlashtirish evaziga ham takomillashib boryapti. Falsafiy-ijtimoiy mazmun salmoqdorligi, ifodaning ta’sirchanligi, uslub shakllarining rang-barangligi, fikrning ohorli talqini kabi xususiyatlar she’riyatga o‘ziga xos alohidalik bag‘ishlamoqda. Inson moddiyati va ma’naviyatining serqirra qatlamlarini tadqiq qilish, ruhiyatidagi ko‘z ilg‘amas

kechinmalar talqini orqali uni murakkab oliy xilqat sifatida yaxlit tasvirlash yetakchilik qilmoqda. Tabiiyki, bu jarayonda shakliy-uslubiy izlanishlar sohasida ijodiy tajribalar qilish, yangi kutilmagan ifoda yo‘llarini qo‘llash zaruriyati tug‘iladi. Shoir Matnazar Abdulhakim ijodini ham shu jarayon mahsuli sifatida tadqiq qilamiz. Uning she’riyati o‘ziga xos uslubiy xususiyatlari bilan zamondosh shoirlar ijodidan farq qilishi tabiiy. Shoir ko‘ngil kechinmalarini hayot haqiqatlari bilan qiyoslab, go‘zal tashbehlarni yuzaga keltirgan.

Bizga diydor nasib etmadi
So‘nggi visol o‘chmas xotira.
Azob bilan qalqib tushdilar

Ko‘zlaringdan pok ikki qatra.
Qo‘shildilar yonoqlarimda
Yodga solib bizlarning ahdni.
Taqdir bizga ravo ko‘rmadi
Ikki qatra ko‘z yoshdek baxtni[1]

Shoir yuqoridagi satrlarda ayriliq azobini tortayotgan oshiq dardini, yonoqlarda qo‘shilib ketgan ko‘z yosh baxti bilan qiyoslaydi va taqdiriga visol bitmagan mahbub tilidan kuyunib so‘zlaydi. Bu satrlar ham, shubhasiz, ijodkorning topqirligidan dalolat beradi. Shoirning qalbi muhabbatga to‘la edi. U beozor sevardi va o‘z she’rlarida ham ana shu xokisor ishqni ulug‘lardi, muhabbatni baxtdan ziyod deb bilardi.

Kel, yaxshisi sevgimdan hayiq,
Bir umr bo‘l, mendan ehtiyot.
Yashirmayman men – baxtga loyiq,
Lekin…lekin sen baxtdan ziyod!
Takrorlanmas eng avj pardasan
Qilar bo‘lsam o‘rtanib navo.
Sen shu qadar yuksaklardasan –
O‘zimga ham ko‘rmayman ravo[2]

Shoir lirik qahramonining kamtar va xokisorligini, uning sevgi dardlari orqali go‘zal insoniy sifatlari namoyon bo‘lishini ko‘rsata olgan. Oshiq o‘z sevgilisini shu qadar kuchli va sof qalb bilan sevadiki, uning uchun ishq bu oliy xilqatga erishish baxtidan ham baland turadi. Zeroki, bu beqiyos ko‘ngil sohibi ma’naviy yuksalish jarayonini bosib o‘tayotgan ekan, ishq uning uchun qalb pokligi va iymon mustahkamligida aks etadi.

Judolik bu – bu mudhish bir xato,
Bu xatoga ikkov yo‘l qo‘ydik.
Achchiq-achchiq maktublar yozib,
Biz ularga shartta qo‘l qo‘ydik.[3]

Bu she’rda ijodkor judolikni – “oshiqlarning mudhish xatosi” deb ataydi va aynan ana shu xato oqibatida barbod bo‘lgan sevgi qissasidan so‘zlaydi. Judolik maktubiga chekilgan imzoning qalbga azob berishini, go‘yoki chayon chaqishiga mengzaydi. Shoirning “Majnuntollar” she’rini talqin qilar ekanmiz, g‘aroyib satrlar xotiramizga quyilib qoladi.

Men aqldan ozmay ketaman,
Majnun bo‘lib qolasiz, tollar.[4]

Matnazar Abdulhakimga ko‘ngilni o‘rtaguvchi she’rlari bilan tollarni Majnunga aylantirgan shoir deya ta’rif bergimiz keladi. U ana shunday uyg‘oq qalbli va teran fikrli inson edi. U go‘zal she’rlarni yaratdi va o‘z she’riyati bilan

[1] O‘sha manba-B. 116
[2] O‘sha manba. – B. 144
[3] O‘sha manba. – B. 147.
[4] O‘sha manba. – B. 15

qalblarni larzaga soldi. Insonlarga odamiylikdan, betakror ishqdan saboq berdi va o‘z nomini mangulikka abadiy muhrladi. Shoir o‘z she’rlaridan birida:

Xudo ko‘rsatmasin, bir botsam,
Mangu chiqmaydigan quyoshman.[1]

deya yozgan edi. Ba’zan shoirlarning she’rlari ularning taqdiridan so‘zlaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Ustoz shoir Matnazar Abdulhakimning quyoshi hech qachon botmaydi, balki uning go‘zal she’riyati orqali ko‘plab yuraklarda abadiy porlab, nur sochib turadi. Ijodkor shaxsining hayot, inson va uning qalbi, sof, samimiy hamda beqiyos tuyg‘ular haqidagi teran mushohadalari, uslubdagi ravonlik, yangicha, o‘ziga xos badiiy tafakkur, shakl va mazmun uyg‘unligi, yuksak badiiylik mezonlari haqida so‘z yuritar ekanmiz, biz qalamga olayotgan inja tuyg‘ular. Matnazar Abdulhakim she’riyatida o‘zining yuksak ifodasini topganligiga, shoir ijodida muhabbat lirikasi alohida ahamiyatga ega ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Ijodkor tuyg‘uni, muhabbat obrazini o‘ziga xos tashbehlar, samimiy fikrlar bilan ulug‘langan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o‘zbek she’riyati. – Toshkent: “Fan”, 2007. – B. 4.
2. Matnazar Abdulhakim. Qorachig‘dagi dunyo. – Toshkent: “Yozuvchi”, 1997. – B. 29
3. Matnazar Abdulhakim. Javzo tashrifi. – Toshkent: “Sharq”, 2008. – B. 249

FORS MUMTOZ SHE’RIYATIDA TALMEH SAN’ATINING QO‘LLANILISHI

Abduraxim SOLIJONOV
TDShU, Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti
Xalqaro jurnalistika yo‘nalishi
4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘rta asrlar fors ijodkorlari she’riyatidagi talmeh badiiy san’ati namunalari haqida so‘z boradi. Maqolani yaratishda Sa’diy Sheroziyning “Guliston” va “Bo‘ston” asarlaridan keng foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: fors adabiyoti, talmeh, badiiy san’at, Sa’diy Sheroziy, “Shohnoma”, “Guliston”, “Bo‘ston”.

[1] O‘sha manba. – B. 99.

Аннотация: В данной статье рассматриваются примеры искусства талме в поэзии средневековых персидских художников. При создании статьи широко использовались произведения Саади Ширази «Гулистан» и «Бустан».

Ключевые слова: персидская литература, талмех, искусство, Саади Ширази, «Шахнаме», «Гулистан», «Бустан».

Abstract: This article deals with examples of talmeh art in the poetry of medieval Persian artists. “Gulistan” and “Bostan” works by Saadi Shirazi were widely used in the creation of the article.

Key words: Persian literature, talmeh, art, Saadi Shirazi, ‘Shahnama’, ‘Gulistan’, ‘Bostan’.

Ma’lumki, Sharq mumtoz adabiyotida fors tili hamda adabiy asarlarining ahamiyatini bugungi kunda jahon ilm-fani va iqtisodiyotining asosiy muloqot vositasiga aylanishga ulgurgan ingliz tilining ahamiyatiga qiyoslasak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Negaki, o‘rta asrlarda fors tili o‘sha davrdagi barcha hukmdorlar va ular saroyining asosiy muloqot tili, qolaversa, ilm-fan, she’riyat va devon ishlariga oid rasmiy hujjatlarning tili hisoblangan. Arab xalifaligida hukm surgan umaviylar va abbosiylar sulolasi davrida Eronni islomlashtirish jarayoni yuz berib, bu davrda fors tili adabiyot va san’at tiliga aylanib qoladi. Fors tili ta’sir doirasini Erondan tashqari O‘rta Osiyo hududlariga ham o‘tkazgan. Chunonchi, Movarounnahr va Xurosonda hukm surgan somoniylar, Xuroson, Xorazm va Sharqiy Eronda hukm surgan g‘aznaviylar, Yaqin va O‘rta Sharqda ulkan imperiyaga asos solgan saljuqiylar ham davlat ishlarini fors tilida yuritganlar. Qolaversa, temuriylar sulolasi hukmdorlari saroyidagi shoirlar Alisher Navoiygacha bo‘lgan davrda o‘z ash’orini fors tilida bitgan va hukmdorga taqdim etgan.

Fors adabiyotining yetuk vakillariga Ja’far ibn Muhammad Rudakiy, Abu Mansur Daqiqiy, Hasan ibn Ahmad Unsuriy, Abulqosim Firdavsiy, Umar ibn Ibrohim Xayyom Nishopuriy, Shayx Sa’diy, Nizomiy Ganjaviy, Fariddidin Attor, Amir Xusrav Dehlaviy, Mavlono Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon ibn Ahmad Jomiy va boshqalar kiradi. Ularning ijodi nafaqat fors adabiyotining, balki butun mumtoz Sharq adabiyotining durdonalari hisoblanadi. Yuqorida nomlari keltirilgan ijodkorlar o‘zlaridan keyingi davrda yashagan barcha shoirlar ijodiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan, ko‘pchilik ularning ijodidan ta’sirlangan yoki o‘zini ularga izdosh deb bilgan holda g‘azallar, ruboiylar va boshqa janrlardagi asarlarini yaratishgan hamda devon tartib berishgan.

Fors tilida ijod qilgan shoirlar o‘z she’rlarida talmeh badiiy san’atidan ko‘p marotaba foydalanganlar. Avvalo, talmeh san’ati haqida qisqacha to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Talmeh (arabcha “ishora qilish, biror narsa tomonga yengil nazar tashlash”) – mumtoz she’riyatda keng qo‘llangan badiiy san’atlardan biri. Bunda shoir mashhur bir qissa, voqea yoki asarga ishora qilish orqali o‘z fikrini muxtasar hikoya qiladi. Shunga ko‘ra, talmeh she’rda oz so‘z bilan ko‘p ma’noni ifodalash san’ati deyiladi. Masalan, Atoiy:

Sen buti Chin ishqida holimni ayb etkan kishi
"Mantiq ut-tayr" ichra ko'rsun Shayx San'on qissasin[1]

baytida o'zining bir go'zal ishqida ne holga tushganini batafsil bayon qilib o'tirmay, Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostonidagi mashhur "Shayx San'on qissasi"ga ishora qiladi: Shayx San'on voqeasidan xabardor kishi mening holatimni sira ayb qilmaydi, deydi. Shu tariqa, butun bir kitobga jo bo'ladigan fikr bir baytga singdiriladi. Quyidagi Shayx Sa'diyning "Bo'ston" asaridan olingan baytga e'tibor qarataylik:

Nushervon dunyodan yumar ekan ko'z,
Hurmuz o'g'lin chorlab demish shunday so'z.[2]

Bu yerda tilga olingan Nushervon va Hurmuz Eronning islom kelishidan oldingi shohlari hisoblanadi. Nushervon ba'zi manbalarda No'shiravoni odil deb ham ataladi. U Eron sosoniylar sulolasiga mansub hukmdor bo'lib, milodiy 531-579-yillar mobaynida mamlakatni idora etgan. Tarixiy manbalarda esa shohning ismi Xusrav I Anushervon deb berilgan. Yuqoridagi baytda ana shu hukmdorning vafoti oldidan o'g'li Hurmuzga vasiyat aytgani haqida uqib olish mumkin. Nushervon tarixda o'z adolati bilan mashhur hukmdorlardan biri hisoblanadi. Uning bu xususiyati adabiyotga ham ko'chgan bo'lib, ko'pincha shohlarga uning ishlaridan ibrat olishga, raiyatga shafqatli munosabatda bo'lishga undalganda ishlatiligan. "Bo'ston"da yana quyidagi bayt uchraydi:

Bir kishi Hotamdan so'zlay boshlabdi,
Maqtovni ketma-ket terib tashlabdi.[3]

Baytda tilga olingan Hotam ismli kishining to'liq ismi Abu Safona Hotam ibn Abdulloh ibn Sa'di Toyi bo'lib, saxiyligi va olijanobligi bilan Sharq mamlakatlarida dong taratgan shaxs. Hotam Yamandagi Toy qabilasining boshlig'i, mashhur lashkarboshi va shoir bo'lgan. Adlu insofi, saxiyligi va yaxshiligi bilan dastlab atrofdagi qabilalar, keyin butun Arabiston va Sharq xalqlari orasida Hotami Toy – Toy qabilasidan bo'lgan Hotam nomi bilan shuhrat qozongan. Uning saxovat va himmatiga qoyil qolgan Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom ham Toy sharofatidan uning avlodini e'zozda tutishni buyurganlar.[4] Sa'diy Hotam ismini eslar ekan, o'z yozgan hikoyatda saxovat va baxillik kabi bir-biriga zid tushunchalarni eslab o'tgan.

Shayx Sa'diyning boshqa bir asari bo'lgan "Guliston"dan olingan quyidagi to'rtlikka e'tibor beraylik:

---

[1] https://uzsmart.uz/encyclopedia/encyclopedia/61221.html
[2] Sa'diy Sheroziy. Bo'ston. T.; 1976, 7-bet.
[3] Sa'diy Sheroziy. Bo'ston. T.; 1976, 29-bet.
[4] https://uz.wikipedia.org/wiki/Hotami_Toy

Bir kuni Zol dedi o‘g‘li Rustamga:
“Dushmanni o‘ylama kuchsizu kamtar.
Birtalay suv kelib kichik buloqdan,
Yukli tuyani ham oqizib ketar”.[1]

Bunda tilga olingan Zol va Rustam “Shohnoma”da tilga olingan afsonaviy shaxslar. Zol qadim zamonda yashab o‘tgan donishmand kishi bo‘lib, uning uch o‘g‘lidan kenjasining ismi Rustam bo‘lgan. Rustam yoshligidan otda yurish, nayza otish, qilichbozlik kabi hunarlarni mahorat bilan o‘zlashtirgan. Eronning zolim shohi Kaykovusning xizmatida bo‘lgan Rustam o‘z xo‘jayiniga doimo yordam berib, ko‘p jasoratlarni amalga oshiradi: ajdaho va sherni mag‘lub qiladi, yovuz sehrgarning makkor rejalarini yo‘qqa chiqaradi, devlar va jinlarni mag‘lub qiladi, Oq devning jodugarligidan ko‘r bo‘lgan shohni asirlikdan ozod qiladi. Keyinchalik Rustam O‘rta Sharq xalqlari og‘zaki va yozma adabiyotidagi an’anaviy obrazga aylanib, mardlik, pahlavonlik haqidagi mifologik tushuncha va epik idealning ramziy ifodasi bo‘lib qolgan. Baytda donishmand Zol o‘g‘lining kelajagini oldindan ko‘rgani holda shunday demoqdaki, kuch-qudratga eng to‘lgan vaqtingda ham dushmanlaringni ojiz deb sanama, chunki ming tomchi bir bo‘lib, katta bir tuyani ham oqizib ketish qudratiga ega demoqda. Umuman olganda, zolim shohga xizmat qilgan Rustamning qissasi ham ayanchlidir. “Shohnoma”da u o‘z o‘g‘li Suhrob bilan kurashda yutqazishdan qo‘rqib, ayyorlik qiladi va kurash vaqtida Suhrobga xanjar tiqib o‘ldiradi, ammo uning o‘z farzandi ekanini bilmasdan shu ishni qiladi.

Sa’diyning “Guliston” asarida yana shunday misralar mavjud:

Yomonlarga qo‘shilgandan so‘ng Lutning xotini
Yo‘qotdi payg‘ambarlik xonadoni otini.
It esa as’hobi kahfga ergashib har doim,
Odam deb ataldi, o‘zgartirdi zotini.[2]

Ushbu misralarda islom dinining muqaddas kitobi Qur’oni karimda keltirilgan ikki rivoyatga ishora mavjud. Birinchisi payg‘ambar Lut alayhissalom qissasi bo‘lib, ushbu payg‘ambar hozirgi Iroq hududidagi Harron shahrida tavallud topib, Ibrohim alayhissalom bilan birga Falastinga borgan. Sadum, Amura va uning atroflaridagi yerlarda chorvachilik bilan shug‘ullangan. Payg‘ambarlik darajasiga yetishgach, odamlarga pand-nasihat qilgan, Allohning birligiga iymon keltirishga chaqirgan. Biroq, axloqi buzuq Sadum aholisi bachchavozlik odatini tark etmay, Lut alayhissalomning o‘zini bu yurtdan haydab chiqarmoqchi bo‘ladi. Farishtalar unga oilasi va iymonli kishilar bilan birga (xotinidan tashqari, chunki xotini Allohning qahriga uchragan edi) shahardan chiqib ketishni buyurganligi rivoyat qilinadi. Qur’onning “Hijr” surasi, 61-65-

[1] Sa’diy Sheroziy. Guliston. T.; G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968, 28-bet.
[2] Sa’diy Sheroziy. Guliston. T.; G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968, 28-bet.

oyatlari va 74-oyatida bu narsalar bayon qilingan. Lut alayhissalom ma'lum masofaga yetib olgach, shahar ostin-ustun qilib yuborilgani, qavm ustiga sopol tosh yog'dirilgani bayon etilgan[1]. Misralarda kelgan ikkinchi rivoyat esa As'hobi kahfning vafodor iti haqidagi rivoyat bo'lib, u haqidagi tafsilotlar "Kahf" surasida bayon etilgan.[2] Rivoyatga ko'ra, zolim va kofir podshoh Daqyonus zulmidan qochib g'orga berkingan yigitlarga bir it ham ergashgan. Sa'diy Lut alayhissalomning xotini hamda ushbu itni taqqoslar ekan, biri inson zotidan bo'la turib, payg'ambar xonadoni vakili bo'lishdek ulug' martabadan kofirligi uchun mosuvo bo'lganligi bir nasl-nasabi yo'q oddiy itning iymonli kishilarga ergashgani orqali ulug' martabaga erishganligini o'zaro qarama-qarshi qo'yadi. Bu qiyos orqali Sa'diy kishi kimga ergashsa, o'shanday bo'lishi, shuning uchun kimning ortidan ergashayotganingga e'tiborli bo'l demoqchi bo'ladi.

Fors she'riyatida shohlar va shahzodalarga pand-nasihat, ularni xalqning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidan muttasil ogohlantirib turish, saltanat ishlariga befarqlikni qoralash hamda shohlarni adolatga chorlash kabi mavzulardan tashqari mumtoz she'riyatdagi eng keng tarqalgan ishq mavzusiga doir baytlar ham ko'p uchraydi. Chunonchi, Hofiz Sheroziy shunday yozadi:

Majlisi Jamshid aro shunday qo'shiqdir – mazmuni:
Boda tutgil, jom uzatgil, bir kuni Jam qolmagay.[3]

Baytda tilga olingan Jamshid qadimgi afsonalarga ko'ra, Eronda eng avval hukmdorlik qilgan peshdodiylar sulolasining to'rtinchi va eng buyuk hukmdori. U haqida Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" asarida ham ma'lumot berilgan. Afsonalarda aytilishicha, Jamshid shoh Tahmurasdan so'ng 700 yil podshohlik qilgan, Istaxr shahrini bunyod etib, mamlakatda behad farovonlik vujudga keltirgan, sharobni ixtiro qilib, Navro'zni yangi yil bayrami sifatida nishonlashni joriy etgan. U hatto Zardushtdan ilgari Eronda mavjud bo'lgan bir diniy mazhabga asos solgan, oyna ixtiro qilgan hamda odamlarni hayvon terisiga o'ranish o'rniga gazlamadan tikilgan kiyim kiyishga o'rgatgan, davlat tuzumini tashkil etib, aholini tabaqalarga bo'lgan. Jamshid sharobni ixtiro etganligi boisidan, shoirlar o'rtasida "Qadahiy" (Jomi Jam) nomi bilan ham mashhurdir. Mumtoz she'riyatda may, sharob, jom, qadah tushunchalar ishqqa oid bo'lib, insonning qalbiga ishora qiladi. Ya'nikim, Allohning ishqi bir may bo'lsa, insonning qalbi o'sha may quyiladigan qadahdir. Afsonada Jomi Jamga quyilgan may hech qachon tugamasligi, aksincha, limmo-lim ko'payishi ham aytib o'tilgan. Hofiz yuqoridagi bayti orqali Jamshidning majlisida ishq shu qadar bo'ladiki, o'sha to'lmas qadah ham bir kun kelib to'lib qolishi mumkinligini aytadi.

---

[1] https://gujum.uz/mutolaa/lut-nabiy-alayhissalom-qissasi/?imlo=l
[2] https://info.islom.uz/olam-uzra/item/427-ashobi-kahf-izidan.html
[3] https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/fors-tojik-she-riyati/hofiz-sheroziy-1325-1388

Xulosa qilib aytganda, fors mumtoz she'riyati o'zining rang-barangligi, boshqa tillarning she'riyatiga o'z uslubi bilan ta'sir ko'rsatganligi va Sharqda uzoq asrlar mobaynida iste'molda bo'lganligi bilan ajralib turadi. Unda qo'llanilgan talmeh san'ati orqali esa kitobxon she'rda tasvir etilayotgan biron-bir hodisaning ahamiyatini yanada chuqurroq anglaydi. Fors mumtoz shoirlari talmehni yuzaga keltirish uchun, asosan, "Shohnoma"dagi mifologik va tarixiy personajlarga murojaat etgan. Chunonchi, Kayumars, Tahmuras, Kaykovus, Zol, Rustam, Suhrob, Jamshid, Zahhok, Faridun, Nushervon yoki No'shiravoni odil, Hurmuz, Bahrom, Xusrav Parvez shular jumlasidan. Ularni keltirish orqali shoirlar goh shohlarni adolatga chorlasa, goh dushmanga nisbatan beshafqat bo'lishga chorlaydi. Adolat mardlik, botirlik, olijanoblik kabi ezgu fazilatlarni ulug'lab, zolimlik, adovat, isyonkorlik, baxillik, ayyorlik kabi illatlarni qoralaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sa'diy Sheroziy. Guliston. T.; G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968.
2. Sa'diy Sheroziy. Bo'ston. T.; 1976.
3. https://gujum.uz/mutolaa/lut-nabiy-alayhissalom-qissasi/?imlo=l
4. https://info.islom.uz/olam-uzra/item/427-ashobi-kahf-izidan.html
5. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/fors-tojik-she-riyati/hofiz-sheroziy-1325-1388
6. https://uzsmart.uz/encyclopedia/encyclopedia/61221.html
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Hotami_Toy

MAQOLLARNI TARJIMA QILISH USULLARI
(Forscha maqollarning o'zbekcha tarjimalari misolida)

Munisa KARIMOVA
TDSHU, Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti,
Tarjima nazariyasi va amaliyoti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maqol va ularni tarjima qilish usullari, tarjima qilish jarayonidagi qiyinchiliklari, o'zbek va fors tilidagi maqollarning o'xshashliklari, ekvivalentlari, muqobillari hamda forscha-o'zbekcha mushtarak maqollarni tarjima jarayonida ko'rib chiqdik.

Kalit so'zlar: Maqol, mushtarak maqollar, ekvivalent, muqobil, so'zma-so'z.

Аннотация: В данной статье мы рассмотрели пословицы и способы их перевода, трудности в процессе перевода, сходства, эквиваленты, альтернативы узбекских и персидских пословиц, а также распространенные персидско-узбекские пословицы в процессе перевода.

Ключевые слова: Пословицы, народные пословицы, эквивалент, альтернатива, дословно.

Abstract: In this article, we have considered proverbs and their translation methods, difficulties in the translation process, similarities, equivalents, alternatives of Uzbek and Persian proverbs, and common Persian-Uzbek proverbs in the translation process.

Key words: Proverbs, common proverbs, equivalent, alternative, verbatim.

Maqol — donolik, donishmandlik ramzi. Uni to‘g‘ri o‘qib, to‘g‘ri anglash va boshqalarga yetkazish alohida layoqatni talab qiladi. Bunda g’o‘rlik, mas’uliyatsizlikka erk berib bo‘lmaganidek, bilib-bilmay o‘zlashtirishga ham yo‘l qo‘yilmaydi.

Eron xalq maqollari — fors tili madaniy merosining bitmas-tuganmas xazinasi bo‘lib, kishini ma’naviy boy, axloqiy pok va jismoniy yetuk qilib shakllantirishda eng muhim va kuchli tarbiyaviy qurollardan biridir. Eron xalqi kundalik turmushda maqollarga ko‘plab murojaat qiladi. Shundan kelib chiqib aytish joizki, Eron adabiyoti namunalarini maqollarsiz tasavvur etish qiyin.

Maqol — xalq og’zaki ijodining juda qisqa shu bilan birga sermazmun, eng ta’sirli bir shaklidir. O‘zbek tili kabi fors tilida ham xalq og’zaki ijodining eng jozibali namunalaridan biri bo‘lmish — maqollar mavjud bo‘lib ularning o‘ziga xos qo‘llanish doirasi va ifoda uslublari mavjud.

Fors va o‘zbek tilidagi maqollarni o‘rganish yuzasidan ko‘plab ishlar amalga oshirilgan. Xususan, 1998-yil Tehronda Abrishami Ahmad tomonidan ko‘p jildli (“ فرهنگ نوین گزیده مثلهای فارسی ” ’’Tanlanagan forscha masallar’’)[1] nomli to‘plam tuzildi. Ushbu to‘plam o‘zida ko‘plab forscha maqol va masallarni jamlagan bo‘lib, ularning ko‘pchiligiga muallif tomonidan izoh va sharhlar berilgan. 1998-yilda Xo‘rramiy, Ho‘seyniy tomonidan (“المثلهای معروف Mashhur maqollar”)[2] nomli to‘plam tuzildi. Tehronda Sharifiye Gulpoyegoniy, Farjo‘llo tomonidan (“ گزیده و شرح امسال و حکم دهخدا Dehado maqollari va hikmatlarining saylanmasi va sharhi”)[3] nomli ikki jildlik to‘plam chop etildi. Keyingi yillarda bu kabi ishlar o‘zbek hamda fors xalqining maqollarini o‘rganish borasidagi ko‘plab xayrli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Mansur Afzalov (1958-yil), Sarimsoqov Bahodir tomonidan (1984-yil), Mirzayev To‘ralar ham “O‘zbek xalq maqollari” (1989-yil) kabi o‘zida maqollarni jamlagan to‘plamlar tuzildi. 2002-yil Ibrohim Xudoyor hamda Shuhrat Muhammadov “Forscha o‘zbekcha mushtarak maqollar”[4] nomi bilan to‘plam tuzildi, forscha maqollar va ularning o‘zbek tilidagi tarjimasi hamda mushtarak variantlari bilan chop etildi. Kitob keng kitobxonlar ommasi hamda fors tili va adabiyoti bilan qiziquvchilar uchun katta tuhfa bo‘ldi.

---

[1] Abrishami Ahmad., ’’Tanlanagan forscha masallar’’ – Tehron, 1376

[2] Xo‘rramiy, Husayniy., ’’Mashhur maqollar’’ – Qum, 1377

[3] Sharifiye Gulpoyegoniy, Farjo‘llo., ’’Dehado maqollari va hikmatlarining saylanmasi va sharhi” – Tehron, 1376

[4] Ibrohim Xudoyor., “Forscha-o‘zbekcha mushtarak maqollar”. T.:2002

Eron xalq maqollarini to‘plash va ularni nashr qilish bo‘yicha ko‘plab xayrli ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, Bahman Dehgan ismli kishi “Farhang-e jome’e zarb-ol masalho-ye forsi” asarida Eron xalq maqollarini jamlab, maqollarni 800 turga ajratgan. Ma’lumki, maqollarni mavzularga turkumlash mashaqqatli ish. Minglab sahifalar orasidan eng maqbul maqollarni tanlab olib mavzusiga qarab tasniflashga bir odamning umri ba’zan kamlik qiladi. O‘zbek xalq maqollari Hodi Zarifov, To‘ra Mirzayev “O‘zbek xalq maqollari” (1989-yil)[1], Bahodir Sarimsoqov, Zubayda Husainova va Asqar Musaqulov singari fidoyi folklorshunos olimlarimizning ko‘p yillik mehnatlari samarasi o‘laroq rang-barang mavzularga ajratilib, bir necha bor chop etilgan. 1989-yilgi hamda 2003, 2006, 2009-yilgi nashrlarda 70 dan ziyod mavzudagi maqollar jamlangan.

Fors tilidagi maqolani tarjima qilishda obrazlilikni yo‘qotmaslik uchun asl nusxadagi maqolning maqollik xususiyatini saqlab qolishda so‘z tanlash muhim rol o‘ynaydi. Shunday hollar ham bo‘ladiki, forscha maqollarni o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z ham, mazmunan ham tarjima qilib bo‘lmaydi. Chunki, ba’zi Eron xalqlarning turmush tarzida ishlatiladigan so‘zlar yoki tushunchalar o‘zbek xalqida, yoki o‘zbek xalqida bo‘lgan so‘zlar Eron xalqida bo‘lmasligi mumkin. Mamlakat tarixi va hayoti bilan bog’liq bo‘lib, tarkibida xususiyatlar yoki shahar, daryo va tog’lar nomi bilan bog’liq bo‘lgan fors maqollarini aynan shunday nomlar bilan bog’liq bo‘lgan o‘zbek xalq maqollari bilan almashtirish tarjima nazariyasiga xilofdir.

Maqollarni obrazli va mazmunini saqlab qolgan holda tarjima qilish uchun maqollarning o‘ziga xos tilini chuqur o‘rganish kerak, ularning mantiqiy mazmunini teran tushunib olmoq zarur. Fors maqollarini intonatsiya bilan to‘g’ri o‘qish katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun, zarur bo‘lgan joylarda to‘xtab, kichik pauza bilan o‘qish kerak. Eronning mashhur yozuvchilaridan biri bo‘lgan Muhammad Ali Said Jamolzoda asarlarida fors tilidagi maqollarning ko‘plab namunalarini ko‘rish mumkin. Uning asarlari maqollarga boyligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, “Bir bor ekan,bir yo‘q ekan”, “Husayn Ali og’a”, “Achchiq va chuchuk”, “Eskilik va yangilik”, “Xudodan bo‘lak hech kim yo‘q ekan” kabi kitoblarida muallif har bir so‘zini so‘z ko‘rki hisoblangan maqollar bilan boyitgan. Uning hajviy hikoyalarida ham ko‘plab maqol, matal va hikmatli so‘zlar mavjud. Ba’zi hikoyalarining nomini maqollar bilan atagan va ba’zilarida epigraf sifatida maqollarni keltirgan. Masalan: “Bir bor ekan, bir yo‘q ekan”[2] nomli kitobida “Eshagiga yarasha tushovi” yoki “Turfa hangomalar” kitobida “Qo‘shnining tovug’i g’oz ko‘rinadi” kabi maqollar nomi bilan atalgan yoki “Filantropiya” nomli hikoyasida “Bir burda non berasanmi, olasanmi qashshoq kishiga baribir” Sheroz maqoli epigraf sifatida keltirilgan. “Siyosatdon” hikoyasidagi برادر معلوم میشود ناحوشیه من درد و هم

[1] To‘ra Mirzayev., “O‘zbek xalq maqollari” – Toshkent, 1989.
[2] Muhammad Ali Said Jamolzoda., “Bir bor ekan, bir yo‘q ekan”

سرایت کرده و به قوله مشهوره سره تو هم دارد بوی قاورمه سبزه میگیرد (Barodar, ma’lum mishavad noxushiye man dardu ham saroyat karde va be qovle mashhure sare tu ham dorad buye qourme sabzi migirad) jumlasidagi سره تو هم دارد بوی قاورمه سبزه میگیرد sare tu ham dorad buye qourme sabzi migirad) maqoli oʻzbek tiliga “Sichqonni oʻlgisi kelsa, mushuk bilan oʻynashadi” tarzida tarjima qilingan boʻlib, xavf-xatarli ishga qoʻl urmoqchi boʻlgan odamga nisbatan ishlatiladi. Soʻzma-soʻz tarjimada esa bu maqol “sening boshing ham qovurilgan sabzi hidini oladi”, degan ma’noni beradi. “Qovurilgan sabzi” tushunchasi oʻzbek tilida hech qanday majoziy ma’noni anglatmasligi bois, bu maqolning ma’nosi oʻzbek tiliga muqobillashtirilgan. Ya’ni, fors tili boʻyicha oʻrganilishi jihatidan bu maqol oʻzbek tilida muqobili bor maqollar guruhiga kiradi. Bu hikoyadagi: هر چه باشد در این راه یک پیراهن از تو بیشتر پاره کرده یم

(Har che bashad dar in roh yek pirohan az tu bishtar pore kardeyim)maqoli “Bir koʻylak boʻlsa ham sendan koʻp yirtganman” tarzida berilgan. Bu maqolning esa oʻzbek tilidagi mushtarak shakllari mavjud. Soʻzma-soʻz tarjima qilinganda, “Bitta boʻlsa ham sendan koʻp koʻylak yirtganmiz”, varianti kelib chiqadi. “Koʻp koʻrgan koʻp biladi” shaklida ham berish mumkin. Bu maqol oʻzbek va fors tillarida bir yoshga katta boʻlsa ham, kattalarga quloq solish kerakligini, ular har holda hayot tajribasiga ega ekanligini bildiradi. “یک دست صدا ندارد — Yek dast sedo nadorad” maqoli “Bitta askar qoʻshin boʻlmas” tarzida oʻgirilgan. Bu maqolning soʻzma-soʻz tarjimasi esa “Bir qoʻldan tovush chiqmaydi” hisoblanib, bu maqol oʻzbekcha muqobili bor maqollar guruhiga kiradi va bu maqolning muqobili “Qars ikki qoʻldan chiqadi”, maqolidir. Bu maqol “Yolg’iz otning changgi chiqmas, changgi chiqsa ham, dong’i chiqmas”[1] maqoli bilan ham bir xil ma’no anglatadi. Ya’ni birdam, ahil boʻlgan kishining ishi tez va oson bitadi, degan ma’noni anglatadi.جای امیدواری است (joye umidvori ast)maqoli oʻzbek tiliga “Yaxshi niyat — yorti mol” tarzida tarjima qilingan. Bu maqolning soʻzma-soʻz tarjimasi “Hali umid qilsa boʻladi”dir. Bu esa oʻzbek tiliga muqobillashtirib juda chiroyli, mahorat bilan tarjima qilingan. Bu maqol nima boʻlgan vaziyatda ham, har qanday holatda ham yaxshi niyat bilan har bir ishni boshlash va shu yoʻsinda davom ettirish kerakligini bildiradi. Ya’ni niyatning yomoni inson ich-etini kemiruvchi ilonga oʻxshaydi va bu bilan hech qanday ish xayrli nihoyasiga yetmaydi. نان نسیه از گل و پاین نرفته (non-e nasiye az galu poyin narafte) maqoli “qarzga olingan non tomoqqa tiqiladi” tarzida tarjima qilingan. Bu maqol forscha-oʻzbekcha mushtarak maqollar guruhiga mansub boʻlib, iloji boricha qarzga narsa-buyum olmaslik kerakligini bildiradi. Oʻzbek xalqida ham “Qarz barakani quritadi” degan gap bor. Bu maqolning oʻzbek tilidagi soʻzma-soʻz tarjimasi esa “Qarzga olingan non tomoqdan oʻtmaydi” kabidir. “Fekre noni konke xarboze ob ast” maqoli “Tarvuz shirin boʻlgani bilan baribir suvda” tarzida tarjima qilingan. Lekin “Xarboze” soʻzining oʻzbekcha tarjimasi esa tarvuz emas, balki qovundir. Oʻzbek xalqida qovun shifobaxsh ne’mat hisoblanganligi uchun ham tarjimada

[1] Mirzayev T. “Oʻzbek xalq maqollari”. — Toshkent, 2003

shu tarzda berilgan va bu maqol so‘zma-so‘z tarjimada “Nonni o‘yla, qovun baribir suv”, ya’ni, “non bilan qorning to‘yadi”, ma’nosini bildiradi. “Xudodan bo‘lak hech kim yo‘q ekan” kitobidagi “Ashaddiy Vatanparvar” hikoyasida “Morg’-e hamsoye be chashme hamsoye g‘oz mioyad” maqoli o‘zbek tiliga “Qo‘shnining tovug’i ko‘zga g’oz ko‘rinadi”, tarzida tarjima qilingan bo‘lib, bu maqol Eron xalq maqoli hisoblanadi va bu maqolning o‘zbekcha muqobillaridan biri “Qo‘shnining noni shirin”dir. Ko‘pincha bu maqol yosh bolalarga nisbatan qo‘shni o‘rtog’ining narsasiga havas qilganida ishlatiladi. So‘zma-so‘z tarjimasi esa “Qo‘shnining tovug’i qo‘shniga g’oz ko‘rinadi”dir. “Turfa hangomalar”[1] kitobidagi “Nasihatgo‘y” hikoyasida “آدمیرا آدمیت لازم است (odamiro odamiyat lozem ast”) maqoli “odamiylik hamma narsadan ustun turadi” tarzida tarjima qilingan. Uning so‘zma-so‘z tarjimasi esa “odam odamiy bo‘lishi kerak”dir.

Maqollarni tarjima qilishda uch asosiy prinsip hukm suradi:

1) Asl nusxadagi maqolga tarjima tilidan teng qiymatli ekvivalent qidirib topish:

گربه که دستش به گوشت نمی رسد می گوید پوف گنده.

Go‘rbe ke dastash be gusht nemiresad miguyad puf,gande.

Mushuk go‘shtga yetmasa puf sassiq deydi.

2) Asar o‘girilayotgan tildan monand muqobil variant topib qo‘yish;

فال بد بر زبان بد باشد.

Fol-e bad, bar zabon-e bad boshad.

O‘zi sovuqning so‘zi sovuq.

Agarda tarjimon ushbu maqolni fors tilidan “foli yomonning, tili yomon”, deb so‘zma-so‘z tarjima qiladigan bo‘lsa, o‘zbek kitobxoni ushbu maqolning ma’nosini tushunmaydi. Hatto, uning maqol ekanligini ham fahmlamaydi. Bunda tarjimon shu maqolga monand muqobil topib qo‘yishi o‘quvchini asar voqealarini to‘g‘ri tushuna olishiga yordam bersa, ikkinchi tomondan esa, tarjimaning silliq, ravon hamda yuqori qiymatli bo‘lishini ta’minlaydi. Yuqorida keltirilgan maqolni esa, tarjima jarayonida o‘zbek tilidagi “O‘zi sovuqning so‘zi sovuq” muqobili bilan ifodalash o‘rinlidir.

3) Maqolni aynan so‘zma-so‘z tarjima qilish. Bu prinsipda tarjimon maqolni aynan so‘zma-so‘z tarjima qilish orqali bir tildan ikkinchi tilga o‘giradi. Ammo ko‘pchilik tarjimonlar bu usulni yoqlamaydilar.

با یک دست دو هندوانه بر داشتن.

Bo yek dast do‘hendevone bardoshtan.

Bir qo‘l bilan ikki tarvuzni ko‘tarmoq.

Har uchala hol ham uchramagan taqdirda mutarjim maqollarning umumiy ma’nosini aks ettirish bilan kifoyalanishga majbur bo‘ladi. Ammo bunday holatda badiiy asarda uchragan badiiylik, obrazlilikka putur yetishi mumkin.

Fors va o‘zbek tilidagi maqollarni o‘rganar ekanmiz, ularning muqobili bor yoki yo‘qligiga qarab 3 guruhga ajratishimiz mumkin:

[1] Muhammad Ali Said Jamolzoda., “Turfa hangomalar”

1. Forscha-o‘zbekcha mushtarak maqollar. Ya’ni fors tilida mavjud maqollarning o‘zbek tilida ham xuddi shunday shakldagi maqolning mavjud bo‘lishi:

اگر دیدند شوخی و گر ندیدند جدی.

Agar didand shuxi va gar nadidand jeddi.

Bilsa hazil, bilmasa chin.[1]

گر دنیارا آب ببرد او را خواب می برد.

Gar do‘nyoro ob bebarad, uro xob mibarad.

Dunyoni suv bossa unga ne g’am.

شتر دیدی — ندیدی .

Sho ’to‘r didi nadidi.

Tuya ko‘rdingmi-yo‘q.

2. O‘zbekcha muqobili bor bo‘lgan forscha maqollar. Ya’ni fors tilida mavjud maqolning o‘zbek tilida o‘sha maqolga teng keluvchi muqobili mavjud bo‘lishi:

اگر دو برادر دهند پشت به پشت تن کوه را باد به مشت .

Agar du barodar dehand po‘sht be po‘sht, tan-e kuhro bod be mo‘sht.

So‘zma-so‘z tarjimasi: Agar ikki birodar yelkadosh bo‘lsa, bir qo‘l bilan tog’ni maydalab yuboradi.

Muqobili: Og’a-ini totuv bo‘lsa, tog’ni tolqon qilur, Opa-singil totuv bo‘lsa, uyni bo‘ston qilur.

اگر گل نیستی خار هم نباش .

Agar go‘l nisti, xor ham nabosh.

So‘zma-so‘z tarjimasi: Agar gul emas ekansan, tikan ham bo‘lma.

Muqobili: Qo‘lingdan yaxshilik kelmasa, yomonlik ham qilma.[2]

شنیدن کی بود مانند دیدن.

Shenidan key bud, monand-e didan.

So‘zma-so‘z tarjimasi: Eshitgan qachon ko‘rgandek bo‘ladi.

Muqobili: Ko‘rgan boshqa-yu, eshitgan boshqa; Ming marta eshitgandan bir marta ko‘rgan yaxshi.

3. Faqat fors tilida mavjud bo‘lgan maqollar. Ushbu turdagi maqollar ya’ni faqat fors tilida mavjud bo‘lgan ammo, o‘zbek tilida na muqobili, na mushtarak shakli mavjud bo‘lmagan maqollar:

دیر آید — شیر آید

Dir oyad — sher oyad.

Kech kelsa ham sherdek keladi.

ده کجا و درختان کجا.

Deh ko‘jo-o‘daraxton ko‘jo.

Qishloq qayerda-yu daraxtlar qayerda.

---

[1] Mirzayev T. “O‘zbek xalq maqollari”. — Toshkent, 2003

[2] Mirzayev T. “O‘zbek xalq maqollari”. — Toshkent, 2003

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, biz ushbu maqolamizda forscha maqollarni oʻzbek tiliga tarjima qilish usullari, ekvivalentsiz milliy xos maqollarning oʻziga xos xususiyatlarini hamda bunday maqollar tarjimada berish masalalarini asarlardagi maqollar misolida oʻrgandik. Bundan tashqari, forscha-oʻzbekcha mushtarak maqollar va ularning tarjimada berish yoʻsinlarini nazariy va amaliy dalillar asosida oʻrgandik. Shu oʻrinda eronlik olim Malik-ush-shuaro Bahorning bu borada bildirgan fikriga murojaat qilsak: "Jahonda boshqa til bilan munosabatda boʻlmagan til yoʻq, albatta oʻzga xalq bilan aloqada boʻlmagan xalqdan tashqari, buning esa imkoni yoʻqdir". Qadimdan Turon-u Eron xalqlari orasida ajralmas madaniy, siyosiy va savdo aloqalari oʻrnatilgan boʻlib, ushbu jarayon sababli ikki tildan bir-biriga maqollar oʻzlashgan, oʻzaro mushtarak maqollar vujudga kelgan. Maqollarni tarjima qilish jarayonida bunday maqollarni koʻplab uchratdik va maqolamizda 19 ta forscha maqollarni tarjima qilishga muvaffaq boʻldik.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Abrishami Ahmad., "Tanlangan forscha masallar" – Tehron, 1376
2. Xoʻrramiy, Husayniy., "Mashhur maqollar" – Qum, 1377
3. Sharifiye Gulpoyegoniy, Farjoʻllo., "Dehado maqollari va hikmatlarining saylanmasi va sharhi" – Tehron, 1376
4. Ibrohim Xudoyor., "Forscha-oʻzbekcha mushtarak maqollar". T.:2002
5. Toʻra Mirzayev., "Oʻzbek xalq maqollari" – Toshkent, 1989
6. Muhammad Ali Said Jamolzoda., "Bir bor ekan, bir yoʻq ekan"
7. Mirzayev T. "Oʻzbek xalq maqollari". — Toshkent, 2003
8. Muhammad Ali Said Jamolzoda., "Turfa hangomalar"

MILLIY OʻZIGA XOSLIKNING TARJIMAGA TA'SIRI

Gulnora AHMADOVA
TDSHU, Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti,
Tarjima nazariyasi va amaliyoti yoʻnalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Gʻofur Gʻulomning asaridagi Oʻzbek millatiga xos boʻlgan soʻzlarning fors tiliga qay darajada tarjima qilinganini koʻrishimiz, badiiy tarjimon faoliyatini oʻrganish maqsadiga asoslangan.

Kalit soʻzlar: Gʻofur Gʻulom, Shum bola, badiiy tarjima, milliy soʻzlar, mentalitet, madaniyat, muomala odobi, kolorit.

Аннотация: Данная статья построена с целью изучения деятельности художественного переводчика, чтобы увидеть, как слова, характерные для узбекского народа в творчестве Гафура Гулома, были переведены на персидский язык.

Ключевые слова: Гафур Гулям, Шумбола, художественный перевод, национальные слова, менталитет, культура, нравы, колорит.

Abstract: This article is based on the purpose of studying the work of an artistic translator to see how the words characteristic of the Uzbek nation in the work of Gafur Ghulom were translated into Persian.

Key words: Gafur Ghulam, Shum bola, literary translation, national words, mentality, culture, manners, coloride.

O‘zbek xalqi bilan tarixiy ildizlari bir joyga borib taqaladigan Eron xalqida ham xushmuomalalik, muomala odobi, shirinso‘zlik kabi fazilatlar ulug‘lanadi. Ham din nuqtai nazaridan, ham tarixiy-madaniy nuqtai-nazardan fors va o‘zbek xalqlari qalban bir-biriga yaqin xalqlar hisoblanishadi. Azal- azaldan adabiyot, san’at, she’riyat kabi nafis san’atlarni e’zozlagan. Eron xalqi so‘zlashuv nutqida shoirona tashbehlar, go‘zal ishtibohlar, jozibador kalimalar, purma’no hikmatlari ko‘p uchratishimiz mumkin. Badiiy tarjima ham shunga xos go‘zal bo‘lishi lozim.

Til va nutq tushunchalari bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lsa-da, ular orasida bir qator tafovutlar ham mavjud. Jumladan, til ijtimoiy hodisadir, nutq esa individual ko‘rinishda bo‘ladi. Yoki har qanday til og‘zaki va yozma nutq holida namoyon bo‘ladi. Har qanday tildan samarali foydalanishda suhbatdosh bilan o‘sha tilda nutqiy muloqotga kirisha olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, til birliklaridan nutqda to‘g‘ri foydalanish uchun nutq uslublarini to‘g‘ri tushunish va ularning talabiga ko‘ra ish ko‘rish ham kerak bo‘ladi.

“Demak, kishilar o‘zaro fikr almashish jarayonida til vositalarini o‘zlariga mos tarzda tanlaydilar va ishlatadilar, shuningdek, voqelikka munosabatlarini turlicha ifodalaydilar, buning natijasida nutqning xilma-xil ko‘rinishlari yuzaga kelar ekan. Turli xil nutq uslublariga xos bo‘lgan fikrlar o‘zaro fonetik, leksik va Grammatik xususiyatlariga ko‘ra bir-biridan tubdan farq qiladi. Ikki til vositalarini nutqiy darajada qiyoslash tarjima nazariyasi va amaliyoti uchun alohida ahamiyat kasb etadi.”[1] Chunki mazkur jarayon ikki til nutqiy ifodalari orasidagi munosabatni belgilash imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham tarjima nutqiy muloqotning alohida turi hisoblanadi.

Bundan tashqari, asliyat tarkibida uning milliy xususiyatini belgilaydigan son-sanoqsiz lisoniy-uslubiy vositalar ham uchrab turadiki, bunday o‘ziga xos bo‘yoqli birliklarga o‘zgacha tarixiy-madaniy jarayon sohiblari bo‘lmish xalqlar lafzida goho muqobil til hodisalari tanlash imkoni bo‘lmaydi. Mazkur bo‘shliq tarjimonning asliyat sohiblariga xos ba’zi milliy xususiyatlarga murojaat qilishi orqali matn doirasida to‘ldiriladi. Busiz hech bir tarjima o‘z maqsadiga erisha olmaydi.

Og‘zaki so‘zlashuv nutqi o‘zining so‘z qo‘llashdagi erkinligi bilan boshqa nutq uslublaridan ajralib turadi. Shuningdek, so‘zlashuv uslubida gap bo‘laklarining o‘rnini istagancha almashtirish, unutilgan so‘z yoki birikmalarni gap oxirida keltirish ham mumkin. Biz ushbu bobda fors tilidagi og‘zaki nutqdagi mulozamat so‘zlarining

[1] Yusuf Hamza Lo., “Shum bola” fors tilidagi tarjima,– E, 1998 – 17 b.

tavsifini ko‘rib chiqamiz. Ushbu tadqiqot ishimizda so‘zlashuv uslubidagi dialog-larga boy bo‘lgan G‘ofur G‘ulomning “Shum bola” asaridagi personaj nutqlaridan foydalandik. G‘ofur G‘ulomning ushbu asari o‘zbek adabiyotida muhim sanalgan asarlardan biri hisoblanadi. Ushbu asar o‘sha davr o‘zbek oilalari, yosh qatlamining achchiq qismatini, dard-u alamini ta’riflagan.

Yoshga oid mulozamat, erkalash so‘zlari va ularning tarjimada berilishi:

“Hurmat kommunikatsiyada (ijtimoiy-aloqa aralashuvda, fikrlashuvda, so‘z-lashuvda, monologik va dialogik nutqlarda, madaniy-ma’rifiy, axloqiy- huquqiy, ruhiy-hissiy kabi munosabatlarda) muloqot xulqi tarzida voqelanadi. Hurmat nutqi xilma-xil mazmuniy vazifaviy yo‘nalishlarga ega. Murojaatda xushmuoma-lalik, odob-axloq qoidalariga rioya qilish, kishining xatti-harakatiga munosabat bildirish yoki uni tavsiflash jarayonida betakalluf tuyulgan so‘z va iboralarni mulozamat so‘zlariga o‘zgartirishga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari, u yoki bu so‘zni evfemistik qo‘llash, uni maqbul variantga almashtirish nafaqat voqea-hodisaga munosabat bildirish istagi, balki gapirayotgan (bayon qilayotgan) yoki yozayotgan kishining huquqiy holat (status)iga ham bog‘liq.” [1]

Ushbu tadqiqot ishimiz davomida biz “Shum bola” asarida kichiklarga izzat so‘zlari keltirilgan quyidagi gaplarni tahlil qildik.

جانم، این تو هستی، بیا تو، چقدر بزرگ شده است، قربانش بروم! کدام باد ترا است باینطرفها انداخته است، زود بیا تو، پسرکم! مثل اینکه برادرم زنده شده و پیش ما امده. بیخود نبود که امروز پلک چشمم میپرید! [2]

Ammam va pochcham meni erkalab qarshi oldilar:

–Kel-a, bo‘yingdan girgitton bo‘lib ketay, seni qaysi shamol uchirdi, aka, tirilib keldimi, haligina qovog‘im uchib turgan edi, – dedi ammam.

–Ha, balli, azamat, necha kundan buyon ko‘zim uchib, yo‘lpashsha aylanib yurgan edi, haytovur yaxshilikka ko‘rindi. Sen kelar ekansan, balli-balli, – dedi pochcham. [3]

افرین بر شما! همیشه که نمیتوان روی داربست نشست! آنهم کسالت میآورد. [4]

–Ha, mana, bu kiroyi ish bo‘pti [5]

ها بابام، بیخود نیست که کارگر ها لقب مهتر نسیمی بتو دادهاند. [6]

Ha otaginam, ishchilar senga bekorga shamol podshosi deb laqab qo‘yishmagan. [7]

ها بابام، به آمان خدا من تا ترا دارم غمی ندارم. [8]

---

[1] Google.com – Ziyouz.uz
[2] Yusuf Hamza Lo., “Shum bola” fors tilidagi tarjima,– E, 1998 – 17 b.
[3] G‘ofur G‘ulom., “Shum bola” – Sharq, 2015 – 13 b.
[4] Yusuf Hamza Lo., “Shum bola” fors tilidagi tarjima,– E, 1998 – 15 b.
[5] G‘ofur G‘ulom., “Shum bola” – Sharq, 2015 – 13 b.
[6] Yusuf Hamza Lo., “Shum bola” fors tilidagi tarjima,– E, 1998 – 17 b.
[7] G‘ofur G‘ulom., “Shum bola” – Sharq, 2015 – 19 b.
[8] Yusuf Hamza Lo., “Shum bola” fors tilidagi tarjima,– E, 1998 – 22 b.

Xo‘p, otaginam, seni Xudoga topshirdim. Toki sen bor ekansan, g‘amim yo‘q. [1]

اما تعجوب است که خود جناب عالی! [2]

Ammo taajjubki, janobi oliylarining o‘zlari ekan. [3]

نه،او از گرسنگی نخواهد مرد ، خاطر مبارک جنابعالی آسوده باشد. [4]

Yo‘q, u ochidan o‘lmaydi, janobi oliylarining xotirlari jam bo‘lsin! [5]

O‘zbek tilida kattalarga hurmat tushunchasi deyilganda, avvalo, sizlab gapirish, ulardan oldin gapirmaslik, yoshi ulug‘lar yonida o‘zini kamtar tutish, ularning gapini bo‘lmaslik kabi tushunchalar xayolga keladi. Eron madaniyatida ham kattalarga nisbatan hurmat va ularning yonida o‘zini kamtarlik bilan sipo tutish hurmatning asosiy belgilaridan hisoblanadi. Kattalarga hurmat kategoriyasining o‘zbek va fors madaniyatidagi farqli jihatlari shundaki, o‘zbek mentalitetida bir yosh katta bo‘lsa ham o‘sha insonga sizlab murojaat qilish hurmatning birinchi belgisi hisoblanadi. Eron mentalitetida esa yaxshi tanimagan va lavozim jihatdan yuqoriroq turgan insonlarga sizlab gapiriladi. Masalan, ota-ona, aka-opa, ancha yillardan buyon birga ishlaydigan qadrdon hamkasb, bular barchasiga sensirab murojaat qilinadi. Ammo bu hurmatsizlik emas, balki, o‘ziga yaqin olib gapirish bo‘lgani uchun Eron mentalitetida bu hodisa ortiqcha ginaga hojat qoldirmaydi. Tarjima jarayonida esa asardagi senlab murojaat qilingan joylarni kontekstga qarab ya’ni murojaat qilinayotgan shaxsning so‘zlovchiga qanchalik yaqin yoki uzoqroq ekanligiga qarab tarjima qilish o‘rinli deb hisoblaymiz.

Demak, bundan ko‘rinib turibdiki, tinglovchi so‘zlovchiga nisbatan juda yaqin shaxs emas.

Tinglovchi so‘zlovchidan ko‘ra yoshi ulug‘roq. Buni so‘zlovchining tinglovchiga nisbatan [äyä] deb murojaat qilganidan ham bilishimiz ham mumkin. Bu so‘z fors tilida erkaklarga nisbatan murojaatning hurmat shakli hisoblanadi. Bu o‘zbek tiliga “janob” deb tarjima qilinadi. Ammo tarjimon asarda bu so‘zni “og‘a” deb tarjima qilgan. Fikrimizcha, bu so‘zning “og‘a” deb tarjima qilinishi biroz g‘alizroq tuyuladi. Chunki, bu so‘z o‘zbek adabiy tilida deyarli uchramaydigan, faqat ayrim o‘zbek shevalarida, asosan qarluq lahjasida uchraydigan so‘z hisoblanadi. “Og‘a” so‘zining adabiy tildagi varianti “aka” hisoblangani uchun bu o‘rinda “janob” so‘zini ishlatish yoki “og‘o” so‘zining o‘zini qo‘llash maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Chunki, ushbu so‘z fors tilining o‘ziga xos milliy xos so‘zi ya’ni realiyasi hisoblanadi.

Tinglovchining so‘zlovchiga nisbatan yoshi ulug‘ va hurmatli shaxsligini yana bir birikmadan bilishimiz mumkin. Chunki, jumlada به بنده منزل؟degan birikma ya’ni so‘zlovchining kamtarligini ifodalovchi so‘z birikmasi ishlatilgan. Fors tili og‘zaki va yozma nutqida o‘zbek tilida ko‘p qo‘llaniluvchi “men” so‘zini

---

[1] G‘ofur G‘ulom., “Shum bola” – Sharq, 2015 – 21 b.
[2] Yusuf Hamza Lo., “Shum bola” fors tilidagi tarjima,– E, 1998 – 14 b.
[3] G‘ofur G‘ulom., “Shum bola” – Sharq, 2015 – 16 b.
[4] Yusuf Hamza Lo., “Shum bola” fors tilidagi tarjima,– E, 1998 – 16 b.
[5] G‘ofur G‘ulom., “Shum bola” – Sharq, 2015 – 18 b.

ko‘p ishlatish tinglovchiga nisbatan biroz manmanlik ya’ni o‘zini ustun qo‘yish tuyg‘usini paydo qiladi. Shu sababli bu o‘rinda forslar “men” so‘zi o‘rniga بنده [bande] va کمینه[kamine] kabi so‘zlardan foydalanishadi. Ushbu asamning o‘zbek tiliga qilingan tarjimasida esa bu jumladagi ay so‘zini o‘zbek tiliga “men” deb tarjima qilinganini ko‘ramiz.

O‘zbek tili adabiy asarlarida ham “kamina”, “bandangiz”, “qulingiz” kabi so‘zlar uchrasa-da, tarjimon bu jumlada “men” so‘zini ishlatishni ma’qul ko‘rgan. [1]

Har bir xalq o‘zining asrlar davomida shakllanib kelayotgan tiliga va undagi lahjalariga, maxsus so‘zlariga ega. Badiiy tarjima ijodiy jarayon sifatida asliyat mazmunini boshqa tilda qayta yaratish uchun muqobil vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Shum bola”. G‘ofur G‘ulom.Tehron.1982.B.:25
2. “Shum bola”. G‘ofur G‘ulom. Sharq.T.2012.B.:3.27
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. -Т.: Ўзб.Мил. Энцк. 2006
4. Персидско-русский словар. А.Рубинчик Ю. 1983. Б.1566
5. Yusuf Hamza Loning fors tilidagi tarjimasi www.google.com.

NOSIRUDDIN RABG‘UZIYNING “QISASI RABG‘UZIY” ASARIDAGI YUSUF PAYG‘AMBARNING QISSASI VA UNING TALQINIDA KOMIL INSON SIFATLARI

Soibjon MIRZAYEV
TDSHU, Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo‘nalishi
2-kurs magistranti

Annotatsiya: “Qisasi rabg‘uziy” asaridagi Yusuf qissasi, bu qissaning boshqa qissalardan o‘zgachaligi, qissaning qisqacha sharhi va Yusuf payg‘ambarning sifatlari.

Kalit so‘zlar: Yusuf alayhissalom, Yaqub alayhissalom, tush, o‘n bir yulduz, quyosh va oy, Yaqub farzandlari, Misr, Misr azizi, zindon, Misr podshohi, Yusuf surasi.

Аннотация: История Юсуфа в произведении «рассказ Рабгузи», отличие этой истории от других историй, краткий обзор истории и качеств Пророка Юсуфа.

Ключевые слова: Пророк Юсуф, Пророк Иаков, сон, одиннадцать звезд, солнце и луна, дети Иакова, Египет, правитель Египта, темница, царь Египта, Сура Юсуф.

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. – Т.: Ўзб.Мил. Энцк. 2006 – 114, 119, 212. b.

Abstract: The story of Yusuf in the work “story of Rabguzi”, the difference of this story from other stories, a brief overview of the story and the qualities of Prophet Yusuf.

Key words: Prophet Yusuf, Prophet Jacob, dream, eleven stars, sun and moon, children of Jacob, Egypt, governor of Egypt, dungeon, king of Egypt, Surah Yusuf.

Tarixsiz kelajak boʻlmaydi. Tilimiz va adabiyotimizga tegishli boʻlgan tarixiy manbalarni oʻqib oʻrganish, ilmiy tadqiq etish millat va jamiyat uchun rivojlanish manbayi boʻlib xizmat qiladi. Tarixdan ulugʻ ajdodlarimiz tomonidan yuksak salohiyatli obidalar bitilganligi bizga ma’lum. Jumladan, Nosiruddin Burhonuddin Rabgʻuziyning “Qisasi Rabgʻuziy” asari ham shular qatoriga kiradi. Asar turkiy badiiy ijodda ibtidoligi mumtozligidan darak beradi. Koʻrinishdan diniy – falsafiy aks bergani bilan, turkiy adabiyotda ilk didaktik asar boʻlib shakllangan. Muallif qur’on va hadis ilmidan foydalanib, qator axloq va odobga yoʻllovchi qissalarni ijod etadi.

Rabgʻuziyning “Qisasi rabgʻuziy” asarida bayon etilgan barcha qissalar albatta oʻz holiga koʻra jozibador. Kitobxon uchun oʻqilishi oson, sodda va ravon tilda yozilgan. Ushbu qissalar oʻquvchini fikrlashga, tafakkur qilishga undaydi. Har bir qissa olam-olam ma’no va mazmunga ega. Undagi voqealarning rang-barangligi kitobxonni ushbu kitobga chuqur kirib borishga undaydi.

Shunday boʻlsa-da ushbu qissalar ichida yana bir qissa borki, u butunligicha boshqa bir olamdir. Bu qissa boshqa qissalardan oʻzining jozibadorroqligi va chiroyliligi bilan, undagi personajlarning turli tumanligi bilan, munosabatlarning turfa olamligi bilan, taqdirlarning xilma xilligi bilan, axloqlarning goʻzalligi bilan farqlanadi. Bu qissa umidsizlikka tushgan qalblarga umid, tushkunlikka tushgan koʻngillarga xotirjamlik baxsh etadi. Zero bu qissa goʻzalligi qur’onda Alloh taolo tomonidan oʻziga xos ta’riflanadi: *“(Ey Muhammad), Biz sizga ushbu Qur’on (surasi) ni vahiy qilish bilan qissalarning eng goʻzalini soʻylab berurmiz*[1]*”*. Rabgʻuziy ushbu oyatdagi “Ahsan” – “Eng goʻzal” sifatiga e’tibor qaratib, bu soʻzni ishlatilishidagi 9 ta hikmatni sanab oʻtadi. Bu hikmatlar quyidagilar:

1. Yusuf qissasi Qur’ondagi boshqa barcha qissalardan hajmi jihatiga koʻra kattaroq, foydasi ziyodroqdir;

2. Bu qissadagi davr ayrim manbalarda qirq yil, ba’zi manbalarda sakson yilni qamrab oladi;

3. Boshqa qissalar Qur’onning turli oyatlarida keladi, ammo Yusuf qissasi toʻlaligicha bir surada keladi;

4. Boshqa qissalar voqealari yod kishilar orasida kechadi, lekin Yusuf qissasi ota – ona va birodarlar orasida kechgani tufayli ham eng goʻzal qissa deyiladi;

5. Bu qissada rohat, qiyinchilik, Alloh toati, xaloyiq orasidagi ezgu muomala, ozodlikdagi va bandilikdagi holatlar borligi uchun eng goʻzal qissadir;

---

[1] Alouddin Mansur. Qur’oni Karim. O’zbekcha izohli tarjima. “Sharq”, T., 1992. Yusuf surasi 3-oyat, 153-bet.

6. Yusufning birodarlari bilan yaxshi muomalada bo‘lgani, ularning jafosiga sabr qilgani uchun;

7. Bu qissaning avvali ham, o‘rtasi ham, oxiri ham tush bo‘lgani uchun[1];

8. Bu qissa ishq bilan tamom bo‘lgani uchun go‘zal qissa deyildi;

9. Rasululloh (s.a.v) aytdilarki, kim o‘n baloga yo‘liqsa o‘n surani o‘qisin: vasvasa mendan ketsin desa “Alhamdu” surasini, o‘g‘rilardan omon bo‘layin desa “Baqara” surasini, qashshoqlikdan qutulayin desa “Oli Imron” surasi, qayg‘u ko‘nglimdan chiqsin desa “An’om” surasini, nifoq ko‘nglimdan chiqsin desa “Anfol” surasini, g‘azab bosilsin desa “Asr” surasini, qayg‘ular menga harom bo‘lsin desa “Alam nashrah” surasini, kufr va shirkdan yiroq bo‘layin desa “Ixlos” surasini, sehr – jodudan omonlik istasa “Falaq” va “Nas” suralarini o‘qisin. Agar bu o‘n balolar mendan nari bo‘lsin desa “Yusuf” surasini o‘qisin. Negaki, bu o‘n balolarning hammasi “Yusuf” surasida bordir.[2]

Agarda muallif ushbu qissani alohida kitob tarzida bitganida edi, ushbu qissa shubhasiz mukammal bir asar bo‘lar edi.

Shunday qilib ushbu qissa “Qissai Yusuf Siddiq alayhissalom” qissasidir. Albatta, ijodkor barcha qissalarning asosini muqaddas Qur’oni Karim va hadis ilmidan olganligini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Ushbu qissa ham boshqa qissalar kabi an’anaviy tarzda payg‘ambar sifatlarini tariflashda Qur’on oyatlaridan foydalanilgan. Quyida ushbu qissaning boshlanish qismini tabdil qilingan holda tanishib chiqamiz.

U *“Ey ota, men tushimda o‘n bir yulduzni, yana quyosh va oyni ko‘ribman. Hammalari menga sajda qilishayotgan emish[3]”* deb tushini aytgan, otasidan esa *“ey o‘g‘ilcham, bu tushingni og‘a – inilaringga hargiz ayta ko‘rma, toki ular senga qarshi biror hiyla qilmasinlar[4]”* nasihatini eshitgan, birodarlaridan jafo ko‘rib quduqqa tashlangan, quduqdan chiqarilib o‘n sakkiz chaqaga sotilgan u (Yusuf)dir. *“Meni shu yerning xazinalari ustiga qo‘ygin. Chunki men (ularni) to‘la – to‘kis saqlaydigan va (to‘g‘ri tasarruf qilishni) biladigan kishiman[5]”* deb o‘zini aytgan, Misr ayollarining balosiga mubtalo bo‘lib, *“Parvardigorim, men uchun bular meni chorlayotgan narsadan ko‘ra zindon yaxshiroqdir[6]”* deya zindonni ixtiyor qilgan, oxirida esa *“(umrim bitib, sen O‘zing belgilab qo‘ygan ajalim yetganida) musulmon holimda jonimni olgin va meni ham solih bandalaring qatoriga qo‘shgin[7]”* deb Mavlonga yolvorgan Yusuf payg‘ambar alayhissalomdir[8].

---

[1] (Muallif) Rabg‘uziy qissani to‘liqligicha tush deb tariflashi, Yusufning hayotini batamom tushda kechuvchi umrga qiyoslaydi.

[2] Rabg‘uziy. Qisasi Rabg‘uziy. “Yozuvchi”, 1-kitob, T., 1990. 100-bet.

[3] Alouddin Mansur. Qur’oni Karim. O’zbekcha izohli tarjima. “Sharq”, T., 1992. Yusuf surasi 4-oyat, 153-bet.

[4] O‘sha asar. Yusuf surasi 5-oyat, 153-bet.

[5] O‘sha asar. Yusuf surasi 55-oyat, 158-bet.

[6] O‘sha asar. Yusuf surasi 33-oyat, 156-bet.

[7] O‘sha asar.Yusuf surasi 101-oyat, 162-bet.

[8] Rabg‘uziy. Qisasi Rabg‘uziy. “Yozuvchi”, 1-kitob, T., 1990. 99-bet.

Rabg‘uziy Alloh Yusufga o‘n karomatni ato qilganini yozadi. Bular – chiroy, yaxshi xulq, kechirimlilik, payg‘ambarlik, tushni ta’birlash, to‘g‘ri so‘z-lilik, yaxshi oqibat, mushkulotlarni yecha olishlik, uzoq umr, Ibrohim alayhissalom kitoblari sharhini bilmoqlik[1].

Asardagi bosh qahramon Yusuf payg‘ambar talqinida komil inson sifatlari bilan tanishib chiqamiz. Ibrohim alayhissalomning chevarasi, Is’hoq alayhis-salomning nevarasi, Yaqub alayhissalomning nuri diydasi Yusuf o‘n ikki aka–ukaning o‘n birinchisi edi. Agarda insonlar uchun nasl nasablari bilan maqta-nishlik durust bo‘lganida edi, bu ishga Yusuf payg‘ambar haqdorroq edi. Uning otasi ham, buvasi ham, buvasining otasi ham payg‘ambar va solih kishilardan edi. Shunday buyuk zotlarning avlodi bo‘lsa-da, lekin unga atab bitilgan taqdir mashaqqatlardan iborat edi. Payg‘ambar farzandi bo‘la turib u o‘z birodarlari tomonidan qul qilinib sotilib yuborildi. Avvalambor, qul sifatida sotilishi taqdirida bo‘lsa-da, bunga sabablar ham yetarli edi. Eng asosiy sabab bu – muhab-bat, ya’ni otaning farzandiga bo‘lgan kuchli muhabbatidir. Ota o‘n ikki farzandi ichida uni shunchalar darajada yaxshi ko‘rar ediki, bu muhabbat qolgan farzandlari qalbida kuchli nafratga aylandi. *“Qamug‘lari[2] aydilar: “Bu Rohil o‘g‘linga tab ermasmumizkim otamiz ani ortuq, sevub, ortuq tutar. Taqi[3] o‘zin ortuq sevdurayin teb tush ko‘rdum teyu yolg‘on aytur. Biz tun – kun yozida[4] yilqi qora, qo‘y-qo‘zi birla emganib[5] yuriyurmiz[6]”. “O‘shanda ular (Yusufning o‘gay og‘alari) aytgan edilar: “Garchi biz ko‘pchilik bo‘lsak-da, shak-shubhasiz, Yusuf va uning birodari (Binyamin) otamizga bizdan ko‘ra suyukliroqdir. Darhaqiqat, otamiz ochiq zalolatdadir”[7]”*. Demak ota farzandlarining orasi yaxshi bo‘lishini istasa, ularni bir biridan ajratmagan holda oralarida birdek munosabatda bo‘lishi kerak, hatto ularning ichida bittasini boshqalaridan ko‘ra qattiqroq sevsa ham. Yana bir boshqa sababga ko‘ra *“Kunlarda bir kun Yusuf quzug‘g‘a[8] boqdi o‘z yuzini ko‘rdi, tongladi[9]. Ko‘nglida kechdi, bu ko‘rk birla qul bo‘lsa erdim bahomni kim bera olg‘ay erdi. O‘z ko‘rkinga kuvandi ersa qul teb o‘n sakkiz pul yarmoqg‘a[10] sotdilar. Ko‘rkka kuvanganning bahosin ko‘rguzdilar[11]”*. Demak, inson o‘ziga berilgan ne’matdan mag‘rurlanib ketishi ham yaxshi emas ekan. Allohning fazli bilan Misrga borib qolgan Yusuf u yerda Misr azizi[12] ning

---

[1] O‘sha asar. “Yozuvchi”, 1-kitob, T., 1990. 101-bet.
[2] *Qamug‘lari* – barchalari
[3] *Taqi* – yana, shuningdek
[4] *Yozida* – cho‘lda
[5] *Emganib* – qiynalib, mehnat qilib
[6] Rabg‘uziy. Qisasi Rabg‘uziy. “Yozuvchi”, 1-kitob, T., 1990. 102-bet.
[7] Alouddin Mansur. Qur’oni Karim. O’zbekcha izohli tarjima. “Sharq”, T., 1992. Yusuf surasi 8-oyat 153-bet
[8] *Quzug‘g‘a* – ko‘zguga
[9] *Tongladi* – hayratlandi
[10] *Yarmoqg‘a* – sariq chaqaga
[11] Rabg‘uziy. Qisasi Rabg‘uziy. “Yozuvchi”, 1-kitob, T., 1990. 110-bet
[12] *Misr azizi* – Misr hokimi

xonadonida qul sifatida voyaga etadi. Chiroy bilan birga u odob axloqda ham o‘ta yuksak maqomda edi. Voyaga yetar ekan, uning go‘zalligi bilan birga hikmati va ilmi ham ortib borardi. *“Qachonki (Yusuf) voyaga yetgach, unga hikmat va bilim berdik*[1]*”*. Shu bilan birga fitnalar ham kattalashib kelmoqda edi. Fitnalar ichida eng kattalaridan biri bu shubhasiz fahsh va buzuqlikdir. Endi bu fahsh ishga o‘ziga to‘q, zodagon va behad go‘zal ayol tomonidan chaqirilishi fitnalarning eng dahshatlisidir. Xojasining ayoli Zulayho tomonidan juda qattiq fitnaga solinganida, Allohning fazli bilan bu fitnadan omon qoldi. Lekin sinovlar ortib borardi, shunda, Yusuf: *“Parvardigorim, men uchun bular meni chorlayotgan narsadan ko‘ra zindon yaxshiroqdir*[2]*”* deya duo qildi. Yusuf alayhissalomning ushbu duosi xususida Rasululloh (s.a.v) dedilar: *“Izi azza va jalla ul qarindoshimg‘a rahm qilsun. Ul kun Yusuf o‘rnig‘a man bo‘lsam erdi zindong‘a unumag‘ay erdim, ayg‘ay erdim, mani bu zindondin, bu tishilar*[3] *balosidin saqlag‘il*[4]*”*. Ya’ni, kishi har qanday og‘ir vaziyatda ham o‘ziga zulm qilmasligi, ushbu holatdan chiqishning yaxshiroq yo‘lini izlashi va duo qilishi kerak ekan. Uzoq vaqt zindonda qolib ketgan Yusuf u yerda ham yuksak hurmat qozonadi. Bandilikda ham u o‘ziga berilgan payg‘ambarlik vazifasidan og‘ishmay, insonlarni to‘g‘ri yo‘lga chaqiradi. Unga Alloh tomonidan tushlar ta’birini bilishlik ilmi berilgan edi. Keyinchalik shu ilmi tufayli zindondan ozodlikka chiqadi. Demak, insonning ilmi uni dunyo qiyinchiliklaridan chiqishiga yordam beradi. Yusuf zindondan chiqishdan avval o‘z sha’nini, nomini oqlanishini talab qiladi. Bu yerga kimlar tufayli tushganini, aybsiz aybdor bo‘lganini Misr podshohi bilishini xohlaydi. Pokiza inson uchun or nomus, qadr – qimmat ozodlikdan qimmatroqdir. U haqida barcha surishtiruvlarni o‘tkazgan podshoh Yusufning aybsizligini biladi va uni o‘zi bilan suhbatga chaqiradi. Suhbat davomida Yusufning yuksak zakovat egasi ekanligini bilgan podshoh uni o‘zining eng yaqin vaziri bo‘lishini taklif etadi. Shunday qilib, bir paytlar Misrga qul bo‘lib kelgan Yusuf endilikda davlat ishlaridagi eng muhim shaxs bo‘lib qoladi. Podshoh tushining ta’birini to‘g‘ri sharhlaydi. Kelayotgan ocharchilikka tayyorgarlikni o‘z qo‘liga oladi. Kerakli tadbirlarni qo‘llab, insonlarni ocharchilik balosidan qutilish yo‘lini topadi. Payg‘ambarlikdan tashqari davlat ishlari bilan shug‘ullanish, insonlar og‘irini yengil qilish Yusufning son – sanoqsiz fazilatlaridan biridir. Misr azizining o‘limidan keyin uni o‘rniga tayinlangan Yusuf endilikda qudratli shaxs bo‘ladi. Butun boshli Misr va uning aholisi Yusuf hukmi ostiga o‘tadi. Qo‘l ostidagi bu qudratdan havolanib ketmagan Yusuf bir paytlar o‘zini arzimas chaqaga sotib yuborgan, endilikda esa ocharchilikdan qiynalib kelgan birodarlariga rahm qiladi. Avvaliga ularga biroz makr qiladi va so‘ngida o‘zini Yusuf ekanligini tanitadi. Qissa avvalidagi tush ta’biri oradan qirq yil o‘tib ro‘yobga chiqadi.

---

[1] Alouddin Mansur. Qur’oni Karim. O’zbekcha izohli tarjima. “Sharq”, T., 1992. Yusuf surasi 22-oyat, 155-bet.
[2] O’sha asar. Yusuf surasi 33-oyat, 156-bet
[3] *Tishilar* – ayollar
[4] Rabg‘uziy. Qisasi Rabg‘uziy. “Yozuvchi”, 1-kitob, T., 1990. 132-bet

Rabg‘uziyning “Qisasi rabg‘uziy” asarini o‘qib tadqiq etish ulug‘ ajdodlarimizning merosini o‘rganibgina bo‘lib qolmasdan kelajak avlodni komillikka, insoniylikka, vatanparvarlikka yetaklashga yo‘l ochadi.

Mazkur qissani o‘qigan Yusuf timsolida komil insonni ko‘rishi shubhasiz. U bir vaqtni o‘zida komil inson, odob va axloqi yuksak, zohiran va botinan go‘zal shaxs, oilaparvar, ilm va hikmat sohibi, davlat boshqaruvida esa adolatli boshqaruvchi va yana ko‘plab fazilatlar egasidir. Hozirgi jamiyat vakillarini va kelajak avlodni komillikka etaklash uchun Rabg‘uziy asaridagi qissalarni ilmiy tadqiq etib, ular ongiga singdirishimiz lozim. Ushbu qissalar o‘quvchini zamon bilan hamohang shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rabg‘uziy. Qissasi Rabg‘uziy. “Yozuvchi”, 1-kitob, T., 1990.
2. Alouddin Mansur. Qur’oni Karim. O‘zbekcha izohli tarjima. “Sharq”, T., 1992.

QADIMGI SHARQ ADABIYOTSHUNOSLIGI VA SHARQ ADABIYOTIDAN NAMUNALAR

Madinabonu IKROMOVA
TDSHU, Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik,
Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati: malay tili
1-kurs talabasi

Annotatsiya: Bu maqolada biz sharq mamlakatlari, ayniqsa, o‘zbek, turk, arab, xitoy va bir qancha mamlakatlarning adabiyotini yuzaga kelishi, uning tarixiy takomili masalalari, sharq adabiyotshunosligi tarixida yaratilgan ilmiy va badiiy asarlar haqida tahlil olib boriladi. Shu bilan bir qatorda mazkur maqolada umumturkiy adabiyotning eng sara namunalari, o‘zbek, arab, yapon, xitoy, koreys, misr adabiyotining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari haqida ma’lumotlar va namunalar kiritilgan. Siz bu maqolada O‘zbekistonda Mumtoz Filologiya bo‘yicha nimalar amalga oshirilyapti? va hozirgi vaqtda o‘zbek mumtoz adabiyotiga qanchalik e’tibor berilyapti? kabi savollarga javob topishingiz mumkin.

Kalit so‘zlar: Sharq adabiyoti, qadimiy to‘plamlar, “Kurd choponi”, avtobiografik qissa, “Devonu lug‘otit turk”, Badaviylar, Konfutsiy[1], proto-yozuv, detektiv fantastik asarlar.

Аннотация: В данной статье мы анализируем возникновение литературы восточных стран, особенно узбекской, турецкой, арабской,

[1] Konfutsiy (milloddan avvalgi 551-479-yil) – “Suxbat va mulihazalar” (2014-yil) 272-b, “Yangi asr avlodi”.

китайской, японской и ряда других стран, вопросы ее исторического развития, а также научные труды, созданные по истории восточной литературы. В то же время данная статья содержит информацию и образцы о лучших образцах национальной турецкой литературы, произведениях известных поэтов, писателей и мыслителей узбекской, корейской, японской китайской, корейской, египетской литературы. В этой статье что делается в Узбекистане по классической филологии? А сколько внимания в настоящее время уделяется узбекской классической литературе? Вы можете найти ответы на такие вопросы, как.

Ключевые слова: Восточная литература, “Курдской плащ”, автоби о графический рассказ, “Девони Турецкий словарь”, Бедуины, Конфуций, ,протописьмо, детектив произведения, старинные коллекции.

Abstract. In this article, we analyze the emergence of the literature of eastern countries, especially Uzbek, Turkish, Arabic, Chinese, Japanese and several other countries, the issues of its historical development, and the scientific works created in the history of oriental literature. At the same time, the article contains information and samples about the best examples of the national Turkish literature, the works of famous poets, writers and thinkers of Uzbek, Arabic, Japanese, Chinese, Korean and Egyptian literature. In this article, what is being done in Uzbekistan on Classical Philology? and How much attention is paid to Uzbek classical literature at present? You can find answers to questions like.

Key words: Eastern literature, “Kurdish cloak”, autobiographical story, “Devony Turkish dictionary, Confucius, proto-writing, detective fiction works, ancient collections.

Sharq adabiyoti deganda, ko‘z oldimizga Navoiy[1], Lutfiy, Xorazmiy, Bobur, Jomiy, Fuzuliy kabi insonlar gavdalanadi. Bu bejiz emas. Darhaqiqat ular buyuk uyg‘onish davrida nasr va nazmda samarali va sermahsul ijod qilishgan. Biroq, Sharq Movarounnahr yoki Xuroson yoxud Fors olami bilan cheklanib qolmaydi.

Sharq adabiyotiga koreys, xitoy, turk, arab, yapon, hind kabi millatlarning ma’naviy boyliklari ham kiradi.

Sharq mamlakatlari adabiyoti haqida batafsil tushuncha.

Turkiy adabiyot

Til- qalbining oltin kaliti. Turkiy xalqlar ana shu kalit bilan eng qadimgi davrlardan boshlab boshqa buyuk etnoslar qatori badiiy so‘z san’atining boqiy chashmalarini kashf etganlar. Bu mazkur ajoyib antologiya misolida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Unda “Umumturkiy adabiyot namunalari” deb nomlangan rukn ostida birlashtirilgan dastlabki 5 jildning 2 jildi hammamiz uchun birdek qadrli bo‘lgan ulug‘ tilshunos Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk[2]” asarini o‘z ichiga olgan.

[1] Navoiy – “Tarixi anbiyo va hukamo” 1993-yil, Samarqand “Zarafshon” nashriyoti. 39-b.
[2] “Devonu lug‘otit turk” (“Turkiy so‘zlar tarjimasi”) – Mahmud Koshg‘ariy. (1071-1072). 45-57-b.

Sharq badiiy tafakkurining yana bir boqiy namoyondalaridan biri hisoblangan “Qutadg‘u bilig‘[1]”(Saodatga eltuvchi bilim”) milodiy 1070, hijriy 462-yili nihoyasiga yetkazilgan. Demak bir necha nomga ega ushbu asar “Devonu lug‘otit turk”dan sal avval bitilgan. Asar forsiy manbalarda “Turkiy Shohnoma” deyilgan.

Muallif asarining abadiy yodgorlik bo‘lib qolishini yashirib o‘tirmaydi. Unda nafaqat qoraxoniylar saltanati, balki o‘sha davrdagi boshqa nufuzli davlatlar boshqaruv tizimiga doir siyosiy kuzatishlar o‘z ifodasini topgan.

Arab adabiyoti

Arab adabiyoti- (Arabiston yarim orolidagi qabila jamiyatlari og‘zaki adabiyotidan kelib chiqqan). Qadimgi arab adabiyoti ko‘chmanchi chorvadorlar (badaviylar) o‘rtasida yetishtirilgan bo‘lsa-da, qishloq xo‘jaligi vohalari va shaharlarining yarim ko‘chmanchi va o‘troq aholisi orasida ham keng tarqalgan.

Islomgacha bo‘lgan 125 ga yaqin shoirlarning (VII asr oxiri 1- yarmi) nomlari va ijodi saqlanib qolgan, jumladan, klassik turini yaratishda xizmat qilgan Imru al-Qais (500-540), Zuhayr ibn Abu sulma (530-627), Antara ibn shaddod al-Absiy (525-615) va boshqalar.

Nasrning rivojlanishi uchun o‘rta fors (pahlaviy) tilidan tarjimalar alohida ahamiyatga ega. Ibn al-Mugaffa “Kalila va Dimma” ni yoritgan. Arab she’riyatida ma’lum bir yangilanish borki, bu haqida qisqa, nafis, mustaqil, mavzuli va yangi uslub (badit) she’rlariga ustunlik berishda ifodalanadi.

Misr adabiyoti

Misr adabiyoti bu inson tafakkurining yozma ko‘rinishlaridan biridir. U o‘z davrlarida (miloddan avvalgi uchinchi ming yillikda) Nil bo‘yidagi o‘sha shahar aholisiga o‘z tarixi va urf- odatlari bilan bog‘liq bo‘lgan barcha narsalarni ko‘chirishga imkon beradigan iyerogliflar deb nomlangan bir qator belgilar bilan qilingan.

Yozuv yoki proto-yozuv deb tasniflashimiz mumkin bo‘lgan narsa, Misrda birinchi marta miloddan avvalgi IV ming yillikda tugagan sulolalardan oldin paydo bo‘lgan. Aksariyat qismi devorlarda, vazo va toshlarda ishlangan ushbu yozuvlar faqat madaniyat asoslari va uning dafn marosimlari bilan bog‘liq bo‘lgan.

Xitoy adabiyoti

Xitoy adabiyotining dastlabki qatlamining shakllanishiga turli xil ijtimoiy va kasbiy kelib chiqishi og‘zaki an’analari ta’sir ko‘rsatdi: kult va oddiy musiqiy amaliyotlar (Shijing), fol ochish (Yi jing), astronomiya, jin chiqarish. Liu Shipei[2] Xitoy adabiyotining nasl-nasabini diniy afsunlar doirasida kuzatishga urinishgan.

Konfutsiy asarlari Xitoy madaniyati va tarixi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, chunki “To‘rt kitob” va “Besh klassika” deb nomlanuvchi asarlar to‘plami miloddan avvalgi 12-asrda har qanday davlat lavozimiga imperatorlik imtihonini o‘tkazish uchun asos sifatida tanlangan edi. Shunday qilib, ushbu to‘qqizta kitob ta’lim tizimining markaziga aylandi. Ular ikkita toifaga bo‘lingan: Konfutsiy tomonidan sharhlangan va tahrirlangan “Besh klassika” va “To‘rt kitob”.

---

[1] “Qutadg‘u bilig” – Yusuf Xos Hojib, 1069 – 1070 – yil. 23-46-b.

[2] Liu Shipei (Chineese 24 June 1884 – 20- December 1919) “Guocui xuebao” 1998-y.

Yapon adabiyoti

Banana Yoshimoto: “Banana” yapon yozuvchisi Mahoko Yoshimatoning taxallusi bo‘lib, u iste’dodli oila farzandi sanaladi. Yoshimato taniqli shoir va tanqidchi Takaaki Yoshimatoning qizi va uning singlisi Xaruno Yoiko – Yaponiyada taniqli multfilm ustasi hisoblanadi. Banana Yoshimato 12 ta roman va 7 ta insho muallifi bo‘lib, ularning eng mashhuri “Oshxona” asaridir.

Natsuo Kirino: “Nazuo” Mariko Xashiokaning taxallusi. U dunyo bo‘yicha ayol yozuvchilar orasida detektiv fantastikaning yetakchilaridan sanaladi. Kirinoning eng taniqli romani “Tashqarida”.

Koreys adabiyoti

Klassik koreys adabiyoti Koreya yarim orolida mahalliy aholining an’anaviy xalq e’tiqodlari va xalq ertaklaridan kelib chiqqan. To‘rtda asosiy she’riy janrlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Bular: hyanga (“mahalliy qo‘shiqlar”); pyolgok (“maxsus qo‘shiq”), changa (“uzun misralar”) sijo (“mangu ohanglar”) va kasa (“she’rlar”). Koreys she’riyati dastlab qo‘shiqlar uchun yaratilgan. She’riy versifikasining zamirida koreys tilining uch yoki to‘rt bo‘g‘inli ritmi yotadi.

Kurd adabiyot

Kurd xalqining adabiyoti, kurd adabiyotining qadimiy yozuv yodgorliklari milodiy 7- asrda noma’lum yozuvchi tomonidan charmga yozilgan bo‘lib uning ayrim qismlari 1920-yilda Sulaymoniy (Iroq) dan topilgan. 11-17-asrlarda she’riyatning yirik vakillari: Mella Axmad Jaziy (12-asr), Mella Bate (15-asr), Ahmad Xoniy (17-asr), 19-20-asrlarda Salim, Xoji Qodir, Koyi, Noimiy, Kurdiy, Maxsur, Shayx Rizo Taloboniy kabi shoirlar mashhur bo‘lgan.

20-asr boshlarida eng yangi kurd adabiyoti shakllandi. 20-asrning 1-yarmida ijod qilgan Hamdiy, Liriy Merda hamda hozirgi kurd she’riyati asoschilaridan biri F.Bekesa asarlarida, shuningdek, 20- asrning 2-yarmida ijod etan yirik shoirlar: A. Xojar (Eron), Sh.Jigarxun, Kadrijon (Suriya), B.Varimon, A.Goran, yozuvchilar – Sh.Fattoh, I.Ahmad, M.Barzinji, Badirxon (Turkiya) va boshqa asarlarida turk xalqining hayoti, ularning milliy mustaqillik va ozodlik uchun kurashi hamda ular yashaydigan mamlakatdagi siyosatiga qarshi norozilik kayfiyati ifodalangan. 20- asrning 30- yillariga kelib, hozirgi Kurd adabiyoti yanada rivoj topdi. 1931- yilda A. Shomilovning “Kurd choponi” avtobiografik qissasi, ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlarda esa A. Jindiy, A. Shomilov, A. Abdurahmon va boshqalarning roman va qissalari, J. Jasmiy, A. Avdol, H. Murod, O.Sharo, K. Chachan va boshqalarning roman va qissalari, she’riy to‘plamlari nashr etildi.

Mumtoz Filologiya

2004-yil Respublikada mumtoz yozma merosni o‘rganadigan, ulug‘ mutafakkir shoirlarimizning asarlarini tatbiq etib, ularni yosh o‘g‘il-qizlarga yetkaza oladigan buyuk mutaxassislarni tayyorlash ishi arab, fors va eski turkiy tillari chuqur o‘qitiladigan Toshkent davlat Sharqshunoslik universitetiga topshirildi. Shu munosabat bilan universitetda bakalavrlik va magistratura

bosqichlarida mumtoz filologiya bo‘limi ochildi va ushbu ta’lim yo‘nalishi hamda mutaxassisligi bo‘yicha o‘qitish ishlari ham ayni kafedraga yuklandi.

2008-yilda kafedra nomi “Mumtoz Filologiya” deb o‘zgartirildi.

2020-yil aprel oyida Toshkent davlat sharqshunoslik institutiga “Universitet” maqomi berildi va yangi struktura bo‘yicha kafedra nomi “Mumtoz filologiya va adabiy manbashunoslik”ka o‘zgartirildi.

Poytaxtimizdagi O‘zbekiston fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik universitetida “Turkiy adabiyot durdonalari[1]” 100 jildlik asarlar majmuasining taqdimot marosimi bo‘lib o‘tdi.

Turkumni tayyorlash uchun 200 nafardan ortiq tarjimonlar, 100 nafardan ko‘proq adabiyotshunos, matnshunos olimlar, adiblar, muharrirlar, rassomlar jalb etilgan Asarlar majmuasi “O‘zbekiston” nashriyoti tomonidan 200 ming nusxada chop etilgan.

Bizni bu maqolani yozishdan maqsadimiz shuki, kelajak va hozirgi zamon yoshlari va tengdoshlarimiz , butun ilm ahli nafaqat o‘zbek adabiyoti va shuning bilan birgalikda sharq adabiyotini ham bilishlari maqsadimizga muvofiqdir. Chunki benazir va betakror bo‘lgan sharq durdonalari barchamizga birdek qiziqarli va foydalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Google schooler. adabiyotshunoslik nazariyasi va tarixi . Feruza Sapayeva. 138-139.

2. Google schooler articles. study of etymological characteristics of terms of art in french and uzbek languages. Hojiyeva Gulchehra, Amrullayeva Mexriniso. 2023-05-08. 115-124.

3. Sayfullayev B.S. Madaniyat va san’at atamalari qomusiy lug‘ati.- Toshkent, 2014. – B.6.

4. Ahmedov. T. Chorbakr. She’rlar. Dostonlar. – T; Yangi asr avlodi, 2000y.

[1] “Turkiy adabiyot durdonalari” 2022-y. O‘zbekiston nashriyot. 1-2-b.

III. TARIX, TARIXIY MANBASHUNOSLIK, SHARQ FALSAFASI VA MADANIYATI

IKKINCHI JAHON URUSHI XOTIRALARDA

Nargiza AKMALOVA
Toshkent davlat pedagogika universiteti,
Fizika-matematika fakulteti,
Matematika va informatika yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ikkinchi jahon urushi tafsilotlari, qozonilgan g‘alabada yurtimizning qo‘shgan hissasi va keksalarni e’zozlash haqida so‘z boradi. Hozirgi kunda Prezidentimiz tomonidan front va front orti qatnashchilariga ko‘rsatilayotgan tashabbuslari va ularga bildirilayotgan yuksak hurmat, shuningdek ikkinchi jahon urushiga O‘zbekiston tomonidan yuborilgan yordam maqolada aks etgan.

Kalit so‘zlar: Ikkinchi jahon urushi, O‘zbekiston, Xotira va qadrlash kuni,fashizm, front, xotira, qadrlash, g‘alaba, shahid.

Аннотация: В данной статье рассказывается о деталях Второй мировой войны, вкладе нашей страны в Победу и чествовании пожилых людей. В статье описаны инициативы Президента Республики Узбекистан к участникам фронта и тыла фронта и оказанное им высокое уважение, а также помощь, направленная Узбекистаном во время Второй мировой войны.

Ключевые слова: Второй мировой войне, Узбекистан, день Памяти и Почестей, фашизм, фронт, память, победа, мученик.

Abstract: This article talks about the details of World War II, our country’s contribution to the Victory and honoring older people. The article describes the initiatives of the President of the Republic of Uzbekistan towards the participants of the front and rear of the front and the high respect shown to them, as well as the assistance sent by Uzbekistan during the Second World War.

Key words: World War II, Uzbekistan, Day of Memory and Remembrance, fascism, front, memory, appreciation, victory, martyr.

Mana ikkinchi jahon urushi tugaganiga ham 78 yil bo‘libdi. Bu urush 60 milliondan ziyod insonlarning yostig‘ini quritgan va XX asr fojiasi sifatida insoniyat tarixiga kirgan. Menimcha bu urush haqida bilmaydigan insonning o‘zi bo‘lmasa kerak. Chunki, urush butun dunyo davlatlarini o‘z domiga tortgan. Tarixsiz kelajak yo‘qdir, biz bu dahshatli urush haqida, ota-bobolarimiz qanchalik qiynalishganini bilmay turib kelajakka to‘liq nazar tashlay olmaymiz.

Ikkinchi jahon urushi 1939-yilning 1-sentyabridan 1945-yilning 2-sentyabriga qadar davom etgan. Unda umumiy aholi soni 1,7 milliard insonni tashkil

etgan 57ta mamlakat qatnashgan. Shunday bo‘lsa-da, urush yakuni 1941-yilning 22-iyunida – fashist Germaniyasining SSSRga hujumi kuni aniqlangan edi.[1]

Ikkinchi jahon urushi turli mamlakatlarda 55 million kishining hayotiga zomin bo‘ldi. Sovet Ittifoqi 27 millionga yaqin odamni yo‘qotdi (tarixchilar tomonidan so‘nggi raqamlar aniqlanmagan), ularning aksariyati tinch aholi bo‘lgan. Qizil armiyaning abadiy qo‘ldan ketgan yo‘qotishlari (RF Qurolli Kuchlari Bosh shtabi ma’lumotlariga ko‘ra) deyarli 12 million kishini tashkil etdi, 6 million 885 ming halok bo‘lganlar va 4 million 559 ming bedarak yo‘qolgan va mahbuslar shular jumlasidan.

Ikkinchi jahon urushida O‘zbekiston xalqi juda ko‘p jonbozliklar ko‘rsatib fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga o‘z hissasini qo‘shgan. Xususan, 2 millionga yaqin yurtdoshimiz janglarda ishtirok etib, ularning 500 mingdan ortig‘i qahramonlarcha halok bo‘lgan[2]. Bundan tashqari urush davrida respublikamiz front uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak, qurol-aslaha va boshqa vositalarni yetkazib beradigan muhim ta’minot markazlaridan biriga aylandi. Chunonchi, urush yillarida aholi tomonidan mudofaa jamg‘armasiga 649,9 million so‘m naqd pul, 4 milliard 226 million so‘m zayom puli, 52,9 kilogramm oltin va kumush topshirildi. Armiyaga 7 518 800 ta gimnastyorka, 2 636 700 ta paxtalik, 2 221 200 ta etik va qo‘njli botinka yuborildi. Yengil sanoat vazirligi korxonalari tomonidan frontga 246 918 700 so‘mlik mahsulot jo‘natilgan. Qiyinchilik va xomashyo yetishmasligiga qaramasdan, Toshkent to‘qimachilik kombinati front uchun 410 million metr gazlama ishlab chiqardi. Shuningdek, ko‘p miqdorda oziq-ovqat mahsulotlari ,1 282 000 tonna g‘alla, 482 000 tonna kartoshka va sabzavot, 1000 tonna poliz mahsuloti, quruq va ho‘l mevalar shular jumlasidandir. Respublikaning har bir viloyati, shahar va tumani jangchilarga yordam qo‘llarini cho‘zishdi. Masalan, 1942-yilning boshlarida Buxoro viloyatidan 4059 juft issiq kiyim, 9380 juft jun paypoq va qo‘lqop, 5660 ta qalpoq, 2750 ta shim, 3000 ta po‘stin, 18,5 ming litr vino va quruq mevalar olindi. 1943-yilning boshlarida Leningradga Andijon viloyatidan 7884 kilogramm un va bug‘doy, 5496 kilogramm yorma bug‘doy, 1160 kilogramm guruch, 418 ta qo‘y, 8510 kilogramm quruq meva, Qoraqalpog‘istondan 224916 so‘m naqd pul, 21614 kilogramm bug‘doy, 5819 kilogramm go‘sht, 3700 kilogramm guruch jo‘natildi. Qoraqalpog‘istondagi Mo‘ynoq baliq kombinatidan 20 million banka go‘sht va baliq konservasi olingan edi. Surxondaryo va Toshkent viloyatlari ham jangchilardan hech nimani ayamadilar. 1942-yilning kuzida Surxondaryodan 5998 bosh qoramol, 18 tonna asal, 28 tonna yog‘, 31 tonna quruq meva, 3000 litr vino olindi. Toshkentdan 52 vagonda oziq-ovqat mahsulotlari yuborildi. 1943-yili Surxondaryo viloyati front ehtiyojlari uchun 14 million so‘m naqd pul, 330 tonna go‘sht , 530 tonna bug‘doy, 180 tonna quruq meva, 33168 dona teri topshirdi[3].

---

[1] https://oz.sputniknews.uz/20210622/ikkinchi-jahon-urushining-afsona-va-asotirlari-19346676.html (7.09.2023)

[2] O’zbekiston tarixi. Q.Usmonov, M. Sodiqov. T:2010. 254-bet

[3] https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ikkinchi_Jahon_urushi (9.09.2023)

Bundan tashqari bolajon va mehribon xalqimiz o‘n mingdan oshiq insonlar va bolalarga boshpana berishdi. Shu o‘rinda 16 nafar murg‘ak bolalarga boshpana berib, ularga mehr ko‘rsatgan xalqimizning asl qahramonlari bo‘lmish Shomahmudovlar oilasini yodga olishimiz joizdir. Ularning bu ishlari har bir insonning qalbini larzaga keltiradi. Shunday buyuk qalbli insonlar kelajak avlodga o‘rnak bo‘lsa arziydi. Keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rishimiz mumkinki o‘zbek xalqining g‘alabaga qo‘shgan hissasi beqiyosdir.

Urush yillarida ozodlik va mustaqillik uchun olib borilgan kurash baynalmilalchilik va ruh birligi maktabiga aylandi. Dushman ustidan g‘alaba qozonish barcha qardosh xalqlarning birgalikdagi sa’y-harakatlarisiz, ularning yaqin hamkorligi va yordamisiz mumkin emas edi.[1]

O‘zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan Ikkinchi jahon urushi haqidagi tarixni yoshlarga aniq va ravshan yetkazish borasida qilinayotgan tizimli ishlarni alohida ta’kidlashni xohlayman. so‘nggi yillarda urush frontlariga O‘zbekistondan jalb etilganlar haqidagi haqiqatni o‘rganish, bu haqidagi ma’lumotlarni izlab topish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar bajarilmoqda. Arxiv hujjatlari qayta o‘rganilmoqda.[2]

Muhtaram Prezidentimiz tashabbuslari bilan front va front orti urush qatnashchilariga juda katta e’tibor qaratilib, bir qator imtiyoz va mukofotlar berib kelinmoqda. Jumladan, ularga yangi uy-joylar berildi, yashash joylari ta’mirlandi, jamoat transportlari uchun maxsus imtiyozli kartalar berildi. Urushda qahramonlarcha halok bo‘lgan ajdodlarimizni yod etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov rahbarligi asosida 1999-yil “Xotira va qadrlash maydoni” , 2000-yil “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmui va 2020-yil fashistlar ustidan qozonilgan g‘alabaning 75 yillik munosabati bilan Prezidentimiz tashabbuslari bilan “G‘alaba bog‘i” barpo qilindi.[3] Bu qilinayotgan tashabbuslarning barchasi ularga bo‘lgan yuksak hurmat belgisidir.

Men urushni ko‘rmadim, ammo,
Uni bobom yuzida ko‘rdim.
Va ko‘zlari ichiga cho‘kkan,
Yetimlarning ko‘zida ko‘rdim.
Hojimurod Qo‘ziboyev

Yurtimizda har yili 9-may — “Xotira va qadrlash kuni”ni keng miqyosda nishonlashimiz. Negaki ikkinchi jahon urushi janggohlaridan omon qaytgan keksalarimizni qadrlash va e’zozlash biz uchun ham qarz, ham farzdir. Men ham har yili “Xotira va qadrlash maydoni”ga tashrif buyurib urushda shahid ketgan ota-bobolarimizni yod etaman, zero ularning xotirasi abadiy va mangudir. Bu

[1] Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensive o‘qitishning psixologik- pedagogik jihatlari respublika ilmiy-amaliy anjumani. 2023-yil 2-iyun. 412-bet
[2] Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensive o‘qitishning psixologik- pedagogik jihatlari respublika ilmiy-amaliy anjumani. 2023-yil 2-iyun. 411-bet
[3] https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ikkinchi_Jahon_urushi (9.09.2023)

kunda nafaqat urush qatnashchilarini balki yoshi ulug‘ bobo va buvilarimizni oldilariga borib ularni holidan xabar olishimiz va ulardan duolar olishimiz kerak.

Men shu yurtda tug‘ilganimdan va shunday fidokor, mehribon yurtdoshlarim borligidan faxrlanaman. Yurtimiz tinchligi abadiy bo‘lsin!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston ikkinchi jahon urush davrida. Kitob – albom.T:2021. 288 bet.
2. O‘zbekiston tarixi. Q.Usmonov, M. Sodiqov. T:2010. 520 bet.
3. Nargizabonu Mamadaliyeva: Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensiv o‘qitishning psixologik- pedagogik jihatlari respublika ilmiy-amaliy anjumani. 2023-yil 2-iyun.

Manbalar:

4. https://lex.uz/docs/-4664439?ONDATE=24.10.2019%2000 (13.09.2023)
5. https://www.trt.net.tr/uzbek/madaniyat-va-san-at/2020/05/11/1234567890-1414831 (10.09.2023)
6. https://oz.sputniknews.uz/20210622/ikkinchi-jahon-urushining-afsona-va-asotirlari-19346676.html (7.09.2023)
7. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ikkinchi_Jahon_urushi (9.09.2023)

O‘RTA ASRLARDA BUXORO AMIRLIGI VA QO‘QON XONLIGIDAGI UNVON VA MANSABLAR.

Maftuna O‘KTAMOVA
TDSHU, Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va Etnologiya yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolani yozishimdan maqsad shuki, o‘rta asrlarda xonlik va amirlikdagi davlat boshqaruvi va unvon, mansablarini, amirlik va xonlikdagi unvon va mansablarning farqli tomonlarini to‘g‘ri yondashuvda o‘rganib, atroflicha yoritib berish. Maqolada o‘rta asrlardagi unvon va mansablarning vazifasi va farqli tomonlari yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, Qo‘qon xonligi, qo‘shbegi, dodxoh, muhtasib, qozi kalon, devonbegi, otaliq, mudarris.

Аннотация: Целью написания данной статьи является изучение государственного управления, титулов и должностей в ханстве и эмирате в средние века, различных аспектов титулов и должностей в эмирате и ханстве в правильном подходе и всестороннем освещении. В статье освещаются роль и различия титулов и должностей в средние века.

Ключевые слова: Бухарский эмират, Кокандское ханство, кошбеги, додхох, мухтасиб, кази калон, девонбеги, аталик, мударрис.

Abstract: The purpose of writing this article is to study the state administration and titles and positions in the khanate and the emirate in the Middle Ages, the different aspects of the titles and positions in the emirate and the khanate in a correct approach, and comprehensively illuminate. The article highlights the role and differences of titles and positions in the Middle Ages.

Key words: Emirate of Bukhara, Khanate of Kokan, koshbegi, dodxoh, muhtasib, qozikalon, devonbegi, ataliq, mudarris.

O‘rta asrlar tarixda qadimgi tarix bilan yangi tarix o‘rtasidagi davr hisoblanadi. O‘rta Osiyo hududida o‘rta asrlar taxminan, XVI-XVIII asrlarni o‘z ichiga oladi. XVIII asrdan boshlab “Yangi davr” atamasi qo‘llana boshlagan.

Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligidagi unvon va mansablarning o‘ziga yarasha farq va tafovutlari mavjud. Bularga birma-bir to‘xtaladigan bo‘lsak, Buxoro amirligida Oliy Kengash faoliyat yuritgan. Muhammad Rahimxon I Oliy Kengashdan hokimiyatni mustahkamlash[1] uchun foydalangan. Qo‘qon xonligida esa davlat boshqaruv tizimida turli shaxslarni mansabga tayinlash vaqtida marosim va udumlar mavjud. Shulardan biri oliy hukmdorni tayinlash, ya’ni xon ko‘tarish marosimidir. Qo‘qon xonligida boshqa O‘rta Osiyo xonliklari kabi hukmdor doiradagi mansabdorlar ushbu marosimda yangi hukmdorga o‘z itoat-korligini bildirib, qasamyod qilishgan, so‘ngra uni oq kigizga o‘tqazib o‘tka-zishgan. Marosimdan so‘ng yangi xon xalqqa e’lon qilingan. Qo‘qon xonligida Buxoro amirligidan farqli ravishda Xudaychi lavozimiga tayinlash o‘zgacha bo‘lgan. Xudaychi lavozimiga tayinlayotgan kishiga kimxob to‘n yorliqlardan tashqari oltin hassa ham berilgan. Buxoroda mingboshi harbiy mansab sifatida faoliyat yuritgan. Xiva xonligida esa mingboshi mahalliy boshqaruv tizimida quyi mansablar qatoridan joy olgan. Qo‘qon xonligida Umarxon bo‘lishiga qadar xonlik markaziy boshqaruvida bosh vazir lavozimini qo‘shbegi amalga oshirgan bo‘lsa, uning davriga kelib, mingboshi bu vazifani o‘z zimmasiga olgan. Qo‘qon xonligi boshqaruv tizimida mingboshidan keyingi o‘rinda qo‘shbegi lavozimi turgan. Buxoro amirligida esa qo‘shbegi bosh vazir sifatida faoliyat yuritgan. XIX asrning 50-60-yillariga kelib, xonlik markaziy boshqaruv tizimida devonbegi vakolatlari mirzaboshiga berilgan. Buxoro amirligida esa aksincha bosh vaziri bo‘lgan qo‘shbegining devonxonasi boshlig‘i Qo‘qon xonligidan farqli o‘laroq, mirzaboshi deb yuritilgan.

Buxoro amirligida mang‘itlar hukmdorligi davrida unvon va mansab manbalarda ko‘p tilga olingan. Lekin ular haqida ma’lumotlar kam berilgan. Buxoro amirligida ikki xonlik kabi mansablar “harbiy” va “diniy“ turlarga bo‘linmagan. Buxoro amirligida bir qancha mansab-u hukkamlar keltirilgan. Davlat mansablari orasida eng yuqori lavozim “amir ul-umaro” hisoblangan. Amir ul-umaro mansabi valiahd shahzodalarni tarbiyalash ishini olib borgan. Shu bilan birga hukmdorning ishonchli insoni hisoblanib, maslahatchi vazifasini ham bajargan. Ba’zi manbalarga ko‘ra Zarafshon daryosi va Samarqanddan Qorako‘l-gacha bo‘lgan hududdagi suv nazoratiga ham mas’ul bo‘lgan. Bundan tashqari,

[1] Mulla Olim Maxdum Xo‘ja “Tarixi Turkiston”. Toshkent. 1915.

Shohrud kanali ustidan nazoratni olib borgani uchun “dorug‘a” vazifasini ham bajargan. Eng yuqori lavozimlardan yana biri qo‘shbegi hisoblanadi. Qo‘shbegi mansabi ham ikkiga bo‘lingan. Birinchisi “qo‘shbegi kalon”, ikkinchisi “qo‘shbegi poyon” hisoblanadi. Qo‘shbegi kalon qatl etish, jazo tayinlash mulkni musodara qilish kabi vazifalarni bajargan. Qo‘shbegi poyon esa nima bo‘lishidan qat’iy nazar arkni tashlab chiqishi mumkin emas edi. Qozi ul-quzzot lavozimi ham Buxoro amirligida yuqori lavozimlardan biri bo‘lgan. Qozi kalonni yana “qozi sha’ri sharif” deb atashgan. Jazo berish, mulkni musodara qilish, sud qilish vazifalarini bajargan. Qozi kalondan keyingi lavozim muftiy lavozimi hisoblanadi. Lavozimning eng yuqori darajasi a’lam bo‘lib, yurishlar va lashkar tortishga fatvo berish vazifasini bergan. Muhtasib uchinchi darajada turgan lavozim hisoblanib, sayidlar avlodidan tayinlangan, ammo ba’zi manbalarda viloyatlarda sayid bo‘lmagan olimni ham muhtasiblikka tayinlangan. To‘rtinchi darajada mudarris lavozimi turgan. Bu lavozim bir umrga berilib, agar ta’lim bilan mashg‘ul bo‘lsa ham davlat tomonidan maosh berilgan. Mudarrisdan keyingi lavozimlarda Jo‘ybar xo‘jalari, naqib, naqshbandiya tariqatning xalifasi hisoblanadi.

Uchinchi darajali unvonlar olimlar, mahalliy zodagonlar va savdogarlarga berilgan. Birinchisi, “mir asad” bo‘lib, ulamolar va sayidlardan tayinlanib, Buxoro rabotining ichki muhtasibligining bir farsaxgacha bo‘lgan qismi uning nazoratida bo‘lgan. Ikkinchisi, “fayzi” mansabi bo‘lib, Buxoro rabotining tashqi muhtasibligining bir farsaxgacha bo‘lgan qismi nazoratida bo‘lgan. Uchinchisi, “sadr” lavozimi bo‘lib, Buxoro rabotining bir farahlik hududining ichkarisidagi vaqflar hisob-kitobiga mas’ul bo‘lgan. To‘rtinchisi, “sudur” bo‘lib, Buxoro rabotining bir farsaxlik hududining tashqarisidagi vaqflar hisob-kitobiga mas’ul bo‘lgan[1].

To‘rtinchi darajada asosan oddiy xalq xizmat ko‘rsatgan. Birinchi amal “devoni kalon” bo‘lib, amir daftarlarini saqlash va tanho, bilg‘u va boshqa hujjatlarga javobgar bo‘lgan. Ikkinchi amal “mushrif” bo‘lib, amir beradigan in’om, hadya, ehson va iltifotlarni maxsus daftarga yozib borgan. Uchinchi amal “daftardor” bo‘lib, katta devondagi tanhodor va suyurg‘ol egalarini ishdan olib, saylash vazifalarini bajargan. To‘rtinchi darajada “devoni tanobnoma” bo‘lib, bahorgi va kuzgi ekinlardan tushadigan xiroj, kirim-chiqim va xarajat ishlari ustidan nazorat qilgan.

Beshinchi darajadagi amaldorlarga misol qilib, “munshi” amir istaklari, duo va salomi va boshqa orzularni yozib borgan. “Arbobi daruni shahar” shahar ichidagi anhor va ariqlarning ustidan nazorat qilib, ularning tozaligiga javobgar hisoblangan. “Devoni arabxona” arablar jamoa ishlari va navkar olish va uni bo‘shatish ishlariga mas’ul sanalgan. “Devoni tavjih” daftardor va devoni tanobxonaga itoat qilib, ular buyurgan ishlarni bajargan.

Oltinchi darajadagi mansablarga kitobdor, baxshi, sayisxona devoni, to‘shakdorlar devoni kiritilgan.

Yettinchi darajaga “kichik mushrif”, paygarnavis devoni, mahramlar devoni, devoni yasovul mansablari manbalarda keltirgan.

---

[1] Mulla Olim Maxdum Xo‘ja “Tarixi Turkiston”. Toshkent.1915.

Sakkizinchi darajadagi mansablar devoni sarkor, amlok mirzosi, voqea-navis, omborxona mirzosi kirgan.

Qo‘qon xonligida unvon va mansablar turli xil olimlar tomonidan o‘rganilib, turli guruhlarga bo‘lishgan. Ulardan eng asosiy va yirik guruhlari:

I. Harbiy va harbiy-ma’muriy unvon va mansablar;

II. Saroy unvon va mansablari;

III. Diniy mansab va unvonlari;

IV. Qozixona va mahkamalardagi unvon va amallar.

Ularning har biriga ta’rif beradigan bo‘lsak, I guruh harbiy va harbiy-ma’muriy guruhiga quyidagi mansablar kirgan. Mingboshi – mo‘g‘ullar istilosi davridan beri mavjud bo‘lib, ming nafar askarning boshlig‘i hisoblanadi. Ma’mur sifatida ming nafar otliq askar beradigan mulkning hokimi. Harbiy yurishlarda qo‘shinni boshqarib, lashkarboshi unvonini olgan. Botirboshi – botir va bahodirlar boshlig‘i bo‘lib, 500 nafardan ko‘p dasta yoki to‘pga boshchilik qilgan. Viloyatlarda uning vazifasi biroz o‘zgarib, harbiy va qo‘shin ishlariga mas’ul bo‘lgan. Ba’zi manbalarda esa botirboshi sug‘orish ishlariga ham boshchilik qilganini haqida ma’lumotlar mavjud. Qo‘shbegi – harbiy qo‘shinning boshlig‘i bo‘lib, yurish va jang vaqtlarida berilib, uning egasi mingboshilik unvonini olish-ga da’vo qilgan. Noib-muovin – viloyat va tumanlarda xonning o‘rinbosari bo‘lib, viloyatlarda lashkar unga itoat etardi va u viloyatning harbiy-ma’muriy ishlarga boshchilik qilgan. Qutvol – Qo‘qon xonligining chegaralarida joylashgan qal’a va istehkomlarning hokimi bo‘lib, shu tumanlarning harbiy-ma’muriy, xiroj va boj olish ishlariga, chegarani muhofaza qilish ishlariga javob beradi.

Harbiy maqsadga ko‘ra, shu vazifasiga dodxohdan qo‘shbegigacha bo‘lgan shaxslar tayinlangan. Lekin ba’zi manba ma’lumotlarga ko‘ra, ba’zan xon nomaq-bul kishini o‘zidan chetlashtirish uchun uzoqdagi qal’alarga hokim qilib yubor-gan. Qo‘rboshi – qo‘rxona, ya’ni qurollar saqlanadigan joylarga mas’ul shaxs. Xon va mingboshiga itoat qilgan. Xudoyorxonning so‘nggi xonlik davrida (1866-1875-yillarda) qo‘rboshi qo‘rxona, miltiqxona va to‘pxonalarga boshchilik qilib, xomashyo topib kelishdan tortib, to tayyor mahsulot ishlab chiqarish va ularni xon qarori bilan tarqatib berishga jarayonigacha javobgar bo‘lgan[1]. Yovar – soqchilarning boshlig‘i bo‘lib, dastasi yuz nafar askardan iborat bo‘lgan. Yovar o‘z dastasi yoki to‘pining hisob-kitobi, yillik xarajatini askarlari uchun xazinadan olib beradi. Yovarlar xon devonining hujjatlarda g‘allagir, javgir va sarpo oluvchi sifatida qayd etilgan. Ba’zi manbalarga ko‘ra, yovar to‘pchilar dastasining boshlig‘i hamda qurol yasovchilar ustaxonasining sardori sifatida tasvirlangan. To‘qsabo – o‘zlarining tug‘iga ega bo‘lgan harbiy dastasining boshlig‘i.

II guruh saroy unvon va mansablar hisoblanib, ular o‘z ichida oliy, o‘rta va past darajadagi mansablarga bo‘lingan. Oliy darajali unvon va mansablarga

[1] Vohidov S. va Xoliqova R. “Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruvi tarixidan”.

otaliq, beklarbegi, biy, devonbegi, xazinachi, eshikog‘asi, parvonachi, dastur-xonchi, dodxoh, sarkor, oftobochi, qorovulbegi, tunqator va qo‘shbegi kirgan. O‘rta daraja kitobdor, risolachi, bakovul, mirzaboshi, sarmunshi, miroxo‘r, shig‘ovul kirgan. Past darajaga salomog‘ochi, mirzo, fayzi, munshi, surnaychi, karnaychi, dafchi, shotir, zinbardor unvon va mansablari kirgan.

III guruh diniy mansab va unvonlar hisoblanadi. Bu guruhning eng yirik unvoni shayx ul-islomdir. Shayx ul-islom lavozimi Umarxon tomonidan 1818-yili joriy qilingan. Birinchi shayx ul-islom Ma’sumxon to‘ra bo‘lgan. Xo‘ja kalon – fiqh olimining faxriy unvonidir. Xalifa – o‘rinbosar deganidir. Qo‘qonda naqshbandiya, qalandariya va jahriya tariqatining rahbarlari bo‘lgan. A’lam – faqih olim va shariat qoidalarining bilimdoni. Oxund – bilimli va madrasada ta’lim olgan kishi. Mudarris – madrasa ustozi bo‘lib, xon tomonidan tayinlanib, yillik maosh olgan. Ba’zi paytlarda xon farmoniga binoan “tarxon” ham berilgan. Imom va imom-xatib – masjid imomi va juma namozlarda xutba o‘qib, amri ma’ruf qiladigan alloma. Muazzin – musulmonlarni besh marotaba namozga chaqiruvchi, azon aytuvchi. So‘fi jilav – yurish va safarlarida xizmat qiladigan shaxsdir.

IV guruh qozixona va mahkamalardagi unvon va mansablari ham Qo‘qon xonligida muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, qozi ul-quzzot – qozilar qozisi. Qozi kalon – poytaxtda va viloyat markazlaridagi qozilarning va qozixona ishlarining ustidan nazorat qilardi. Qozi askar – qo‘shin qozisi bo‘lib, Umarxon davrida bu vazifa Mirzo Qalandar Mushrifga yuklatilgan. Qozi rais – qo‘shinlarda askariya muftisi bergan fatvolarning ijro etilishi ustidan nazorat qilgan.

Qozi jilav – roqib qozisi bo‘lib, safar va yurishlarda xizmat qilgan va o‘z iste’-dodini ko‘rsatgan. Tarakachi – meros qolgan mulklarni meroschilarga tarqatib berish vazifasini bajargan. Olomon – qozixona va mahkamaning oddiy xizmatchisidir.

Xulosa qilib aytganda, bir vaqtda mavud bo‘lgan amirlik va xonlikda unvon va mansablar, ularning vazifalari, jamiyatdagi o‘rni turlicha bo‘lgan. Lekin shuni ham aytib o‘tish kerakki, bir-biriga o‘xshash unvon va mansablar ham mavjud bo‘lgan. Qo‘qon xonligi biror unvonga saylashda o‘ziga xos urf-odatlari bilan Buxoro amirligidan ajralib turgan. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng bu mansablarning nomlari zamon talablariga ko‘ra, o‘zgartirildi. Hozirgi kunda turli mansabdagi shaxslar o‘z vazifalarini a’lo darajada, xalq manfaatini o‘ylab, ish yuritishmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mulla Olim Maxdum Ho‘ja “Tarixi Turkiston”. Toshkent. 1915.
2. Vohidov S., Xoliqova R. “Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruv tarixidan”.
3. “Muloqot” jurnali. 1994. 3- va 4-sonlari
4. www.gazeta.uz sayti ma’lumotlari

HERODOTUS CONTRIBUTION TO HISTORIOGRAPHY

Shoxijahon URUNOV
Bukhara State Pedagogical Institute,
3rd-year student of history

Abstract: Herodotus, often referred to as the "Father of History," was an ancient Greek historian who lived during the 5th century BCE. His life and work left an indelible mark on the study of history, shaping the way we understand and document the past. This article delves into the life, contributions, and enduring legacy of Herodotus.

Key words: Herodot, history, father of history, travel, empiric, ethnographer.

Annotatsiya: Ko'pincha "Tarixning otasi" deb ataladigan Gerodot milod-dan avvalgi V asrda yashagan qadimgi yunon tarixchisi. Uning hayoti va ijodi tarixni o'rganishda o'chmas iz qoldirdi, o'tmishni anglash va hujjatlashtirishni shakllantirdi. Ushbu maqola Gerodotning hayoti, tarix faniga qo'shgan hissalari va abadiy merosini o'rganadi.

Kalit so'zlar: Gerodot, tarix, tarixning otasi, sayohat, empirik, etnograf.

Аннотация: Геродот, часто называемый "Отцом истории", был древнегреческим историком, жившим в V веке до н. э. Его жизнь и работа оставили неизгладимый след в исторических исследованиях, сформировав способ, которым мы понимаем и фиксируем прошлое. В данной статье рассматривается жизнь, вклад и неугасающее наследие Геродота.

Ключевые слова: Геродот, история, отец истории, путешествие, эмпирический, этнограф.

Herodotus was born in Halicarnassus, a Greek city in Asia Minor (modern-day Bodrum, Turkey), around 484 BCE. His family was well-connected, and he received an education that included both Greek and foreign influences. This early exposure to diverse cultures and traditions would play a significant role in shaping his future as a historian.[1]

One of Herodotus's most remarkable characteristics was his insatiable curiosity and wanderlust. He embarked on extensive travels throughout the ancient world, visiting Egypt, Persia, Babylon, and various other regions. His travels took him as far as the Black Sea, the Mediterranean, and the Nile Delta. During these journeys, Herodotus conducted what can only be described as early forms of empirical research. He interviewed local people, studied their customs and traditions, examined official documents and inscriptions, and collected oral histories. His commitment to firsthand information-gathering and cross-referencing sources was groundbreaking for his time.

[1] Urunov S. Herodot: the father of history and the first ethnographer //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – T. 1. – №. 26.

Herodotus's most enduring legacy is his monumental work, "The Histories"(Historiai in Greek). This nine-book tome is a comprehensive account of the Greco-Persian Wars and the cultures, histories, and geographies of the known world. While "The Histories" is often considered the world's first historical narrative, it is more than just a retelling of past events; it is a vivid and engaging exploration of the human experience.

In "The Histories", Herodotus skillfully blends history with geography, ethnography, and cultural commentary. He takes his readers on a journey from the Greek city-states to the grandeur of Egypt, the enigma of Persia, and the rugged landscapes of Scythia. The work is not just a historical document but a tapestry of diverse stories and perspectives.

One of Herodotus's defining characteristics as a historian was his empirical approach. He sought to provide accurate, firsthand accounts of events and cultures, often contrasting his findings with myths and legends. His critical evaluation of sources and attempts to separate fact from fiction set a precedent for future historians.[1]

Herodotus's influence on the field of history cannot be overstated. He introduced the concept of historiography the practice of recording and interpreting past events in a systematic and methodical manner. His emphasis on empirical research and the inclusion of multiple perspectives laid the foundation for the modern study of history. Many later historians, including Thucydides and Polybius, were inspired by Herodotus's work and built upon his methodologies. His legacy also extends to other disciplines, such as geography, ethnography, and cultural studies.[2]

He is known for his pioneering work in historiography, particularly in the use of empirical inquiry to gather information and document historical events. Here's more information about Herodotus' empirical inquiry:

1. **Travels and Field Research**: Herodotus embarked on extensive travels throughout the ancient world. His journeys took him to regions such as Egypt, Persia, Babylon, Scythia, and Asia Minor. During these travels, he conducted firsthand research by visiting various places, interacting with local populations, and studying their customs and traditions.

2. **Oral Interviews**: Herodotus was renowned for his practice of conducting interviews with individuals he encountered during his travels. He sought to gather information directly from people who had knowledge of historical events, local cultures, and regional histories. He used these interviews as primary sources for his historical accounts.

3. **Examination of Documents**: Herodotus examined documents and records that were available to him during his travels. He collected inscriptions, official decrees, and other written materials to supplement his oral accounts. This empirical approach allowed him to cross-reference information and validate historical facts.

4. **Geographical Descriptions**: Herodotus provided detailed geographical descriptions in his work. He documented the topography, climate, and physical

[1] Strabo. Geographica (Geography). (Original work in Ancient Greek, 1st century BCE)
[2] Herodot. The Histories (Tarix). (Original work in Ancient Greek, 5th century BCE)

characteristics of the regions he visited. His descriptions often included maps and geographical observations, contributing to a comprehensive understanding of the areas he explored.

5. **Cultural and Ethnographic Observations**: Herodotus made meticulous observations of the customs, traditions, and ways of life of various cultures and ethnic groups. He documented religious practices, social structures, legal systems, and daily rituals, offering valuable insights into the diversity of the ancient world.

6. **Cross-Verification of Information**: Herodotus employed a critical approach to historical inquiry. He cross-verified information by comparing accounts from different sources and evaluating their reliability. This method helped him identify inconsistencies and discrepancies in historical narratives.

7. **Balancing Empirical and Mythical**: While Herodotus emphasized empirical inquiry, he also recognized the presence of mythical elements in historical accounts. He often included both empirical observations and mythological stories in his work, distinguishing between them and allowing readers to draw their own conclusions.

8. **Narrative Presentation**: Herodotus presented his findings in a narrative style, which made his work engaging and accessible to readers. He weaved historical events into stories, creating a compelling historical narrative.[1]

Herodotus' empirical inquiry and rigorous approach to historical research laid the foundation for the study of history as a disciplined and systematic field. His work, "The Histories" remains a vital source of information about the ancient world, reflecting his commitment to gathering firsthand evidence and providing a comprehensive account of historical events and cultures.

References:

1. Herodot. The Histories (Tarix). (Original work in Ancient Greek, 5th century BCE)

2. Strabo. Geographica (Geography). (Original work in Ancient Greek, 1st century BCE)

3. Dionysius of Halicarnassus. Roman Antiquities (Antiquitates Romanae). (Original work in Ancient Greek, 1st century BCE)

4. Urunov S. Herodot: the father of history and the first ethnographer //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – T. 1. – №. 26.

[1] Dionysius of Halicarnassus. Roman Antiquities (Antiquitates Romanae). (Original work in Ancient Greek, 1st century BCE)

TARIXIY MANBASHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI

Farrux KAMOLIDDINOV
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Jahon tarixi kafedrasi o‘qituvchisi

Feruza USERBAYEVA
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
2-kurs tarix yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Maqolada qadimgi o‘tmishni o‘rganishda manbalarning beqiyos o‘rni haqida so‘z boradi. Manbalar orqali tarixni gavdalantirishga harakat qilinadi. Albatta mana shu mavzu jihatidan manbashunoslikka beriladigan dolzarb masalar mavjudligini inobatga olgan holda shu masalalarni va manbashunoslik tushunchasini ushbu maqolada atroflicha yoritib berishga harakat qilamiz.

Kalit so‘zlar: Tarix manba, etnografik manbalar, o‘tmish, yozma manbalar, moddiy manbalar, tarixiy muzeylar, etnos.

Аннотация: В статье говорится о неоценимой роли источников в изучении древнего прошлого. Делается попытка воплотить историю через источники. Безусловно, принимая во внимание наличие актуальных вопросов, связанных с источниковедением, мы постараемся подробно осветить эти вопросы и понятие источниковедения в данной статье.

Ключевые слова: Исторический источник, этнографические источники, прошлое, письменные источники, материальные источники, исторические музеи, этнос.

Abstract: The article talks about the invaluable role of sources in the study of the ancient past. An attempt is made to embody history through sources. Of course, taking into account the existence of topical issues related to source studies, we will try to cover these issues and the concept of source studies in detail in this article.

Key words: History is a source, ethnographic sources, past, written sources, material sources, historical museums, ethnos.

Hozirgi vaqtda Markaziy Osiyo tarixini turli manbalar, jumladan yozma manbalar asosida o‘rganib tadqiqotlar yaratish, ilmiy-amaliy ahamiyatini ochib berish dolzarb mavzudir. 2017 yil 24 maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[1]gi qarorida yurtimiz tarixini qo‘lyozma manbalar va arxiv hujjatlari orqali tadqiq qilish borasida bir vazifalar belgilab berilgan. Shu jihatdan tarixiy manbalarga asoslangan holda ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Markaziy Osiyoning o‘rta asrlar davri tarixiga oid ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Qo‘lyozma manbalarga tayanib e’lon qilingan

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017 y. 25 may. № 103 (6797). – B.1.

ilmiy ishlar faktik materiallarga boyligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa iqtisodiy-ijtimoiy masalalarni o‘rganishda rasmiy hujjatlar alohida hamiyat kasb etadi. Shuningdek rasmiy hujjatlarda siyosiy tarixga oid qimmatli faktlarni, tarixiy asarlarda yo‘q ma’lumotlarni uchratish mumkin.

Manbashunoslik tarix ilmining asosiy va muhim sohalaridan biri bo‘lib, turli manbalarni o‘rganish hamda ulardan ilmiy foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etadi. Tarixiy manba deganda nimani tushunamiz? Manba yoki tarixiy manba tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, inson faoliyati natijasida yaratilgan barcha narsalarni tushunamiz. Inson faoliyati natijasida yaratilgan moddiy mahsulot ma’lum vazifani bajarish bilan birga ayni zamonda tarixiy manba bo‘lishi mumkin. Manba deb o‘zida ma’lum ma’lumotga ega yodgorlik tushuniladi. Chunki tarixiy manbalardagi ma’lumotlar tarixiy, ilm asosini tashkil qiladi. Manbashunoslik fani ijtimoiy fan sohasida, asosan ikki xil bo‘lishi mumkin — tarixiy manbashunoslik va adabiy manbashunoslik. Manbashunoslarning maqsadi tarixiy manbashunoslikni o‘rganishdir. Manbashunoslik fanining vazifalari tarixiy manbalarni turlari va ularni tadqiq etish, tamoyillarni o‘rgatishdan iboratdir[1]. Albatta tarixiy izlanishlar qilish borasida manbalarni o‘rni kattadir. Shu manbalar orqali olis tarixni jonlantiramiz desak hech ham xato bo‘lmaydi. Manbashunoslik fani tarix ilmining asosiy va muhim sohalaridan biri bo‘lib, turli (moddiy, etnografik, yozma va boshqa) manbalarni o‘rganish hamda ulardan ilmiy foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganadi. Tarixiy manbalarni o‘rganish orqali o‘tmishda kechgan O‘rganilayotgan tarixiy manba ijtimoiy subyekt (inson yoki odamlarning bir guruhi) tomonidan yaratiladi va vaqt o‘tishi bilan o‘tmish haqidagi bilimlar manbasiga aylanadi. Tarixchining manba ustida ishlash jarayonida matn yaratuvchi va tadqiqotchi madaniyatlarining o‘zaro ta’siri ro‘y beradi. Tarixchi faol tomon: u o‘zaro ta’sirni tashkil qiladi. Manbaning mazmunini to‘g‘ri baholash va uning mohiyatini ochish uchun tarixchi manba vujudga kelgan davr tarixini yaxshi bilishi lozim. Manbashunoslikni yana bir dolzarb masalalaridan biri manbaning tahlilining mohiyatini yaxshi bilish, boshqa manbalar bilan solishtira olishlik. Mohiyatan qay biri to‘g‘ri bo‘lsa ana shu manbaga xolislik nuqtai nazaridan qarashlik. Tarix fanida manbalarning mazmun mohiyati turlicha yoki xato bo‘lishi mumkin. Lekin aynan tarixiy manbashunoslik aynan shu manbalardagi fikr va mulohazalarga to‘xtalib o‘zining dolzarbligi jihatidan tahlil qilib beradi va haqqoniylik nuqtai nazaridan baho berish esa aynan biz kabi tarixchilarga zimmasiga yuklatiladi.

Tarixiy manba deganda nimani tushunamiz? Tarixiy manba deganda uzoq o‘tmishdan qolgan, tabiat va jamiyatning ma’lum bosqichdagi kechmishini o‘zida aks ettirgan moddiy va ma’naviy yodgorliklarni tushunamiz. Moddiy yodgorliklarga — qadimiy obidalar, manzilgohlar va mozorlar, shaharlar, qasrlar va qal’alar

[1]Abdumajid Madraimov, Gavhar Fuzailova. “Manbashunoslik” O‘zbekiston faylasuflar milliy nashriyoti-2008-yil, 27-bet.

xarobalari, uy-ro‘zg‘or buyumlari va boshqalar kiradi. Ma’naviy yodgorliklar deganda qadimgi yozuvlar, xalq og‘zaki ijodi namunalari, afsonalar, yozma yodgorliklar — bitik, qo‘lyozma kitob, hujjatlar va arxiv materiallari tushuniladi. Umuman, tarixiy manba inson ijtimoiy faoliyati natijasida paydo bo‘lgan va uning xususiyatlarini o‘zida aks ettirgan moddiy va ma’naviy yodgorliklardan iboratdir. Ularni o‘rganadigan fanni biz manbashunoslik deymiz. Manbashunoslik ijtimoiy fan sohasida asosan ikki xil bo‘lishi mumkin, tarixiy manbashunoslik va adabiy manbashunoslik. Bizning maqsadimiz tarixiy manbashunoslikni o‘rganishdir. Manbashunoslikning vazifalariga kelsak tarixiy manbalarni qidirib topish, ularni ro‘yxatga olish, turkumlash, chuqur va atroflicha tadqiq etish, manbada o‘z aksini topgan yoki bayon etilgan voqealar, keltirilgan faktlarni to‘la va obyektivligini aniqlash, manbaning tarix fani taraqqiyotini o‘rganishdagi ahamiyatiga baho berish, manbashunoslikning asosiy vazifasi hisoblanadi [1]. Manbashunoslik — tarixiy manbalar va madaniy hodisa sifatidagi yordamchi fandir. Manbashunoslik maxsus ilmiy fan sifatida XIX asrda shakllandi. Manbashunoslik o‘z navbatida tarixiy manbalarni, ularning umumiy xarakteri, o‘tmishni o‘zida aks ettirishiga qarab bir qancha asosiy guruhlarga bo‘lib o‘rganiladi.

Yozma manbalar: Yozma manbalar tarixiy manbalarning muhim va asosiy turidir.Insonning ijtimoiy faoliyati, aniqrog‘i kishilarning o‘zaro munosabatining natijasi o‘laroq yaratilgan va o‘sha zamonlarda sodir bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy voqealarni o‘zida aks ettirgan manba sifatida o‘rta asr (VI-XIXasrlar) tarixini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi.

Moddiy (ashyoviy) manbalar: Ma’lumki, kishilik jamiyati tarixi qariyb 40 ming yillik davrni o‘z ichiga oladi, lekin yozuv paydo bo‘lganiga esa nisbatan ko‘p vaqt o‘tganicha yo‘q. Masalan; tarixiy muzeylardagi mehnat va jang qurollari, kiyim-kechak taqinchoqlar, uy-joy va jihozlar, saroy, qasr, ibodatxonalar, haykallar va h.k shular jumlasidandir.

Etnografik manbalar: Xalqlaring kelib chiqishi bilan bog‘liq bo‘lgan material va ma’lumotlar etnografik manba hisoblanadi. Masalan, xalq, qabila va urug‘ nomlari, inson qo‘li va aql-zakovati bilan yaratilgan qurol va buyumlarning naqsh va bezaklari, kishilar ongida, shuningdek, og‘zaki va yozma adabiyotda saqlanib qolgan o‘tmish urf-odat va an’analari, kishilarning turmush tarzi etnografik manba hisoblanadi. Bularing barchasini etnografiya ilmi (yunoncha etnos — xalq, grapho — yozaman, xalq haqida ma’lumotlar; xalqshunoslik) ni tekshiradi va o‘rganadi

Xalq og‘zaki adabiyoti: Adabiyotning ayrim namunalari qadimgi yunon tarixchilari, shuningdek, Tabariy, Mas’udiy, Beruniy, Firdavsiy, Ibn al-Asir kabi Sharq olimlarining asarlari orqali bizgacha yetib kelgan. Kayumars, Jamshid va Siyovush haqidagi afsonalar, Amort va Sparetra, To‘maris va Shiroq haqidagi qissalar shular jumlasidandir. Manbalarni moddiy-texnik ma’lumotlari deganda qo‘lyozma kitob yoxud hujjat bitilgan qog‘ozning o‘lchami, qog‘oz varaqlar soni,

[1] https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Manbashunoslik

muqovasi, matn o‘lchami, xati, siyohi, xattoti, asar nomi, muallifi, kitobat tarixi Joyi kabi ma’lumotlar nazarda tutiladi. Bu ma’lumotlar asar yozilish sabablari, uning yozilgan joyi va o‘sha vaqtdagi texnik taraqqiyot va ijtimoiy-siyosiy muhitni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Bu ma’lumotlarni aniqlamay turib, asarda bayon etilgan voqealar haqida, umuman qo‘lyozma asar haqida to‘g‘ri. va to‘la tasavvurga ega bo‘lish, uning xususida fikr bildirish mumkin emas[1].

Manbalarni o‘rganishning muhim jihatlari: aniqlash, tiklash, tahlil qilish. Manbalarni aniqlash va uning ilmiy ahamiyati. Manbalarni mavzular tartibida saralash va uning asosiy shartlari. Manbalarni tahlil qilish uslublari. Manbalarni tashqi va ichki belgilariga qarab tahlil qilish. Tarixiy manba haqida umumiy xulosalar chiqarish. O‘rta Osiyoda ilk yozuvning shakllanishi. Turkiy bitiklar, ularning yozuvlari va aniqlangan joylari hamda turkiy manbalar borasida olib borilgan tadqiqotlar. Kitobot san’ati, Qadimgi iyeroglif yozuvlar va ularning tadqiq etishdir[2]. Turli xil mavzularni o‘rganishda tarixchi hujjatdan faqat o‘ziga kerakli ma’lumotni oladi. Manbashunos uchun esa o‘zining butunligicha muhimdir. Manbashunos o‘tmishga tarixiy jarayonidagi o‘rnini va manba o‘zining bir butunligi muhimdir. Bunda tarixchi manbadagi haqqoniylik bahosidan kelib chiqadi[3]. Albatta mana shu jihatlar hisobga olinib tavsiflanadi. Bu fanni o‘qitish tarix yo‘nalishi talabalariga o‘z jihatidan muhim hisoblanadi. Tarix fanini bilishda manbalarning ham o‘z ahamiyati bordir.

Tarix fanini o‘rganishda manbashunoslikni ham ahamiyati beqiyosdir. Bu ikki tushuncha bir-biriga uzviy bog‘liqdir. Tarixiy manbashunoslik, tarixiy manbalarni o‘rganadi va ularni tadqiq etadi. Bu bilan manbalarni, tarixni o‘rganishimizda tutgan o‘rni nihoyatda katta ekanini ham aytib o‘tishimiz joiz. Hozirgi kunda bu fanni o‘rganishda turli-tuman dolzarb masalalar ko‘zga tashlanadi. Shunga qaramasdan bu fanni o‘rganish borasida ko‘p samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada aynan manbashunoslik tushunchasiga va bugungi kunda bu fanni o‘rganishdagi turli dolzarb masalalarni ochib berishga harakat qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017 y. 25 may. № 103 (6797). – B.1.

2. Abdumajid Madraimov, Gavhar Fuzailova. Manbashunoslik. O‘zbekiston faylasuflar milliy nashriyoti. 2008-yil, 27-bet.

3. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Manbashunoslik

[1] Abdumajid Madraimov., Gavhar Fuzailova. “Manbashunoslik” O‘zbekiston faylasuflar milliy nashriyoti. 2008-yil, 46-bet.

[2] Tarixshunoslar va manbashunoslar dastur. 2021-yil Urganch, 7-bet.

[3] D.Alimova. Manbashunoslik. O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz, 2019.© “TURON-IQBOL” nashriyoti, 2019. 18-bet.

4. Abdumajid Madraimov., Gavhar Fuzailova. Manbashunoslik. O‘zbekiston faylasuflar milliy nashriyoti. 2008-yil, 46-bet.
5. Tarixshunoslar va manbashunoslar dastur. 2021-yil Urganch, 7-bet.
6. D.Alimova. “Manbashunoslik” O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz, 2019.© “TURON-IQBOL” nashriyoti, 2019, 18-bet.

ASHTARXONIYLAR SULOLASI HUKMDORI IMOMQULIXON DAVRIDA DIPLOMATIK MUNOSABATLAR

Umidjon BAQOYEV
Buxoro davlat universiteti
Tarix (yo‘nalishlar va faoliyat turi bo‘yicha) mutaxassisligi
1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro xonligida 31 yil davomida hukmronlik qilgan Ashtarxoniylar sulolasi vakili Imomqulixonning xorijiy mamlakatlar bilan olib borgan diplomatik munosabatlari manbalar va ilmiy adabiyotlar orqali tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Imomqulixon, elchilik, diplomatiya, qizilboshlar, jo‘yboriylar.

Аннотация: В данной статье на основе источников и научной литературы анализируются дипломатические отношения с зарубежными странами представителя династии Аштарханидов Имама Кулихана, правившего Бухарским ханством 31 год.

Ключевые слова: Имам Кулихан, посольство, дипломатия, кызылбаш, джойбори.

Abstract: This article analyzes diplomatic relations with foreign countries of the representative of the Ashtarkhanid dynasty, Imam Qulikhan, who ruled the Bukhara Khanate for 31 years, through sources and scientific literature.

Key words: Imam Qulikhan, embassy, diplomacy, qizilbash, joybori.

Buxoro xonligida hukmronlik qilgan Ashtarxoniylar sulolasi vakili Imomqulixon [1] (1611-1642) davrida ko‘plab mamlakatlar bilan diplomatik

[1] Imomqulixon ibn Dinmuhammadxon (1589-yil, Buxoro xonligi –1650-yil, Buxoro xonligi) – Buxoro xonligi hukmdori va Ashtarxoniylar sulolasining vakili (1611–1642). Davlat arbobi va sarkarda. Uning hukmronligi davrida Buxoro xonligida ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy munosabatlar rivojlangan. U xonlikni markazlashtirib, mamlakat mudofasini mustahkamlashga harakat qilgan. Imomqulixon Buxoro xonligi hududiga shimol tomondan xavf solgan qalmoqlar, jung‘orlarga qarshi muvaffaqiyatli janglar olib borgan. Xonlik hududidagi bir qancha o‘zboshimcha amaldorlar va hokimlar harakatini bostirgan. Imomqulixon 31 yillik hukmronlik faoliyati davomida xonlik hokimiyati mavqeyi ko‘tarilib, mamlakatda siyosiy,

munosabatlar yo‘lga qo‘yilgan. Imomqulixon Turkiya, Eron, Rossiya, Hindiston, Xitoy kabi mamlakatlar bilan faol tashqi siyosat olib borgan. Jumladan Hindistonda Boburiylar sulolasi vakillari Jahongir va Shoh Jahon, Turkiyada hukmronlik qilgan Usmonli imperiyasi hukmdori Ahmad I va Murod IV, Rossiyada Romanovlar sulolasi hukmdori Mixail Fyodorovich bilan faol diplomatik munosabatlarni o‘rnatgan.

1616-1617-yillarda Usmoniylar sultoni Ahmad II va Imomqulixon o‘rtasida Eronga qarshi kurashish to‘g‘risida elchilik aloqalari olib borilgan. Imomqulixon bu harakatlarga otasining Puli Salorda[1]gi o‘limini sabab qilib ko‘rsatgan. Ammo bu harakatlar 1617 yil dekabrda to‘satdan Ahmad II vafot etishi bilan to‘xtab qoladi[2]. Usmoniylar Eron bilan mavjud munosabatlarning buzilishini istamagan bo‘lsalar-da, lekin ba’zi voqealar Murod IV (1623-1640) ni Revon va Bag‘dod safariga otlanishga majbur qilgan edi. Murod IV Imomqulixonga (1611-1642) Eronga qarshi birgalikda hujum qilishni taklif qilib, maktub yuborgan. Imomqulixon bu maktubga qanday javob berganligi to‘g‘risida esa ma’lumot mavjud emas. Faqat shunisi bizga ma’lumki, bu davrda Imomqulixon va Eron shohi Abbos o‘rtasida do‘stona munosabatlar mavjud bo‘lgan[3].

1624-1625-yillarda Buxoroga Usmoniylar elchisi keladi. Elchilikdan ko‘zlangan maqsad Erondan Bag‘dod shahrini qaytarib olish edi. Bundan tashqari, Usmoniylar Buxoro hukmdoridan safaviy va mo‘g‘ul hukmdorlariga qarshi birgalikda kurashishga umid qilgan[4].

1614-yilda Imomqulixon o‘z elchilarini imperator Jahongir saroyiga yuboradi.[5] Maktubda Shayboniylar hukmdori Abdullaxon II va Akbarshoh zamonlarida Buxoro xonligi va Hindiston mamlakati o‘rtasida o‘zaro ittifoq

---

ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlik yaxshilangan. Manbalarda Imomqulixon hukmronlik davri Husayn Boyqaro hukmronlik qilgan davr bilan qiyoslangan. *Bu haqida qarang:* https://uz.wikipedia.org/wiki/Imomqulixon

[1] G‘ijduvon yo‘li ustidagi qishloq.

[2] Burton O. The Bukharans: A dinastic, diplomatic and commercial history (1550-1702). Great Britian: CURZON, 1997. P. 145.

[3] *Бу ҳақида қаранг:* Рахмонқулова З. Б. XVI-XX аср бошларида Ўрта Осиё ва Усмонийлар давлатлари ўртасидаги ижтимоий-сиёсий ва маданий муносабатлар тарихи Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация. Тошкент. 2002. Б.28.; Saray.M Rus işgali devrinde Osmanli Devleti ile Türkistan hanliklari arasindaki siyasi münasebetler. — 2. baskı. Ankara: Turk Tarih Kurumu. 2017. S. 10.

[4] Васильев А. Знамя и меч от падишаха. Политические и культурные контакты ханств Центральной Азии и Османской империи (середина XVI — начало XX вв.) Москва. 2014. С. 91.

[5] Мухаммад Юсуф Мунши. Муким-ханская история / Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатели А.А.Семенова. -Ташкент: Изд-во АНУзССР, 1956. -С. 88.

tuzilgan bo‘lib, bu ittifoq natijasida Iroq va Eronning ko‘p qismi va Xurosonning bosib olinganligi to‘g‘risida yozilgan[1].

Muhammad Yusuf Munshiy o‘zining “Tarixi Muqimxoniy” asarida ko‘rsatishicha, oradan bir necha vaqt o‘tgach, Jahongir podshoh Hakim Hoziq[2]ni elchilik rasmi bilan oliy maqom xon (Imomqulixon) huzuriga yuboradi. [3] Tadqiqotchi Nizomiddinov I. asar haqida to‘xtalib, Hakim Hoziq elchiligi Buxoroga jo‘nab ketganidan bir yil keyin Jahongir vafot etgan. Agar biz Hakim Hoziq elchiligini Buxoroda bir yil turgan deb faraz qilsak, (Jahongirshoh 1627 yil vafot etgan) u holda hind elchilari Buxoroga 1624-1625 yillari, demak, Imomqulixon elchiligidan o‘n yil keyin (“Oradan bir qancha vaqt emas”!) kelgan bo‘ladi[4]. Muhammad Yusuf Munshiy asarida Hakim Hoziq elchiligi Jahongirshoh tomonidan yuborilgan elchilik deb yozgan. Ammo “Matlab ut-tolibin” asaridagi voqealarning tavsifi Hakim Hoziq Shoh Jahon tomonidan yuborilgan elchi ekanligi aniqlab beradi.[5]

Hindiston va Buxoro xonligidagi aloqalar uzoq vaqt uzilib qolmagan. Manbalarda ko‘rsatilishicha, Hakim Hoziq elchiligidan avval Hindistondan Buxoroga Birka elchiligi kelgan va Ular Buxoroda bir necha yil turganliklaridan so‘ng, vatanlariga qaytganlar.[6] Shundan so‘ng Buxoro xonligidan Hindistonga Xo‘ja Abdurahim[7] boshchiligida elchilar yuboriladi.

1626-yilda Imomqulixon imperator Jahongir huzuriga o‘z elchisi Abdurahmon Jo‘yboriyni jo‘natib, Xuroson uchun safaviylarga qarshi kurashda yordam ko‘rsatilishini so‘raydi, lekin muzokaralar Jahongir vafoti tufayli to‘xtab qoladi.[8] Imomqulixon elchisi Abdurahimxo‘ja turli sovg‘a- salomlar bilan birga

---

[1] Низомиддинов И. XVI-XVIII асрларда Ўрта Осиё- Ҳиндистон муносабатлари Ўзбекистон ССР "ФАН" нашриёти Тошкент- 1966.- Б 46.

[2] Hakim Hoziq o’z zamonasining buyuk kishisi, yorqin aql egasi, olim, shoir va tabib edi.

[3] Мухаммад Юсуф Мунши. Муким-ханская история / Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатели А.А.Семенова. -Ташкент: Изд-во АНУзССР, 1956. -С. 88.

[4] U o’z tadqiqotlarida Muhammad Yusuf Munshiyning “Tarixi muqimxoniy asaridagi chalkashlik va xatoliklarni isbotlab beradi. *Bu haqida qarang:* Низомиддинов И. XVI-XVIII асрларда Ўрта Осиё- Ҳиндистон муносабатлари Ўзбекистон ССР “ФАН” нашриёти Тошкент- 1966. — Б. 46.

[5] *Bu haqida qarang:* Низомиддинов И. XVI-XVIII асрларда Ўрта Осиё- Ҳиндистон муносабатлари Ўзбекистон ССР “ФАН” нашриёти Тошкент- 1966. — Б. 49.

[6] Низомиддинов И. XVI-XVIII асрларда Ўрта Осиё- Ҳиндистон муносабатлари Ўзбекистон ССР “ФАН” нашриёти Тошкент- 1966. — Б. 46.

[7] Xo’ja Islom Jo’yboriyning nabirasi va Xo’ja Sa’d Jo’yboriyning ikkinchi o’g’li hisoblanadi. Abdurahim Xo’ja umri davomida zamon marhamatlaridan hamda Jo’yboriylar xonadoni imtiyozlari va ichki udumlaridan o’z manfaati yo’lida foydalanib qolishga harakat qiladi va bunga erishadi. U Jo’yboriylar xonadonining omadli merosxo’ri edi. *Bu haqida qarang:* Тўраев Ҳ Бухоро хонлигининг XVI-XVII асрлар ижтимоий-сиёсий ва маънавий-маданий ҳаётида Жўйбор хўжаларининг тутган ўрни. Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент-2007.- Б.176.

[8] Хайруллаев М. Ўзбек дипломатияси тарихидан Тошкент- 2003. Б. 112.

Jahongirga bir yirik la'l "tuhfa" qiladi. Jahongir ham Abdurahimxo'jaga 40 ming rupiya pul va har biri 1500, 1000 va 500 misqol og'irlikdagi uchta oltin "kavkabi tole" hadya etgan.[1] Hind tarixchisi Banarsi Prasad Saksenaning fikricha, Hindistonga elchilik vazifasi bilan kelgan Xo'ja Abdurahim Buxoro xonligining Xurosonni Hindiston va Buxoro o'rtasida bo'lib olish haqidagi taklifni ham bayon qilgan va Jahongirshohning vafoti munosabati bilan taklif amalga oshmagan.[2] Tarixiy asarlarda Imomqulixonning onasi va Jahongirshohning xotini Nurjahonbegim ham (o'z vakillari orqali) bir-birlariga do'stona maktublar va qimmatbaho tuhfa hamda hadyalar yuborib turganliklari haqida ma'lumotlar bor.[3]

Ashtarxoniy hukmdor Imomqulixon Moskva davlatiga birinchi marotaba 1613-yilda Navro'zxo'ja boshchiligida elchi yuboradi. Bu elchi 300 kishidan iborat savdo karvonlari bilan Qozonda, Samarada va boshqa joylarda mahalliy hokimiyat tomondan qabul qilindi. Imomqulixon o'z yorlig'ida har ikki mamlakat o'rtasidagi savdo va elchilik munosabatlarini davom ettirishni rus hukumatiga taklif etdi. Shuningdek, Navro'zxo'janing sovut, shunqor, mo'yna va "xon ehtiyoji" uchun zarur bo'lgan boshqa rus mollarini sotib olishi, xon mollarini rus yerlarida bojsiz sotishga ijozat berilishini rus podshosidan so'radi. Navro'zxo'ja Imomqulixon buyurgan mollarning hammasini olib ketish maqsadida Qozondan Sibirga borishini aytib, rus podshosidan ruxsat so'raydi. *"Podshoh, — deb yozgandi Navro'zxo'ja, -iltifot qil va menga Sibirga borishga ijozat ber, sening muborak nomang bilan Sibirga yetsam va shunqorni sotib olsam, o'z podshohim oldiga narsa bilan borib, kunlarim xayrli bo'lur edi"*. Bundan ma'lum bo'ladiki, Imomqulixon Navro'zxo'jaga shunqor va mo'ynalarni, hatto Sibirga borib bo'lsa ham olib kelishni buyurgan. Rus hukmdori Imomqulixon xatiga javoban Buxoro xonligidan kelgan savdogarlar erkin savdo qilishlariga ruxsat bergan. Navro'zxoja boshchiligidagi elchilar 1615-yilda Buxoroga qaytgan[4].

1618-yil 11-avgust kuni Imomqulixonning Odambiy boshchiligidagi elchilari Moskvada Romanovlar sulolasining birinchi vakili Mixail Fyodorovich qabulida bo'lgan. Bu elchilikka javoban podsho Mixail Fyodorovich tomonidan Ivan Danilovich Xoxlov boshchiligida elchilar 1620-yilda Buxoroga jo'natiladi. Xoxlov Buxoroga kelganida Imomqulixon Samarqandda bo'lgan. Xoxlov Samarqandga boradi va xon qabulida bo'ladi. Mazkur elchilik yorlig'i mavjud

---

[1] Низомиддинов И. XVI-XVIII асрларда Ўрта Осиё- Ҳиндистон муносабатлари Ўзбекистон ССР "ФАН" нашриёти Тошкент- 1966. — Б. 19.

[2] Низомиддинов И. XVI-XVIII асрларда Ўрта Осиё- Ҳиндистон муносабатлари Ўзбекистон ССР "ФАН" нашриёти Тошкент- 1966. — Б. 47

[3] Низомиддинов И. XVI-XVIII асрларда Ўрта Осиё- Ҳиндистон муносабатлари Ўзбекистон ССР "ФАН" нашриёти Тошкент- 1966. — Б. 49

[4] Ҳамид Зиёев. Ўзбекистонинг Россия билан элчилик ва иқтисодий алоқаларнинг ўрнатилиши, ривожланиш тарихи (қадимги даврдан то XX аср бошларигача) III жилд Янги аср авлоди Тошкент: 2012. 50-51 бетлар.

bo‘lib, unda Buxoro elchisi Odamboyga Moskvada ko‘rsatilgan muruvvatlar va elchi Xoxlov orqali Imomqulixonga to‘rtta ovchi qushi sovg‘a qilingani, Buxoro hukmdorining savdo-sotiq to‘g‘risidagi taklifini qabul qilib, Buxoroda tutqunlikda kun kechirayotgan ruslarni ozod qilib, Rossiyaga yuborish talabi qo‘yilgan edi[1]. Ba’zi manbalarga ko‘ra Mixail Fyodorovich Imoqulixonga 3 ta shunqor[2] sovg‘a qilib yuborgan. Xoxlovning so‘zlariga ko‘ra u juda ko‘p qiyinchiliklar boshidan o‘tkazgan. Yo‘lda unga turkmanlar hujum qilishgan. Xivada esa unga nisbatdan sovuq muomalada bo‘lishgan va Xiva xoni Imomqulixonga olib ketilayotgan shunqorni Xoxlovdan tortib olmoqchi bo‘lgan. Buxoroda u yaxshi kutib olingan bo‘lsa ham, ammo xonlikdagi ayrim amaldorlar xon tomonidan berilgan pullarning ma’lum qismini olganlar. Xoxlov Moskvaga qaytadi va ko‘rgan qiyinchiliklarini rus hukmdoriga ma’lum qiladi. Bu hodisa rus hukmdorlari va O‘rta Osiyo xonliklari o‘rtasidagi munosabatlar yomonlashishiga olib keladi. Ammo buxorolik savdogarlarga Rossiya shaharlarida erkin savdo-sotiq qilishlariga imkon berilgan[3]. Mazkur vaziyatdan so‘ng, Imomqulixon 11 yil, Mixail Fyodorovich 20 yil davomida bir-birlariga elchi yubormay qo‘ygan. Bunga faqatgina Xoxlovga qilingan sovuq munosabatlar emas, balki ikki davlat o‘rtasidagi ichki va tashqi sharoit ham elchilik munosabatlarining vaqtinchalik uzilishiga olib keldi. Bu paytda Buxoro xonligida ichki ziddiyat va urushlar avj olgan edi[4].

1623-yil Yaroslavlda Buxoro elchisi Abiz ham ushlanib qolinadi va uning mol-mulklari musodara qilinib, Moskvaga olib kelinadi. Jukovskiy fikriga ko‘ra, bu ishlar Xoxlovga yetkazilgan zararni qoplash maqsadida qilingan. Elchilar ishiga aniqlik kiritish maqsadida Ivan Xoxlov Moskvaga chaqiriladi va shundan so‘ng tutqunlar vatanlariga qaytarilgan[5]. Ushbu voqealardan so‘ng Rossiyaning O‘rta Osiyo xonliklari bilan aloqalari 1633-yilgacha to‘xtab qolgan. 1633-yil Xiva xoni Asfandiyorxon elchisi Xo‘ja Muhammad Bahodir Xiva xoni yorlig‘i hamda Buxoro va Balx xonlarining maktublarini Moskvaga olib boradi. Ammo bu elchilik ham javobsiz qolgan. 1639-yilda Buxoro xoni Nodir Muhammadning elchisi Xo‘ja Ibrohim Yoyiq cho‘llari orqali Astraxanga keladi. U o‘zi bilan birga xonning uchta ishonch yorlig‘ini va qimmatbaho sovg‘a-salomlarni olib

---

[1] Ҳамроев А., Рахмонова М. Князь Хилков тўплами: Россиянинг 1589-1783-йилларда Бухоро хонлиги билан сиёсий муносабатларнинг хронологик шарҳи (Петербург 1879) – Бухоро: “Durdona”, 2022. Б. 9.

[2] Lochinsimonlar oilasiga mansub qush. Itolg’ining ikkinchi nomi.

[3] Ҳамид Зиёев. Ўзбекистонинг Россия билан элчилик ва иқтисодий алоқаларнинг ўрнатилиши, ривожланиш тарихи (қадимги даврдан то XX аср бошларигача) III жилд Янги аср авлоди Тошкент: 2012. Б. 53.

[4] Ҳамид Зиёев. Ўзбекистонинг Россия билан элчилик ва иқтисодий алоқаларнинг ўрнатилиши, ривожланиш тарихи (қадимги даврдан то XX аср бошларигача) III жилд Янги аср авлоди Тошкент: 2012. Б. 54.

[5] Жуковский С.В. Россиянинг Бухоро ва Хива хонликлари билан уч юз йилликдаги муносабатлари. Таржима ва изоҳлар муаллифлари: Ҳамроев А., Рахмонова М.) – Бухоро: “Durdona”, 2022. Б. 27.

kelayotganda qalmiqlar tomonidan talangan va o‘zi zo‘rg‘a Astraxanga qochib keladi va u yerdan qaytib Buxoroga yangi ishonch xati olish maqsadida jo‘nab ketadi. Uning ikkinchi marta Moskvaga borganligi to‘g‘risida aniq ma’lumot yo‘q [1]. 1640-yilda Buxorolik Qozixon 100 tuyada mol va 200 kishilik mulozimlari bilan Tobolskka keladi. Bu elchilik o‘zining dabdabaligi bilan ajralib turgan. Podshohning sovg‘a-salomlarini 37 kishi ko‘tarib kelgan[2].

Xulosa qilib aytganda, Buxoro xoni Imomqulixon ko‘plab mamlakatlar bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatgan. Imoqulixon Buxoro xoni sifatida mamlakatni markazlashtirish va qo‘shni mamlakatlar bilan siyosiy aloqalarni o‘rnatishda alohida e’tibor qaratgan. Uning davrida Buxoro xonligida qator ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, siyosiy munosabatlar yaxshilangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Burton A. The Bukharans: A dinastic, diplomatic and commercial history (1550-1702). Great Britian: CURZON, 1997.

2. Saray M. Rus işgali devrinde Osmanli Devleti ile Türkistan hanliklari arasindaki siyasi münasebetler. — 2. baskı. Ankara: Turk Tarih Kurumu. 2017.

3. Рахмонқулова З. Б. XVI-XX аср бошларида Ўрта Осиё ва Усмонийлар давлатлари ўртасидаги ижтимоий-сиёсий ва маданий муносабатлар тарихи Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация. Тошкент. 2002.

4. Мухаммад Юсуф Мунши. Муким-ханская история / Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатели А.А.Семенова. - Ташкент: Изд-во АНУзССР, 1956.

5. Низомиддинов И. XVI-XVIII асрларда Ўрта Осиё- Ҳиндистон муносабатлари Ўзбекистон ССР “ФАН” нашриёти Тошкент- 1966.

6. Тўраев Ҳ Бухоро хонлигининг XVI-XVII асрлар ижтимоий-сиёсий ва маънавий-маданий ҳаётида Жўйбор хўжаларининг тутган ўрни. Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент-2007.

7. Ҳамид Зиёев. Ўзбекистонинг Россия билан элчилик ва иқтисодий алоқаларнинг ўрнатилиши, ривожланиш тарихи (қадимги даврдан то XX аср бошларигача) III жилд Янги аср авлоди Тошкент: 2012.

8. Ҳамроев А., Рахмонова М. Князь Хилков тўплами: Россиянинг 1589-1783-йилларда Бухоро хонлиги билан сиёсий муносабатларнинг хронологик шарҳи (Петербург 1879) – Бухоро: “Durdona”, 2022.

[1] Жуковский С.В. Россиянинг Бухоро ва Хива хонликлари билан уч юз йилликдаги муносабатлари. Таржима ва изоҳлар муаллифлари: Ҳамроев А., Рахмонова М.) – Бухоро: “Durdona”, 2022. Б. 28.

[2] Жуковский С.В. Россиянинг Бухоро ва Хива хонликлари билан уч юз йилликдаги муносабатлари. Таржима ва изоҳлар муаллифлари: Ҳамроев А., Рахмонова М.) – Бухоро: “Durdona”, 2022. Б. 29.

LOG‘ON ATAMASI VA UNING SHAKLLANISH TARIXI

Abduhoshim MAXAMADOV
BuxDPI, Tarix ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Toponimika — geografik nomlarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi, o‘zgarishi va to‘g‘ri yozilishini o‘rganuvchi fan sohalaridan birdir. Yer yuzining istalgan bir hududini tanlang yoki o‘rganing o‘ziga xos nomlar bilan atalish barobarida ushbu nomning kelib chiqishi yuzasidan ham turli xildagi fikr – mulohazalarni aytadilar.

Xuddi shunday, Farg‘ona vodiysi toponimikasi ham bundan mustasno emas. Ushbu maqolada, aynan, Farg‘ona viloyati, Farg‘ona tumanida joylashgan Log‘on qishlog‘i toponimi, uning paydo bo‘lishi, shakllanishiga doir ilmiy va dala tadqiqotlari asnosida to‘plangan ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Lakqon, Lagan, Mug‘tepa, toponimika, mug‘lar, arxeolog, tadqiqot va hokazo.

Аннотация: Топонимика – одна из отраслей науки, изучающая происхождение, развитие, изменение и правильное написание географических названий. Выберите или изучите любой регион земли и назовите его своими именами.

Не является исключением и топонимия Ферганской долины. В данной статье представлены сведения, собранные в ходе научных и полевых исследований о топониме села Лягон, расположенном в Ферганском районе Ферганской области, его происхождении и формировании.

Ключевые слова: Лаккан, Лаган, Мугтепа, топонимика, Моголы, археолог, исследования и т.д.

Abstract: Toponymy is one of the branches of science that studies the origin, development, change and correct spelling of geographical names. Choose any region of the earth or study it and call it with its own names.

Similarly, the toponymy of the Fergana Valley is no exception. In this article, information collected during scientific and field research on the toponym of the village of Logon, located in Fergana district, Fergana region, its origin and formation is presented.

Key words: Lakkan, Lagan, Mugtepa, toponymy, Mughals, archaeologist, Research, etc.

Toponimika qadimiy va ayni damda navqiron fan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Toponimika o‘zi — geografik nomlar, ularning kelib chiqishi, kishi ismlarini o‘rganadigan fan sifatida yuzaga kelgan.

Toponimika atamasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, qaraydigan bo‘lsak, bu so‘z qadimgi yunon tilidan olingan bo‘lib, “topos” — joy, “onom ” yoki “onima” – nom, umuman, joy nomini o‘rganadigan fan degan ma’noni bildiradi[1].

Toponimika keng tarmoqli soha bo‘lib, o‘z ichida bir necha turga bo‘linadi. Jumladan, oykonimiya (yunoncha, oykos — uy), polinimiya (yunoncha polis — shahar) yoki urbanonomiya (lotincha urbos — shahar), ya’ni qishloq hamda shaharlarning nomlari o‘rganuvchi bo‘limlari ham bor-ki, bunda har bir hududning yoki geografik joy nomlari, ularning ma’no va kelib chiqishi tahlil etiladi. Bir qarashda bu jo‘n, oson ko‘rinsa-da, bu o‘ta mashaqqatli ishdir. Chunki, har bir joy nomi yoki atoqli ot o‘z tarixiga ega.

O‘zbekistonda toponimika fanining va geografik atamashunoslikning rivojlanishi va taraqqiyotida professor olim Hamidulla Hasanovning xizmatlari kattadir. Olimning bir qancha ilmiy risolalari va maqolalarida O‘rta Osiyoda, jumladan O‘zbekistonda joy nomlarini o‘rganishga qadimdan ahamiyat berib kelinganni hamda bu fan qadimdan yurtimizda mavjud ekanligini ko‘rsatib berdi.

Keyinchalik, bu ishni I. Nafasov, Z. Do‘simov, N. Oxunov kabi bir qancha tilshunos hamda toponimist olimlar tomonidan joy nomlarining nominatsion qonuniyatlarini ochib berishdi. Ilmiy faoliyatlari davomida ko‘plab joy nomlarining etimologiyasini aniqlab, ilmiy jihatdan tahlil qildilar.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng toponimika fani yanada rivojlana boshladi. Bir qancha farmon, qonun va qonun osti hujjatlari qabul qilinib, ilgari Sobiq Ittifoq davrida turli bayram, tarixiy shaxslar va turli g‘alabalarga atab qo‘yilgan nomlar o‘zgartirilib, milliylashtirildi. Ayrim joy nomlariga esa o‘zining qadimiy nomlari qayta berildi.

Toponimika sohasiga e’tibor so‘nggi yillarda yangicha tus oldi, yurtimiz toponimlarini o‘rganish va ularning nomlanishiga ham jiddiy e’tibor berila boshlandi. Bu yo‘lda yangi ilmiy darslik va monografiyalar yaratilayotganligi esa so‘zimiz isboti bo‘la oladi.

Maqolani yozishda O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, toponimika faniga oid ilmiy asarlar, maqola va dala tadqiqotlari natijasida mahalliy aholi bilan bo‘lgan suhbatlar natijasida yozib olingan ma’lumotlar asosiy manba sifatida olindi.

Maqola tahliliy-ilmiy, tanqidiy, qiyosiy-taqqoslash, kuzatish, tahlil va tavsif kabi metodlardan foydalanilgan holda yozildi.

Dunyoda har bir narsaning nomi, ismi bor. Misol uchun, adir, tog‘, tepalik va hokazo. Shu va shunga o‘xshash atamalar qayday tilda bo‘lmasin bir xil ma’no-mazmunni ifodalaydi. Bunday so‘zlarni istalgan tilga tarjima qilish ham oson. Ammo, joy-makon yoxud hudud nomalari bo‘lgan atoqli otlar bundan farq qiladi. Atoqli otlar ma’lum bir narsani, obyekt yoki predmetni anglatib, tarjima qilinmaydi va bir xil talaffuz qilinadi. Masalan, Farg‘ona deyilganda, go‘zal va

[1] Zohid Madrahimov. Tarixiy toponimika (o’quv qo’llanma) / «Navro’z» nashriyoti. -Toshkent, 2017. 5 – b.

betakror tabiatli vodiy tushunilsa, Xorazm deyilganda, ko‘hna tamaddun maskani, shu nomli viloyatni tasavvur etamiz.

Geografik nom ya’ni toponim toponim — eng avvalo so‘zdir. Biroq, u oddiy so‘z bo‘lib qolmasdan, birinchidan, atoqli ot. Ayrim toponimlar tilshunoslar uchun ham tushunarsiz bo‘lsa, Toshkent, Samarqand, Qo‘qon, Marg‘ilon kabi yirik shaharlarimizning qanday ma’no anglatishi haqidagi bahs-munozaralarda hali ham aniq bir to‘xtamga kelinganicha yo‘q.

So‘lim va betakror Farg‘ona vodiysining toponimikasi ham bundan mustasno emas. Jumladan, viloyatning shahar-u qishloqlarining nomlari, ularning ma’nolari va tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Farg‘onaning ana shunday qadim qishloqlaridan biri bo‘lgan – Log‘on qishlog‘ining nomi haqida bir qancha bahsli fikr-mulohazalar mavjud bo‘lib, hali ham o‘z yechimini topganicha yo‘q.

Log‘on atamasi qachon, qaysi paytda paydo bo‘lganligi haqida aniq fikr mavjud emas. Olimlar bu borada hali bir to‘xtamga kelishganicha yo‘q. Chunki, qishloq nomining kelib chiqishi haqidagi turli xildagi fikrlar, taxminlar mavjud.

Log’on atamasining kelib chiqishi haqida ma’lumot berganlardan dastlabkilardan bo‘lib, biri taniqli jurnalist Sobirjon Dadaxo‘jayev quyidagicha yozadi: “Log’on so‘zini yolg’iz olib izohlash mantiqiy jihatdan to‘g’ri emas. Bu so‘z XIII asr mo‘g‘ullar istilosi va urush davrida paydo bo‘lganligi shubhasiz. Bu o‘rinda Gulpiyon, Mindon, Chimyon, Xalmiyon, Kokilon so‘zlaridagi “on, yon” qo‘shimchalari o‘rin-joy otini yasashga xizmat qiluvchi affikslardir deb, “lak” so‘zi qadimda ming, million ma’nosida qo‘llanilgani hisobga olinsa, “Lakkon”, ya’ni ko‘p qon to‘kilgan degan ma’no kelib chiqadiki, bu tarixiy haqiqatga ancha to‘g‘ri keladi.

Asrlar o‘tishi bilan so‘zlarning fonetik o‘zgarishga uchrashi hisobga olinsa, “Lak” tarkibidagi “K” tovushi “G” tovushiga aylanishi va talaffuzda birining tushib qolishi natijasida bu so‘zning “Log‘on” tarzida iste’molga kirishi tilshunoslik qoidalarga ko‘ra tabiiy hol hisoblanadi. Demak, xulosa qilib aytganda, Log‘on atamasi muayyan tarixiy janggoh, ko‘p qon to‘kilgan joy ma’nosini anglatishi mantiqqa to‘g‘ri keladi”[1].

Bu o‘rinda mahalliy aholi vakillarining qishloq nomining kelib chiqishi haqidagi fikrlarini ham sedan chiqarmaslik lozim. Qishloq ahli Log‘on nomning kelib chiqishi haqida bir necha xil fikrlarni bildirdilar. Masalan, mahalliy aholining ko‘plari Log‘on nomining kelib chiqishini Mug‘ podshohi va uning bevafo malikasi bilan bilan bog‘lab, Log‘on nomi “Lakqon”, “Lokon”, “Loqqon”, “Laqqon” so‘zlaridan kelib chiqqanligi bilan izohlaydilar. Darhaqiqat, “Lak qon”, “Loqqon”, “Laqqon” kabi so‘zlar ham tahlil qilinganida, “ko‘p qon to‘kilgan joy”, “qonli ust-bosh”, “qoli mato parchasi” kabi bir-biriga yaqin va o‘xshash bo‘lgan ma’nolarni anglatishini ko‘rishimiz mumkin.

[1] N. Abdulahatov.,F.Zohidov. Farg’ona tumani tarixi // asotirlar, lavhalar, izlanishlar / “Farg’ona” nashriyoti/Farg’ona – 2013y. 245 – 246 b.

Ammo, tojikistonlik tarixchi Farhod Hasanov “Таърихи мухтасари дехоти Исфара” nomli asarida, Isfara tumanining qishloqlaridan biri boʻlmish Lakkonning nomlanishi xususida quyidagicha ma’lumot beradi: “Yerining serhosilligi tufayli tufayli qishloq Lakkon nomini olgan”[1]. Bunda koʻrinadiki, Lakkon atamasi unumdor joy ma’nosini ham ifodalashi mumkin.

Yana bir taxminga koʻra, Logʻon nomi uning geografik oʻrni “lagan”ni eslatib yuborganligi bois shu nomdan kelib chiqqan ekan. Bunga sabab qilib, qishloq atrofi qir-adirliklardan iboratligi va ayrim qishloqlarga nisbatan pastroqda ya’ni botiqda joylashganligi sabab deya aytiladi. Yuqoridan qaraganda, haqiqatda qishloq “Lagan”ni eslatib yuboradi va bu ehtimol ushbu etimologiyani yuzaga kelishiga asos boʻlib xizmat qilgandir. Lagan atamasi ham anchayin qadimiy va oʻziga xos asosga ham ega. Chunki, Rossiya imperiyasi va Sobiq Ittifoq davri aholi qaydnomalarida qishloq nomi “Лягон” deya atalib, barcha hujjatlarda shu nom bilan qayd etilgan. Bundan koʻrinib turibdiki, qishloq nomi uning geografik oʻrnidan kelib chiqib nomlanganligi haqidagi etimologiya ham haqiqatga yaqin boʻlib chiqadi.

Ma’lumot oʻrnida yana bir eslatma, Lagan atamasiga oʻxshash joy nomlari nafaqat Fargʻona vodiysida balki, Buxoro amirligining yozma manbalarida ham “Lagani”, “Lagandi” va “Lyagoni” tarzida keltirilgan[2].

Tadqiqotchilar esa, qishloqning nomlanishi xususidagi Mugʻ podshohi haqidagi rivoyatni xalq etimologiyasi ekanligini aytib, bu ilmiy tahlilga muhtoj ekanligini ta’kidlaydilar. Chunki, bu nomda -on koʻplik affiksi boʻlsa, logʻ (lagʻm) soʻzi tunnel, korizning yer ostidagi arigʻ ma’nosida ishlatilishi mumkin[3]. Ushbu ma’lumot bir qancha ilmiy asarlarda takrorlanadi. Chunki, Oʻzbekistonning bir qancha viloyatlari, qoʻshni Tojikiston bilan Afgʻoniston hududlarida lagʻm soʻzi bilan bogʻliq joy nomlari bisyor. Misol uchun, Zahiriddin Muhammad Bobur Afgʻonistondagi viloyatlardan biri Lamgʻon toʻgʻrisida yozar ekan, uning besh tuman va ikki boʻlakdan iborat ekanligini ta’kidlaydi hamda nomning kelib chiqishi xususida mana bu fikrlarni bayon qiladi: “ Hazrati Nuh paygʻambarning otasi Mehtar Lomning qabri Alishang tumanidadur. Ba’zi tarixta Mehtar Lomni Lamak Lamkon debturlar. Ul elni xili mulohaza qilibturkim, ba’zi mahal “kof” oʻrunigʻa “gʻayn” talaffuz qilurlar, bu

[1] Хасанов Ф. Таърихи мухтасари дехоти Исфара. Душанбе: Матбуот, 2001. 113 – б.

[2] Населенные пункты Бухарского эмирета (конец XIX — начале XX вв.). Составители: И.Юлдашевб, К.Убайдуллаев, О.Д.Чехович, К.З. Хакимова. — Т.: “Университет”, 2001. с – 90.

[3] Н. Охунова, Ю. Аҳмадалиев. Фарғона вилояти ойконимларининг номланиш хусусиятлари, “Фарғона” нашриёти, 2010 йил. 84 – б.

jihattin g‘olibo bu viloyatni Lamg‘on debturlar”[1]. Bunda muallifning ta’biricha, Lamkon nomidagi “k” harfining “g‘” deya aytilishi tufayli ham Lamg‘on shakliga aylangan.

Boburning keltirgan ma’lumotlaridan Lamg’on shahri nomini antropoteonim ekanligi oydinlashadi.

Lamg‘on atamasi xususida yirik toponimist olim, geografiya fanlari nomzodi Suyun Qorayev shunday yozadi: “Surxondaryo viloyati, Jarqo‘rg‘on tumani, Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumani, Tojikistonning Ko‘lob tumanida, Afg‘onistonda ham Lag‘mon degan joylar mavjud. Bu nomning kelib chiqishi xamirlik ovqatga hech qanday aloqasi yo‘q. Afg‘onistondagi Lag‘mon “Hudud ul-olam”da, “Boburnoma”da Lamg‘on, Lamg‘onot shakllarida tilga olingan. Bu nomda ko‘plik affiksi – on ko‘rinib turadi, lag‘m tunnel, korizning yer tagidagi gorizontal arig‘i ma’nosida bo‘lishi mumkin. Lag‘mon – Lamg‘on metateza (tovushlarning almashinishi) oqibatida yuzaga kelgan bo‘lsa kerak” – deya keltiradi o‘zining “Geografik nomlar ma’nosi” asarida. Ushbu fikrlar bilan Lag‘mon to‘g‘risidagi fikrlarni tugallash bir muncha qiyin. Sababi, yana bir toponimist olim To‘ra Nafasov Lag‘mon so‘zini quyidagicha izohlaydi: “Yangi so‘g‘d (yag‘ nob) tilida lakka – maydon, dala. Qadimiy eroniy tilida man/mayn/meyn – mahalla, qishloq. Lag‘mon – daladagi aholi punkti, shahar hududidan tashqaridagi aholi maskani”[2]. Yoki buni yanada soddaroq tarzda: sog‘dcha laq/lag‘ – chet, mayn esa qishloq, ya’ni chet qishloq — deb ko‘rsatiladi[3]. Demak, Log‘on atamasini ham To‘ra Nafasov ta’kidlaganidek, shahardan tashqaridagi aholi punkti, chet qishloq deb ham tushunsak ham bo‘ladi.

Bu o‘rinda yana bir narsani e’tiborga olish kerakki, fors-tojik tilida “LOQ ” so‘zi “yirtilgan, eskirgan, yirtiq, eski” ma’nolarida keladi. Masalan, “Ҷомаи лоқ – yirtilgan, titilgan kiyim” ma’nosida keladi[4]. Bu esa yuqorida keltirilgan “Loqqon” atamasiga mos tushadi.

Ma’nosiz ot bo‘lmaganidek, har qanday geografik nom muayyan mazmunga va o‘zining tarixiy ildiziga ega. Ana shunday maskanlardan biri bo‘lmish Log‘on nomining kelib chiqishi haqida aniq bir to‘xtamga kelish birmuncha qiyin ekanligini yuqoridagi ilmiy izlanishlar, dala tadqiqotlari natijasida yig‘ilgan ma’lumotlarning o‘zi isbotlab turibdi.

Faqatgina shu narsa aniqki, “Log‘on” nomi va uning kelib chiqishi haqidagi boshqa taxminlarga qaraganda ishonchliroq taxmin bu — ushbu hududlarda ko‘p bora qon to‘kilgan bo‘lishi mumkinligi yoki mug‘ poshsho va uning bevafo malikasi haqidagi afsonada keltirilgan malikaning lahta-lahta qoni to‘kilgani (ayrim insonlar esa malikaning qonga bo‘yalgan ko‘ylak parchalari shu yerlarda

---

[1] Бобурнома (академик нашр), Тошкент, 1960. 191 – б.

[2] Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. — Toshkent: Muharrir, 2009. 156 – б.

[3] Bu haqda batafsil: T Nafasov, V.Nafasova,“O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati” “Yangi asr avlodi", 2008 — y. 32 – b.

[4] Таджикско-русский словарь / под ред. М.В.Рахими и Л.В.Успенской; гл. ред. Е.Э.Бертельс. – М., 1954. с – 208.

tushib ketganligi sababli deya izoh bildirishadi[1]) uchundir “Lakqon” yoki “Loqqon” nomlari bilan atalgandir. Yana bir narsani ham unutmaslik joiz, qishloq nomining bunday afsonaga bog‘lanishiga yana bir sabab qishloq hududida bir biriga yaqin bo‘lgan arxeologik yodgorliklarning joylashganligi ham sabablidir.

Nima bo‘lgan taqdirda ham biz ushbu asotir va rivoyatlarni inkor eta olmaymiz. Chunki, har qanday xalq og‘zaki ijodiyoti namunalari ma’lum bir sabab yoki voqea asnosida yaratiladi. Og‘izdan – og‘izga o‘tib, sayqallanadi, boyib boradi. Shunday bo‘lsa-da, ularning o‘zagida ozmi – ko‘pmi haqiqat yashirin. Log‘on atamasi va uning kelib chiqishiga doir tadqiqotlarni hali davom ettirishimiz, topilmagan jumboqlarga esa javob topishimiz kerak. Bu yo‘lda yana bir qancha tadqiqotlarni olib borish, ma’lumotlarni jamlash va saralash, arxiv materiallari va yozma manbalarga murojaat qilish darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Asosiy adabiyotlar

1. Abdulahatov N., Zohidov F. Farg‘ona tumani tarixi // asotirlar, lavhalar, izlanishlar / “Farg‘ona” nashriyoti/Farg‘ona – 2013y. – 368 b.
2. Бобурнома (академик нашр), Тошкент, 1960. – 514 b.
3. Ҳасанов Ф. Таърихи мухтасари дехоти Исфара. Душанбе: Матбуот, 2001.
4. Madrahimov Zohid. Tarixiy toponimika (o‘quv qo‘llanma) / “Navro‘z” nashriyoti. -Toshkent, 2017. – 128 b.
5. Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. — Toshkent: Muharrir, 2009.
6. Nafasov T., Nafasova V. “O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati” “Yangi asr avlodi”, 2008 — y. – 88 b.
7. Населенные пункты Бухарского эмирета (конец XIX — начале XX вв.). Составители: И.Юлдашевб, К.Убайдуллаев, О.Д.Чехович, К.З. Хакимова. — Т.: “Университет”, 2001. – 415 с.
8. Охунова Н., Аҳмадалиев Ю. Фарғона вилояти ойконимларининг номланиш хусусиятлари, “Фарғона” нашриёти, 2010 йил. – 128 б.
9. Таджикско-русский словарь / под ред. М.В.Рахими и Л.В.Успенской; гл. ред. Е.Э.Бертельс. – М., 1954. – 789 с.Таджикско-русский словарь / под ред. М.В.Рахими и Л.В.Успенской; гл. ред. Е.Э.Бертельс. – М., 1954. – 789 с.

Dala tadqiqotlari

1. Dala tadqiqotlari. Farg‘ona viloyati, Farg‘ona tumani, Log‘on qishlog‘ida “Qal’acha” MFYda yashovchi Temirov Shodijondan (1947 – yili tug‘ilgan) yozib olindi.

[1] Dala tadqiqotlari. Farg’ona viloyati, Farg’ona tumani, Log’on qishlog’i “Vaziyo” MFYda yashovchi Abdullajonova Munavvarxondan (1956 – yili tug’ilgan) yozib olindi.

2. Dala tadqiqotlari. Farg‘ona viloyati, Farg‘ona tumani, Log‘on qishlog‘i “Vaziyo” MFYda yashovchi Abdullajonova Munavvarxondan (1956 – yili tug‘ilgan) yozib olindi.

3. Dala tadqiqotlari. Farg‘ona viloyati, Farg‘ona tumani, Log‘on qishlog‘i “Vaziyo” MFYda yashovchi Xusaynov Yo‘ldoshalidan (1957 – yili tug‘ilgan) yozib olindi.

KOREYA MADANIYATI (TAOMLAR MISOLIDA)

Qutlug‘nigor ABDURASULOVA
TDSHU, Koreyashunoslik fakulteti
1-kurs koreys-ingliz guruhi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Koreya xalqining o‘ziga xos jihatlari taomlar va ovqatlanish madaniyatiga asoslanib tahlil qilinadi. Unda faqat koreyaliklargagina xos taomlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: madaniyat, kimchi, sollontan, dakchuk, kimpab, chimek, bibimbap, gangeng, dama.

Аннотация: В этой статье анализируются уникальные аспекты корейского народа, основанные на еде и культуре питания. В нем рассказывается об уникальных для корейцев блюдах.

Ключевые слова: культура, кимчи, солонтан, дакчук, кимбап, чимек, пибимбап, ганген, дама.

Abstract: Article analyses the unique features of Korea based on meals and eating culture.It describes only meals related to Koreans.

Key words: culture, kimchi, sollontan, dakchuk, kimpab, chimek, bibimbap, gangeng, dama

Ma’lumki, har bir xalqning o‘ziga xos madaniyati mavjud. “Madaniyat bu –jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasidir”[1]. Koreya davlati eng qadimgi davlatlardan biri bo‘lib, juda boy tarix, turli urf-odat va qadriyatlarga ega. Jumladan, o‘ziga xos ovqatlanish madaniyati alohida ajralib turadi. Koreys xalqi birgalikda ovqatlanib o‘tirishni yoqtirishadi. Odatda uylariga mehmon taklif qilinsa, kundalik ovqatlaridan ko‘ra noodatiyroq ovqatlar bilan siylashni xohlashadi. Koreys ovqatlari odatda “pab”, ya’ni qaynatilgan guruch, sho‘rva va turli salatlardan iborat. Bu mamlakatda ko‘p insonlarga yoqadigan noyob, mazali va arzon taomlar mavjud. Koreys taomlarining o‘ziga xos yana bir xususiyati shundan iboratki, ovqatlar doim kam quvvatli bo‘ladi. “Koreys oshxonalarida yog‘li ovqatlar deyarli yo‘q va

[1] uz.m.wikipedi.org

ziravorlarning ko‘pligi organizmdagi moddalar almashinuvini yaxshilaydi. Koreyada shirinliklar guruch uni va loviyadan tayyorlanadi. Koreys oshxonasi hozirgi shaklda taxminan XVI asr oxirida Yaponiya bilan urush vaqtida shakllangan. Yaponiyadan Koreyaga meva va sabzavotlar olib kelingan, ularning asosiysi qizil qalampir bo‘lgan. Aynan shu tufayli koreys taomlarining ko‘pini “achchiq” va “issiq” deb ta’riflash mumkin”[1]. Ammo koreys taomlarining asosiy xususiyati foydali tarkibidadir ya’ni yangi sabzavotlar, soya va ko‘katlarning ko‘pligi, dengiz mahsulotlari, masalliqlarning to‘g‘ri uyg‘unlashuvi, cheklangan go‘sht iste’moli koreys taomlarining sog‘lom holda shakllanishiga xizmat qiladi. Koreyadagi eng kerakli va zarur mahsulot guruch hisoblanadi. Achchiq qalampirni ziravorlar orasida “xalq qiroli” deb atash mumkin. Koreys xalqi taom tayyorlashda qizil qalampirdan ko‘p foydalanganligi sababli idishlari o‘ziga xos qizg‘ish tusga ega bo‘ladi. Aynan shu qalampir bilan boy ta’mga ega bo‘lgan mahsulotlar uzoqroq muddatga saqlanadi.

Koreys xalqining eng mashhur milliy taomlari hamda keng foydalaniladigan mahsulotlari quyidagilar:

1. Koreyadagi eng mashhur taom “kimchi”. Koreyada mazkur taomsiz hech qachon ovqatlanilmaydi. “U miloddan avvalgi I mingyillikda paydo bo‘lgan”[2]. U quyidagicha tayyorlanadi: maxsus xitoy karam barglari ajratiladi va boshqa ziravor souslari bilan aralashtiriladi. So‘ng barglar fermentatsiya ya’ni achitish jarayoni uchun 2-3 kun davomida muzlatgichda qoldiriladi, shundan so‘ng karam boy nordon ta’mga ega bo‘ladi. Bu taom koreyslarning eng sevimli va kundalik taomi bo‘lganligi uchun nonushta, tushlik va kechki ovqat uchun iste’mol qilinadi.

2. Mashhur taom “sollontan”, ya’ni sigir oyoq sho‘rvasi[3]. Bu eng mashhur koreys sho‘rvasi bo‘lib, u sutdek oq rangga aylanguncha taxminan 10 soat qaynatiladi. Koreyada u shunchalar mashhurki, faqat sollongtan pishirishga ixtisoslashgan katta-katta restoranlar mavjud. Bu sho‘rva ho‘kizning oyog‘idan yoki dumidan qaynatiladi va go‘sht bo‘laklari va piyoz solingan idishga tuz, murch va ko‘k piyoz qo‘shib birgalikda tanavvul qilinadi.

3. Koreys taomlardan yana bir mashhur taom “dakchuk”, ya’ni tovuqli guruch pyuresi. Bu taom ham milliy koreys oshxonasining ko‘rki hisoblanadi. Bu mashhur ovqatni tayyorlash uchun kerak bo‘lgan narsalar-tovuqni piyoz va sarimsoq bilan qozonda qaynatish, keyin guruch qo‘shiladi va pishguncha birga qovuriladi. Natijada tovuq va sarimsoq ta’mli, foydali parhezbop sho‘rva hosil bo‘ladi.

---

[1] Kim, Jong-Rok. A Historical, Literary and Cultural Approach to the Korean Language. Seoul, 2000.

[2] https://valenteshop.ru/uz/kakoe-nacionalnoe-blyudo-v-koree-koreiskaya-kuhnya-osobennosti/

[3] Kim, Jong-Rok. A Historical, Literary and Cultural Approach to the Korean Language. Seoul, 2000.

4. Kimpab ham mashhur koreys taomidir. U guruch va boshqa masalliq, quritilgan dengiz o‘tlari barglariga o‘ralgan holda tayyorlanadi. Kimpab yo‘lda ovqatlanish uchun juda qulay ovqat turidir.

5. Qovurilgan koreys tovug‘i. Bu dunyodagi eng mashhur koreys taomlaridan biridir. Tovuq bo‘laklari kraxmal, tuxum, guruch uniga o‘raladi va uzoq vaqt davomida qovuriladi, keyin tovuq ziravorlar va pomidor sousi bilan qoplanadi. Bu taom o‘ta noyob ta’mli hisoblanadi.

6. Qovurilgan noodle (lag‘mon) “chapche”. Chapche nafaqat Koreyada, balki xorijda ham eng mashhur taomlardandir. Chapche kartoshka kraxmalidan tayyorlanadi va bu taomga o‘ziga xos ko‘rinish beradi. Faqatgina ta’mini saqlab qolish uchun sabzavotlar ozgina qovuriladi.

7. Jano “chimek” juda mashhur taom bo‘lib, KFC, ya’ni xalqaro tovuqli tez ovqatlanish tarmog‘idan tovuq go‘shtining pivo bilan uyg‘unlashuvini tavsiflaydi. Tovuq go‘shti pishirishning mumtoz shaklda yoki maxsus ziravorlar bilan bo‘lishi mumkin. An’anaviy pishirishdan farqli o‘laroq, tovuq Koreyada 2 marta qovuriladi, bu taomga tiniq, kamroq yog‘li lazzat beradi.

8. Dana “Bibimbap” – sog‘lomroq, parhezbop va foydali milliy koreys taomlaridan biridir. Bibimbap sabzavotlar va to‘g‘ralgan go‘sht bilan aralashtirilgan guruchdan iborat bo‘lib, ustiga qovurilgan tuxum va biroz gochiyang, ya’ni chili pastasi qo‘shiladi.

9. Gangeng yoki samgyetang – sarimsoq, guruch, jele va jenshen bilan to‘ldirilgan yumshoq go‘shtli yosh tovuqdan iborat jenshenli sho‘rva. Barchasi juda foydali masalliqlardir. Bu sho‘rva issiq yoz kunlarida juda mashhur bo‘ladi.

10. Dama yoki hotteok yana bir mashhur taomlardan biridir, bu yegulik shirinlik sevuvchilar uchun juda mos keladi. Uning tarkibi issiq, shirin, shakar, dolchin va yong‘oqdan iboratdir.

Bu kabi milliy o‘ziga xos taomlarni ko‘plab keltirish mumkin. Koreys xalqi odatda past stolda oilaviy ovqatlanish uchun yig‘ilishadi. An’anaga ko‘ra, guruch alohida maxsus likopchalarga joylanadi, shuningdek, har bir maxsus taom uchun xos idishlari mavjud. Shunisi e’tiborga loyiqki, koreys xalqi Yaponiya va Xitoyda qo‘llaniladigan yog‘och tayoqchalardan emas, balki metall tayoqlardan foydalanadilar. Bunday qayta foydalanish mumkin bo‘lgan tayoqchalar ko‘pincha oziq-ovqat bo‘laklarini olishni osonlashtirish uchun ushbu maxsus tayoqchalarning uch qismi ilgakli bo‘ladi. Koreyada har ovqatlanish vaqtida yangi taom pishirish odat emas. Pishirilgan ovqat ikki yoki uch kun davomida ham iste’mol qilinishi mumkin. Koreys xalqi kamdan-kam hollarda yolg‘iz ovqatlanadilar. Koreyslar qahvani xush ko‘radilar, choyni esa kam iste’mol qiladilar.

Demak, biron bir xalqning o‘ziga xosligini o‘rganish uchun uning nafaqat tarixi, tili, dini kabi ko‘zga ko‘ringan madaniyatini o‘rganish, balki ovqatlanish, taom tayyorlash kabi kichik an’analari orqali ham tanlangan mamlakatni tadqiq qila olish imkonini beradi. Taom tayyorlash va ovqatlanish xalqning jipsligini, hamjihatligini va hatto til xususiyatlarini ham ifodalashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Cho, Sungdai; Whitman, John Korean: A Linguistic Introduction. Cambridge University Press, 2000. ISBN 978-0-521-51485-9
2. Kim, Jong-Rok. A Historical, Literary and Cultural Approach to the Korean Language. Seoul, 2000.
3. uz.m.wikipedi.org
4. https://valenteshop.ru/uz/kakoe-nacionalnoe-blyudo-v-koree-koreiskaya-kuhnya-osobennosti/

O‘ZBEK MILLIY HUNARMANDCHILIGIDAGI IJTIMOIY MUNOSABATLAR VA AN’ANALAR

Otabek PO‘LATOV
TDSHU, Sharq sivilizatsiyasi va tarixi fakulteti,
2-kurs magistranti, Tarix instituti kichik ilmiy xodimi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek milliy hunarmandchiligining an’analari, hunarmandchilik tashkilotlarining tashkil topishi, rivojlanishi, boshqaruv tizimi, hunarmandlar va aholi orasidagi o‘rni to‘g‘risida ma’lumot beriladi. Hunarmandchilik risolalari mazmuni, risolalarning hunarmandlar ish faoliyatidagi roli bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: hunarmand, kasaba uyushmasi, ulpagar, shogird, xalfa, risola, kalontar, bobo, pir.

Аннотация: В данной статье представлены сведения о традициях узбекских национальных ремесел, создании и развитии ремесленных организаций, системе управления, роли ремесленников и населения. Описано содержание ремесленных брошюр, роль брошюр в работе мастеров.

Ключевые слова: ремесленник, профсоюз, улпагар, подмастерье, халфа, рисалья, калонтар, бобо, пир.

Abstract: This article provides information about the traditions of Uzbek national crafts, the creation and development of craft organizations, the management system, the role of artisans and the population. The content of handicraft brochures, the role of brochures in the work of craftsmen are described.

Key words: craftsman, trade union, ulpagar, apprentice, halfa, risala,kalantar, baba, pir

Turkiston hududi uzoq vaqtlar mobaynida xalqlarning hunarmandchilikning yirik markazlaridan biri bo‘lib kelgan. Hunarmandlar turli hunarlarning uslublari, bezaklari, an’analarini yaratib, takomillashtirib, ularni o‘z shogirdlariga yetkazishgan. Markaziy Osiyoda hunar avloddan-avlodga o‘tgan

bo‘lsa-da, hunarmandchilikning rivojlanishida ustoz-shogird an’analari ham muhim ahamiyat kasb etgan. “O‘rta Osiyo xonliklarida odatda hunarmandlar muayyan bir tashkilotga birlashganlar, o‘zbek an’anaviy hunarmandchiligining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ma’lum bir soha hunarmandlarining muayyan ijtimoiy tashkilotga ega bo‘lishidadir. Bu tashkilotlar hunarmandlar manfaatini himoya qilish maqsadida tuzilgan. Bunday tashkilotlar mahalliy aholi orasida “kasaba” deb atalgan. Xiva xonligida esa bunday tashkilotlar a’zolari “ulpagarlar”, uyushma boshlig‘i esa “kalontar” deb atalgan”[1].

O‘rta Osiyo hududida hunarmandchilik qonun-qoidalari hunarmandlarning risolalarida o‘z aksini topgan. Risola arab tilidan “xat”, “nozil qilingan targ‘ibot”, “hunarmandchilikka bag‘ishlangan asar” ma’nolarini anglatadi. Risolalarda ma’lum bir hunarning tarixi, uning piri, marosimlari, shu hunarni egallamoqchi bo‘lgan shogirdlarga qo‘yiladigan talablar, usta-shogird munosabatlari haqida muhim ma’lumotlar mavjud.

Sadriddin Ayniy o‘z xotiralarida Buxorodagi hunarmandlarning risolalari haqida quyidagicha yozib qoldirgan: “Ruhoniylar har hunarning hunarmandlari uchun qonun-qoidalar yozib, uni “risola” deb ataganlar. Risolada har xil duolar yozilgan bo‘lib, hunarmand ish boshlash oldida, ish davomida va ish tamom bo‘lgach, shu duolarni o‘qishi lozim. Bundan tashqari, hunarmandning oqsoqol, ustoz va sohibkorlarga (korxona egalariga) munosabati ham shu risolada tayinlab qo‘yilgan bo‘ladi. Albatta bu munosabatlar oqsoqol, ustoz va ustaxona egalarining manfaatiga qaratilgan bo‘lib, hunarmandning zarariga xizmat qilardi. Hunarmandlarning qaysi biri risolada yozilgan qoidani buzsa, oqsoqolga “tartibsizlik” jarimasi to‘lashga majbur edi[2]”.

Risolalar insonda o‘zini kasbga munosib tutish madaniyatini, ustoz-shogird o‘rtasidagi hurmat munosabatlarini, kasbga sadoqat, to‘g‘riso‘zlik, halollik kabi fazilatlarni tarbiyalashda ahamiyati katta bo‘lgan. Har bir kasb-hunarning risolasi mavjud bo‘lib, ular orqali mazkur hunarning tarixi, pir-u murshidlari, mashhur ustalari haqida ma’lumotlarga ega bo‘lingan. Ustozning shogird tarbiyasiga javobgarligi, uni bir necha yil tarbiyalab, hunarning barcha sir-asrorini o‘rgatib, uning kelajagiga mas’ul shaxs ekanligini ko‘rsatadi. Ustoz shogirddan mazkur hunar risolasi ko‘rsatmalariga amal qilinishi va unda ta’qiqlangan gunoh, harom deb hisoblangan ishlardan uzoq bo‘lishni, kishilar bilan xushmuomala bo‘lishni, har bir ishni sidqidildan bajarishni talab qilgan. Hatto, risolalarda ushbu ko‘rsatmalarga amal qilinmasa, hunarmand risolani oyoq osti qilsa oxirati vayron bo‘lishi, qiyomat kuni yuzi qaro bo‘lishi, xudoning g‘azabiga uchrashi, xotinning ajrashishi lozimligi, ustoz tomonidan 18 darra urilishi kabi jazolar bilan tahdid qilingan. Bu esa risolalarda ko‘rsatilgandek, ustoz shogirdlik maktabida ta’lim va tarbiyaning hamohangligini isbotlaydi.

---

[1] To‘rayeva S.R. XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi yarmida xiva xonligi hunarmandchiligi tarixi -Tarix f.n. diss.- Toshkent, 2010, 123-bet.

[2] Sadriddin Ayniy. Asarlar. 6-jild. – T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965. – B.172.

Risola boshida Ollohga va uning payg‘ambarlariga hamd-u sanolar aytilgan. Shundan so‘ng Ollohning buyrug‘i bilan farishtalar Jabroil yoki Mikoilning risolada ko‘rsatilgan hunar sohasini Imom Ja’farga olib kelib, unga ushbu hunarni qanday qilib o‘rgatganligi haqida so‘z boradi. Imom Ja’fardan bu hunar kimlarga qoldirib ketilganligi va ulardan boshqa odamlarga qanday tarqalganligi rivoyatlar bilan bayon qilingan. Shundan so‘ng risolada ko‘rsatilgan urf-odat va an’analar haqida so‘z boradi. Ya’ni, hunarmandlar o‘z pirlarini doimo yodda tutishlari, pirlar ruhini shod qilish uchun qurbonliklar qilib turishlari, bo‘lmasa ular pirlar qarg‘ishiga qolishi bayon qilingan. Agar bu urf-odatlar bajarilmasa, ularni u dunyoda Olloh g‘azabi va do‘zax azobi kutayotganligi alohida uqtirib o‘tilgan.

Risolada hunarmandlar o‘z do‘konlarini toza-ozoda tutishi, o‘zini doimo poklab yurishi, ish davomida Qur’on suralarini aytib turishi, xaridor bilan yaxshi muomalada bo‘lish, mahsulotni sifatli qilib tayyorlash, usta va shogird munosabati, ilm ahli bilan hamsuhbat bo‘lish, toza vijdonli, sabr-toqatli va insofli bo‘lishi bayon qilingan. Hunarmandchilik ustaxonalari asosan mahalla-guzarlarda joylashgan bo‘lib, hunarmandlarning o‘zlari ham shu guzarlarda yashashgan[1]. O‘zaro aloqalar tufayli ular yaratgan asarlarda o‘zaro o‘xshashlik va yaqinliklar mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi. “Hunarmandlar o‘z ustaxonalarini “pirxona” deb atashgan va ularda o‘z hunarlarining pirlari yashaydi, deb hisoblashgan. Agar, ular ustaxonani ozoda saqlanmasa pir ustalardan ranjishi, ustaxonadan ketib qolishiga ishonishgan”[2].

Risolada bayon etilgan masalalardan tashqari, rivoyat va ibratli matnlardan ham shogirdlarni tarbiyalash maqsadida foydalanilgan. Shuningdek, risolada usta va shogird majburiyatlari ham belgilab qo‘yilgan bo‘lib: Unga ko‘ra usta o‘z shogirdiga shariat, tariqat ilmidan saboq berishi, uni tarbiyalashi, o‘z hunarini puxta o‘rgatishi lozim bo‘lgan bo‘lsa, shogird esa o‘z majburiyatiga ko‘ra ustozini hurmat qilishi, unga samimiy munosabatda bo‘lishi va ustaning ruxsatisiz ustaxonani tark etmasligi kerak bo‘lgan”[3].

Risolalardagi ma’lumotlarga ko‘ra Farg‘ona vodiysi qishloq temirchilari Dovud payg‘ambarni, to‘quvchilar Shish Nabini, ipakdo‘zlar Ayub payg‘ambarni, quruvchilar Ibrohim yoki Muhammad payg‘ambarni, duradgorlar Nuh payg‘ambarni, mahsido‘zlar hazrati Solihni, sartaroshlar Salmoni pokni o‘z pirlari sifatida tan oladilar. Risolalarda ko‘rsatilgan homiy-pirlar timsolini vodiy hunarmandlari shu hududda yashagan, dafn etilgan tarixiy shaxs sifatida e’tiqod qilganlar[4].

---

[1] Қадимги Кеш – Шахрисабз тарихидан лавҳалар. – Т., 1998. – Б. 172.

[2] Haruka Kikuta Venerating the *pir*: Patron saints of Muslim ceramists in Uzbekistan. Central Asian Survey, vol.36, 2017. – P.13.

[3] Атаджанова Д. Рисола – источник по изучению отдельных отраслей истории ремесла // O‘zbekiston tarixi. – T., 2005. №2. – С. 82.

[4] Антипина К. И. Особенности материальной культуры и прикладного искусство....– С. 137.

“Xiva xonligida ko‘pchilik risolalar turkiy nom bilan atalgan, risola so‘zi o‘rniga “rasmi”, “dasturi” atamalari qo‘llanilgan. Ayrim risolalar “tariqat” – usul, yo‘l, maslak, xatti-harakat shakli, so‘fiylik yo‘li sifatidagi ma’nosi bilan boshlansa, ayrimlari rasmi-rusumi”, “dasturi”, ya’ni qo‘llanmasi yoki “bimillahir rahmoniy-rahim” so‘zi bilan boshlangan. Jumladan, “Tariqai rasmi misgari” – misgarlar rasmi, “Temirchilarning dasturi” “Telpakdo‘zlarning rasm-rusmi”, “Tarozudo‘zlarning rasmi qoidasi”, “Tariqai rasmi-rusumi muzado‘z” – etikdo‘zlarning usul va rasm-rusumi, “Baqollarning bilan rasmi bul turur” kabi nomlar hunarmandlarning nizomi matni boshlangan”[1].

O‘rta Osiyo xonliklarida bir hunarni egallash uchun shogirdlikka tushmoqchi bo‘lgan o‘smirning ota-onasi ustaning oldiga borib, shartnoma imzolaganlar. Bu shartnomada shu hunar turini egallash uchun qancha vaqt ketishi aniq ko‘rsatilar edi. Shogirdlar 13-14 yoshdan boshlab hunar o‘rganishga kirishgan va usta maqomini olish uchun odatda 6 yil vaqt ketgan. Usta shogirdga hunar o‘rgatish jarayonida kundalik yumushlarida ham foydalangan. Shogird hunarni yaxshi o‘zlashtirgach, 6-8 yildan so‘ng ustozining fotiha olib, ustalik maqomiga erishgan. Biroq, “Xiva xonligida agar usta o‘z farzandiga hunarini o‘rgatsa, fotiha marosimisiz ham usta maqomini olishi mumkin bo‘lgan”[2].

O‘rta Osiyo xonliklarida “usta” maqomini berish marosimi juma kunlari o‘tkazilgan. Hunarmandchilik uyushmasining marosimga taklif etilgan a’zolari juma namozidan so‘ng, ustalik maqomini olish oluvchi hunarmandning uyiga borganlar. Shogird ularga ziyofat bergan. So‘ngra uyushma boshlig‘i yoki uyushma a’zolaridan biri “kamarbasta” marosimini o‘tkazgan. Fotiha marosimida ustoz va shogird bir-birlariga sovg‘a ulashishgan. Usta shogirdiga hunarmandchilikda kerak bo‘ladigan ish qurollarini hadya qilgan. Masalan, elakchilik hunarida ustoz shogirdiga o‘roq shaklidagi asboblar jamlanmasi, jiq, dos, cho‘kich kabi ish qurollarini hadya qilgan. Shogird beliga belbog‘ bog‘lanib, ustozi unga fotiha bergan. Bu shogirdga rasmiy tarzda ustalik maqomining berilishi hisoblangan.

“Buxoro xonligida ham barcha hunarmandchilik sohalarini birlashtirib turuvchi uyushma tuzilgan bo‘lib, unga bobo va oqsoqol boshchilik qilgan. Bobo lavozimidagi shaxs odatda xalq orasida yuqori mavqega ega bo‘lgan ustalar orasidan tanlab olingan”[3]. Bobo uyushma a’zolari yig‘ilishida saylanib, qozikalon tomonidan tasdiqlangan.

“Hunarmandchilik uyushmalari ustalar haq-huquqini himoya qilish, ularga har taraflama yordam ko‘rsatish, ular ustidan nazorat o‘rnatish maqsadida

---

[1] To’rayeva S.R. XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi yarmida xiva xonligi hunarmandchiligi tarixi –Tarix f.nom.diss.-Toshkent, 2010, 128-b.
[2] O‘sha asar. – B.124.
[3] Qilichev R.E. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshida Buxoro shahrida hunarmandchilik. Tarix fan.nom. diss... – Buxoro, 1997. – B. 124.

tuzilgan Tarixiy manbalar bunday tashkilotlar O‘rta Osiyoda X asrlardayoq paydo bo‘lganini ko‘rsatadi”[1].

Hunarmandchilik uyushmalari uyushma boshida bobo (kulolchilik, to‘qimachilik, nonvoychilik, otboqarlarda), oqsoqol yoki g‘olib (temirchilik, duradgorlik, ko‘nchilik va boshqalarda), ustakor ya’ni ustaxona egasi va uning farzandlari, qarindosh-urug‘lari, keyin xalfalar, shogirdlar tartibdagi hunarmandlar guruhidan tashkil topgan. Chetdan kelgan yollanma ishchilar “xalfa” deb nomlangan. Ularning shogirdlardan farqi shundaki, xalfalar asosan shogirdlikdan yuqori darajaga ko‘tarilgan usta hunarmandlar bo‘lib, o‘zlarining ustaxonalariga ega bo‘lmaganliklari uchun hunarmandchilik uyushmalarida yollanib ishlaganlar(ular deyarli o‘z ustalari qo‘lida mehnat qilgan) va ish haqi olishgan. Uning shogirddan yana bir farqi, u ancha erkin bo‘lgan, usta bilan kelishuvga muvofiq ish haqi olgan. Xalfa istagan paytida o‘z ustasidan ketib ishlashi va boshqa ustaga yollanishi mumkin edi. Biroq, ko‘plab xalfalar o‘z ustasidan bo‘nak olib, undan bir umrga qarz bo‘lib qolgan. Buxoroda bunday xalfalarni “xalfaye bo‘nak” deb atashgan. Shuningdek, bo‘nak olmasdan ishlovchi xalflar ham mavjud bo‘lib, ularni “xalfaye oriyat” deb atashgan. “Xalfaye oriyat”lar soni juda kam bo‘lib, ular “xalfaye bo‘nak”larga nisbatan ancha erkin bo‘lgan va ishga istagan payti kelib ketgan.Ko‘pgina “xalfayi bo‘nak”lar qarzdan qutilish uchun o‘zlariga shogird olib, unga hunarni o‘rgatish evaziga bo‘nakning bir qismini to‘lashi majburiyati qo‘yilgan. Natijada hali ishga kirishmagan shogird ham qarzdor bo‘lib qolgan. Barcha hunarlarda xalfalar bajaradigan ishlar o‘xshash bo‘lib, ular ustaning eng yaqin yordamchisi bo‘lgan. Temirchilikda xalfa usta bilan tengma-teng mehnat qilib, ko‘pincha sangdon ustiga qo‘yilgan buyumni usta bilan navbatma-navbat bolg‘alagan. Bunday xalfalar “cho‘qizchan” deb atalgan.

“XIX asr oxirida Buxoro shahri aholisini o‘z farzandlarini yakkaqo‘l ustalarga emas, balki yirik korxona egalari bo‘lgan ustakorlarga topshirganlar. Ustakorlar esa shogirdni xalfa-ustaga topshirganlar. Xalfa usta shogirdning mehnat mahsulidan manfaatdor bo‘lmaganligidan, uning shogirdlik muddatini cho‘zib o‘tirmagan. Shogirdning fotiha marosimiga ham xalfa-usta boshchilik qilgan”[2]. Xalfa –ustalar ko‘pincha ustakorlardan 500-1000 tangacha bo‘nak olishgan. U bu bo‘nakni qaytarib bermasdan hech qayerga keta olmagan. Usta-xalfalarni Buxoroda “devona bachcha” deb atashgan.

Shogird – biron-bir hunar sohibi bo‘lish uchun, shu hunar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan hunarmandga shogird tushgan shaxs. Ota-ona o‘z farzandini ma’lum bir kasb ustasi bo‘lgan hunarmand oldiga olib kelgan. Ustaga atab non, shirinlik, bo‘g‘irsoq, arzon chopon yoki mato qo‘yilgan dasturxon tuzatib, bolasi bilan usta huzuriga kelgan. Dasturxonni usta do‘koni ichiga yozib, undagi taomni

---

[1] История народов Узбекистана. – Т., 1950. – С. 224.

[2] Qilichev R.E. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshida Buxoro shahrida hunarmandchilik. Tarix fan.nom. diss... – Buxoro, 1997. – B. 130.

birgalikda baham ko‘rishgan. Usta bilan kelishilganidan so‘ng, “eti sizniki, suyagi bizniki” deb fotiha berilgan.

Xivada ham boshqa O‘rta Osiyo xonliklaridagi kabi hunarmandchilikning asosiy siymolari – ustoz, shogird, xalfalar edi. Hunarmandlarni tayyorlashga mas’ul bo‘lgan ustalar shogirdlarni muayyan vaqt davomida o‘z hunarlari sir-sinoatlari bilan tanishtirganlar. Shogird ayni vaqtda bevosita ishlab chiqarish jarayonida ustaga yordamchi sifatida ham faoliyat yuritgan.Shuningdek, Xiva hunarmandchiligida shogirdlar bilan bir qatorda har kuni yollanib ishlovchilar – “kunlikchilar” mehnatidan ham foydalanilgan.

Xulosa qilib aytganda, Turkiston hunarmandlari hayotida hunarmandchilik uyushmalari muhim ahamiyat kasb etgan. Ular Turkiston hududida hunarmandchilikning o‘ziga xos boshqaruv tizimi mavjudligini ko‘rsatadi. Bunday tashkilotlar hunarmandlar huquqlarini himoya qilish bilan birga, ular ustidan nazorat o‘rnatgan. Risolalar esa hunarmandlar uchun o‘ziga xos nizom vazifasini o‘tagan, ustoz-shogird o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga slogan. Risolalar hunarmandchilik an’analarida islomga xos belgilar bilan birga, unga zid bo‘lgan bir qancha odatlarni ham aks ettiradi. Bu esa Turkiston hunarmandlarining an’analari islomdan avvalgi davrlardan boshlab shakllanganligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Haruka Kikuta Venerating the *pir*: Patron saints of Muslim ceramists in Uzbekistan. Central Asian Survey, vol.36. 2017. – P.13.

2. Sadriddin Ayniy. Asarlar. 6-jild. – T.: Badiiy asarlar nashriyoti, 1965.

3. To‘rayeva S.R. XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonligi hunarmandchiligi tarixi. Tarix fan.n. diss… – Toshkent, 2010.

4. Антипина К. И. Особенности материальной культуры и прикладного искусство.

5. Атаджанова Д. Рисола – источник по изучению отдельных отраслей истории ремесла // O‘zbekiston

6. История народов Узбекистана. – Т., 1950.

7. Қадимги Кеш – Шахрисабз тарихидан лавҳалар. – Т.,1998.

8.Сухарева О.А. Бухара XIX начало XX вв. (позднефеодалный город и его население). – Москва: Наука,1966.

QADIMGI SHARQ FALSAFASI VA MADANIYATI

Nilufar RUSTAMQULOVA
TDSHU, Xitoyshunoslik fakulteti, Xitoy
Filologiyasi kafedrasi 2- kurs talabasi

Annotatsiya: Xitoy falsafasi va madaniyati biz bularni yanada yaqinroq tushunib olamiz. Ushbu maqolada, sharq mamlakatlari ichidan Xitoy mamlakati madaniyatida, ta'limotida va falsafasida hamda bir qancha jihatlaridan ajralib turishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Konfutsiylik, daosizm, moism, qonuniylik, xitoy san'ati, o'yma lak san'ati, yelpig'ich, musiqa va raqs.

Аннотация: Китайской философии и культуры, мы можем понять их более близко. в этой статье среди стран Востока страна Китай выделяется в нескольких аспектах, то есть в культуре, образовании и философии.

Ключевые слова: конфуцианство, даосизм, моизм, законничество, различные культуры, такие как музыка и танец, резной лак, китайский веер.

Abstract: Chinese philosophy and culture we can understand them more closely. in this article, among the countries of the east, the country of China is distinguished in several aspects, that is in culture, education and philosophy.

Key words: Confucianism, taosizm, mohism, legalism, different cultures such as music and dance, carved lacquer, chinese hand fan, chinese lantern.

Konfutsiylik, daosizm va buddizm qadimgi Xitoy jamiyatining "uchta ustuni" hisoblanadi. Falsafa va din sifatida ular nafaqat ma'naviyatga, balki hukumat, fan, san'at va ijtimoiy tuzilishga ham ta'sir ko'rsatdi. Garchi ularning o'ziga xos e'tiqodlari va ta'limotlari vaqti-vaqti bilan bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan bo'lsa-da, bir-biriga juda ko'p joy mavjud edi. Bitta an'anani egallab, boshqalarini siqib chiqarish o'rniga, uchta falsafa jamiyatga bir-biriga ta'sir qildi, bir-birini o'zgartirdi va ba'zan bir-biriga aralashdi. Ushbu uchta an'ana o'rtasidagi o'ziga xos o'zaro bog'liqlikni tushunish qadimgi Xitoy jamiyati, shuningdek, hozirgi zamon haqida ajoyib tushuncha beradi.[1]

Konfutsiylik

Haqiqiy dindan ko'ra falsafaga yaqinroq bo'lsa-da, konfutsiylik qadimgi xitoyliklar uchun hayot tarzi bo'lgan va u bugungi kunda Xitoy madaniyatiga ta'sir qilishda davom etmoqda. Konfutsiylik asoschisi Konfutsiy eramizdan avvalgi 551-479 yillarda yashagan. U faylasuf va siyosiy arbob bo'lib, an'anaviy xitoy tamoyillari raqobatlashayotgan siyosiy davlatlar ostida yomonlasha boshlagan bir davrda yashagan. U eski diniy amrlarni oldi va ularni ijtimoiy odatlar uchun ko'rsatmalarga aylantirdi. Uning ta'limoti qadimgi Xitoy hayotining barcha darajalari, oila a'zolari va jamoat sohasidagi o'zaro

[1] Umumiy ma'lumot. Yuli Liu, "Confucius", in Foundations of Philosophy and Ethics, Hodder Arnold.

munosabatlardan tortib, ta’lim standartlari va davlatlarni qanday boshqarish kerakligi haqida ko‘rsatmalar berdi. Konfutsiy hayotning har bir jabhasini odamlar va mavjudotlar o‘rtasidagi majburiyatlardan va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ifodalovchi marosimlardan iborat deb bilgan. Uning ta’limotlari insonparvarlikka, shu jumladan boshqalarga qanday munosabatda bo‘lishni xohlasangiz, shunday munosabatda bo‘lishga qaratilgan. Har bir inson o‘z burch va majburiyatlarini boshqalarga nisbatan hurmat va mehr bilan bajarsa, bundan kuchli davlat barpo bo‘ladi, deb o‘rgatgan. “Diniy marosimlar inson bajarishi kerak bo‘lgan barcha marosimlar bilan bir qatorda eslatib o‘tilgan bo‘lsa-da, Konfutsiy keyingi hayot, xudolar va ma’budalar yoki tasavvuf kabi ruhiy tashvishlarga e’tibor bermagan. Shuning uchun konfutsiylik ko‘pincha boshqa asosiy dinlar bilan birlashtirilgan bo‘lsa ham, din emas, balki falsafa hisoblanadi”[1].

Miloddan avvalgi 206 yildan boshlab Xan sulolasi davrida konfutsiylik hukmron siyosiy falsafaga aylandi. Milodiy 220 yilgacha Konfutsiy ta’limoti konservativ bo‘lganligi va odamlarga ijtimoiy tuzumdagi rolini saqlab qolishni talab qilganligi sababli, falsafa o‘sha paytdan boshlab status-kvoni saqlab qolish uchun davlat tomonidan ishlatilgan. Xitoyda jamiyatining tuzilishi va uning marosimlarga, oilaviy hurmat va majburiyatlarga, ajdodlarga sig‘inishga va o‘z-o‘zini tarbiyalashga qaratilganligi Konfutsiy va uning ta’limotidan katta ta’sir ko‘rsatmoqda.

Daosizm

Taosizm (shuningdek, daosizm deb ataladi) — taxminan ikki ming yil oldin, konfutsiylikdan keyin biroz rivojlangan Xitoy dini. Konfutsiylikdan farqli o‘laroq, daosizm asosan hayotning ma’naviy unsurlari, jumladan, olam tabiati bilan bog‘liq. Daosizmning asosiy prinsipi taxminan “Yo‘l” deb tarjima qilinadi, bu odamlar va dunyo o‘rtasida vujudga keladigan uyg‘un tabiiy tartib bo‘lib, daochilar erishishga intilishlari kerak. Koinotning Taoistik tuzilishida odamlar Taoni qabul qilishlari va unga bo‘ysunishlari va faqat tabiiy va Taoga mos keladigan narsalarni qilishlari kerak. Bu “harakat qilmaslik” deb tarjima qilingan “wu-wei” konsepsiyasidir, lekin haqiqatan ham dunyoning haqiqiy tabiati bilan borishni va istaklar uchun juda ko‘p harakat qilmaslikni anglatadi. Bu daosizmni konfutsiychilikka boshqa yo‘l bilan qarama-qarshi qo‘yadi va u insonparvarlik axloqi, hukumat va jamiyat bilan bog‘liq emas, bularning barchasi Taochilar odamlarning ixtirosi sifatida ko‘rishadi va Taoning bir qismi emas. Shu bilan birga, Taoistlar ham inson tanasi, ham ruhi uzoq umr ko‘rishga qiziqdilar. Tabiat bilan birlashish orqali ma’naviy o‘lmaslikka erishish Taosizm dinining muhim qismidir. Taoist va konfutsiy g‘oyalari bir-biriga mutlaqo zid emas, shuning uchun Xitoy jamiyati ikkala an’anadan tushunchalarni o‘zlashtira oldi. Daoizm adabiyot va san’atga ta’sir ko‘rsatdi, ammo Taosizmning eng katta ta’siri fanda

[1] Konfutsiylik din va falasfa. https://education.nationalgeographic.org/ resource/chinese-religions-and-philosophies/

edi. Taoistlar tabiiy elementlarga e'tibor qaratadilar va tabiiy dunyo qanday ishlashi Xitoy tibbiyotini yaratishga yordam berganligini kuzatishadi. Zamonaviy ilmiy uslubga o'xshab, "Taoistlar turli xil dorilarning odamlar va hayvonlarga qanday ta'sir qilishini tajribalar orqali kuzatdilar. Ularning insonning uzoq umr ko'rishini yaxshilash yo'lida olgan umumiy bilimlari sog'liqni saqlash faniga katta hissa qo'shdi"[1].

Buddizm

Buddizm qadimgi Xitoyning uchinchi asosiy e'tiqod tizimi edi. U Miloddan avvalgi VI asrda Hindistonda yashagan Budda deb ham ataladigan Siddxarta Gautama tomonidan asos solingan. Buddizm — shaxsiy rivojlanish va chuqur bilimga ega bo'lishga qaratilgan falsafa. Buddistlar meditatsiya, ruhiy o'rganish va amaliyot orqali ma'rifatga erishishga intilishadi. Ular reenkarnasyonga ishonishadi va hayot doimiy va azob-uqubat va noaniqlik bilan to'la. Tinchlikka erishish yo'li nirvanaga, inson azobidan tashqari quvonchli holatga erishishdir. Buddizmning turli jihatlariga turlicha urg'u beradigan ko'plab turli mazhablar mavjud. Ikki eng yirik mazhab — bu asosan janubiy Osiyoda tarqalgan Teravada buddizmi va Sharqiy Osiyoda, shu jumladan Xitoyda tarqalgan Mahayana buddizmi.

Hindistonda tashkil topganidan keyin buddizm Xitoyga tarqaldi va milodiy birinchi asrda mashhur bo'ldi. Buddizmning Xitoyda mashhur bo'lishining sabablaridan biri daosizm edi. Ba'zi Buddist amaliyotlari daosizmga o'xshardi va buddist rohiblar hind va xitoy xalqlari o'rtasidagi madaniy va til to'siqlarini yengib, xitoyliklarga Buddizmni tushuntirish uchun Taoizm tushunchalaridan foydalanadilar. "Buddizm, shuningdek, taoistlar ko'chirgan va o'zgartirgan institutsional tuzilishi bilan daoizmga ta'sir ko'rsatdi. Buddizm va daosizm o'rtasidagi raqobat ko'proq izdoshlar va katta hukumat ta'siriga ega bo'lish uchun paydo bo'ldi va bu raqobat ikkala dinning hayotiyligini oshirdi. Buddizm keng tarqalib borar ekan, uning tushunchalari daosizm va Konfutsiy g'oyalari bilan birlashib, qadimgi Xitoy jamiyati va hukumatining asosiga aylandi. Uning ta'siri Xitoy san'ati, me'morchiligi va adabiyotida yaqqol ko'rinadi"[2].

Konfutsiylik, daosizm va buddizm qadriyatlari va g'oyalari bugungi kunda ham Xitoy madaniyatida keng tarqalgan. Uchta an'ana o'rtasidagi tafovut va vaqti-vaqti bilan qarama-qarshiliklarga qaramay, qadimgi Xitoy jamiyati bu falsafalarning har biriga katta ahamiyatga ega bo'lgan va turli xil ta'limotlarni hayotning ko'plab sohalariga kiritilgan.

Moism

Moism — Qadimgi Xitoyda urishayotgan davlatlar davrida (miloddan avvalgi 479—221) avj olgan nufuzli falsafiy, ijtimoiy va diniy oqim. Moism o'z

---

[1] Konfutsiylik va daosizm falsafasi. Yuli Liu, "Confucius", in Foundations of Philosophy and Ethics, Hodder Arnold 2006 ISBN 0-340-90028-8, Kung Fu Tze (Confucius) (1998). Analects. By D. C. Lau translated. Penguin classic. ISBN 0-14-044348-7.

[2] Buddizm Xitoyda va Hindistonda chuqur bilimga qaratilgan falsafadir. https://plato.stanford.edu/entries/mohism/

nomini Mo Di yoki “Mozi” (“Usta Mo” fl. miloddan avvalgi 430-yil) ta’limotidan kelib chiqqan. Mozi va uning izdoshlari Xitoyda falsafiy munozaralar va shunga o‘xshash munozaralarni boshladilar. Ular an’anada birinchi bo‘lib, qadimgi Yunonistondagi Suqrot singari, obyektiv axloqiy me’yorlarni aniq, aks ettiruvchi izlanishda qatnashdilar va o‘z qarashlari uchun bosqichma-bosqich, qat’iy asosli dalillar keltirdilar, garchi ularning mulohazalari ba’zan sodda yoki xotirjam bo‘lsa ham, shubhali taxminlar bo‘yicha ular Xitoyning birinchi aniq axloqiy va siyosiy nazariyalarini shakllantirdilar va dunyodagi eng qadimgi oqibatlilik shaklini ilgari surdilar, bu jamoaviy inson farovonligining tarkibiy qismi sifatida qabul qilingan ko‘plab ichki ne’matlarga asoslangan juda murakkab versiya. Moistlar til va bilimning pragmatik, vakillik bo‘lmagan nazariyasini qo‘lladilar va o‘xshash argumentatsiyaning oddiy nazariyasini ishlab chiqdilar. Ular klassik Xitoy falsafiy nutqining ko‘pgina markaziy tushunchalari, taxminlari va masalalarini ifodalash va shakllantirishda asosiy rol o‘ynagan.

Maktabning keyingi bo‘limi (Moist qonunlari haqidagi yozuvda) murakkab semantik nazariyani, epistemologiyani, konsektivistik etikani, analogik fikrlash nazariyasini va mereologik ontologiyani shakllantirdi va geometriya, mexanika, optika va iqtisod kabi turli sohalarda tadqiqotlar olib bordi. Ular o‘zlarining semantikasi va oqibatlilik etikasi bilan ko‘tarilgan texnik muammolarni hal qildilar va mohist ta’limotlarini rivojlantiruvchi, ularni tanqidlardan himoya qiladigan va muxoliflarning qarashlarini rad etadigan qisqa, qat’iy dalillar to‘plamini yaratdilar.

Moistlarning fikriga ko‘ra, odamlar tabiiy ravishda o‘zlari to‘g‘ri deb hisoblagan narsalarni qilishga undaydilar va shuning uchun to‘g‘ri axloqiy tarbiya bilan odatda to‘g‘ri axloqiy me’yorlarga mos keladi. Ular axloqiy muammolarni hal qilish va harakatni rag‘batlantirish uchun muhokama qilish va ishontirish kuchiga qat’iy ishonadilar va axloqiy va siyosiy savollarning so‘rov orqali topilishi va himoyalanishi mumkin bo‘lgan obyektiv javoblari borligiga ishonishadi.

Musiqa va raqs

Musiqa va raqs Xitoyning dastlabki davrlarida chambarchas bog‘liq edi. Xitoy musiqasi Chjou sulolasi davridayoq (miloddan avvalgi 1122 — 256 yillar) yaxshi rivojlangan musiqa madaniyatini tasdiqlovchi hujjatlar va artefaktlar bilan Xitoy sivilizatsiyasining tongiga borib taqaladi. Qadimgi Xitoy matnlarida yozilgan Chjou sulolasining eng qadimgi musiqasi yayue deb nomlangan marosim musiqasini o‘z ichiga oladi va har bir parcha raqs bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Eng qadimgi yozma musiqalardan ba’zilari Konfutsiy davriga borib taqaladi.

Xitoy musiqasining birinchi yirik, yaxshi hujjatlashtirilgan gullashi Tang sulolasi davrida qinning (yetti torli uzilgan cholg‘u asbobi) ommalashishi orqali misol bo‘ldi, garchi bu asbob Xan sulolasidan oldin katta rol o‘ynaganligi ma’lum.

Xitoyda raqs ko‘plab zamonaviy va an’anaviy raqs janrlaridan tashkil topgan juda xilma-xil san’at turidir. Raqslar xalq raqslaridan opera va balet spektakllarigacha bo‘lgan keng doirani qamrab oladi va ommaviy bayramlar, marosimlar va marosimlarda qo‘llanilishi mumkin. Shuningdek, Xitoyda rasman tan olingan 56 etnik guruh mavjud va Xitoydagi har bir etnik ozchilik guruhining ham o‘z xalq raqslari bor. Bugungi kunda eng mashhur xitoy raqslari: Ajdaho raqsi va Arslon raqsi.

Yelpig‘ich

Xitoyning eng qadimgi ventilyatorlari miloddan avvalgi 2-asrga oid bir juft to‘qilgan bambuk, yog‘och yoki qog‘ozdan yasalgan yelpig‘ichlardir. Xitoycha “fan” (yán) harfi etimologik jihatdan tom ostidagi patlar rasmidan olingan. Muayyan maqom va jins fanning ma’lum bir turi bilan bog‘liq bo‘ladi. Song sulolasi davrida mashhur rassomlarga ko‘pincha muxlislarni rasm chizish topshirilgan. Xitoylik raqs muxlisi 7-asrda ishlab chiqilgan. Qo‘l harakati xitoycha shakli tutqichning uchiga o‘rnatilgan bir qator patlar edi. Keyingi asrlarda xitoylik she’rlar va to‘rt so‘zli idiomalar xitoy xattotlik qalamlari yordamida muxlislarni bezash uchun ishlatilgan. Qadimgi Xitoyda muxlislar turli shakl va shakllarda (masalan, barg, tasvirlar yoki yarim oy shaklida) bo‘lgan va ipak, bambuk, patlar va boshqalar kabi turli xil materiallardan yasalgan.[1]

O‘yma lak san’ati

O‘yma lak yoki Qīdiāo 弃掉 (xitoycha: hàngín) — bezatilgan lak buyumlarining o‘ziga xos xitoy shakli. Xitoyda lak kamida 3000 yildan beri qo‘llanilgan bo‘lsa-da, uni juda qalin qoplamalarga o‘yib o‘yish usuli milodiy 12-asrda ishlab chiqilgan. Uni ishlab chiqarish juda ko‘p vaqt talab qiladi va har doim hashamatli mahsulot bo‘lib kelgan, asosan Xitoy bilan cheklangan, garchi biroz boshqacha uslublarda yapon lakiga taqlid qilingan. Ishlab chiqarish jarayoni Diaoqī 掉漆 (yāoqī, o‘yma lak) deb ataladi. Saqlanib qolgan misollarning aksariyati Ming va Qing sulolalariga tegishli bo‘lsa-da, o‘ymakorlik buyumlarining asosiy turlari Song sulolasi davrida boshlangan va bu ikkalasining ham rivojlanishi va o‘ymakorlik texnikasi asosan Ming davrida tugatilgan. Bu turlar mavhum guri yoki Qilich-pommel naqshlari, landshaftdagi figuralar, qushlar va o‘simliklar edi. Bularga diniy ramzlar, hayvonlar, xayrli belgilar (o‘ngda) va imperator ajdaholari bilan ba’zi dizaynlarni qo‘shish mumkin. Texnikada qilingan obyektlar kichik turdagi keng doiradagi, lekin asosan amaliy idishlar yoki qutilar, plastinkalar va tovoqlar kabi konteynerlardir. Ba’zi ekranlar va xitoy mebellarining qismlari ishlab chiqarilgan. O‘yilgan lak kamdan-kam hollarda lakda bo‘yash va boshqa lak texnikasi bilan birlashtiriladi.[2]

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish kerakki, Xitoy davlatining madaniyati va falsafasi o‘zgacha desak ham bo‘ladi. Chunki, Xitoy mamlakatining madaniyatini

---

[1] Xitoyda yelpig‘ich, musiqa va raqs sa’nati . http://www.aboutdecorativestyle.com/articles/history_fans.htm

[2] O‘yma lak sa’nati. http://www.hand-fan.org/chinese_hand_fans.html

va falsafasini o‘rganayotgan paytda ko‘zimiz har bir satrga tushadi va bizda qiziqishni uyg‘otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://archive.org/details/bub
2. http://www.hand-fan.org/chinese_hand_fans.html
3. http://www.aboutdecorativestyle.com/articles/history_fans.htm
4.https://education.nationalgeographic.org/resource/chinese-religions-and-philosophies/
5. https://plato.stanford.edu/entries/mohism/
6. Other Internet Resources “Lecture notes on Probability and Induction”, lecture notes by Branden Fitelson for a course at University of California, Berkeley, 2008.
7.World Civilization: The Adventures of Man: From the Late 1600s, Richard Greaves. – P. 176.
8. Yuli Liu, “Confucius”, in Foundations of Philosophy and Ethics, Hodder Arnold 2006 ISBN 0-340-90028-8
9. Kung Fu Tze (Confucius) (1998). Analects. By D. C. Lau translated. Penguin classic. ISBN 0-14-044348-7. – P. 60.
10.Great Thinkers of the Eastern World, edited an McGreal Harper Collins, 1995. ISBN 006270085.
11. Ebrey, Patricia (2010). The Cambridge Illustrated History of China. Cambridge University Press. – P. 42
12. lin, Liang-Hun; Ho, Yu-Ling (2009). “Confucian dynamism, culture and moral changes in Chinese society — China, Taiwan and A Comparative Study of Hong Kong”. Human Resource Management International magazine. 20 (11): 2402-2417. Doi

ABDURAUF FITRATNING “JOHILONA TAASSUBG‘A MISOL” MAQOLASINING MA’NAVIY-MA’RIFIY TAHLILI

Dilora TURSUNALIYEVA
TDSHU, Sharq sivilizatsiyasi va tarix fakulteti
4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ona zaminimizda yetishib chiqqan ajdodlarimizni chuqurroq o‘rganish va ilmiy merosini davom ettirish, ularga munosib avlod bo‘lish. Shu jumladan, Abdurauf Fitratning ham ma’naviy merosini tadqiq qilish va uning asarlaridagi tarbiya, axloq, yaxshilik kabi insoniy xislatlarning hozirgi kundagi ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Abdurauf Fitrat, jadidchilik harakati, taassub, tarbiya, axloq, ma’naviy meros.

Аннотация: Глубже изучить наших предков, выросших на нашей Родине, и продолжить их научное, стать, достойным поколением. Анализируется духовное наследие Абдурауфа Фитрата и современное значение в его произведениях таких человеческих качеств, как образованность, нравственность и добро.

Ключевые слова: Абдурауф Фитрат, движение сопротивления, фанатизм, воспитание, этика, уважение к духовному наследию.

Abstract: To study more deeply our ancestors who grew uo in our homeland and to continue their scientific heritage, to become a worthy generation. The spiritual heritage of Abdurauf Fitrat and the modern significance in his works of such human qualities as education, morality and goodness are analyzed.

Key words: Abdurauf Fitrat, life and career, resistance movement, bigotry, education, ethics, spiritual heritage.

Qadimdan butun dunyoga beshik bo‘lgan bu ona diyorimizda dunyoni titratgan buyuk daholar birga o‘lkamizni vayron qilishda o‘z hissalarni qo‘shgan ba’zi insonlarni ham o‘z bag‘rida voyaga yetkazdi. Haa,albatta bu ko‘hna zaminimizda o‘z yurtini sevganlar, vatani uchun jonini fido qilganlar va afsuski,o‘z yurtini shirin joni uchun sotganlar ham chiqqan. Kamtarona hissalari tufayli qanchadan-qancha ziyolilar nohaq o‘limga hukm qilindi, bu esa vatanimizning zavoli uchun qo‘shimcha yordam bo‘ldi. Ammo vatanni uyg‘otish uchun, yoshlarni ilmli qilish uchun kuchlar bor edi. Bu ziyoli qatlam ham og‘ir zulmlar, tashviqotlarga qaramay olg‘a bordi va o‘sha paytda mevasini bermagan hosil biroz vaqtdan so‘ng o‘z mevasini berdi. XX asrda uyqudan bosh ko‘tarmagan xalqni ko‘zlarini ochish, zulmga qarshi bosh ko‘tarish,vatanni o‘sha paytdagi texnikalar bilan tanishtirish va foydalantirish kabi ustuvor vazifalar bosh maqsad edi. Ko‘zlangan maqsad ba’zilari amalga oshdi qolganlari ushalmas orzuga aylandi. Lekin ularning o‘sha paytda qilgan sa’y-harakatlari kelajak uchun o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi.

Ma’rifatchilik harakatlaridan so‘ng milliy-ma’naviy uyg‘onish harakati-jadidchilik vujudga kelib,xalqni qayta jonlantirdi.Bir qator yetuk namoyondalar bu harakatni ilgari surib, oz bo‘lsa-da natijalarga erishishdi. Shunday ziyoli insonlardan biri- Abdurauf Fitrat. U 1886-yil Buxoro shahrida ziyoli oilada tavallud topgan. Fitrat - Abduraufning taxallusi bo‘lib, “tug‘ma iste’dod” ma’nosini beradi. O‘zbek tarixchisi, filolog, tarjimon, yozuvchi, dramaturg va shoir, zamonaviy o‘zbek tili va adabiyoti asoschilaridan biri. O‘zining aytishicha, avval jadidlar harakatiga qarshilik qildi, keyin uning mohiyatini anglab yetgach, bu harakatga qo‘shildi, hatto ashaddiy targ‘ibotchilaridan biriga aylandi. Turkiyada tahsil olganligi bois “Yosh turklar” harakatidan ilhomlanib, Buxoroda “Yosh buxoroliklar” partiyasini tuzadi va uning ma’naviy rahnamosiga aylanadi. Fitrat Toshkentga kelib avvaldan rejalashtirilgan “chig‘atoy gurungi” tashkilotini tuzishga kirishadi. Fitratning o‘zi bu tashkilot faoliyati haqida shunday ma’lumot

beradi: “Turk tillarini, turk adabiyotini birlashtirish shiori ostida ish ko‘rildi. Maktablarda usmoniyli tili,usmonli adabiyoti ona tili darslari o‘rnida qabul qilindi. Mana shu harakatga qarshi…” “Chig‘atoy gurungi” tashkil qilindi”. Bunday so‘zlardan seziladiki, “Chig‘atoy gurungi” “panturkizm” (umumturkchilik) g‘oyalari emas, balki o‘zbek tili, adabiyoti, tarixi va san’ati masalalariga ko‘proq e’tibor bergan. Tashkilotning asosiy maqsadlaridan biri arab imlosi isloh qilib, o‘zbek tilining tovush xususiyatlariga mos keladigan yangi yozuv tizimi yaratish edi”[1].

Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrim Ismoilbek Gasprinskiy rahbarligida qrim-tatarlar o‘rtasida vujudga keldi.

Jadidchilik harakati namoyandalari ko‘pincha o‘zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O‘sha davrning ilg‘or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyat e’tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag‘lubiyatga uchrash davrlari bo‘lib, ularni shartli ravishda to‘rtga bo‘lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895-1905; 1906-1916; 1917-1920; 1921—1929-yillarni o‘z ichiga oladi[2].

Birinchi davrda Turkistonda podsho Rossiyasining mustahkam o‘rnashib olishi kuzatiladi. U o‘z siyosiy agentlari (vakillari) yordamida mahalliy xon va amir vakolatlarini cheklabgina qolmay, ularni qo‘g‘irchoqqa aylantirib, rus va g‘arb sarmoyadorlarining ishlashi va yashashi uchun sharoit yaratadi, turli kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatlari manfaatini ko‘zlaydi. Ayni chog‘da mahalliy aholining talab va ehtiyojlari nazarga olinmay qo‘yildi, diniy e’tiqodlari, urf-odatlari bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslik kuchaydi. Hayotiy, ilmiy saviyasi yuqori bo‘lgan qozilar tajribasiz kishilar bilan almashtirildi, poraxo‘rlik, ijtimoiy-siyosiy adolatsizlik avj oldi. Madrasa va maktablar faoliyatini cheklash, mahalliy joy nomlarini ruscha atamalar bilan almashtirish, hatto mahkama jarayonida qozilar bo‘yniga xoch taqtirishgacha borildi.

Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va o‘z vatanlarini mustaqil ko‘rishni orzu qildilar va shu yo‘lda kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo‘nalishlar ustuvor edi:yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish; turli ma’rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish. Jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi.

Buxorodagi jadidchilik Turkistondagiga nisbatan og‘ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda yuzaga keldi. Uning tarkibi asosan Buxorodagi shahar aholisining

---

[1] Jadidlar// Abdurauf Fitrat. –Toshkent. 2022. – B. 8.
[2] https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Jadidchilik

taraqqiyparvar qismi: ziyolilar, mullavachchalar, mayda do‘kondorlar va ma’murlar, hunarmandlar, savdogarlardan iborat edi. Jadidlarning dehqonlar va askarlar o‘rtasida nufuzi avvaliga past bo‘lgan. Jadidlar iqtisod va boshqaruv sohasida bir qator talablar, chunonchi, soliqlarni kamaytirish talabi bilan chiqishdi. Ular dastlab Buxorodagi amirlik tuzumi doirasida islohotlar joriy qilmoqchi bo‘lishdi. Buxoroda vobkentlik dehqon Jo‘raboy ilk yangi usul maktabini ochgan edi.

Ko‘z oldida bo‘layotgan voqealarga befarq qaray olmagan Fitrat o‘z asarlari, she’rlari, maqolalari orqali xalqning dardini madh etadi. Shunday vatanda bo‘layotgan voqealarni aks ettiruvchi “Johilona taassubg‘a misol” maqolasini namuna qilish mumkin. Dastavval taassub so‘ziga to‘xtaladigan bo‘lsak, “biror narsa yoki g‘oyaga behad berilish, ko‘r-ko‘rona ergashish; biror kimsa yoki narsaga taqlid qilish,ergashish” degan ma’nolarni anglatadi.

“Buxoro shahrining o‘ramlarina ushbu mazmunda bir e’lon yopishrilg‘an edi: “Yangi chiqg‘an jadidlar bolalarimizning e’tiqodlarini buzalar, munlar hunarlarinda hech kim bolasini o‘qutmasin, o‘qutsa shul kishini o‘ldirajakmiz, jadidlar jiblashuv o‘lturmasunlar, agarda jivlashuv o‘tursalar, biz onlarning boshlarini kesarmiz, jadidlar namoz birla ro‘zani, zakotni o‘tamaylar, munlar kofirlar, qonlari halol”(Bu e’lonla bir hadisda yozilg‘an)” [1].

O‘sha paytdagi Buxoro devorlariga osilgan e’lonlaridan biri hisoblanib, jadidlar harakati xalq orasida keng yoyila boshlagan so‘ng buni ko‘ra olmaydigan kishilar xalqni zaharlash orqali ushbu e’lonni yozib, jadidlarni qoralashga tushganlar. Yosh avlodni tarbiyalashni ustuvor vazifa qilib olgan harakat vakillariga otilgan toshlarni yuqoridagi so‘zlar orqali ham bilib olishimiz mumkin.

“Boshqa mamlakatlarda munday ma’nosiz, imlosi buzuq, ahmoqliq alomati bo‘lg‘an e’lonlar, yozuvlarning ahamiyatlari bo‘lmasada, Buxoro kabi o‘rinda afkori umumiyaning mundan mutaassir bo‘luvi mumkin.Shul sababli munday johilona taassubg‘a qarshi iltifot etmay qoluv bizning uchun mumkin tugul”.[2]

Bilamizki, XX asr texnika-texnologiya davri bo‘lib, boshqa davlatlar bunday imkoniyatlardan foydalanib rivojlanayotgan bir paytda, bizning o‘lkada rivojlanishga to‘siq kuchlar borligi ajablanarli holat edi. Taraqqiyot ilgarilab borayotgan davlatlarda bunday voqealarga e’tibor bermasdan,asosiy diqqatlari xalqni rivojlantirish bo‘lgan bo‘lsa,nafaqat Buxoroda balki butun Turkiston zaminida bu taraqqiyotga qarshilar talaygina ekanligi yuqoridagi jumlalardan ham ma’lum. Shuning uchun ham Fitrat bu voqealarga befarq qaramay: “Yozuv yoza bilmay turib, shu shiy e’lon yozuvlarig‘a “jadid”larning maslaklari nindi narsadan iborat ekanligini bildirurg‘a hojat bor”,- deya o‘z fikrlarini bayon etadi.

“Buxorolilarning tijorat, axloq va ilm, sanoat va hunar, maishat jihatlarinda butunlay ortda qolg‘anliqlarini “e’lon” yozuchilar bilmasalarda, boshqalar

[1]https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/manaviyat-yulduzlari/mahmudhuja-behbudiy-1875-1919/
[2] https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/manaviyat-yulduzlari/mahmudhuja-behbudiy-1875-1919/

bilarlar. Tijorat maydonlarinda, tahsil madrasalarinda, axloq to‘g‘ivlarinda o‘z ishlarining qoidasini va zibarini bir yahudiy qadar biluvchi ongli kishimiz yo‘q. Dunyoning telefon va telegrof hamda temur yo‘llar kabi fanniy mo‘jizalarini ko‘rub-da shunlarning sirlarini o‘rganurg‘a tirishuvi odamimiz yo‘q. Hatto madrasalarimizdan chiqub-da bir jamoatning kofirligini e’lon etuvchilarimiz-da durust yoza bilmaylar”.[1]

Bu jumlalardan aniqki, xalq o‘sha davrdagi ilmlardan ortda qolgan, taraqqiyot tushunchasidan bexabar ammo bu kamchiliklarni bilishsa-da bosh ko‘tara olmaydigan insonlar edi. Hattoki, insonlarni qoralovchilarning ham yozuvda oqsoqligi va boshqa bir qator bunday muammolarning markazda ekanligidan xalqimizning ayanchli ahvolda ekanligi ma’lumdir.

“Shu holni yaratub, bundan rizo bo‘lub turuchi birg‘ina musulmonda bo‘lmasa kerak. Mana shu shiy ravishda bo‘lg‘an ijtimoiy xastaliklarimizg‘a davo izlovchilar “ jadidlar”lardir.

Jadidlar “millatimiz, xalqimizning bu darajada tuban qoluvlarini, shu shiy martabada yomon kunlarg‘a tushularini nodonlig‘lari sabab bo‘ldi, bizning uchun o‘quv, ilm va ma’rifatg‘a yopishuv(imiz) lozim. Vatanimiz, mamlakatimiz va millatimiz ilm nuri birla yoqtursun, din ham dunyo ilmlari birla jihozlansun. Bu hol endi bizning uchun farz bo‘ldi, eski maktablarda sakkiz yillar o‘qub-da. Eron xalqtarining ichkilik va ishq kabi safohatlarindan iborat bo‘lg‘an adabiyotdan boshqani bilmovchi bolalarimiz yangi maktablarga kirub din ham dunyo uchun foyda beraturg‘an lozim narsalarni o‘qisunlar, hisob va yozuv bilsunlar, to‘rt gurli fan o‘qir uchun madrasalarimizda o‘n sakkiz yil yotuvi shogirdlarimiz o‘n ikki yil madrasani-da tamom shartina yetishdurub o‘n besh fan o‘rgansunlar, madrasadan chiqub-da boshqalarni akfor qilush tugul, balki musulmon qilib e’lon yozuchidarimizning imlolarini kishi kuldurmak darajada buzuq bo‘lmasun, savdolarimiz hunar va sanoatimiz, ekunchilik ishlarimiz bukungi kabi zabun holda turmasun, balki tuzalsun yaxshilansun!”deylar. Muni “jadid”lar shuytib ravishda so‘ylaylar va shu shiy yo‘lda yuriylar”.[2]

Yuqoridagi jumlalardan aniqki, xalq o‘z nodonligi sababli boshlarning hiylariga asir bo‘lgan. Fitratning o‘zi ham: “Bas, bu qadar g‘aflat va tanballik, bexabarlik va johillikda o‘tirganimiz. Bu dini mubinimizning nobud bo‘lishini, bu muqaddas vatanimizning poymol etilishini kamoli sharafsizliq bilan qabul qilganimizni na shariat qabul qiladi, na tariqat?”, -deydi.

“Ushbu maqsadlarimizg‘a erishur uchun biz “jadid”lar Buxoroda maktablar ochdiq, lekin Buxoro hukumati neqdi falsafag‘a ko‘radur bizning maktablarimizning davomini musoada qilmadi, yashatmadi. Shul kunday berli biz maktabsiz qolduq.

[1] https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/manaviyat-yulduzlari/mahmudhuja-behbudiy-1875-1919/
[2] https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/manaviyat-yulduzlari/mahmudhuja-behbudiy-1875-1919/

Mundan so‘ng: “Maktab yo‘li birla bo‘lmasa boshqa bir yo‘l birla tirishub qarayliq!” deb tijorat yo‘lina kirdik va Buxoro hukumatidan ruxsat olub bir kitobchiluk shirkati va bir qo‘moch narsasi shirkati tuzuvdik.

Kitobxonamizda gazit va jurnallar birla birlikta hadis va tafsir hamda dars kitoblari kelturub eski madrasatarning shogirdlarika uch yuz haq birla dars kitoblari sotdiramiz. Qo‘moch shirkati dahi yuz mollarini uch yuz baho birla sotub foydasini(ng) ko‘bisi “jadid” bo‘lmag‘an shirkatlar orasinda taqsim eto‘b turadir.Demak,bizning istihodimizdan “jadid” bo‘lmag‘an va “jadid”larni yarotmay turg‘an odamlar foydalanarlar.

Endi “jadid”lik maslakinda bo‘dg‘anlarning o‘z hollarini-da bir oz ta’ruf qilaylik:

Bu “jadid”larning ko‘braklari eski madrasalarda,darslarini eng yaxshi ravishda tamom etuchilar bo‘lub oralarinda bu kunda zo‘r mudarrislar va olimlar bor. Munlar tafsir va hadis darslari o‘qutalar, o‘qutmag‘anlarida dars o‘qituv lozim bo‘lg‘anda o‘qituvg‘a mahtaddirlar. Munlar yuzlar birla hadisi shariflarini xatosiz yodlag‘anlar va durust onglaylar. Endi Payg‘ambardan rivoyat etilaturg‘an bir hadisni-da durust yoza bilmag‘an, imlo hunarindan-da mahrum odamlar chiqsunlar-da shu shunday odamlarni akfor etsunlar, akfor birlagina qanoat etmay, qonlari halol bo‘lib birla fatvo bersunlar. Shu shiymi insof? Bumi musulmonliq? Qur’oni karim musulmonlig‘ni da’vo qilib salom beruchilarni akfor qiludan man etadir. Musulmonlarni akfor qiluchilar bilsularki, “Musulmon kishilarini akfor qiluchilar agarda shul kishi kofir bo‘lmasa, o‘zlari kofir bo‘lurlar” mazmunida hadisi shariflar Buxoriy birla Muslim sahihlarinda bor.

E’lonchi afandilar, fitna qo‘zg‘atuchi o‘rninda Qur’on birla Hadis o‘qub shunday oliy so‘zlarni o‘rgansalar va bilg‘an narsalarini durust yozarg‘a tirishsalar yaxshiroq va musulmoncharoq bo‘lur edi.

Bu maqolani yozuvimiz o‘limdan qo‘rquvdan tugul. Biz o‘limdan qo‘rqmaymiz. Haq yo‘lda o‘ldiriluv va o‘luv botilliq uzrinda yashovdan yaxshiroq. Xayrliroq. Biz muni Qur’oni karimda o‘qub shung‘a ayon keturganmiz. Balki muni yozuvdan maqsadimiz buxorolilarni insofg‘a da’vat etuv hamda hukumatimizning diqqatini jalb qiluvdir. Hukumatimiz munday mas’aladan sukut etmasun, balki bu ishni taftish va tadqiq qilsun edi. Agarda ayb bizda bo‘lsa, tegishli jazoni bersun, yo‘qsa shunday e’lon yozuchilarni topub maydong‘a chiqarsun. “Onlarg‘a tegishli jazo bersun edi” demaymiz. Jazo bermasun, balki tanbeh va nasihat qilsun.[1]

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, bu ma’rifatchilik harakati o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini hammasini amalga oshira olmagan bo‘lsa-da, ammo ko‘zlagan maqsadiga erishdi. Xalqni ilm-ma’rifatli qilish yo‘lidagi bu fikrlar mushtarakligi o‘z tasdig‘ini yillar o‘tgandan so‘ngra mevasini berdi. Bu harakatning ta’siri ostida ko‘plab davlatlar o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritdi.

[1] https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/manaviyat-yulduzlari/mahmudhuja-behbudiy-1875-1919/.

Garchand, bu harakat vakillari o‘z vaqtida turli qarama-qarshiliklar ostida qolgan bo‘lsa-da,istiqloldan bu insonlarga bo‘lgan e’tibor kuchaydi.

Fitrat xalqni uyg‘otish va yoshlarni bilimli qilish yo‘lida anchagina ter to‘kkanini balki bu yo‘lda qo‘lidan kelgan barcha imkoniyatlarni ishga solganligini guvohi bo‘ldik. Jadidchilik- nafaqat ilm-ma’rifat harakat balki bu mustaqillikka erishishimizning dastlabki nishonasi hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Jadidlar” Abdurauf Fitrat. Toshkent-2022
2. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Jadidchilik
3. https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/manaviyat-yulduzlari/mahmudhuja-behbudiy-1875-1919/

NAVOIY IJODIDA TASAVVUFIY G‘OYALAR

Yulduz G‘ANIYEVA
TDSHU, Sharq sivilizatsiyasi va tarix fakulteti
falsafa yo‘nalishi, 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasavvuf va badiiy ijod uyg‘unligi buyuk mutafakkir, shoir Alisher Navoiy misolida tahlil qilinadi. Navoiy ijodida tasavvufning o‘rni haqida mulohazalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Tasavvuf, Alisher Navoiy, islom dini, she’riyat, ilohiy ishq, timsol, badiiy ijod.

Аннотация: В данной статье сочетание суфизма и художественного творчества анализируется на примере великого мыслителя, поэта Алишера Навои. Делаются комментарии о роли суфизма в творчестве Навои.

Ключевые слова: Суфизм, Алишер Навои, исламская религия, поезия, божественная любов, символ, художественное творчество.

Abstract: In this article, Sufism and artistic creativity are well combined is analyzed on the example of thinker, poet Alisher Navoi. In the works of Navoi comments are made about the palace of sufism.

Key words: Sufism, Alisher Navoi, islamic religion, poetry, divine love, symbol, artistic creation.

Tasavvuf musulmon sharqida ma’naviy-ruhiy zarurat, hissiy izlanishlar ehtiyojiga javob tariqasida shakllanganligi sababli u madaniy va ma’naviy hayotni keng qamrab oldi, hamda insonning aqliy hamda ijodiy faoliyatiga katta ta’sir o‘tkazdi. Mafkuraviy demokratiyaga ruxsat berganligi, jaholatga, zulmga qarshi harakat qilganligi, insonparvarlik g‘oyalariga e’tibor qaratilganligi uchun ham ijod ahliga yaqin turadi. Mana shu sabablarga ko‘ra tasavvuf musulmon kishilari hayotida ajralmas o‘ringa ega bo‘ldi va ularning ijodida, badiiy

adabiyotida o‘ziga xos yo‘nalish sifatida yuzaga keldi. Ushbu ta’limot ilm-fan rivojiga ham ta’sir o‘tkazdi. Ayniqsa, o‘rta asr adabiy muhitiga tasavvufning ta’sirini sezish qiyin emas. Chunki, o‘rta asrda ijod qilgan fan arboblari, mutafakkirlar, shoirlarning o‘y fikrlari, tasavvufiy g‘oyalar bilan sug‘orilgan edi.

Atoqli olim Bertels o‘tgan asrning boshidayoq qayd etgan edi: “Tasavvuf adabiyotini o‘rganmasdan turib, o‘rta asrlar musulmon Sharqi madaniy hayoti haqida tasavvurga ega bo‘lish mumkin emas. Bu adabiyotdan xabardor bo‘lmasdan Sharqning o‘zini ham anglash mushkul”.[1]

Asarlarida insonparvarlik, futuvvat kabi qarashlarni kishilar ongiga yetkazib berishga harakat qilgan va amallari orqali targ‘ib etgan ijodkorlardan biri – Alisher Navoiydir. Uning asarlarida Ollohga bo‘lgan muhabbat ya’ni ilohiy ishq bosh mavzu sifatida kuylanadi. Navoiyning merosini o‘rganish orqali uning tasavvufga munosabatini bilish mumkin. Bundan tashqari asarlarida yetuk tasavvuf allomalari haqida ma’lumot berib, ularni yuksak salohiyat egalari sifatida baholaydi. Hazrat Navoiy tasavvufni “xilof ixtilofi bo‘lmagan, riyo, ta’ma, manmanlikni inkor etadigan bir ta’limotki, u insonning ziynatini poklovchi obihayotdir” deya ta’riflagan.

“Tasavvufda dini, irqi millatidan qat’i nazar, dunyo xalqlarini birlashtiradigan yagona ibodatgoh bor. Bu tasavvufiy hayotning bosh manbai-dil va ko‘ngil”[2] Bu haqiqatni o‘sha davrda anglagan kishilardan biri Nizomiddin Alisher Navoiydir. Uning bu kabi tasavvufiy qarashlarni sezish mumkin. Devonlaridagi hamd va na’tlar, so‘fiylik ruhida yozilgan she’rlari so‘fiylik ilmini o‘rganish uchun, shuningdek, bunga Navoiyning munosabatini bilish uchun ham qimmatli manbadir.

Tasavvufning aynan sharqda keng tarqalganining asosiy sabablaridan biri bu zaminda fors va turk tillarida buyuk bir she’riyat yaratilgandir. Uning soflik, adolat, haqiqat timsoli, mutlaq ilohga muhabbat zavqi adabiyot ahliga katta ta’sir o‘tkazdi.

Navoiy e’tiqod qo‘ygan falsafiy ta’limotga ko‘ra, olam azaliy va abadiy yagona Ruhning o‘z-o‘zini sevib, o‘z jamolini tomosha qilish istagidan paydo bo‘lgan ko‘zgudir. “Birlamchi qudrat porlashidan taralgan nur shu ko‘zguda aks etadi, ya’ni moddiy dunyoning jamiki maxluqot va mavjudot, zarradan quyoshgacha, yer-u ko‘k, sobit-u sayyora shu nur bilan yoritiladi, shu nur tufayli harakatlanadi, muayyan uyg‘unlik ichida rivojlanib turadi”[3].

Ilohiy tajallini shoirlar may obrazida ko‘rishgan. Bunga ko‘ra atrofdagi har qanday o‘zgarishlarni may ummonining mavjlanishi, ko‘pirishi deb tushuntirishadi. Inson ham ko‘zguning bir bo‘lagi hisoblansa-da, mutlaq Ruh eng ko‘p aks etgan xilqatdir. Shuningdek, u inson ruhining manbai bo‘lib, u doimo o‘z manbaiga qarab intiladi. O‘z manbaini sevadi va mana shu ishq tuyg‘usi hayotiy faoliyati, qobiliyatlari, ijodkorlik salohiyati, fazilatlari shu ishqning talqini deb qaraladi. Bu jarayonda tilga olingan ilohiy tajallini tasavvuf ichida shakllangan vahdat-ul vujud ta’limotiga to‘g‘ri keladi, deyish mumkin. Unga

---

[1] Najmiddin Komilov. Tasavvuf. – Toshkent: “Movorounnahr”, “O‘zbekiston”, 2009. – B.4.
[2] Ibrohim Haqqul. Navoiyga. 3-kitob. – Toshkent: “Tafakkur”, 2016. – B.101.
[3] Najmiddin Komilov. Tasavvuf. – Toshkent: “Movorounnahr”, “O‘zbekiston”, 2009. – B.150.

ko‘ra Haq taolo va tabiat uyg‘un, har bir narsada u mavjud, moddiy olam uning aksidir. Bu ta’limot Yevropada shakllangan panteizmga mos keladi.

Bu kabi ta’limotlarni va tasavvufiy qarashlarni ijodida yanada keng yoritadi. Navoiy ham o‘z she’riyatida tasavvufiy timsollardan keng foydalanadi, timsollar orqali inson botiniy va zohiriy dunyosi, komil inson fazilatlarini ifodalashga harakat qilgan. Bundan tashqari, uning tasavvufiy g‘oyalari nafaqat hayotiy faoliyati balki, uning ijodida ham asosiy o‘ringa ega. Jumladan, u o‘z tasavvufiy g‘oyalarida insonni ulug‘laydi. O‘sha davr uchun muhim bo‘lgan antropotsentrizm nazariyasini ilgari suradi

Navoiy asarlarida adabiy tafakkurga yetishish bir qancha qiyinchiliklarni bosib o‘tgandan so‘ng yuzaga chiqishi, haqiqatga inson yashab turgan zaminida yetishishi mumkin ekanligi haqidagi fikrlarni ilgari surdi. Uning dunyoqarashiga ko‘ra, inson go‘zallik ichida dunyoga keladi, bu holat uni o‘ziga jalb etib har bir voqelikdan Allohni sezish idrok qilish imkonini beradi. Inson uchun shu go‘zallik ham ishq, ham yor.

Topmoq ajib fikru taxayyul bila seni,
Etmak mahol aqlu farosat bila sanga.

Bu bayt orqali Alisher Navoiyning yaratuvchini bilish mumkin emasligini, uning sir-u sinoatlarini bilishga insonning qodir emasligini ifodalaydi.

Aytib o‘tilgandek, Alisher Navoiy ijodida timsollardan keng foydalanadi. Bularga misol tariqasida may, mayxona, xarobot, jom, hubob, soqiy, foniy, navoni keltirish mumkin. Bu kabi timsollarni majoziy ma’noda qo‘llab, olam to‘g‘risida, inson kamoloti bosqichlari, haqqa yetishish, dunyoning o‘tkinchi ekanligini asarlarida ta’riflaydi.

Navoiy yoshlik chog‘laridanoq tasavvufiy g‘oyalar bilan sug‘orilgan Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” asarini yod oladi. Aynan bu holat ham uning tasavvufga nisbatan mehri oshishiga, uni ustozi talqinida tushunish imkonini bergan. Uning g‘oyalari ham Attor ta’sirida shakllangan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Navoiy o‘zi sevgan bu asarga keyinchalik javob yozar ekan, u ushbu kitobning “Lison ut-tayr” deb nomlangan zamonga mos talqinini yaratadi. Umrining so‘nggi yillarida yozilgan bu asar falsafiy mushohadaga boy hisoblanib, badiiy jihatdan yuksak mahorat bilan tasvirlangan. Bu dostonda abadiylik va haqiqat izlab oliy dargoh tomon yo‘lga chiqqan o‘ttizta qush tasvirlangan. Bu hodisa uning inson o‘zi yashayotgan zaminda ham haqiqatga erishishi mumkin degan fikrlari bilan isbotlash mumkin.

Hazrat Alisher Navoiy qalamiga mansub ayrim ruboiylarda yoki g‘azallarda ko‘r-ko‘rona e’tiqod ya’ni aqidaparastlik tanqid qilinadi. Ya’ni inson chin yurakdan chin qalbdan e’tiqod qilishi kerak. Inson o‘zi mustaqil ravishta tafakkur qila olishi kerak.

Zohid, senga huru menga jonona kerak,
Jannat senga bo‘lsin, menga mayxona kerak,
Mayxona aro soqiyu paymona kerak,
Paymona necha bo‘lsa to‘lo yona kerak.

Bu ruboiy orqali ham Allohga bo‘lgan muhabbat yotadi. Unga ko‘ra zohid ya’ni zuhd (tarkidunyo) qiluvchi insonga jannat kerak bo‘lsa u faqatgina Jannat umidida yoki do‘zax azobidan qo‘rqqani uchungina ibodat qilsa, Haqiqiy orif uchun bu muhim emas. U ibodat qilsa, faqatgina Allohni vasli uchun, unga bo‘lgan muhabbat bilan huzurda qiladi.

“Navoiy Naqshbandiya tariqatiga mansub hisoblanadi. Bu yo‘nalish esa qanoat va tiyilishni talab qiladi lekin, dunyo go‘zalligidan huzurlanishni taqiqlamaydi. Real dunyo mutlaq ruh in’ikosi ekan, dunyoni sevish, undan bahra olish mumkin. Shu asosdan insonlar o‘rtasidagi muhabbat ham tabiiy va zaruriy, ya’ni majoziy ishq orqali ilohiy ishqqa qarab boriladi. Navoiy ham o‘zini shunday “ishqi majoziy” kuychilari sirasiga kiritadi”[1].

Aytish mumkinki, tasavvuf Navoiyga jaholat girdobidan qutilish imkonini beradi. Negaki u yashagan davrning taraqqiyot darajasi, ilm-fan rivoji real dunyo voqealarini ilmiy asosda sharhlashga ojizlik qilar edi. Boshqa tomondan esa ba’zi zamondoshlarining mol-dunyoga ruju qo‘yishi, ularning salohiyati ko‘p narsalarga qodir bo‘lsa-da aqli va niyati o‘rtasida nomuvofiqlik bor edi. Shu sababli u axloqni, ya’ni fazilatlar tarbiyasini birinchi o‘ringa qo‘yadi, bu ham uning tasavvufga murojaat qilishiga olib keladi, chunki tasavvuf butun e’tiborini inson axloqini poklashga qaratgan bo‘lib, bu yo‘lda aniq vazifalar ishlab chiqqan edi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy tasavvuf va badiiy ijodni hamohanglikda olib borgan yetuk shoir. O‘sha paytda u jamiyatning xatolarini ko‘ra oldi va ularni tuzatishga harakat qildi. Uning ijodini shunchaki oddiy o‘rganish mumkin emas, chunki u yozgan har bir bayt kishini mushohadaga chorlaydi. U olg‘a surgan g‘oyalar haligacha ahamiyatli va o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Jumladan, u ilgari surgan va tasavvuf ichida shakllangan gumanizm va ko‘r-ko‘rona aqidaparastlikni tanqid ostiga olish, real voqelikni ilm fan orqali tushuntirish kabi masalalar bugungi kun uchun, bugungi dunyo uchun dolzarbligini yo‘qotmadi. Bu jihatlar uning ijodining asosiy mohiyatini tashkil etganligi sababli yanada qimmatli. Navoiy o‘z ijodi bilan bir tomondan adabiyotni yangi bosqichga ko‘targan bo‘lsa, boshqa tomondan adabiyotda tasavvufiy an’analarni davom ettirib, rivojlantirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Najmiddin Komilov “Tasavvuf” Toshkent, “Movorounnahr”-“O‘zbekiston“ B.158
2. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. – Toshkent: “Movorounnahr”, “O‘zbekiston”, 2009. – B.150.
3. Dilorom Salohiy. Tasavvuf va Badiiy Ijod. – Toshkent, 2018.
4. Falsafa tarixi. Sharq falsafasi. O‘quv qo‘llanma.
5. Ibrohim Haqqul. Navoiyga. 3-kitob. – Toshkent: “Tafakkur”, 2016. – B.101.

[1] Najmiddin Komilov “Tasavvuf” Toshkent, “Movorounnahr”-“O‘zbekiston“ B.158

KONFUTSIYLIK TA'LIMOTI VA UNING FALSAFIY TAHLILI

Alisher NIGMATOV
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
"O'zbekiston tarixi" kafedrasi o'qituvchisi

Sevinch TILABJONOVA
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xitoyning buyuk faylasuflaridan biri bo'lgan Konfutsiyning hayoti uning ta'limoti, axloqiy fikrlari, hikmatlari va umri davomida u tomonidan aytilgan falsafiy qarashlariga qisqacha tahlillar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Xitoy, Konfutsiy, hikmat, kitob, ta'limot, shogird.

Аннотация: В данной статье представлен краткий анализ жизни Конфуция, одного из великих философов Китая, его учения, нравственных мыслей, мудрости и философских взглядов, высказанных им при жизни.

Ключевые слова: Китай, Конфуций, мудрость, книга, учение, ученик.

Abstract: This article presents a brief analysis of the life of Confucius, one of the great philosophers of China, his teachings, moral thoughts, wisdom, and philosophical views expressed by him during his lifetime.

Key words: China, Confucius, wisdom, book, doctrine, disciple.

Sharq olamining o'ziga hos ta'limotlaridan biri bo'lgan, Xitoy faylasufi, konfutsiychilik ta'limoti asoschisi Kun Syu (Konfutsiy) bo'lib taxminan mil.avv. 551-yili Lu knyazligida aslzodalar oilasida tavallud topgan bo'lib, u mil.avv. 479 yilga qadar umr ko'rgan. Konfutsiyning muxlislari uni Kun Fu Szi deb, ya'ni (hurmatli ustoz Kun) deb atashgan. "XVII asrda Xitoyga kelgan iyezuit missionerlar xitoylik donishmand ta'limoti bilan tanishib, uni Yevropa madaniyatining ham vakiliga aylantirish maqsadida Konfutsiy deb atay boshlashgan"[1].

Konfutsiy yoshlik davrlaridanoq hayotni og'ir sinovlariga duch keladi, ammo bu qiyinchiliklarga qaramasdan u ilm olishga intilgan. Pifagor va Suqrot kabi faqat og'zaki ta'lim bergan degan ma'lumotlar bor. Shuning uchun ham Konfutsiy tomonidan birorta ham qo'lyozma asar mavjud emas deyiladi. Uning hikmatli so'zlari, fikrlari va qarashlari shogirdlari orqali yetib kelgan. Konfutsiy daosizm asoschisi Lao Szi bilan uchrashib, undan maslahatlar olgan. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda faylasufning 3000 nafar shogirdi bo'lib, ulardan 72 nafari hech qachon ustozini tark etishmagan. Konfutsiy 30 yoshidan to 66 yoshiga qadar mamlakatlarni kezib, o'z ta'limoti bo'yicha saboqlar bergan.

---

[1] Ҳақиқат манзаралари. 100 мумтоз файласуф тақдирлар, хикматлар, афоризмлар. – Тошкент: "Янги аср авлоди", 2013. – Б. 32.

Konfutsiyning fikricha, olamni osmon boshqaradi. “Osmon irodasi – taqdirdir!”, – deb biz yashab turgan olam, undagi tartib osmon hukmdori tomonidan yuborilgan deya ta’kidlaydi. U jamiyat hayotidagi tartiblarga qattiq amal qilishni talab etadi. Tartib, uning nuqtai nazariga ko‘ra, ilohiy mazmunga ega va uning mohiyatini “Li” tushunchasi belgilaydi. Uning fikricha, tartib dunyoning mohiyatini aks ettiradi. Binobarin, jamiyatdagi barcha harakatlar unga ya’ni tartibga binoan amalga oshishi lozim. “Tartib – insoniyat jamoasining eng oliy hayotiy qadriyatlaridan biri degan fikrlarni ilgari suradi”[1].

Faylasufning ta’kidlashicha, shaxs faqat o‘zi uchun emas, balki jamiyat uchun ham yashashi kerak. Konfutsiyning ta’limotida insonning hayotdagi ijtimoiy o‘rni nihoyatda ulug‘lanadi va inson o‘ziga ravo ko‘rmagan narsalarni boshqalarga ham ravo ko‘rmasligi, o‘ziga ravo ko‘rgan narsalarni esa boshqalariga ham ravo ko‘rishi lozim deydi. Uni fikrlarining mazmun mohiyatini tushunar ekanmiz bu fikrlar naqadar to‘g‘ri ekanligini va bu g‘oyalarning asl mohiyatini anglab yetamiz.

“Yagona va eng mudhish xato avvalgi xatolarni tuzatmaslikdir”[2].

Bundan bilish mumkinki, insonlar xato qilishdan qo‘rqishlari emas, qilingan xatolarni tuzatmasliklaridan qo‘rqishlari kerak. Tarixdan ma’lumki, tarix takrorlanadi. Bu jabhada tarixida qilingan xatolar yoki inson o‘zining tarixida qilgan xatolaridan saboq olgan holda, kelajakda bu xatolarni yoki shunga o‘xshash xatolarni takrorlamaslikka intilishi kerak.

Konfutsiylik yoki konfutsiychilik — Xitoydagi axloqiy-siyosiy ta’limot bo‘lib, keyinchalik eng ta’sirli 3 asosiy falsafiy-diniy oqimdan biri bo‘ldi (daosizm va buddizm bilan birga). Konfutsiy ta’limotiga ko‘ra, insonparvarlik (jen), odob qoidalari (li), fazilat (de) tushunchalari muhim o‘rin egallaydi. Bu tushunchalarni qisqacha ta’riflaydigan bo‘lsak:

- Insonparvarlik (ya’ni jen) tushunchasiga ko‘ra, insonlar axloqiy va ijtimoiy munosabatlarda yoshi ulug‘, mavqeyi baland kishilarni hurmat qilishlari, hukmdorga sadoqatli bo‘lishlari lozim.
- Odob qoidalari (li) tushunchasiga ko‘ra, u tufayli yuksak fazilatlar shakllanadi, jamiyat rivoj topadi, adolat tantana qiladi. Burchni ado etish tufayli inson kamolotga erishadi deb hatto uning negizida “sen o‘zing nimalarga erishishni istasang, unga boshqalarning erishishiga ham ko‘maklash”, “sen nimani orzu qilmasang, uni boshqalarga ham ravo ko‘rma” kabi hayotiy tamoyillar yotadi. Bu odob tushunchasida keltirilgan fikrlarning o‘zida juda katta ma’noni anglatadi.
- “Buyuk ta’limot” va “O‘rtalik haqida ta’limot” degan asarlar Konfutsiy tomonidan yozilgan degan ma’lumotlar bor. Bu asarlarga ko‘ra, insonlarning birgalikda oqilona va inoq yashashi tartibining muhim shartini 5 ta oddiy va

[1] Falsafa asoslari//O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”, 2018. – B. 33.

[2] Ҳақиқат манзаралари. 100 мумтоз файласуф тақдирлар, хикматлар, афоризмлар. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2013. – Б.32.

buyuk fazilatlar (de) tashkil etadi deya ta'kidlaydi. Bular: donolik, insonparvarlik, sadoqat, kattalarni hurmat qilish, jasorat fazilatlaridir. Bu fazilatlar insonning o'ziga va boshqalarga halollikni va chuqur hurmatni anglatadi. Faqat aqlan yetuk va komil insonlargina bunday fazilatga ega bo'ladi.

Bu tushunchalarning mazmun mohiyatini tushunib yetgan insonlar uning ta'limotini qo'llab-quvvatlashgan. Konfutsiylik ta'limotida hatto qonun haqida ham fikrlar keltirilgan.

Uning ta'kidlanishicha, qonun inson manfaatlariga xizmat qilmog'i kerak. Qonunlar o'zgarishi bilan manfaatdorlik va manfaatsizlik tushunchalari ham boshqacha ma'no kasb etadi va inson faoliyatida tub o'zgarish ro'y beradi. Konfutsiylik ta'limotida jamiyatni boshqarishga katta e'tibor berilib, unga ko'ra, jamiyatni keragidan ortiq oddiy qonunlar bilan to'ldirib yubormaslik kerak, deydi. Xitoyda asrlar mobaynida Konfutsiylik ta'limotining turli maktablari yuzaga kelgan. "Konfutsiylik milodiy I asrda davlat ta'limotiga aylandi, IX asrda buddizm, XI asrda esa daosizm ta'limotlari ustidan to'la g'alaba qozonadi. Bunga, asosan, Sun sulolasi davri (960-1279)da neokonfutsiychilik rivojlanganligi tufayli erishadi"[1].

Buyuk xitoy faylasufi Konfutsiy nafaqat o'z ta'limoti bilan, balki o'zining uch yoki to'rt so'zdan tashkil topgan juda kuchli ma'no mazmunni o'zida jamlagan hikmatli fikrlari bilan bilan ham mashhurdir. Bu hikmatlar hayotiy voqealarga asoslangan bo'lib, kuchli ma'noga ega. Hatto hozirgi kunda ham uning fikrlarini ko'pchilik ma'qullaydi. Masalan: "Xafagarchilikni unuting. Lekin hech qachon yaxshilikni unutmang"[2].

Buyuk faylasuf bejizga bu fikrlarni ta'kidlamagan. Insonlar bu fikrlardan to'g'ri xulosa chiqarib, saboq olishini istagan. Uning bunday hikmatli fikrlari juda ko'p. Bu aforizmlar dunyoga mashhur bo'lishiga uning hayotiy voqealarga mos kelganligi sabab desak mubolag'a bo'lmaydi. Konfutsiy bu fikri orqali insonlar orasidagi mudhish voqealar sabab bo'lgan xafagarchiliklarni unutishni, lekin hech qachon yaxshilikni unutmaslik kerakligini ta'kidlaydi.

U nafaqat hayotiy voqealar insonning ichki kechinmalari, balki bilim haqida ham o'zining ko'plab fikrlarini bildirgan.

Misol uchun "Uchta yo'l bilimga olib keladi: aks ettirish yo'li eng olijanob yo'l, taqlid qilish yo'li eng oson yo'l va tajriba yo'li esa bu eng achchiq yo'ldir"[3].

Faylasuf bu hikmatida bilimga olib boradigan uch yo'l haqida fikr bildiradi. Inson hayotida davomida o'qishi, bilim olishi, izlanishi va o'z hayot yo'lini topishiga harakat qiladi.

Birinchi yo'l, aks ettirish ya'ni o'zi bilgan va o'rganayotgan bilimlarini aks ettira olish hamda uni boshqalarga ko'rsata olish ekanligi.

Taqlid qilish ikkinchi yo'l bo'lib, har bir inson o'zining ota – onasiga yoki unga bilim beradigan ustozlariga taqlid qiladi. Barcha insonlar unga ilm beradigan

---

[1] https://uz.wikipedia.org/wiki/Konfutsiylik (21.08.2023)
[2] https://eksmo.ru/interview/20-luchshikh-aforizmov-konfutsiya(8.09.2023)
[3] https://eksmo.ru/interview/20-luchshikh-aforizmov-konfutsiya(8.09.2023)

ustozlardan bilim birga ularning qandaydir jihatlarini odatlarini o‘zida olib qoladi. Ustozlarining ilmiy darajasi va erishgan yutuqlarini ko‘rib, shu darajaga yetish uchun harakat qiladi. Inson hayoti davomida saboq bera olgan har bir ustozdan nimadir olib qoladi.

Uchinchi yo‘l eng mashaqqatli, achchiq ya’ni tajriba yo‘lidir. Bilim olgan va bilim bergan inson hayoti davomida tajriba orttiradi. Ilm o‘rgatishda o‘zining usul va metodlarini kashf qiladi. Bularning barchasi yillar davomidagi tajribadan kelib chiqadi. Bilim berishda bir usul o‘ylab uni qo‘llaydi va natijasini ko‘radi. Natija ijobiy va salbiyligiga qarab bu usulni keyinchalik qo‘llab qo‘llamaslikka qaror qiladi. Shu orqali tajriba qiladi. Kamchiliklarini tuzatadi va o‘z ustida kuchliroq ishlaydi. Bu yo‘li oson emas chunki tajriba orttirish davomida inson ko‘plab to‘siq va qiyinchilik sinovlariga duch keladi. Bularni yengib o‘tish esa oson bo‘lmaydi. Ammo shu yo‘l, insonga haqiqiy bilimini ko‘rsatib beradi.

Konfutsiyning fikr va hikmatlari juda kuchli ma’noga ega. Konfutsiy umrning oxiriga qadar o‘z fikrlariga qarashlariga sodiq qolgan. Bir o‘qishda hamma ham uning fikrlarni asl mohiyatini anglab yeta olmaydi. Ammo fikrlarning mohiyatini tushungan insonning dunyo qarashi o‘zgaradi. Uning ta’limoti va hikmatlariga qiziquvchilar soni ortgani sari faylasufning ilmiy faoliyati va hayoti to‘g‘risida ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Konfutsiyshunos olimlar uning ta’limoti bo‘yicha ko‘plab izlanishlar olib borib, shu davrning eng noyob manbalarini topib ulardan ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘ldilar.

“Mumtoz venyan davri adabiy yodgorliklari ichida Konfutsiyshunos to‘plami tarkibiga kirgan kitoblar alohida o‘rin egallaydi. Ushbu to‘plam 13 kitobni o‘z ichiga oladi. Konfutsiyshunos olimlarning asosiy 2 xil to‘plami mavjud bo‘lib, ular “四 书” va “五 经” deb nomlanadi. Ular “To‘rt muqaddas devon” va “Besh muqaddas kitob ” deb tarjima qilinadi. “五 经” “Besh muqaddas kitob” Konfutsiyga qadar yaratilgan “诗 经” “Qo‘shiqlar kitobi”, “书 经” «Tarix kitobi», “礼 经” “Marosimlar kitobi”, “易 经” “O‘zgarishlar kitobi” va “春 秋” “Bahor va Kuz kitobi” singari qismlardan iborat bo‘lgan”[1].

Bu kitoblarning barchasi konfutsiylik ta’limoti asosida qayta ishlangan va Konfutsiy ta’limotining mohiyatini ochishga xizmat qilib kelgan. Uning vafotidan so‘ng, V asr mobaynida Konfutsiyning ta’limoti davlat falsafasi bo‘lib keldi. Biroq buddaviylik yuzaga kelgach, konfutsiylik amalda bir muddat unutib qo‘yildi. Keyinchalik u qayta jonlanib, hatto hozirgi kunda ham Konfutsiy ta’limoti millionlab kishilar hayotiga ta’sir o‘tkazmoqda. Buyuk faylasuf o‘zi uchun, avlodlari, yaqin shogirdlari uchun alohida ajratilgan qabristonga dafn

[1] Turg’unov Madiyor Ilmiy maslahatchi: f.f.d.(DSc) Hashimova S.A.“Uzbekistan-China: development of cultural, historical, scientific and economic relations” VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 26 maqola B-3

etilgan, uning uyi Konfutsiy ibodatxonasiga aylantirilgan, bu joy hozirda ziyoratgoh hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, buyuk Xitoy faylasuflaridan biri Konfutsiy umri davomida o‘zining kuchli fikr-u hikmatlari va ta’limoti bilan Xitoy tarixida o‘chmas iz qoldirdi. Nafaqat Xitoy balki uni bugungi kunda butun dunyo o‘rganmoqda. Ko‘plab insonlarning, izlanuvchi olimlarning qiziqishlariga sabab bo‘ldi. U hayoti davomida o‘z tarixi, falsafasi va qarashlarini yaratdi. Umrini o‘z hikmatlarida ta’kidlaganidek behuda ishlarga sarflamadi. U bunday natijaga o‘z ustida ishlash va bilimlari orqali erishdi. Hozirda biz yoshlarning bilimini oshirish va davlatimiz uchun munosib avlod bo‘lishimiz uchun yurtimizda ko‘plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Bunday shart-sharoitlardan foydalangan holda, biz yoshlar faqat bilim olishimiz kerak xalos. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Yangi O‘zbekistonning asosiy ustuni – bilim, ta’lim va tarbiya bo‘ladi”. Yurtimizning rivojlanishi va keyingi istiqbollarida hissa qo‘shmoqlik uchun bilim olishimiz kifoyadir. Bilimli insonlar barcha davr talabi bo‘lgan. Shu sababli, buyuk faylasuf Konfutsiy ham bilim olish va bilim berishga katta e’tibor bergan. O‘z hikmatlarida bu narsalarni qayta-qayta ta’kidlagan. Zero, bilimli insonlarni har doim jamiyatda o‘rni o‘chmas bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ҳақиқат манзаралари. 100 мумтоз файласуф тақдирлар, хикматлар, афоризмлар. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2013.

2. Falsafa asoslari//O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”, 2018.

4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Konfutsiylik(21.08.2023)

5.https://eksmo.ru/interview/20-luchshikh-aforizmov-konfutsiya(8.09.2023)

6.https://eksmo.ru/interview/20-luchshikh-aforizmov-konfutsiya(8.09.2023)

7. Turg‘unov Madiyor. Ilmiy maslahatchi: f.f.d.(DSc) Hashimova S.A. Uzbekistan-China: development of cultural, historical, scientific and economic relations. VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 26. – B.3.

IV. XALQARO MUNOSABATLAR, IQTISODIYOT VA TURIZM

THE FUNCTIONS OF TOURISM INDUSTRY IN INTERNATIONAL ECONOMIC RELATIONS

Gulnoza ILKHOMOVA
TSUOS, Department of Foreign Economic Activity and Tourism,
2-years Master Student,

Gulzinabonu MAMASOBIROVA
TSUOS, Department of Foreign Economic Activity and Tourism,
2-years Master Student,

Abstract: The purpose of this study include main influencing factors in the field of International Relations and Economics regarding the development of Tourism in Uzbekistan are considered and a detailed description of the functions of tourism as a decisive element of an integral part of the country's economy is provided. Also emphasized the importance of the influence of tourism purposes in the negotiation process through diplomatic relations as the main element in achieving mutually beneficial conditions for the parties.

Key words: Pacta Sunt Servanda, UNWTO GA25, Fragmentation of International Relations, Policy Connection, Public Discussions.

Аннотация: Целью данного исследования является рассмотрение основных влияющих факторов в сфере международных экономических отношений на развитие туризма в Узбекистане также дается подробное описание функций туризма как решающего элемента неотъемлемой части экономики страны. Также подчеркнута важность влияния туристических целей на переговорный процесс посредством дипломатических отношений как основного элемента в достижении взаимовыгодных для сторон условий.

Ключевые слова: Pacta Sunt Servanda, UNWTO GA25, фрагментация международных отношений, политическая связь, публичные обсуждения.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda turizmni rivojlantirishga xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasidagi asosiy ta'sir etuvchi omillarni ko'rib chiqish, shuningdek, turizmning mamlakat turizmining ajralmas qismi sifatidagi vazifalarini batafsil tavsiflashdan iborat. Shuningdek, muzokaralar olib borilayotgan tomonlar uchun o'zaro manfaatli shart-sharoitlarga erishishning asosiy elementi sifatida turizm maqsadlarining ushbu jarayonga diplomatik munosabatlar orqali ta'siri muhimligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Pacta Sunt Servanda, UNWTO GA25, xalqaro munosabatlarning parchalanishi, siyosiy aloqa, ommaviy muhokamalar.

In the modern world, almost all relations between people, as a minimal scale or colossally large scale, require careful preparation and frequently serious issues are resolved through communication in the form of a dialogue. And formalities always remain for the next stage. Nevertheless, the main goal is to find the most suitable beneficial outcome for both parties, which will take into account the interests of both parties. International relations are formed in any spheres of life, and covers large areas such as economic relations, migration issues, currency transactions, trade relations or others. In fact, Tourism is an integral part of economic relations and includes directions from different fields that affect many areas of international relations. According to the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan, dated July 27, 2023 No. UP-114[1] designed Tourism Committee which is separately from the Ministry of Culture and Tourism. Since September 1, 2023 it has been established to ensure a meaningful cultural life for young people and to increase the level of interest in art. Also, the creation of cinemas and equipped libraries, increasing the ongoing events as international festivals and forums contribute to an increase in the percentage of tourists visiting the country. Indeed, it should be added the 25th session of General Assembly by UNWTO, which will be organized in the city of Samarkand during the period October 16-20, such great events always attract public opinion and it will be noticed outside the country. Holding global events provide as a great experience for developing skills in international cooperation, since holding high-scale forums has a beneficial effect on the cultural, educational development of the country and also increases the flow of tourists. Especially if large-scale events are held during the low season, this will help stabilize the work of areas that are closely dependent on the flow of tourists as hotels or guest houses.

The rationalization of life and the provision of equal benefits of both parties between countries has always attracted scientists not only in the economic sphere, but in many other important areas, because the economy in the life of all mankind plays a key role and international relations always remain the most important direction of the economy for achieving common goals and success. As Tourism sector is the main part of Economics which consist of International Relations has an important tendency that agreements must be respected and performed. This terminology Pacta Sunt Servanda[2] (Sârghi, 2023) from Latin means the principle of guarantees providing the current use of the agreement. As a rule, international relations stand precisely on this principle and this can be named the language of international relations and in tourism there is its own use. That's why the language of Tourism is Service. Surely, high quality providing service perform high level of education and demonstrate the development of the host country. In the concept

[1] On measures for the effective organization of state administration in the sphere of culture and tourism in the framework of administrative reforms. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan, dated July 27, 2023 No. UP-114. Effective Date: 07/27/2023

[2] "Pacta Sunt Servanda" — a treaty in force is binding upon the parties and must be performed by them in good faith"

of economics of international relations (IR), tourism is the dialogue itself. One of the fundamental charters in tourism is the tourism code and proves that international relations are very closely connected with the tourism sector. During the IV session of General Assembly by UNWTO (United Nations World Tourism Organization) the main criteria were identified as the protection of tourists from discrimination and a safe time of rest in the staying territory (Mukrimaa et al., 2016). That is why Tourism sector catalyst for cultural exchange between international visitors and local population of the country by promoting the destinations through intercommunication.

Economic relations in Tourism Industry

Promotion of brand recognition to people who travel to get acquainted with new cultures, traditions, history and languages of other countries. The result will create unlimited disposition and mutual respect between diversification of cultures and lifestyles. Tourism contributes to the preservation and promotion of national heritage, works of art, music and literature, and thus contributes to an active intercultural dialogue that can only be implemented through diplomacy and peace agreements. Therefore, international diplomatic relations and a tourism charter are considered mutually beneficial activities of the economy. Particularly, projects between World Bank and Uzbekistan widely contribute to the implementation of the exchange of experience and the development of international relations. as in consistent the table of completed joint projects for 2023 is given. The Developed Countries Support Mechanism for Developing Countries defines long-term joint contracts and, in order to improve the action plan, strengthens diplomatic relations between organizations and on a large scale between countries. For association academics with policy makers, or corporate leaders, with entrepreneurs from different countries and explore new opportunities in International Tourism economy organizing Global evets as Global Tourism Economy Forum 2023[1] (GTEF) aims to balance the needs of people and the planet while promoting prosperity. This year the favored will be Italy, which is famous for its best architectural values, demonstrating cultural values such as hospitality and gastronomy with works of art, stimulating an increase the amount of investment in the Tourism industry.

[1] The Global Tourism Economy Forum 2023 will be held on 20 – 23 September 2023 in Macao SAR, China. The main purpose is to balance the needs of people and the planet while promoting prosperity.



Figure 1. Tourism and Policy Connection

According Figure 1 main directions of Policy as Diplomatic International relations connected to Economic relations the main reason is every passed step has own consequences which gives positive or negative effect which fallow appropriate solutions or unexpected issues forward to environmental health of nature which depends not only one country but neighborhood countries as well. The whole process produces the preservation of cultural values and heritage. Also contributes to the effect of changing the Behavioral Cue of local people.

Fragmentation of International Relations in Tourism

International political dialogues create bilateral mutual benefits for the implementation of the necessary solutions from the set tasks aimed at the sustainable economic development and stability of the country in which the credit system plays a decisive role. As in instance, not so long ago a round table discussion project "Green Growth and Climate Change" was held on August 20 and this project intended to be organized two times per month from august to February. The best ways to successfully transition to a "Green" economy create new opportunities provide new jobs especially new "green" jobs and thus ensure development of Sustainable Tourism Industry. ("Green Growth Clim. Chang. Uzb. Policy Dialogue Ser.," 2022)

The regularity of each industry unites various areas and connects with the standards of legal documents that are the guiding element of all ongoing processes. each meeting held has its own sequence and affects part of the tourism goals of each candidate. Favorable conditions for tourism purposes can create a softer environment for resolving issues at the state level. The subjects of international relations are interested in long-term, comprehensiveness, and also in cooperation, which long-term contracts entail the stability of income, and complexity solves several problems at the same time. Also, mutual cooperation lies in mutual understanding and which is the key to successful economic relations.



Figure 2 Regulates of Tourism in International Relations

According the Figure 2, in International Relations and Tourism Industry always goes along with politics, because political science is the basis of international relations. Besides, Tourism has main two types of strategies as Public Discussions with Cultural Exchange. In spite of the difference between both directed to the exact point which overall covers by excellent diplomatic tactics of negotiations. There is a very similar character between of International Relations and Tourism Industry, is history, without history it will not be possible to connect a beneficial dialogue and, as in Tourism, impossible to achieve results without a deep knowledge of history.

Diplomatic relations have an undeniable influence on the development of Tourism, and Tourism affects the entering into negotiations process between the parties. Frequently International Relations are carried out at the state level, which requires a high ranking percentage of diplomatic skills, the ability to master the skills of a professional negotiator, and knowledge of history always provides favorable conditions for holding public discussions. For the dynamically developing sectors of Tourism in Uzbekistan, the organization of international events, round tables, official meetings or visits in which there may be issues of a national nature that require a specially trained team for the successful conduct of these events emphasizes the importance of the relationship between sectors of the Economy. As well, the flow of tourists affects the development of the economy because the country receives a separate additional income and increases the volume of imports or exports of services. Diplomatically strong relations between countries or continents will strengthen the tourist relationship and organizing frequent official meetings in the territory will affect the position of tourists choosing a destination. After all, friendly political relations are the key to favorable conditions for creating the most budgetary and educational routes for tourists, as well as for official representatives of state bodies.

Reference:

1. УП-75-сон 18.02.2022. Об организационных мерах по совершенствованию государственного управления в сферах туризма, культурного наследия и спорта. (n.d.). Retrieved July 12, 2023, from https://lex.uz/ru/docs/5868607

2. Valiev, B. B. (2022). Features of the development of modern tourism in Uzbekistan. Builders of The Future, 02(02), 202–208. https://doi.org/10.37547/builders-v2-i2-30

3. Международные договоры и юрисдикция государств в современных геополитических условиях. (n.d.). Retrieved July 31, 2023.

4. Словарь терминов по теории международных отношений. (2020).

5. Wehberg H. (1959). Pacta Sunt Servanda. American Journal of International Law, 53(4), 775–786. https://doi.org/10.2307/2195750

6. Webster C., Ivanov S. (2015). Geopolitical drivers of future tourist flows. Journal of Tourism Futures, 1(1), 58–68. https://doi.org/10.1108/JTF-12-2014-0022

7. Sheller M., Urry, J. (2006). The new mobilities paradigm. Environment and planning A, 38(2), 207-226.

8. Mukrimaa S. S., Nurdyansyah Fahyuni, E. F., YULIA CITRA A., Schulz N. D., غسان, د., Taniredja T., Faridli E. M., Harmianto S. (2016). No 主観的健康感を中心とした在宅高齢者における 健康関連指標に関する共分散構造分析 Title. Jurnal Penelitian Pendidikan Guru Sekolah Dasar, 6(August), 128.

Internet sources:

https://lex.uz/
https://stat.uz/uz/
https://www.unwto.org/
https://cyberleninka.ru/
https://www.worldbank.org/en/home
https://ziyouz.uz/kutubxona/
https://uzbektourism.uz/
https://tridm.uz/

TURIZM SEKTORININGRIVOJLANISHI MAMALAKATDA AHOLI BANDLIGINI TA’MINLASH OMILI SIFATIDA

Gulshan ISMANDIYAROVA
TDSHU, Turkshunoslik fakulteti
3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Turkiyada turizm sektori rivojlanish jarayonini tahlil etish va turizmning yangi ish o‘rinlarini yaratishga va ta’sirini yoritib berishga xizmat qiladi. Ishsizlik muammosini hal qilishda turizm sektori va sanoat sektori o‘zaro solishtiriladi. Turizm sektori tomonidan yaratilgan bandlik xususiyatlari o‘rganilgan va turizm sektori ko‘pgina iqtisodiy muammolarni hal qilishga ta’siri tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Turizm, iqtisodiy rivojlanish, aholi bandligi, ishsizlik, investitsiya, xalqaro turizm.

Аннотация: Данная статья служит для анализа процесса развития туристического сектора в Турции и проливает свет на влияние туризма на создание новых рабочих мест. При решении проблемы безработицы сравниваются туристический сектор и промышленный сектор. Были изучены характеристики занятости, создаваемой туристическим сектором, и проанализировано влияние туристического сектора на решение многих экономических проблем.

Ключевые слова: Туризм, экономическое развитие, занятость населения, безработица, инвестиции, международный туризм.

Abstract: This article serves to analyze the development process of the tourism sector in Turkey and shed light on the impact of tourism on creating new jobs. In solving the problem of unemployment, the tourism sector and the industrial sector are compared. The characteristics of employment created by the tourismsector were studied and the impact of the tourism sector on solving many economic problems was analyzed.

Key words: Tourism, economic development, population employment, unemployment, investment, international tourism.

Turizm sektori o‘tmishdan rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan iqtisodiyotning eng muhim strategik sektor sifatida qaralgan. Chunki, u dunyodagi eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri bo‘lib mamlakat iqtisodiyotiga samarali hissa qo‘shmoqda. Rivojlangan davlatlar turizm sektorining daromad ta’siridan foydalanishga harakat qilsalar, rivojlanayotgan yoki kam rivojlangan davlatlar ushbu sektorning xorijiy valyutani jalb qilish va yangi ish o‘rinlari yaratish kuchidan foydalanishadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning eksport qilish qobiliyati ko‘p jihatdan investitsiya tovarlari importiga bog‘liq bo‘lganligi sababli, turizm sektori ushbu import uchun zarur bo‘lgan xorijiy valyutani jalb qilishda muhim yordamchi vosita hisoblanadi.

Turizm sektorining tarkibiy xususiyatlari uni boshqa tarmoqlardan bandlik yaratish salohiyati bilan ajratib turadi. Chunki turizm sohasida mexanizatsiyalash va avtonom kompyuter tizimlaridan foydalanishdan tashqari texnologik innovatsiyalardan foydalanish juda cheklangan. Shu sababli, bu cheklov texnologik yutuqlarning mehnatni tejash samarasini jiddiy ravishda kamaytiradi. Bundan tashqari, turar joy obyektlariga investitsiyalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri bandlikni yaratishda eng samarali rol o‘ynaydi, bu esa bandlikni oshiradigan investitsiyalarning bog‘liqligi tufayli bilvosita bandlik imkoniyatlarini yaratadi.

Insonlar doimiy yashash joylarini vaqtinchalik muddatlarga tark etib, boshqa hududlarga, mamlakatlar yoki mintaqalarga boradilar va diqqatga sazovor joylarni tomosha qilish, dam olish, ko‘ngil ochish va o‘rganish kabi psixologik va ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarini qondiradilar. Keng iqtisodiy ta’sirga ega bo‘lgan va turizm deb ataladigan ushbu hodisa bugungi sivilizatsiyaning asosiy xususiyatini tashkil etadi.

Turkiya aholisi turizmning rivojlanishi tufayli daromadlar oshishi va hayot tarzining yaxshilanishini hisobga olsak, turizm sektori Turkiya uchun eng muhim iqtisodiyot tarmog‘iga aylanganini ko‘ramiz. Boy turizm ta’minotiga ega bo‘lgan Turkiya uchun ishsizlik muammosining hal qilinishiga hissa qo‘shish nuqtai nazaridan turizm sektori ahamiyatli hisoblanadi. Biroq, turizm sohasida band bo‘lgan ishchilarning deyarli yarmi sug‘urtasiz ishlaydi, shuning uchun faqat ijtimoiy xavfsizlik instituti ma’lumotlaridan foydalangan holda hisob-kitob qilish mumkin.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda xalqaro sayyohlarning sayr qilishi shu yilning birinchi choragida pandemiyadan oldingi darajaning 80 foiziga yetdi (2019-yilning shu choragiga nisbatan -20 foiz), bu Yevropa va Yaqin Sharqdagi kuchli natijalar bilan kuchaydi. Dastlabki uch oyda taxminan 235 million sayyoh xalqaro miqyosida sayohat qilgan, bu 2022 yilning shu davriga nisbatan ikki baravar ko‘p. Yaqin Sharq eng kuchli ko‘rsatkichni (+15%) ko‘rdi va to‘liq chorakda pandemiyadan oldingi raqamlarni tiklagan dunyodagi birinchi mintaqadir. Yevropa 2023-yilning 1-choragida pandemiyadan oldingi darajaning 90% ga yetdi, bu kuchli mintaqa ichidagi talab bilan qo‘llab-quvvatlandi. Afrika va Amerika qit’alari 2023-yilning dastlabki uch oyida 2019-yil darajasining qariyb 85 foiziga yetdi, Osiyo va Tinch okeaniga kelganlar esa pandemiyadan oldingi darajaning 54 foiziga ko‘tarildi.[1]

Jahonda xalqaro turizm tushumlari 2022-yilda 1 trillion AQSH dollarini tikladi va 2021-yilga nisbatan real ko‘rsatkichlarda 50 foizga o‘sdi va pandemiyadan oldingi darajaga nisbatan 64 foizga yetdi. Kelgusi Shimoliy yarim sharning yoz mavsumida kuchli talab, havo aloqasining barqaror tiklanishi va Xitoy va boshqa yirik Osiyo bozorlari va yo‘nalishlarining yaqinda qayta ochilishi bilan mustahkamlangan kuchli natijalar kutilmoqda.

Qiyin iqtisodiy muhitga javoban, bu yil sayyohlar pulning qadr-qimmatini izlashlari va uylariga yaqinroq sayohat qilishlari kutilmoqda.

Raqamlardan ko‘rinib turibdiki, turizm sohasi jadal rivojlanmoqda, terrorizm va iqtisodiy konyunktura tufayli ayrim davrlarda kichik pasayishlarni boshdan kechirgan bo‘lsa-da, umuman olganda o‘sish tendensiyasini saqlab qoldi.

Xalqaro sayohatlar ko‘payib borayotgan bo‘lsa-da, GlobalData ma’lumotlar va tahliliy kompaniyasining yangi tushunchalari sanoatning pandemiyadan oldingi darajaga yetishi uchun 2025-yilgacha vaqt ketishini ko‘rsatadi.Ma’lumot berishlaricha xalqaro turistlar soni 2023-yilda 82 foizga, 2024-yilda esa 97 foizga yetishi kutilmoqda. GlobalData ma’lumotlariga ko‘ra turistlar harakati 2025-yilda 2019-yilga nisbatan 101 foiz oshadi va 1,5 milliard turistni tashkil qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yangi o‘zgarishlarga guvoh bo‘lishi kutilayotgan turizm sektorining kelgusi davrda eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri bo‘lishini kutish noto‘g‘ri bo‘lmaydi. Turizm ta’minoti

[1]https://www.unwto.org/news/tourism-on-track-for-full-recovery-as-new-data-shows-strong-start-to-2023

doirasida ko‘plab turli sohalarning paydo bo‘lishi bilan bir qatorda, mavjud turistik faoliyatda ham jiddiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. So‘nggi yillargacha turizmning eng muhim qismini tashkil etgan “dengiz, qum, quyosh trilogiyasi” asta-sekin o‘z mashhurligini yo‘qotib, madaniy-tarixiy turizm, ayniqsa, sog‘lomlashtirish turizmi rivojlanib, kundan-kunga ommalashib bormoqda.[1]

Turkiyada 1983-yildan turizm sohasida davlat xususiylashtirish ishlarini jadallashtira boshladi. Bu davrda TÜRSAB, Turkiya mehmonxonachilar uyushmasi (TCROB), Turizmni rivojlantirish fondi (TUGEV), Turizm investorlari uyushmasi (TTYD) kabi uyushmalar va uyushmalar orqali turizm xususiy sektori vakillari nufuzli mavqega ega bo‘ldi.Hozirgi kunda jadal rivojlanayotgan Turkiyaning turizm sektori jahondagi tendensiyalarga deyarli parallel ko‘rsatkichlar bilan rivojlanmoqda. Turkiya 2023-yilning birinchi 5 oyida 15 million 593 ming 489 nafar mehmonni qabul qildi. Tashrif buyurganlarning 14 million 34 ming 175 nafari xorijlik, 1 million 559 ming 314 nafari esa xorijda istiqomat qiluvchi fuqarolardir.

Turkiyaga tashrif buyurgan sayyohlar ulushi maqsadiga ko‘ra (2022-yil)[2]



Rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy maqsadi, mamlakatlarini sanoat jamiyatiga aylantirish va iqtisodiy rivojlanishini amalga oshirishdan iborat. Biroq, bu borada duch keladigan muammolardan biri shundaki, sanoatlashtirish texnologik taraqqiyot tufayli rivojlanayotgan mamlakatlarda bandlik muammosini hal qilish uchun yetarli emas. Boshqacha qilib aytganda, texnik yutuqlarning mehnatni tejash xususiyatlari tufayli bandlikning katta o‘sishiga

[1]https://webunwto.s3.eu-west-1.amazonaws.com/s3fs-public/2023-05/UNWTO_Barom23_02_May_EXCERPT_final.pdf?VersionId=gGmuSXlwfM1yoemsRrBI9ZJf.Vmc9gYD

[2] https://data.tuik.gov.tr/Bulten/Index?p=Turizm-Istatistikleri-II.-Ceyrek:-Nisan---Haziran,-2023-49603

erishib bo‘lmaydi va shuning uchun ishsizlik muammosini qoniqarli hal qilib bo‘lmaydi. Turizmning pul ta’siridan tashqari, iqtisodda yaratadigan real ta’sirlardan eng muhimi mehnat talab qiladigan ishlab chiqarishdir. U texnikadan kelib chiqadigan bandlik effektidir. Shu sababli, turizm sektori mamlakatdagi jami bandlikka ta’sir qiladi.

Turizm rivoji bilan parallel ravishda barpo etilgan ustki inshoot obyektlari aholi bandligini oshirish va qurilish materiallaridan ko‘proq foydalanishni anglatgani bois, ular investitsiya xarajatlarining ko‘payishiga olib keladi va birinchi daqiqalardan iqtisodiyotga tarqalib, intensiv daromad oqimini vujudga keltiradi. Turizm sektorini “dunyodagi eng yirik sanoat va boylik va bandlik yaratuvchi eng katta ish beruvchi” deb ta’riflangan. Jahon Turizm va Sayohat Kengashi (WTTC) tomonidan qilingan hisob-kitobga ko‘ra, turizm sektori har uch soniyada bitta ish imkoniyatini yaratadi. Xizmat ko‘rsatish turizm sohasida juda muhim o‘rin tutadi va xizmat ko‘rsatish faqat odamlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Shu sababli, turizm korxonalarida ishchi kuchi samaradorligi haqiqati paydo bo‘ladi. Turizm sohasida texnologik innovatsiyalarni qo‘llash ko‘pchilik ishlarning odamlar tomonidan bajarilishiga to‘sqinlik qila olmaydi. Shu sababli turizm sohasi mehnatni ko‘p talab qiladigan soha bo‘lgani uchun boshqa sohalarga qaraganda bandlik yaratishda samaraliroqdir.

Turistik salohiyat tez o‘sib borayotgan davrlarda malakali ishchi kuchiga bo‘lgan talabning ortishi turistik korxonalar o‘rtasida ishchi kuchining harakatchanligini oshiradi. Turizm talabi kuchli bo‘lgan davrlarda to‘liq bandlikka yaqinlashsa-da, mavsumdan tashqari bandlikning kamayishi ijtimoiy xarajatlarni keltirib chiqaradi. Turizm sektorining ishchi kuchining transferi Turizm sektori an’anaviy hisoblanadi.

Tarmoqlardan ko‘p miqdorda ishchi kuchini o‘tkazganligi sababli yarim malakali va malakasiz ishchilarni ish bilan ta’minlash imkoniyatini beradi.Hatto rivojlangan mamlakatlarda ham tarmoq ichidagi bandlikdagi asosiy mehnat turining nisbati taxminan 30% ni tashkil qiladi;

•Turistik korxonalar hajmi: Turkiyadagi turistik korxonalar hajmi,bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlaydigan xodimlar soniga ta’sir qiladi.

• Turizm sektorining demografik bandlik tuzilmasi: Turizm sektoridagi biznesning turizm turi tufayli band bo‘lgan ayollar, bolalar va keksalar soni boshqa tarmoqlarga qaraganda ko‘proq.

• Turizm sektorida o‘qitilgan kadrlar: sektorda band bo‘lgan o‘qitilgan kadrlar darajasi mintaqalar va biznes turlariga qarab farq qiladi, lekin past darajada qolmoqda.

• Turizm sektorining ish sharoitlari: sektorda maxsus ishlar sharoitlar, uzoq ish vaqti, dam olish kunlari va boshqa bo‘sh vaqt og‘ir ish sharoitlari, xodimlarning katta bosim ostida qolishiga sabab bo‘ladi.Bu holat ham ma’lum ijtimoiy xususiyatga ega qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

• Turizm sektorida ish joyini o‘zgartirish: turizm sohasida kichik korxonalarning keng tarqalganligi va bu sohada ish o‘rinlarining tez-tez o‘zgarib

turishi tufayli kasaba uyushmalari hodisasi keng tarqalmagan. Ayniqsa, turizm sohasida va bu sektor mehmonxonalar, restoranlar va ko‘ngilochar joylar kontekstida ko‘rib chiqilsa, biz sektor ish beruvchilarining kasaba uyushma fenomeniga salbiy munosabatda bo‘lishini asosiy belgi sifatida aniqlashimiz mumkin.

Turizm sektori eng tez rivojlanayotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa bo‘lish xususiyatini saqlab qoladi. Chunki turizm rivojlangan iqtisodiyotda uning ta’siri ham iqtisodiy, ham ijtimoiy sohalarda o‘zini namoyon qiladi.

Rivojlanayotgan turizm sektori mamlakatning to‘lov balansini tenglashtirishga, daromadlar yaratishga va shuning uchun mamlakatning valyuta tushumini oshirishga, u bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa ko‘plab tarmoqlarni (qurilish, oziq-ovqat, ko‘ngilochar, transport va boshqalar) faollashtirishga yordam beradi.

Hozirgi vaqtda sanoat sektori yangi ish o‘rinlarini yaratishda yetarli darajada emas. Buning eng muhim sababi sanoat sohasidagi mehnatni tejaydigan texnologik ishlanmalardir. Biroq turizm sektori yangi ish o‘rinlarini yaratishda sanoat sektoridan ko‘ra muvaffaqiyatliroq bo‘lib ko‘rinadi, chunki texnologik taraqqiyot bu sohada ishlaydigan ishchi kuchiga unchalik ta’sir qilmaydi. Turkiya va boshqa rivojlanayotgan davlatlar turizm sohalariga kiritgan sarmoyalari evaziga ish bilan bandlikni oshirib, ishsizlik muammosining hal qilinishiga jiddiy hissa qo‘sha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Azize Tunç, Firuzan SAÇ (1998), Umumiy turizm rivojlanishi va kelajagi, Detay nashriyot.
2. Harun Erdoğan (1996), Iqtisodiy, Ijtimoiy, Madaniy, Atrof-muhit Xalqaro turizm o‘z aspektlarida, Bursa.
3. Hasan Olali, Alp Timur (1988), Turizm iqtisodiyoti, Izmir, ofis savdosi Chop etish.
4. Hayati Doğanay (2001), Turkiya turizm geografiyasi, 3-nashr, Line Kitobevi Yay., Konya.
5. Huseyin Tatlidil (2001), “Turkiya turizmining hozirgi holati va kelajagi “Turkiya uchun umidlar”, Turkiya muammolariga yechim konferensiyasi-IV, 21-24 may, 1-10-betlar.
6. Meral Korzay (1992), “Turizmda bandlik va ta’lim”, III. Izmir iqtisodiyoti Kongress, Turizm ishchi guruhlari, 4-7 iyun, pp. 289-311.
7. Seher Uçkun (2004), Biznes va biznes turlari, turizm bizneslari, Nashrlarni o‘zgartirish, Istanbul
8. https://data.tuik.gov.tr/Bulten/Index?p=Turizm-Istatistikleri-II.-Ceyrek:-Nisan---Haziran,-2023-4960
9. https://www.e-unwto.org/doi/abs/10.18111/wtobarometereng.2023.21.1.2?download=true&journalCode=wtobarometereng

10. https://www.travelagewest.com/Industry-Insight/Opinion/travel-industry-outlook-globaldat

CURRENT STATUS OF CHINA'S INDUSTRIAL ECONOMIC DEVELOPMENT

Iroda MIRZAMUKHAMEDOVA
TDSHU, Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti (Uzoq sharq Xitoy)
2-kurs magistranti

Abstract: China's industrial development foundation is very weak, since the founding of the country, the road of industrial economic development has been in a state of exploration, after more than 60 years of development, the industrial economy has made great achievements, the total economic output has become the world's second-largest economy, and has a pivotal role in the world's economic development.

Key words: China's, industrial economic, world's economic development

Аннотация: Фундамент промышленного развития Китая очень слаб, с момента основания страны путь индустриального экономического развития находился в состоянии поиска, после более чем 60 лет развития индустриальная экономика достигла больших успехов, по общему объему экономического производства стала второй по величине экономикой мира и играет ключевую роль в мировом экономическом развитии.

Ключевые слова: Китай, индустриальная экономика, мировое экономическое развитие.

Annotatsiya: Xitoyning sanoatni rivojlantirish poydevori juda zaif, mamlakat tashkil topganidan beri sanoat iqtisodiy rivojlanish yo'li izlanmoqda, 60 yildan ortiq rivojlanishdan so'ng sanoat iqtisodiyoti katta yutuqlarga erishdi, umumiy iqtisodiy ishlab chiqarish hajmi bo'yicha dunyodagi ikkinchi yirik iqtisodiyotga aylandi va global iqtisodiy rivojlanishda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: Xitoy, sanoat iqtisodiyoti, global iqtisodiy rivojlanishi.

However, from a microscopic point of view, China's industrial economic development still has a lot of imperfections, the way of economic development has not changed, and has long been in a crude development mode, the excessive exploitation of resources and environmental damage has caused unprecedented damage to China's ecological[1] environment, the development of the industrial economy is seriously insufficient for innovation, and it mainly relies on the demographic dividend to promote economic development, but in recent years,

[1] Song Xinru and Yu Xiaoxia, Study on the Spatial Layout of Marine Industry in Zhuanghe City, Marine Development and Management, 2007.

China has stepped into the aging society, the demographic dividend is gradually lost, and the innovation-driven economy has become more and more important, and it has become more and more important. However, in recent years, China has entered into an aging society, the demographic dividend is gradually[1] lost, and the innovation drive is not strong enough, China's industrial economic development is in danger of stagnation. At present, China's economy has achieved certain results, China's international status and economic strength has become an important factor affecting the development of the world economy, but due to the overall downturn in the world economy, the economic crisis of 2008, the lack of investment in economic development, the Chinese people's ideological concepts have undergone a huge change, so that the development of China's industrial economy is faced with an unprecedented predicament; in addition how to through the transformation and development of the industrial economy, to get rid[2] of the middle-income countries, and the development of the middle-income countries. In addition, how to get rid of the trap of middle-income countries through the transformation and development of industrial economy and smoothly realise the transition from developing to developed countries has become a contemporary topic for us to think about and study. The industrial economy as a whole reflects a serious geographical imbalance, which is mainly manifested in the following three aspects: firstly, the imbalance in the distribution of the total scale of the industrial economy; secondly, the imbalance in the tax revenue and tax burden of the industry; and thirdly, the imbalance in the economic benefits generated by the industrial enterprises in the region. Firstly, the imbalance in the total scale of China's industrial economy is mainly manifested in the fact that the total economic volume of eastern China accounts for 68% of the national total, while that of central and western China accounts for 20% and 12% respectively, and that the total industrial economic volume of the Yangtze River Delta (YRD), the Pearl River Delta (PRD), and the Bohai Rim (Bohai Rim) regions accounts for 26%, 26%, and 12%, respectively; fourthly, the tax burden of the industry and tax revenue is also imbalanced, and in terms of the value-added tax (VAT) alone, the VAT payable of eastern China VAT accounts for 60% of all VAT payable in the eastern region, 24% in the central region and 16% in the western region, but the VAT payable in the eastern region accounts for 3.07% of the total sales, while the central region and the western region account for 4.5% and 4.8% respectively. Through the data, we can see that the tax burden in the central region and the western region is greater than that in the eastern region, and the overly heavy tax burden will affect the development of the central and western regions.

[1] Xue Feng, Research on the Development of Liaoning Coastal Economic Belt, Master's Thesis, Liaoning Normal University, 2009

[2] Song Yang, Study on the Opening and Development of Changhai County in the Construction of Liaoning Coastal Economic Belt, Liaoning Normal University, 2009.

2. Common industrial economic development patterns in China[1]

1. Centralised development mode. The centralised development mode is mainly embodied in the development of the park economy, which can effectively avoid the development drawbacks caused by too much dispersion. Various resources are gathered inside the park to achieve resource sharing, and the infrastructure, service facilities and public network inside the park are very perfect. The centralised development mode cannot be separated from the strong support and help of the local government.

2. Cluster development mode. The cluster development mode mainly refers to factories and manufacturers of the same industrial chain, taking advantage of local cheap human resources, land resources and other advantageous conditions, opening factories in the local area to develop the manufacturing industry, and then shipping the produced products to all over the world. China's industrial cluster mode can be divided into several types, namely, Guangdong mode, Wenzhou mode, and Southern Jiangsu mode, which all introduce foreign capital, technology and talents according to their own advantages and characteristics, and realise the clustering of industries and talents in the region to achieve the development of the regional industrial economy.

(3) Extended development mode. As the name implies, the extended development mode means that industrial enterprises continuously extend their product chain and industrial chain, increase product variety through existing products, achieve the expansion of industrial scale, and form an efficient industrial chain economy.

(4) Scale development mode. Scale development mode is mainly[2] for the relatively low profit industrial industry, because in the raw materials, energy and other industries, the social demand for products is relatively large, and the market space is relatively broad, then if the industrial scale development mode is realised, it will promote the agglomeration of the industrial scale and the advantage of play.

(5) Circular economy development mode[3]. The principle of the circular economy development mode is to imitate the natural ecosystem, so that the material of industrial production is constantly recycled, and the saving of resources and energy is achieved in the whole process of production and consumption, so that the consumption does not produce waste or produces very little waste. This promotes the development of the industrial economy and also enables the recycling of resources, improves the efficiency of resource use and achieves sustainable natural and economic development.

References:

[1] Xue Feng, Study on the Development of Liaoning Coastal Economic Belt, Master's Degree Thesis, Liaoning Normal University, 2009

[2] Cong Peng (Ed.), Comparative Studies: Security Concepts of Great Powers (International Affairs Publishing House, 2004), pp. 267-268

[3] Zhao Huasheng, New Ttrends in SCO Security Cooperation.

1.Song Xinru and Yu Xiaoxia, Study on the Spatial Layout of Marine Industry in Zhuanghe City, Marine Development and Management, 2007.

2. Xue Feng, Research on the Development of Liaoning Coastal Economic Belt, Master's Thesis, Liaoning Normal University, 2009

3. Song Yang, Study on the Opening and Development of Changhai County in the Construction of Liaoning Coastal Economic Belt, Liaoning Normal University, 2009.

4. Xue Feng, Study on the Development of Liaoning Coastal Economic Belt, Master's Degree Thesis, Liaoning Normal University, 2009

5.Cong Peng (Ed.), Comparative Studies: Security Concepts of Great Powers (International Affairs Publishing House, 2004), pp. 267-268

6.Zhao Huasheng, New Ttrends in SCO Security Cooperation,

MARKAZIY OSIYODA HARBIY VA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA O'ZBEKISTONNING O'RNI

Sherzodbek NURMETOV
TDSHU, Siyosatshunoslik yo'nalishi,
kechki 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunda O'zbekiston qo'shni davlatlar bilan ochiq, do'stona va o'zaro manfaatli hamkorlik jarayonlarini yangi bosqichga ko'tarishda jonbozlik ko'rsatib olg'a qadamlar tashlamoqda. Markaziy Osiyoning geosiyosiy subyekti sifatida O'zbekiston mintaqa tinchligi va xavfsizligi uchun turli xavflarga qarshi qalqon vazifasini bajaradi. Ushbu maqolada mintaqada O'zbekistonning o'rni va roli o'rganilib tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, BMT, MDH, SHHT, integratsiya, konsepsiya, afg'on muammosi, delimitatsiya, demarkatsiya

Аннотация: Сегодня Узбекистан активно предпринимает шаги по продвижению на новый уровень процессов открытого, дружественного и взаимовыгодного сотрудничества с соседними государствами. Как геополитический субъект Центральной Азии, Узбекистан выступает в качестве щита от различных угроз для мира и безопасности региона. В данной статье изучено и проанализировано место и роль Узбекистана в регионе.

Ключевые слова: Центральная Азия, ООН, СНГ, ШОС, интеграция, концепция, афганская проблема, разграничение, демаркация.

Abstract: Today Uzbekistan is taking forward steps to take the processes of open, friendly and mutually beneficial cooperation with neighboring countries to a new level. As a geopolitical subject of Central Asia, Uzbekistan acts as a

shield against various dangers to the peace and security of the region. In this article, the role and role of Uzbekistan in the region was studied and analyzed**.**

Key words: Central Asia, UN, CIS, SCO, integration, concept, Afghan problem, delimitation, demarcation

Markaziy Osiyo mintaqasi jahonning strategik ahamiyatga molik mintaqalaridan biri hisoblanadi. Mazkur mintaqada sodir bo‘layotgan shiddatli o‘zgarishlar jahon siyosiy hayotiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Bugungi kunda mazkur mintaqada yetakchi davlatlarning manfaatlari o‘zaro kesishmoqda, turli xil noan’anaviy tahdidlar ham hamon saqlanib qolmoqda. Shunday sharoitda Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida mintaqaviy diplomatiyani mustahkamlash va dolzarb muammolarni o‘zaro birgalikda hal etish zarurati paydo bo‘lmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi o‘zining geosiyosiy jonbozligi va amaliy sa’y-harakatlari orqali mintaqada shunday diplomatik muhitni shakllantirishga muvaffaq bo‘ldi.

Markaziy Osiyoning qoq yuragida O‘zbekistonning joylashgani mintaqada uning geosiyosati ko‘p jihatdan hal qiluvchi rol va ta’sirga egaligini ko‘rsatib beradi. 2012-yil 12-sentyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi to‘g‘risidagi” qonunda O‘zbekistonning tashqi siyosiy faoliyati belgilab o‘tilgan. Mazkur qonunda, O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining ustuvor yo‘nalishi Markaziy Osiyo mintaqasi bo‘lib, konsepsiyada O‘zbekiston tashqi siyosatini amalga oshirishda siyosiy-diplomatik vositalar sifatida siyosiy maslahatlashuvlar o‘tkazish, dolzarb masalalarni muhokama qilish va hal etish yo‘llarini birgalikda izlash, O‘zbekiston milliy manfaatlarini, mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan tashqi siyosiy tashabbuslarni ishlab chiqish va boshqa vositalar sanab o‘tiladi. Markaziy Osiyoning barcha davlatlari bilan to‘plangan muammolarni siyosiy maslahatlashuvlar orqali hal qilish hamda mintaqa davlatlarini faol muloqot va hamkorlikka chorlashda O‘zbekistonning o‘rni alohida e’tiborga molik. Bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi munosabatlar jadal tarzda rivojlanib bormoqda. Markaziy Osiyoda yangi geosiyosiy ishonch muhiti vujudga kelmoqda. Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi mavjud bo‘lgan bir qator muammolar borgan sari kamayayotgani aynan O‘zbekistonning bu boradagi o‘rni bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbekiston geosiyosatining amaliy ifodasiga aylangan quyidagi mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi tadbirlarni misol sifatida keltirish mumkin:

- Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari
- “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzusida Samarqand xalqaro konferensiyasi;
- “Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik” mavzusida Afg‘oniston bo‘yicha Toshkent xalqaro konferensiyasi. Bu tashabbuslar albatta, O‘zbekiston tashqi siyosati tinchlikka asoslangani har qanday muammolarni birgalikda hal etish va qurolli nizolarni oldini olishda faol subyekt sifatida o‘z salohiyati va imkoniyatlarini muntazam safarbar etib

kelayotganidan dalolatdir. O‘zbekistonning mintaqadagi roli strategik xususiyatga ega bo‘lgan omillarga asoslanadi. Birinchidan, O‘zbekiston mintaqadagi eng ko‘p aholi yashaydigan davlat. Bugungi kunda O‘zbekiston aholisi 36 mlnga yetdi bu holat mintaqada O‘zbekistonning demografik ulushi katta ekanligini ko‘rsatadi. [1] Ikkinchidan, O‘zbekiston mintaqaning besh mamlakati bilan umumiy chegaraga ega bo‘lgan yagona davlat hisoblanadi. O‘zbekiston Markaziy Osiyoning o‘rtasida, qoq markazida joylashgan. Uchinchidan, harbiy salohiyat bo‘yicha O‘zbekiston mintaqa davlatlari orasida birinchi o‘rinda turadi. O‘zbekiston o‘z o‘rni va mavqeyiga ko‘ra Markaziy Osiyodagi integratsiya jarayonlarida ko‘proq ta’sir ko‘rsatish salohiyatiga ega. 2017-yildan boshlab o‘zbek diplomatiyasida sifat jihatdan butunlay yangi sahifa ochilib, respublikamizning xalqaro maydonda olib borayotgan faoliyati yangi bosqichga chiqdi, deb aytish mumkin. Buning asosiy sababi – mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan dunyoga ochiqlik siyosati, birinchi navbatda yaqin qo‘shnilarimiz, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik yangi bosqichga olib chiqildi. Shu jihatdan olib qaraganda, O‘zbekiston rahbari o‘tgan yillar mobaynida barcha Markaziy Osiyo davlatlariga davlat tashrifi bilan tashrif buyurdi va mintaqada o’ziga xos muhit yaralishiga sababchi bo‘ldi. Shu boisdan mamlakatimiz tashabbus bilan 2017-yil 11-avgust kuni Toshkentda bo‘lib o‘tgan “Markaziy Osiyo — O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishi” mavzusidagi xalqaro konferensiyada mintaqaviy ahamiyatga molik eng muhim masalalar yuzasidan O‘zbekiston va unga qo‘shni davlatlarning zamonaviy mintaqaviy siyosati, nuqtai nazar hamda yondashuvlarining turli qirralari batafsil muhokama etildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-yilning 10-11-noyabr kunlari Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzusidagi xalqaro konferensiyada Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining birinchi maslahat uchrashuvi tashkil etish tashabbusi ilgari surildi. 2018 yilning 15-martida Qozog‘iston poytaxti Ostona shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining birinchi maslahat uchrashuvi bo‘ldi, bu uchrashuv davomida O‘zbekiston ko‘plab manfaatli takliflarni ilgari surdi: Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash sohasida samarali mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish uchun yangi zaxira va amaliy mexanizmlarni izlash; savdo-iqtisodiy, innovatsiya, investitsiya, transport-kommunikatsiya, bank-moliya, suv-energetika va madaniy-gumanitar sohalardagi sheriklik bo‘yicha aniq dasturlar — “yo‘l xaritalari”ni ishlab chiqish; eng dolzarb xalqaro va mintaqaviy masalalar bo‘yicha keng fikr almashish, ular bo‘yicha umumiy pozitsiyani kelishib olish hamda uni keyin BMT, MDH, SHHT va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida ilgari surish. Bunday uchrashuvlarning har yili o‘tkazilib turilishi mintaqadagi muammolarni hal etish orqali ishonchli

[1] Bo‘ronov S. “Afg‘onistonda tinchlik va barqarorlik o‘rnatish jarayonlarida O‘zbekiston geosiyosati” – T:EFFECT-D. 2021. b-150-165

mintaqaviy hamkorlikning mustahkamlanib borishiga sabab bo‘lmoqda. Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligi haqida so‘z yuritganda “Afg‘on” mavzusi doimo birinchi o‘rinda tilga olinadi. Afg‘oniston Markaziy Osiyoga qo‘shni davlat sifatida va turli omillarga ko‘ra Markaziy Osiyo uchun strategik darajada ahamiyatlidir[1]. Bugungi kunda Afg‘oniston turli mezonlarga ko‘ra Markaziy Osiyoning muhim bo‘lagidir. Markaziy Osiyoning barcha davlatlari bilan to‘plangan muammolarni siyosiy maslahatlashuvlar orqali hal qilish hamda mintaqa davlatlarini faol muloqot va hamkorlikka chorlashda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o‘rni alohida e’tiborga molik. Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashda “yaxlit xavfsizlik” tamoyiliga rioya qilish, jumladan, Afg‘onistonni mintaqaviy iqtisodiy jarayonlariga qo‘shilishiga har tomonlama ko‘maklashish, davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonini tezda yakunlash, mintaqa suv resurslaridan mintaqadagi barcha davlatlar manfaatlarini hisobga olgan holda samarali foydalanish hamda Markaziy Osiyoda madaniy-gumanitar aloqalar, ayniqsa, “xalq diplomatiyasi”ni eng muhim vosita sifatida rivojlantirish masalalariga alohida e’tiborini qaratdi. [2] 2018-yilning 22-iyun kuni BMT Bosh Assambleyasining yalpi majlisida “Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta’minlash bo‘yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash” rezolyutsiyasi qabul qilindi. O‘zbekiston tomonidan Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan ushbu hujjat loyihasini BMTga a’zo barcha mamlakatlar bir ovozdan qo‘llab-quvvatladi. Afg‘on muammosi o‘z ta’sir doirasi va ko‘lami jihatidan jahonning eng dolzarb ahamiyat kasb etuvchi hamda yechimi murakkab muammolaridan biri sifatida saqlanib qolmoqda. Shubhasiz, afg‘on muammosi unga qo‘shni bo‘lgan mintaqa mamlakatlari, xususan Markaziy Osiyoning muhim halqasi hisoblangan O‘zbekiston tashqi siyosatida markaziy o‘rinni egallaydi. Shu bois, O‘zbekiston afg‘on mojarosini faqat siyosiy yo‘l, ya’ni muzokaralar o‘tkazish yo‘li bilan hal etishga qaratilgan jarayonlarni to‘la qo‘llab-quvvatlab kelmoqda. Umuman, Afg‘oniston inqirozi o‘zida ichki, mintaqaviy va global darajadagi kuchlarni jalb etgan murakkab muammo ekanligini ko‘rish mumkin. Bu holat barcha tomonlarni geosiyosiy jihatdan murosaga kelishini, tinchlik o‘rnatish yuzasidan faol va muntazam muzokaralar amaliyotini safarbar etishni taqozo etadi. Tomonlarni ayni shunday murosaga va muzokaralarga jalb etish tajribasi O‘zbekiston geodiplomatik yondashuvlari va strategik qarashlari misolida o‘z aksini topadi. Ta’kidlash o‘rinliki, O‘zbekiston tashabbusi asosida qabul qilingan xalqaro hujjatlar umum mintaqa barqarorligi va ravnaqining huquqiy bazasini mustahkamlashda katta rol o‘ynaydi. Aynan afg‘on muammosiga bag‘ishlangan “6+2”, “6+3” muloqot guruhlari O‘zbekiston tashabbusi bilan amalga oshirilgan.[3]

---

[1] Bo‘ronov S. O‘zbekiston geosiyosati. Toshkent: EFFECT-D 2021 b-94-102

[2] Bo‘ronov S. H.Azimov. Sharq mamlakatlarida xavfsizlik muammolari va mojarolar: Toshkent; EFFECT-D 2023 b-250-255

[3] S.Safoyev. Markaziy Osiyodagi geosiyosat: Toshkent: 2005 b-29-32

Umuman olganda, O‘zbekistonning mintaqa miqyosdagi roli, ta’siri, geosiyosiy salohiyati va nufuzi mintaqada o‘zaro hamkorlik xavfsizlik masalalarini birgalikda hal etishga qaratilgan. O‘zbekiston geosiyosati mintaqaviy geosiyosat xususiyatiga ega bo‘lib, mintaqaga harbiy-siyosiy bosim o‘tkazish mexanizmlarini tamomila rad etadi, mintaqada barqarorlik, taraqqiyot va tashqi kuchlarning o‘zaro muvozanatini ta’minlashga asoslangan siyosatni ustuvor deb hisoblaydi. O‘zbekiston uzoq yillar davomida mintaqaviy xavfsizlikka tahdid tug‘diruvchi terrorizm, ekstrimizm, narkotik moddalar savdosi singari omillarga qarshi munosib kurash olib bordi va mintaqaviy xavfsizlikning kafolati ekanligini amalda namoyon qildi. Umume’tirof etilgan geosiyosiy qarashlar O‘zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasining geosiyosiy yadrosi ekanligidan dalolat beradi. O‘zbekiston geosiyosiy sa’y harakatlari tufayli Markaziy Osiyo mintaqasi, jumladan, Afg‘oniston ham jahon hamjamiyatining e’tibor obyektiga aylanib bormoqda. O‘zbekiston esa ushbu geosiyosiy jarayonlarning faol subyektiga aylanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bo‘ronov S.M. Afg‘onistonda tinchlik va barqarorlik o‘rnatish jarayonlarida O‘zbekiston geosiyosati. – T.: EFFECT-D, 2021. b-150-165.
2. Bo‘ronov.S. O‘zbekiston geosiyosati: Toshkent: EFFECT-D 2021 b-94-102.
3. S.Bo‘ronov, H.Azimov; – Sharq mamlakatlarida xavfsizlik muammolari va mojarolar: T.: “EFFECT-D”, 2023 b-250-255.
4. S.Safoyev. Markaziy Osiyodagi geosiyosat: Toshkent: 2005 b-29-32

JANUBIY KOREYADA SUG‘URTA BOZORINING XUSUSIYATLARI

Komiljon HABIBULLAYEV
TDSHU, Koreya tarixi, madaniyati, siyosati va iqtisodiyoti kafedrasi stajyor o‘qituvchisi

Iroda MAMARASULOVA
TDSHU, Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti (Koreya) fakulteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda sug‘urta bozori tushunchasi, sug‘urtaning iqtisodiyotda tutgan o‘rni, Janubiy Koreyada sug‘urta bozorining xususiyatlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari Koreya Respublikasida sug‘urta tizimining moliyalashtirilishi borasida ham mulohaza qilingan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta bozori, risk, investitsiya, avtomobil sug‘urtasi, tibbiy sug‘urta, sug‘urta mukofoti, sug‘urta polisi.

Аннотация: В данной диссертации представлена информация о понятии страхового рынка, роли страхования в экономике и характеристиках страхового рынка Южной Кореи. Кроме того, обсуждался вопрос финансирования системы страхования в Республике Корея.

Ключевые слова: страховой рынок, риск, инвестиции, автострахование, медицинское страхование, страховая премия, страховой полис.

Abstract: This thesis presents information about the concept of the insurance market, the role of insurance in the economy, and the characteristics of the insurance market in South Korea. In addition, the financing of the insurance system in the Republic of Korea was discussed.

Key words: insurance market, risk, investment, car insurance, medical insurance, insurance premium, insurance policy.

Iqtisodiy rivojlanish jarayonida sug‘urtalash ikki tomonlama manfaatni aks ettiruvchi muhim yo‘nalishlardan biriga aylanib bormoqda. Rivojlangan va iqtisodiy salohiyatli mamlakatlar iqtisodiyotida sug‘urta sohasi muhim ahamiyat kasb etadi[1]. Jumladan, Koreya Respublikasi sug‘urta tizimi ham jahonda sug‘urta mukofotlarini to‘plash miqdori bo‘yicha yuqori o‘rinni egallaydi. Mamlakat sug‘urta bozorida mijozga va ijrochiga nisbatan munosabatlardan tortib, sug‘urta summasigacha qat’iy davlat tomonidan nazoratga olingan. Bu o‘z navbatida sug‘urta firmalari tashkil etilishi va rivojlanishiga imkon beradi. Janubiy Koreyada hayotni sug‘urtalash ustuvor yo‘nalishlardan biri, bundan tashqari sog‘liq sug‘urtasi majburiy hisoblanadi. Buning muhim sababi qilib tibbiy xizmatlar sifati, turmush darajasining o‘sishi, tug‘ilishning pastligi, aholisining tarkibida yosh bolalar ulushining kamayib borishini misol qilishimiz mumkin[2].

Koreya Respublikasining sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonunchiligida sug‘urta sohalari va turlariga ham tushuntirishlar berib o‘tilgan. Unga ko‘ra sug‘urta quyidagi sohalarga bo‘linadi[3]:

- hayotni sug‘urta qilish(life insurence) jismoniy shaxslarning hayoti, sog‘lig‘i, mehnat qobiliyati va pul ta’minoti bilan bog‘liq manfaatlarini sug‘urta qilish, bunda shartnoma bo‘yicha sug‘urtaning eng kam muddati bir yilni tashkil etadi hamda sug‘urta pullarining sug‘urta shartnomasida ko‘rsatib o‘tilgan oshirilgan foizni o‘z ichiga oluvchi bir martalik yoki davriy to‘lovlarini qamrab oladi;

- hayotdan tashqari sug‘urtalash(non-life insurence)shaxsiy, mulkiy sug‘urta, javobgarlikni sug‘urta qilish hamda hayotni sug‘urta qilish sohasiga taalluqli bo‘lmagan boshqa sug‘urta turlari.

---

[1] Котлер “Marketing insurance products and services” 2009: Гушченко Н.Б. “Основы страховой деятелности”. Учебное пособие. М. 2007. Абрамов В.Ю. “Страхованне теория”, М. 2007.

[2] “Insurance in Korea”-Pak Hi Gum 2002 p.45

[3] National Health Insurance system of Korea-2018,p 4

Milliy sog‘liq sug‘urtasi yoki qisqacha tibbiy sug‘urta Koreyaning ijtimoiy sug‘urta tizimlaridan biri bo‘lib, davlat sog‘liqni saqlash tizimiga tegishli[1]. Barcha tizimlarda bo‘lgani kabi, kamchiliklar ham mavjud, bu aholiga katta foyda keltiradigan tizim bo‘lib, ushbu afzalliklar tufayli Milliy sog‘liqni saqlash sug‘urtasi eng mashhur ijtimoiy xavfsizlik tizimlaridan biridir.



1-rasm. Janubiy Koreya sug‘urta kompaniyalarining bozordagi ulushi (hayot sug‘urtasi)[2]

Bugungi kunda Janubiy Koreya Respublikasida 55 ta sug‘urta kompaniyalari mavjud. Ulardan 24 tasi hayotni sug‘urtalovchilar, 31 tasi nohayot sug‘urta kompaniyalari hisoblanadi. Bundan tashqari 19 ta mahalliy va 26 ta xorijiy sug‘urta tashkilotlari o‘z faoliyatini yuritib kelmoqda. 2020-yilda hayotni sug‘urtalovchilar uchligining (Samsung, Hanwha, Kyobo) bozor ulushi biroz pasayib, 46,5%ga tushdi. Boshqa tomondan, eng yaxshi to‘rtta hayotni sug‘urtalovchining (Samsung, Hyundai, DB, KB) bozor ulushi oshdi. 2020-yildagi 67,2%dan 2021-yilda 68,5%gacha o‘sganini ko‘rishimiz mumkin.

Qimmatli qog‘ozlarni hayotdan tashqari sug‘urtalovchilar jami aktivlarining eng muhim qismini egallab, 2021-yilda obligatsiyalar (29,5%), aksiyalar (3,4%), investitsiya fondlari (12,0%) va boshqalardan (10%) tashkil topgan.

2021-yilda hayotdan tashqari sug‘urtalovchilarning sof daromadi 2019-yilga nisbatan 17,3 foizga oshib, 2,6 trillion KRWni tashkil etdi.

[1] https:\\vseokoree.com\zhiznvkoree\straxovaniye
[2] https://www.statista.com sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi



2-rasm. Janubiy Koreya sug‘urta kompaniyalarining bozordagi ulushi (nohayot sug‘urtasi)[1]

2019-yilda yangi koronavirus kasalligi (COVID-19) 2020-yilda ko‘plab inqirozlarni yuzaga keltirganiga qaramay, Koreya Respublikasida sug‘urta sanoati o‘tgan yilga nisbatan yuqori o‘sishni ko‘rsatdi. Nafaqat Koreya, balki butun dunyoda insonlarning sug‘urtaga bo‘lgan ishonchi va talabi oshdi.

Hayotni sug‘urtalash bo‘yicha jamg‘arma turidagi sug‘urta mukofotlari 2020-yilning birinchi yarmida o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 2,6%ga oshdi. Sug‘urta bozori o‘tgan yilga nisbatan 2,5%ga o‘sdi.

O‘zgaruvchan sug‘urta 2020-yilning birinchi yarmida salbiy o‘sishni ko‘rsatdi, ammo ikkinchi yarmida fond bozorida ijobiy o‘sishni ko‘rsatdi. Xususan, uchinchi chorakda o‘zgaruvchan sug‘urta mukofotlari daromadi chorakda 10,9%ga o‘sdi.

Hayotdan tashqari sug‘urta mukofotlari daromadi 2020-yilning birinchi yarmida 6,9 %ga o‘sdi va ikkinchi yarmida o‘sishda davom etdi va yillik o‘sish 6,1 %ni tashkil etdi[2]. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartiga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida jamg‘arma turi sug‘urtasini sotishni kamaytirishga qaratilgan sa’y-harakatlar natijasida hayot sug‘urtasi va hayotdan tashqari sug‘urta mahsuloti portfeli o‘zgartirildi. U 2024-yildan kuchga kirishi rejalashtirilgan.

Savdo kanallari bilan bog‘liq holda, sug‘urta mahsulotlarini ishlab chiqish va sotishni ajratish tendensiyasi kuzatildi. Shunga ko‘ra, ba’zi sug‘urta kompaniyalari o‘z tashkilotini kompaniyadan ajratish uchun alohida korporativ sug‘urta agentliklarini tuzdilar. Ushbu tendensiya 2023-yilda davom etishi kutilmoqda.

[1] https://www.statista.com sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi
[2] http://naver.com, http://e-insmarket.or.kr ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Sug‘urta xizmatlari iste’molchilarini sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy ahvoli, ular tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar to‘g‘risidagi to‘liq va ishonchli ma’lumot bilan ta’minlash, aholining sug‘urtaga bo‘lgan ishonchini oshirish maqsadida:

- sug‘urtalovchilar bo‘yicha birlashtirilgan bazani yaratish;
- sug‘urta qoidalarini, sug‘urta tariflari bo‘yicha ma’lumotlarni, sug‘urta shartnomalarini tuzish va sug‘urta to‘lovlarini amalga oshirish tartibi bo‘yicha tushuntirishlarni, sug‘urtalovchilar reytinglarini chop etishning majburiy qoidasini joriy etish zarur. Bunda sug‘urta bozori ishtirokchilarining moliyaviy savodxonligini va sug‘urta madaniyatini yanada oshirish eng muhim vazifalar jumlasiga kiradi.

Ushbu maqolada sug‘urta tizimini o‘rganish natijasida quyidagilarni xulosalash mumkin:

Mamlakatimiz sug‘urta tizimini takomillashtirishda quyidagilarni amalga oshirish ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi.

Birinchidan – sug‘urta faoliyatini tartibga soluvchi amaldagi me’yoriy huquqiy hujjatlarni yanada takomillashtirish. Bir me’yoriy hujjatning boshqa biriga zid kelishini oldini olish.

Ikkinchidan – sug‘urta tashkilotlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish.

Uchinchidan – sug‘urta va qayta sug‘urta bozorida joriy konyunktura keskin yomonlashib borayotgan hozirgi sharoitda eksportga sug‘urta xizmatini chiqaradigan qayta sug‘urta kompaniyalarning tashqi sug‘urta va qayta sug‘urta bozorlarda raqobatdosh bo‘lishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish va sug‘urta xizmatlari eksportini rag‘batlantirish uchun qo‘shimcha omillar yaratish.

To‘rtinchidan – sug‘urta va qayta sug‘urta sohalarni raqobatdoshligini yanada kuchaytirish ko‘p jihatdan mavjud resurslari qanchalik tejamli foydalana olishimizga ham bog‘liq.

Yuqorida keltirilganlarni mamlakatimiz sug‘urta tizimida joriy etish, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish hamda xorij, xususan, Janubiy Koreya tajribasidan foydalangan holda mamlakatimiz sug‘urta sohasini yaxshilash kelajakda iqtisodiy salohiyatimizga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi bilan bir qatorda, aholi farovonligini yaxshilash, davlat va shaxs munosabatlarida ishonchni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Shennayev X.M. O‘tish davri iqtisodiyotida sug‘urta masalasi va uning istiqbollari. 2005-yil.
2. Котлер. Marketing insurance products and services. 2009.
3. Абрамов В.Ю. Страхованне теория. М. 2007.
4. Pak Hi Gum. Insurance in Korea. 2002.

5. National Health Insurance system of Korea – 2018
Internet saytlar
http://naver.com
http://e-insmarket.or.kr
https://www.statista.com
https:\\vseokoree.com

THE ROLE OF SOCIAL ENTREPRENEURSHIP, IMPACT INVESTMENT AND CSR (CORPORATE SOCIAL RESPONSIBILITY) IN UZBEKISTAN

Samandar KHASANOV
Student of TSUOS
Faculty of Japanese Studies (Economics of foreign countries)

Abstract: This article portrays entrepreneurial activity based on improving sustainability and addressing social and environmental challenges. This research includes various aspects of investing and the reasons for emerging social entrepreneurship with real-life examples. Also, it displays the difference between profit-driven organizations, social enterprises and CSR. Also, it discusses how Uzbekistan is applying this new term and what kind of projects are implemented to extend its scope.

Key words: Social enterprises, impact investing, stakeholders, pent-up demand, CSR, SRI, ESG.

Аннотация: В данной статье рассматривается предпринимательская деятельность, основанная на повышении устойчивости и решении конкретных социальных и экологических проблем. Исследование включает различные аспекты инвестирования и причины возникновения социального предпринимательства на основе реальных примеров. Кроме того, оно представляет различия между прибыльно-ориентированными организациями, социальными предприятиями и корпоративной социальной ответственностью (CSR). Также обсуждается, как Узбекистан применяет этот новый термин и какие проекты реализуются для расширения его области применения.

Ключевые слова: Социальные предприятия, инвестиции с социальным эффектом, заинтересованные стороны, скопившийся спрос, корпоративная социальная ответственность (CSR), социально ответственные инвестиции (SRI), факторы экологии, социальной ответственности и управления рисками (ESG).

Annotatsiya: Ushbu maqolada aniq ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilish va chidamlilikni oshirishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyati ko’rib chiqiladi.

Tadqiqotda, hayotiy misollar yordamida ijtimoiy tadbirkorlikning kelib chiqish sabablari va investitsiyaning turli taraflari muhokama qilinadi. Jumladan, ushbu maqolada, foyda olishga qaratilgan tashkilotlar, ijtimoiy tashkilotlar va korporativ ijtimoiy mas'uliyat (CSR) o'rtasidagi farqlarni ham tasniflashga harakat qilingan. Shuningdek, O'zbekistonda ushbu yangi termin qanday qo'llanilayotganligi va bu sohada qanday ishlar amalga oshirilganligi ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy tashkilot, ijtimoiy effektli investitsiya, manfaatdor tomonlar, yig'ilgan talab, korporativ ijtimoiy mas'uliyat (CSR), ijtimoiy mas'uliyatli investitsiyalar (SRI), ijtimoiy mas'uliyat va risk boshqaruvining ekologik faktorlari (ESG).

The initial overview commences with defining social entrepreneurship and impact investment. Both terms are deemed new economic concepts; impact investment empowers real projects to contribute to society and nullifies social problems with investing. Social entrepreneurship creates entrepreneurial activity with environmental and social impact alongside financial gains. We might witness any conventional investment have different pathways with one objective. However, those two concepts are indistinguishable because they are not profit-driven organizations or not specialized in gaining finance. Their ideology relies on aligning with eco-friendly projects.

According to John Cook and Greg Payne, impact investment incorporates a range of emerging investment products such as social impact bonds, microcredit financing, green building mortgages, and social venture funds.[1] Specifically, comparing social entrepreneurs (and impact investors) with profit-driven organizations might be deemed a complex business model. Profit-driven organizations take into account these categories:

- Limited stakeholder – shareholder;
- As its name displays, they are motivated to increase the profit

However, social entrepreneurs prioritize not only one stakeholder, just like profit-driven organizations, but they also think about each stakeholder, how it could benefit society, whether they can satisfy their clients or not, and whether they can provide sufficient employment.

Furthermore, profit is the most desirable factor, whereas it does not matter much in social entrepreneurship, even if the period stretches. Nowadays, new terms such as ESG (Environmental et al.), Impact investing, and SRI (Socially responsible investing) are utilized interchangeably. As social entrepreneurship is connected with it directly, it should be cited that their priority or scope can be differentiated. One important thing is that all these methods emerge to support sustainability. ESG (environmental, social and governance) is based on applying projects that indicate less environmental pressure, and S (social) is about considering customers, suppliers and other entities. G (governance) is used for

[1] Cook, John, and Greg Payne. "Redefining impact investing." *Corporate Knights* 11, no. 4 (2013): 66–67. http://www.jstor.org/stable/43242746.

leadership, audience, and shareholders' rights. Socially responsible investing is almost similar to ESG. However, it may not cooperate with some fields, such as alcohol gambling, which makes it special as it is highly valued in Uzbekistan. The next point is about CSR (Corporate Social Responsibility). Technically, it is almost as valuable as ESG regarding economic contribution. However, the reason behind the disparity of these terms is about balance. Technically, ESG relies on showing assistance in social contribution, whereas CSR does not process this way. There is a balance among three abbreviations (Corporate Social Responsibility); it does not prioritize profit ahead of society or society ahead of profit. It retains balance while allocating valuable resources. These terminologies are rare to be used in Uzbekistan. The embodiment of them is rarely seen, even if it is visible. They think about it as just normal entrepreneurship. Also, the entity playing the ESG or SRI in Uzbekistan is mainly the government because it upholds almost all welfare and environmental protection projects.

Basically, in impact investing, the processing governance shares reports about its "financial gain" and the social impact that this fund has generated. Before commencing this socio-economic activity as impact investing, entities or organizations should operate their "investment strategy", and it is not just about planning to invest in a random company by speculating that it can reach higher rates of sales with customers so that financial return would compensate. However, they also consider the presence of social impact alongside profit generation. For example, impact through activity (first criteria) can be formatted to aid impoverished areas or older adults. Following this, recruiting unemployed people (preferably those who have been unemployed for a long time) at a rate (20-30%) may extend its social impact scale. Official legislation of these terms is still awaiting its existence in Uzbekistan. However, alternative measurements are being processed. For instance, tax exemption for entities who recruit people with various disabilities.

I would recognize microcredit and microfinance as examples of this "impact". Both of these terms reflect this topic. Specifically, microcredit is utilized for offering small loans for individuals with low incomes in underdeveloped countries. However, it is different from credit. As its name cites, it specializes in assisting people with lower financial conditions (or individuals with bad credit history) and gives less money than credit might offer.

Furthermore, its interest rate is relatively higher than credit's. The reason is the probability of not paying it back (as it offers a tiny amount). Nevertheless, it influences positively because the borrowed money can be an investment tool for people establishing their businesses. It also boosts the country's overall economy and eradicates poverty. A real-life example of microcredit is the Grameen Bank, founded by Muhammad Yunus in Bangladesh. It provided small loans for skilled workers with low income levels, mainly women. At first, banks did not want to lend money to poor individuals in negotiation with him as they did not consider it creditworthy. However, he decided to lend it from his pocket. This experimental project did not

fail, but it gained popularity, and after 25 years of its foundation, it still operates. The number of borrowers exceeds 7 million, and the repayment rate is near 100%.[1]

Microcredit is a part of microfinance, and people demanding other financial services apart from microcredit can take advantage of microfinance elements. Larger loans, government subsidies to small enterprises, pensions, agriculture loans for fertilizers, and insurance credit are examples of microfinance.

Uzbekistan has been applying new regulations about subsidies to small enterprises in order to support its business sector. There are special terms called "Yoshlar daftari" or "Temir daftar", created to uphold youth activity and assist in choosing career paths and employment opportunities. Specifically, the government spends up to $700 for self-employed individuals to provide the necessary equipment (up to $1000 for women in this category). Entrepreneurs forming their businesses can be exempted from rental costs as the government may cover them (around $250 is allocated for this). Historically, Uzbekistan has been investing in the young generation, and the pure willingness of the Uzbek residents altered, or it can be recognized as incorporating and guiding them. According to the latest updates in Uzbekistan, the government started allocating subsidies to enterprises that recruited individuals released from imprisonment and possessing at least three months of experience at this enterprise for $81 per person. Also, special work provision centres can facilitate by teaching them to acquire and master work-oriented skills to spark hope in this category, which society could recognize as "gloomy, subtracted, potentially disturbing".

On 2 September 2021, the Government of Uzbekistan and the Islamic Development Bank (IsDB) announced the launch of Uzbekistan's first dedicated impact investment fund, with an initial capital of $100 million. This agreement is known as the Economic Empowerment Fund for Uzbekistan (EEFU), and it was implemented in order to support women and youth. Also, the reduction of poverty is prioritized. The initial capital for the Government of Uzbekistan (35%), IsDB (20%) and private sector investors of Saudi Arabia (45%). 34,000 micro, small and medium-sized enterprises, social entrepreneurs, and cooperatives are utilized as financing targets.

Furthermore, the fund has aimed to create over 100,000 jobs in Uzbekistan, with at least 50% comprised of women and youth-led enterprises. Research conducted by the Ministry of the Kingdom of Saudi Arabia confirmed that small and medium-sized enterprises (SMEs) can significantly contribute to a country's economic development. Also, SMEs' fraction in GDP is estimated at 55%, providing 65% employment.[2]

Creating ESG (ecological, social and governance) is important for development. It might seem delusional initially, but ESG can reflect Uzbekistan's

---

[1] Annual Report of Grameen Bank https://grameenbank.org/public/assets /archive/annual_report/Annual_Report_2021.pdf

[2] IsDB, Uzbekistan Launch $100m Impact Investment Fundwww.isdb.org/news/isdb-Uzbekistan-launch-100m-impact-investment-fund

glowing opportunities in the world market. Because international business executives impact, ESG‘s foundation could drive investors. It is an opportunity to equally attract foreign enterprise entrepreneurs. The problem with Uzbekistan is an unknown perception of potential misguidance in formatting ESG. International enterprises are being established in Uzbekistan, but they are relatively inexperienced and young in the market, possibly leading to improper conceptualizing. Business consulting agencies can help with this problem in Uzbekistan. Slight reform in terms of that might be in demand. International companies or entrepreneurial activities that have applied this method possess an ESG agenda (in terms of relaunching new methods step by step). This agenda incorporates the company’s long-term strategies to further advancement in the market.

Why are social entrepreneurship and impact investing important? Also, how could we take advantage of this to combat unforeseen challenges? These are economic megatrends in which ESG can play the main role in experiencing upward social and financial returns and transforming the world:

- Massive pent-up demand among entities earning below the average (less than $3000) means these consumers may hold off their finances by gathering a backlog of demand, which can be unveiled during the emergence of recovery.
- Green economy – scarcity of raw materials may eventually threaten humanity; thus, they should know how to optimize current scientific schemes and apply them to provide sustainability.
- Efficient investment – government or individuals trying to strengthen the welfare system should be fiercely concentrated and research efficiency as the government handles these attempts.

To sum up, ESG (environmental social governance) is emerging side of current economy and it is beneficial for everyone (entrepreneurs, labor, companies) and environment. It also helps to create impeccable economy that merges digitalization with nature. Sustainability can be reflected with materializing this concept. Following this way, any country is able to experience significant increase in welfare and economy, especially, Uzbekistan is on the verge of realizing the potential of this concept and various new businesses are being founded in these days with the help of foreign and local investors alongside government’s participation.

Sources:

1. Cook, John, and Greg Payne. “Redefining impact investing.” Corporate Knights 11, no. 4 (2013): 66–67. http://www.jstor.org/stable/43242746.

2. Annual Report of Grameen Bank https://grameenbank.org/public/assets/archive/annual_report/Annual_Report_2021.pdf

3. IsDB, Uzbekistan Launch $100m Impact Investment Fundwww.isdb.org/news/isdb-Uzbekistan-launch-100m-impact-investment-fund

IQTIDORLI YOSHLAR-YORQIN KELAJAK BUNYODKORLARI

Feruza TOJIBOYEVA
Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik
fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlarga berilayotgan e'tibor, imkoniyatlar va ta'lim sohasida olib borilayotgan keng islohotlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, yoshlar, Taraqqiyot Strategiyasi, ta'lim sohasi, axborot texnologiyalari.

Аннотация: В данной статье освещается внимание, уделяемое молодежи, возможности и широкие реформы, проводимые в сфере образования.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, молодежь, стратегия развития, сфера образования, информационные технологии.

Abstract: In this article, a wide range of discussions are presented about the attention, opportunities and initiatives being taken in the field of education for young people.

Key words: New Uzbekistan, the youth, Development strategy, Education sector, information technology.

Insoniyatning bir necha ming yillik taraqqiyot yo'liga nazar solsak, bir tarixiy haqiqat yaqqol ko'zga tashlanadi. Qaysi davrda ijtimoiy adolat o'rnatilgan, fan, texnika, san'at va madaniyat taraqqiyotiga keng yo'l ochilib mamlakat ravnaqi uchun yetarli sharoitlar yaratilgan bo'lsa, o'sha davrlarda misli ko'rilmagan sivilizatsiyaviy hodisalar yuzaga kelgan, ijtimoiy hayot barqarorlashgan va odamlarning turmush darajasi yuksak darajada rivojlangan. Fan va madaniyat millatning ramzi sifatida uning jahon hamjamiyatidagi mavqeini, obro'-e'tiborini belgilagan. Iste'dodlar esa ana shunday renessans hodisasini yuzaga keltiruvchi, millat va jamiyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuch sifatida o'zlarini namoyon etishgan.[1] Bu borada sharq ancha ilg'or bo'lgan. Ibn Sinoning hech qanday apparat va zamonaviy texnologiyalarsiz eng qiyin, tuzalmas kasalliklarni davolagani, Al-Xorazmiyning "Algebra" faniga asos solishi, Yevropada uning "Algebra" kitobi Injildan so'ng eng ko'p nashr etilgan kitobligi buning yaqqol namunasidir. Oradan ming yillar otgan bo'lsa-da,hali hanuzgacha ajdodlarimizning yaratgan kitoblari mavqeyi oshsa oshdiki, hech ham kamaymadi.Ular haligacha insoniyatga beminnat yordam bermoqda.Bular barchasi yosh avlodga faxr hissini tuydiradi.

Yangi O'zbekiston bu – yangi imkoniyatlar, yanada yuksak tafakkur, yangi g'oyalar va yangi maqsadlar maydonidir. Jumladan, Prezidentimiz endigi muhim vazifa sifatida – farzandlarimiz orasidan yangi avlod Beruniylarini, Ibn Sino va Ulug'beklarini, Xorazmiy va Farg'oniylarini tarbiyalab, voyaga yetkazish

[1] Yangi O'zbekistonning iste'dodli yoshlari. –Toshkent. 2021. 6-bet.

ekanligini ta'kidlab o'tgan[1]. Shuni ham ta'kidlash kerakki, millatimizning, jamiyatimizning ertasi – yoshlar uchun har sohada imkoniyatlar eshiklari ochilayotganligi, ishlab chiqilayotgan har yangi qonunning bir qismi yoshlar masalalari bilan chambarchas bog'liqligi va eng muhimi bularning barchasi amalda o'z aksini topayotganligi yoshlar masalalarining jamiyatimizda qay darajada dolzarb va muhim ekanligini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonning bu sohadagi tajribasi xalqaro hamjamiyatda katta qiziqish uyg'otayotganligi va u dunyoda keng o'rganilayotganini alohida ta'kidlash joiz. Bu masalalar 20 dan ziyod xalqaro anjumanlar kun tartibidan o'rin oldi. Birgina BMT tashkilotlari ishtirokidagi 7 ta xalqaro anjumanda ushbu masalalarga alohida urg'u berildi. Ular Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev O'zbekiston davlat rahbari lavozimini bajarishga kirishgan ilk kunlaridayoq imzolagan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun hamda 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilinishi mamlakatimizda yoshlar siyosatida tub burilish yasagani, uni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilayotgani e'tirof etildi.[2]

E'tiborga molik xabarlardan yana biri bu – Muhtaram Prezidentimizning Sharqshunoslik sohasini yanada rivojlantirish, chuqurroq tatbiq etish bo'yicha bergan qaror, topshiriqlari bo'ldi[3]. Shu qarorga asosan sharq tillari bo'yicha malakali tarjimonlarni zamonaviy usullar asosida amaliyot bilan uyg'unlikda tayyorlashga qaratilgan Sinxron tarjima laboratoriyasi va talabalarga mustaqil ta'lim kompetensiyalarini hamda sharq tillari bo'yicha elektron ta'lim resurslarini shakllantirishga xizmat qiladigan zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlangan Multimedia markazi tashkil etildi hamda kreativ fikrlash, innovatsion g'oya va ishlanmalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi ta'lim texnologiyalari bilan boyitildi. Ta'lim jarayonini zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida amalga oshirish, qiziqish va ishtiyoqni yanada orttiradi, axborotni oson qabul qilishga ko'maklashadi.

Hozirda O'zbekistonning qariyb 60%ni yoshlar tashkil qilar ekan, ularning ilm olishiga barcha shart-sharoitlarni yaratishimiz vatanimiz oldidagi burchimizdir. Agar har kim islohni o'zidan boshlasa, shubhasiz, taraqqiyot ham jadallashadi. P.L.Lavrov tili bilan aytganda: "Shaxsning jismoniy, aqliy va ma'naviy jihatdan o'sishi haqiqat va adolatning ijtimoiy shaklda qaror topishi – mening nazarimda, taraqqiyot deb hisoblash mumkin bo'lgan narsaning qisqacha formulasi mana shu".

Muhtaram Prezidentimiz bir intervyusida: "Yangi O'zbekistonning nafasi, sur'ati va shiddatini, avvalo, aziz o'g'il-qizimizning azm-u shijoati, dalil fikr va

---

[1] Yangi O'zbekistonning iste'dodli yoshlari. – Toshkent. 2021. 4-bet.
[2] Yangi O'zbekistonning iste'dodli yoshlari. – Toshkent. 2021. 28-bet.
[3] PQ-4680.16.04.2020.

takliflarida, erishayotgan yutuqlarida ko‘raman”,- degan edi.[1] Haqiqatan ham, hozir O‘zbekistonda yoshlarga berilayotgan imkoniyatlarni tarix bilan hech solishtirib bo‘lmaydi. Oldin hattoki fikr bildirish cheklangan bo‘lsa, hozirda yoshlar o‘z fikr, taklif va g‘oyalarini hech qanday to‘siqlarsiz amalga oshirmoqdalar. Ta’lim sohasini rivojlantirish uchun hukumat darajasida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekistonda Harakatlar Strategiyasi va uning mantiqiy davomi Taraqqiyot strategiyasi doirasida ta’lim sifatini oshirish, malakali kadrlarni tayyorlash bo‘yicha bir qancha islohotlar amalga oshirildi.

Shu jumladan, talaba-yoshlarni sharqona qadriyatlar asosida tarbiyalash maqsadida bir qancha islohotlar o‘tkazildi. Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda Respublika uchun istiqbolli bo‘lgan yangi yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha qo‘shma ta’lim dasturlari yo‘lga qo‘yildi.

Islohotlar uchun davlat byudjetidan xarajatlar so‘nggi 6 yilda 4,3 barobarga oshirildi, maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni 2016-yildagi 5211 tadan 2021-yilga kelib 19316 taga, maktablar soni 9719 tadan 10289 taga yetkazildi, 11 yillik majburiy maktab ta’limi qayta tiklandi. Maktab o‘qituvchilarining ish yuklamasi ozaytirildi. Eng e’tiborlisi, majburiy mehnatga barham berildi. Ta’lim sohasi vakillarining oylik maoshi qariyb 4 barobarga oshirildi, OTMlar soni 70 tadan 191 taga yetkazildi. Ta’lim sohasidagi islohotlar natijasida maktabgacha ta’lim bilan qamrov darajasi 27,7%dan 67%ga yetkazildi.[2] Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: “Biz tarbiya go‘daklikdan boshlanadi degan hikmatli so‘zga amal qilib, ta’lim-tarbiya sohasidagi o‘zgarishlarni uning eng quyi bosqichi – maktabgacha ta’lim tizimidan boshladik”[3], — degan edi.

Sohada islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida 2026-yilga qadar Taraqqiyot Strategiyasi doirasida maktabgacha ta’limda qamrov darajasini hozirgi 67%dan 80%ga yetkazish, 7 mingdan ziyod yangi nodavlat MTTlarni tashkil etish, xalq ta’limi tizimida qo‘shimcha 1,2 million o‘quvchi o‘rnini yaratish, shuningdek, Oliy ta’limda qamrov darajasini 50%ga, nodavlat OTMlar sonini kamida 50 taga yetkazish belgilab olindi.[4] Yuqoridagi islohotlarni amalga oshirish uchun ta’lim sifatiga e’tibor berish va bu boradagi ishlarni yanada kuchaytirish lozim. Zero, jamiyat farovonligi, xalq ravnaqi, millat taqdiri o‘qituvchilar bilan bevosita bog‘liq. O‘qituvchilarni ilm-fan, madaniyat, ma’rifatni yoshlarga yetkazishda muhim bo‘g‘in desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu bilan birga, ular o‘quvchilarning komil inson bo‘lib voyaga yetishida katta rol o‘ynaydi. Mana shuning uchun ham biz o‘qituvchilarning bor salohiyatlarini ko‘rsatishlari uchun sharoit yaratishimiz, ularni ijtimoiy, huquqiy, qolaversa, moddiy tomonlama qo‘llab quvvatlashimiz kerak. Ularning o‘z ustida

---

[1] Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda.
[2] Taraqqiyot Strategiyasi markazi. Strategy.uz.2023
[3] Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. – Toshkent. 2019. 119-bet.
[4] Taraqqiyot strategiyasi markazi.

ishlashlari,malaka oshirishlari uchun bor imkoniyatlarimizni ishga solib,eng yaxshi sharoitlarni yaratishimiz lozim. Zero, bugungi ularga berilayotgan e'tibor ertangi kelajagimizga bergan e'tiborimizdir. Hozirda yurtimizda 685 mingdan ziyod pedagoglar faoliyat yuritmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yilning 11-sentyabrida "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi hamda kelgusida ta'lim sohasida qilinishi kerak bo'lgan ishlar belgilab olindi. Unga muvofiq kelgusi yillarda olis va chekka hududda joylashgan 715 ta umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun bepul avtobuslar yo'lga qo'yiladi. Kutubxonalarni kamida bir millionta zamonaviy adabiyotlar bilan to'ldirish va kutubxona fondini to'liq raqamlashtirish belgilangan.[1]

Bir sharq allomasi "Agar inson ilm nuri bilan o'z yo'lini yoritmasa, zulmat va nodonlik ko'chasida qoladi. Kishi qalbining nuri ilm va ma'rifat bilan baquvvat bo'ladi. Insoniyatning qadri ilm bilan hosil bo'ladi ", — degan edi. Yurtimizda olib borilayotgan bunday islohotlar har bir insonning zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Vatanimiz nomi minbarlardan baralla aytilishi uchun, ajdodlarga munosib avlod bo'lish uchun va albatta, yorqin kelajak uchun ham hech qachon izlanishdan to'xtamasligimiz lozim. Zero, olov qalb yoshlar bor ekan, O'zbekiston kelajagi buyukdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yangi O'zbekistonning iste'dodli yoshlari. –Toshkent. 2021. 6-bet.
2. Yangi O'zbekistonning iste'dodli yoshlari. – Toshkent. 2021. 4-bet.
3. Yangi O'zbekistonning iste'dodli yoshlari. – Toshkent. 2021. 28-bet.
4.PQ-4680.16.04.2020.https://lex.uz/docs/4791086
5.Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. Taraqqiyot Strategiyasi markazi.
6. Taraqqiyot Strategiyasi markazi. Strategy.uz.2023
7. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. – Toshkent. 2019. 119-bet.
8.Taraqqiyot strategiyasi markazi. strategy.uz.2023.
9.O'zbekiston Strategiyasi-2030. forish.jizzax.uz.2023.

[1] O'zbekiston strategiyasi-2030.

V. PEDAGOGIKA VA METODIKA

ADABIYOT DARSLARIDA RAQAMLI MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Maftuna ABDULLAYEVA
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: maqolada adabiyot darslarida raqamli multimedia vositalaridan foydalanish, ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo‘llash, raqamli texnologiyalardan foydalanishda kooperativlikni yanada yaxshilash, sifatli va mazmunli darsni tashkil etish, o‘quvchilarning qiziqishlarini, diqqat - e’tiborini jamlashning asosiy vazifasi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: multimedia vositalari, raqamli texnologiya, raqamli o‘rganish, kompyuter texnologiyalari, audiokitoblar, online forumlar , elektron kutubxona, videolar.

Аннотация: в статье рассматриваются основные задачи использования цифровых мультимедийных средств на уроках литературы, использования цифровых технологий в системе образования, совершенствования сотрудничества в использовании цифровых технологий, организации качественного и содержательного урока, концентрации интересов и внимания учащихся.

Ключевые слова: средства мультимедиа, цифровые технологии, цифровое обучение, компьютерные технологии, аудиокниги, интернет-форумы, электронная библиотека, видео.

Abstract: the article discusses the main task of using digital multimedia tools in literature lessons, using digital technologies in the educational system, improving cooperation in the use of digital technologies, organizing a high-quality and meaningful lesson, focusing the interests and attention of students.

Key words: multimedia tools, digital technology, digital learning, computer technologies, audio books, online forums, electronic library, videos.

Hozirgi rivojlanib borayotgan zamonda multimedia vositalaridan foydalanish ta’lim sohasida katta ahamiyatga ega. Bu vositalar o‘quvchilarni motivatsiyalash, ma’lumotlarni qayta ishlash va tushunchalarini mustahkamlash uchun qo‘llaniladi.

Birinchi navbatda, multimedia vositalari mavzuni vizual ravishda ko‘rsatib beradi. Bu o‘quvchilarning ko‘rgan narsalarini yodlash va tushuntirish jarayonini oshiradi. Grafikalar, diagrammalar, animatsiyalar va videolar orqali ta’lim materiali ko‘rinishida o‘quvchilar uchun qiziqarli va foydali tarzda yaratilishi mumkin.

Ikkinchi navbatda, multimedia vositalari interaktivlikni ta'minlaydi. Bu xususiyat o'quvchilar bilan faol hamkorlik qilish va ularga amaliy bajarish imkonini beradi. Virtual laboratoriyalar, interaktiv testlar va sinovlar orqali o'quvchilar nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash imkonini topadi.

Uchinchi navbatda, multimedia vositalari turli tillarda o'rganishni qo'llab-quvvatlaydi. O'sgan tarjimon dasturlar orqali tarjima qilib olgan videolar yordamida tilni amalga oshirish imkoniyati beriladi. Bu o'quvchilar uchun adabiyot darslarida yozuvchilar hayoti va ijodi, asarlarini audio, video ko'rinishida ishlatish va o'rganish imkonini yaratadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari, yangi pedagogik texnologiyalardan dars mobaynida unumli foydalanish dars samarali bo'lishiga o'z hissasini qo'shadi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining qatoriga: kompyuter, skaner, videoko'z, videokamera, LCD proektor, interaktiv elektron doska, faks, modem, telefon, elektron pochta, multimedia vositalari, Internet va Internet tarmoqlari, mobil aloqa tizimlari, ma'lumotlar omborini boshqarish tizimlari, sun'iy intellekt tizimlarini kiritish mumkin"[1].

Bunday multimedia vositalaridan foydalanishning birinchi darajasida, o'qituvchilar va muallimlar tayyorlash kerak. Ularga multimedia vositalarining qanday qilib foydalanishini bilish, ularni qanday tuzilishi va qanday turli mavzularni ko'rsatish kerakligini bilish zarur. Bu esa ularga yangi ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

Aslida, multimedia vositalaridan foydalanish ta'lim jarayonini yanada qulaylashtiradi va o'quvchilarni motivatsiyalashga, dars jarayonini qiziq va mazmunli o'tishiga yordam beradi. Bu xususiyatlar ta'minlash orqali o'quvchi, ma'lumotlarni oson va samarali tarzda olish imkoniga ega bo'ladi. Shuningdek, multimedia vositalari orqali ta'lim materiali qulay ko'rinishiga murojaat etib borilgani uchun o'rgangan narsalarning yodlanishi yanada kuchayadi.

Shuningdek, multimedia vositalari orqali shaxsiy ta'lim yo'llari ham rivojlanmoqda. Mobil ilovalar, online kurslar va masofaviy ta'lim platformalari orqali har doim ham ta'lim olishni amalga oshirish imkonini beradi. Bu orqali o'quvchilar o'z vaqtida va o'z tempida ma'lumotlarni olish imkoniga ega bo'ladi.

Jumladan aytib o'tish mumkinki, multimedia vositalaridan foydalanish ta'lim sohasidagi muammolarni hal qilishda va o'quvchilarni samarali tarzda ta'lim berishda muhim ahamiyatga ega. Bu vositalar o'quvchilar uchun qiziqarli, interaktiv va motivatsiyalashuvchi ta'lim tajribasi yaratish imkonini beradi.

Adabiyot darslarida media vositalaridan foydalanish, o'quvchilarga adabiyotga oid bilimlarini oshirish, tahlil qilish va ta'lim jarayonini yanada sodda va qiziqarli qilish imkonini beradi.

"Vositalardan asosni ifodalashda to'g'ri foydalanish malakasi pedagoglarimizga har doimgidan-da ko'proq kerak. Dars jarayonida dars sifatini

---

[1] Abdullayeva M.D., Multimedia vositalaridan foydalanishning bolalar adabiyotini o'qitishdagi o'rni. International scientific journal volume 1 ISSUE 6 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337, 153-b.

oshiruvchi jihozlar sifatida ko‘p ko‘zga tashlanayotgan kompyuter tizimlari, yangi metodlar, taqdimotlarni sanash barobarida multimedia vositalari ham shu tarkibda ekanligini unutmaslik lozim”[1].

Media vositalari adabiyot darslarida o‘quvchilar uchun nutqning yanada aniq, ravon, tushunarli ko‘rinishda foydalanish uchun yordam beradi. Ushbu vositalar orqali, o‘qituvchi adabiy asarlar haqida videolar, audio tarjimalar, interaktiv testlar va boshqa ilovalar orqali dars jarayonlarini tashkil etish mumkin. Bu usul orqali adabiyotning tarixi va muhim shaxslari haqidagi ma’lumotlarni grafikalar, fotosuratlar va videolar orqali ko‘rsatib berish mumkin.

Media vositalari ayniqsa internet platformalari yordamida ham foydalaniladi. Adabiyot darslari uchun internetdan elektron kitoblar yuklab olish, elektron jurnal va maqolalarni o‘qish, online adabiyot mualliflari haqidagi ma’lumotlarni topish mumkin.

Adabiyot darslarida media vositalaridan foydalanishning birinchi afzalligi ularni istalgan vaqt oralig‘ida ishlatish mumkin. O‘quvchilar darsdan so‘ng ham o‘zlari uchun qulay vaqtni topishlari, ya’ni adabiyotga oid videolar, audiolar yoki kitoblar bilan davom etishlari mumkin. Bundan tashqari, media vositalaridan foydalanish, o‘quvchilarning adabiyotning tushunchalarini ko‘rsatib berishda ham muhim rol o‘ynaydi. Adabiyot darslarida multimedia tarkibining ishlatilishi, o‘quvchilarga matnni yanada yaxshi tushunishga imkon beradi. Videolar, so‘z bilan ta’minlangan grafikalar va boshqa interaktiv elementlar orqali o‘quvchilarni bilimi oshib, adabiyotga bo‘lgan qiziqishlari yanada ortadi.

Shuningdek, media vositalaridan foydalanish adabiyot darslarini yanada qiziqarli va mazmunli o‘rganishga yo‘l ochadi. O‘quvchilar yangi tekshiruvlar va mashqlarni yuklab olish orqali bilimlarini mustahkamlashlari mumkin. Odatda, media vositalari interaktiv testlar ko‘rinishida mavjud bo‘ladi va bu testlarni javoblar orqali o‘quvchilar bilimlarini sinovdan o‘tkazishlari mumkin.

Adabiyot darslarida media vositalaridan foydalanish, dars jarayonini yanada qulaylashtiradi. Bu o‘quvchilar uchun matn, rasmlar, videolar va boshqa media formatlarini ishlatish orqali o‘zlashtirilgan ta’lim materiallariga ega bo‘lish imkoniyatini beradi.

Adabiyot darslarida media vositalaridan foydalanishning bir necha foydasi mavjud. Birinchidan, o‘quvchilar uchun abstrakt konseptlarni va nazariy ma’lumotlarni vizualizatsiya qilishi mumkin bo‘ladi. Matn asosida o‘qitishdan farqli ravishda, media vositalari tayyor ko‘rinishga ega bo‘ladi va bu o‘quvchilar uchun tushunarliroq bo‘ladi.

Ikkinchisi, adabiyot darslarida media vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning motivatsiyasini yuksaltiradi. Videolar yoki interaktiv darslar orqali dars jarayonlari yanada aniq va tushunarli bo‘ladi. O‘quvchilar bu tarzdagi

---

[1] Abdullayeva M.D. Multimedia vositalaridan foydalanishning bolalar adabiyotini o‘qitishdagi o‘rni. International scientific journal volume 1 ISSUE 6 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337, 153-b.

darslardan qiziqishlari ortadi, o‘rganish jarayonida motivatsiyasi yanada kuchayadi.

Uchinchi, adabiyot darslarida media vositalaridan foydalanish o‘quvchilarga ijtimoiy media bilan hamrohlik qiladigan muhitda ta’lim imkoniyatini beradi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini, tushunmaganlarini va savollarini to‘g‘ridan to‘g‘ri dars jarayonida ustozlariga berishlari mumkin. Shuningdek, o‘quvchilar adabiyot darslarida media vositalari orqali tarixiy, ijtimoiy va boshqa mavzular bo‘yicha boshqa odamlar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

“Umuman, adabiyot darslarida multimedia vositalaridan samarali foydalanish o‘qituvchi uchun darsdan kutilgan natijaga erishish imkoniyatini oshiradi. Multimedia vositalari orqali tashkil qilingan dars mashg‘ulotlari o‘quvchining ko‘rib, eshitib, matn bilan tanishish orqali o‘zlashtiriladigan bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarining rivojlanishiga zamin yaratadi. Unda og‘zaki hamda yozma savodxonligining oshishiga yordam beradi”[1].

Shunday qilib, adabiyot darslarida media vositalaridan foydalanish, o‘quvchilarning ta’lim jarayonida qiziqish va motivatsiyani yuksaltirishga yordam beradi. Bu usul o‘rta ta’limda integratsiya va innovatsiya qilishning muhim qismlaridan biridir.

Adabiyot darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanishda kooperativlikni yanada yaxshilash uchun quyidagi maslahatlar berilishi mumkin:

1) online forumlar: adabiyot darslarida online forumlardan foydalanish kooperativlikni yanada yaxshilash imkonini beradi. Bu forumlar orqali o‘quvchilar bilan muloqot qilish, savol-javoblar berish va adabiyot materiallarini o‘zaro baham ko‘rish imkonini beradi;

2) hamkorlik ilovalari: raqamli texnologiyalardan foydalanib, darsning bir qismida hamkorlik ilovalaridan foydalanish ham muhimdir. Bu tarz ilovalar orqali o‘quvchilar bilan birgalikda vazifalar ustida ishlash, adabiy esselarni baholash va boshqa ko‘rinishlarda kooperativlikni rivojlantirish mumkin;

3) online jamoalar: adabiyot darslarida online jamoalar orqali hamkorlikni yanada yaxshilash imkoniyati mavjud. Bu jamoalar orqali o‘quvchilar bilan birgalikda darslarda ishtirok etib, fikr-mulohazalarini erkin namoyon qilishi mumkin.

5. Individual o‘qishni yaxshilash: raqamli texnologiyalar, o‘quvchilarning individual o‘qitish usullarini yaxshilashda katta yordam beradi. O‘quvchilar onlayn kitoblar, elektron darsliklar va onlayn darslardan foydalanib, o‘zining belgilangan maqsadlari bo‘yicha o‘zlarini o‘qitishi mumkin.

Raqamli texnologiyalar adabiyot darslarida o‘qishni yaxshilashga imkon beradi. Bu texnologiyalardan foydalanish individual o‘qishni eng yaxshi qilib oshiradi. Zotan “bugungi kunda qator rivojlangan mamlakatlarda o‘quvchilarni

[1] Shamuratova Y. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida darslarni multimediaasosida o‘qitish. Globallashuv davrida tilshunoslik va adabiyotshunoslik taraqqiyoti hamda ta’lim texnologiyalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya,2023, 350-b.

o‘quv va ijodiy faoliyatlarini oshiruvchi hamda ta’lim-tarbiya jarayonlarini samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba to‘plangan bo‘lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nima bilan yuritilmoqda”[1]. Birinchi navbatda, raqamli kitoblar va elektron kutubxonalardan foydalanish o‘qishga qulaylik keltiradi. Bu kitoblar elektronik formatda mavjud bo‘lib, ularni kompyuter, tablet yoki smartfon orqali o‘qish mumkin. Bu usul ma’lum bir manzilga borib kitob olmaguncha vaqt va pul sarflamaydi.

Ikkinchi navbatda, internet va veb-saytlardan foydalanish belgilar izlashning ko‘proq yo‘lini ochadi. Raqamli texnologiyalar orqali istalgan mavzuga oid ma’lumotlarni topish mumkin. Veb-saytlar, elektronik kutubxonalarda turgan ma’lumotlar, onlayn maqolalar va shunga o‘xshash resurslarning hammasi qulaylik keltiradi. Uchinchi navbatda, interaktiv darslar va online ta’lim resurslari o‘quvchilarni qiziqtiradigan shaklda ta’lim berish imkonini beradi. O‘quvchilar virtual darslarda interaktiv testlardan, video darslardan va amaliy mashg‘ulotlardan foydalangan holda o‘qishlarni oshirishlari mumkin. Bu usul o‘quvchilarning o‘zining tempida, o‘zining bevosita o‘quvchi bilan bog‘lanishida va shaxsiy qiziqtirishlariga qarab ta’lim oladigan usul bo‘ladi.

Shunday qilib, raqamli texnologiyalardan foydalanish individual o‘qishni yaxshilashga imkon beradi. Bu usul orqali o‘quvchilar avvalgi metodlarga nisbatan ko‘proq ma’lumotlarga ega bo‘ladi va ulardagi bilimlarini amaliyotda mustahkamlashga imkon beradi.

Adabiyot darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanishda individual o‘qishni yaxshilash uchun quyidagi maslahatlar berilishi mumkin:

1. Dasturlar va ilovalar: raqamli texnologiyalardan foydalanish uchun birinchi navbatda dasturlar va ilovalar bilan tanishish kerak. Bu adabiyot materiallarni elektron shaklda o‘qib borish, ma’lumotlarni to‘plab olish, savol-javoblar bilan mashg‘ul bo‘lish va boshqa ko‘rinishlarda o‘qish imkoniyatini yaratadi. Masalan, Adobe Reader, Kindle Reader, Google Books va boshqa ilovalar bu maqsadga xizmat qiladi.

2. Elektron kutubxona: adabiyot darslarida elektron kutubxonadan foydalanish ham muhimdir. Bu adabiy esselarni elektron shaklda topib olishga imkon beradi. Elektron kutubxonalarda kitoblarni izlash va tanlashning yanada qulay usullari mavjud bo‘ladi.

3. Audiokitoblar: audiokitoblar adabiyot darslarida individual o‘qishni yaxshilash uchun ajoyib vosita hisoblanadi. Ushbu formatda kitoblarni audio tinglash imkoniyati mavjud. Bu tarz ilovalar orqali kitoblarni tinglash, bilimlarni yanada mustahkamlash imkoniyati mavjud.

4. Elektron qog‘ozlar: adabiyot darslarida elektron qog‘ozdan foydalanish ham muhimdir. Bu elektron shaklda adabiyot materiallarni o‘qib borish imkonini

[1] Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. (O‘quv qo‘llanma). –Toshkent: Fan, 2006. – B. 66.

beradi, shuningdek, savol-javoblar yoki vazifalarni elektron shaklda yechib olishingizga imkon beradi.

5. Online ma’lumotlar va resurslar: raqamli texnologiyalardan foydalanishda online ma’lumotlar va resurslardan foydalanish juda muhimdir. Internet orqali adabiyot materiallarni izlash, kitob tahlillarini o‘qib chiqish, yozuvchilar haqida ma’lumot topish va boshqa ko‘rinishlarda o‘qish bilimini yanada yaxshilash imkoniyatiga ega.

6. Ma’lumotlarni saqlash: raqamli texnologiyalar, o‘quvchilarning ma’lumotlarni saqlash va ulardan foydalanish imkonini beradi. Bu usul orqali o‘quvchilar, o‘z bilimlari ustida ishlay olmayotgan vaqtida ham saqlangan ma’lumotlardan foydalanish imkoniyati mavjud.

Bu xususiyatlar adabiyot darslarida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishning muhim aspektlari hisoblanadi. Raqamli texnologiyalardan to‘g‘ri foydalanish orqali o‘quvchilarning o‘zining bilimlarini yaxshilash va yetakchi amalga oshirish imkoniga ega bo‘ladi.

Adabiyot darslarida raqamli multimedia vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning bilimini yanada oshiradi, darsga bo‘lgan qiziqishini yuksaltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 06.10.2020 yildagi PQ-4851-son

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni it-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida qarori.

3. Abdullayeva M.D., Multimedia vositalaridan foydalanishning bolalar adabiyotini o‘qitishdagi o‘rni. International scientific journal volume 1 ISSUE 6 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337.

4. Muhammedova S., Abdullayeva M., Yuldasheva Sh., Eshmatova Y., O‘zbek tili va adabiyoti ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalari. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan nashrga ruxsat berilgan.

5. Nurmuxamad Duisenov. AKT va Internet texnologiyalaridan foydalanishni o‘rganish. – Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2021-y.

6. Qamarov M.S. Raqamli texnologiyalarini o‘rta ta’lim tizimidagi rivojlanishi va yangi texnogiyalarni dars jarayonlari bilan integratsiyallashuvi. “Science and Education” Scientific Journal / Impact Factor 3.848 May 2023 / Volume 4 Issue 5, 1173-b.

7. The pedagogy of Ihe Massive Oen Online Course: the UK view. Sian Bayne and Jen Ross, the University of Edinburgh. The Higher Education A cad emy 2013. 6.

8. Yo‘ldoshev Q. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta’lim maktablarida adabiyot o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari. Ped.fan.dok. dis.–T., 1997.-306 b.

9. Shamuratova Y. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida darslarni multimedia asosida o‘qitish. Globallashuv davrida tilshunoslik va adabiyotshunoslik taraqqiyoti hamda ta’lim texnologiyalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya,2023, 350-b.

10. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. (O‘quv qo‘llanma). –Toshkent: Fan, 2006. – B. 66.

O‘QUVCHILARDA MUSTAQIL FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI

Nargiza BAXRIYEVA
Buxoro davlat Pedagogika instituti
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: O‘quvchilarning yetuk mutaxassis bo‘lishlari, ijtimoiy hayotda o‘z o‘rinlarini topa bilishlari, ajdodlarimizdan meros bo‘lib qolgan an’analarni davom ettirishlari uchun ularda mustaqil fikrlash salohiyatini tarkib toptirish va rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi. Hozirgi paytda o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lmasdan turib o‘quvchining nafaqat o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga, balki mutaxassis sifatida jamiyatda o‘z o‘rnini topishga qiynalishi tabiiydir.

Kalit so‘zlar: mustaqil fikrlash, mustaqil tafakkur, fikr, tafakkur, tafakkur tiplari, analiz, sintez.

Аннотация. Чтобы студенты стали зрелыми специалистами, нашли свое место в общественной жизни, продолжили традиции, унаследованные от наших предков, актуальным вопросом является развитие и развитие у них потенциала самостоятельного мышления. В настоящее время естественно, что студент, не имея собственного независимого мнения, испытывает трудности не только с усвоением учебного материала, но и с поиском своего места в обществе как специалиста.

Ключевые слова: самостоятельное обсуждение, самостоятельное мышление, мышление, мнение, виды мышления, анализ, синтез.

Abstract: In order for students to become mature specialists, to find their place in social life, to continue the traditions inherited from our ancestors, it is an urgent issue to develop and develop the potential of independent thinking in them. Nowadays, it is natural that a student, without having his own independent opinion, has difficulty not only mastering educational materials, but also finding his place in society as a specialist.

Key words: independent discussion, independent thinking, thought, thinking, types of thinking, analysis, synthesis.

Ta'lim-tarbiyaning rivojlanishi va ko'lamini kengayib borishi hozirgi davr o'qituvchilariga amaliy bilimlarni chuqurroq singdirilishini taqozo etmoqda. Shu asosda har bir o'quvchi muvaffaqiyatga erisha olishi uchun qulay bo'lgan o'quv vaziyatini vujudga keltirish innovatsion yondashuv orqali ta'minlanadi. Yosh avlod aqliy-ma'naviy kamolotini ta'minlashda ularning mustaqil fikrlashi ulkan ahamiyat kasb etishini asoslash dolzarb ilmiy muammoga aylandi.

Mustaqil fikrlash masalasiga psixologlar, pedagoglar o'z maqsadlaridan kelib chiqqan holda, turli daraja va miqyoslarda fikr-mulohazalar bildirishgan. Har bir o'quvchida biror narsaga baho berish uchun o'zining fikrlash holati, oddiy fikrlash yo'li mavjud. Va bu holat nafaqat alohida insonlar uchun taalluqli, balki butun boshli xalqlar, davlatlar, tamaddunlarga ham xosdir.

O'quvchi o'zining mustaqil fikrlash salohiyati darajasida darsda taqdim etilgan ma'lumotlarni tahlil etadi, xulosa chiqaradi, qarorlar qabul qiladi. Zero, fikr – o'quvchi mustaqil ravishda amalga oshirgan aqliy faoliyatning natijasidir. Bu natijaning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri ham o'ziga xos. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, har bir o'quvchi o'zicha fikrlaydi[1].

Mustaqil, mantiqiy, ixcham tafakkurni va uning boshqa xususiyatlarini rivojlantirish mumkinmi? Psixologlar bu savolga ijobiy holda tasdiq javobini beradilar. Albatta, aqlning bu sifatlarini rivojlantirishda tug'ma intellektual, irsiyat orqali o'tgan layoqat muhim ahamiyatga ega. Lekin, bu yerda shuni alohida ta'kidlash lozimki, tug'ma layoqatlarning rivojlanishida, yaxshi qobiliyatning rivojlanishida tirishqoqlik, o'z ustida ishlash, mehnat katta rol o'ynaydi. Bu paytda o'z intellektual imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, uni rivojlantirish uchun katta mehnat sarf qilgan kishi kam tug'ma layoqatga ega bo'lsa-da, lekin mehnatsevarligi tufayli katta tug'ma intellektual qobiliyatga ega bo'lib, dangasalik xususiyatiga ega bo'lgan kishilarga qaraganda katta muvaffaqiyatga erishadilar. Albatta, kishida tug'ma layoqat bilan birga mehnatsevarlik, maqsadga intiluvchanlik, tartiblilik bo'lishi eng yaxshi vaziyatdir.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganlarning barchasi yana bir bor sistemali mehnat va ta'limning tafakkur va aqlning turli sifatlarini rivojlantirishda qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini e'tirof etishimizga imkoniyat beradi.

O'qituvchilar, har kuni yangi /metodikalar/ usullarini qo'llash orqali mehnat va ta'lim berish jarayonida, ba'zan o'z o'quvchilarida aql sifatlari ancha yaxshi rivojlanganligini unutib ham qo'yishlari mumkin.

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, ta'lim xarakteri tafakkur tiplarini shakllantirishga ham ta'sir ko'rsatadi. Quyida berilgan jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, turli xarakterdagi ta'lim tafakkurning turli tiplarini shakllantiradi. Agarda siz mustaqil ijodiy tafakkurni /faol tafakkurni/ rivojlantirmoqchi

[1] Musayev J. O'quvchilarning mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirish: (monografiya) – T., "Sharq", 2010. 5-bet.

bo‘lsangiz, dars jarayonida izlanuvchi muammoli ta’limdan foydalanishingiz zarur.

Ta’lim xarakteriga bog‘ liq bo‘lgan tafakkur tiplarining shakllanish tasviri

Algoritmik ta’lim	O‘qituvchi va kitobdan nusxa olish	Standart (reproduktiv) tafakkur
Tasvirlash, tushuntirish ta’limi	Yarim mustaqil anglash. O‘quv materialini isloh qilish va o‘zlashtirish	Yarim mustaqil reproduktiv variativ tafakkur
Izlanuvchi-muammoli ta’lim	Bilishga tegishli bo‘lgan elementlarning yangi tushunchalarini mustaqil sintez qilish	Mustaqil ijodiy (faol) tafakkur

Qachonki bilishga tegishli bo‘lgan elementlarning tushunchalari mustaqil sintez qilingan vaqtdagina faol aqliy operatsiyalarni shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Belgilangan algoritmik yoki tasvirlash tushuntirish ta’limi ko‘p holda mustaqil bo‘lmagan yoki ko‘proq xotiraga yarim reproduksiyaga tayanuvchi yarim mustaqil tafakkurni shakllantiradi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, o‘qituvchilar dars jarayonida so‘roq funksiyasini oxirigacha amalga oshirmaydilar. Darsda so‘roq yordamida katta muvaffaqiyatlarga erishish mumkin:

1) o‘quvchilarni savodxon holda so‘zga chiqishga o‘rgatish /o‘z nuqtai nazarini asoslash, uni himoya qilish/;

2) boshqa o‘quvchilarni so‘zlovchini diqqat bilan eshitishga va amaliy fikr, taklif, qo‘shimchalar qilishni o‘rgatish;

3) munozara va bahslarga savodxon holda ishtirok etishga o‘rgatish.

Shunday qilib, materialni tushuntirishdek, uni so‘rashni ham muammoli, dialogli tarzda tashkil etish mumkin. Bir qator psixologlar e’tirof etganlaridek, bu dialogik xarakterga ega bo‘lgan tafakkur tabiatiga mos keladi.

Dialogik qurilgan tafakkur, odatda ko‘proq sermahsuldir.

Bu vaziyatda vazifani hal etishda eng yaxshi yordamchi opponent bo‘lishi mumkin, u qarama-qarshi holda o‘tirib, savollar beradi, e’tiroz bildiradi.

Sinaluvchi opponentning barcha ko‘rsatmalarini bajarishni va uni amalga oshirishni yoki asosli ravishda inkor etishini kuzatadi. Sinaluvchining opponent bilan bunday “dialog” sinaluvchining ongida ham o‘zining, ham boshqalarning fikrini “sovuqqonlik” bilan muhokama qilishga va bu savolni shu kabi ko‘p tomonlama qarab chiqish uning foydasiga hal bo‘lganligiga ishonch hosil qiladi. Opponent sinaluvchiga biron-bir fikrni chetlab o‘tishga, ularning birontasiga “to‘xtab” qolmasligiga imkon bermaydi. Vaqt o‘tishi bilan sinaluvchida “ichki

opponent” tug‘iladi. Tafakkur tartiblashadi. Vazifa shartini yengil-yelpi o‘rganish, tartibsiz sinab ko‘rishlar, o‘ylovsiz farazlarning tug‘ilishi, ularni mas’uliyatsiz ravishda tekshirish yo‘qoladi. To‘satdan va yorqin, lekin noto‘g‘ri “fikr” kamtarin, lekin juda asosli fikr bilan o‘rin almashtiradi.

“Qimmatli fikrlarni rivojlantirish kerak”[1], deydi Richard Pol va uning bu fikriga qo‘shilmaslikning iloji yo‘q. Ijtimoiy ijod va “qimmatli” deb ataladigan fikrlarni ishlab chiqarishga qodir bo‘lgan shaxsni faqat ta’lim orqali shakllantirish mumkin, uning maqsadi mustaqil fikrlashga qodir bo‘lgan sifatlarni rivojlantirishdir.

Shuni ham ta’kidlash joizki, ijodiy vazifalarni hal etishda, ular belgilangan “chalg‘ituvchi”ga ega ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Biz bunday holatga tez-tez tushib qolamiz. Bizning asosiy xatomiz, birinchidan, vazifa sharti bilan chegaralanib qolishimiz va yoki masala shartini yechishda bir xil qolipdagi usuldan foydalanishimizdir. O‘quvchilar bilan ishlashda ularga qator ijodiy vazifalar berish lozim, ushbu vazifalarni hal etish uchun bajarilgan mashqlar, ularni bajarishga to‘sqinlik qilayotgan ko‘plab subyektiv omilni bartaraf etishga imkoniyat beradi, shuningdek, tafakkurning mustaqilligini va ijodiyligini rivojlantiradi.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, tafakkurning mustaqilligi, uning ijodiyligi maktab ta’limining norasmiy muhitiga, uning boy materiallarini berishga, tarbiyada dastursiz usulga ko‘mak beradi.

Shuningdek, mustaqil tafakkurni shakllantirishda quyidagi psixologik usul – miqdoriy eslatib turish ham muhim rol o‘ynaydi. Quyidagi vaziyatni ko‘rib chiqamiz: o‘quvchi qiyin vazifaning javobini qidiryapti, ma’lumki, u masalaning javobini hali bilmaydi, u javobni fikriy jarayonning yakunidagina topishi mumkin. Javobni bilgan o‘qituvchi o‘quvchiga yordam bera boshlaydi. Tajribali o‘qituvchi javobni darhol aytib bermaydi, balki o‘quvchiga asta-sekinlik bilan, zaruriyatga qarab kichik-kichik ma’lumotlarni aytib turadiki, bunda asosiy ishni o‘quvchining o‘zi bajaradi. Agarda o‘quvchiga darhol javob haqida ma’lumot berilsa, bu o‘quvchi tafakkurining rivojlanishi uchun faqat to‘siq bo‘ladi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, tafakkur – inson aqliy faoliyatining, aql-zakovatining, ongli xatti-harakatining yuksak shakli hisoblanadi[2]. Shuning uchun ham o‘qituvchilar buni doimo yodda tutgan xolda o‘quvchilarga yangilikni ochish uchun qulay sharoit yaratishlari lozim. Vazifani hal etishning boshlang‘ich bosqichidayoq o‘quvchiga vazifaning yechimi haqida ma’lumot berilsa, ularning tafakkuri yoki umumman ishlamaydi, yoki past darajada ishlaydi. O‘quvchilar doimo o‘qituvchining malakali yordamiga muhtoj, lekin bu yordam oldindan berilgan tayyor natija jarayoni bilan almashib, ularning tafakkurini chegaralab qo‘ymasligi lozim.

---

[1] Paul R., Binker A., Martin D., Adamson K. Critical Thinking Handbook. Santa Rosa, CA: Foundation for Critical Thinking, 1995, P. 5.

[2] G‘oziev E.G‘. Tafakkur psixologiyasi. T.: O‘qituvchi. 1990. 4-b.

Shuni ta’kidlash lozimki, qator o‘zbek psixologlari ham tafakkur va uning mustaqilligi muammosi ustida ish olib borganlar.

Ushbu sohada o‘zbek psixologlaridan E.G‘.G‘oziev tadqiqotlarida aqlning eng muhim sifatlaridan – tafakkurning mustaqilligi ajratiladi. Muallif tafakkurning bu muhim sifatini quyidagicha belgilaydi: “Tafakkurning mustaqilligi deganda, kishining shaxsiy tashabbusi bilan o‘z oldiga konkret maqsad, ya’ni vazifalar qo‘ya bilishi, ular yuzasidan amaliy va ilmiy xarakterdagi faraz (gipoteza)lar qilish, natijani ko‘z oldiga keltira olishi, qo‘yilgan vazifani hech kimning ko‘magisiz ko‘rsatmasiz, o‘zining aqliy izlanishi tufayli turli yo‘l, usul va vositalar topib mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyatni tushunish kerak”.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, mustaqil fikrlash shaxs taraqqiyotining eng dolzarb muammosi sanaladi. Mustaqil fikrlashni rivojlantirish hozirgi davrning eng ilg‘or va dolzarb masalalaridan bo‘lib kelmoqda. Kreativ g‘oyali yoshlarni tarbiyalashda, eng avvalo, mustaqil fikrlay olish qobiliyatini ularda shakllantirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G‘oziyev E.G‘. Tafakkur psixologiyasi. T.: O‘qituvchi. 1990. 183 b.

2. Karimova V.M. Yangi turdagi ta’lim muassasalaridagi o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning psixologik muammolari//Yangi turdagi o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida ta’lim tarbiyaning samaradorligini oshirishning psixologik muammolari.T., 1998.

3. Musayev J. O‘quvchilarning mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirish (monografiya) – T., “Sharq”, 2010. 252 bet.

4. Paul R., Binker A., Martin D., Adamson K. Critical Thinking Handbook. Santa Rosa, CA: Foundation for Critical Thinking, 1995, P. 5.

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODIKASI

Dilnoza XUSANOVA
O‘zbekiston Milliy universiteti,
Ijtimoiy fanlar fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda ilm-fan taraqqiyotida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning mazmun-mohiyati, ahamiyati, sohadagi muammolarni hal etishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning o‘rni haqida batafsil yoritilgan. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning zamonaviy metodikalarini joriy etish yuzasidan taklif, tavsiya va xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: ilm-fan, ijtimoiy-gumanitar, ta’lim, taraqqiyot, texnika-texnologiya, jamiyat, innovatsiya.

Аннотация: В данной статье подробно раскрыта сущность и значение преподавания социальных и гуманитарных наук в развитии науки сегодня, а также роль социальных и гуманитарных наук в решении проблем в этой области. Даны предложения, рекомендации и выводы по внедрению современных методов преподавания социально-гуманитарных наук.

Ключевые слова: наука, социально-гуманитарная, образование, развитие, технологии, общество, инновации.

Abstract: This article describes in detail the essence and importance of teaching social and humanitarian sciences in the development of science today, and the role of social and humanitarian sciences in solving problems in the field. Proposals, recommendations and conclusions regarding the introduction of modern methods of teaching social humanities are given.

Key words: science, social and humanitarian, education, development, technology, society, innovation.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, bunyodkorlik ishlari natijasida ta’lim-tarbiya masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanib, ta’lim va tarbiya, texnika-texnologiyalarni takomillashtirish, ilm-fanni rivojlantirish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Yurtimizning jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi, ravnaq topishi, shubhasiz, yuqori ilm-fan salohiyatiga ega bo‘lgan yosh avlodlarga bevosita bog‘liqdir. Barkamol avlodni, intellektual salohiyatli, mas’uliyatli yoshlarni tarbiyalashda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ta’siri katta. Bugungi kunda globallashuv, axborot xurujlari avj olgan bir paytda kelajak o‘smirlarni yot va buzg‘unchi g‘oya va mafkuralardan asrashda, mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘rganish, ta’lim-tarbiya jarayonlarida keng joriy etish muhim hisoblanadi. Texnika-texnologiya taraqqiy etgan asrda globallashuvning ta’siri va raqamlashtirish jarayonlari faollashishi natijasida insonlar orasidagi xayrixohlik yo‘qolib, kishilar o‘z ehtiyojlarini bir-birlari orqali emas elektron resurslarning hisobiga qondirayotganligining guvohi bo‘lyapmiz. Buning oqibatida, jamiyatni texnika-texnologiya olami bilan chegaralab qo‘yish jamiyatning ijtimoiylashuviga keskin to‘sqinlik qilishi mumkin. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: “Milliy ma’naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz hayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati juda katta”, — deya ta’kidlaganlari ham bejiz emas. Zero, ijtimoiy-gumanitar fanlar insonlarning hayotda o‘z o‘rnini topishida, ong-u tafakkurini rivojlantirishda katta ta’sir qiladi. Jamiyatda yuz beruvchi salbiy hodisalar, giyohvandlik, johillik, firibgarlik, narkobiznes kabi illatlar ijtimoiy-ma’naviy muhitning buzilishiga olib keladi. Bu kabi loqaydlik va bilimsizlik orqasida yuz beruvchi hodisalarni bartaraf etish uchun kishilarda ijtimoiy madaniyat, mas’uliyatlilik hissini shakllantirish joiz. Qolaversa, oliy ta’lim muassasalarida

ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida ilmiy va ilmiy uslubiy ishlar ko‘lamini yanada kengaytirish, tadqiqotlar, ilmiy maqolalarda ilgari surilgan yangi qarashlar, g‘oyalar, nazariyalar va ilg‘or tajribalarni ommalashtirish birinchi ustuvor vazifa sanaladi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning zamonaviy metodikalarini amaliyotga joriy etish, nazariy va amaliy bilimlarni uyg‘unlashtirish orqali yoshlarni yetuk, intellektual salohiyatli, ilm-ma’rifatli qilib tarbiyalash, yuksak bilim va ma’naviyatga ega mutaxassis sifatida tayyorlash, mamlakatimizning dunyo miqyosidagi nufuzini oshirish singari ustuvor vazifalarni izchil va tizimli amalga oshirish maqsadi turadi. Bundan tashqari, jahon ilm-fani rivojiga katta hissa qo‘shgan ulug‘ ajdodlarimizning ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida yaratilgan ilmiy va ma’naviy merosini chuqur o‘rganish, tahlil etish va ularning an’analarini rivojlantirish masalasiga ham katta e’tibor qaratish lozim. Yoshlarga munosib ta’lim berish, ularning ilm-fanga, ma’rifatga bo‘lgan intilishlarini ro‘yobga chiqarish, ular o‘rtasida halollik, rostgo‘ylik, axloqiylik, insoniylik sifatlarini shakllantirishda ham ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish muhim va dolzarb vazifa sanaladi. Sharqona qarashlarda axloqiylik, insoniylik kabi tushunchalar ezgu qadriyat sifatida shakllanib, xalqlar hayotining ajralmas qismiga aylangan. Ijtimoiy-gumanitar soha jamiyat hayotida xayrixohlik, hamkorlik va hamjihatlik kabi fazilatlarni shakllantirishda asos vazifasini o‘tab beradi. Uch ming yillik tarixga ega ko‘hna va qadim Turon zaminida azaldan ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishlarga e’tibor yuqori bo‘lib kelganligini e’tirof etish joiz. Bunga yaqqol misol sifatida IX-XII asrlardagi renessans davri birinchi ma’rifiy uyg‘onish nomi bilan atalishi ham bejiz emas. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim”.[1] Darhaqiqat, ta’lim tizimidagi islohotlar taraqqiyot va rivojlanishning mustahkam ustuni. Ijtimoiy-gumanitar fanlarga beriladigan e’tibor millatimizga qilingan e’tibor va sadoqat hisoblanadi. Har qanday rivojlanishning asosini ijtimoiy-gumanitar soha tashkil etar ekan, ushbu sohaga ehtiyoj kun sayin ortib boraveradi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarga ehtiyojning ortishini Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikridan yaqqol anglashimiz mumkin: “Bizda uzoq yillar davomida ijtimoiy fanlarga nisbatan bir tomonlama texnokratik yondashuv, bu boradagi masalalarga ajabtovur bir — o‘gay qarash shakllanib qolgan”[2]. XIX asrning ikkinchi yarmidan qaramlikka, ma’naviy tanazzulga uchragan xalqimiz bu botqoqlikdan o‘zlikni anglash va milliy uyg‘onish harakati bilan chiqishni anglagan edi. Bu yo‘lda jonini fido

[1] O.M.G‘aybullayev. Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi. -T.: “Fan va texnologiya”, 2019.
[2] Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi -Toshkent “O‘zbekiston”, 2021. –B.237.

qilgan ma’rifatparvar jadidlarimiz millatning ma’naviy kamoloti uchun ilm va ma’rifatni qurol qilib olishdi. Ulardan biri Abdurauf Fitrat shunday degan edi: “Inson ma’naviy-ma’rifiy kamolotida oila, jamoa muhim o‘rin egallashini ko‘rsatish bilan birga, axloqiy poklik, donishmandlik, shijoatlik, adolatlilik, insonparvarlik, vatanparvarlik kabi ma’naviy fazilatlarni ulug‘ladi”. Shu boisdan, insonning ma’naviy kamolini, insoniy qadr-qimmatini shakllantiradigan fanlar bu – ijtimoiy-gumanitar fanlardir deya bemalol ayta olamiz. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda yuzaga kelayotgan muammolar inson qadrining yo‘qolishiga, jamiyatdagi turli beqarorliklarning yuzaga kelishiga, insonlardagi loqaydlik, e’tiborsizlik, mas’uliyatsizlik kayfiyatining yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Shu sababli ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning zamonaviy metodikasini ishlab chiqish zarur sanaladi. Mazkur metodikalarni amaliyotga joriy etish orqali ijtimoiy-gumanitar sohani yangi bosqichga olib chiqa olish mumkin:

– yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash va rivojlantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarga oid sifatli adabiyotlar yaratish;

— yoshlar ma’naviyati va mafkuraviy immunitetini mustahkamlashda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy qilish;

— jamiyatda mustaqil fikrlash va faoliyat olib borilishi uchun ijtimoiy-gumanitar sohada yig‘ilib qolgan muammolarning yechimini topish;

— kelajak avlodga ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda va o‘rgatishda o‘quv dasturlarini kreativ usullar bilan yaratish;

— ijtimoiy-gumanitar fan o‘qituvchilari o‘z sohasidan kelib chiqib, burch va mas’uliyatlarini anglagan holda muayyan yo‘nalishni chuqurroq tahlil qilishlari zarur.

Mamlakatimizdagi amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatdagi har bir kishini o‘z ustida ishlashga, izlanishga, rivojlanishga, ilmiy-ijodiy faoliyatga undayotgani quvonarli holat. Biroq hali oldinda bajarishimiz kerak bo‘lgan vazifalar talaygina ekanligini mavjud muammolar va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida ko‘rsatilgan bir qator quyidagi ustuvor vazifalar va maqsadlar mazmunidan ham bilishimiz mumkin:

1. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish.

2. Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish.

3. Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash.

4. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish.

5. Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish.

6. Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish.

7. Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.[1]

Yuqoridagi kabi belgilangan vazifalarning barchasi ijtimoiy-gumanitar fanlarning yordami bilan amalga oshiriladi. Inson qadri, inson qadrini ko‘tarishga qaratilgan chora-tadbirlar avvalo ijtimoiy-gumanitar fanlarning qay yo‘sinda o‘qitilishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bunda eng avvalo uzluksiz ta’limni gumanitarlashtirish, ijtimoiy gumanitar sohada olib borilayotgan tadqiqot ishlarining sifati va samaradorligini oshirish zarur. Ijtimoiy-gumanitar fanlar tarkibini mazmunan yangilash maqsadida inson uchun ma’nan oziqlanadigan, tafakkur va ongini yuksaltiradigan, zamon ruhini o‘zida mujassam etgan adabiyotlarni yaratish va mutolaa qilish jarayonlarini ommalashtirish kerak. Oliygohlarda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda talabalarning olayotgan nazariy bilimlarini jamiyat hayotida, amalda qo‘llay olish malakasini shakllantirish maqsadida nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash zaruriy masala hisoblanadi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning o‘qitilishi va shu sohaga jiddiy e’tibor qaratish jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy manzarasiga ta’sir qiluvchi salbiy illatlar paydo bo‘lishining oldini olishga xizmat qiladi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar o‘qitilishi tizimining sifati va samaradorligini oshirish yo‘lida ularning moddiy-texnik bazasini shakllantirish, yangi o‘quv-ilmiy adabiyotlarini yaratish zarur. Bundan tashqari ijtimoiy-gumanitar fan yo‘nalishida tahsil oluvchilarning o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash masalalarini ham keng ilgari surish lozim. “Ijtimoiy-gumanitar sohaning aniq formulasi mavjud. Bu: sog‘lom g‘oya + to‘g‘ri ijro + obyektning to‘g‘ri yo‘naltirilganligi = Teng g‘oyadan ko‘zlangan maqsadning natijaga aylanishi. Bu yo‘lda asosiy tamoyillar: xayrixohlik, hamjihatlik, hamkorlik, safarbarlik, bunyodkorlik va albatta natijadorlikdir”.[2] O‘zbekiston Respublikasida joriy islohotlar xalq manfaatlarini ko‘zlagan holda o‘tkazilmoqda, ular xalq ta’limi, sog‘liqni saqlash, sport, madaniyat, ilm-fan sohalariga doimiy e’tibor qaratgan holda amalga oshirilmoqda. Kelajagi buyuk, rivojlangan davlat bunyod etish, kelgusi avlodlarga ozod va obod Vatanni meros qoldirish borasidagi maqsadlar taqdiri, yoshlarning jahon ilm-fan yutuqlarini nechog‘lik mukammal darajada egallashlariga bog‘liqdir. Barkamol avlodni ijtimoiy-gumanitar soha negizida tarbiyalash esa yangi jamiyat barpo etishning eng muhim sharti hisoblanadi. Bizning bosh strategik maqsadimiz ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish ekanligini anglagan holda, insonlar baxtli va farovon yashaydigan, ijtimoiy rivojlangan jamiyatning milliy modeli ilm-fan tomonidan nazariy asoslab berilmoqda.

---

[1] https://lex.uz/uz/docs/-5841063. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi.

[2] Asadbek Zairov. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari. International scientific and Practical conference. VOLUME #4, 453b

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy-gumanitar sohada amalga oshirilayotgan istiqbolli maqsad va vazifalar, o‘zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan yuqori o‘rinda turadi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko‘lamda targ‘ib qilish zamon talabidir. Ijtimoiy-gumanitar sohani keng miqyosda rivojlantirish, jamiyatning ijtimoiylashuviga va insonlar o‘rtasida o‘zaro do‘stona muvozanat saqlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O.M.G‘aybullayev. Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi. –T.: “Fan va texnologiya”, 2019.
2. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi –Toshkent “O‘zbekiston”, 2021. –B.237.
3. https://lex.uz/uz/docs/-5841063. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi.
4. Asadbek Zairov. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari. International scientific and Practical conference. Volume #4, 453b.

ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF DISTANCE EDUCATION

Madina FAYZULLAEVA
2- years masters student in the Faculty of Pedagogy
at Chirchik State Pedagogical University

Abstract: This article reveals the advantages and disadvantages of distance education, and it is based on our conclusions, which we have studied the education system in the UK, Germany, the USA and Japan. Moreover, you can get more data about the results and conclusions of a number of professors who have experience in distance learning and teaching such as Charles Wedemeyer and Gayle Childs. In addition, the article describes what problems can be encountered in the implementation of distance education in educational institutions, as well as, information about what advantages a distance education university can have over other traditional educational institutions.

Key words: Distance Education, University, problems, traditional teaching, quality, learning, technology, professors who have experience in distance learning and teaching, Universities with distance learning.

Annotatsiya: Ushbu maqolada masofaviy ta’limning afzal va noafzal tomonlari ochib berilgan bo‘lib, u biz Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSH va Yaponiyadagi ta’lim tizimini o‘rganib olgan xulosamiz asosida yozilgan. Shuningdek, masofaviy ta’lim bo‘yicha tajribaga ega professor Charles Wedemeyer va Gayle Childs kabi bir qancha professorlarni ilmiy izlanishlari natijasi va xulosasi bilan ham tanishishingiz mumkin. Bunga qo‘shimcha

ravishda, maqolada masofaviy ta'limni ta'lim muassasalarida joriy qilishda qanday muammolarga duch kelish mumkinligini, shuningdek, masofali ta'lim shakliga ega oliygoh boshqa an'anaviy ta'limdagi ta'lim muassasalaridan qanday ustunlik jihatlariga ega bo'lishi mumkinligi haqida ham ma'lumotlar mavjud.

Kalit so'zlar: Masofaviy ta'lim, Universitet, muammolar, an'anaviy o'qitish, sifat, ta'lim, texnologiya, masofaviy ta'lim va o'qitish bo'yicha tajribaga ega professorlar, masofaviy ta'limga ega universitetlar.

Аннотация. В данной статье раскрываются преимущества и недостатки дистанционного образования, и она основана на наших выводах, которые мы изучили системы образования в Великобритании, Германии, США и Японии. Кроме того, вы можете получить больше данных о результатах и выводах ряда профессоров, имеющих опыт дистанционного обучения и преподавания, таких как Шарль Ведемейер и Гейл Чайлдс. Кроме того, в статье описывается, с какими проблемами можно столкнуться при внедрении дистанционного образования в образовательные учреждения, а также информация о том, какие преимущества может иметь вуз дистанционного образования перед другими традиционными образовательными учреждениями.

Ключевые слова: дистанционное образование, вуз, проблемы, традиционное обучение, качество, обучение, технология, профессора, имеющие опыт дистанционного обучения и преподавания, вузы с дистанционным обучением.

Distance education, also known as online or remote learning, has become increasingly important in the current era. It offers several benefits and opportunities for learners, educators, and institutions. It will be exposed the theoretical knowledge on the subject of the Distance Education and its origin in the early twentieth century, which was acquired by the renowned authors of these areas works. Besides the scientific weight found in the bibliography chosen to support this work, it is also considered relevant to expose the contribution of each author cited in the understanding of the subject mentioned. There are currently two types of education, namely the presence, also conventional call, to be used for centuries and distance, more recent, but has increased its acceptance every day. Distance education, known acronym to call this type of education, is the way of learning which is established by the use of technologies that allow interaction between the student and the teacher, although they are in physical environments and different timelines[1]. According to an article published in The Journal, a North American journal specialized in education, the distance education appeared in the year 1840, year in which Sir Isaac Pitman had the idea of creating professional shorthand writing courses by correspondence. The concept was so successful that within a few years the education programs were already available in the UK,

[1] Moran, M. S., Inoue, Y., Barnes, E. M. (1997). Opportunities and limitations for image-based remote sensing in precision crop management. Remote sensing of Environment, 61(3), 319-346.

Germany, USA and Japan. In the articles titled "Use of international experience in increasing the efficiency of education quality"[1] and "Aspects of the Japanese education system that we do not know"[2], you can get information about the conclusions of our study of the education system in Germany, USA and Japan. In 1900, the first education department by correspondence appeared at the University of Chicago, and in 1911, it appeared in Australia, at the University of Queensland, in the Department of Foreign Studies.

Relevance of the topic. At the end of the 70s, the Open University, located in the UK, has initiated a development phase in distance education, which sent studying materials to its students, such as texts and audio and video, but also completed the study of radio and television broadcasts. In addition, tutors had telephone sessions with their students in order to ensure quality learning. Over the next two decades, the Open University has already had four open universities in Europe and more than 20 around the world. In the United States, the first institution working with distance learning was in 1971.

Material and research methods. According to Bizhan, Nyse aimed to make higher education more accessible to students who were unable to attend classes on college campuses. The created program provided the entry of several students who did not have the requirements for entering in a traditional university. During this time, professors Charles Wedemeyer and Gayle Childs studied and were responsible for the advancement of research in distance education, which enabled the national and international growth of this type of education. This type of education has gradually shown its intense increasing relevance because of its social bias, the inclusion point of view brought by the flexibility of the methodology used to those who hitherto could not attend educational institutions for lack of time availability or by the distance of the same, it brings the possibility of access to students who were outside the universities and other institutions, as argued by Preti[3]. The growing demand for education, not only due to population growth, and above all the struggles of the working classes by access to education, to learn socially produced concurrently with the development of scientific and technological knowledge is demanding changes in the level of function and structure of school and university[4]. This inclusion becomes more apparent because distance education enable students to establish their own study schedule, and the feasibility of this is provided by classes taught via the internet, most of

[1] Fayzullaeva, M., Kholbutaeva, M. (2022). Use of international experience in increasing the efficiency of education quality. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, *2*(10), 63-68.

[2] Khimmataliev, D., Fayzullaeva, M. (2023). Aspects of the japanese education system that we do not know. Science and innovation, 2(B2), 362-367.

[3] de Oliveira, M. M. S., Penedo, A. S. T., Pereira, V. S. (2018). Distance education: advantages and disadvantages of the point of view of education and society. *Dialogia*, (29), 139-152.

[4] de Oliveira, M. M. S., Penedo, A. S. T., & Pereira, V. S. (2018). Distance education: advantages and disadvantages of the point of view of education and society. *Dialogia*, (29), 139-152.

the time, and through other media. The learner autonomy in the face of distance education methodology makes it possible that it has a chance to join various categories of courses such as graduation, graduate, technical courses, vocational and further training.

Result and analysis. *Advantages of Distance Education:*

1. Flexibility: Distance education allows students to learn at their own pace and schedule. They can study from anywhere, anytime, and have the freedom to balance their education with other commitments like work or family.

2. Accessibility: Distance education eliminates geographical barriers, allowing students from different locations to access quality education. It provides opportunities for individuals who cannot attend traditional on-campus classes due to distance or other constraints.

3. Cost-effective: Distance education often costs less than traditional on-campus programs. Students can save money on transportation, accommodation, and other expenses associated with attending physical classes.

4. Self-paced learning: With distance education, students can learn at their own speed, reviewing materials as needed and taking extra time to understand complex concepts. This personalized learning experience can enhance comprehension and retention of information.

5. Diverse learning resources: Distance learning utilizes a wide range of multimedia tools such as video lectures, online forums, interactive simulations, and virtual labs. These resources provide a rich learning experience that caters to different learning styles.

Disadvantages of Distance Education:

1. Lack of face-to-face interaction: One of the main drawbacks of distance education is the absence of in-person interaction with instructors and fellow students. This can limit opportunities for active engagement, collaborative discussions, and immediate feedback.

2. Limited practical experience: Some fields of study require hands-on training or practical experience that may be challenging to replicate in a distance education setting. Students may miss out on practical skills development or laboratory experiments.

3. Self-discipline and motivation: The flexibility offered by distance education requires self-discipline and self-motivation from students to stay organized, manage time effectively, and complete assignments without regular supervision.

4. Technology requirements: Distance education heavily relies on technology infrastructure such as internet connectivity, computers/laptops, software applications, etc. Students without access to reliable technology or those with limited technological skills may face challenges in participating fully.

5. Social isolation: The lack of face-to-face interaction and physical presence on campus can lead to social isolation for distance education students.

They may miss out on networking opportunities, peer support, and the sense of belonging that comes from being part of a physical learning community.

It's important to note that while distance education offers numerous benefits, it also poses challenges that need to be addressed. These challenges include ensuring technological infrastructure, internet access, maintaining student engagement and motivation, and providing adequate support services. However, with proper planning and implementation, distance education can play a vital role in making education more accessible and inclusive for learners worldwide.

References:

1. Moran, M. S., Inoue, Y., Barnes, E. M. (1997). Opportunities and limitations for image-based remote sensing in precision crop management. Remote sensing of Environment, 61(3), 319-346.
2. Fayzullaeva, M., & Kholbutaeva, M. (2022). Use of international experience in increasing the efficiency of education quality. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, *2*(10), 63-68.
3. Khimmataliev D., Fayzullaeva M. (2023). Aspects of the elektron education system that we do not know. Science and innovation, 2(B2), 362-367.
4. de Oliveira, M. M. S., Penedo, A. S. T., & Pereira, V. S. (2018). Distance education: advantages and disadvantages of the point of view of education and society. *Dialogia*, (29), 139-152.
5. Aslonov, S. S. (2020). The role of online teaching and innovative methods. Science and education, 1(3), 524-528.
6. Afanas, D. (2021). Distance Education. Labor et Educatio, (9), 67-82.
7. Mirza o'g'li, A. I. (2023). Introduction of electronic textbooks in secondary schools: what teachers need. In Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies (Vol. 2, No. 1, pp. 21-26).
8. Clark, J. T. (2020). Distance education. In Clinical engineering handbook (pp. 410-415). Academic Press.

FANLARARO INTEGRATSIYALASHNING AHAMIYATI

Nargiza NOROVA
Nukus davlat pedagogika instituti,
13.00.02- Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi,
I bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: ushbu maqolada fanlarning aloqadorligi bo'yicha bir biri bilan tizimli bog'lanishi haqida, fanlararo integratsiyaning asosiy vazifalari va maqsadlari yoritilgan. Integratsiyalashgan darslarni o'zlashtirishda boshlang'ich

sinf o‘quvchilarida kechadigan psixik jarayonlar va ularga yechimlar haqida maslahatlar berilgan. Bundan tashqari, o‘qituvchilar o‘rtasida integratsiyani to‘liq, asosli qilib tushuntirish uchun hamkorlik qilish to‘g‘risida yo‘nalishlar berilgan. Fanlarni o‘zaro bog‘lab o‘tish haqida ilmiy tadqiqotchilarning ishonchli va asosli fikrlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: integratsiya, psixologik jarayon, analiz-sintez, tanqidiy fikrlash, intuitsiya, metodologiya.

Аннотация: в данной статье описывается системная связь дисциплин друг с другом, основные задачи и цели междисциплинарной интеграции. Приводятся мыслительные процессы и решения учащихся младших классов при освоении интегрированных уроков. Кроме того, существуют направления сотрудничества между учителями для полного и разумного объяснения интеграции. Представлены достоверные и обоснованные мнения научных исследователей о взаимосвязи наук.

Ключевые слова: интеграция, психологический процесс, анализ-синтез, критическое мышление, интуиция, методология.

Abstract: in this article, the main tasks and goals of interdisciplinary integration are explained about the systematic connection of disciplines with each other in relation to each other. Mental processes and solutions for elementary school students are given in mastering integrated lessons. In addition, there are directions for cooperation between teachers to explain integration in a complete and reasonable way. Reliable and reasonable opinions of scientific researchers are given about the interconnection of sciences.

Key words: integration, psychological process, analysis-synthesis, critical thinking, intuition, methodology.

Hozirgi kunda ta’lim berish jarayonida eng oson va eng samarali usullarni amaliyotga tatbiq etish muhim sanaladi. Shunday usullardan biri fanlararo integratsiyadir. O‘quvchilarning dars jarayonida mustaqil va faol bo‘lib, turli psixologik to‘siqlarga uchramasdan tarmoqli fikrlashni qo‘llab quvvatlash maqsadida ushbu usuldan keng foydalaniladi. Bundan tashqari, oldin olingan bilimlarni yangisi bilan bog‘lash, bilimlarni bir tizimga keltirish, tezroq eslab qolish va ma’lumotlarni qayta ishlashga ixtisoslashgan bo‘ladi. Fanlararo integratsiya deganda mavzu mohiyatini o‘quvchilarga to‘la to‘kis ochib berish va tushuntirish uchun bir nechta fanlarning o‘zaro bir biriga bog‘liq ma’lumotlarni mujassamlashtirish orqali bilimlarni yaxlitlash tushuniladi. Integratsiya so‘zining mohiyatiga keladigan bo‘lsak, Integratsiya (lot. *integratio — tiklash, to‘ldirish, integer — butun* so‘zidan) — 1) sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o‘zaro bog‘liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha; 2) fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro aloqa jarayoni; differensiatsiya bilan birga kechadi; 3) ikki va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o‘zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish [1] degan ma’nolarni

[1] “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. T.: 2000-2006. 214 b.

anglatadi. Bir ma'lumot bir fan doirasida boshqa ma'noni, ikkinchi fan doirasida esa boshqa ma'noni anglatishi mumkin. Agar o'qituvchi fanlararo bog'lanishni to'g'ri va aniq amalga oshirsa, o'quvchilar bu haqidagi tushunarsiz fikrlardan xalos bo'ladi. Bu ikki asosning bir-biriga qanday aloqasi borligi haqida to'g'ri xulosa chiqaradi. Ushbu yondashuv yangi bilimlarni chuqurroq o'rganishga, anglab yetishga, o'zaro aloqadorlik munosabatlarini anglashga, umumiy, tezkor va qat'iy xulosaga kelishga olib keladi.

Fanlarni o'zaro bog'lab o'qitish asosan ikki usuldan amalga oshiriladi:

1. O'quvchilarga o'rgatilayotgan muammoni tushunishlari uchun yordam beradigan bir necha fanlar bo'yicha aniq kontekstni aniqlashga yordam beradi.

2. O'rganilgan tushuncha va g'oyalarni tahlil qilish jarayonida integratsiyalash qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Fanlararo integratsiya ustida ko'plab tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borgan va turli jabhalarda bu tushunchani yoritib berishgan. Misol uchun, o'zbek olimalaridan R.A. Mavlonova, N. Rahmonqulova "Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi" nomli o'quv qo'llanmasida integratsiyaning ahamiyati, nazariy asoslari, hozirgi zamon muammolari, samaradorligini oshirish, o'qituvchi va o'quvchilarni dars davomida pedagogik va psixologik jarayonini yoritib bergan: Integratsion kursning maqsad va vazifalari maktab tabiiy-ilmiy ta'lim tizimida tavsiflanadi. Bilimning integratsiyalashgan (ko'rgazmali) tarmog'ida integratsiyalashning usul va vositalari: ta'lim rejasidagi o'qitish joyida vaqtning hajmiga qarab, shu kursni to'la o'zlashtirish vaqti o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi – ko'p maqsadli va rang-barangligi hamda ko'p funksiyaga egaligi bilan tavsiflanadi. [1]

"Fanlararo rejalashtirish turli fan sohalarining umumiy maqsadlari bilan belgilanadi. Fanlararo yondashuvning didaktik yechimlaridagi farqlarga qaramay, ular ham mazmun, ham jarayon darajasiga mos kelishini aniqlashimiz mumkin. Har ikki nuqtai nazar fanlararo aloqalarni o'rganishning turli imkoniyatlarini tushunish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lganligi sababli, biz ularning ta'lim amaliyotida amalga oshirilishini o'rgandik. [2] Integratsiyalash ta'lim sohasida yangi, yorqin so'z bo'lib tuyuladi, bu haqida ko'plab gapiriladi va tadqiq qilinadi. Aslini olib qaraganda, bu izlanishlar nimani anglatadi? Nima uchun kerak? Fanlararo integratsiyaning qanday afzalliklari bor? Avvalo, fanlararo tushunchasi nima? Degan savolga javob berib o'tsak, Merriam Webster lug'atida "fanlararo" tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi: "Ikki yoki undan ortiq ilmiy, ilmiy yoki badiiy fanlarni o'z ichiga olgan." [3] Bunda mavzular bo'yicha tushunchalar solishtiriladi, yagona tushuncha aniqlanadi va o'zlashtiriladi. Eski

---

[1] R. A. Mavlonova, N. Rahmonqulova "Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi" Ilm ziyo. T.: 2009.

[2] Barbara Sicherl-Kafol, (б.д.). The importance of interdisciplinary planning of the learning. doi:https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2010.03.752

[3] Webster, M. (б.д.). https://www.merriam-webster.com/dictionary/ interdisciplinary.

bilimlar yangilanib, ma’lumotlar bazasi kengayadi. Bolaning fikrlashi rivojlanadi. Ma’lumotlarni analiz-sintez qilishni, tanqidiy fikrlashni boshlashi natijasida bilimlar mustahkamlanib boshlaydi. Mavzularni bir nechtasini birlashtirib o‘rgatish, o‘quvchilarni boshqa fanlarga ham qiziqishini orttiradi, turli yangi bilimlar olishga undaydi.

Fanlararo integratsiyani o‘rganishda eng samarali usul tabiat bilan bog‘lashdir. Chunki, barcha bilimlar asosi tabiatdan kelib chiqqan. Boshlang‘ich sinflarda ham o‘quvchilar ilk asoslangan bilimlarni olishlaridan oldin tabiat va atrof-muhit bilan tanishib bo‘lgan bo‘lishadi. Ularga H_2O desangiz tushunmasliklari aniq, ammo suv desangiz bola maktabga kelgunga qadar suv haqidagi tushunchalar allaqachon paydo bo‘lganligi isbotlab beradi. Keyinchalik, uning tarkibi, ishlatilishi, fizik xususiyatlari haqidagi bilimlar bilan qolgan fanlarni bog‘lash mumkin. Bularning hammasini biz fanlararo integratsiyalash deb atashimiz mumkin, ammo boshlang‘ich sinflar uchun oson va tushunarlilik tamoyiliga asosan, o‘quv dasturi doirasida ikki fanni o‘rtasidagi o‘xshashliklar, ma’lumotlar bir-birini to‘ldirish, solishtirish asosida amalga oshiramiz. Buning natijasida o‘quvchi turli fanlarni biriktirib, biror tushuncha haqida yaxlit bilimga ega bo‘ladi, tushunchani turli taraflama anglay oladi. Bu usul orqali o‘rganish o‘quvchilarda har xil fanlar bo‘yicha tushunchalar o‘rtasida aloqa o‘rnatishni va imkon qadar ko‘p va to‘liq ma’lumot olishni ta’minlaydi. Buning natijasida o‘quvchilarning bilimlari chuqurlashadi, egallagan ilmlarini boshqa fanlarda ham hech ikkilanmay qo‘llay oladi. Fanlarni integratsiyalashda o‘quvchilar o‘zlari uchun qiziq bo‘lgan to‘garaklarni tanlay olish muhim sanaladi. Negaki, ularni o‘rganishga motivatsiya beradigan fanlar va ularga yondosh fanlarni o‘rganish ular uchun oson va qiziqarli bo‘ladi. Integratsiyalash jarayoni orqali berilgan bilimlarni o‘zlashtirish ham boshqa fanlarga qaraganda tezroq amalga oshadi. Natijalar hayotiy tajribalar asoslangan bo‘lsa, o‘zlashtirish uchun asosiy maqsad oydinlashadi va haqiqiy hayotda o‘z isbotini topadi. Bu tartibda olingan bilim uzoq muddat xotirada yaxshi saqlanadi.

Fanlararo olingan bilim o‘quvchilarning bilimlarini yuksaltiradi. Ma’lum bir ma’lumotga jalb qilish va ularni o‘rganish, tahlil qilish, bog‘liqlik jihatlari izlab topishga undaydi. O‘quvchilardagi bilim, ko‘nikma va malakalarini yuksaltiradi. Psixologik tomondan, muammolarni har tomonlama o‘ylab, tezda hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. O‘quvchining o‘z ustida ishlashini rag‘batlantiradi, ichki intuitsiyasini oshiradi, yangiliklarni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi. Bunda bolada kognitiv qobiliyat rivojlanishiga yordam beradi.

Fanlararo integratsiyalashni yanada yaxshilashda, o‘quvchilarga eng to‘g‘ri va asosli bilimlarni berishda muhim jihatlardan biri, integratsiya qilmoqchi bo‘lgan fanni mutaxassis o‘qituvchisi bilan hamkorlikda amalga oshirish tavsiya etiladi. Turli fan o‘qituvchilari bilan birgalikda ishlangan integratsiyalashgan dars ishlanmasi, albatta, o‘z samarasini beradi. O‘quvchilarda bilimlarni chuqurroq egallash va yangi bilimlarni tezroq o‘zlashtirishni ta’minlaydi. Bunday hamkorlik

boshqa o‘qituvchilarni ham befarq qoldirmasliklari aniq. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bir nechta fanlarning metodologiyasi bilan yaxshi tanishlar va uni amaliyotda qay tartibda qo‘llashni biladilar. Bu tegishli mutaxassis bilan maslahatlashish vaqtini tejaydi va o‘qituvchi o‘z ustida ishlashga ko‘proq vaqt ajratadi. O‘z mutaxassisligi bo‘yicha qaysi o‘rinlarda fanlarni integratsiyalashni, qaysi ma’lumotlarni to‘ldirish kerakligini yaxshi bilishadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, fanlararo integratsiyalash o‘quvchilar uchun juda muhim va foydali. Bir necha fanlarni o‘rganishda integratsion yondashuv juda ham qulay usul hisoblanadi. Chunki maktabda ko‘plab fanlar o‘qitiladi va ular o‘zaro bir biri bilan bog‘liq. Ular bir sohada bilim olib, boshqa fanlarga bemalol qo‘llay oladilar. Bu jarayonda ular tanqidiy fikrlaydilar va ma’lumotlar asosini o‘zlari topishga intiladilar. Integratsiyalash mavzular asosida g‘oyalarni birlashtirish natijasida yanada ko‘proq va mazmunliroq bilim berishga intilishdir. O‘quvchilar fanlardagi o‘zaro bog‘liq munosabatlar haqida fikr yuritganida, ularing bilimlari kengayadi, ma’lumotlari ko‘payadi, ilmiy salohiyatlari chuqurlashadi.

Foydalanilgan adabiyot ro‘yxati:

1. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. T.:2000-2006.214 b.

2. R. A. Mavlonova, N. Rahmonqulova. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. – 2009.

3. Barbara Sicherl-Kafol. The importance of interdisciplinary planning of the learning process https://www.sciencedirect. Com/journal/procedia-social-and-behavioral-sciences. https://doi.org/10. 1016/j.sbspro.2010.03.752

4. https://www.merriam-webster.com/dictionary/interdisciplinary

ARAB HARFLARINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O‘RGATISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Halida SADULLAEVA
TDSHU, Sharq tillari filologiyasi fakulteti
Arab ingliz yo‘nalishi 3-guruh, 3- kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada arab tilini ikkinchi til sifatida o‘rgatish xususida so‘z boradi. Arab tili tarixi va tilning fonetik xususiyatlari, yozuvi boshqa alfavitlarga taqqoslab ifoda qilish usullari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Alifbo, oromiy yozuvi, arab tili,fonetika,xat, harf, grafika, mnemonika.

Аннотация: Статья посвящена преподаванию арабского языка как второго языка. Изучаются история арабского языка, фонетические особенности языка, способы выражения в сравнении с другими алфавитами.

Ключевые слова: алфавит, арамейский язык, арабский язык, фонетика, буквы, графика, мнемотехника.

Abstract: The article is devoted to teaching Arabic as a second language. The history of the Arabic language, phonetic features of the language, and method of expression in comparison with other alphabets are studied.

Key words: Alphabet, Aramaic language, Arabic language, phonetics, letters, graphics, mnemonics.

Bugungi kunda arab yozuvi – arab shuningdek, fors, pushtu, urdu hamda ba’zi turkiy tillarda yozish uchun ishlatiladi. U 28 harfdan iborat. O‘ngdan chapga qarab yoziladi.

Arab yozuvi oromiy yozuvidan kelib chiqqan nabatiy yozuvi (mil. Avv. II asr) asosida paydo bo‘lgan. Oromiy yozuvi (mil. Avv. VIII asr oxirida) esa, insoniyat tarixida ilk yozuv tizimlaridan biri bo‘lgan finikiy (taxminan mil. Avv. XV asr) yozuvi asosida shakllangan[1]. Ma’lumki, bu yozuv arablarnikigina emas, balki arab bo‘lmagan ko‘pgina xalqlar qo‘llab kelgan harf-tovushdir. Milodning III-IV asrlarida finikiyaning oromiy tarmog‘idan ajralib, hamda shakllanib, arab tilining ifodasi uchun qo‘llana boshlaydi va arab yozuvi nomini olgan. Oromiy alifbosida 22 ta harf bo‘lgan. Arablar bu alifboga 6 ta yangi tovush qo‘shib **(ظ غ ث ح ر ض)** 28 taga etkazganlar.

Arab tili somiy (somit- xomit) tillar guruhiga kiradi. Uning paydo bo‘lish va uning rivojlanish davri uchga bo‘linadi :

1. Ilk (islomgacha yoki johiliya) davri milodning VII asri.
2. Klassik davr (VII-XVIII asrlar);

a) Ilk klassik davr VII-X asrlar;

b) Klassik davr (X XVIII asrlar);

3. Zamonaviy davr (XIX asrdan hozirgi paytgacha).

Fonetik jihatdan arab tilining quyidagi xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Arab tili tovushlarining hosil bolish joyi bo‘yicha uyg‘un taqsimlanishi: tovush paychalaridan labgacha. Bu o‘zga tilida so‘zlashuvchilarga arab tilini o‘rgatishda ma’lum qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin, qattiq harflarning talaffuzi alohida kuch va maxsus tayyorgarlikni talab qiladi.

2. Nutqdagi tovushlarning garmonik, musiqiy mosligi. Masalan, chuqur til orqa tovushlarining bir-biri bilan birikmasi arab tilida uchramaydi. Bu arab tiliga ajoyib uyg‘unlik va ohang beradi.

[1] Mirziyatov.Sh.M (2020) Arab filologiyasiga kirish (qayta va kengaytirilgan nashr). // Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti // 77, 79 sahifa

3. Arab tilidagi deyarli barcha so‘zlar ma’lum qolip va konstruksiyalarga ko‘ra qurilganligi sababli, bu ham tilga xushbo‘ylik, qofiya beradi. Har bir misraning oxirgi bo‘g‘ini oldingisiga osongina qofiyalanadi.

4. Arab tilining tovushlari barqaror va talaffuzi 14 asr davomida o‘zgarmagan. Tovushlarning talaffuzi bunchalik uzoq vaqt o‘zgarmagan boshqa til yo‘q. Qur’oni Karim tovushlarini talaffuz qilish usullari maxsus fan – tajvid qoidalarida saqlanib qolgan. Aynan mana shu fan arab tovushlarining to‘g‘ri talaffuzini o‘rganishni o‘z ichiga oladi va arab tilini boshlang‘ich bosqichda o‘rgatishda tajvidni o‘rganish zarur.

5. Arab tilining ayrim tovushlari talaffuz qilinganda so‘zga xos bo‘lgan ma’noning bir qismini bildiradi.

Arab alifbosida mavjud bo‘lgan 28 ta harf yordamida 31 ta tovush ifodalanadi (28 undosh va 3 ta cho‘ziq unli). Harflar so‘z boshida , so‘z o‘rtasida va so‘z oxirida yozilish shakllariga ega. Ba’zi harflar so‘z boshida va so‘z o‘rtasida qo‘shib yozilmaydi.

Ular أ **(alif), د (dal), ر (zal), ر (ro), ز (zay), و (vov)** harflaridir. Arab yozuvidagi 28 ta harfdan 18 tasi mustaqil grafik belgisiga ega. Boshqa harflar ustiga yoki ostiga qo‘yilgan (diakritik) nuqtalarning soniga qarab farqlanadilar. Arab alifbosining deyarli hamma harflari undosh tovushlarni, faqat uchtasi أ (alif),و (vov), ي (ya)unli tovushlarni bildirib keladi. و (vov), ي (ya) ham unli ham undosh vazifasini bajaradi. Bu yozuvda unlilarni ifoda etish uchun harflar ost va ustiga qo‘yiladigan harakatlardan foydalaniladi. Biroq arab yozuvida unlilarga ishora qo‘yilmasa-da so‘zlar sarf nahv qoidalariga binoan mazmunga moslab o‘qilaveradi. Arab yozuvining VII –XIV asrlar orasida shakllangan mashhur nazariyotchi olimlar e’tirof etgan quyidagi mashhur turlari mavjud:

1. ثلث: – suls xati
2. نسخ – nasx xati
3. محقق – muhaqqaq xati
4. ريحانى – rayhoniy
5. توقيع – tavqi’ xati
6. رقاع – riqo‘ xati

Arab tilini ikkinchi til sifatida o‘rgatishni shartli ravishda ikkiga bo‘lib olamiz: bolalar va kattalar. Bolalarda o‘rgatish rasmlar, o‘yin mashg‘ulotlar yordamida olib borilsa, ularning diqqatini jalb qilib, qiziqishini oshiradi, bunday interaktiv o‘yinlar talaygina, jumladan, harflar, ranglar, sonlar va boshqalar. Faqat ahamiyatli tomoni butun boshli alfavit birdaniga berilmaydi, doimiy va tartibli ravishda olib boriladi, bu narsalarni oz qo‘llari bilan yaratish esa juda samaralidir, toshlar, qalamlar yordamida harflarni yozish, yasash, bo‘yash kabi.

Eshituv xotirasi: bu diqqat bilan tinglash axborotni qayta ishlash va eslab qolish, bunda o‘qituvchi ovoz chiqarib harfni o‘qiydi, o‘quvchi takrorlaydi, bu usulni arabcha kichik multfilmlar, bolalar uchun mo‘ljallangan qo‘shiqlar bilan mustahkamlash mumkin.

O‘qish: arabcha hikoya va kichik matnlarni o‘qib borish bilan uzluksiz ta’lim jarayonida o‘qish mahoratini oshishiga olib keladi.

Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, ikkinchi tilni o‘rganish uchun eng yaxshi deb topilgan yosh 7 yoshigacha bo‘lgan davrdir[1].

Katta yoshdagi arab tilini o‘rganuvchilar uchun arab alifbosini, to‘g‘ri yozishni o‘rgatish, arabcha talaffuz, arab tilida o‘qishni boshlang‘ich mahorati, hamda boshlang‘ich monologik va dialogik nutqni oddiy grammatik qoidalar va gap tuzish vositasida shakllantirish amallaridan foydalanish mahsuldor hisoblanadi.

O‘rgatishning bunday usulida ham audiolashgan dars, ya’ni o‘qituvchi harflar va so‘zlarni talaffuz qilishga jonli yoki gadjetlardan foydalangan holda taqdim etishi va takrorlash; qo‘yilayotgan xatolar ustida mashq; mashqlar sinfda yoki alohida mustaqil o‘quvchi tomondan takrorlanishi lozim. Qolaversa, eshitish uchun arabcha multfilm va qisqa metrajli videolardan ham foydalangan ma’qul. Kuniga kamida 10 ta so‘z yodlanishini nazorat qilib borish, lug‘at bilan ishlashni o‘rgatish kerak.

Grammatik jihatdan esa muntazam ravishda mavzuga doir mustaqil vazifalar berib borish, ko‘rgazma va tarqatma materiallar (testlar, kartochkalar)dan foydalanish kerak.

O‘qish uchun har xil darajadagi matnlar, hikoyalar, va ular asosida savollar tuzish mumkin.

Arab tilida gapirishga o‘rganuvchilarni undash va buning uchun ular o‘zlashtirgan bilim-malakalarini ishlata boshlashlikka ko‘maklashish va talab qilish kerak

Arab tilini o‘rgatishda eng samarali usullardan biri bu mnemonikadir.

Mnemonika – bu (yunoncha — eslab qolish san’ati) — sun’iy assotsiatsiyalar hosil qilish yo‘li bilan esda olib qolishni osonlashtiruvchi va xotira hajmini kengaytiruvchi usullar tizimi. Ba’zi mnemonistlar o‘zlashtirishda har xil sun’iy usullarni qo‘llashga o‘rganganligi tufayli katta hajmdagi, hatto ma’nosiz materialni tez esda olib qolish qobiliyatiga erishadilar. Lekin xotira samaradorligini tub ma’noda oshirish uchun sun’iy usullardan foydalanish ikkinchi darajali hamda yordamchi bo‘lib hisoblanadi. Umuman, mexanik ravishda yod olishga qaraganda ma’nosini tushunib yod olish ma’qul va samarali usuldir.[2]

Quyida arabcha yozish va alfavitni qisqa muddatda eslab qolish uchun ba’zi harflar misolida mnemonika usuli beriladi:

ط – to harfi, bu erda to харфи bilan “tog‘” so‘zini o‘xshatishdan foydalaniladi;

ع – ayn harfi o‘zbek tilidagi E harfini “aynan” o‘zi;

---

[1] Karieva M.A Методика преподавания арабского языка. // O‘zbek Davlat jahon tillari universiteti//

[2] O‘zME. (https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzME) Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

غ-g‘oynni aynga g‘ayirligi keb o‘ziga bitta nuqta qo‘yib olibdi;

ل- lom harfi rus tilidagi yozma l harfi faqat yarmi yoq;

و- Tinish belgisi, vergul va hokazo.

O‘tilgan mavzu, matnni mustahkamlash uchun sinkveyn texnikasidan foydalanish samaralidir, So‘z boyligi va bu esa logic fikrlashni talab qiladi. Sinkveyn – fransuz tilida “5 qator” ma’nosini bildiradi. Sinkveyn- ma’lumotlarni sintezlash (bir butunga keltirish) ga yordam beradigan qofiyalanmagan she’r bo‘lib, unda o‘rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea, mavzu) to‘g‘risidagi axborot yig‘ilgan holda, o‘quvchi so‘zi bilan turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi.[1]

1. qator: 1ta ism, mavzu bir so‘z bilan ifodalanadi.

2-qator: ikkita sifat (shu so‘zni ifodalashi mumkin ikkita sifat belgi).

3-qator: uchta fe’l (harakatini bildiruvchi 3ta harakat nomi).

2. qator: 4ta so‘zdan tashkil topgan fraza, mavzuni bayon qilib bera oladigan.

5-qator: sinonim.

1) بيت

2) مريح نظيف

3)(علي) اطل زين وقع

4) زائد شيء فيه ليس

5) منزل

Demak, arab tili eng qadimiy tillardan bo‘lib shuncha yillar davomida o‘z jilosini yoqotmagan. Mazkur tilni ikkinchi til sifatida o‘rganishda taqqoslash va o‘xshatishdan va solishtirish yoki boshqa predmetlar nomi bilan uyushma qilishdan foydalanish juda yaxshi natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyatov.Sh.M (2020) Arab filologiyasiga kirish (qayta va kengaytirilgan nashr). // Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti //

2. Xudayberganov. R (2017) xattotlik fanidan o‘quv –uslubiy majmua // Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti // 1,2 mavzu

3. Maqsumov A.A (2020) Arab tili lug‘at fondida o‘zlashgan so‘zlar //Samarqand davlat chet tillari instituti. //akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya .// 10,12 sahifalar

4. Umarov. A.A (2022) Arab tilining fonetik va leksik xususiyatlari va ularni o‘qitish jarayonida inobatga olish .// Andijon davlat universiteti // 2,3 sahifa

5. Karieva M.A Методика преподавания арабского языка .// O‘zbek Davlat jahon tillari universiteti//

6. Aripova Z.D (2023) Интерактивные методы обучении арабского языка.// O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 3,4 sahifa

[1]https://fayllar.org/sinkveyn-usuli.html

7. O‘zME. (https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzME) Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
8. https://fayllar.org/sinkveyn-usuli.html

BUYUK MUTAFAKKIRLAR MA’NAVIY QARASHLARI – PEDAGOG KASBIY MAHORATI RIVOJLANISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA

Gulbaxor YADGAROVA
p.f.n.,(PhD)., Buxoro davlat pedagogika instituti,
“Umumiy psixologiya” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqola sharq va chet el mutafakkirlari ijtimoiy-psixologik qarashlarining o‘qituvchi pedagogik mahoratining shakllanishida muhim ahamiyat kashf etilishiga bag‘ishlana. Pedagog-o‘qituvchi shaxsini rivojlanishidagi asosiy manbalarga urg‘u berilgan bo‘lib, bizgacha yetib kelgan ajdodlarimiz merosidan faoliyatlarida unumli foydalanish. Kelajak avlodni sharq va g‘arb olimlari fikrining mushtarakligi inson psixikasiga ta’sir etib, ini yuksak madaniyatni, ma’naviy-axloqiy qirralarini shakllanishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: professionalizm, ma’naviyat, psixologik omil, pedagogik mahorat, axloq-odob, psixologik qarashlar, qiziqishlar, moyillik, xarakter qirralari, shaxs yo‘nalganligi, motivatsiya.

Аннотация: В статье рассматриваются социально-психологические аспекты формирования профессиональных педагогов на основе взглядов восточных и зарубежных учёных разных веков. Выделены факторы влияющие на профессионализм преподавателя-педагога, как базовый клад для развития личности. Подчеркивается роль каждой книги доставшийся до нас от предков, как наиболее значимого для каждого педагога воспитавшего будущего поколения. Дано описание выводов восточных и европейских ученых объединяющейся культура как духовно-моральное влияющей на психики человечества.

Ключевые слова: профессионализм, духовность, психологические аспекты, педагогический способность, моральное поведение, психологические взгляды, интересы, склонность, черты характера, направленность личности, мотивация.

Abstract: The article examines the socio-psychological aspects of the formation of professional teachers based on the views of Eastern and European scientists of different centuries. Factors influencing the professionalism of a teacher-teacher are identified as a basic treasure for personal development. The role of each book handed down to us from our ancestors is emphasized, as the most significant for each teacher who raised the future generation. A description

is given of the conclusions of Eastern and European scientists about the unifying culture as a spiritual and moral influence on the psyche of humanity.

Key words: Professionalism, spirituality, psychological aspects, pedagogical ability, moral behavior, psychological views, interests, inclinations, character traits, personality orientation, motivation.

Bugungi kunda ijtimoiy va iqtisodiy shart-sharoitning murakkab tus olishi pedagoglarning o‘z faoliyatlarini tubdan o‘zgartirishga hamda izchil, aql-zakovatni ishga solgan holda amalga oshirishni taqozo etmoqda. Bu bir tomondan davr talabi yoki ta’lim tizimiga nisbatan yangi talablarning yuzaga kelishi pedagoglarni ekanini, ikkinchi tomondan shart-sharoitga nisbatan tub burilish hosil qilish yoki shaxs faoliyatini yo‘naltirishda yangicha munosabatda ish tutishni talab etilishidir. Chunki mamlakat ravnaqini ta’minlashda ta’lim tizimida ijobiy o‘zgarishlarning kiritilishi pedagogik xodimlarning psixologiyasida burilish yasashlik bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning tashabbuslari bilan qabul qilinayotgan huquqiy-me’yoriy hujjatlarda, “...inson shaxsi taraqqiyotining barcha yosh davrlarida samarali shakllanish va ayniqsa ilk yoshdan boshlab ta’lim muassasalarida qadriyatlarimiz bilan birga, ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy taraqqiy qildirish va rivojlantirish sharoitlarini ta’minlash va ajdodlarimiz qoldirgan boy merosdan yanada oqilona foydalanish imkoniyati yaratiladi. Shu nuqtai nazardan so‘nggi yillarda mamlakatimiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarda mazkur sohani yanada rivojlantirish, o‘qituvchilarning nufuzi va ijtimoiy mavqeyini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda”[1]. Xususan, Prezidentimizning 2020 yil 6 noyabrda qabul qilingan “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni hamda 2021 yil 25 yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4963-son qarorida xalq ta’limi tizimidagi islohotlarni yanada takomillashtirish va ilmiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berildi[2].

Mazkur hujjatlarda xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan bog‘liq masalalarda ham alohida e’tibor qaratilib, sohadagi rahbar va pedagog xodimlarni “hayot davomida o‘qish” tamoyili asosida uzluksiz malaka oshirish tizimiga transformatsiya qilish vazifasi qo‘yildi.

Bugun biz zamonaviy uzluksiz malaka oshirish tizimi xususida fikr yuritar ekanmiz, e’tiboringizni masalaning ba’zi bir psixologik jihatlariga qaratmoqchimiz. Ya’ni o‘qituvchining psixologik bilimi va holati bu jarayonni to‘g‘ri tashkil etishi uchun muhim omildir. Davr talabi nuqtai nazaridan, ya’ni

---

[1] Sh.M. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni marda va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.‖ Toshkent-2017. 189-bet.

[2] Ma’rifat gazetasi. 2021 yil, 4-son.

inson ontogenezi, jumladan, fan-texnika taraqqiyoti o‘qituvchining faqatgina *pedagogik nazariya*larni egallashining o‘zigina kifoya emasligini ko‘rsatadi. Chunki, pedagogik nazariyada bolalarni o‘qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun qoidalar, umumlashtirilgan uslubiy g‘oyalar bayon etiladi. O‘quvchilarning yosh individual xususiyatlari inobatga olinishi ko‘p bora ta’kidlanadi. Lekin, ta’lim-tarbiya va amaliy hayot jarayoni esa xilma-xildir. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar uchrab turadi. Bu esa o‘qituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab etadi. Inson biror kasbning haqiqiy ustasi bo‘lishi uchun unda tabiiy qobiliyat, ma’lum jismoniy va ruhiy xislatlar jo bo‘lishi kerak. Jumladan, o‘qituvchilik faoliyatida bolalarni o‘qitish va tarbiyalash ishini samarali bajarish, ota –onalar va bolalarning izzat-hurmatiga sazovor bo‘lishi uchun unda bu ishga *layoqat, qobiliyat, mahorat* va *qiziqish* bo‘lmog‘i lozim.

Kishi psixikasining paydo bo‘lishi va rivojlanishi eng murakkab muammolardan biri bo‘lib, tabiat qonunlarining mohiyatini tushunib yetishga harakat qiladigan tadqiqotchilarni bu muammo hamma vaqt qiziqtirib kelgan. Materialistik yo‘nalishdagi olimlar psixikaning paydo bo‘lishini materiyaning uzoq davom etgan rivojlanishining natijasi deb izohlashadi. Ular materiyaning tabiatini tadqiq qilisharkan, harakat materiyaning hayot kechirish usuli, uning tarkiban o‘ziga xos ajralmas xususiyati ekanligi uchun ham materiya harakatining turli xil shakllarini o‘rganadilar.

O‘tgan ajdodlarimiz psixologiya muammolarini izchil va atroflicha, muayyan yo‘nalishda, ma’lum konsepsiya asosida o‘rgangan bo‘lsalar ham, albatta, o‘z asarlarida psixik holatlarning aks etishi, namoyon bo‘lishi, rivojlanishi va o‘zgarishlari to‘g‘risida qimmatli fikrlar bildirishgan. Bular 4 xil manbada uchraydi:

1) xalq ijodiyotida-rivoyatlar, maqollar, matallar va masallar;

2) maxsus ijodkor kishilar o‘git-nasihat va hikoyatlarida;

3) qomusiy, O‘rta Osiyo mutafakkirlarining ilmiy-nazariy qarashlarida;

4) turli davrlarda ijod qilgan shoir va yozuvchilar ijodining mahsullarida, ya’ni ilmiy-badiiy asarlarda.

Abu Nasr Forobiyning inson va uning psixikasi haqidagi qarashlari “Ideal shahar aholisining fikrlari”, “Masalalar mohiyati”, “Falsafiy savollar va ularga javoblar”, “Jism va aksidensiyalarning shakllariga qarab bo‘linishi”, “Sharhlardan”, “Hikmat ma’nolari”, “Aql ma’nolari to‘g‘risida” kabi qator asarlarida bayon etilgan. Abu Rayxon Beruniy o‘zining “O‘tmish yodgorliklari” kitobida inson hayotiga doir xilma-xil ma’lumotlarni keltiradi.

Ibn Sinoning 5 tomlik “Tib qonunlari” asarida organizmning tuzilishi, undagi nervlar va nerv yo‘llari, fiziologik jarayonlar bilan bog‘liq psixik jarayonlar haqida ancha muhim ma’lumotlar bor. Uning “Odob haqida” risolasi ham inson shaxsini shakllantirish to‘g‘risidagi jiddiy asardir. Unda o‘zining qarashlari orqali o‘zlikni chuqur anglash, axloqni, o‘zini tutishni, ma’rifat sir – u asrorlaridan voqif bo‘lish orqali komil insonlikka erishish haqida fikr yuritilgan.

Yusuf Xos Hojibning ham “Qutadg‘u bilig” asaridagi bosh masalalardan biri komil insonni tarbiyalashdir. Ushbu buyuk zot tiriklik dunyosida insoniyat qonuniyatlarini talqin etib, yashash bu faqat yeb ichish emas, uning ma’naviy boyligi undan-da ustun ekanligini e’tirof etadi.

Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, “Xiradnomai Iskandariy”, “Tuhfatul ahror”, “Silsilatuz zaxob” va boshqa asarlarida ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya, kasb-hunar o‘rganish, yaxshi xislatlar va odoblilik haqidagi fikrlar ifodalangan. Devoniy ham o‘zining “Axloqi Jaloliy” nomli asarida insoniy fazilatlarni to‘rtga bo‘ladi va bular donolik, adolat, shijoat va iffatdir. Bu har bir fazilat o‘ziga xosligi bilan ajralib tursa-da, biroq ular bir biri bilan uzviy chambarchas bog‘liq bo‘lib ular uyg‘unlashgandagina uni samarasini ko‘rish mumkin deyiladi asarda. Shuningdek, Alisher Navoiyning “Xazoinul Maoniy”, “Maxbubul qulub” va boshqa asarlarida yetuk, barkamol insonning axloqi, ma’naviyati, odamlarga munosabati, iste’dodi va qobiliyati to‘g‘risida qimmatli mulohazalar yuritilgan. “Ana shu psixologik kategoriyalar ijtimoiy adolat qaror topishi uchun muhim ahamiyatga ega ekani ta’kidlangan. Shuningdek, Navoiy asarlarida shaxsning kamol topishida ota-onaning roli, ayollarning iffatliligi, insonlarning kamtarligi masalalari alohida o‘rin egallaydi”[1].

Bu borada Rossiya olimlarining psixologik qarashlarining ham o‘rni beqiyos. “Sharq va G‘arb madaniyati ta’sirida inson ruhiyati bilan bog‘liq qator og‘zaki va yozma, amaliy va ilmiy asarlarda paydo bo‘la boshladi. Psixika haqidagi qarashlar ma’lum vaqt (salkam 5 asr) kun tartibidan olib qo‘yildi va XIX asr oxiri va XX asr boshlarida g‘arbiy Ovrupo mamlakatlarida va AQSHda yana turli munozaralarga sabab bo‘la boshladi.”[2] Ko‘pgina Rossiyalik I.M.Pavlov, N.Ye.Ribakov, K.N. Kornilov, P.P. Blonskiy, A.S. Vigotskiylar va AQSHning U. Djems, S.Xoll kabi olimlar ishlarini va bu boradagi qarashlarini misol keltirish mumkin.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan bebaho merosdan ta’lim-tarbiya jarayonida unumli foydalangan holda intellektual teran, ma’naviy-axloqiy, estetik va jismoniy baquvvat rivojlangan bolalarni tarbiyalab, ularni har tomonlama yetuk, komil inson sifatida shakllantirish ta’lim sohasi oldida turgan oliy maqsaddir, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero, kelajagimiz vorislari yoshlar toki yurtimiz ravnaqiga o‘z ulushini qo‘shishga qodir ekanligiga ishonch hosil qilaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.M. Mirziyoyev. ―Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.‖ Toshkent-2017. 189-bet.

2. E.G‘oziyev Psixologiya, T: “Ўқитувчи” 1994 y. 33-35 bet

[1] U.A.Qosimov-Tasavvur psixologiyasi sharq taraqqiyotida muhim omil “Sharq-Buxoro” 2019 y. 15-16 bet.

[2] E.G‘oziyev. Psixologiya. T: “O’qituvchi” 1994 y. 33-35 bet.

3. U.A.Qosimov. Tasavvur psixologiyasi sharq taraqqiyotida muhim omil. “Sharq-Buxoro”- 2019 y. 15-16 bet.

TIL BILISH DARAJASI YUQORI BO‘LGAN KADRLAR TAYYORLASHNING DAVLAT MIQYOSIDAGI AHAMIYATI

Mohijahonbegim SOBIROVA
TDSHU, Koreyashunoslik fakulteti
Lingvistika (koreys tili) 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi kunda ommalashib borayotgan koreys tili sohasi bo‘yicha yuqori darajali kadrlarni tayyorlashda ahamiyat beriladigan jihatlari hamda Topik II imtihonida yuqori natijani qo‘lga kiritishiga to‘siq bo‘ladigan omillar ko‘rib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: Yuqori darajadagi til sertifikati, B2 daraja, C1 daraja, Topik II imtihoni, insho matni

Аннотация: В данной статье рассмотрены аспекты, важные при подготовке кадров высокого уровня в сфере популярного в настоящее время корейского языка и какие факторы мешают получить высокий результат на экзамене ТОПИК II.

Ключевые слова: Продвинутый языковой сертификат, уровень B2, уровень C1, экзамен по теме II, текст эссе

Abstract: This article discusses aspects that are important in the preparation of high-level personnel in the field of the currently popular Korean language and what factors prevent you from getting a high result in the TOPIK II exam.

Key words: Advanced language certificate, B2 level, C1 level, Topic II exam, essay text

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [1] gi PQ-5117-son qarorining 5-bandiga muvofiq C1 darajadagi o‘qituvchilarning oylik maoshiga 50 foiz ustama qo‘shib berish, hamda shu qarorning 6-bandida magistraturaga kirish imtihonlarida filologiya yo‘nalishlari bo‘yicha C1 darajadagi sertifikat, nofilologik yo‘nalishlarda esa B2 darajadagi sertifikat talab etilishi belgilangan [2]. Bu qaror ham pedagogni ham talabani rag‘batlantiruvchi qaror bo‘libgina qolmay ikki guruh vakillariga juda katta mas’uliyat yuklaydi. Bu qarorning asl maqsadi shundaki, kelajak avlodga bilim

[1] https://lex.uz/docs/-5426736
[2] https://www.sbtsue.uz/uz/news/view/821

berayotgan pedagoglarning ilmiy salohiyatini yanada oshirish hamda kelajak avlod vakillari orasida o‘z ishini ustasi bo‘lgan yetuk mutaxassis kadrlarni yetishtirib chiqarishdir. Albatta bu nafaqat O‘zbekistonning ichki rivojiga balki, boshqa davlatlar bilan hamkorlik aloqalariga ham o‘zining ijobiy ta’sirini o‘tkazadi. Zero, til darajasi yuqori bo‘lgan kadrlar o‘zidan keyingi avlodni ham yuqori bilim darajasiga ega, dunyo qarashi keng, dunyo arenasida ham o‘z o‘rniga ega bo‘la oladigan kadr qilib tarbiyalashga katta xizmat qiladi.

Yuqori darajalik yurtning ertangi kun egalarini tayyorlashga davlatimizda tinimsiz harakatlar davomiy bo‘lmoqda. Bunga yaqqol misol qilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 6-may kuni chet tillarini o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishida “Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘ladigan yangi tizimni yo‘lga qo‘yish vaqti-soati keldi[1]” – deb ta’kidlab, bu maqsadni amalga oshirish uchun Vazirlar Mahkamasi huzurida “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish” agentligi tashkil qilinishi, xorijiy tillarni rivojlantirishga bo‘lgan e’tiborning yaqqol dalilidir.

Yuqorida keltirilgan qarorlar tufayli 2022-2023 o‘quv yillarida ko‘pchilik til ustozlari qo‘shimcha ustamaga ega bo‘lib, bakalavriatni tamomlagan talabalar magistraturada o‘qish imkoniyatini qo‘lga kiritdilar. Ammo, bir guruh bitiruvchi talabalar til bilish sertifikati mavjud bo‘lmaganligi sababli bunday imkoniyatni qo‘ldan boy berdilar. O‘z o‘zidan shu yerda savol tug‘iladi. Til bilish darajasini ko‘rsatuvchi B2, C1 sertifikatlarini olish shu darajada qiyinmi?

Albatta, til sohasida bunday yuqori darajaga erishish uchun tinimsiz mehnat kerak bo‘ladi. Til bilish darajasini tekshiruvchi dunyoning turli tillariga oid imtihonlarda ko‘p vaziyatda imtihon topshiruvchilarga “o‘qish” va “eshitish” bo‘limlari nisbatan yengillik qilsa, “yozish” bo‘limiga javob yozish nisbatan qiyin kechadi. Chunki, yozish bo‘limi, imtihon topshiruvchidan nafaqat tilni bilish qobiliyatini, balki, keng dunyo qarashni ham talab qiladi. Yozish bo‘limida ko‘proq qiyinchilik bo‘ladigan topshiriq esa, esse ya’ni inshodir.

Imtihon uchun yoziladigan insholarda nafaqat koreys tilini o‘rganuvchilar balki boshqa tillarni o‘rganuvchilar ham qiyinchilik sezishadi. Bu borada dunyo tilshunoslarining orasida ham ko‘p izlanishlar ortib borilgan. Ulardan yaqqol misol qilib Scopus online platformasida mashhur jurnaldan joy olgan Kothar Talib Sulaiman Al Harrasning “Turli xil ritorik yozish shakllarining kontekstida fikr-mulohazalarni qayta ko‘rib chiqish[2]” nomli maqolasini olish mumkin.

Kothar Talib Sulaiman Al Harrasi tomonidan yozilgan maqola oliy o‘quv yurtlarida talabalar bilimini baholashning bir turi bo‘lmish insholarni qay tarzda

---

[1] Mirziyoyev Sh.M. Chet tillarini o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidan. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, 2021. 6-may.

[2] AL Harrasi. Language Testing in Asia. Springer Nature, 2023. – 13 p https://doi.org/10.1186/s40468-023-00216-6

yozish hamda ularni qay tarzda baholash kerak ekanligiga bag‘ishlangan. Mazkur maqolada matnlardan turli xil aloqa vositasi sifatida foydalanish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarga tayangan holda, insho matnining uch turi: taqqoslash insholari, fikr-mulohaza insholari, sabab va kamchilik insholariga oid o‘qituvchi va talabalarning fikrlari o‘rganib chiqilgan. Fikrlarni o‘rganish uchun, muallif, intervyu, sinf kuzatuvi hamda talabalar yozgan kurs ishlari va insholarini tahlil qilish orqali ma’lumotlarni uchta sifatli usul bilan to‘plagan.

Shu bilan birga, savolga javobni koreys tili misolida ko‘radigan bo‘lsak, koreys tilini bilish imtihonida (TOPIK II) yuqori darajani qo‘lga kiritish uchun imtihon topshiruvchidan uch bosqichdagi imtihon bo‘limlaridan o‘tish talab qilinadi. Bulardan:

- Eshitish (듣기)
- Yozish (쓰기)
- O‘qish (읽기)

Yuqoridagi bo‘limlar orasidan B2 hamda C1 darajani olishda to‘sqinlik qiladigan omillardan eng kattasi bu imtihonning ikkinchi qismi bo‘lgan, “Yozish” (쓰기) bo‘limidir. Nega ko‘p holatlarda aynan yozish bo‘limi yuqori daraja olishga to‘sqinlik qilishini anglash yuzasidan bu mavzuda bir qancha koreys tilshunoslari o‘z doktorlik hamda dissertatsiya ishlarini olib borishgan. Ular ko‘p holatda yozish imtihonidagi gaplarning tuzilishi, imtihonda ball berish qonun qoidasi, gaplarning bir biriga bog‘liqlik jihatlarini tadqiq qilishgan. Tadqiqotchilarga yorqin misol qilib, Kim In I (김은희), Chang Su (장수), KimVon Kyong (김원경)larni keltirsak bo‘ladi.

Ular orasida, Kim In Xi (김은희[1]) o‘zining “한국어능력시험 고급 단계 학습자를 위한 쓰기 지도 방안” nomli ilmiy ishida aynan TOPIK imtihonini topshiruvchilar orasida yuqori daraja olish uchun imtihon topshirayotganlarga o‘z e’tiborini qaratadi. U TOPIK imtihonida yuqori daraja olishda katta ko‘mak bo‘luvchi “Yozish” bo‘limi borasida tadqiqot olib borib, yozish bo‘limida beriladigan savollarga qay tarzda javob berish kerakligi haqida o‘z fikrlarini bildiradi.

Chang Su (장수[2]) esa, TOPIKning maxsus yig‘ma testlardan foydalangan holda, imtihon topshiruvchilar yozgan asl nusxadagi insholarni tadqiq qilib, ular qiyinchilik sezgan qismlar qayerda ekanligini aniqladi. Bu tadqiqot natijasiga ko‘ra insho yuzuvchilarning ko‘p vaziyatlarda so‘z va grammatik zaxirasi yetishmasligi aniqlandi. Bir guruh imtihon topshiruvchilar esa, insho matnining butun bir ma’nosiga e’tibor bermasdan faqatgina ma’lum bir so‘z va iboralarga e’tiborini qaratishi ma’lum bo‘ldi. Chang Su ham, Kim In Xi kabi, yozish

---

[1] 김은희, 한국어능력시험 고급 단계 학습자를 위한 쓰기 지도 방안, -서울.: 전남대학교, 2013. – 8 쪽

[2] 장수. "한국어 능력시험 응시자를 위한 고급 쓰기 교육 방안." 국내석사학위논문 부산외국어대학교 일반대학원, -부산.: 한국언어문화학, 2013.

bo‘limida yuqori ballni qo‘lga kiritish uchun, o‘qish bo‘limiga oid bilimlarni mustahkamlash kerak ekanligini ta’kidlab o‘tgan. U mazkur ikki bo‘limga oid bilimlarni birgalikda olib ketilsa, ikki bo‘limdan ham yuqori ball olish mumkin ekanligini aytib o‘tadi.

Kim Von Kyong (김원경[1]), o‘z tadqiqotida, “Yozish” bo‘limi imtihon topshiruvchining nafaqat o‘z bilimini, balki, yana qo‘shimcha bilimlar (har xil mavzularga oid dunyo qarash)ni talab qilgani bois, talabgorning koreys tili ko‘nikmalarini baholashga to‘g‘ri kelmasligini aytib o‘tgan.

Imtihon yuzasidan o‘tkazilgan tadqiqotlarning birida TOPIK II 35-imtihonidan 55-imtihonigacha bo‘lgan umumiy natijalar yig‘ib olingan. Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, imtihonning eng qiyin hamda ball past chiqadigan bo‘limi, bu yozish bo‘limi bo‘lib, umumiy o‘rtacha ball 34.34[2]ni tashkil etgan. Vaholanki, yozish bo‘limidagi eng yuqori ball, 100 ball bo‘lib, bu bo‘limda mavjud bo‘lgan 51 va 52-savollariga 10 ball, 53-savoliga 30 ball, 54-savoliga ya’ni katta inshoga esa 50 ball beriladi. Ko‘pchilik ball yo‘qotadigan savol turi ham aynan shu 54-savol turidir.

54-savol turi o‘zining hajmi va ma’no jihatdan yuqori darajadagi insho matnini talab qilgani bois imtihon topshiruvchilarda qo‘rquv paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Paydo bo‘lgan qo‘rquv sababli ham, imtihon topshiruvchi imtihonga kirgan paytda har safar bir xil xatolarga yo‘l qo‘yadi. “Yozish” bo‘limining 54-savol turini yozish vaqtida imtihon topshiruvchilarning eng ko‘p xato qiladigan jihatlari – bu:

- to‘g‘ri yozish qoidalariga amal qilmaslik;
- kerakli kalit so‘zlardan foydalanmaslik;
- inshoda faqat o‘z fikrini bildirishga harakat qilib, inshoning tuzilishiga e’tibor bermaslik;
- inshoning asosiy qismiga ko‘p vaqt ajratib, kirish va xulosa qismini tugallamaslik;
- vaqt kam bo‘lgani sababli, sarosimaga tushib nima yozishi kerak ekanligini unutish;
- yuqori darajadagi grammatikalarni tanlab, ularni keraksiz joyda qo‘llab xato qilish;

Yuqorida biz sanab o‘tgan barcha omillarni imtihon topshirishdan avval tayyorlanib bartaraf etish mumkin. Ammo, shu yerda ham bizning xatolarimizdan biri yuqori daraja olish uchun faqatgina yuqori darajadagi so‘zlar hamda grammatikadan foydalanish kerak, insho mavzusi bo‘yicha fikrimiz qay darajada chuqur ekanligini ko‘rsatib berishimiz kerak deb o‘ylashimizdadir. Yuqori darajadagi so‘z va grammatikalardan foydalanamiz, ammo, ularni ma’lum bir konstruksiyaga solmaganimiz sababli, jumlamizda mujmallik vujudga keladi. O‘z

---

[1] 김원경. "한국어교육을 위한 과정 중심 쓰기 평가 모형 연구."- 경기도.: 국내박사학위논문 가톨릭대학교 대학원, 2016.

[2] 장주천. 토픽 II 쓰기 53 번 문항의 교육 내용 연구.-서울: 동국대학교,2020. – 2 쪽

fikrlarimizni bildiramiz, ammo, ma'lum bir qonun qoidaga rioya qilib fikrimizni yozmaganimiz sababli, fikrda ham mujmallik paydo bo'ladi. Va, insho yuqori darajadagi so'z, grammatika, fikrlar bilan bezalgan, biroq, hech qanday konstruksiyaga ega bo'lmagan chalkash holga kelib qoladi.

54-topshiriq "Matn tuzish" (*글 구성하기*[1]) bo'lib, topshiriq sifatida berilgan mazmun haqida mavzu va maqsadga mos ravishda insho yozishni talab qiladi. Yozilishi kerak bo'lgan matn uchun, topshiriq – mavzu, mavzu haqida qisqacha tushuncha va mavzuga oid savollardan tashkil topgan bo'ladi. Misol uchun[2]:

요즘 드라마, 영화에 자신의 회사 제품을 노출하는 간접광고가 유행하고 있습니다. 그런데 드라마나 영화의 간접광고 양이 지나치게 많아지면서 여러 가지 문제점이 나타나고 있습니다. 간접광고의 적절한 활용 방안에 대해 아래의 내용을 중심으로 자신의 생각을 쓰십시오.

(Bugungi kunda serial, filmda o'zining firma mahsulotini ko'rsatib beradigan bilvosita reklamalar mashhur bo'lib bormoqda. Ammo, serial va filmlarda bilvosita reklama miqdori haddan tashqari ko'payganligi tufayli, turli xildagi muammolar paydo bo'lmoqda. Bilvosita reklamalardan to'g'ri foydalanish haqida quyida keltirilgan mazmunga asoslangan holda o'z fikringizni yozing.)

- *간접광고 활용의 사례에는 어떤 것들이 있습니까?*

(Bilvosita reklamadan foydalanishga qanday misollar bor?)

- *간접광고가 많아지면서 나타나는 문제점은 무엇입니까?*

(Bilvosita reklamaning ko'payishi orqali qanday muammolar yuzaga keladi?)

- *문제점을 해결하기 위한 방법에는 무엇이 있습니까?*

(Muammoni hal qilishning qanday usullari mavjud?)

Mazkur topshiriq turi – berilgan mavzuga mos ravishda o'z fikrlarini mantiqiy ravishda ifodalay olishni baholovchi topshiriq turidir[3].

Gim Wong Gyeong (*김원경*) o'z tadqiqot yakunida 54-topshiriq borasida xulosalarining biri quyidagicha bo'ladi.

"Bilim oluvchilar, insho yozishda to'sqinlik qiladigan omillar nafaqat, so'z va grammatika boyligi kamligi, balki, insho yozishda bundan boshqa inobatga olish kerak bo'lgan jihatlar bor ekanligini anglab yetishlari zarur[4]."

Shu yerda savol tug'iladi, insho yozishda inobatga olinishi kerak bo'lgan jihatlar, asosiy qonunlar nimalardan iborat?

---

[1] 정은화. 한국어능력시험 토픽 쓰기. – 서울.: (주)시대고시기획, 2021. – P. 111.

[2] 김지학. PERFECT TOPIK II – 쓰기. – 서울: 정학동, 2017. – P. 102.

[3] 정은화. 한국어능력시험 토픽 쓰기. – 서울.: (주)시대고시기획, 2021. – P. 111.

[4] 김원경. "한국어교육을 위한 과정 중심 쓰기 평가 모형 연구." — 경기도.: 국내박사학위논문 가톨릭대학교 대학원, 2016. – P. 24.

Bunday jihatlardan eng birinchisi, bu – inshoga qo‘yilgan umumiy talablardir.

Umumiy talablar haqida Hyeon Bin (*현빈*), Choe Jae Chan (*최재찬*) lar quyidagicha ta’rif beradilar[1]:

3. 54-topshiriq jamiyatga oid mavzu haqida o‘z fikrini mantiqan to‘g‘ri bayon qilish darkor bo‘lgan savol turi;

4. 600-700 bo‘g‘in oralig‘ida yozish darkor;

5. Baho – 50 ball beriladi;

6. 5-6 darajaga to‘g‘ri keluvchi topshiriqdir;

7. 25-30 daqiqa oralig‘ida yozib bo‘lish kerak.

Yuqoridagi umumiy topshiriq uchun qo‘yilgan talablardan tashqari, essening o‘zi uchun belgilangan qoidalar mavjud.

Asosiy qoidalardan esselar uch qismdan tashkil topgan bo‘lishi darkor. Bular[2]:

1. Kirish (*서론*)

2. Asosiy qism (*본론*)

3. Xulosa (*결론*) kabi qismlardir.

1. Kirish (*서론*) qismda yozilishi kerak bo‘lgan inshoning mavzusi haqida tanishtirilib, mazmun qanday bo‘lishi haqida yoziladi. Ushbu qismning o‘zida ham ikki qismi mavjud bo‘lib, birinchi qismida essening mavzusi tanishtiriladi. Ikkinchi qismda esa yoziladigan mazmun tanishtiriladi. Misol uchun[3]:

사람마다 경제 수준이 다르고 여기에서 느끼는 행복 만족도도 다르다. 흔히 경제적 여유와 행복은 비례한다고 하는데 그렇지 않은 경우도 있다. 따라서 이 글을 통해 경제적 여유가 행복에 어떤 영향을 미치는지 살펴보고자 한다.

(Har bir insonning iqtisodiy darajasi har xil bo‘lib, bu yerda his qiladigan baxtdan qoniqish darajasi ham har xil. Ko‘pincha iqtisodiy qulaylik va baxt o‘zaro mutanosib ekanligi aytiladi, lekin, bunday bo‘lmagan holatlar ham mavjud. Shu sababli, ushbu insho orqali iqtisodiy erkinlikning baxtga qanday ta’sir qilishini ko‘rib o‘tamiz.)

Yuqoridagi misolning birinchi ikki jumlasi esse mavzusi haqida ma’lumot bergan bo‘lsa, oxirgi jumla essening qaysi tomonlari bayon etilishi haqida eslatib o‘tgan.

Kirish qismi ba’zi hollarda topshiriqda berilgan birinchi savolga javobni ham o‘z ichiga oladi. Misol uchun[4]:

---

[1] 현빈, 최재찬.핫토픽. – 서울:한글파크, 2016. – P.117.

[2] 마광홍, 한국어능력시험(TOPIK)II 54 번 답안쓰기에 나타난 오류 양상 연구,-서울:. 2019.- P. 17.

[3] 현빈, 최재찬.핫토픽.-서울:한글파크,2016. – P. 121.

[4] Won Eunyeoung, Lee Yurni. Cracking the TOPIK II Writing. -Seoul: Drakwon, 2019. – P. 102.

우리는 칭찬을 들으면 일을 더 잘하고 싶어질 뿐만 아니라 좀 더 나은 사람이 되고 싶은 마음이 든다. 그리고 자신감이 생겨 공부나 일의 성과에도 긍정적인 영향을 미친다. 그래서 자신의 가진 능력 이상을 발휘하고 싶어지는 도전 정신이 생기기도 하는 것이다. 한마디로 말해 칭찬은 사람을 한 단계 더 발전시키는 힘을 가지고 있다.

(Biz maqtov eshitganimizda nafaqat ishni yaxshiroq qilish, balki, yanada yaxshiroq inson bo'lishni ham xohlaymiz. Bundan tashqari, o'ziga bo'lgan ishonch paydo bo'lib, o'qish va ishdagi muvaffaqiyatga ham ijobiy ta'sir qiladi. Shu sababli, o'zi ega bo'lgan qobiliyatdan ham ko'prog'ini namoyish qilishni xohlaydigan kurashish ruhi paydo bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, maqtov insonni bir bosqich yuqoriga olib chiqish qudratiga ega.)

Yuqoridagi misolda esse uchun topshiriq qilib berilgan, "Maqtovning ijobiy ta'siri qanday?" degan birinchi savolga javob berish orqali esse boshlangan.

2. Asosiy (*본론*) qismda berilgan savol turiga qarab imtihon topshiruvchi o'z fikrini aniq ifodalashi darkor. Bu qismda berilgan uch savolga javoblarni ikki jumla bilan ifodalash lozim. Birinchi jumla: Markaziy gap bo'ladi. Ya'ni, savol bo'yicha fikr beriladi. Ikkinchi jumlada esa, berilgan fikrga isbot va aniq misol yoziladi.

원활한 의사소통을 하기 위해서는 먼저 상대방을 존중하고 배려하는 마음이 있어야 한다. 존종과 배려는 상대방의 입장을 먼저 생각하게 함으로써 상호 이해에 도움을 준다. 다음으로 이러한 마음을 부드럽고 완곡한 언어로 전극적으로 표현해야 한다. 비록 그런 마음이 있더라도 말을 하지 않거나 거칠고 퉁명스로운 말투로 표현한다면 상대방에게 거부감을 주게 되어 의사소통을 방해할 것이다[1].

(To'g'ri muloqot qilish uchun birinchi navbatda suhbatdoshni hurmat qilib unga yon bosadigan ko'ngilda bo'lish zarur. Hurmat va e'tibor suhbatdoshning fikrini birinchi hisobga olishga undaydigan bo'lib, o'zaro bir-birini tushunishga yordam beradi. So'ng, bunday qalbni yumshoq va muloyim tilda ijobiy ifodalash darkor. Agar, shunday qalbi bo'lsa-da so'zlamasdan, qo'pol va qo'rs ohangda ifoda etilsa, suhbatdoshga rad etilish hissini berib, muloqotga to'sqinlik qiladi,)

Yuqorida keltirilgan misolda to'g'ri muloqot qilish uchun nimalarga e'tibor berish kerakligi haqida bayon qilinib, misollar orqali yoritilib berilgan.

Xulosa (*결론*) qismda asosiy qismni xulosalab, xulosa haqida o'z fikri va taklifini kiritish mumkin bo'ladi. Bu qism ham ikki-uch jumladan tashkil topgan bo'lib, birinchi navbatda, asosiy qismdagi mazmun tartibga solinadi. So'ng, xulosa haqida taklif beriladi. Misol uchun:

지금까지 정제적 여유가 행복 만족도에 미치는 영향에 대해 살펴보았는데 경제적 여유와 행복 만족도는 반드시 비례하는 것은

[1] Won Eunyeoung, Lee Yurni. Cracking the TOPIK II Writing. -Seoul: Drakwon, 2019. – P. 113.

아니라는 것을 알 수 있었다. 행복해지기 위해서는 건강을 유지하고 주변 사람들을 사랑해야 한다[1].

(Hozirgacha iqtisodiy erkinlik baxtdan qoniqishga ta'sirini ko'rib chiqdik va iqtisodiy erkinlik bilan baxtdan qoniqish har doim ham mutanosib emasligini aniqladik. Baxtli bo'lish uchun sog'lom bo'lib, atrofdagi insonlarni sevish darkordir.)

Yuqorida keltirilgan inobatga olinishi zarur bo'lgan jihatlar va asosiy qoidalar insho yozishda juda katta ahamiyatga egadir. Imtihon topshiruvchilarning TOPIK II imtihonida yuqori darajani qo'lga kirita olmasligining sababi ham ko'p vaziyatda ushbu qoidalar sabab bo'ladi. Chunki imtihon topshiruvchilar "eshitish" hamda "o'qish" bo'limlariga tayyorgarlik ko'rib, "Insho yozishni eplay olmayman!" degan o'y bilan "yozish" bo'limiga tayyorgarlik ko'rishmaydi. Bu esa ularni katta miqdordagi balldan uzoqlashtiradi. Yuqorida biz ta'kidlab o'tgan jihatlarga hamda inshoning tuzilishi bo'lgan uch qismiga e'tiborli bo'lib, insho yozishni boshlashdan avval nima haqida yozishni reja qilinsa, albatta, bu bo'limdan ham qiyinchiliksiz yuqori ko'rsatkichga ega bo'lish mumkin.

Imtihonda yuqori natijaga erishish uchun nafaqat koreys tili bilimi balki, imtihon topshira olish mahorati ham muhimdir. TOPIK II imtihoni, koreys tilidan tashqari o'rganilishi kerak bo'lgan bir ilmdir. Imtihonning tarkibiy qismlari, o'ziga xos jihatlarini o'rganilsa, imtihon paytida kerakli so'z, so'z birikmalari hamda gapni to'g'ri, mazmunli tuzishda kerakli qoliplardan to'g'ri va samarali foydalanilsa, albatta, yuqori natijani qo'lga kiritish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 장주천. 토픽 II 쓰기 53 번 문항의 교육 내용 연구.-서울: 동국대학교,2020.

2. 현빈, 최재찬.핫토픽.-서울:한글파크,2016.

3. 현빈, 최재찬.핫토픽해설집.-서울:한글파크,2016.

4. 마광홍, 한국어능력시험(TOPIK)II 54 번 답안쓰기에 나타난 오류 양상 연구,-서울:. 2019.

5. 김원경. "한국어교육을 위한 과정 중심 쓰기 평가 모형 연구." – 경기도.: 국내박사학위논문 가톨릭대학교 대학원, 2016.

6. 정은화. 한국어능력시험 토픽 쓰기. – 서울.: (주)시대고시기획, 2021.

7. 김지학. PERFECT TOPIK II – 쓰기. – 서울: 정학동, 2017.

8. 김은희, 한국어능력시험 고급 단계 학습자를 위한 쓰기 지도 방안, -서울.: 전남대학교, 2013.

[1] 현빈, 최재찬.핫토픽.-서울:한글파크,2016. – P. 121.

9. 장수. “한국어 능력시험 응시자를 위한 고급 쓰기 교육 방안.” 국내석사학위논문 부산외국어대학교 일반대학원, -부산.: 한국언어문화학, 2013.

10. AL Harrasi. Language Testing in Asia. Springer Nature, 2023.

11. Won Eunyeoung, Lee Yurni. Cracking the TOPIK II Writing. –Seoul: Drakwon, 2019.

12. https://doi.org/10.1186/s40468-023-00216-6

13. https://lex.uz/docs/-5426736

14. https://www.sbtsue.uz/uz/news/view/821

O’ZBEKISTONDA TA’LIM SIFATINI RIVOJLANTIRISHDA YAPONIYA TAJRIBASI

Ra’no XAYDAROVA
TDSHU, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi katta o’qituvchisi

Olima Maxkamova, Oisha Nazarova
TDSHU 3 kurs arab filologiyasi talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yaponiya maktabgacha ta’lim tizimining rivojlanish tarixi, yutuqlari, o’ziga xosliklari yoritilgan. Kun chiqar mamlakat xalqi tarbiya metodlari, shakllari va prinsiplarining asosida milliy qadriyatlarning yotishi o’zbek xalqi bilan tarbiyadagi mushtarak tomonlarini ko’rsatadi. Yaponiyada bolalarni tarbiyalash o‘ziga xos usulda amalga oshiriladi, bu albatta ushbu mamlakatning an’analari va boy tarixiy merosi bilan bog‘liqdir. Yosh avlodni tarbiyalashdagi Ikuji tamoyili komil shaxs shakllanishidagi roliga ham to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim tashkilotlari, tarbiya metodlari, tarbiya tamoyillari, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an’analar, “Yapon mo‘jizasi”, “Yapon falsafasi”, islohotlar.

Аннотация: В данной статье описаны история, достижения и особенности японской системы дошкольного образования. Тот факт, что национальные ценности лежат в основе методов, форм и принципов образования народа страны, показывает общность аспектов образования с узбекским народом. В Японии воспитание детей осуществляется уникальным способом, что, безусловно, связано с традициями и богатым историческим наследием этой страны. Также была в работе затронута роль принципа Икудзи в воспитании молодого поколения в формировании совершенной личности.

Ключевые слова: Организации дошкольного образования, методы воспитания, принципы воспитания, национальные ценности, традиции, «японское чудо», «японская философия», реформы.

Abstract: This article describes the history, achievements and features of the Japanese preschool education system. The fact that national values underlie the methods, forms and principles of education of the people of the country shows the commonality of aspects of education with the Uzbek people. In Japan, raising children is carried out in a unique way, which, of course, is associated with the traditions and rich historical heritage of this country. The work also touched upon the role of the Ikuji principle in educating the younger generation in the formation of a perfect personality.

Key words: Organizations of preschool education, methods of education, principles of education, national values, traditions, “Japanese miracle”, “Japanese philosophy”, reforms.

O’tgan yillarda O‘zbekiston va Yaponiya o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishda salmoqli yutuqlarga erishdi. Mamlakatimiz Yaponiya bilan samimiy do‘stlik aloqalarini, strategik sheriklik va hamkorlikni yuksak qadrlaydi. Yaponiya O‘zbekistonni Markaziy Osiyo mintaqasidagi muhim hamkori sifatida e’tirof etadi. O‘zbek va yapon xalqlarining o‘xshash jihatlari ko‘p. Milliy va axloqiy qadriyatlar, birdamlik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat kabi fazilatlar ikki xalq uchun birdek xosdir. Bu mamlakatlarimizning do‘stligi va o‘zaro hamkorlik munosabatlarida yaqqol aks etmoqda.[1]

XXI asr insoniyat ketayotgan rivojlanish yo‘li haqidagi tasavvurlarga bir muncha o’zgartirishlar kiritdi, ya’ni, ekologik, ma’naviy-madaniy, tabiiy boyliklar – kabi turli muammolarning avj olishi, ularni ilmiy tomondan o‘rganishga va tahlil qilishga bo‘lgan ehtiyojni oshirdi. Ushbu muammolarni yechimi sifatida dunyo hamjamiyatida va xususan, O‘zbekistonda ham Yaponiya tajribasi katta qiziqish uyg‘otmoqda. Hozirgi kunda Yaponiya o‘ziga xos madaniyatini to‘laligicha saqlagan, iqtisodiy rivojlangan qudratli davlatdir. Jamiyatning mehnat kuchi sifatida milliy madaniyat va tarix; umumiy maqsadga erishish uchun esa millatning birdamligi, qadriyatlar, an’analar, yashash tarzi va sifati kabi tizimdan o‘rinli va unumli foydalana olgan yaponiyaliklar rivojlanishning “Yaponiya mo‘jizasi” nomi bilan mashhur tamoman yangi sifat darajadagi modelini yarata oldilar. Yaponiyaning ushbu tajribasi zamonaviy O‘zbekistonning iqtisodiy, madaniy-ma’naviy, ijtimoiy o‘sishida ma’lum darajada ko‘rsatkich bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Yaponiya madaniyati hammani o‘ziga lol qoldirgan xolda sirliligicha qolib kelmoqda. Yaponiya madaniyati (tabiatga bo‘lgan o‘ziga xos munosabat, yapon adabiyoti va she’r tuzilmasi, rassomchilik va husnixat, ikebana san’ati, Noo va Kabuki teatr san’ati, tarbiya va b.) kun chiqar mamlakatining “rivojlanish

[1] Xaydarova R.A. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari bo‘lajak mutaxassislarining kasbiy kompetenligini shakllanishida “shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim”ning o’rni // Academic research in educational sciences. 2023. №TMA Conference. URL: https://cyberleninka.ru

falsafasi”ning shakllanishiga asos bo‘ldi. Yapon xalqi tomonidan yaratilgan barcha madaniy va ma’naviy meros avloddan-avlodga tarbiya orqali o‘tib kelayotgan va singdirilib boriladigan an’ana va urf-odatlarida saqlanib qolmoqda.

Yaponiya xalqiga xos bo‘lgan ota-onaga, kattalarga ehtiromli munosabat yapon madaniyati an’analarida alohida o‘rin tutadi. Bu, albatta, yapon milliy ongining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, uning tuzilishida tarbiya muhim o‘rin tutadi. Ushbu muammolarni hal qilish nuqtai nazaridan Yaponiya zamonaviy ta’lim nazariyasi va amaliyotida yangi yondashuvlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin bo‘lgan boy an’anaga ega.

Ta’lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan amaldagi davlat siyosati namuna darajasida deb aytish mumkin. Yaponiya hukumatining madaniyat, tarbiya va ta’limga juda katta mablag‘ ajratishi va faol ravishda investitsiya qilishi, oxir-oqibatda davlatning o‘zi uchun foydalidir va iqtisodiy jihatdan o‘zini to‘liq oqlaydi.

Umuman olganda, bu mamlakat iqtisodiy rivojlanishining misli ko‘rilmagan yutuqlari bilan diqqatni o‘ziga jalb qiladi. Bugungi kunda Yaponiya yuqori darajada rivojlangan davlat.

Vaholanki, hozirgi Yaponiyani, 1945 yilda ikkita atom bombasi portlashidan keyin vayron bo‘lgan Yaponiyadan yarim asrdan ko‘proq vaqt ajratib turadi. Ikkinchi Jahon urushida so‘zsiz taslim bo‘lish aktiga imzo chekkan mamlakat butun hududning 44 foizini va milliy resurslarning 36 foizini yo‘qotdi. Bunday qisqa vaqt ichida qanday qilib Yaponiya misli ko‘rilmagan yutuqqa erisha oldi? Ushbu savolga javob berishda, yaponlarning o‘zlari, boshqa dalillar qatorida, yapon xalqining yuqori darajadagi ta’lim va tarbiyasini sabab qilib ko‘rsatadilar. Darhaqiqat, Yaponiya bugungi kunda dunyoda yagona, ta’lim-tarbiya darajasi yuqori va barcha talablarga javob beradigan “ma’rifiy jamiyat” darajasiga erishgan yagona mamlakatdir.

Yaponlar butun xalqning ma’lumot darajasi yuqori bo‘lmaganda, iqtisodiy muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi, deb ta’kidlaydi. Garchi zamonaviy Yaponiya, dunyoning barcha mamlakatlari kabi, yosh avlodni tarbiyalashda jiddiy muammolarga va keskin qarama-qarshiliklarga duch kelayotgan, ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilish zaruratiga ega bo‘lsa-da, ushbu sohadagi yutuqlari ko‘plab boshqa mamlakat o‘qituvchilarining fikr yuritishi uchun jiddiy ozuqa bo‘lib xizmat qiladi.

1984 yilda boshlangan va hozirgi kungacha davom etayotgan Yaponiyadagi so‘nggi islohotlar mamlakat ta’limini rivojlantirish va yangilashning muhim bosqichidir. Ushbu islohotlar tufayli maktab va maktabgacha ta’limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish va modernizatsiya qilish sari yo‘l oldi, Yaponiya ta’limidagi ba’zi inqirozlarni bartaraf etadigan tub o‘zgarishlar yo‘liga o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasida ham ta’lim tizimi, ayniqsa maktabgacha ta’lim tizimi, jamiyat oldiga qo‘ygan yangi vazifalar asosida islohotlar bosqichidadir. Uzluksiz ta’lim tizimini jiddiy ravishda o‘zgartirish yo‘llarini topishga harakat

qilinmoqda. Shu bilan birga, ta'limni tashkil etishning jahon tajribasi ta'lim muammolarini hal qilishning turli xil variantlarini taklif qiladi, ularning elementlari mamlakatimizda ishlatilishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tizimi Yaponiya madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, ko'plab tadqiqotchilar e'tiborini jalb qiladi. Tadqiqotning ahamiyati shundan iboratki, Yaponiyadagi maktabgacha ta'lim tizimini yaxlit hodisa sifatida isloh qilish na xorijiy, na mahalliy pedagogik adabiyotlarda muntazam ravishda yoritilmagan. Shu bilan birga, Yaponiya maktabgacha ta'limining turli jihatlari Yaponiyada ham, chet elda ham juda ko'p sonli kitoblar, maqolalar va ma'ruzalarga bag'ishlangan. Bu ko'p jihatdan etnik-madaniy pedagogik an'ananing o'ziga xosligi va boshqa mamlakatlar tajribasiga o'xshamaydigan Yaponiyaning tarixiy tajribasi bilan bog'liq.[1]

Yaponiyada bolalarni tarbiyalash o'ziga xos usulda amalga oshiriladi, bu albatta ushbu mamlakatning an'analari va boy tarixiy merosi bilan bog'liqdir.

Yaponlar bolalarga alohida mehr bilan qarashadi. O'tgan asrning boshlarida rossiyalik yapon olimi G.Vostokov: "Yaponlar farzandlarini ruhiga tushkun ta'sir ko'rsatmaydigan darajada, yumshoqlik va mehr-muhabbat bilan tarbiya beradilar. Hech qanday shafqatsizlik, og'irlik, jismoniy jazoning deyarli to'liq yo'qligi; bolalarga bo'lgan bosim shunchalik yumshoq shaklda bo'ladiki, go'yo bolalar o'zlarini tarbiyalayaptilar. Yaponiya – bu bolalar jannati, unda hatto taqiqlangan mevalar ham yo'q ..." Yaponiyaliklar shunga o'xshash tamoyillarni zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'llashga harakat qilmoqdalar.

Ikuji tamoyili (bola "oldin xudo, keyin xizmatkor" bo'lganida), 5 yoshgacha bola uchun hamma narsa mumkin. Ko'pchilik chet elliklarning fikri o'laroq, bu bolani taltaytirish yoki unga xushomad qilish emas. Bu bolada "sevimli va yaxshi "Men"ni" shakllantirishdir. 5 yoshgacha, ular bolaga imperator sifatida munosabatda bo'lishadi, uni hech qachon jazolamaydilar yoki hatto ovozini baland qilmaydilar, 5 yoshdan 15 yoshgacha – qul bo'lib, qat'iy intizomni qo'llaydilar va 15 yoshdan keyin –do'st sifatida qaraydilar.

O'zbek xalqida ushbu yapon tamoyilining aynan takrorlovchi maqol mavjud, "2 yoshgacha bola xudo, 15 yoshgacha qul va undan keyin do'st". Yapon xalqining bola tarbiyasidagi asosiy tamoyili va o'zbek xalqining yuqorida keltirilgan maqoli bu ikki xalqning ko'p masalalarda g'oyalarning mushtarakligini ko'rsatmoqda.

Yapon oilalarida va jamiyatda qat'iy subardinatsiya mavjud. Erkak – bu oilaning so'zsiz rahbari, onasi bolalarni tarbiyalaydi va uyni saranjom-sarishtaligi uchun javobgar. Yaponiyada keksalarni hurmat qilishadi. Yaponiyadagi ta'limning xususiyatlari – bu an'analarga va ko'p asrlik urf-odatlarga qat'iy rioya qilishdir. Sanab o'tilgan tarbiyadagi o'ziga xosliklar, aksariyat o'zbek oilalariga ham tegishlidir.

---

[1] Веракса А.Н. Детский сад по-японски //Современное дошкольное образование. 2007 № 1. С. 74.

Yaponiyada ham, xuddi O‘zbekiston Respublikasining shu kunlarda olib borayotgan ijtimoiy-siyosiy isloxotlari kabi, maktabgacha ta’limga katta e’tibor qaratiladi, chunki psixologlarning fikriga ko‘ra, kishi hayotida qabul qiladigan axborotning 70% yetti yoshgacha, 30 % esa yetti yoshdan so‘ng oladi. Bolalik davrida bolaning boshqa odamlar bilan muloqot qilish qobiliyati shakllanadi va bu jamoaning qadriyatlariga qaratilgan yapon jamiyatida juda muhimdir. Yaponlar birinchilardan bo‘lib, erta rivojlanish zaruriyati haqida gapira boshlashdi. Yarim asr oldin mamlakatda yapon pedagogikasida inqilobni amalga oshirgan “Uchdan keyin juda kech” kitobi nashr etildi. Uning muallifi Misaru Ibuka – Talent Education tashkilotining direktori va dunyoga mashhur Sony kompaniyasining asoschisi.

Kitobda aytilishicha, bola hayotining dastlabki uch yili shaxsiyatining asosi hisoblanadi. Yosh bolalar hamma narsani tezroq o‘rganadilar va ota-onalarning vazifasi – bu bola o‘z qobiliyatlarini to‘liq amalga oshirishi uchun sharoit yaratish.

Tarbiyada quyidagi prinsiplarga rioya qilish kerak: bolaning qiziqishini uyg‘otish orqali ongni rag‘batlantirish, fe’l-atvorni tarbiyalash, ijodkorlik va turli ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam berish. Shu bilan birga, daholarni tarbiyalash vazifasi emas, balki bolaga “teran bilim va sog‘lom tanaga ega bo‘lish, zehni o‘tkir va mehribon qilib” ta’lim berishdir. Hozirgi kunda ushbu nuqtai nazar o‘z isbotini topgan, ammo 1950 yillarning o‘rtalarida u inqilobiy bo‘lib chiqdi.[1]

Yaponiyadagi birinchi bolalar bog‘chasi 1876 yilda ochilgan. Unga faqat badavlat ota-onalarning farzandlari borishi mumkin edi. Maktabgacha ta’lim Ikkinchi Jahon urushidan keyin ta’limni isloh qilish dasturiga kiritilgan.1947 yilda ta’lim to‘g‘risida qonun qabul qilindi va ushbu qonunda bolalar bog‘chalari (birinchi navbatda bolalarni o‘qitish uchun mo‘ljallangan) faoliyati ham belgilab berildi va bolalar farovonligi to‘g‘risidagi qonun qabul qilindi, uning asosida muhim vazifasi bolaga g‘amxo‘rlik qilish bo‘lgan bolalar parvarish markazlari tashkil etildi. Hozirgi kunga qadar, bolalar bog‘chalari Ta’lim, fan va madaniyat vazirligiga, bolalar parvarishlash markazlari esa Sog‘liqni saqlash vazirligiga bo‘ysunadi.

Maktabgacha ta’lim tizimining rivojlanishi bilan bog‘liq holda, 1980-yillarning boshlarida qonunchilik va bolalar bog‘chalarining samaradorligini qayta ko‘rib chiqish jarayoni boshlandi. Natijada 1990 yilda yangi o‘quv reja yaratildi. Asosiy e’tibor har bir bola o‘ziga xos xususiyatlar va qobiliyatlardan qat’iy nazar qadrli ekanligiga qaratildi. Oltita asosiy yo‘nalish o‘rniga beshtasi qoldi – sog‘liqni saqlash, ijtimoiy munosabatlar, atrof-muhit, til va hissiyotlarning ifodasi.

Xususiy bog‘lar orasida nufuzli universitetlarning qaramog‘ida bo‘lgan elita alohida o‘rin egallaydi. Agar bola bunday bolalar bog‘chasiga qatnasa, unda uning kelajagi haqida qayg‘urmasa ham bo‘ladi: undan keyin u universitet

[1] Мисару Ибука. После трех уже поздно// Дошкольное воспитание. — 1995. — №3.

maktabiga o‘qishga kiradi va undan universitetga imtihonsiz kiradi. Universitet diplomi nufuzli va yaxshi maoshli ishning kafolati hisoblanadi. Shuning uchun elita bolalar bog‘chasiga kirish juda qiyin. Farzandni bunday muassasaga qabul qilish ota-onalarga katta pul talab qiladi, va bolaning o‘zi juda murakkab sinovlardan o‘tishi kerak.

Yaponiyada ham O‘zbekistondagi maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi kabi, ushbu muassasalarning pedagog xodimlari ayollarni tashkil qiladi, ularning aksariyati (taxminan 60%) 30 yoshgacha. Lekin Yaponiyada erkaklarni ham shu soxada faoliyat ko‘rsatayotgani, bolalar bog‘chalari direktorlarining yarmi erkaklar, diqqatga sazovordir.

Kun chiqar mamlakatda maktabgacha ta’lim tizimida ishlash uchun, maktabni tugatgandan so‘ng, bola bilan munosabatlarning amaliy jihatlariga qaratilgan ikki yillik (yoki to‘rt yillik) oliy ta’limni tugatish lozim. Bizda esa oliy ta’limning maktabgacha ta’lim yo‘nalishida to‘rt yillik bakalavr yoki o‘rta maxsus ta’limni tugatgan bo‘lishi kerak va shu bilan birga bo‘lajak mutaxassislarga ko‘proq nazariy bilim berilishi bilan ham farqlanadi.

Yaponiyada bo‘lajak maktabgacha ta’lim tizimi mutaxassislarini rasm chizish, teatr, mehnat, origami, jismoniy tarbiya, musiqa va boshqa yo‘nalishlarda bilim, malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilgan. O‘quv jarayonida bolalar psixologiyasi, bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligi, ovqatlanish va ijtimoiy munosabatlar bo‘yicha ham darslar olib boriladi.

“Yaponiyalik bolalar bilan uchrashganda ularning tayyorgarligi, mustaqilligi va o‘ziga bo‘lgan ishonchi yaqqol ko‘zga tashlanadi”, degandi J. Uitbern. 1995-1996 yillarda uning rahbarligi ostida 6-7 yoshdagi yapon va ingliz bolalarining matematikada erishgan yutuqlarini baholashga qaratilgan qiyosiy tadqiqot o‘tkazilgan. Angliyada olti yoshga kelib, barcha bolalar bir yil davomida maktabga tayyorgarlik mashg‘ulotlarida qatnashdilar va shuning uchun ingliz bolalari yaponiyalik o‘quvchilarga qaraganda yaxshiroq natijalarni namoyish etdilar. Ammo bir yil o‘tgach, yaponiyalik bolalar matematikani bilish bo‘yicha o‘zlarining ingliz tengdoshlaridan ancha yuqori ekanliklari ma’lum bo‘ldi. Shubhasiz, bunday natijalar maktabgacha ta’limning maxsus amaliyotiga asoslanadi. Yaponiyadagi maktabgacha ta’limda asosiy e’tibor nafaqat bolalarga ma’lum fanlarni o‘qitishga, balki guruh a’zosi sifatida mustaqil harakat ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi. Masalan, sinfda har bir o‘quvchi yetakchi rolini o‘ynaydi (“Tobana”). Toban o‘qituvchiga darslarni o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan materiallarni tarqatishda yordam beradi, sinfdagi intizomni kuzatib boradi, turli mavzularni muhokama qilishga rahbarlik qiladi, xonaning tozaligi, o‘quvchilarni dars oldidan yig‘ish va h.k. Har bir bola o‘zini ushbu rolda sinab ko‘rganligi sabab, bolalarga nafaqat o‘z tengdoshlarini boshqarish (bu, albatta, keyinchalik o‘zini o‘zi boshqarishning rivojlanishiga hissa qo‘shadi), balki jamoa tomonidan qabul qilingan qarorlarning oqibatlarini his qilish imkoniyati beriladi. Yapon xalqining bola tarbiyasidagi an’analari maktabgacha ta’lim tizimi tamoyillarida ham o‘z aksini topgan, bolalar o‘zlari xohlagan narsani

qilishadi – chizish, modellar yaratish, rol o‘ynash o‘yinlarida qatnashish va h.k. Bu tengdoshlar bilan yaqinroq aloqa o‘rnatish, nizolarga duch kelish va ularni mustaqil hal qilish imkonini beradi. Yaponiyada bolalar o‘yinlari kattalar aralashuvidan xoli ekanligini alohida qayd etish kerak. Yaponiyadagi bolalar bog‘chasi tarbiyalanuvchisi mojaroni hal qilish uchun mustaqil ravishda yo‘l topadi. Bu yerda asosiy rol guruhga va uning huquqbuzarga bo‘lgan bosimiga beriladi. Shu bilan birga, yapon pedagoglari tajovuzkor xatti-harakatlar qasddan emas, balki tushunmovchilik natijasida yuzaga kelganligini qat’iy ta’kidlashadi. Bundan tashqari, nizoni hal qilish har doim o‘qituvchi vaziyatdan chiqish yo‘lini topgan bolani maqtashi uchun imkoniyatdir. Shu bilan birga, umuman olganda, maktabgacha ta’lim muassasalarida amalda maqtov va jazo ayrim mamlakatlarda bo‘lgani kabi ahamiyatli emas. Yaponiyalik maktabgacha ta’lim mutaxassislari bolada mustaqillikning rivojlanishi qadriyatlarini uning o‘zi yaratolgan taqdirdagina mumkinligiga ishonishadi, bunga esa faqat erkin muhitda erishish mumkin.

O‘qituvchi tomonidan tashkillashtirilgan har qanday faoliyat aniq maqsadga ega: harakat muvofiqlashtirishni rivojlantirishga qaratilgan; musiqa – ritm, eshitish xotirasi va hisoblash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun; hikoya – so‘z boyligini boyitish va tilni rivojlantirish. Shu bilan birga, o‘qituvchi tomonidan tashkillashtirilgan faoliyat har doim boladan kelib chiqadigan xohish, istak bilan bog‘liq.

Ammo, eng muhimi, pedagogning bolaga bo‘lgan umumiy munosabati hayratlanarli. L.Pikning so‘zlariga ko‘ra, yapon o‘qituvchilarining professionalligi ular o‘zaro ta’sir qilishning ijtimoiy mexanizmlaridan mohirona foydalanishlari, bolaga sabr-toqat bilan murojaat qilishlari, kuch namoyon qilmasliklari, qo‘pol so‘zlardan yoki jismoniy jazolarni umuman ishlatmasliklarida.[1]

Yapon an’anasiga binoan notanishlarga nisbatan – ko‘chada, jamoat joylarida hurmat qilishni talab qiladi. Shu sababli, bolalar bog‘chasida ko‘p vaqt odob-axloqni tarbiyalashga va milliy qadriyatlar ruxida tarbiyalashga bag‘ishlanadi. Bolalar juda muloyim og‘zaki formulalarni (yapon tili bunday so‘zlarga nihoyatda boy) o‘rganishlari kerak va ularni qayerda va qachon qo‘llash kerakligini bilishlari kerak.

Yapon etiketining zaruriy elementi ta’zimdir. Yaponlar har bir minnatdorchilikni ta’zim bilan bildiradilar, ovqatlanishdan oldin, ovqatdan keyin ta’zim qiladilar, yig‘ilishda ta’zim qiladilar, mehmonlarni qarshilab minnatdorchilik bildiradilar, hatto parlamentda ham ta’zim qilishadi.

Haftada bir marta har bir yapon maktabining direktori maktab hovlisida qator turgan o‘quvchilarga nutq so‘zlaydi. Nutqning oxiri bilan talabalar ta’zim qilishlari kerak, davlat bayrog‘i ko‘tarilganda yana bosh egiladi.

---

[1] Юка Ямамото. Японские дети слушают старших и едят рис. -М., Литагент «АСТ», 2015. 36 с. 13

Yaponiyalik pedagoglar bolani jamoada tarbiyalashga e’tibor berishadi. Ularning fikriga ko‘ra, bu demokratik ta’limning asosiy shartlaridan biridir, chunki bolalar jamoasi – bu jamiyat modelidir. Yaponiyada bolalarni bir-biri bilan taqqoslamaydilar. Pedagog hech qachon eng yaxshisini alohida ajratmaydi va yomonni tanqid qilmaydi, ota-onalarga farzandining yomon rasm chizishi yoki hammadan yaxshi kuylashini aytmaydi. Bolalarni ajratish umuman mumkin emas.

Maktabgacha tarbiya muassasasi quyidagi vazifalarni hal qilishi kerak: bolaga kattalar va bolalar bilan yaxshi munosabatlarni o‘rnatishga yordam berish, ulardagi tabiatga hurmatni rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish. Xulosa qilib aytish mumkinki, uch yoshdan katta bolalarning 90-95 foizi turli xil maktabgacha tarbiya muassasalariga qatnaydi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlaymizki, hozirgi kunda Yaponiyada ham maktabgacha ta’lim muammolari va qarama-qarshiliklarsiz emas.

Birinchi muammo sifatida, aksariyat ota-onalar va o‘qituvchilarning maktabgacha ta’limda xususiy sektorning kuchayishi bilan kelishmovchiligini ta’kidlash mumkin, chunki bu ta’lim dasturlari sifatining pasayishiga olib keladi.

Ikkinchi muammo – bu bolalarning akademik yutuqlarining o‘sib borayotgan roli (maktabgacha ta’limning e’lon qilingan ijtimoiy yo‘nalishiga qaramay) – bir qator nufuzli bolalar bog‘chalari tanlov asosida beshta uch yoshli bolalardan bittasini qabul qiladi. Natijada, Yaponiyada ikki yoshli bolalarni bolalar bog‘chasiga tayyorlashga ixtisoslashgan muassasalar paydo bo‘ldi.

Shunday qilib, Yaponiyadagi maktabgacha ta’limda bizning ta’limimizga o‘xshash tendensiyalar mavjudligini ko‘ramiz. Masalan, Yaponiyadagi maktabgacha ta’lim muassasalarida va bizda pedagog bolalarni maktabga tayyorlash zarurati va bolani bolaligidan mahrum qilmaslik o‘rtasida muvozanatni saqlashga majbur. Biroq, ma’lum farqlar mavjud.

Avvalo, ular pedagoglarning maktabgacha yoshdagi bolalarning sho‘xligiga munosabati bilan bog‘liq. Ota-onalar bilan ishlaydigan pedagoglarning tajribasi ham alohida e’tiborga loyiqdir. Maktabgacha ta’limning bolada tashkilotchilikni rivojlantirishga, uning tashabbusini qo‘llab-quvvatlashga, barqaror muhitni tashkil etishga yo‘naltirilganligi maktabgacha ta’lim muassasalari xodimlarining asosiy diqqat markazidaligi ham o‘rganishga asos bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xaydarova R.A. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari bo‘lajak mutaxassislarining kasbiy kompetenligini shakllanishida “shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim”ning o‘rni // Academic research in educational sciences. 2023. №TMA Conference. URL: https://cyberleninka.ru

2. Abdullaeva S. K., Shayusupova A.A., Jabborov K.H., Kamalova, S.R., Botirova D.B. Psychological and pedagogical factors in improving the quality of education.

3. R.A. Khaydarova Yosh mutaxassislarning kasbiy adaptatsiyasi jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalanish samaradorligi // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal –December 2021.

4. Юка Ямамото. Японские дети слушают старших и едят рис. –М., Литагент «АСТ», 2015. 36 с. 13.

5. Мисару Ибука. После трех уже поздно// Дошкольное воспитание. – 1995. — №3.

6. Веракса А.Н. Детский сад по-японски //Современное дошкольное образование. 2007 № 1. С. 74.

CHET TILI O‘QITUVCHILARIDA PEDAGOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Ra’no XAYDAROVA
TDSHU, «Pedagogika va psixologiya» kafedrasi katta o‘qituvchisi

Gulzoda O’TKUROVA
TDSHU 3 kurs filologiya yo’nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasbiy-pedagog kompetentlikning turlari, tavsiflari, shakllanish yo’llari ko’rsatilgan. O’qituvchida pedagogik kompetentlikning tillarni o’rganishdagi vazifalari, maqsadlari ko’rsatib o’tilgan.

Kalit so’zlar: Kompetensiya, refleksiya, bilim, malaka, ko’nikma, empatiya, hamkorlik.

Аннотация: В данной статье рассмотрены виды профессионально-педагогической компетентности, их характеристики, пути формирования. Показаны роль и цели педагогической компетентности в обучении иностранному языку.

Ключевые слова: Компетентность, рефлексия, знание, умение, навыки, сопереживание, сотрудничество.

Abstract: This article discusses the types of professional pedagogical competence, their characteristics, and ways of formation. The role and goals of pedagogical competence in teaching a foreign language are shown.

Key words: Competence, reflection, knowledge, ability, skills, empathy, cooperation.

Davlat taraqqiyoti va jamiyat ravnaqi ko‘p jihatdan uning intellektual potensiali bilan belgilanadi. Chunki, ilmiy potensiali yuqori darajada rivojlangan mamlakat barcha sohalarda doimo ilg‘or bo‘ladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizning barcha jabhalarida yuz berayotgan islohotlar va ularning ijobiy natijalari, ko‘p jihatdan malakali mutaxassislarning

faoliyatiga bog‘liq. Shuning uchun mamlakatimiz rahbariyati ta’lim tizimini tubdan isloh qilishga, katta e’tibor qaratyapti. Shunga ko‘ra yuqori malakali kadrlar tayyorlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan.[1]

Albatta, bir necha xorijiy tillarni o‘zlashtirgan mutaxassis bugungi kun talabining asosi hisoblanmoqda. Har bir mutaxassisning o‘z mutaxassisligiga tegishli bo‘lgan ilmiy manbalarni xorijiy tillarning birida qabul qila olishlik vazifasi qo‘yilishi, chet tillariga bo‘lgan talabni oshirmoqda. Bu esa o‘z navbatida xorijiy til o‘qituvchilarning kasbiy kompetentlik darajasini yuqori bo‘lishiga turtki bo‘lmoqda.

Yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlashga erishish uchun ta’lim jarayonini tashkil qilish va boshqarishning o‘ziga xos talablari mavjud. **Birinchidan,** o‘quvchi-talabalarning kasbiy bilimlarni o‘zlashtirish darajasi davlat tarmoq ta’lim standartlari talablariga mosligini ta’minlash. **Ikkinchidan,** o‘quvchi-talabalarning mustaqil ijodiy faolligini davlat ta’lim standartlarida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalari doirasini to‘liq qamrab olishga erishish. Shuningdek, davlat ta’lim standartlarida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalari doirasidan tashqari fundamental va axborot texnologiyalariga doir bilimlarni o‘zlashtirish va ilmiy tadqiqotlar olib borish ko‘nikmalariga ega bo‘lish bilan yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash shartlari hisoblanadi. Jamiyatning bu tarzda jadal rivojlanishi, yuqori malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj – o‘qituvchidan intellektual qobiliyatlarini namoyon qilgan xolda, ijtimoiy talablarni qondirishni taqozo etmoqda. Ijodiy faoliyatga qodir, rivojlanib boruvchi ta’limiy-tarbiyaviy jarayonni va shu bilan birga o‘zining kasbiy kompetentligini boshqara oladigan, pedagoglargina jamiyatning barkamol shaxsga bo‘lgan talabini qondira oladilar.

Hozirgi kunda shu qadar katta ahamiyatga ega bo‘lgan kasbiy kompetentlikning ma’nosi, uning shakllanganlik darajasi, mezonlari va komponentlari to‘g‘risida yagona bir ta’rif yo‘q. Turli pedagog-olimlar turlicha ta’rif keltiradilar, tarkibiy tuzilishiga ham turlicha yondashadilar. Quyida bir necha mualliflarning fikrlarini umumlashtirgan holda, kasbiy kompetentlikning mazmuni va tarkibiy tuzilishiga to‘xtalib o‘tamiz.

Ba’zi bir mualliflarning fikricha, kasbiy kompetentlik ayri xoldagi bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan kompetentliklarning tizimi sifatida ko‘riladi. O‘qituvchining kasbiy kompetentligi deganda, pedagogik faoliyatga yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlik bilan shaxsning ma’lum sifatlari yig‘indisi (majmui) va ta’lim jarayonida tahsil oluvchilar bilan samarali aloqa o‘rnatish tushuniladi.

Kasbiy kompetentlikni tarkibiy tuzilishini tahlil qiladigan bo‘lsak, uning asosiy komponentlari sifatida pedagogik-psixologik yo‘nalishning uch blokini kiritish mumkin, bilimlilik (ya’ni umum kasbiy bilimlar); o‘qituvchining o‘zida

[1] Шаюсупова А.А., Хайдарова Р.А. Формирование педагогической компетентности преподавателя языкового вуза в системе непрерывного образования // Бюллетень науки и практики. 2019. №6. URL: https://cyberleninka.ru/

bor bilimlarni pedagogik faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati sifatidagi ko‘nikmasi; pedagogik jarayondan ajratib bo‘lmaydigan kasbiy ahamiyatga molik shaxsiy qobiliyatlar.[1]

Kasbiy kompetentlikda kasbiy-faoliyat tarkibini shakllanganlik darajasining asosiy mezoni o‘quvchining shaxsiy rivojlanishiga turtki bo‘luvchi o‘qituvchining pedagogik vaziyatlarni mustaqil yecha olish ko‘nikmasidir.

Pedagogik faoliyatning o‘ziga xosligi o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlarni shakllanishiga olib keluvchi ijtimoiy-psixologik sifatlarning muhimligini yuzaga keltiradi. Aynan ushbu sifatlarning mavjudligi professionalizmni muhim belgisi hisoblanadi. Ular sirasiga egiluvchanlik, reflekslik, empatiya, muloqotga kirisha olishlik, hamkorlik vaziyatini yarata olish qobiliyati, ruhiy jozibadorlik va b. kiritish mumkin.

Albatta, o‘qituvchiga amaliy tajriba muhim, lekin xar doim ham uning mavjudligi psixologik-pedagogik kompetentlikni shakllanganligidan dalolat beravermaydi. O‘z pedagogik faoliyatini, harakatlarini, xulq-atvorini doimo tahlil qilish, anglash orqali kasbiy kompetentlik shakllanib boradi. Anglash, tanqidiy tahlil va o‘z faoliyatini konstruktiv tarzda mukammallashtirish yo‘lini aniqlash pedagogik refleksiya yordamida amalga oshirildi.

Shaxsiy uslub va nuqtai nazarini anglash va tushunishga yo‘naltirilgan insoniy tafakkur prinsipi; bilimni predmetli ko‘rib chiqish, uning mazmuni va tushunchalari usullarini tanqidiy tahlil qilish; insonning ichki dunyosini o‘ziga xosligini ochib beruvchi o‘zini anglash faoliyati – *refleksiya* deb ataladi.

Pedagogik refleksiya – ushbu tavsiflarning ilovasi bo‘lib, aynan u o‘qituvchiga o‘z mehnatiga boshqa kishining nuqtai nazaridan qarash imkonini beradi, o‘z kasbiga mos munosabatni ishlab chiqish imkonini beradi. Pedagogik refleksiya o‘qituvchining kasbiy faoliyatni subyekti sifatidagi munosabatini belgilab beradi.

O‘qituvchining doimiy qarshi aloqaga, olingan axborotni talaba nuqtai nazaridan ko‘ra olishga tayyorligi, uning ta’limiy-tarbiyaviy vazifalarni va ijtimoiy-psixologik vaziyatlarni hal qilishda pedagogik xulosalarni natijaviyligini va maqsadga muvofiqligini baholay olishi – professionalizmini shakllanishining muhim omilidir.

Ushbu sifatning ahamiyatliligi (zarurligi darajasidan uni birinchi deb olamiz) boshqa shaxsiy sifatlarning, ya’ni empatiya, egiluvchanlik shakllanishiga olib kelishidadir. Ushbu sifatlar birgalikda o‘qituvchining o‘z kasbiy faoliyatiga muammoli-izlanuvchanlik yo‘nalishini shakllanishiga olib keluvchi o‘zaro ta’sir metodlarini faollik bilan izlashni taqozo qiladi.

Doimo o‘zgaruvchan dunyoda (ayniqsa pedagogik o‘zaro ta’sir vaziyatlarda) o‘zgara olishlik sifati, o‘z individualligini adekvat tarzda namoyon

---

[1] Шаюсупова А.А., Хайдарова Р.А. Формирование педагогической компетентности преподавателя языкового вуза в системе непрерывного образования // Бюллетень науки и практики. 2019. №6. URL: https://cyberleninka.ru/

qila olishi – egiluvchanligidir. Kasbiy ahamiyatga molik bo‘lgan “egiluvchanlik” fikrlash va xulq-atvorni moslashuvchanligini belgilaydi.

O‘qituvchining uchinchi kasbiy ahamiyatga molik sifati bu – empatiyadir: “ruhiy holatini tushuna olish, o‘zga kishining kechinmalariga kira olish, seza olish”. Psixologlar empatiyaning asosiy shakllari sifatida o‘zga kishi boshidan o‘tkazayotgan ruhiy kechinmalarni subyekt tomonidan “birga qayg‘ura olish”ni, ushbu insonga tenglasha olishni ko‘rsatadilar.[1]

O‘zaro ta’sir va tushuna olish deganda o‘qituvchining talabalarning muammolariga ruhiy tomondan javob bera olishlik sifati haqida gap boradi. Bunda o‘zini talabani o‘rniga qo‘ya olish, voqealarga uning nuqtai nazaridan qaray olish nazarda tutiladi. O‘qituvchi tomonidan empatik sifatlarni namoyon etilishi o‘quvchi xulq-atvorini o‘ziga xosligi qabul qilinadi, lekin shaxsiy xulq-atvorni strategiyasi egiluvchanroq quriladi.

Pedagogning yana bir muhim sifatlaridan biri – muloqotga kirisha olishligidir. Ushbu sifat insonlarning ijtimoiylashuv shartlaridan asosiysi bo‘lmish muloqot ehtiyoji asosida shakllanadi va rivojlanadi. Refleksiya, egiluvchanlik, empatiya, muloqotga kirisha olish sifatlarining uyg‘unligi, hamkasbiga samimiy munosabatda bo‘lish, uning faoliyatiga qiziqish, birgalikda ishlash xohishi va umumiy faoliyat ko‘rsatish asosida shakllanib boradi. Hamkorlikka kirisha olish qobiliyati o‘z ichiga bir qancha ko‘nikmalarni oladi, jumladan, o‘z nuqtai nazarini isbotlay olish, o‘zgani eshita olish, o‘z hamkasbi fikrini aniqlash, mantiqiy dalillar asosida qarama-qarshiliklarni yengish, mantiqiy qarama-qarshiliklarni shaxsiy munosabatlar bilan aralashtirmaslik, o‘zgani faolligini qo‘llab-quvvatlash va o‘z vaqtida tashabbus ko‘rsatish; ruhiy madadga muhtojlarga yordam ko‘rsatish; o‘zga kishiga turli faoliyatlarda o‘z kuchini sinab ko‘rishga imkoniyat yaratib berish, fikr almashishni yo‘lga qo‘yish, monologik emas, balki dialogik pozitsiyani egallash va b. Hamkorlikka kirisha olish qobiliyati o‘qituvchining ochiqligini va xar qanday pedagogik o‘zaro ta’sirga kirisha olishini bildiradi.

Ushbu ro‘yxatdagi eng so‘ngi xislat – jozibadorlik. Ayrim mualliflar ushbu sifatni ta’riflaganda, o‘qituvchining tashqi ko‘rinishini, o‘z xulq-atvori bilan talabalarni o‘ziga qarata olish qobiliyatini nazarda tutadilar.

Talabalar diqqati faqatgina o‘qituvchini tashqi ko‘rinishi va qanday gapirayotganida to‘xtamaydi, balki, ruhiy holatini namoyish qila olish, mimik va pantomimik harakatlariga qaratiladi. Jozibador o‘qituvchining barcha xatti-harakatlarida bitta umumiylikni ko‘rish mumkin – atrofdagilarga samimiy munosabatda bo‘la olish va ikki tomon xam shaxsiy obro‘yini yo‘qotmaydigan muloqotning turini topa olish ko‘nikmasini o‘z ichiga oluvchi pedagogik taktga amal qilish.

---

[1] Khaydarova R. A. Yosh mutaxassislarning kasbiy adaptatsiyasi jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalanish samaradorligi // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal -December 2021

O‘qituvchining kasbiy ahamiyatga molik shaxsiy sifatlari kompetentlikni bir tarmog‘i hisoblanadi. Bundan kelib chiqib, ularning rivojlanishi xorijiy til o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi shakllanishining asosiy bo‘g‘ini bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Шаюсупова А.А., Хайдарова Р.А. Формирование педагогической компетентности преподавателя языкового вуза в системе непрерывного образования // Бюллетень науки и практики. 2019. №6. URL: https://cyberleninka.ru/

2. Abdullaeva S.K., Shayusupova A.A., Jabborov K.H., Kamalova S.R., Botirova D.B. Psychological and pedagogical factors in improving the quality of education.

3. Khaydarova R.A. Yosh mutaxassislarning kasbiy adaptatsiyasi jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalanish samaradorligi // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal –December 2021.

SHARQ MUTAFAKKIRLARNING PEDAGOGIK QARASHLARI

Shokir URISHOV
TDSHU, Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti, p.f.n.

Xojiakbar MAMITALIYEV
TDSHU, filologiya yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Maqolada Sharq uyg‘onish davri falsafasi va pedagogikasida ta’lim-axloqiy yo‘nalish muhim ahamiyat kasb etganligi va ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda beqiyos o‘git va yo‘nalishlarni ochib berganligi bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Sharq uyg‘onish davri mutafakkirlari, ta’lim-tarbiyaga e’tibor, sharqona odob.

Аннотация: В статье утверждается, что образовательно-этическое направление имело большое значение в философии и педагогике периода Восточного Возрождения, выявило неповторимые методы и направления в организации образовательного процесса.

Ключевые слова: мыслители Восточного Возрождения, внимание к образованию, манерам, восточным нравам.

Abstract: The article argues that the educational and ethical direction was of great importance in the philosophy and pedagogy of the Eastern Renaissance

period, and revealed unique methods and directions in organizing the educational process.

Key words: thinkers of the Eastern Renaissance, attention to education, manners, oriental morals.

Sharq uyg‘onish davrida mutafakkirlarining pedagogik qarashlari, axloqiy va tarbiyaviy g‘oyalari asosiy masala bo‘lgan. Shuning uchun ham ta’lim-tarbiya asosiy masala bo‘lgan va unga katta e’tibor berilgan. Zero, insoniylik g‘oyasida yuksak axloqiy xislatlar ifodalanganligi uchun ham Sharq uyg‘onish davri falsafasi va pedagogikasida ta’lim-axloqiy yo‘nalish muhim ahamiyat kasb etgan.

Axloq masalasi faylasuflarning, buyuk mutafakkirlarning diqqat markazida bo‘lgan. Bu davrda ta’limiy-axloqiy risolalar paydo bo‘lgan. Jumladan: “Fozil odamlar shahri”, “Baxt saodatga erishuv haqida”, “Axloq haqida risola”, “Ishq risola- si”, “Qutadg‘u bilig”, “Axloqi Nasriy”, “Axloqi Jamoliy”, “Axloqi Muhsiniy”, “Hibatulhaqoyiq”, “Qobusnoma”, “Guliston”, “Bo‘ston”, “Mahbub ul-qulub” kabi Forobiy, Beruniy, ibn Sino, Yusuf xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Tusiy, Davoniy, Koshifiy, Kaykovus, Sa’diy, Jomiy, Alisher Navoiylarning ta’limiy-axloqiy asarlari inson shaxsini ma’naviy-axloqiy shakllantirish muammosini hal etishda sof pedagogik asarlar sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.[1] Mazkur pedagogik asarlarda insonning ma’naviy kamolga yetishida yuksak xulq-odob, ilm-fanni egallash g‘oyasi ilgari surilgan. Shunday ekan, O‘zbekiston mustaqillikka erishganiga 32 yil bo‘lishiga qaramay, ta’lim-tarbiya masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mana shu yillar davomida ta’lim-tarbiya sohasida milliy axloq-odobni qayta tiklash borasida milliy urf-odatlar, turli-tuman an’analarni joy-joyiga qo‘yish, milliy qadriyatlarni rivojlantirish xususida juda keskin va buyuk burilishlar bo‘lmoqda. O‘tgan asrlarda arab xalifaligida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, yagona islom dinining tarkib topishi madaniy, ma’naviy hayotga ham ta’sir etadi. Unda katta ko‘tarinkilik ruhini paydo qiladi. Bu ko‘tarinkilik butun arab xalifaligini, yaqin va O‘rta Sharqni qamrab olganligi uchun Sharq uyg‘onish davri deb ataladi. Bu jarayon IX asrdan boshlanib, XV-XVI asrlargacha davom etdi. Uyg‘onish davri xalifalikning Bag‘dod, Damashq, Xalab shaharlaridan boshlanib, barcha boshqa xalqlar madaniy hayotiga tarqalgan va ularning rivojlanishiga ham ta’sir etgan. Xalifa Xorun ar-Rashid (780-833) va uning o‘g‘li Ma’mun davrida Bag‘dodda **“Baytul-hikma”** (Donishmandlar uyi, hozir akademiya ma’nosida) tashkil etiladi. Mazkur Akademiya barcha ilm sohiblari to‘plangan markazga aylanadi va Sharq-G‘arbda ilm-fanning taraqqiy etishiga, ma’naviy hayotning yuksalishiga ta’sir etadi. Al-Ma’mun olimlarni to‘plab, ularning ilmiy ijodiga sharoit yaratib bergan. Bular orasida al-Xorazmiy, al-Xuttaliy, al-Javhariy, al-Farg‘oniy, al-Marvaziy kabi vatandoshlarimiz ham bo‘lgan. Demak, Uyg‘onish davri madaniyatning rivojlanishiga asos bo‘lgan. Bu davrda qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yer

[1] Jabborov X., Eshmuradov O. Шарқ мутафаккирлари ишларида миллий тарбия масаласи //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. – 2023. – Т. 3. – №. 2.

maydonlari kengaydi, ko‘plab sug‘orish inshootlari tiklandi va yangilari qurilib, paxta, zig‘ir, kanop ekilib, ular tolasidan mato to‘qilgan. Movarounnahrda xususan, Urganch, Farg‘ona, Samarqand va Buxoro shoyisi, to‘qimachilik mahsulotlari dunyoga mashhur bo‘lgan. Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarining chet davlatlar, ya’ni Ispaniya, Hindiston, Xitoy, Vizantiya bilan savdo ishlari keng rivojlangan.

Taniqli olima F.Sulaymonova Sharq mamlakatlarining Ispaniyaga va u orqali Yevropaga ta’siri haqida gapirar ekan, **“Pireney Yarim orolining arablar tomonidan bosib olinishi insoniyat tarixida yangi sahifa ochdi. Makedoniyalik Aleksandr orzu qilgan Sharq va G‘arbning hayotida yangi davr boshlandi. Bu jarayonning ayniqsa, Ovrupa uchun ahamiyati beqiyos bo‘ldi. Sharq faqatgina Ovrupa madaniyatining rivojiga ta’sir etibgina qolmay, balki umuman, Ovrupalik odamning psixologiyasi, tafakkuri, xarakteri, hayot tarzini, tarixiy jarayonini tubdan o‘zgartirib yubordi”**, deydi va matematika, falsafa, astronomiya, tibbiyot, xulq-odob, turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotga qay darajada ta’sir etganligiga ishonarli dalillar keltiradi.[1] X asrdan boshlab Movarounnahr va Xurosonda mustaqil feodal davlatlar – Tohiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G‘aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar davlatlarining paydo bo‘lishi ham madaniy hayotning yanada ravnaq topishiga olib keladi. Bu davrda pul muomalasi rivojlandi. Somoniylar davlatida Marv, Buxoro, Samarqand va Urganch o‘sha davrning madaniy markazlaridan sanalardi. Arab tili ilmiy va aloqa tili edi. Maktablarda darslar arab tilida olib borilar edi. Rasmiy hujjatlar, shariat qoidalari ham arab tilida olib borilar edi. X asr o‘rtalariga kelib, fors-tojik tilida ham ish yuritila boshladi. X asrning ikkinchi yarmida Qoraxoniylar davlati davrida turkiy til shakllanib bordi. XI asr boshlarida G‘aznaviylar davlati, keyinroq Saljuqiylar, Xorazmshohlar davlati tashkil topdi.

XI asrda Xorazmda ilm-fan ayniqsa taraqqiy etadi. Xorazm shohi Ma’mun o‘z saroyiga**“Baytul hikma”**ga eng zabardast olimlarni ya’ni: Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, tarixchi Miskavayx, faylasuf Abu Saxl al-Masixiy, tabib Abdulxayr Xammor kabi olimlarni to‘playdi.

Sharq **“Uyg‘onish davri”**da ilm-fan rivojlanishi uch yo‘nalishda bo‘ldi:

Birinchi yo‘nalish. Matematika-tibbiyot yo‘nalishi bo‘lib, bularga matematika, astronomiya, kimyo, geodeziya, mineralogiya, tibbiyot, farmologiya va boshqalar kiritilgan.

Ikkinchi yo‘nalish. Ijtimoiy-falsafiy yo‘nalishi bo‘lib bunda falsafa, tarix, mantiq, fiqh, ruhshunoslik, notiqlik kabilar kiritilgan.

Uchinchi yo‘nalish. Ta’limiy-axloqiy yo‘nalish bo‘lib, qomusiy olimlarning asarlaridagi didaktik va axloqiy fikrlar asosiy o‘rinni egallagan.

---

[1]Saidov A., Saydullaev J. O‘zbek oilalaridagi tarbiyaning ijtimoiy-psixologik ahamiyati // SAI. 2022. №B8. URL: https://cyberleninka.ru/

Sharq uyg‘onish davrida inson muammosi ma’naviy sohadagi asosiy masala bo‘lgan. Shuning uchun ham ta’lim-tarbiya asosiy masala bo‘lgan va unga katta e’tibor berilgan. Zero, insoniylik g‘oyasida yuksak axloqiy xislatlar ifodalanganligi uchun ham Sharq uyg‘onish davri falsafasi va pedagogikasida ta’lim-axloqiy yo‘nalish muhim ahamiyat kasb etgan. Axloq masalasi faylasuflarning, buyuk mutafakkirlarning diqqat markazida bo‘lgan. Bu davrda ta’limiy-axloqiy risolalar paydo bo‘lgan. Jumladan: “Fozil odamlar shahri”, “Baxt saodatga erishuv haqida”, “Axloq haqida risola”, “Ishq risolasi”, “Qutadg‘u bilig”, “Axloqi Nasriy”, “Axloqi Jamoliy”, “Axloqi Muhsiniy”, “Hibatul-haqoyiq”, “Qobusnoma”, “Guliston”, “Bo‘ston”, “Mahbub ul-qulub” kabi Forobiy , Beruniy, ibn Sino, Yusuf xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Tusiy, Davoniy, Koshifiy, Kaykovus, Sa’diy, Jomiy, Alisher Navoiylarning ta’limiy-axloqiy asarlari inson shaxsini ma’naviy-axloqiy shakllantirish muammosini hal etishda sof pedagogik asarlar sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Mazkur pedagogik asarlarda insonning ma’naviy kamolga yetishida yuksak xulq-odob, ilm-fanni egallash g‘oyasi ilgari surilgan.

Barcha mutafakkirlarning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlarining asosi ham “Qur’oni Karim” va “Hadis” ta’limotiga asoslanadi.

Mutafakkirlarning o‘z ishlarida o‘qitish va ta’lim-tarbiya e’tibori natijasida pedagogika va didaktika masalalariga qiziqish orta bordi. Aniq fanlarni o‘qitishning uslublari masalalariga e’tibor kuchaydi. Sharq mutafakkirlari yoshlarga insoniy munosabatlar uchun zarur odob-axloq me’yorlarini, o‘z turmush tajribasi, islom axloqi, Qur’on talablari hamda Hadislar asosida bayon qiladi. Shu asosda yoshlarning har kungi va butun umri davomida rioya qilishi lozim bo‘lgan harakatlari algoritmi va axloq-odob me’yorlarining tartibini bayon qiladi. Mutafakkirlarning mazkur sa’y-harakatlari bugungi kun ta’lim-tarbiya jarayonida yosh avlod tarbiyasida dasturulamal bo‘ladi. Allomalarning ta’kidlashicha, insonning faoliyati islom tamoyillari asosida ham qurilishi lozim. Bu jarayonda oilada ota-ona asosiy o‘rin egallaydi. Oilada bolalarni to‘g‘ri tarbiyalash uchun ota-onalarning ularga bo‘lgan ijobiy munosabatlari muhim hisoblanadi. Bu esa yoshlarning butun hayoti davomida yurish-turishi, turli faoliyati, dunyoqarashi, odobi, his-tuyg‘usi, orzu-intilishlarida namoyon bo‘ladi. Sharq odobi me’yorlariga ko‘ra kattalar kichiklarga, ota-onalar o‘z farzandlariga odob o‘rgatishlari, kichiklar esa kattalar ko‘rsatgan yo‘ldan yurishlari, ular aytgan gaplarga rioya qilishlari kerak. Barcha mutafakkirlarning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlarining asosi ham “Qur’oni Karim” va “Hadis” ta’limotiga asoslanadi.

Mutafakkirlarning o‘z ishlarida o‘qitish va ta’lim-tarbiya e’tibori natijasida pedagogika va didaktika masalalariga qiziqish orta bordi. Aniq fanlarni o‘qitishning uslublari masalalariga e’tibor kuchaydi. Sharqning mutafakkirlari ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda beqiyos o‘git va yo‘nalishlarni ochib bergan. Abu Nasr Forobiy (873-950) aytadi: “Ta’lim degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish”,

“tarbiya jarayonining muvaffaqiyatli kechishi uchun tarbiya beruvchining o‘zi tarbiyali bo‘lmog‘i shart”, deydi va insonni tarbiyalash, tarbiyalanuvchi ixtiyoriy ravishda zaruriy, aqliy va axloqiy xislatlarni – bilimli bo‘lishga, to‘g‘rilikni va haqiqatni sevishga, jasur, do‘stlarga sadoqatli bo‘lish kabi fazilatlarni egallashga intilmog‘i lozim. Ta’lim faqat so‘z va o‘rganish bilan, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshirilishini aytadi va tarbiyani har bir xalq, millatning amaliy malakalaridan iborat bo‘lgan ish – harakat, kasb – hunarga o‘rgatishdan iborat deb hisoblaydi. Olim insonni dunyo taraqqiyotining eng mukammal va yetuk yakuni deb biladi. Shunga ko‘ra, u o‘z asarlarida insonga tarbiya va ta’lim berish zarurligini va bunda ta’lim-tarbiya usullaridan kutilgan maqsad asosiy o‘rinda bo‘lishini ta’kidlaydi. Mutafakkirning talqinicha bola tarbiyasi va tarbiya usullari haqida qimmatli fikrlarini bildirgan. “Bolani tarbiyalash oila, ota-onaning asosiy maqsadi va vazifasidir”, “O‘z kamchiliklarini tuzatishga qodir bo‘lgan ota-ona tarbiyachi bo‘lishi mumkin” deb fikr bildirgan. Bolaning tug‘ilgandan boshlab oyoqqa turguncha ma’lum tartibda tarbiyalanib borishga katta e’tibor qaratilishiga to‘xtalgan. Bola o‘spirinlikka o‘tish davri tarbiyasi haqida alohida to‘xtalib, bu davrda ularda xulq – atvor shakllanadi. Bola xulq- atvorining bir xil muvozanatda bo‘lishi uchun uni keskin g‘azablanishdan, qattiq qo‘rquvdan va uyqusizlikdan saqlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Саидов А., Сайдуллаев Ж. Ўзбек оилаларидаги тарбиянинг ижтимоий-психологик аҳамияти // SAI. 2022. №B8. URL: https://cyberleninka.ru/

2. Jabborov X., Eshmuradov O. Шарқ мутафаккирлари ишларида миллий тарбия масаласи //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. – 2023. – Т. 3. – №. 2.

3. Жабборов Х.Х. Миллий тарбиянинг қадимий ва замонавий ижтимоий-психологик омиллари: https://doi. Org/10.53885/edinres. 2022.9. 09.037 Жабборов Хазрат Хусенович, Тошкент давлат шарқшунослик университети, “Педагогика ва психология” кафедраси доценти, психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 9. – С. 270-282.

4. Ҳошимов К, Нишонова С. Педагогика тарихи. II- қисм. Дарслик. Алишер Навои номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. Т., 2005.

5. Ибрагимов Х.И., Абдуллаева Ш.А. Педагогика. Ўқув қўлланма., Т.: Фан, 2004

OILANING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O‘RNI

Shokir URISHOV
TDSHU, Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti, p.f.n.

Lutfiniso ABDUVAXOBOVA, Karomatxon AXMEDOVA
TDSHU filologiya yo‘nalishi talabalari

Annotatsiya: Mazkur maqolada oiladagi muhit, ota-ona o‘z mas’uliyatlarini his qilishi, ota-onaning muomalasi muhim ekanligi va bu borada Hadisi sharifda, Sharq mutafakkirlarining asarlaridagi g‘oyalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Vatanga muhabbat, farzand tarbiyasi, odob-axloq, muhit, muammolar, ijtimoiy tarbiya.

Аннотация: В данной статье освещается важность обстановки в семье, осознания родителями своей ответственности и отношения к родителям, а также в этой связи идеи трудов восточных мыслителей.

Ключевые слова: любовь к Родине, воспитание детей, нравы, окружающая среда, проблемы, социальное воспитание.

Abstract: This article highlights the importance of the family situation, parents’ awareness of their responsibility and attitude towards parents, as well as, in this regard, the ideas of the works of Eastern thinkers.

Key words: love for the Motherland, raising children, morals, environment, problems, social education.

Oila-jamiyatning tayanchi. Farzandlarimiz ongida el-u yurtga, Vatanga muhabbat tuyg‘ulari oilada, yashab turgan mahallada shakllanadi. Mamlakatning ertangi kuni, tinch va obod bo‘lishi eng oldin mana shu kichik jamiyatda o‘sib-unayotgan bolalarimizga bog‘liq. Qaysi oilada, qaysi mahallada tarbiya yaxshi yo‘lga qo‘yilar ekan, o‘sha oila, o‘sha mahalla gullab-yashnaydi.

Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak?, degan savol ko‘pchilikni o‘ylantiradi. Ko‘pchilik olimlar unga turlicha javob berib kelganlar. Xususan, Ibn Sino bola tarbiyasi bilan uning tug‘ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlaboq shug‘ullanish lozim, deb javob bergan.

Oila, odob-axloq va ta’lim-tarbiyaga e’tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir. “Bir bolaga yetti qo‘shni ota-ona” degan ibratli maqol ham aynan xalqimizga xos. Mana shu maqolning o‘zi ham farzand tarbiyasi, oilaparvarlik biz uchun nechog‘lik muhim ekanini bildiradi. Mahalla ahli, ayniqsa keksalar ko‘chada nobop ish qilayotgan bola oldidan hech qachon beparvo o‘tib ketmagan, shu zahotiyoq tanbeh berib to‘g‘ri yo‘lga chaqirgan. Zero, har tomonlama chiroyli, odobli, go‘zal xulqli bo‘lish, nafsni poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz oilaga katta ahamiyat beradi.

Oiladagi muhit ota-ona o‘z mas’uliyatlarini his qilishi bilan barqaror bo‘ladi. Bolalarning odobli bo‘lib ulg‘ayishi uchun ota-ona bilan bir qatorda mahalla-kuy ham katta ibrat maktabidir. “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, deb

bejiz aytmagan xalqimiz. Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o‘zaro munosabatida olijanob fazilatlarni namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo‘ladi. Shuning uchun uning atrofdagilari o‘z odatlari bilan ba’zan o‘zlari sezmagan holda ularga ta’sir qiladilar. Oiladagi qo‘pol munosabatlar, ko‘p yolg‘on gapirish, yoqimsiz xatti-harakat bola tarbiyasiga salbiy ta’sir qiladigan nosog‘lom muhitni keltirib chiqaradi.

Farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o‘rin tutadi. Bola ota-ona tomonidan qo‘pol, dag‘al so‘zlar eshitib, kaltak yeb katta bo‘lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta’sir qiladi. Bu esa o‘z navbatida oiladagi nosog‘lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan “ma’naviy kasal” insonlar shakllanadi. Ular esa jamiyat ma’naviyatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Oilada ota-onalar “ommaviy madaniyat” ta’siriga berilib ketishi oqibatida farzandlarning tarbiyasiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Istiqlol tufayli xalqimiz chet-el yurtlarini kezib, yangi xalq va urf-odatlarni guvohi bo‘lib qaytmoqdalar. Shu jumladan Yevropa davlatlariga sayr qilib kelayotgan fuqarolarimiz bugungi kunda g‘arb o‘smirlari orasida boshqa mamlakatlar yoshlariga qaraganda uyushgan jinoyatchilik va zo‘ravonlikka berilish holati yuqori. Bunga sabab bolalarga keragidan ortiq erkinlik berilgani ekan. Ularni hozirdan aysh-ishratga berilib, turli axloqsiz xatti-harakatlarga ruju qo‘yishdan hech kim qaytarmasligini aytib berishmoqda.

Inson hayoti davomida biror shaxsni o‘ziga o‘rnak deb biladi, bundan inson u kabi hayot kechirishni, u erishgan yutuqlar kabi muvaffaqiyatlarga erishishni, yuksak cho‘qqilarga chiqishni ko‘zlaydi. Bugun jamiyatning yosh a’zolari o‘z hayotlari uchun boshqa madaniyat vakillarining fikrlash va hayot tarzini o‘rnak qilib olishlari ko‘p muammolarni keltirib chiqarmoqda. [1]

XXI asrda turli hayot tarzlari va g‘oyalar raqobatga kirishdi. Bunda muvaffaqiyatga erishish uchun har bir davlat o‘zligini saqlagan holda diniy va milliy qadriyatlarini boshqalarga anglatishni asos qilgan mafkuraga ega bo‘lishi lozim. Aks holda, o‘zlikni yo‘qotish, bebaho qadriyatlardan voz kechish kishini taraqqiyotdan ajratib, uni tobe, mustaqil fikri yo‘q manqurtga aylantirib qo‘yadi. Hozirgi kunda g‘arazli maqsadlarni amalga oshirish uchun zimdan olib borilayotgan fitnalar ba’zi millatlarning o‘zligini yo‘qotishga qaratilganini sezish mumkin. Bunda e’tibor hududlarini egallash emas, balki inson ongini egallashga yo‘naltirilgan.

Albatta bola tarbiyasi o‘ta murakkab va mas’uliyatlidir. Bu har bir ota-onadan o‘z ustida muntazam ishlashni, bolalar tarbiyasiga oid barcha ma’lumotlardan baxabar bo‘lib borishni talab etadi. Farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko‘rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o‘z ichiga diniy-axloqiy bilimlar, tibbiyot, etika, psixologiya, pedagogika kabi sohalariga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayondir.

---

[1] А.А. Джуманқулов. Миллий таълим-тарбия тизими ва инсонпарварлик талаблари // Academic research in educational sciences. 2021. №NUU Conference URL: https://cyberleninka.ru.

Bugungi kunda oilaviy tarbiyaning qiyinlashuvi shundaki, birinchidan, jamiyat taraqqiy etib borgani sari har tomonlama yetuk insonni shakllantirish talablari ortib boraveradi. Bu esa oilada bolaga estetik, jinsiy tarbiya, axloqiy tarbiya berish sifati va ko‘lamini oshirish talabini qo‘yadi.

Ta’lim-tarbiya, odob-axloq bolalikdan berilgani ma’qul. Rasululloh (a.s.): “Birontangiz o‘z farzandlaringizni tartib-intizomga o‘rgatsa, bu har kuni sadaqa bergandan yaxshiroqdir”, deya marhamat qilganlar.

Bolalarni intizomga o‘rgatish oila mustahkamligiga asos bo‘ladi. Islom shu ma’noda ota-onalarni o‘z farzandlariga sog‘lom tarbiya berishga rag‘batlantiradi[1]. Hadisi sharifda “Farzandlaringizni hurmat qiling va ularni yaxshi xulq bilan xulqlantiring” deb ta’kidlangan. Farzand tarbiyasi jarayonida bola huquqlarining kamsitilmasligi talab etiladi. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg‘ulariga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha bo‘lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o‘ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o‘tgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: “…tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo‘lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi”. Mana shu jarayonda bola tarbiyasiga o‘ta e’tiborli bo‘lish lozim.Yoshlarning qalbi va ongida sog‘lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg‘usini shakllantirishda, har jihatdan barkamol etib tarbiyalashda buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi katta ahamiyat kasb etadi. Zero, hayotning asl mazmun-mohiyatini anglab yetishga o‘z umri va salohiyatini bag‘ishlagan allomalarimizning asarlarida sog‘lom avlod tarbiyasi bilan bog‘liq masalalarga alohida o‘rin berilgan.

Sharq allomalari o‘z asarlarida farzandlarga tarbiya va ta’lim berish, uni ma’rifat-u madaniyatga yetaklash muammolariga e’tibor berganlar.

Buyuk mutafakkirlar farzand tarbiyasi, go‘zal axloqning inson kamolotiga sabab bo‘luvchi yuksak fazilat ekanini ta’kidlaganlar. Jumladan, Imom Buxoriyning “al-Adab al-mufrad hadislar to‘plami, Abu Lays Samarqandiyning “Tanbehul g‘ofiliyn” asarlarida farzandlarga yuksak insoniy fazilatlarni kamol toptirish tarannum etilgan.

Yurtimiz ulamolari o‘z asarlarida farzandining chiroyli odobidan umid qilgan ota-ona, uni muntazam ravishda husni xulq asosi bo‘lgan muomala odobining quyidagi qirralari bilan tanishtirib borishi muhim ekanini alohida ta’kidlaganlar:

- farzandingiz odamlar bilan muomalada shirinso‘z, muloyim, bosiq va kamtar bo‘lishiga e’tibor qarating;

- odamlar xursandchiligini baham ko‘rish, g‘am-anduhidan qayg‘urish, mol-mulkiga xiyonat qilmaslik, yaxshilikka chorlab, yomonlikdan qaytarish

[1] А.А. Джуманқулов. Миллий таълим-тарбия тизими ва инсонпарварлик талаблари // Academic research in educational sciences. 2021. №NUU Conference URL: https://cyberleninka.ru.

husni xulq egalariga xos fazilatlardandir. Shuning uchun farzandingizga ana shu xislatlarni bolalikdan singdirish payida bo‘ling;

- farzandingizga o‘zgalar bilan muomala chog‘ida boshqalarni g‘ıybat qilish, o‘zgalarni mensimaslik, obro‘si, boyligi yoki mansabiga qarab munosabat ko‘rsatish ham odobsizlik ekanini uqtirib boring;

- yoshi ulug‘ kishilar, ustozlar bilan muomalada ularning ko‘ziga tik boqmay, gaplarini jim tinglash, savollarigagina javob qaytarish, buyruqlarini sidqidildan bajarish ham bolalar qalbiga jo qilishga e’tibor bering.

Ota-bobolarmiz azaldan o‘g‘il qizlarning go‘zal xulqli, odobli bo‘lishiga katta ahamiyat berganlar. Binobarin, islom dinida ham axloq imon qatoriga qo‘yiladi.[1]

Farzand tarbiya qilganda odatda o‘g‘il bolalar tarbiyasi bilan ko‘proq ota, qiz bola tarbiyasi bilan esa ona shug‘ullanadi. Albatta bunda farzandning saviyasini inobatga olish muhim. Bolani biror-bir yutuqqa erishishida, natijani ko‘rishga shoshmaslik kerak. Masalan ikki yoshgacha faqat shirin so‘z bilan, erkalash orqali tarbiya qilinadi. Besh yoshgacha bola atrofni o‘rganadi, asosiy ma’lumotni shu yosh oralig‘ida egallaydi. Bu davrda biz ko‘proq amaliy jihatdan namuna bo‘lishga urinishimiz, sog‘lom oilaviy muhitni yaratishimiz zarur bo‘ladi.

Oilada otaning bolalariga loqayd bo‘lishi oxiri xunuk oqibatlarga sabab bo‘ladi. Loqaydlik yomon illat bo‘lib, u bola tarbiyasining buzilishiga katta yo‘l ochadi. Ota sustkashlik qilib, burchini ado etmagani va manfaatli ilm hamda yaxshi amalni o‘rgatmagani oqibatida o‘z farzandidan zarur ijobiy xislatlarni shakllantira ololmagan. Farzand ham otasining yaxshi tarbiyasidan mahrum bo‘lib o‘sadi. Keyingi davr esa bir oz talabchanlik va intizomni talab etadi. Bu davr o‘smirlik payti bo‘lib, bola oq-qorani ayni shu davrda ajratadi. Yaxshilikka mukofot, yomonlikka jazo muqarrarligini shu bosqichdan o‘rganadi. Bu davrda farzand to‘g‘ri yo‘lga solinsa, tarbiyali do‘stlarga hamroh qilinsa, uning odobli bo‘lib, yaxshi inson bo‘lishi uchun muhim qadam qo‘yiladi. Odatda onalar o‘z bolalarining xato va kamchiliklarini otasidan yashirishga harakat qiladilar. Aytsam urishadi, bolamga qattiq tegadi deb, yo‘l qo‘ygan xatolari, qo‘l urgan yomon ishlarini otaga aytmaydilar. Oqibatda bola o‘z vaqtida tanbeh olmaganidan keyin bora-bora kattaroq jinoyatlarni ham qo‘rqmasdan qilaverishi mumkin. Mehr-muhabbat berishda ham me’yorni saqlay bilish kerak. Bolaning barcha aytganlarini qilish, barcha to‘g‘ri-noto‘g‘ri xatti-harakatlarini ma’qullash yoki hatto indamaslik farzandning umuman tarbiyasiz bo‘lib o‘sishiga olib keladi. Ortiqcha taltaytirib erkalash bolani har jihatdan sustlashtirib qo‘yadi, mehr ko‘rsatish esa uni yanada faol bo‘lishga undaydi. Erka o‘sgan bola faqatgina shaxsiy manfaatlarini ko‘zlaydigan, mas’uliyatsiz bo‘lib voyaga yetadi.

---

[1] Abdullaeva S.K., Shayusupova A.A., Jabborov K.H., Kamalova S.R., Botirova D.B. Psychological and pedagogical factors in improving the quality of education.

Shuning uchun farzandning barkamol inson bo‘lib yetishida onaning xizmati juda zarur va muhimdir. Bolalik chog‘ida farzandning qalbi o‘ta yumshoq va ta’sirga beriluvchan bo‘ladi. Shu bois diniy ta’limotlarda bolalarni mehr bilan erkalash, farzandning bolalik davrini xursand o‘tkazishga alohida e’tibor qaratiladi. Ayniqsa, qiz bolaning ko‘ngli nozik bo‘lishini hisobga olib, ularga alohida mehr ko‘rsatishga chaqiriladi. Diniy ta’limotlarda ota-ona o‘z farzandlariga ta’lim-tarbiya berishi ham dolzarb vazifalardan deb qaraladi. Bu haqda Muhammad (alayhissalom): “Farzandlaringizga ta’lim bering, chunki ular sizniki bo‘lmagan vaqt uchun tug‘ilganlar”, deb har bir ota-onani bolaning o‘z zamonasi ilm-fani, ta’limiga befarq qaramaslikka chaqirganlar.

Tarbiyada eng muhim vosita bu mehr va shirinso‘zlik bilan tarbiyalashdir. Bu ikki vosita bir bo‘lib, bolani shakllantiradi. Shu jumladan, ta’limni ham g‘azab va jazolash bilan amalga oshirmagan ma’qul. Zero, zo‘rlab berilgan ta’lim bola xotirasidan tezda o‘chib ketadi. Oqibatda uning shu sohaga nisbatan qiziqishi so‘nishi mumkin. Bundan ko‘rinadiki, ta’limning avvali ham yaxshi tarbiyadan boshlanadi.

Islom ta’limotida yosh avlodning jismonan sog‘lom va baquvvat bo‘lib ulg‘ayishiga jiddiy ahamiyat berilgan. Bu haqda Payg‘ambarimiz (s.a.v.): “Farzandlaringizga suzish va kamon otishni, qizlarga ip yigirishni o‘rgatinglar”, deganlar.

Bugungi kunda farzand tarbiyasida ijtimoiy muammolardan; uyali telefonlardagi tajovuzliklar hamda Ijtimoiy tarmoqlar to‘ri tobora avj olmoqda. Ushbu zamonaviy kommunikatsiya vositalari muhim aloqa vositalari bo‘lishi bilan birga ba’zi ma’naviyati to‘liq shakllanmagan sust yoshlarga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoq ta’siriga tushib qolgan yoshlarga ota-onalar, o‘quv muassasalari bilan birgalikda yondashib aloqa vositalarining asl mohiyatini tushuntirib berishlari lozim.

Tarbiyadan tashqaridan bo‘ladigan salbiy ta’sir bu, eng katta xatardir. Chunki farzandga oilada bu boradagi erkinlikka yo‘l qo‘yilmagach, u o‘z qiziqish va rag‘batlarini qondiradigan sabablarni tashqaridan izlay boshlaydi. Demak, ota-ona farzandining tashqi hayotiga ham katta e’tibor qaratishi talab etiladi. Ya’ni, ular farzandi maktab yoki kollejdan keyin qayerga borishi, nima bilan shug‘ullanishini nazorat qilish lozim.

Farzandga bilim olish uchun sharoit yaratish ham ota-onaning vazifasidir. Payg‘ambarimiz (s.a.v.): “Ilm olish har bir musulmon va muslima uchun farzdir”, deb marhamat qilganlarida, o‘g‘il va qiz farzandlarimizga ilm olish uchun barobar sharoitni ta’minlash kerakligini nazarda tutganlar.

Yosh avlod yetuk va komil shaxs bo‘lib voyaga yetishi uchun yana bir muhim omil hayot tarziga aylanishi zarur. U ham bo‘lsa “kitobxonlik”. Buning uchun yurtimizda barcha sharoitlar yaratilgan. Ommaviy, ilmiy kutubxonalar, “Aybuk” tarzidagi kitob-kafe do‘konlari va boshqalar so‘zimizning yaqqol misolidir.

Ota-ona farzandiga vaqtni unumli o‘tkazishni o‘rgatishida vosita sifatida foydalanishi mumkin bo‘lgan usullardan yana biri-zamonaviy axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanishdir. Ota-ona bolada estetik tarbiya, go‘zal manzaralardan zavq olish hissini shakllantirish uchun uni o‘zi bilan birga tabiatdagi manzarali joylarga, muzeylarga olib borishi va shu bilan birga uning qalbida go‘zallik latofatini singdirishi muhim.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mustahkam ma’naviy immunitetli, o‘zining fikrlarini ravon ayta oladigan, yuqori marralarga erishuvchan avlodni tarbiyalash uchun ota-ona, oila muhiti juda katta ahamiyat kasb etadi. Hech kimga sir emas, insonning qalbi va ongini egallash, ayniqsa, yoshlarning ma’naviy dunyosini zaharlashga qaratilgan turli xavf-xatarlar ham kuchayib borayotgan bugungi kunda o‘zining kimligini, qanday bebaho meros vorislari ekanini teran anglab, ona yurtga muhabbat va sadoqat hissi bilan yashaydigan, imon-e’tiqodi mustahkam yosh avlodgina muqaddas zaminimizni yot va begona ta’sirlardan, balo-qazolardan saqlashga, Vatanimizni har tomonlama ravnaq toptirishga qodir bo‘ladi. Farzandlarimizga shunday tarbiya beraylikki, ular o‘z ota-bobolariga, o‘z tarixi, Vatani, ona tiliga, millati, diniga va an’analariga sodiq bo‘lib kamol topishsin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. А.А. Джуманқулов. Миллий таълим-тарбия тизими ва инсонпарварлик талаблари // Academic research in educational sciences. 2021. №NUU Conference URL: https://cyberleninka.ru.

2. Abdullaeva S.K., Shayusupova A.A., Jabborov K.H., Kamalova S.R., Botirova D.B. Psychological and pedagogical factors in improving the quality of education.

3. R.A. Khaydarova. Yosh mutaxassislarning kasbiy adaptatsiyasi jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalanish samaradorligi // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal –December 2021

4. Ш.М. Уришов. Критерии выбора методов обучения // Academic research in educational sciences. 2021. №NUU Conference 1. URL: https://cyberleninka.ru

PEDAGOGIK FAOLIYATDA KASBIY SO‘NISH JARAYONINING SHAKLLANISHIGA STRESSNING TA’SIRI

Dilafro‘z BOTIROVA
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Iroda ISKANDAROVA
SHM va siyosati va turizm fakulteti
Turizm yo‘nalishi yapon-ingliz guruhi
3 bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada shaxsning kasbiga nisbatan faolligi va qiziqishini so‘nishi mexanizmlariga e’tibor qaratilgan, shu bilan birga mazkur holatdagi shaxslarga qanday yordam berish yo‘llariga to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy stress, kasbiy so‘nish, kasbiy zerikish, kasbidan bezish, kasbiy o‘zlik, kasbiy “men”lik, kasbiy malaka, kasbiy hamkorlik, kasbiy layoqat

Аннотация: В данной статье основное внимание уделяется механизмам, посредством которых у человека угасает активность и интерес к профессии, и в то же время акцентируется внимание на том, как помочь людям в данной ситуации.

Ключевые слова: профессиональный стресс, профессиональное выгорание, профессиональная скука, профессиональная идентичность, профессиональное “Я”, профессиональная компетентность, профессиональное сотрудничество, профессиональная ответственность.

Abstract: This article focused on the mechanisms of a person’s activity and interest in professional activities, while also focusing on how it can help individuals in this situation.

Key words: occupational stress, professional fading, professional boredom, professional identity, professional self, professional competence, professional cooperation

Jahon miqyosida ijtimoiy integratsiya, globallashuv va axborotlashgan tendensiyalarining kuchayib borishi ta’lim tizimida o‘qituvchilarning ijtimoiy-psixologik kompetentlik masalalariga bugungi zamonaviy talablar asosida yanada jiddiyroq e’tibor qaratishni taqozo etmoqda. Jumladan o‘qituvchilarning bugungi kunda kasbiy faoliyatda yuzaga kelayotgan kasbiy stress omillarini o‘rganish, ularning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish kabi ustuvor masalalar bo‘yicha muhim tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar islohotlar talabiga to‘la javob beruvchi, intellektual salohiyati yuqori, keskin o‘zgarishlar tez moslasha oladigan, raqobat bardosh, mehnat bozorida

mutaxassislar malakasiga quyilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat yurituvchi shaxsni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda[1].

Respublikamizda o'qituvchi kadrlarga bo'lgan talab oshib borishi bilan birgalikda ular oldinga ham bir qator mas'uliyatlarni yuklaydi. Shular jumlasiga pedagogning o'z kasbiga sadoqati, kognitiv salohiyati, kasbiy kompetentligi shular jumlasidandir. Bugungi kunda pedagoglar faoliyatida kasbiy stress namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni o'rganish orqali pedagoglarning kasbiy faoliyat samaradorligiga, ularning kasbiy va shaxsiy taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan ilmiy-amaliy ishlar ko'lamini yaratish imkonini beradi.

Umuman olganda kasbiy stressni keltirib chiqaruvchi omillardan biri kasbiy kompetentlikni etishmasligi, pedagog faoliyatida salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ta'kidlab o'tmoqchimiz.

O'qituvchining kasbiy kompetentligi yuqori bo'lsa unda kasbiy stress vujudga kelmaydi deb aytishimiz mumkin. Kasbiy stress namoyon bo'lishida yana bir omil refliksivlik ya'ni shaxsda o'zini o'zi nazorat qilishning shakllanishi muammosi psixologiya fanining dolzarb masalalaridan hisoblanadi.O'zini o'zi nazorat qilish muammosi doirasida xorij psixologlari tomonidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, xorij psixologlari o'tkazgan tadqiqotlarda o'zini o'zi nazorat qilishning tarkibiy qismlari ya'ni o'zini nazorat qilishning tuzilishi, rivojlanish darajasi, shaxs xususiyatlari va psixik jarayonlar bilan o'zaro bog'liqligi, xulq – atvor va faoliyat jarayonida o'zini o'zi nazorat qilishning yosh va individual xususiyatlarga aloqadorligi masalalari atroflicha o'rganilib, bu borada katta hajmdagi ilmiy ma'lumotlar to'plangan.

O'qituvchida kasbiy stress namoyon bo'lishida muloqotning ahamiyati kattadir. Agar pedagog muloqotga kirisha olmasa, unda muloqotdagi kommunikativlik mavjud bo'lmasa albatta unda kasbiy stressing vujudga kelish ehtimoli ko'proqdir. Shuning uchun pedagog muloqotning psixologik tomonlarini, muloqotning psixologik xususiyatlarini yaxshi anlamog'i lozim. Ayniqsa pedagoglarning kasbiy faoliyati muloqotni taqozo etadi[2].

U ta'lim oluvchilar bilan xar doim muloqotda bo'lib ularni komil inson etib tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Demak muloqot, tashqi ta'sirlar, namunalar asosida o'zini-o'zi tuzatish, qayta tarbiyalash, shaxsiy imkoniyatini ro'yobga chiqarish uchun puxta zamin hozirlaydi, komillik sari etaklaydi.

O'qituvchining kasbiy stress namoyon bo'lishida asosiy muammolaridan biri bo'lib muloqotdagi qiyinchiliklar hisoblanadi. Pedagogda muloqotdagi

---

[1] Occupational Burnout Prevalence and Its Determinants Among Physical Education Teachers: A Systematic Review and Meta-Analysis / T.A. Alsalhe, N. Chalghaf, N. Guelmami, F. Azaiez, N.L. Bragazzi // Frontiers in Human Neuroscience. 2021. Vol. 15. Article ID 553230. 14 p. DOI:10.3389/fnhum.2021.553230.

[2] Burnout among primary school teachers in Iraq: prevalence and risk factors / J. Al-Asadi, S. Khalaf, A. Al-Waaly, A. Abed, S. Shami // East Mediterr Health Journal. 2018. Vol. 24. № 3. P. 262—266. DOI:10.26719/2018.24.3.262.

qiyinchiliklar natijasida shaxsiy diskomfort, xavotirlanish, psixologik siqilish kabilar kuzatiladi. Bular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin.

-autistiklik, kuchli yolg‘izlik hissi, begonalashish, muloqotdan qochish;

-ijtimoiy kommunikabellikdagi qiyinchiliklar- kechirim so‘rash, hamdardlik bildirish, nizoli vaziyatlardan samarali chiqa olish ko‘nikmasining mavjud emasligi.

Yuqoridagilardan aksariyati, pedagog shaxsida muloqot jarayonida salbiy emotsiyalar, yangi muloqotlardan qochish, ishonchsizlik kabilarni uyg‘otadi.

Dunyoda sodir bo‘layotgan ijtimoiy –iqtisodiy o‘zgarishlar, mehnat intensivligining ortishi, axborot oqimining ko‘payishi, yangi texnologiyalar, bularning barchasi inson ekologiyasining buzilishiga sabab bo‘layotgan

Birinchi raqamli sabab esa bu stressing ko‘pligidir. Ta’lim muassasalari hozirgi kunda ustozlarga o‘z vazifasidan ham ko‘proq vazifa berishi va bu ularning kunlik majburiyatiga aylanib qolgani hech kimga sir emas.

Bu esa har qanday insonni charchatadi va ularni bu kasbdan ko‘ngillari qolishiga sababchi bo‘ladi. Psixologik tadqiqotlardan ham bu misolni yaqqol qayta va qayta tasdiqlagan desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Agarda inson hayotida stress miqdori oshib ketsa bu uning kunlik samarador ishlashini pasaytirib yuboradi va albatta ruhiy holatiga ham ta’sir o‘tkazmay qolmaydi. Chunki insonning ruhiy holati unga xuddi jismoniy holatidek bir xil miqdorda zarar yetkazishi aniqlangan. Olimlarning so‘ngi tadqiqotlariga asosan agar inson ruhiy tomondan iztirob cheksa u xuddi tanasidan zarb olgandek og‘riqni his qilar ekan. Chunki bizning ong ostimiz va ongimiz xuddi yosh bolaning ongi kabidir. U haqiqat va yolg‘onni anglay olmaydi. Bu so‘zim bilan ya’ni agar siz bir yolg‘on voqeani hayotda sodir bo‘lgan deb ishonish ma’lumotini miyangizga yetkazsangiz, u buni xuddi hayotda bo‘lgan deb hisoblaydi va bu buni jiddiy qabul qiladi. Shuning uchun pedagoglarni o‘z ishi, rahbariyat va talabalardan davomli ravishda olayotgan stressi va ruhiy azoblari ularga ta’sir etmay qolmaydi. Shuning uchun ham bu ularni kasblaridan so‘nishga olib keladi.

Hozirgi kunda jamiyatning talablari maktablarda kun sayin o‘sib bormoqda va bu vazifalarni hal etish pedagogning vazifasiga bog‘liq. Endi esa pedagogning asosiy vazifalari to‘grisida gaplashib o‘tsak.

Pedagogning eng birinchi raqamli vazifalari:

1.Kasbiga o‘zini bag‘ishlashdir. U qanchalik o‘quvchilarni yaxshi ko‘rsa va o‘zinig o‘qitayotgan fanini yaxshi ko‘rsa undan haqiqiy ilm-toliblar yetishib chiqadi.

2.Kasbiga bo‘lgan mas’uliyat

3. Bolalarga ma’rifat va ma’naviyat tushunchalarini o‘rgatish

4. O‘zini-o‘zi nazorat qilish , sabr , chidamlilik va qat’iyatlik

Bulardan tashqari hozirgi kunda ustozlarga qo‘yiladigan talablar ham mavjud. Bular:

1. Talabalarni ruhiy mustahkam va malakali kadr sifatida yetishtira oladigan pedagog.

2. Keng qamrovli bilimga ega bo‘lish.
3. Yaxshi pedagogik va psixologik bilimga ega bo‘lish.
4. Oxirgi yangiliklardan xabardor bo‘lish va o‘z ustida davomli ishlash.
5. O‘z o‘qitishiga kreativ yondashish.
6. Bolalarni va ularning ichki dunyosini tushunish.
7. Pedagogik texnikalarga ega bo‘lish.

Yuqorida aytib o‘tilgan talablar va pedagog tomonidan ega bo‘linishi kerak bo‘lgan ko‘nikmalar pedagogni haqiqiy ma’noda professional pedagoglik darajasiga elitadi.

Hozirgi kunda pedagoglik faoliyati yuqori maoshga ega va talabgor kasblardan biri bo‘lishiga qaramasdan bu kasbni tashlab ketayotgan va ba’zi bir yoshlarni bu kasbni egallashga bo‘layotgan qiziqishlarini so‘ndirayotga omillar mavjud. Biz bugungi kunda zamonaviy taraqqiyot davrida ya’ni XXI asrda yashab kelmoqdamiz va bu esa ba’zi bir muammolarga ham bizni yetaklamoqda desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu sabablardan asosiy sababi hozirgi kundagi bizni hammamizga ma’lum bo‘lgan ijtimoiy psixologik sabablardir.

Psixologik stressga xar doim inson organizmidagi fiziologik moslashish mexanizmining natijasida sifatida qaraladi, uning biologik mexanizmlari esa o‘zining alohida tabiati va mazmuniga ega. Bu ikki mexanizm haqidagi tushunchani aniqlashtirib olmasdan turib, stressli ta’sirlarga nisbatan inson tomonidan bildiriladigan murakkab va qarama qarshi xarakterga ega bo‘lgan reaksiyalarni tushuntirib bo‘lmaydi. Mashhur kanadalik fiziolog Gans Sel’e esa 1936 yilga yilda o‘zining “Umumiy adaptatsiya sindromi” haqidagi birinchi ilmiy ishini nashr qildi, lekin uzoq vaqtgacha “stress” tushunchasini qo‘llamay, uning o‘rniga “nerv psixik zo‘riqish” tushunchasidan foydalanadi.

Xulosa o‘rnida aytib o‘tishim lozimki, hozirgi kunda pedagoglik kasbi juda ham talabgor sohalardan biri hisoblanadi. Buning asosiy sabablaridan biri undagi ishga ajratilayotgan imkoniyatlar va ba’zi bir xususiy sektorlardagi yaxshi to‘lov. Lekin bu tangani ikkinchi tomoni yo‘q degani emas. Hozirda ustozlarga rahbariyat tomonidan beriladigan bosim va talabalarning ularga ko‘rsatadigan ba’zi bir qo‘shtirnoq ichidagi munosabati ularni kunlik stressga ega bo‘lishiga sababi bo‘ladi desam adashmayman. Mana shunday stresslarning miqdori oshib ketishi sababli ular bu kasbdan qaysidir ma’noda ko‘ngli soviydi va bu ularni bir kun kelib bu kasbni tashlab ketishiga majbur qiladi.

Shaxsda kasbiy so‘nish, stress yuzaga kelgan holda uni bartaraf etish uchun pedagogik jamoa birgalikda aniq reja asosida hamjihatlik bilan faoliyatlarini tashkil etishlari orqali mutaxassisni saflarida saqlab qolishlari mumkin. Mazkur faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishda psixologni salbiy harakatlari alohida e’tiborga loyiq hisoblanadi. Ijtimoiy faoliyatda har bir shaxs bilan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kasbiy so‘nish ma’lum bir vaqt oralig‘ida o‘tib ketish tabiiy hol hisoblanadi. Agar unga ijobiy yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish orqali yordam ko‘rsatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Occupational Burnout Prevalence and Its Determinants Among Physical Education Teachers: A Systematic Review and Meta-Analysis / T.A. Alsalhe, N. Chalghaf, N. Guelmami, F. Azaiez, N.L. Bragazzi // Frontiers in Human Neuroscience. 2021. Vol. 15. Article ID 553230. 14 p. DOI:10.3389/fnhum.2021.553230

2. K.B.Qodirov “Kasb tanlashga tayyorlashgarlikning psixologik jihatlari va professional loyihalar” Toshkent, 2001. – 36 b

3. Shakarboyeva S. Bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘z istida ishlash faoliyatini tarbiyalashning ijtimoiy – psixologik xususiyatlari //Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii. – 2022. – T. 2. – №. 6

4. Ушинский К.Д. Избранние педагогические сочинения/ Человек как предмет воспитания. Опыт педагогик антропология (1861). — М.: Изд-во Академии наук РСФСР, 1945. — С.475.

5. Abdulakimovna S.S. (2021). O‘qituvchilarning o‘zini-o‘zi rivojlanishi kasbiy kompetentlikni oshirish. Jahon ijtimoiy fanlar xabarnomasi, 3(10), 58-60.

6. Botirova D.B. Pedogogik faoliyatda kasbiy so‘nish jarayonining ijtimoiy – psixologik asoslari //Jurnal Ta’lim va innavatsion tadqiqotlar – 2023. – T. 2. – №. 3.

7. Ботирова Д.Б. Scientific and theoretigal basics of the process of professional characteristics of the process of professional withdrawal in educators. Вестник интегративной психологии. – Ярославл, 2023. №30 – С. 105-109.

M U N D A R I J A

	Laziz TO‘RAYEV	So‘zboshi	3
	I. TILSHUNOSLIK MASALALARI		
1.	*Xurshidaxon ABDUSALOMOVA*	Arab va rus tillarida jins kategoriyasining chog‘ishtirma tahlili	4
2.	*Aziza AXMEDOVA*	Lakuna va uni bartaraf etish yo‘llari	8
3.	*Gulhayot JONGIROVA*	O’zbekiston-Koreya hamdo’stligida koreys tilining ahamiyati	13
4.	*Muhammadali NIG‘MATILLAYEV*	Samad Behrangiyning “ماهی سیاه کوچولو” hikoyasida ot turkumiga mansub arabcha o‘zlashmalar tahlili	17
5.	*Shahobiddin YO‘LDOSHEV*	اِسْمُ ‹‹كَانَ››أَخَوَاتُهَا و arab tilida “bo‘lmoq” va shu ma’nodagi fe’llarning grammatik tahlili	25
6.	*Nilufar NORSAFAROVA*	Kirish so‘z va modal so‘zlar	29
7.	*Shirin MIRSADIKOVA*	Sinxron va ketma-ket tarjimada klishe tushunchasi	34
8.	*Karimaxon SULTONOVA*	Dariy tilida toponimlarning leksik-stuktur tahlili	37
9.	*Gulnoza HAMIDOVA*	Arab va ingliz tillarida so‘z turkumlarining chog‘ishtirma tahlili	41
10.	*Xurshida SHARAPOVA*	Yapon va o‘zbek tillarining umumiy xususiyatlariga doir tilshunoslik masalalari	45
11.	*Farangiz MUXAMMEDOVA*	Koreys tili tarixi	48
12.	*Sevinch ULASHOVA*	Koreys tilining o‘ziga xos xususiyatlari	52
13.	*Dilbar XIKMATULLAYEVA*	Arab tilida fe’llar ma’nosining old ko‘makchilar ta’sirida o‘zgarishi (harakat fe’llari misolida)	57
14.	*Shohjahon SA’DULLAYEV*	Qadimgi eroniy va sanskrit tillaridagi mushtarak so‘zlarning fonologik va leksik-semantik jihatlari	62
15.	*Nurali ESHPO’LATOV*	Hozirgi zamon xitoy tilida *jisyangyuy (吉祥语)*larning shaklan tuzilishi	68

II. SHARQ MAMLAKATLARI ADABIYOTI VA MUMTOZ FILOLOGIYA

16.	*Feruza SULTANOVA*	O‘zbek va turk xalq ertaklarining qiyosiy tahlili (“Yetim qiz” hamda Zumrad va Qimmat ertaklari misolida)	77
17.	*Nafisa KARIMOVA*	Navoiyda nazariy ijod	82
18.	*Sohiba KARIMOVA*	Sharq adabiyotida tibbiyot ifodasi	86
19.	*Zuhraxon KOMILOVA*	Turgut O‘zakmanning “Devor ortida” asarida erk va ozodlik tushunchasi	89
20.	*Muhayyo BAXTIYOROVA*	Halikarnas baliqchisi hikoyalarida mifologik obrazlar talqini	93
21.	*Mohichehra RUSTAMOVA*	Matnazar Abdulhakim she’riyatida sevgi obrazi	98
22.	*Abduraxim SOLIJONOV*	Fors mumtoz she’riyatida talmeh san’atining qo‘llanilishi	103
23.	*Munisa KARIMOVA*	Maqollarni tarjima qilish usullari (Forscha maqollarning o‘zbekcha tarjimalari misolida)	108
24.	*Gulnora AHMADOVA*	Milliy o‘ziga xoslikning tarjimaga ta’siri	114
25.	*Soibjon MIRZAYEV*	Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asaridagi yusuf payg‘ambarning qissasi va uning talqinida komil inson sifatlari	118
26.	*Madinabonu IKROMOVA*	Qadimgi Sharq adabiyotshunosligi va Sharq adabiyotidan namunalar	123

III. TARIX, TARIXIY MANBASHUNOSLIK, SHARQ FALSAFASI VA MADANIYATI

27.	*Nargiza AKMALOVA*	Ikkinchi jahon urushi xotiralarda	128
28.	*Maftuna O‘KTAMOVA*	O‘rta asrlarda Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligidagi unvon va mansablar	131
29.	*Shoxijahon URUNOV*	Herodotus contribution to historiography	136
30.	*Farrux KAMOLIDDINOV* *Feruza USERBAYEVA*	Tarixiy manbashunoslikning dolzarb masalalari	138
31.	*Umidjon BAQOYEV*	Ashtarxonıylar sulolasi hukmdori Imomqulixon davrida diplomatik munosabatlar	143

32.	*Abduhoshim MAXAMADOV*	Log‘on atamasi va uning shakllanish tarixi	149
33.	*Qutlug‘nigor ABDURASULOVA*	Koreya madaniyati (taomlar misolida)	155
34.	*Otabek PO‘LATOV*	O‘zbek milliy hunarmandchiligidagi ijtimoiy munosabatlar va an’analar	158
35.	*Nilufar RUSTAMQULOVA*	Qadimgi Sharq falsafasi va madaniyati	164
36.	*Dilora TURSUNALIYEVA*	Abdurauf Fitratning “Johilona taassubg‘a misol” maqolasining ma’naviy-ma’rifiy tahlili	169
37.	*Yulduz G’ANIYEVA*	Navoiy ijodida tasavvufiy g‘oyalar	175
38.	*Alisher NIGMATOV Sevinch TILABJONOVA*	Konfutsiylik ta’limoti va uning falsafiy tahlili	179
	IV. JAHON SIYOSATI, XALQARO MUNOSABATLAR, XMI VA MAMLAKATSHUNOSLIK		
39.	*Gulnoza ILKHOMOVA Gulzinabonu MAMASOBIROVA*	The functions of Tourism Industry in International Economic relations	184
40.	*Gulshan ISMANDIYAROVA*	Turizm sektoriningrivojlanishi mamalakatda aholi bandligini ta’minlash omili sifatida	189
41.	*Iroda MIRZAMUKHAMEDOVA*	Current status of China’s industrial economic development	194
42.	*Sherzodbek NURMETOV*	Markaziy Osiyoda harbiy va jamoat xavfsizligini ta’minlashda O‘zbekistonning o‘rni	198
43.	*Komiljon HABIBULLAYEV Iroda MAMARASULOVA*	Janubiy Koreyada sug‘urta bozorining xususiyatlari	202
44.	*Samandar KHASANOV*	The role of social entrepreneurship, impact investment and CSR (Corporate Social Responsibility) in Uzbekistan	207
45.	*Feruza TOJIBOYEVA*	Iqtidorli yoshlar - yorqin kelajak bunyodkorlari	212
	V. PEDAGOGIKA VA METODIKA		
45.	*Maftuna ABDULLAYEVA*	Adabiyot darslarida raqamli multimedia vositalaridan foydalanish	216
46.	*Nargiza BAXRIYEVA*	O‘quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik — psixologik omillari	222

47.	*Dilnoza XUSANOVA*	Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning zamonaviy metodikasi	226
48.	*Madina FAYZULLAEVA*	Advantages and disadvantages of distance education	231
49.	*Nargiza NOROVA*	Fanlararo integratsiyalashning ahamiyati	235
50.	*Halida SADULLAEVA*	Arab harflarini ikkinchi til sifatida o‘rgatishning zamonaviy usullari	239
51.	*Gulbaxor YADGAROVA*	Buyuk mutafakkirlar ma’naviy qarashlari – pedagog kasbiy mahorati rivojlanishning asosiy omili sifatida	244
52.	*Mohijahonbegim SOBIROVA*	Til bilish darajasi yuqori bo‘lgan kadrlar tayyorlashning davlat miqyosidagi ahamiyati	248
53.	*Ra’no XAYDAROVA, Olima MAXKAMOVA, Oisha NAZAROVA*	O’zbekistonda ta’lim sifatini rivojlantirishda Yaponiya tajribasi	256
54.	*Ra’no XAYDAROVA, Gulzoda O‘TKUROVA*	Chet tili o‘qituvchilarida pedagogik kompetentlikni rivojlantirishning ahamiyati	264
55.	*Shokir URISHOV Xojiakbar MAMITALIYEV*	Sharq mutafakkirlarning pedagogik qarashlari	268
56.	*Shokir URISHOV Lutfiniso ABDUVAXOBOVA, Karomatxon AXMEDOVA*	Oilaning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni	272
57.	*Dilafro‘z BOTIROVA Iroda ISKANDAROVA*	Pedagogik faoliyatda kasbiy so‘nish jarayonining shakllanishiga stressning ta’siri	279

YOSH SHARQSHUNOSLAR ANJUMANI

2023-YIL 21-DEKABR

YOSH SHARQSHUNOSLAR ANJUMANI

2023-YIL 21-DEKABR

Mas'ul muharrir:
PhD. To'rayev Laziz

Muharrirlar:
PhD, dotsent. Nuriddinov Nodir
PhD, dotsent v.b. Abbasova Dilfuza
PhD. Uktamova Xilolaxon
PhD. Shamsiyeva Barno
PhD, dotsent Odilov Bobur
PhD. Ikramova Iroda
PhD. Bo'ronov Suhrob
PhD. Mustapova Hilola

Nashrga tayyorlovchilar:
Y. Kushanova

Maqolalarning mazmuniga ilmiy rahbar
va mualliflar mas'uldir.

Bosishga ruxsat etildi:15.02.2024
Bichimi 60x84 1/16 Shartli 18 b.t.
50 nusxada bosildi. Buyurtma№
Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining
kichik bosmaxonasi.
Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 20 uy.

©Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti. 2023-y.